Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak?

O'QITUVCHI kutubxonasi

A'zam Xoliqov

PEDAGOGIK MAHORAT

Darslikda nimalar aks etgan?

Ushbu qo'llanmada o'qituvchidan dunyoda sodir bo'layotgan global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish jarayonida ularning pedagogik mahorati, o'tkir irodasi, pedagogik-psixologik bilimlari, siyosiy savodxonligi, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishini talab qiluvchi g'oyalar ilgari surilgan.

A'zam Xoliqov

PEDAGOGIK MAHORAT

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 21-oktyabrdagi 396-sonli buyrug'iga asosan 5140800 – "Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi'ning talabalari (o'quvchilari) uchun darslik sifatida tasdiqlangan.

(Guvohnoma. № 396-19)

To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri

BAYOZ

TOSHKENT

UO'K: 378.091.12(075.8)
KBK 74.58ya73
X 72

A. Xoliqov
Pedagogik mahorat [Matn] : darslik / A. Xoliqov.-Toshkent: Bayoz, 2025.- 504 b.

ANNOTATSIYA

Mazkur darslikda pedagogik mahoratning nazariy-metodologik asoslari, mazmuni, funksiyasi, tarkibiy qismlari, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda o'qituvchilar va tarbiyachilarning mahoratini yoritish maqsad qilingan. Darslik kirish, o'n beshta bob, yetmish oltita fasl, o'rganilgan mavzularni o'zlashtirish uchun test savollari, xulosa, adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, bo'lajak kadrlarda kasbiy ijod, pedagogik mahorat ko'nikmalarini hosil qilish, pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish, notiqlik madaniyati, pedagogik texnika malakalarini shakllantirish kabi dolzarb muammolar yoritilgan.

АННОТАЦИЯ:

Целью учебника является раскрытие теоретико-методологических основ, содержания, функций, компонентов педагогического мастерства, вопросов мастерства учителя и воспитателя в управлении учебно-воспитательном процессом.

Учебник состоит из введения, 15 глав, 76 разделов, вопросов для тестирования, заключения, списка литературы. Общий объем учебника 504 страница, посвященных актуальным проблемам как формирование у будущих педагогических кадров навыков и умений профессионального творчества, развития педагогической навыки, педагогической мастерства, ораторской культуры, педагогической техники.

ANNOTATION

This book aims to illuminate the theoretical and methodological foundations, content, functions, components of pedagogical mastery, and the skills of teachers and educators in managing the educational process. The textbook consists of an introduction, fifteen chapters, 76 chapters, test questions for mastering the studied topics, a conclusion, a list of references, a total of 504 pages, and covers such topical issues as the formation of professional creativity, pedagogical skills in future personnel, the development of pedagogical abilities, the culture of public speaking, and the formation of pedagogical technical skills.

Taqrizchi: Feruza Ikromova Isroilovna – Oliy toifali o'qituvchi,
Toshkent viloyati Chinoz tumani 33-maktab

UO'K: 378.091.12(075.8)
BBK 74.58ya73

ISBN 978-9910-8681-3-9

MUNDARIJA

KIRISH

1-BOB. PEDAGOGIK MAHORAT MUAMMOSINING HOZIRGI ZAMONAVIY HOLATI

1.1. "Pedagogik mahorat" haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi....12
1.2. Pedagogik mahorat fanining vazifalari va asosiy tarkibiy qismlari....21
1.3. Pedagogik mahorat mezonlari haqida tasavvurlar va ularning rivojlanish darajasi....26
1.4. Pedagogik mahoratning namoyon bo'lish omillari, shartlari va uni egallash vositalari....32

2-BOB. O'RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARI VA YEVROPA OLIMLARI ASARLARIDA O'QITUVCHI KASBIY MAHORATINING YORITILISHI

2.1. Eng qadimgi davrlardan eramizning XII asrlarigacha o'qituvchilik faoliyati to'g'risida ijtimoiy qarashlar....42
2.2. Yunon faylasuflari asarlarida o'qituvchilarning kasbiy mahorati haqidagi g'oyalar....50
2.3. Yevropa olimlarining o'qituvchilar kasbiy mahoratini takomillashtirish to'g'risidagi fikrlari....51
2.4. Hozirgi davrda o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish masalalari....57

3-BOB. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING KASBIY FAOLIYATIDA PEDAGOGIK MAHORATNI RIVOJLANTIRISH TIZIMI

3.1. Pedagogik kadrlarni kasbiy jihatdan tayyorlash tizimi....68
3.2. O'qituvchilarning pedagogik mahoratida o'z-o'zini kamolotga yetkazishi va o'z-o'zini rivojlantirishi....76
3.3. O'qituvchining pedagogik mahoratni mohirona boshqarish tizimlari....83

4-BOB. O'QITUVCHILARDA KASBIY BILIMLAR VA PEDAGOGIK QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH

4.1. O'qituvchining pedagogik qobiliyati. Qobiliyatning pedagogik-psixologik tasnifi....94
4.2. Pedagogik faoliyatning samaradorligini ta'minlovchi qobiliyatlar komponenti....100
4.3. O'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish....106

5-BOB. O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATI

5.1. O'qituvchining fikr almashish bilan bog'liq xususiyatlari....117

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
inv № 1631

5.2. Pedagogik ta'sir ko'rsatish – kommunikativ qobiliyatning asosiy usul sifatida....119
5.3. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatida so'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish....123
5.4. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatida muomala madaniyati....125
5.5. O'qituvchining kommunikativ qobiliyat asosida pedagogik vazifalarni bajarishi....129

6-BOB. PEDAGOGIK NAZOKAT VA PEDAGOGIK ETIKA. SHARQONA ODOB-AXLOQ

6.1. Pedagogik nazokat haqida tushuncha. Uning mohiyati va xususiyatlari....138
6.2. O'qituvchi pedagogik nazokatida kasbiy dilkashlik....141
6.3. O'qituvchining pedagogik etikasi....145
6.4. O'qituvchining pedagogik takti....148
6.5. O'qituvchi kasbiy faoliyatida ziddiyatlarning pedagogik yechimi....151
6.6. Sharqona tarbiya va muosharat odobining o'qituvchi muloqotiga ta'siri...154

7-BOB. O'QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATIDA MULOQOT MAHORATINI SHAKLLANTIRISH

7.1. Muloqot va kommunikatsiya....162
7.2. Pedagogik kommunikatsiya hamda pedagogik muloqot mohiyati....165
7.3. Pedagogik muloqotning tarkibiy qismlari va funksiyalari....168
7.4. O'qituvchining kasbiy faoliyatida muloqot uslublari....171
7.5. O'qituvchining pedagogik muloqotida ijobiy natijalarga erishishini ta'minlovchi yo'nalishlar....176
7.6. Pedagogik muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshirishga oid muhim tavsiyalar....178
7.7. O'qituvchining muloqot madaniyati....185
7.8. O'qituvchining pedagogik muloqotida ilmiylik yoki san'atkorona yondashuv....188

8-BOB. O'QITUVCHI VA O'QUVCHILAR O'RTASIDAGI MULOQOT

8.1. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari....196
8.2. O'qituvchi va o'quvchilarning jonli muloqotini tashkil etish....200
8.3. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotni tashkil etish usullari va tarbiyaviy jarayon tamoyillari....204
8.4. O'qituvchining muloqot asosida sinf jamoasini boshqarish usullari....208
8.5. O'qituvchining sinf jamoasini muloqot asosida boshqarish bosqichlari....211

9-BOB. PEDAGOGIK TEXNIKA – PEDAGOGIK MAHORATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

9.1. O'qituvchining pedagogik texnikasi haqida ma'lumot.....218
9.2. Pedagogik texnika – o'qituvchi fe'l-atvorini namoyon etuvchi vosita sifatida.....220
9.3. Pedagogik texnika samaradorligini oshirishda ovoz, talaffuz qilish va to'g'ri nafas olish.....222
9.4. Pedagogik texnikaning o'ziga xos xususiyatlari.....225
9.5. Kasbiy faoliyatda pedagogik texnikani namoyon etishda o'qituvchining tashqi ko'rinishi.....228
9.6. O'qituvchining pedagogik texnika malakalarini egallash mahorati.....232

10 - BOB. O'QITUVCHINING NUTQ TEXNIKASI VA NOTIQLIK MADANIYATI

10.1. Notiqlik san'atining paydo bo'lishi tarixi.....240
10.2. Sharq mutafakkirlari notiqlik san'ati haqida.....242
10.3. Nutqning asosiy xususiyatlari. Til va nutq.....246
10.4. O'qituvining kasbiy tayyorgarligida notiqlik san'atining ahamiyati.....250
10.5. O'qituvchi nutqining shakl va uslublari.....253
10.6. Pedagogik faoliyatda nutq funksiyalari.....255
10.7. O'qituvchining nutq texnikasini egallashi.....260

11- BOB. O'QITUVCHINING TA'LIM JARAYONIDAGI MAHORATI

11.1. Hozirgi zamon o'qituvchisining pedagogik faoliyati.....271
11.2. Dars – ta'lim jarayonining asosiy shakli.....274
11.3. Ta'lim jarayonida o'qituvchiga qo'yiladigan talablar va ijodiy kayfiyatni boshqarish.....277
11.4. O'qituvchining ta'lim jarayonida kasbiy omilkorligi.....279
11.5. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi faoliyati va darsga tayyorgarligi.....283

12-BOB. O'QITUVCHINING TARBIYACHI SIFATIDAGI MAHORATI

12.1. Hozirgi kunda barkamol shaxsni tarbiyalash muammolari 289
12.2. Tarbiyachilik mahoratining mazmuni va faoliyat jarayoni.....292
12.3. O'qituvchining tarbiyachi sifatida pedagogik mahorati va uning tarkibiy qismlari.....296
12.4. Tarbiya texnologiyalarini modellashtirish.....301
12.5. Tarbiyaviy jarayon va tarbiya mazmunini modellashtirish.....304
12.6. Tarbiya qonuniyatlari va tarbiya mazmuni tamoyillarini modellashtirish.....308
12.7. Tarbiya texnologiyalarini qo'llashda pedagogik vositalardan foydalanish.....312

13-BOB. O'QITUVCHI PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

13.1. O'qituvchilar pedagogik mahoratini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati....320
13.2. O'qituvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonida kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishi....325
13.3. O'qituvchilarning kompyuter texnologiyalari asosida o'quvchilar bilimini nazorat qilishi....329
13.4. O'qituvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish malakalarini oshirish....334
13.5. O'qituvchilarning "kommunikatsion axborot madaniyati" tushunchasini o'zlashtirishi....339

14-BOB. O'QITUVCHILAR PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA KASBIY REFLEKSIYANING AHAMIYATI

14.1. O'qituvchi kasbiy faoliyatida refleksiyaning qo'llanilishi....348
14.2. O'qituvchining pedagogik mahoratini rivojlantirishda refleksiyaning o'rni va shart-sharoitlari....355
14.3. Pedagogik refleksiya – o'qituvchilar kasbiy mahoratini rivojlantirishning muhim omili sifatida....363
14.4. O'qituvchilarda refleksiv kompetentlikni shakllantirish funksiyalari....368

15-BOB. O'QITUVCHI MEHNATINI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH

15.1. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda pedagogik mahoratning ahamiyati....379
15.2. Obyektiv – shaxsiy xususiyatlarning o'qituvchi mehnatiga ta'siri....384
15.3. O'qituvchi mehnatida ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan munosabatlar....392
15.4. O'qituvchilar mehnatini to'g'ri tashkil etishda kasbiy portfolioning ahamiyati....397

KIRISH

Ushbu darslik nimaga xizmat qiladi?

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas’uliyatlar yuklangan. Avvalo, zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak? Mustaqillikdan keyin ushbu muammo ko‘plab olimlarning, ziyoli ahlining, hatto ota-onalarning diqqat e’tiborida bo‘ldi. O‘qituvchilar uchun zamonaviy, hozirgi kun talablariga javob bera oladigan metodik va o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar yaratila boshlandi. Bu muammo bo‘yicha izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar hozirgi kunda ham davom etmoqda.

Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Texnikaviy va kasb-hunar ta’limi to‘g‘risida”gi va “Ta’lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi konvensiyalarida, “Ma’rifiy, ilmiy va madaniy mazmundagi materiallarni olib kirish” to‘g‘risidagi Bitimida dunyo miqyosida o‘qituvchilar maqomini oshirish, xalqaro malaka talablari asosida o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini muntazam rivojlantirib borish masalalariga jiddiy e’tibor berilgan. Mazkur hujjatlarda ta’kidlanishicha, ta’lim muassasalari o‘qituvchilari hamda talaba – bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qitish sifatiga nisbatan teng sharoitlar yaratish, tajriba almashish va ularning pedagogik ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga ko‘maklashish, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni kiritishga e’tiborni qaratish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda ayni vaqtda xalqaro ilg‘or tajribalar asosida oliy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik mahoratni rivojlantirishning amaliy texnologik tizimi va pedagogik jarayonlarini takomillashtirish; pedagogik mahoratni rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirish; kasbiy refleksiya, o‘z-o‘zini faollashtirish, nostandart pedagogik yechimlar, pedagogik mahorat bo‘yicha tanlovlar hamda ko‘p darajali ta’lim tizimlarida pedagogik mahoratni rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan.

Yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar yoshlarimizning xorijdagi tengdoshlari bilan ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarda faol muloqotda bo‘lishi, ularning o‘z salohiyatini dunyo miqyosida namoyon yetishi uchun katta imkoniyat yaratmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi katta o‘rni va ahamiyatini e’tiborga olib, maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi hamda 11 yillik ta’lim qayta tiklandi. Bularning barchasidan yagona bir maqsad – O‘zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishi kerakligi ko‘zda tutilishi ta’kidlandi.Kreativlilik va innovatsion tafakkurni rivojlantirish muhim indikator sifatida e’tirof etildi. Shular

bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini globallashuv jarayoni talablari asosida takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi[1] Farmonida Respublikamizda so'nggi yillarda millatning ma'naviy salohiyoti va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim jarayonlarini barpo etishning me'yoriy asoslarini yaratish va kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637 sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son, 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son, 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" PF-134-son, 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevraldagi "Pedagog maqomi to'g'risida"gi Qonuni, 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4963-son, 2022-yil 11-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-241-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu darslik muayyan darajada xizmat qiladi.

Darslikda XXI asr o'qituvchisidan hozirgi kunda dunyoda bo'layotgan global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi jarayonida, ularning pedagogik mahoratini, o'tkir irodasini, pedagogik-psixologik bilimlarini, o'z mutaxassisligini chuqur bilishni va yuksak tafakkurini, siyosiy savodxonligini, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishini talab qilish g'oyalari ilgari surilgan.

Darslikda respublikamizdagi barcha ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar, o'qitish shakllarining optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlashi, asosan ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi va tarbiyachilarning ma'naviy qiyofasi hamda kasbiyv

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019y.,06/19/5712/3034-son.

mahoratlariga ko'p jihatdan bog'liq ekanligi ta'kidlanadi.

O'qituvchi barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur. Shu ma'noda mazkur darslikda pedagogik mahoratga ega bo'lish, o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshirishi, o'quvchilarga unga nisbatan hurmat yuzaga kelishi, kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratishi mukammal yoritilgan.

O'z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Sa'diy Sheroziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Husayn voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks yetishi zarur bo'lgan sifatlar xususida qimmatli ma'lumotlarni o'z asarlarida qizg'in bayon qilishgan. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ham ega bo'lolmaydi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi bolani tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholashi, yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf yetishi, pedagogik faoliyatda hamisha ilg'orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lay olishi darslikda o'z ifodasini topgan.

Darslikda pedagogik mahoratning asosiy maqsadi, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy mahorat, ijodkorlik ko'nikmalarini hosil qilish, kommunikativ va muomala madaniyati, pedagogik texnika malakalarini shakllantirish, o'qituvchilik, tarbiyachilik mahoratining kompetensiyalari, pedagogik mahorat kuzatuvchanlik, kreativlik, ijodkorlik, ilg'or pedagogik tajribalarni mustaqil o'zlashtirish sirlarini o'rgatishi, bo'lajak o'qituvchilar o'qish va o'qitish jarayonida diqqatni taqsimlash, bilim, ko'nikma va malakalar, psixik holatlarini boshqara olish va pedagogik texnika madaniyatini mustaqil o'zlashtirish malakalarini shakllantirishga ko'proq e'tibor qaratishlari bayon etilgan.

Hozirgi kunda darsliklar, internet tarmoqlari, kommunikatsion axborot texnologiyalari qanchalik rivojlangan bo'lmasin, pedagogik amaliyot, ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati oxir oqibatda o'qituvchining bilimiga, uning kasbiy-pedagogik mahoratiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Darslikda hozirgi paytda o'qituvchi mahoratini zamon talablari darajasida rivojlantirish yuzasidan tadqiq qilingan so'nggi ilmiy yangiliklar, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari, turli ziddiyatlarning kelib chiqishi va bartaraf etish holati, axborot kommunikatsion texnologiyalarning o'qituvchi kasbiy mahoratini oshirishdagi roli to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyitildi. Mazkur ma'lumotlar oliy ta'lim tashkilotlari o'qituvchi va talabalariga mo'ljallangan bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

1-BOB.

PEDAGOGIK MAHORAT MUAMMOSINING HOZIRGI ZAMONAVIY HOLATI

Tayanch tushunchalar:

Novatorlik; interaktiv xususiyatlar; kommunikatsiya texnologiyalari; neyrolingvistik; interfaol ta'lim texnologiyalari; mexanizmlar; novatorlik; interaktiv; professiogramma; konstruktiv, kommunikativ, informatsion, gnostik, loyihaviy, tashkiliy refleksiv-perseptiv qobiliyatlar; integral xislat; pedagogik kompetentlik; protsessual jihatlar; eksperimental yaxlit, motivatsiyaviy, axloqiy, intellektual, emotsional, diapazonli ma'lumotlar, professionalizm darajasi; Tendensiyalar; texnokratik; integral; protsessual; kommunikatsion axborot texnologiyalari; ziddiyatlar; globallashuv; subyektiv, verbal, maqbullik, integral ko'rsatkich, kreativ, intellekt, eksperimental, individual intellekt, fenomen.

1.1. "PEDAGOGIK MAHORAT" HAQIDAGI TASAVVURLARNING RIVOJLANISHI

Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahoratni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar va tasavvurlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Association for Educational Communications and Technology – AECT (AQSh), University of Columbiya (AQSh), University of Sorbonne (Fransiya), University of Freiburg (Germaniya), Belfield pedagogical university (Germaniya), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university (Buyuk Britaniya), Japan Institute of International Affairs (Yaponiya), Miyagi pedagogical university (Yaponiya), Seoul of National University (Janubiy Koreya), University of Chunang (Janubiy Koreya), Moskva davlat pedagogika universiteti (Rossiya)da olib borilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahoratni rivojlantirishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan, jumladan: pedagogik mahoratni rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirishning tashkiliy va strategik mexanizmlari takomillashtirilgan (Association for Educational Communications and Technology – AECT); pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarini tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimining samarali faoliyat ko'rsatish mexanizmlari takomillashtirilgan (Belfield pedagogical university); o'qituvchi kasbiy mahoratini rivojlantirishning tashkiliy-tuzilmali modeli yaratilgan (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university); bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratni egallash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish texnologiyalari ishlab chiqilgan (University of Columbiya: AQSh), University of Sorbonne (Fransiya), (University of Freiburg: Germaniya); talabalarda pedagogik mahoratni rivojlantirishning loyihaviy-konstruktiv texnologiyalari yaratilgan (University of Chunang: Janubiy Koreya); bo'lajak o'qituvchining ma'naviyatini shakllantirishning neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyasi takomillashtirilgan (Miyagi pedagogical university: Yaponiya); bo'lajak o'qituvchilarda o'z kasbiga sadoqatlilik pozitsiyasini rivojlantirishning kollaborativ texnologiyalari ishlab chiqilgan (Rossiya).

Taraqqiy yetgan davlatlarning pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda: O'qituvchining shaxsiy xislatlari va xususiyatlarini muayyan pedagogik qobiliyatlar guruhiga kiritgan holda rivojlantirish; pedagogik mahoratni o'qituvchi kasbiy faoliyatini zamonaviy talablar darajasida boshqarishni ta'minlash; pedagogik mahoratga pedagogik san'atning bir qismi sifatida yondashish; o'qituvchining pedagogik faoliyatiga interfaol ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish, o'qituvchilarning novatorlik hamda interaktiv kasbiy xususiyatlarini rivojlantirish.

Uyg'onish davrining yetuk namoyondalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy,

Abu Ali ibn Sino, Unsurul Maoliy Kaykovus, Abul-Qosim Umar Az-Zamaxshariy, Shayx Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz al-Koshifiy kabilarning ilmiy meroslari o'qituvchiga xos bo'lgan xususiyatlarni shakllantirishda hozirgi kunda ham muhim manba sifatida e'tirof etilgan.

N.N.Azizxodjaeva, B.R.Adizov, S.Bazarova, U.Sh.Begimqulov, R.H.Djuraev, Sh.Q.Mardonov, O.Musurmonova, N.A.Muslimov, U.N.Nishonaliev, N.Ortiqov, B.X.Rahimov, O'.Q.Tolipov, D.Sharipova, Sh.S.Sharipov, Sh.Shodmonova, N.G'. Egamberdieva akademiklar R.H Djurayev va X.I.Ibragimov va boshqalar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Pedagogik mahoratning turli psixologik jihatlari, o'qituvchining shaxs sifatida kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari L.S.Vigotskiy, P.Y.Galperin, M.G.Davletshin, V.V.Davidov, E.N.Linov, A.K.Markova, N.V.Kuzmina, S.L.Rubinshteyn, B.R.Qodirov, E.G'oziev va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

O'qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantirish muammolari B.A.Abdikarimov, V.I.Andreyev, G.V.Bragina, I.A.Zyazyun, N.N.Nikitina, V.V.Davidov, V.E.Jabakov, L.V.Zanina, S.B.Yelkanov, M.N.Yermolenko, M.V.Korepanova, A.E.Kondratenkov, N.V.Kuzmina, Y.N.Kulyutkin, I.D.Lushnikova, V.A.Mijerikov, I.P.Rachenko, V.P.Simonov, N.N.Tarasevich, A.K.Markova, A.P.Chernyavskaya, S.D.Yakusheva va boshqalar tomonidan tahlil qilingan.

Turli soha vakillari tomonidan bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, kadrlar tayyorlash tizimini axborotlashtirish sharoitida bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratini hozirgi globallashuv, fan va texnika, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti jarayonida rivojlantirishning pedagogik tizimini yanada takomillashtirish masalasi maxsus tadqiq etilmagan.

XVII asrdan XX asrgacha yashab o'tgan taniqli olimlar va mutafakkirlar tomonidan o'qituvchining "Pedagogik mahorat"i tushunchasiga keltirilgan qator ta'riflarning (*1-ilova*) tahlili pedagogik mahoratga bo'lgan asosiy qarashlarning tiklanish tarixini ochib berishga, hozirgi kunga kelib u haqda qanday tasavvurlarni yuzaga kelganligini his etishga va albatta ta'lim tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni aniqlashga imkoniyat beradi.

"Pedagogik mahorat"ga hozirgi kungacha sayqallanib kelingan ta'riflar va ularning asl mohiyati

1. Pedagogik mahorat – kasbiy bilim, qobiliyat va ko'nikmalarning o'qituvchi tomonidan mukammal egallanishi;
2. Pedagogik mahorat – pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beruvchi o'qituvchining kasbiy xususiyatlari majmuasi;
3. Pedagogik mahorat – o'qituvchi pedagogik faoliyatining mukammal va eng oliy darajasi;

4. Pedagogik mahorat – o'qituvchining kasbkorlikka yo'naltirilgan muhim sezgirlik hislatidir;
5. Pedagogik mahorat – ta'lim berish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalarni, o'qitishning turli metodlarini o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilishi, tanlab olinishi va qo'llanilishi;
6. Pedagogik mahorat – pedagogik va metodik bilimlarning barcha tarmoqlariga kirib kelayotgan integratsiya va modernizatsiyani tez o'zlashtirilishi va unga moslashib pedagogik faoliyat olib borish;
7. Pedagogik mahorat – o'qituvchi kasbiy faoliyatining hozirgi zamon talablari darajasida boshqarilishini ta'minlaydigan, ta'lim va tarbiyada muvozanatni pedagogik va psixologik jihatdan bir maromda saqlab, tartibga soluvchi jarayon.
8. Pedagogik mahorat – o'qituvchining madaniyati, yuksak ma'naviyati, xushmuomalaligi, pedagogik takti, insoniy xislatlari, estetik xususiyatlari, hissiyoti, kasbiy dilkashligi va odob-axloqini namoyon etuvchi faoliyat mezoni

1-chizma. O'qituvchining "pedagogik mahorat"iga hozirgi kungacha sayqallanib kelingan ta'riflar va ularning asl mohiyati

Har qanday murakkab zamonaviy axborot texnologiyalari, integratsiyalar, fan sohasidagi olamshumul yangiliklar avvalo, o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilib, so'ngra uning bilimi, saviyasi, qobiliyati va mahorati evaziga yosh avlod ongiga va tafakkuriga yetkaziladi. Yildan yilga o'qituvchining kasbiy faoliyatiga nisbatan talablar kuchaymoqda. Bu hozirgi zamon talabi sifatida e'tirof etilmoqda. Demak, o'qituvchiga nisbatan qo'llaniladigan "pedagogik mahorat" termini hech qachon o'z mavqeyini yo'qotmaydi, balki tobora takomillashib, boyib va zamon talablariga mos o'zgarib boraveradi.

Ularning farqlari bo'yicha ta'riflar va tasniflarni tavsiya qilib, aytishimiz joizki, barcha holatlarda ham mualliflarning bu boradagi mulohazalarini ijobiy yoki salbiy toifaga kiritish mumkin emas, zero "pedagogik mahorat" tushunchasiga nisbatan berilgan ta'riflar o'z davriga monand darajada ifodalangan. Ta'kidlash lozimki, ko'pgina tadqiqotchilar "pedagogik mahorat" deganda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beruvchi shaxs xususiyatlarini yoki qobiliyatlarining umumiy majmuini tushunadilar.

Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasida "pedagogik mahorat" tushunchasiga turlicha izoh berilgan. Jumladan, "Pedagogik ensiklopediya"da ta'rif quyidagicha izohlangan: "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis". Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql zakovatning yuksak ko'rsatkichi.
2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi,ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.
4. O'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Ushbu mas'uliyatli vazifalar o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo o'qituvchilarning kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, zarur shart-sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy-metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish lozim.

Shunga asosan, "Pedagogik mahorat" fani, mahoratli o'qituvchilarni tayyorlashga xizmat qiladi, o'qituvchilar va tarbiyachilarning kasbiy faoliyati sirlarini, mohirligini o'rgatuvchi va uni takomillashtirish to'g'risida ma'lumotlar berib boruvchi fan bo'lib, o'qituvchilarda pedagogik mahoratning mohiyat mazmunini, hozirgi zamon talablari doirasida kasbiy faoliyatini rivojlantirishning vositalarini, shakllarini o'rganadi.

Shunga asosan o'qituvchi pedagogik faoliyatida kasbiy mahoratining sermahsulligiga yordam beruvchi, muntazam uchrab turadigan o'qituvchi shaxsiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin: *pedagogik takt, pedagogik nazokat, pedagogik texnika, notiqlik san'atini mukammal egallaganligi, yuksak iroda, pedagogik-psixologik bilimlarni va o'z fanini mukammal bilish, tafakkurning boyligi, siyosiy savodxonlik, fikrlash doirasining kengligi,muloyimlik, xushmuomalalilik, diqqat-e'tiborlilik, jamoada o'zini tuta bilishlik, xulq-atvorga moslashuvchanlik, fidokorlik, insonparvarlik, ishbilarmonlik, intizomlilik, dilkashlik, mehribonlik, vijdonlilik, xayrixohlik, mafkuraning boyligi, tashabbuskorlik, samimiylik, onglilik, kuzatuvchanlik, qat'iyatlilik, tanqidiy fikrlarni e'tirof etishga moyillik, mantiqiy dunyoqarashining boyligi, bolalarga nisbatan mehr-muhabbat, kasbiy mas'uliyatni his etish, e'tiborlilik, tartib-intizomlilik, kirishimlilik, insof va diyonatlilik, vatanparvarlik, haqiqatgo'ylik, pedagogik erudisiyaning mukammalligi, ehtiyotkorlik, prinsipiallik, refleksiv xususiyatga egaligi, kamtarlik, adolatparvarligi, ziyraklik, botirlik, kamolot sari intiluvchanlik, odoblilik, axloqan poklik, yangilikka intilish va uni his qilish, o'z qadrini bilish, sezgirlik, emotsionallik* va boshqalar. O'qituvchi shaxsining kasbiy ahamiyatga molik bo'lgan bir nechta xususiyatlari K. Zaripov, L.M. Mitina, Y.P. Azarov, M. Ochilov, I.A.Zyazyun, N.V.Kuzmina, V.G.Kutsenko, E.I.Monoszon, A.V.Mudrik, V.A.Suxomlinskiy, E.N.Shiyanov, G.I.Xozyainov, I.P.Rachenko kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ta'riflangan. Ushbu xususiyatlarga – tanqidiylik, psixologik erudisiya, donolik, professional axloq normalari, samimiylik, emotsional yoqimlilik, emotsional tuyg'ularga beriluvchanlik, novatorlik, ijtimoiy faollik va boshqalarni kiritish mumkin.

I.P. Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida ta'riflab, shunday yozadi: *"pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik*

bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiy – estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat'iy irodasi tushuniladi"[1].

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, quyidagi to'rtta komponent pedagogik mahoratning **asosiy tashkil** etuvchilari hisoblanadi:

PEDAGOGIK MAHORATNI TASHKIL ETUVCHI KOMPONENTLAR

1. o'qituvchilik kasbiga sadoqat;
2. o'z fanining o'qitish metodikasini mukammal bilishi;
3. pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi;
4. pedagogik texnikani o'z o'rnida qo'llay bilishi.

2-chizma. Pedagogik mahoratni tashkil etuvchi komponentlar

Ko'pgina mualliflar pedagogik mahorat tushunchasini nafaqat shaxsning ijobiy xususiyatlari to'plami orqali, balki o'qituvchi shaxsiga tegishli bo'lgan xislatlar orqali ham ta'riflaydilar: o'z faniga qiziquvchanlik, ta'lim-tarbiya bera olishga nisbatan intiluvchanlik, o'quvchilarga g'amxo'rlik, o'quvchilarni barkamol inson darajasida rivojlantira olishga bo'lgan ishonch, kasbiy muvaffaqiyatlarga erishishga bo'lgan ijodkorlik, pedagogik mahoratning obrazliligi, yorqinligi, muvofiqligi, innovatsion faoliyatga tayyorgarlik, o'z xatti-harakatlarining ijtimoiy oqibatlariga javobgarlik hissi, nisbiy avtonomiya, o'z-o'zini rivojlantirishga doimiy intilish, pedagogik kasbiy refleksiyaning shakllanganligi (A.A.Bizyaeva, V.V.Vetrova, E.N.Pexota, I.A.Stesenko, I.G.Tatur, A.V.Xristeva va boshqalar), bola shaxsini – eng yaqin rivojlanish zonasi deb tushunish, insoniy munosabatlarning mavjudligi. Demak ta'kidlash joizki, tajribali va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari va shaxsiy xislatlari ro'yxatini yanada kengaytirish mumkin.

Ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan mualliflar, xususan L.M.Mitina, yuqorida sanab o'tilgan *pedagogik maqsadning qo'yilishi, pedagogik fikrlash, pedagogik refleksiya, pedagogik odob va axloq normalari* kabi o'qituvchi shaxsiy xususiyatlari va xislatlarini muayyan pedagogik qobiliyatlar guruhiga kiritgan. Pedagogik maqsadning qo'yilishi pedagogik mahoratning muhim xususiyatlaridan biri sifatida V.I.Zagvyazinskiy va A.K.Markovaning ishlarida ham tahlil qilingan. V.I.Zagvyazinskiy o'qituvchi faoliyatida pedagogik maqsadning qo'yilishini eng maqbul o'qitish variantlarini tanlash sifatida ta'riflaydi va muhit, bilim va qobiliyatlar darajasini *"tahsil oluvchilarning yaqin rivojlanish*

[1] Раченко И.П. Проблемы развития педагогического творчества учителей //Автореф дисс. канд. пед. наук– М. 24 стр.

zonasida ularning idrok qilish faoliyati" bilan o'zaro bog'laydi. A.K.Markovaning fikricha, "pedagogik maqsadning qo'yilishi – bu o'qituvchining o'z mehnatini ilmiy asosda rejalashtirishga nisbatan ehtiyoji va shu bilan bir vaqtda o'qituvchining jamiyat va shaxsiy maqsadlaridan kelib chiqib ishlab chiqarishga, keyin esa ularni o'quvchilarga taqdim etishga, so'ngra muhokama qilish uchun taklif kiritish"ga nisbatan qobiliyatidir. Ta'kidlash mumkinki, alohida olingan "pedagogik mahorat" tavsifini ta'riflashda farqlar ko'plab uchraydi. Berilgan ta'riflarning xilma-xilligi shu bilan shartlanganki, mualliflar pedagogik mahoratga nisbatan aniq tavsifni turli xil ilmiy va o'z zamonasiga xos bo'lgan pozitsiyalar orqali ko'rib chiqadilar.

V.P.Simonov "mahoratli o'qituvchi uchun zarur bo'lgan" quyidagi qobiliyatlar turkumini taklif qiladi:

- muammoli vaziyatlarni ilgari surish qobiliyati;
- har qanday vaziyatda o'ziga xos qarorni qabul qilish qobiliyati;
- oldindan ko'ra olish va bashorat qilish qobiliyati;
- hissiyotlarini jilovlay olish va o'zini boshqara olish qobiliyati;
- o'quvchilar va hamkasblari bilan o'zaro muloqotga kirisha olish qobiliyati;
- shaxsning kasbiy faoliyatida ijodkorlikning yuzaga kelishi uchun zaruriy bosqich hisoblangan "noaniqlik zonasi"ni yarata olish qobiliyati.

Y.P.Azarov, V.I.Grabeklis, I.A.Zyazyun, N.V.Kuzmina, V.P.Simonov, V.A.Slastyonin, V.A.Suxomlinskiy, G.I.Xozyainov, E.N.Shiyanov, A.I.Sherbakov kabi olimlarning fikricha, "pedagogik mahorat" tushunchasiga asosan *kasbiy bilim, qobiliyat va ko'nikmalar* kiritilishi kerak. Ular o'qituvchi xatti-harakatlariga qat'iyatlilik, asoslilik, tushunarlilik beradigan belgilar bo'lib keladi deb ta'kidlaydilar.

O'qituvchining "pedagogik mahorat"ini tavsiflovchi qobiliyatlar majmuasini qamrab olishga nisbatan tadqiqot ishlari olimlar tomonidan turli bochqichda olib borilgan. V.A.Slastyonin tomonidan taklif etilgan professiogrammada o'qituvchining yuzdan ortiq qobiliyati ta'riflangan. Biroq tadqiqotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, V.A.Slastyonin tomonidan taklif etilgan pedagogik qobiliyatlar turkumi hali tugallanmagan ro'yxatni bildiradi. Demak qobiliyatlar majmuasi "pedagogik mahorat" tushunchasiga nisbatan ta'rifni ishlab chiqish uchun asos bo'la olmaydi, sababi ular aniq bir chegaraga ega emas.

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
inv № 1631,

Hozirgi paytgacha e'tirof etilayotgan "pedagogik mahorat" tasnifi ilmiy adabiyotlarda quyidagi tarzda ifodalangan:

- idrok qilish, konstruktiv, kommunikativ, informatsion, tashkiliy;
- gnostik, loyihaviy, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy;
- refleksiv-perseptiv qobiliyatlar.

Ushbu tasnifda mualliflarning nisbiy qarashlari ma'no jihatidan bir-biriga yaqinligi kuzatiladi. S.A.Gilmanovning fikriga ko'ra, "pedagogik mahorat"ning mukammal tasnifini – o'qituvchining pedagogik texnikasidan izlab topsa bo'ladi. U pedagogik texnika – *"o'qituvchining shaxs sifatida o'zini yanada yorqinroq, ijodiy, mukammal ifoda eta olish hamda kasbiy pedagogik faoliyatda yuqori natijalarga erishish, o'quvchilarga o'z fikrini, bilimini qalban yetkaza olishga imkoniyat beradigan qobiliyatlar majmuasi"*ni bildirishini ta'kidlaydi. Pedagogik texnika – o'z xulq-atvorini boshqara olish qobiliyati va bola shaxsi, bolalar jamoasiga pedagogik ta'sir o'tkaza olish qobiliyatini o'z ichiga oladi - deydi. Ko'rinib turibdiki, V.P.Galaxovaning pedagogik texnikaga oid ta'rifini mukammal berilgan ta'riflar sinfiga kiritish mumkin.

Y.Y.Ivanov, N.V.Kuzmina, Y.N.Kulyutkin, V.G.Kutsenko, R.P.Skulskiy, N.N.Tarasevich kabilarning fikriga ko'ra, o'qituvchining pedagogik mahorati shaxsiy tuzilmaviy modelini yanada yuqori darajasini "o'ziga xos shaxs xislatlari va xususiyatlari kombinatsiyasi"ni ifodalaydigan pedagogik qobiliyatlar hosil qiladi. Mualliflar pedagogik qobiliyatlar turkumini *"bola shaxsini tarbiyalashda va bilim berishda yuqori natijalarga erishishning eng muhim omili"* sifatida e'tirof etadilar.

Ilmiy pedagogik adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, qator pedagogik qobiliyatlarning mavhum chegarasi kuzatiladi: o'z oldiga qo'yilgan maqsadga va natijalarga erisha olish qobiliyati; pedagogik mantiqiy fikrlash va mustaqil tahlil qila olish qobiliyati; ziddiyatni oldindan ko'ra olish, uning amaliy yechimini mustaqil hamda tez topish qobiliyati; boshqalarning ichki dunyosini tushuna olish qobiliyati; o'quvchilarga faol ta'sir ko'rsata olish qobiliyati va hokazolar.

Ushbu ta'riflar pedagogik qobiliyatlar guruhining bir-birini aslo to'ldira olmasligini ko'rsatadi. Gnostik, loyihaviy, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy, loyihaviy-gnostik va refleksiv-perseptiv; reproduktiv va ijodiy qobiliyatlar kommunikativ, konstruktiv, tashkiliy, ekspressiv, perseptiv, kreativ kabi qobiliyatlar "o'qituvchining pedagogik faoliyatga bo'lgan nisbiy imkoniyatlarini tavsiflovchi integral xislatlarini" ifodalaydi. Ba'zi tadqiqotchilar pedagogik qobiliyatlarni kasbiy faoliyatni qo'llashning asosiy sharti sifatida tahlil qilganlar.

Ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan muammoning asl mohiyati va tushunchalari rivojlanmoqda va pedagogik mahorat bilan bog'liq bo'lgan omillar (xususiyatlar, xislatlar,

qobiliyatlar, tavsiflovchi belgilar, ko'rsatkichlar miqdorining ortishi) hanuz davom etmoqda.

Nihoyat, ko'p holatlarda tadqiqotchilar tomonidan u yoki bu kontekstda muhokama qilinayotgan tushunchaning "qulay" ta'rifi qabul qilinadi, unda ko'pincha "pedagogik mahorat" hodisasining eng muhim jihati ma'lum darajada yo'qoladi yoki umuman yo'q bo'ladi. Masalan, G.P.Shedrovitskiyning ta'rifi bo'yicha, pedagogik mahorat – "o'qituvchi metodik san'atining ilmiy bilimlari, qobiliyatlari va ko'nikmalari hamda shaxsiy xislatlari sintezi" bo'lib, bunda protsessual jihatlar ochilmagan. O.A.Shiyanning ta'rifi bo'yicha, "pedagogik mahorat" – shaxsiy faoliyatning yanada faolligi, motivatsiyaning yuqori darajasidir" deyiladi, bunda faoliyatga muvofiq bo'lgan tavsif uchramaydi. O'xshash ta'riflar odatda yakunlangan shaklga ega emas, balki "ishchi" bo'lib hisoblanadi.

Ba'zi tadqiqotchilar pedagogik faoliyat qonuniyatlarini o'rganishda umuman "pedagogik mahorat" atamasidan voz kechadilar yoki uni turli xil atamalar bilan almashtirishga harakat qiladilar – ilg'or pedagogik tajriba, o'qituvchining ijodiy faoliyati, pedagogik kompetentlik va hokazolar. Pedagogik mahorat – o'qituvchining pedagogik faoliyatida turli vaziyatlar uchun xos bo'lgan eng muhim xislatlar majmui hisoblanadi. Chunki pedagogik faoliyatni o'rganishga bag'ishlangan, taxminan IX asrdan hozirgi davrgacha bo'lgan ilmiy adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, unda sodir bo'layotgan o'zgarishlar faoliyat shartlari o'zgarishiga javoban faqatgina "pedagogik mahorat" darajasi oqibati hisoblanadi hamda o'qituvchining pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga bo'lgan qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Aynan shuning uchun "pedagogik mahorat" – o'qituvchining kasbkorligi, pedagogik xislati, ya'ni kasbiy faoliyatining yuqori serunumligiga yordam beradigan iqtidor va qobiliyatlar yig'indisi sifatida ishimizda keng izohlanib tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqot maqsadi uchun, ehtimol, keng nuqtayi nazarlardan kelib chiqadigan va o'zida qandaydir darajagacha barcha turli qarashlarni mujassam eta oladigan "pedagogik mahorat" ta'rifi eng muhim yordamni ko'rsatishi mumkin. Bunday ta'riflar L.M.Abolin, N.V.Kuzmin, V.G.Kutsenko, R.X.Shakurov kabilarning ishida berilgan. Ularda "pedagogik mahorat"ga bo'lgan pedagogik faoliyat boshqaruvining butun jarayoni sifatida ba'zi bir qarashlarning belgilari mavjud. Bundan tashqari, barcha ilmiy tadqiqotlardagi "pedagogik mahorat"ga nisbatan berilgan ta'riflar yakunlanmagan deb hisoblanadi. Gap shundaki, ularda *"pedagogik mahorat"ning o'qituvchi pedagogik faoliyatida yuqori samaradorlikka erishishini ta'minlaydigan natijaviy tomoni aniq ifodalangan, lekin kasbiy faoliyatga erishishning hozirgi zamon nuqtayi nazaridan o'qituvchining aniq intellektual, motivatsiyaviy, irodaviy, shaxsiy, axloqiy va boshqa xususiyatlari belgilanmagan.*

Ba'zi tadqiqot ishlarida yuqori pedagogik natijaga barcha ta'kidlab o'tilgan va boshqa xislatlarning o'zaro ta'sirida yoki muayyan xususiyatlarning majmuasi borligida erishish mumkinligi ko'rsatilgan. Bu o'qituvchi kasbiy faoliyatining barcha qatnashadigan tarkibiy qismlarini funksional o'rganish (tizimli shaxsiy yoki faoliyatli) ba'zi bir zaruriyatini aks etadi, lekin bu o'zaro ta'sirning qonuniyatlari va mexanizmlari haqida aniq tasavvur bermaydi. Bundan tashqari, ba'zi mualliflar pedagogik faoliyatning motivatsiyaviy, axloqiy, intellektual, emotsional, irodaviy va boshqa ko'rsatkichlarining o'zaro aloqadorligi

muammosining qator ijobiy va salbiy jihatlarini oldindan tushunib olmasdan ularni birlashtirishga harakat qiladilar. Bunday "pedagogik mahorat" tushunchasiga nisbatan mavjud bo'lgan fikrlar cheklanganligini sun'iy bartaraf etish shubhasiz yoritilayotgan muammoning echilishini qiyinlashtirishi mumkin hamda o'z-o'zidan birgina ayrim nazariyani "mustahkamlash" bilan o'zgarmaydi va nafaqat nazariy taraqqiyot, balki pedagogik amaliyotning rivojlanishiga ham xizmat qila olmaydi.

Pedagogikada "o'qituvchining kasbiy mahorati" tushunchasiga nisbatan bir-biriga o'xshash ta'riflarni qo'llash va farqlashda shu narsa ham xalaqit beradiki, ushbu fanning yo'nalishlari, tarmoqlari nihoyatda ko'p bo'lib, ular zanjirsimon bog'lanib ketgan. Ularni tizimli tahlil qilishda bir-biri bilan almashtirib bo'lmaydi. "Pedagogik mahorat" muammosini nazariy va eksperimental o'rganishda bunday yondashish amalga oshirilmagan. Yaxlit, majmuali yondashishga nisbatan talablar uning tarkibiy qismlari yoki tarmoqlari miqdorini oshirish jarayoni bilan almashtiriladi. Vaholanki, "pedagogik mahorat" tushunchasi ta'rifini qurishda asosiy bo'lgan bunday qoidaga (oddiy yondashish) tayanib, nazariya va amaliyotda hech qanday tizimga birlashtirilmagan "pedagogik mahorat" omillariga tegishli bo'lgan keng diapazonli ma'lumotlarni to'plashga nisbatan biror qarorga kelishga qodir emasmiz.

Demak, shunday xulosaga kelish mumkinki, pedagogika fani sohasida amalga oshirilayotgan har qanday zamonaviy tadqiqotlarda, *"pedagogik mahorat" atamasi olib boriladigan pedagogik faoliyatning yuqori samaradorlikka erishishini belgilash uchun ishlatiladigan tushunchadir.* Bunday ta'rif "pedagogik mahorat"ni umumiy tushunilishiga to'g'ri keladi. Aynan shu hol hamda qat'iy "pedagogik mahorat" ta'rifini qo'llashga bo'lgan zaruriyat tadqiqotning asosiy atamalari va asoslarni izlashga qaratadi.

Hozirgi zamonaviy sharoitda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohot talablaridan kelib chiqib oliy ta'lim muassasalari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, umumiy o'rta ta'lim tizimidagi dolzarb muammolardan biri – o'qituvchi kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirishga nisbatan har tomonlama e'tiborni inobatga olib, ushbu tushunchaga nisbatan o'z ta'rifimizni keltiramiz.

Pedagogik mahorat – *o'qituvchining "jonli" pedagogik faoliyatida namoyon bo'ladigan, shakllanadigan va takomillashadigan, yuqori professionalizm darajasiga yetishishiga yordam beradigan, o'z-o'zini boshqarish jarayonining intellektual, irodaviy, emotsional va jismoniy jihatlari birligi bilan tavsiflanadigan tizimli o'qituvchi xislatidir.*

Pedagogik mahorat – *o'qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va h.k.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. U o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik – psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.*

Muntazam olib boriladigan jonli pedagogik faoliyatni hozirgi zamon talablari bilan

uzviylikda bog'lab ilmiy tadqiqotlar olib borilishi natijasida "pedagogik mahorat" hodisasi turli fikr va mulohazalar bilan boyitilib boriladi. Jonli pedagogik faoliyatda kuzatiladigan "pedagogik mahorat" tushunchasi ayrim belgilardan iborat bo'lgan ob'ekt kabi tasavvur qilinmasdan, bo'linmas yaxlit tushuncha hisoblangan, ya'ni o'qituvchini majburiy pedagogik bo'shliqqa kiritadigan munosabatlar tarmog'i hisoblangan. Shu tarzda "pedagogik mahorat" mohiyatini, uning asosiy tushunchalarini, tarkibini, barcha idrok qilish usullarini hozirgi zamon nuqtayi nazaridan ta'riflash uchun ma'lumotlar yetarli emasligini tushunish mumkin.

1.2. PEDAGOGIK MAHORAT FANINING VAZIFALARI VA ASOSIY TARKIBIY QISMLARI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi Qonunda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarda o'qituvchi-tarbiyachilarning mehnati naqadar yuksakligi, ular oldida barkamol avlodni tarbiyalashdek sharafli va mas'uliyatli vazifa turganligi ta'kidlanadi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor soha deb e'lon qilingan hamda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining quyidagi asosiy prinsiplari belgilab berilgan:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Ushbu prinsiplar zamirida o'qituvchi pedagogik faoliyatining asosiy mohiyati mujassamlangan bo'lib, uni hayotga tatbiq etish o'qituvchilar zimmasiga yuklatilgan. O'qituvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlovchi asosiy javobgar shaxs ekan, uning pedagogik mahorati ham hozirgi zamon talablari darajasida, jahon andozalariga mos ravishda shakllanishi kerak. Pedagog kadrlarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, raqobatbardosh darajada ularning kasbiy sifatlarini takomillashtirishni qo'llab-quvvatlash ta'minlanadi. Ushbu talablar zamirida ham o'qituvchining pedagogik mahoratini uzluksiz takomillashtirib borish naqadar muhim va davr talabi ekanligi ta'kidlanmoqda.

"Pedagogik mahorat" fanining vazifalarini "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari belgilab beradi. Uning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanish va islohotlarni insonparvarlik va demokratik tamoyillarga moslab olib borish;
- ta'lim mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda boyitib borishni ta'minlash;
- bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan dunyoqarashini rivojlantirishda milliy urf-odat va an'analarimizdan, boy adabiy merosimizdan samarali foydalanishning tezkor metod va usullarini ishlab chiqish va joriy etish;
- ta'lim va tarbiya jarayonini kelgusida o'qituvchilardan talab qiladigan darajada sifatini va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlash uchun normativ hujjatlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar, moddiy-texnika va axborot bazasi bilan boyitib borish;
- bo'lajak o'qituvchilarning yuksak kasbiy tayyorgarlik darajasi, malakasi, bilimi, madaniy va ma'naviy-axloqiy saviyasining sifatini zamon talablariga javob beradigan darajada oshirib borish;
- bo'lajak o'qituvchilarni yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarishga o'rgatish.

Pedagogik mahoratni egallashda kasbga oid nazariy va amaliy bilimlarni egallash, pedagogik jamoa bilan doimiy muloqotda bo'lish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to'g'riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini topish imkoniyati mavjud.

Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg o'qituvchining doimiy ravishda fanlarni mutolaa qilish bilan shug'ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: *"O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o'qituvchidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi".*

Hozirgi zamon fan va texnikasi jadal sur'atda rivojlanayotgan, zamonaviy axborot texnologiyalarining salmog'i keskin oshayotgan bir davrda o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar, ilgari fanning biror sohasida ro'y berayotgan yirik kashfiyot qariyb o'n besh yillik samarali va kishi zo'rg'a ishonadigan voqea hisoblangan bo'lsa, hozir har yili, hatto har oyda fan, texnika sohasida yangi kashfiyotlar yaratilmoqda, bilimlarning ilgari noma'lum bo'lgan yangi yo'nalishlari maydonga kelmoqda. Kishilarda bilimga bo'lgan intilish beqiyos darajada o'sib borayotir. Shuning uchun hozir kunda o'qituvchi faqat o'z fani bo'yicha emas, balki o'z faniga yaqin bo'lgan sohalardagi yangiliklarni bilishi talab etiladi.

Bizga ma'lumki, ilg'or jamiyat fuqarosining, xususan o'qituvchining ma'naviy boyligi uning keng dunyoqarashi, teran fikrlash layoqati, savodxonligi, yuksak insoniy fazilatlarga boyligi bilan baholanadi. *"Barcha illatlarning kelib chiqishi ilmsizlikdandir"* degan edi yunon faylasufi Sokrat. Shunday ekan, yosh avlodning yuksak bilim va tafakkur sohibi bo'lishi uchun barchamiz javobgarmiz. Bu javobgarlik ko'proq o'qituvchilar zimmasida.

Darhaqiqat, o'qituvchilarning obro'-e'tiborini ta'minlaydigan ilk vosita uning **tarbiyalanganlik darajasidir**. Birinchidan, o'qituvchi ma'naviy jihatdan sog'lom va keng fikrlay oladigan bo'lishi, o'z milliy qadriyatlari, urf-odatlari va millatimizning buyuk siymolari ijodiy merosini teran bilishlari kerak. Binobarin, o'zi tanlagan mutaxassislik va fan sohasida izlanishlar olib borgan, allomalarning hayoti va ijodini yaxshi bilishi hamda mantiqiy tafakkurga ega bo'lishi lozim. Bu o'qituvchi pedagogik mahoratining shakllanib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, milliy an'analarimiz, urf–odatlarimiz, qadriyatlarimiz asosida davlatimizning buyuk kelajagi bo'lmish yosh avlodga chuqur bilim berish o'qituvchilardan yuksak qobiliyatni va ishchanlikni talab qiladi.

O'qituvchilik kasbining shakllanishi davomida uning pedagogik mahorati takomillashib boradi. U har xil psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi. Turli ziddiyatlarga duch keladi. Bu o'z navbatida uni tinimsiz ijod qilishga, tarbiyaning har xil vosita va usullarini topib, mohirona qo'llashga majbur etadi. Tarbiya natijasida belgilangan maqsadga erishish uchun o'qituvchilar yillar davomida yig'ilgan tajriba va malakalariga tayanib ishlaydilar. O'quvchilarning nazariy hamda amaliy faoliyatida erishadigan barcha yutuqlari va ijobiy natijalari o'qituvchi pedagogik mahoratini namoyon etuvchi asosiy vositalar hisoblanadi. O'qituvchi pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini bilishi, uning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishi lozim. Quyida keltirilayotgan pedagogik mahorat fanining asosiy **tarkibiy qismlari** milliy an'ana va urf-odatlarimizdan kelib chiqib, hozirgi global rivojlanish davrida yanada to'ldirilib borilishi mumkin.

1. Nutq malakasi va texnikasini mukammal o'zlashtirish;
2. Tushunarli, ta'sirchan fikr va his-tuyg'ularni so'zda aniq ifodalash;
3. Mimik va pantomimik harakatlardan o'z o'rnida foydalanish;
4. Ma'noli va ochiq chehrali nigoh bilan qarash;
5. Hissiy psixik va tasodifiy holatlarda o'z his-tuyg'ularini jilovlay olish;
6. Turli vaziyatlarda tarbiyachiga xos bo'lgan ijodiy kayfiyatni boshqarish;
7. Kulgi va tabassumda samimiylikni e'tirof etish;
8. O'quvchilar bilan doimo yaxshi kayfiyat va rag'batlantiruvchi munosabatda bo'lish;
9. Savodli va sof adabiy tilda so'zlash;
10. Aniq imo-ishoralarni o'z o'rnida ishlata olish;
11. Ijodiy pedagogik qobiliyatini qo'llay bilish;
12. Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalana olish;
13. Muosharat odobiga doimo rioya qilish.

3-chizma. Pedagogik mahoratni egallash vositalari

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o'tmish qadriyatlari, O'rta Osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiylarni tayyorlash to'g'risidagi ma'lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, portal yangiliklaridan xabardor bo'lish, ilg'or xorijiy davlatlarning o'qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o'rganish jarayonida tarkib topadi. Yosh o'qituvchilarning, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zlarini kasbiy jihatdan takomillashtirib borish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga rivojlanib boradi. Ularni quyidagi **vositalar** asosida yanada rivojlantirish mumkin:

1. Mustaqil o'qib-o'rganish (pedagogika fanida ro'y berayotgan eng so'nggi yangiliklar haqida ma'lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, portal tizimi, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma'lumotlar, shuningdek, ilg'or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash).
2. Tajribali ustoz o'qituvchilar faoliyatini o'rganish (ta'lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib, vaqt va iqtisodiy nuqtayi nazardan samarali sanaladi.

Tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish, ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).

3. O'qituvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko'nikmalarni oshirib borish.
4. Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarlar, pedagogik o'qish hamda treninglar) da faol ishtirok etish.
5. Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida o'z tajribalarini oshirish, kasbi bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlarni o'rganish.

Pedagogik mahoratni egallashda guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to'g'riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini topish imkoniyati mavjud.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda o'qituvchilarning jamoada, ijtimoiy muhitda obro'-e'tiborini oshiradi, o'quvchilar orasida unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida yosh o'qituvchilarning kasbiy mahorati, bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish maqsadida qizg'in faoliyat olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi hamda Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Ta'lim sektorini rivojlantirish dasturi" loyihasi doirasida respublika hududlarida masofadan o'qitishning "Ta'lim-resurs" Markazlari tashkil etilgan. Ushbu faoliyat natijasida yosh o'qituvchilarning xorijiy mamlakatlarda kasbiy malakalarini oshirish imkoniyati tug'ildi. Maktablarga yosh o'qituvchilarni jalb etish va ularga har tomonlama amaliy yordam berish, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashish maqsadida 2009-yildan boshlab "Respublika yosh o'qituvchilar assotsiatsiyasi" o'z faoliyatini boshladi.

Mustaqillikka erishgach, birinchi prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi bilan 1-oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanmoqda.Mamlakatimizda an'anaviy ravishda "Yilning eng yaxshi pedagogi" Respublika ko'rik-tanlovi o'tkazilib kelinmoqda. Umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlar orasidan ilg'or va tashabbuskor o'qituvchilar aniqlanib rag'batlantirilishi, yosh o'qituvchilarda o'z kasbiga nisbatan hurmat va ehtirom uyg'otadi. 2006-yildan boshlab esa, "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'rik tanlovi o'tkazilib kelinmoqda. "Yil maktabi" – Respublika ko'rik-tanlovi o'qituvchilarga jamoa asosida ta'lim muassasasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni targ'ib etish uchun sharoit yaratmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'lim sohasidagi islohotlarning pirovard

natijalarini quyidagicha belgilab berdi: **"...avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik... Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz"**[1].

1.3. PEDAGOGIK MAHORAT MEZONLARI HAQIDA TASAVVURLAR VA ULARNING RIVOJLANISH DARAJASI

Pedagogik mahorat mezonlari muammosiga yondashish, ta'lim mazmuni, xususiyati, shartlaridagi o'zgarishlarni aniqlovchi zamonaviy ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning bosh tendensiyalaridan kelib chiqadi.

Hozirgi zamon nuqtayi nazaridan ta'limni rivojlantirishga asos soluvchi omillar quyidagilar hisoblanadi:

- ta'limning umummadaniy va gumanitar yo'nalganligini kuchaytirish, uni universallashuvi, texnokratik xususiyatini bartaraf etish;
- ta'limni jamiyat, mehnat bozori bilan integrallashtirish, ijtimoiy ahamiyatini obyektiv baholash; fuqarolik ta'limi vazifalarini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlarga nisbatan talablarning oshishi;
- birinchi navbatda bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lomligini mustahkamlash instituti bo'lishi kerak bo'lgan ta'limning insonparvarlik vazifasi;
- ta'limning mustahkamlashuvi, axborotlashuvi va ekologiyalashuvi;
- ta'limning kommunikativ vazifasi, ta'limning tarkibiy qismi sifatida kommunikativ madaniyatning ahamiyatini oshirish;
- ta'lim tizimi muassasalari doirasiga kirmaydigan muhit ta'limi (televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari, muzey ta'limi va h.k) ahamiyatini oshirish.

[1] Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi – 2020-yil, 17-yanvar.

Ta'kidlab o'tilgan ushbu omillarda ta'limning rivojlanishi insonning o'z-o'zini kasbiy, madaniy va ma'naviy jihatdan shakllanishida, uning shaxs sifatida kamol topishida pedagogik qo'llab-quvvatlash, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida fidokorona faoliyat ko'rsatishida, xulq-atvorining shakllanishiga qaratilgan ta'lim dasturlarining joriy etilishini ta'minlashga imkoniyat berishi lozim. Ushbu omillar maktab o'quvchisining ta'lim jarayonidagi faoliyatiga, barcha ta'lim muassasalarining kundalik faoliyat tarziga va fuqarolarni ma'naviy-axloqiy jihatdan takomillashtirishga, barcha fanlarga oid, dunyoqarashga ega va shaxsiy ta'lim mazmuniga hamda o'qituvchi pedagogik mahoratining rivojlanishi va protsessual mazmunining barcha faoliyat turlariga taalluqlidir.

Ta'limni hozirgi zamon talablari doirasida rivojlantirish uchun mazkur sohasiga mas'ul bo'lgan barcha mutaxassislarning pedagogik mahoratini shakllantirish darajasini ilmiy jihatdan asoslangan mezonlar, rivojlanish ko'rsatkichlari bilan qurollantirish kerak. Bu mezonlar pedagogik mahoratni yanada oshirish jarayonining mohiyati haqidagi hozirgi zamonaviy ilmiy tasavvurlarga to'g'ri kelishi va shu bilan birga barcha ta'lim muassasalari amaliy faoliyatida qo'llanilishi qulay bo'lishi kerak. Zero, har qanday darsliklar, innovatsion ta'lim texnologiyalari, kommunikatsion axborot texnologiyalari qanchalik rivojlangan bo'lmasin, ta'lim - tarbiya ishlarining muvaffaqiyati oxir oqibatda baribir o'qituvchining bilimiga, uning kasbiy mahoratiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

So'nggi yillarda faqat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati miqdoriy yoki ayrim shaxsiy va boshqa ko'rsatkichlari natijalariga ko'ra o'lchanib baholanib kelingan. Ta'lim samaradorligini zamon talablari darajasida oshirib borish muammosining hozirgi holatini aniqlash uchun o'qituvchining pedagogik mahorati darajasini qanday mezonlar asosida o'lchash mumkin? O'qituvchining pedagogik faoliyati natijalarini qanday o'lcham bilan baholanadi? Bu savollar mazmunida jamiyatimizning ta'lim muassasalari o'quv jarayoni samaradorligiga qo'yiladigan asosiy talablari va vazifalari mujassamlangan. Bunda shuni e'tiborga olish kerakki, pedagogik mahoratning asosiy mezonlari o'qitish jarayoni, uning ma'lum maqsad sari yo'nalganligi (pedagogik tamoyillar, ta'lim mazmuni mantig'i, prinsip va mazmunini qo'llashning pedagogik jihatlari) o'quvchini barkamol inson darajasida tarbiyalab, bilim va tafakkurini rivojlantir shga qaratilgan.

Ko'rinib turibdiki, o'qituvchining pedagogik mahorati mezonlari azaldan taniqli mutafakkirlar, allomalar, ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan. O'qituvchining pedagogik mahoratini o'rganish haqidagi muammolar tahlili, izlanishlar, ilmiy-tadqiqotlar barcha zamonlarda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan va hozirgi kunda ham davom etmoqda. Ta'lim va tarbiya ko'lamining rivojlanishiga qarab pedagogik mahoratni o'rganishning vosita va metodlari sezilarli darajada kengayganligi, mezonlarning mazmun va mohiyati yanada boyib borishiga sabab bo'lgan. Bu tendensiya uchun protsessual (intellektual, irodaviy, emotsional), faoliyatli va kasbkorlikka yo'naltirilgan pedagogik mahorat xususiyatlarini o'rganish pedagog olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy faoliyatlariga asos bo'lgan. Demak, ta'kidlash lozimki, hozirgi kungacha yig'ilgan ma'lumotlar pedagogik mahoratning subyektiv va obyektiv darajalarini yoritib beradi.

Bir qator tadqiqotchilar o'qituvchi pedagogik mahoratining asosiy mezoni sifatida

maktab o'quvchilarining ta'lim olish jarayonida erishgan yutuqlarini va ularning natijalarini e'tirof yetishadi. Bunda o'quvchilarning o'quv jarayonida bilim, qobiliyat va ko'nikmalar darajalariga ham alohida e'tibor beriladi.

O'qituvchining pedagogik mahoratini baholashda esa quyidagi faoliyat xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi:

- o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan bilimlar sifati;
- o'quv predmetini o'rganishga qiziqishi;
- o'quvchining shaxs sifatida ijodiy qobiliyatlari va irodaviy xislatlarining rivojlanishi.

O'quvchilarning ta'lim olishida mustaqil faoliyatga nisbatan qobiliyati hamda o'qituvchi kasbiy faoliyatining funksional natijalari quyidagi muhim tarkibiy qismlari bilan ajralib turadi: *ta'limda maqsadning o'quvchi oldiga to'g'ri qo'yilishi; ta'lim va ta'limdan tashqari faoliyat metodlari bilan qurollantirish; fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otish; o'quvchilar jamoasini jipslashtira olish; o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish va baholash.* Bu tavsiflarning qizg'in faoliyati tabiiy holdir, chunki pedagogik mahorat muammosi birinchi navbatda ta'lim sifati natijalari orqali hal etiladi.

O'qituvchining pedagogik mahorati darajasini baholashda o'quvchining bilimlarni o'zlashtirish faoliyati miqdoriy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda uning sifatiy belgilarini (tafakkurning kengligi, bilimlarning mustahkam o'zlashtirilishi, tizimliligi, anglanganligi, ularni amaliyotda ishlata olish qobiliyati va hokazo) ham e'tiborga olinishi zarur. Shu bilan birga, hozirgi kunga kelib mazkur muammoning to'laqonli hal etilishida o'quvchilarning turli yosh davrlarida aqliy va axloqiy rivojlanishlarining keskin bir-biridan farqlanishi tufayli psixologik jihatdan ishlab chiqilgan rivojlanish ko'rsatkichlari, o'qituvchi pedagogik faoliyatida hamda maktab o'quvchilari o'quv faoliyati ko'rsatkichlarining aniq tahlilini bilish juda qiyinlashgan.

Endilikda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, axborot berish va qabul qilish texnologiyalarining rivojlanib borishi, fan sohasidagi globallashuv bo'lajak o'qituvchilarga ulkan mas'uliyatlar yuklamoqda. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi o'quvchini pedagogik va psixologik jihatdan tushuna olishi, ta'lim va tarbiyaning birligini ta'minlay olishi, o'quvchiga nisbatan insonparvarlarcha munosabatda bo'lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholashi, o'quvchilar jamoasida yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf yetishi, pedagogik faoliyatda hamisha ilg'orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar tafakkuriga singdirilayotgan bilim va ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lay olishi lozim.

Pedagogik mahorat darajasini baholashda va pedagogik faoliyat sifatini aniqlashda, o'qituvchining subyektiv, jismoniy va xulq-atvoriga oid psixologik ta'sirlanishlari, uning

texnik harakatlari – ularning ma'lum bir maqsadga yo'naltirilganligi, tezligi, aniqligi, ritmi kabi turli xil ko'rsatkichlari o'rganiladi. Bu ko'rsatkichlar o'rganilayotgan faoliyat bilan alohida (pedagogik faoliyatni yaqindan modellashtiruvchi laboratoriya sharoitida) va chambarchas bog'liqlikda namoyon etiladi. Bir-biriga o'xshash tadqiqotlarda pedagogik mahorat mezonlari deb qayd qilinayotgan ko'rsatkichlarning faoliyatli, protsessual yoki shaxsiy tavsiflarining to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini uchratish mumkin.

Shubhasiz, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy faoliyatni olib borish (emotsional, madaniy, irodaviy, intellektual) xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va aniqlangan xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, pedagogik faoliyatning uzluksiz o'zgarib turadigan shartlarida o'rganilishi kerak. Biroq o'qituvchining bir-biriga o'xshash muvofiq va nomuvofiq ko'rinishdagi o'zaro aloqador xususiyatlari har doim ham quyi darajadagi pedagogik mahorat ko'rsatgichi bo'lib xizmat qilmaydi.

Kasbiy pedagogik faoliyat sharoitida o'qituvchining texnik, verbal, xulq-atvorga oid harakatlari va fiziologik ta'sirlanishlari makon va zamon tavsiflarining o'zaro bog'liqligi dinamikasi xususiyatlarini eksperimental o'rganishning o'tkazilgan sikli natijalari hamda shu o'zaro bog'liqliklar natijalarining pedagogik mahorat ko'rsatkichlari bilan qiyoslanishi, quyi darajadagi pedagogik mahoratning mezoni bo'lib xizmat qila olmaydi. Aksincha o'qituvchining pedagogik mahoratiga nisbatan ta'rifning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlashda va uzluksiz o'zgaradigan sharoitda faoliyat maqsadiga erishish uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlarning o'zaro ta'sirini bildiradi. Aytish joizki, agar tashxis qilishda ma'lum bo'lgan va hali idrok qilinishi kerak bo'lgan fiziologik, jismoniy, subyektiv xulq-atvor va boshqa ko'rsatkichlarning barchasi kiritilsa va e'tiborga olinsa, unda o'zaro ta'sirning turlari nihoyatda ko'p bo'lishi mumkin. P.K.Anoxinning ta'kidlashicha, *"...inson o'z faoliyatining barcha zahiralarini deyarli hech qachon ishlata olmasligini tushunishi uchun kasbiy faoliyatidagi "ko'plik"ni tasavvur qilishi kifoya"*[1].

Shuningdek, pedagogik mahorat mezonlarini aniqlash uchun pedagogikada va psixologiyada berilgan ko'plab turkumdagi tashxis ko'rsatkichlarini qo'llash o'zini oqlamaydi, chunki o'lchanayotgan ko'rsatkichlarning psixologik mexanizmi bir xil emas, masalan: *ta'lim oluvchi ob'ekt tovushining baland-pastligiga nisbatan o'qituvchining ta'sirlanishi va o'sha o'qituvchining o'quvchi xulq-atvoridan tez ta'sirlanishi, yoki jamiyatning urf-odat va an'analariga, mafkurasiga asoslangan ijtimoiy muhitga o'qituvchining moslashishi.*

Pedagogik mahoratga nisbatan tashxis masalasini hal etishda bunday yondashish yetarli emas, sababi u o'qituvchi kasbiy faoliyatida qo'llaniladigan o'ziga xos pedagogik shartlarni ko'zda tutmaydi va eng muhimi, faoliyatga, uning rivojlanishiga natijaning teskari ta'siri tizimlarini o'z ichiga olmaydi.

Pedagogikada "o'zaro maqbullik" atamasining keng tarqalganligiga qaramay, hozirgi kungacha ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinmagan. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarda

[1] Анохин П.К. Принципиальные вопросы общей теории функциональных систем //Принципы системной организации функций – М.: Наука, 2010. С. 23.

o'zaro maqbullikni *"vositalarni tanlashda hamjihatlik"* yoki *"muammolarni hal etishda hamjihatlik"* deb atashadi, ular bunda miqdoriy ko'rsatgichni ekspertning baho metodi va nazorat ishlarini o'tkazish yordamida o'lchanishi mumkinligiga tayanishadi.

Ba'zi olimlar yuqori pedagogik natijaga erishishga inson qobiliyatining ahamiyatini (o'qituvchining pedagogik tayyorgarlik darajasiga egaligi, yoki kasbkorlikka oid xislatlarining mavjudligi) ko'rsatishadi. Masalan:

- "Pedagog mehnatining natijalari" (N.V.Kuzmina);
- "O'quvchilarning bilimi, qobiliyati va ko'nikmalari darajasi" (M.N.Skatkin);
- "O'quvchilarning bilimlarni mukammal o'zlashtirishi" (M.I.Maxmutov);
- "Serunumlilik (ta'lim muassasasi o'quvchilari bilimi va tarbiyasida erishilgan natijalar darajasiga ko'ra)" (M.N.Skatkin);
- "Ta'lim va tarbiyada o'quvchi barkamol rivojlanishida yuqori natijalarning qayd etilishi" (G.V.Bragina).

Yana bir guruh olimlar – yuqorida ta'kidlanganidek, uning mazmuniga faoliyat ko'rsatkichlarining to'g'ri kelmasligi darajasini kiritadi: *"pedagogik vazifalarning obyektiv tuzilmasiga rejalarning mos kelishi", "maqsadga muvofiqlik (yo'nalishga nisbatan)"*. Ba'zi tadqiqotchilar, "o'zaro maqbullik" tushunchasini muhokama qilishda uning mazmuniga o'qituvchining tashqi muhitga ko'nikma hosil qilishida hamjihatlikka asoslanishini kiritishadi. Masalan, o'qituvchilar hamjihatlikda ta'limni turli xil ma'muriy boshqarish uslublarining maqbul zonalarini ajratishadi, bunda uslublar o'qituvchi tomonidan e'tirof etilib, o'z mehnatiga qo'yiladigan me'yor va talablar majmuasining ahamiyatini aniqlaydi, pedagogik jamoada ijodiy muhitning bo'lishi zarurligini ta'kidlaydilar.

Ba'zan hamjihatlikka mos bo'lmagan miqdoriy mezonlarni kasbiy faoliyatda qo'llanilishini o'rganayotgan tadqiqotchilar pedagogik mahoratni tashxis qilishda sifat va miqdor ko'rsatkichlarni qo'llaydilar.

Bu holatda hamjihatlikka asoslangan maqbul darajani izlash vazifasi quyidagi ko'rsatgichlarga to'g'ri keladi:

- o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan bilimlar sifati;
- faoliyat serunumligini baholashda tavsiflanadigan ko'rsatkichga;
- har xil ta'sirlanishlarning o'zaro bog'liqligi xususiyati haqidagi ma'lumotlarning yig'indisini bildiradigan integral ko'rsatkichga;
- o'qituvchining o'zgaruvchan xulq-atvoriga, har xil ziddiyatlar va turli pedagogik vaziyatlardan ta'sirlanishi bo'yicha aniqlanadigan asosiy ma'lumotlar yig'indisini bildiradigan integral ko'rsatkichga.

Pedagogik mahoratning biror ko'rsatkichi maqbul darajasining asl psixologik mazmuniga kelsak, o'qituvchi tashqaridan beriladigan, qayd qilingan pedagogik mahorat mezonlariga ega emas, balki mazmuniy, sifatiy va dinamik maqbullik mezonlari ichki tizimini o'zi ishlab chiqaradi.

Gnostik, kreativ, xulq-atvor, og'zaki nutq va boshqa intellektlar bilan bog'liq bo'lgan o'qituvchi pedagogik mahorati mezonlarining xususiyatlari shubhasiz, intellektlarning mazmunan boy, dinamik tavsiflari sifatida pedagogik mahorat darajasini belgilaydi. Shu bilan birga ilmiy tadqiqot ishlarida berilgan (masalan, pedagogik amaliyotda va ilmiy adabiyotlarda, eksperimental ma'lumotlar tahlilidan kelib chiqadigan) individual intellekt xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar har doim ham yuqorida sanab o'tilgan o'qituvchining tashqi ta'sirlanishlarini kuzatish natijasida olingan ma'lumotlarga to'g'ri kelmaydi. Demak o'qituvchi kasbiy faoliyatida tashqi xulq-atvor mezonlarining pedagogik mahorat darajasiga mos kelish masalasi juda murakkab masala hisoblanadi.

Keltirilgan natijalar asosida pedagogik mahorat mezonlariga qo'yilgan olimlarimizning "ekspert baholari" pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari uchun yetarli emas. To'g'ri berilgan baho pedagogik faoliyatning tarkibiy qismi tuzilmasi haqidagi qoidaga asoslanishi va barcha tarkibiy qismlarga tegishli bo'lgan mezonlarning har bir qismi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Pedagogik mahoratga berilgan tahlillar o'rtasidagi o'zaro bog'liklikni hisobga olmasdan "ekspert baholariga" tayanib, pedagogik mahorat mezonlari darajasini aniqlash qiyin. subyektiv ekspert shkalasi pedagogik mahorat darajasini ta'riflaydigan barcha belgilarga ega bo'lishi kerak. Pedagogik mahoratni mukammal baholay olmaydigan o'qituvchilar uchun kasbiy mahoratning alomatlarini qayd qilish vosita va metodlarini o'z ichiga oladigan dasturlar asosida o'qitishni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik mahorat metodlari, ko'rsatkichlari va qayd qilish usullarini tanlash va qo'llashda ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladigan yana bir sabab bor. Bu mavjud pedagogik mahorat fenomeni tushunchasi o'ta cheklanganligi, unda turli xil psixologik va biologik ko'rinishlarning xilma-xilligi – biroq ularning turli shakl va darajalarini bir butunlikda e'tiborga olmaslik bilan bog'liq.

Atamalar, tashxis metodlarining qo'llanilishi usullari, mavjud pedagogik mahorat mezonlarining qay darajada asoslanganligini o'rganib, ularning yetarli darajada katta miqdorda yig'ilib qolganligiga qaramay, shunday xulosaga kelish mumkin, ya'ni ular mazkur tushunchaga berilayotgan ta'rifning haqiqiy ma'lumotlariga umuman to'g'ri kelmaydi. Shunday taassurot yuzaga keladiki, *pedagogik mahorat tushunchasi pedagogik faoliyatda kuzatiladigan va qayd qilinadigan ko'plab dalillar to'planadigan ulkan idishni bildiradi.*

Pedagogik mahorat to'g'risidagi dalillarning bunday ortishi bilan olimlar pedagogik mahorat darajasi haqidagi fikrlarning bir-biriga mosligini kuchaytirishga, bu tushunchaning ahamiyatini oshirishga urinishadi. Ushbu muammolar asosida shunday xulosa chiqarish mumkin, hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan ma'lumotlar natijasida pedagogik mahorat darajasi, mezonlari, texnikasi to'g'risida ehtiyotkorona xulosalar chiqarib yondashilishi kerak. Bir butun sifatida pedagogik mahoratni bilish, o'rganish, ko'rish uchun uning qismlarini tushunish uchun butunning ma'nosi haqida tasavvurga ega bo'lish lozim.

Pedagogik mahorat har bir mamlakatda, millatda, elatda bir xil e'tirof etilib, yagona maqsad sari yo'naltiriladi. Biroq uning darajasi, mezonlari, metod va vositalari, turlari o'sha millatning urf-odatlaridan, an'analaridan, ma'naviy qadriyatlaridan, mafkurasidan, davlatning siyosiy yo'nalishlaridan kelib chiqadi.

Pedagogik mahoratni shartlovchi pedagogik faoliyat tavsifi turli xil va murakkab juz'iy o'zgarishlarga ega bo'lganligi uchun uni tashxis qilish mezonlari ham shu juz'iy o'zgarishlarning xilma-xilligini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, mavjud haqiqiy materialda ularni konseptual ravishda tartibga solish uchun yetarli asoslar yo'q. Demak, keyingi tadqiqotning majburiy sharti bo'lib yanada integrativ asoslanishga murojaat qilinadi.

Hozirgi vaqtda mana shunday integrativ pedagogik mahorat mezoni butun bir pedagogik faoliyat hisoblanadi, deb o'ylash mumkin. Kelgusida pedagogik faoliyatni boshqarish jarayoni mexanizmlarini professional – o'qituvchi bilan qabul qilingan maqsadga erishishning muvaffaqiyat ko'rsatkichlari asosida qurish uchun uning xususiyatlarini majburiy va tizimli qiyoslanishi bilan ochib berish zarur. Shu nuqtayi nazardan pedagogik mahorat mezonlari muammosi o'qituvchining turli darajadagi xarakter xususiyatlarini belgilovchi psixologik o'lchovni hosil qiladi.

1.4. PEDAGOGIK MAHORATNING NAMOYON BO'LISH OMILLARI, SHARTLARI VA UNI EGALLASH VOSITALARI

Pedagogikada bir qator ilmiy va metodik adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik mahorat o'z xususiyatiga ko'ra ikkita asosiy omillar guruhiga ajratiladi: bular pedagogik mahorat darajasini belgilovchi **tashqi va ichki** omillardir.

Pedagogik mahoratning shakllanishi va namoyon bo'lishi samaradorligini anglatuvchi tashqi omillar.

1. pedagogik mahoratni shakllantirish jarayoni mazmunining bo'lajak kasb xususiyati va mazmuniga to'g'ri kelishi;
2. bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlashni amalga oshiruvchi sifat va miqdor tarkibi;
3. ta'lim jarayonining vositalari va shakllari;
4. moddiy-texnik bazaning hal etilayotgan o'quv vazifalariga zamon talablari darajasida bo'lishi;
5. o'qituvchilar mehnatini moddiy rag'batlantirish;

6 ta'lim-tarbiyada o'quvchilarning sifat va miqdor sonini belgilovchi ko'rsatgichlar.

4-chizma. Pedagogik mahoratning shakllanishi va namoyon bo'lishi samaradorligini anglatuvchi tashqi omillar.

Pedagogik mahoratning shakllanishi va namoyon bo'lishi samaradorligini anglatuvchi *tashqi omillarga* obyektiv mavjud bo'lgan, turkumlashtirilgan vositalar kiritiladi.

O.A.Konopkinning ta'kidlashicha, hozirgi vaqtda subyektiv faoliyatning tashqi, obyektiv sabablarga bevosita bog'liqligi haqidagi qoida pedagogik mahoratni tahlil qilishda to'liq qanoatlantirmaydi. Biroq, amaliy xususiyatdagi tadqiqotlarda, ya'ni keng doirada amaliy vazifalarning turli xil faoliyatning aniq shartlari uchun muayyan miqdoriy ma'nolarni qidirishga yo'naltiradigan tadqiqotlarda har doim ham bu qoidadan tashqariga chiqish imkoniyati yo'q. Ko'p holatlarda "tashqi sabablar" ta'sirini bevosita ifodalovchi "ichki shartlar"dan chekkaga chiqib mavhumlashtirish holati sodir bo'ladi.[1]

Turli obyektiv pedagogik vaziyatlarda o'qituvchilarning pedagogik mahorat darajasi qanday namoyon bo'lishi haqidagi masalaning o'rganilishi eksperimental ma'lumotlarimizda quyidagicha aks yetgan. Tadqiqotda turli xil kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan 30 nafar turli yoshdagi o'qituvchilar ishtirok etishdi. Ularning barchasiga oddiy sinflar va kontrol sinflarda dars olib borish taklif qilindi. Dars jarayonida erishilgan natijalarni aniqlash maqsadida ularning pedagogik faoliyati xususiyatlari qayd qilindi. Ikki xil obyektiv vaziyatlar o'zaro ta'siri xususiyatlarini har bir o'qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida sifat va miqdor xususiyatlari bilan qiyoslanib, ularga to'g'ri kelmaydigan vaziyatlar aniqlandi. Masalan, pedagogik faoliyat xususiyatlari (o'zining mazmun va dinamik tavsiflari bo'yicha) ko'pincha o'qituvchilarda ikki xil pedagogik vaziyatlarda, ya'ni kontrol sinfda va oddiy sinflarda farqlandi. Mukammal pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchilarda pedagogik mahorat mezonlarining xilma xil o'zgaruvchanligi aniqlandi, quyi darajadagi pedagogik mahoratga ega o'qituvchilarda esa bunday o'zgaruvchanlik sezilmadi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bir xil pedagogik vaziyatlar – obyektiv salbiy yoki ijobiy o'qituvchilarda turli mazmundagi faoliyat tavsiflarini (harakatlar, jarayonlar) murakkablashtirishi mumkin. Ulardan biridagi faoliyat xususiyati yuqori darajadagi pedagogik mahoratning shakllanganligi haqida, boshqalaridagi faoliyat xususiyati esa, uning quyi darajasi haqida ma'lumot beradi.

Pedagogik mahoratning quyi darajasi tashqi omillarining pedagogik mahorat bilan qat'iy munosabati yo'qligini tasdiqlaydi. Tashqi obyektiv sabablarning ta'siri hayoliy obrazlar, tasavvurlar, intellektual harakatlar va jarayonlar orqali bevosita ifodalanishi sodir bo'ladi: tashqi sabablar mazmuni kasbiy faoliyat mazmuniga bog'liq, uning sifatiy tavsifi o'qituvchining ichki xususiyatlari va tajribasi bilan bog'langan.

Ushbu ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, bir xil tashqi omillar turli subyektlarda

[1] Конопкин О.А. Психологические механизмы регуляции деятельности. – М.: Наука, 2000.

mazmuniga ko'ra pedagogik mahorat ko'rinishlarini yuzaga keltirishi mumkin. Demak, tashqi omillar pedagogik mahoratni rivojlantiruvchi bir biriga bog'liq hodisalar sifatida ko'rib chiqilmaydi. Pedagogik mahorat darajasini tushuntirishga, faqat tashqi sabablar tahliliga asoslanib, ya'ni obyektiv tavsiflar orqali uning tabiatini ochib berishga bo'lgan har qanday urinish o'z-o'zidan amalga oshmaydi. S.L.Rubinshteyn *"...tashqi omillar mazkur hodisaga duch kelishi mumkin bo'lgan tashqi o'ziga xos ta'sirlar doirasini belgilaydi"* deydi.

Pedagogik mahoratda o'zaro ta'sir xususiyatlariga ko'ra **ichki omillar** o'z qiyosiy shakliga nisbatan, individ faolligining subyektiv mazmuniga taalluqli bo'lgan barcha vositalarni qamrab oladi. subyektiv shakl individual organizmning xususiyatidir, aniq individual ongning o'zgaruvchan asab tuzilmalari va asab markazlari tashqi holatda mavjud bo'lmaydi va obyektiv borliqning bevosita ko'zgu nusxasi bo'lib hisoblanmaydi.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili pedagogik mahoratning tashqi pedagogik vaziyatlarga bog'liqligini ko'rsatib, ichki omillarni o'rganishda quyidagi beshta asosiy jihatlarga tayanishini e'tirof etadi:

Ichki omillarni o'rganishda mavjud bo'lgan beshta asosiy jihat.

1. Pedagogik mahorat xususiyatlari fiziologik jihatdan tashkil qilingan, yetakchi analizatorlar yoki shaxs temperament turlari asab tizimining xususiyatlari bilan ifodalanadi;
2. Inson hayoti jarayonida egallangan mustahkam shaxsiy ijtimoiy-psixologik xislatlar pedagogik mahorat xususiyatlaridan kelib chiqadi;
3. Pedagogik mahorat insonning butun ruhiy faoliyati va xarakteridagi ayrim dinamik tavsiflar bilan mukammal bog'lanadi;
4. Pedagogik mahoratning rivojlanishi o'qituvchining asab tizimi va temperament xususiyatlariga bevosita bog'liqligi;
5. Analizator – tashqi taassurotlarni qabul qiluvchi tizim – sezgi organlari.

5-chizma

Insonning fiziologik jihatdan tuzilish xususiyatlarining pedagogik mahorat bilan bog'liqligi haqidagi taxminlar qadimgi yunon mutafakkirlari asarlarida ham e'tirof etilgan. Ular ichki tana, xulq-atvorning tashkiliy tizimlari va aniq shakllarini eksperimental o'rganish haqiqiy imkoniyatiga ega bo'lmasdan, amaliy kuzatishlar natijasida o'z xulosalarini keltirganlar. Masalan, gumanitar nazariya sohibi bo'lgan Gippokratning fikrga ko'ra, inson organizmidagi qon, safro, shilimshiq parda – limfalar, flegmalar, jigar faoliyati muayyan o'zaro bog'liqlikda turli xil sangvinik, xolerik, melanxolik va

flegmatik temperamentli kishilarning psixologik xususiyatlarini shakllantiradi. Hozirgi paytda ko'pgina mualliflarning fikricha, inson organizmidagi anatomik shakllar kasbiy faoliyatning sifat va dinamik xususiyatlarini belgilab beradi.

N.N.Paltishev, V.D.Neblitsin, V.S.Merlin, B.Z.Vulfov, A.N.Krilov kabi olimlar inson xulq-atvori tizimining mukammal shakllanganligi va kasbiy faoliyatining serunumligiga ko'ra asab tizimi xususiyatlarini o'rganuvchi tadqiqotlar olib borishgan.

Kasbiy faoliyatning serunumligi barchaga bir xil bo'lmasligi inson fiziologik, jismoniy xususiyatlariga ko'ra farq qilinishi to'g'risidagi muammolar ko'plab olimlarning tadqiqotlarida qayd etilgan. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, ushbu tarqoqlikning sabablaridan biri asab tizimining bir xil xossasini tashxis qiluvchi turli xil ko'rsatkichlarning nomuvofiqligi hisoblanadi. Shuning uchun inson kasbiy faoliyatida fiziologik xususiyatlarini kelgusida o'rganishga urinish, xususiy asab tizimi xossasini o'rganishdan voz kechishdan iborat bo'lishi kerak. Ularni V.D.Nebilisin ta'kidlaganidek, qandaydir faoliyat va xulq-atvorning mazmunan boy, sifat xususiyatlarini, butun miya-asab tizimi ko'rsatkichlarini faollashtirishga bog'lash qiyin. Individual shaxsiy yoki faoliyatli xususiyatlarning asosiy fiziologik determinantlari sifatida muallif muayyan miya tuzilmalari faoliyatini o'rganish yordamida aniqlanishi mumkin bo'lgan umumiy asab tizimi xossalarini ko'rib chiqishni taklif qiladi.[1]

Olingan natijalarni tahlil qilish asosida, quyidagilarni qayd qilish mumkin: ko'pgina tadqiqotchilar uzoq vaqt davomida inson faoliyati va xulq-atvori xususiyatlari fiziologik mohiyatini o'rganishga ulkan hissa qo'shganlar. Ular vaziyat va talablarga ko'ra inson faolligi va kasbiy faoliyatini uning xulq-atvori xususiyatlari fiziologik mohiyati, asab tizimining xususiyatlari boshqaradi deb ta'kidlaydilar. So'nggi paytlarda mustahkam asab tizimi faoliyatining vegetativ, biokimyoviy, elektroensefalografik, ekspressiv va boshqa ko'rsatkichlari ma'lum bo'ldi. Ularni faollashtirish (aktivatsiya) tushunchasi ham kiritilib, u kasbiy faoliyat sifatidan qat'iy nazar uning faqat ijobiy tomonini tavsiflaydi.

Psixolog olimlar V.K.Vilyunas va Erks-Dodson tadqiqotlarida inson fiziologik faolligining maqbul darajasi, bu kasbiy faoliyat samaradorligining uzoq muddat saqlanishiga erishishida deb ifodalangan. Ushbu hodisalar shuningdek, pedagogik mahoratning eng muhim morfologik xususiyatlarida, serunum kasbiy faoliyatni tashkil qilishda muhim rol o'ynaydi. Turli xil kasbiy faoliyat sharoitida ikkita qarama-qarshi ko'rsatkich qutblari yuzaga kelganda, masalan, asab tizimining o'zgaruvchan xususiyatlarining qizg'in kasbiy faoliyatida ham ijobiy, ham salbiy vazifani bajarishi mumkin.

Ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlarida inson faoliyati yutug'i, uning kasbiy mahorati shaxsning turli xil ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bog'lanishi tahlil qilingan. Masalan, X.Dj.Ayzenk – va Dj.Teylor – "Xavotirlikning namoyon bo'lish shkalasi (Шкала проявления тревоги)" asarida shaxsning nevrotitsizm, intro va ekstraversiya, yutuqqa erishish va muvaffaqiyatsizlikdan chetlanish motivatsiyasi, emotsional

[1] Небылицин В.Д. Основные свойства нервной системы человека как нейрофизиологическая основа индивидуальности. -М.: Педагогика, 1978.- С. 259-336.

tuyg'ularga berilmaslik kabi xususiyatlarini ijtimoiy-psixologik shaxs hislatlari darajasida turli savolnomalar va test variantlari hamda loyihaviy va psixomotor testlar yordamida aniqlashning professiogrammasini ishlab chiqqanlar.

Ushbu xislatlarning minimal darajasiga ega bo'lgan individ, masalan, *intro va ekstraversiya* o'rtasidagi *nevrotitsizm*ning bosiqlik xususiyati, yoki bu xislatning yuqori darajasiga ega bo'lgan individ *intro va ekstraversiya* o'rtasidagi muvozanatning buzilishiga ega bo'lgan individga qaraganda kasbiy faoliyatni yanada muvaffaqiyatli bajaradi. Biroq, boshqa qarashlarning yetarli katta miqdori mavjud – yuqori darajadagi xavotirlik va nevrotitsizmning xulq-atvor va faoliyat serunumligi maqsadga muvofiqligiga ijobiy ta'sir qiladi. Mualliflar fikricha, yuqori darajadagi asabiylik o'rnini, yuqori darajadagi intellektual xususiyatlarning rivojlanishi bosishi mumkin. Xavotirlanish inson organizmining asab tizimida uzluksiz o'zgarishlar bo'lib turadigan vaziyatlariga moslashishi tasdiqlangan.

Kasbiy faoliyatni shakllantirishni ta'minlovchi shaxsiy omillar tizimida, shubhasiz, boshqa ko'pgina ijtimoiy-shaxsiy xususiyatlarning, motivasion va inson dunyoqarashiga oid tavsiflarning o'rni beqiyos. Biroq, shu va ko'pgina boshqa omillarning tahlili natijalari shundan dalolat beradiki, ularning serunum faoliyati pedagogik mahorat darajasining shakllanishi uchun ahamiyati bir xil emas.

Shunday qilib, tahlillar natijasida quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

Birinchidan, o'qituvchining pedagogik mahorati, integrativ shaxs xislati sifatida aniqlanganligini e'tirof etiladi.

Ikkinchidan, pedagogik faoliyatni amalga oshirishga ta'sir qiluvchi omillarga ijtimoiy-psixologik, fiziologik va ruhiy-fiziologik ko'rsatkichlarning tashqi hamda ichki sabablari kiradi.

Uchinchidan, ayrim individual xususiyatlarning pedagogik faoliyat serunumligi ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligi haqidagi ma'lumotlarning bir-biriga o'xshamasligini hisobga olib, pedagogik mahorat muammolarining ba'zi tadqiqotlarida uning o'rganilishi "qandaydir tizim" sifatida olib boriladi.

To'rtinchidan, pedagogik mahoratni shakllantirishga nisbatan bunday majmuali yondashish oliy malakali o'qituvchi "modeli tavsifi"ni yoki pedagogning "yuksak modeli"ni qurish uchun qo'llaniladi.

Beshinchidan, o'qituvchining "Yuksak model"ini majmuali o'rganish va uni *rivojlantiruvchi bilimlarning* to'planishi natijasida amaliy yo'nalganlik bir butunlik, *funksional birlik, tizimli* tashkil etiladi.

Yosh o'qituvchilarning, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan tajribali o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari, o'zlarini kasbiy jihatdan takomillashtirib borish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga rivojlanib boradi. Ularni quyidagi vositalar asosida yanada rivojlantirish mumkin:

- Mustaqil o'qib-o'rganish (pedagogika fanida ro'y berayotgan eng so'nggi yangiliklar haqida ma'lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, portal tizimi, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma'lumotlar, shuningdek, ilg'or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash);
- Tajribali ustoz o'qituvchilar faoliyatini o'rganish (ta'lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib, vaqt va iqtisodiy nuqtayi nazardan samarali sanaladi. Tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish, ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir);
- O'qituvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko'nikmalarni oshirib borish;
- Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarlar, pedagogik o'qish hamda treninglar)da faol ishtirok etish;
- Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yyetakchi ta'lim muassasalarida o'z tajribalarini oshirish, kasbi bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlarni o'rganish.

Pedagogik mahoratni egallashda guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to'g'riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini topish imkoniyati mavjud.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda o'qituvchilarning jamoada, ijtimoiy muhitda obro'-e'tiborini oshiradi, o'quvchilar orasida unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. "Pedagogik mahorat"ga ta'rif bering.
2. Ta'lim sohasidagi islohotlarning pirovard natijalari nimalarda namoyon bo'ladi?
3. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi deganda nimani tushunasiz?
4. "Pedagogik mahorat" fanining vazifalari nimalardan iborat?
5. "Pedagogik mahorat" fanining asosiy tarkibiy qismlarini sanang.
6. Ta'lim sohasidagi Davlat siyosatining asosiy prinsiplarini sanang.
7. Pedagogik mahoratni egallash vositalari?
8. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari haqida gapiring.
9. Pedagogik mahoratning shakllanishi va namoyon bo'lishi samaradorligini anglatuvchi tashqi omillar nimalardan iborat?
10. Ichki omillarni o'rganishda beshta asosiy jihat nimalar?
11. Kasbiy faoliyatni shakllantirishni ta'minlovchi shaxsiy omillarni ayting.
12. Hozirgi zamon o'qituvchisi qanday ijobiy sifatlarga ega bo'lishi lozim?
13. Guruhli va ommaviy tadbirlarning pedagogik mahoratni egallashdagi xususiyatlari?
14. O'qituvchi "Sog'lom avlod uchun kurashchi" iborasiga o'z fikr mulohazangizni bildiring?
15. Hozirgi zamon o'qituvchisi kasbiga ta'rif bering?

Talabalarning mustaqil tayyorgarliklari uchun topshiriqlar

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o'z fikr-mulohazalaringizni bildirib, "Mustaqil ish" yozing:

1. "O'qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirish".
2. "Pedagogik mahoratni rivojlantirishda ichki va tashqi omillarning ta'siri".
3. "Mamlakatimizning XXI asr o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak"?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4312785.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent shahri, 2024-yil 1-fevral № O'RQ – 901.
4. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi – 2020-yil, 17-yanvar.
5. Abdullayev H. Yashil daftar hikmati. -Toshkent, O'qituvchi, 2000.

6. Анохин П.К. Принципиальные вопросы общей теории функциональных систем //Принципы системной организации функций – М.: Наука, 2010. С. 23.
7. Karimov I.I. O‘qituvchi, ustoz, murabbiy...: Talabalar va yosh o‘qituvchilar uchun. // Risola. – Qo‘qon DPI, 2009. – 99 b.
8. Небылицин В.Д. Основные свойства нервной системы человека как нейрофизиологическая основа индивидуальности. -М.: Педагогика, 1978.- С. 259-336.
9. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “Iqtisod–moliya”. 2009. – 240 b.
10. Ochilov M., Ochilova N. O‘qituvchi odobi. //Saylanma. – T.: O‘qituvchi, 1997. – 118 b.
11. Раченко И.П. Проблемы развития педагогического творчества учителей // Автореф дисс. канд. пед. наук– М. 24 стр
12. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomli TDPU, 2005.- 149 b.
13. Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o‘quv qo‘llanma (L. I. Ruvinskiy tahriri ostida). – T.: “O‘qituvchi”, 1991. – 376 b.
14. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” “Muloqot” jurnali, 1998-yil, 5- son.
15. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.- T.: Fan, 2005.- 206 b.
16. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T.: “Fan”, 2009. – 168 b.

2-BOB.

O‘RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARI VA YEVROPA OLIMLARI ASARLARIDA O‘QITUVCHI KASBIY MAHORATINING YORITILISHI

Tayanch tushunchalar:

Mudarris; mulohazalar; manba; mutafakkir; Iskandar xirodnomasi; samo va toatdir; irodat; notiqlik; akademiya; epos, lirika, drama, haykaltaroshlik, musiqa; me'morchilik san'ati; notiqlik; tafakkur; axloq; odob; ong; nutq texnikasi; dunyoqarash; istehzolar; mahorat; tajriba; axloqiy qobiliyat; nazariy bilim; o'qituvchi obrazi; kuzatish; baho berish; prinsip; tarbiya; ezgulik; go'zallik; qadr-qimmat; ta'lim; pedagogik mahorat; individual xususiyatlar; iste'dod; mulohaza; qobiliyat; pedagogik-psixologik takt; suhandon; g'oyaviy e'tiqod; bolalar jamoasi nazariyasi; adaptiv; modellar; dasturlar; klassifikatsiya; ijodkorlik; muvaffaqiyat; qobiliyat; konstruktiv sharoitlar; ijodiy aks; texnologiya.

2.1. ENG QADIMGI DAVRLARDAN ERAMIZNING XII ASRLARIGACHA O'QITUVCHILIK FAOLIYATI TO'G'RISIDA IJTIMOIY QARASHLAR

Ta'lim va tarbiya tarixini o'rganar ekanmiz, uning rivojlanishi, yillar davomida shakllanib borishi ustoz va shogird faoliyatiga bog'liqligining guvohi bo'lamiz. Eng qadimgi davrlardayoq mudarrislar (o'qituvchilar) ta'lim va tarbiyaning samarali ta'sir usullarini qidirib topib, hayotga tatbiq eta boshlaganlar. Buning natijasida eramizdan oldingi davrlardayoq ta'lim-tarbiyaning samaradorligiga erishilishi uchun o'qituvchiga bo'lgan talablar kuchayib bordi. O'qituvchi mahoratini takomillashtirish yuzasidan turli g'oyalar, nazariya va tavsiyalar paydo bo'la boshladi.

Miloddan avvalgi VII – VI asrlarda O'rta Osiyoda ishlab chiqarish kuchlarining ortib borishi bilan ijtimoiy hayotda ham ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Turk va fors tilida so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida o'zaro madaniy aloqalar yuzaga keldi. Yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlashda asrlar davomida qo'llanib kelingan, millatning o'ziga xos urf-odati va an'analariga mos ravishda tatbiq etilgan ta'lim va tarbiyaning noyob usul va vositalari, tadbir va shakllari vujudga kela boshladi. Hali maktab bo'lmagan, pedagogik fikr tarkib topmagan davrdayoq qabila a'zolari bolalarda mehnatsevarlik, axloq-odob, nafosat, do'stlik, mehr-shafqat, insonparvarlik sifatlarini tarkib toptirish sohasida aql-idrok bilan faoliyat olib borishgan. Ularning ta'lim-tarbiya usullari yillar davomida hayot tajribasi va sinovlaridan o'tib, sayqallanib o'sha davrning olijanob mevasi sifatida bizning davrimizgacha etib keldi.

VII asrlarga kelib O'rta Osiyoda ilm-fan va madaniyat sohasidagi rivojlanish bevosita ta'lim va tarbiya beruvchi mudarrislarning qizg'in faoliyati hamda ularga qo'yiladigan talablarning nihoyatda rang-barangligi va xilma-xilligi bilan diqqatga sazovordir. Ilk ibtidoiy jamoa va quldorlik davrlaridan boshlab, bolalarning ta'lim va tarbiyasiga javobgar ulamolar hamda mudarrislar nasihat, tushuntirish, rag'batlantirish, maqtash, namuna ko'rsatish, tanbeh berish, ta'qiqlash, majbur qilish, po'pisa qilish, qo'rqitish kabi usullardan foydalanganlar. Biroq mudarrislarning o'zi bolaga ta'lim-tarbiya berish uchun mukammal amaliy va nazariy bilimga ega bo'lishi kerak edi. Shu sababli mudarrislar savodli madrasa toliblari orasidan tanlangan va ma'lum muddat tayyorgarlikdan o'tishgan.

Markaziy Osiyoning Xorazm zaminida shakllangan eng qadimiy va *"o'tmishdagi dinlarning eng kuchlilaridan bo'lgan"* (Y.A.Rappoport) zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da bolalar ta'lim-tarbiyasiga oid qiziqarli ma'lumotlar berilgan. "Avesto"da ta'kidlanadiki, bilim va tarbiya hayotning eng muhim tirgagi bo'lib hisoblanadi. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u, avvalo, yozishni o'rganish asosida bilim olishi kerak, so'ngra esa odob-axloqi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin. Kohin muallimlari

oqsoqollar Kengashi tomonidan tanlanib, qat'iy belgilangan qoidalar asosida yoshlarga ta'lim va tarbiya berishgan.

"Avesto"da bolalarni o'qitish va tarbiyalash qoidalari quyidagi tartibda tavsiya etilgan:

- diniy va axloqiy tarbiya;
- jismoniy tarbiya;
- o'qish va yozishga o'rgatish.

Maxsus tayyorgarlikdan o'tgan muallimlar bolalarni yetti yoshidan boshlab, diniy tarbiyaga asoslangan maktablarga jalb qilishgan. Maktablarda "muqaddas yashil ko'ylak" kiydirish marosimi o'tkazilgach, kohin muallimlar bolalarni "Avesto"da keltirilgan madadkor kuchlarni ulug'lovchi ezgulik va yaxshilik ma'budasiga sig'intirishgan. Duolar quyidagi so'zlar bilan boshlangan: "Men zardushtiylik diniga sodiq qolishga va'da beraman, men yaxshi fikrlar, yaxshi so'zlar, yaxshi amallarga ishonaman...". Marosimdan so'ng muallimlar bolalarga sovg'alar ulashgan. Muallimlar mashg'ulotlar jarayonida bolalarga nisbatan jismoniy jazodan ko'ra ko'proq o'z diniga ishonch va e'tiqodni, dunyodagi barcha yaxshilik va ezguliklarning bunyodkori, ilohiy Axuramazdaga sig'inishni, odamlar boshiga yovuzlik va yomonliklarni yog'diruvchi Axrimandan esa nafratlanish hissini tarbiyalar edilar.

Bolalarning sog'lom va baquvvat bo'lib o'sishi bilan birga o'z dinining barcha rasm-rusumlarini to'liq bajarishiga, o'rganilayotgan fanlarni puxta bilishiga, axloqiy pokligiga, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, saxovatlilik kabi fazilatlarni egallashiga kohin muallimlari javobgar edilar. "Avesto"da yer, suv va havo muqaddas deb e'lon qilinib, muhitni iflos qilgan va uni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi urish bilan jazolanardi. Tabiatni asrash, uni obod qilish yoshlik davrlaridanoq ular ongiga singdirilgan.

Zardushtiylik dini ta'limotida ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlar majmuasi ezgulik va yaxshilik, jaholat va yomonlik, ta'lim va tarbiya haqidagi g'oyalari bilan ulkan pedagogik ta'sir kuchiga ega bo'lgan. Bunda tarbiyachi muallimlarning o'z kasbiga sadoqatini alohida ta'kidlab o'tish lozim. *Zardushtiylik dinida iymon uchta tayanchga asoslanadi: fikrning sofligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi.* Muallimlar ta'lim va tarbiyada yoshlar ongiga "bergan so'zning uddasidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiq va shartnomalarga qat'iy amal qilish, qarzni o'z vaqtida to'lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo'lish, halol mehnat, yaratuvchilik, yovuzlikni qalbdan chiqarib tashlash, iymon-e'tiqodli bo'lish, miskinlarga yordam berish, yaxshi niyat, yaxshi so'z va yaxshi amallarga qo'l urish" kabi insoniy tuyg'ularni singdirish uchun qizg'in mehnat qilganlar. Xullas, "Avesto" dunyodagi eng qadimgi din – zardushtiylik ta'limotining axloqiy falsafasi sifatida e'tirof etiladi.

Buyuk allomalarimiz o'z asarlarida mudarrislar kasbining nozikligini, mas'uliyatli

ekanligini va murakkabligini, shu bilan birga sharafli ekanligini, yoritib, muallimning mahorati, ularga qo'yilgan talablar, fazilatlariga oid qarashlar, shogirdlar bilan munosabatga kirishish mahorati, muomalasi to'g'risida o'z mulohazalarini bildirganlar. Uyg'onish davrining yetuk namoyondalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Unsurul Maoliy Kaykovus, Abul-Qosim Umar Az-Zamaxshariy, Shayx Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz al-Koshifiy kabilarning ijodiy merosi pedagogik tafakkurni shakllantirishda bo'lajak murabbiylarga muhim manba bo'lib hisoblanadi. Ular avlodlardan avlodlarga o'tib, o'z qimmatini yo'qotmagan mudarrislarni, tarbiyachilarni tayyorlash tajribalarini umumlashtirib, boyitib borishgan. Zero, insoniyat kelajagi va kurrayi zaminning gullab yashnashi faqat ta'lim va tarbiyaga bog'liq ekanligini buyuk mutafakkirlar chuqur his qilishgan. Shuning uchun muallimlar kuchi va g'ayrati bilan barkamol avlodni tarbiyalash ularning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashab o'tgan allomalarning bu borada o'z o'rni va hurmati bor. Barkamol avlodni tarbiyalash, bunda muallimning o'rni to'g'risida allomalarimiz ijodiy merosidan juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin.

Abu Nasr Forobiy (873-930) O'rta Osiyo xalqlari madaniyatini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan olimdir. Forobiy arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqani muhim tarbiyaviy fanlar deb atadi. Ushbu fanlarni o'rgatuvchi o'qituvchini har tomonlama mukammal bilimga va tajribaga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Forobiy ta'limotiga ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayoni tajribali va bilimli o'qituvchilar tomonidan tashkil etilishi, boshqarilib turilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, chunki "har bir bola o'zicha narsa va hodisalarni bila olmaydi hamda baxtga erisholmaydi. Unga buning uchun o'qituvchi lozim"[1].

Ta'lim va tarbiya berishda "...ustoz shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zulm, shogird dilida ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordi-yu ustoz juda ham yumshoq ko'ngilli bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib qoladi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarning fe'l-atvoriga qarab ta'lim-tarbiyaning "qattiq" yoki "yumshoq" usullaridan foydalanishi mumkin" deydi. Bunda ustoz-mudarrisga quyidagi talablarni qo'yadi:

- *Birinchi yo'l:* tarbiyalanuvchilar o'qish va o'rganishga ishtiyoqmand bo'lsalar, ta'lim-tarbiya jarayonida mudarris tomonidan yumshoq usullar qo'llaniladi. Bunda u qanoatbaxsh so'zlardan foydalanadi, chorlovchi, ilhomlantiruvchi gaplar aytib o'quvchida ko'nikma va malakalarni vujudga keltiradi, natijada o'quvchining iqtidori uyg'onib, g'ayrat-shijoati bilan bilim olishga, kasb egallashga intiladi;
- *Ikkinchi yo'l:* tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsalar, mudarris tomonidan qattiq, ya'ni majburlovchi usullar qo'llaniladi. Bu, asosan, gapga ko'nmovchi ba'zi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu usul natijasida o'quvchi nazariy bilimlarni o'rganishga astoydil kirishadi, fazilati yaxshi bo'lib, kasb-hunarlarni va juz'iy san'atlarni egallashga intiladi. Maqsad ularni fazilat egasi qilish va kasb-hunar ahillariga aylantirishdir (o'sha kitob, 198-bet).

[1] Forobiy. Fozil odamlar shahari. – T.:, A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashri, 1993, 122-bet

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048) Sharq Uyg'onish davrining qomusiy olimlaridan biri, tarbiyashunos olim, umumjahon tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlar rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatgan buyuk aql zakovat sohibidir. Alloma asarlarida ta'lim-tarbiya birligi va axloq masalalariga yetuk tarbiyashunos olim sifatida yondashgan, chunonchi, "Minerologiya", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston" kabi asarlarida pedagogika va psixologiyaga oid noyob fikr-mulohazalarini va ma'rifiy-didaktik qarashlarini bayon etdi. Bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalash jarayonida dunyoviy fanlarni bir-biri bilan bog'lab turli mavzularda mulohazalar yuritishni ta'kidlab: "Bizning maqsadimiz o'quvchilarni toliqtirib qo'ymaslikdir, bir mavzuni qayta-qayta takrorlab o'qib berish o'quvchini zeriktiradi, xotirasini susaytiradi. Agar o'quvchi bir mavzudan boshqa bir yangi mavzuga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bir bog' boshlanadi. Bola ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa bolaga rohat bag'ishlaydi, deb behuda aytilmagan"[1],– deydi.

Beruniy mamlakatning obodonligi ilm-fanning ravnaqi tufayli deb aytadi, yoshlarning baxt-saodati va kamoloti esa ularga bilim va ma'rifat beruvchi mudarrislarga bog'liq deb ta'kidlaydi. Ilm va ma'rifat sari intiluvchi tolib va mudarrislarga deydiki: "Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko'r qilib qo'yadigan nafs va turli buzg'unchi holatlardan, qotib qolgan turli eski urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko'zlikni quli bo'lishdan ozod bo'lmog'i darkor"[2]

Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'z asarlarida inson kamolotida uch narsa – irsiyat, muhit, tarbiya muhim rol o'ynashini ta'kidlab, bunda mudarrislar bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarib, shu uch holatga javobgarlik hissi bilan yondashishini uqtiradi.

Mudarrislarga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- Bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish;
- Berilayotgan bilimning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish;
- Ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish;
- O'quvchining xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini nazorat qilish;
- Bolalarni fanga qiziqtira olish;
- Berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
- Bilimlarni o'quvchilarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda tushunarli olib borish;
- Har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish.

[1] Beruniy. Tanlangan asarlar. 1 jild, – Toshkent, "Fan", 1968, 106-bet

[2] Beruniy. Tanlangan asarlar. 1 jild, – Toshkent, "Fan", 1968, 40-bet.

Unsurul Maoliy Kaykovusning (milodiy 1021-1022-yillarda tug'ilgan) "Qobusnoma" asarida ilk bor notiqlik san'ati maktablarining Sharq mamlakatlarida rivojlanish tarixi bayon etilgan hamda o'sha davr notiqlari haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu asar hozirgi global o'zgarishlar davrida insonni ma'naviy jihatdan kamolotga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur noyob asar ko'plab Sharq va G'arb tillariga tarjima qilinib shuhrat qozongan.

Kaykovus o'z asarida har bir yoshni aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasida turmush tajribasi muhim ahamiyat kasb yetishini aytadi. Bolalarni faqat yaxshi mudarris tarbiyani hayot bilan bog'lagan holda kamolotga yetkazish mumkin deb, uning yo'llarini va usullarini bayon etgan.

Kitobda javonmardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazariyasi ko'zda tutilgan:

- Kaykovus bilim haqida;
- Hunar va turli kasb egalari haqida;
- Turmush va xulq-odob qoidalari haqida;
- Jismoniy yetuklik haqida.

Kaykovus mudarrislarning axloqli ekanligini birinchi belgisi, uning suxandonligida deb biladi va *"Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir"* deydi. Suhandonni shogirdlarga notiqlikda rost so'zlash kerakligini ta'kidlaydi.

U so'zlarni to'rt xilga bo'ladi: birinchisi – bilinmaydi va aytilmaydi, ikkinchisi aytiladigan va biladigan, uchinchisi - ham bilinadi, ham aytishga, bilishga zaruriyati yo'q, ammo aytsa ham bo'ladi. To'rtinchisi – biladigan va zaruriyat bo'lmasa aytilmaydigani. Eng yaxshisi to'rtinchisi, ya'ni biladigan va aytilmaydigani, deydi. So'zlaganda andishalik bo'lish, sovuq so'zlik bo'lmaslik, kamtarlik, maqtanmaslik, birovning so'zini diqqat bilan eshitish odoblarini ta'kidlab o'tadi.

Odamlarni ham to'rt xilga bo'ladi: birinchi xil kishilar ko'p narsani biladi va yana bilgisi kelaveradi. Bular olim va fozillar bo'lib, ularga bo'ysunish kerak, deydi. Ikkinchisi, bilmagan narsani bilishga harakat qiladi, ular qobil kishilar bo'lib, bunday kishilarni o'qitish va o'rgatish kerak. Uchinchisi, bilganini ham bilmaydi, go'yo uyquda yashagandek, ularni uyg'otish kerak. To'rtinchisi, bilmaydi va bilmaganini ham tan olmaydi. Bular johil kishilar bo'lib, ularni o'qitish befoyda, ulardan qochish kerak, deydi.

Abul-Qosim Mahmud Ibn Umar Az-Zamaxshariy (1075-1144) jahon ilm-fani va madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan mashhur olim va adibdir. U o'z asarlarida halollik va pokizalikni, ilmga muhabbatni, mardlik va olijanoblikni ulug'laydi. Ulug' mutafakkir "Navobig' ul-kalim" ("Nozik iboralar") asarida kishilar ilmli bo'lish, o'qitish, yozish bilan hosilu mukammal bo'ladi, olim kishi oqil, bilimdon va chiroyli xushxat yozuvga ega bo'lsa, bu uning kamolotga yetganligidan dalolatdir, deydi. Asarda mudarrislar to'g'risida noyob fikrlar bildirilgan: *"Murabbiy o'qib tursagina murabbiy bo'la oladi, agar o'qishni to'xtatib*

qo'yar ekan, unda murabbiylik o'ladi"[1].

Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy XIII asrda Eronda yashab ijod qilgan yirik shoir va mutafakkirdir. U faylasuf-shoir bo'lishi bilan birga tajribali murabbiy ham bo'lgan. Shoir "Guliston" asarida o'z davri mudarrislarini turli toifaga bo'lib, ularni ta'riflaydi. Qattiqqo'l o'qituvchilarni *"..basharasi tirishgan, tili zahar, yomon xulqli, odamlarni ranjitadigan, gadoy tabiatlik, ochko'z, uni ko'rishi bilan shogirdlarining kayfiyati uchar"*, shogirdlar undan bilim va tarbiya ololmaydilar. Yana bir toifadagi o'qituvchilar *"...sodda, yaxshi va yumshoq ko'ngilli odam. Unar-unmasga so'zlamas edi va bolalarni ranjitadigan so'zlar og'zidan chiqmas edi. Uning farishtadek axloqliligi va mehribonligini ko'rgan bolalar murabbiyni mensimay qo'ydilar. Uning yumshoq tabiatlik ekanligini bilishib, ilmni ham o'rganmadilar. Alqissa, bolalar o'yin va to'polonga berilib vaqtni bekorga o'tkazdilar"*.

Bayt: Ustod muallim bo'lsa beozor,
Go'dak eli bozorda xarsang o'ynar.

Bu holatga Shayx Sa'diy Sheroziy ikki xil ta'rif beradi. Birinchidan, Sa'diy yashagan davrda ham, undan keyingi davrlarda ham maktabda o'quvchilarni qattiqqo'llik bilan o'qitganlar. Ikkinchidan, Shayx Sa'diy bu holatni o'z ko'zi bilan ko'rgan va qattiqqo'l o'qituvchiga nisbatan norozilik bildirmagan, ilm va tarbiya berishda qattiqqo'llikni afzal ko'rgan: "jabr ustod boz mehr padar" deb ta'kidlaydi, ya'ni o'qituvchining jabri va jazosi ota mehridan ham afzalligini aytadi.

Buyuk mutafakkir **Abdurahmon Jomiy** XV asrda yashab ijod qilgan. U o'z asarlarida insonning yuksak axloqiy xislatlarini, go'zal fazilatlarini kuylaydi. "Iskandar xirodnomasi" asarida muallimlar to'g'risida noyob fikrlarni bildirgan: "muallim aqlli, adolatli, o'zida barcha yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'zini nomunosib tutgan murabbiy hech vaqt bolalarga bilim bera olmaydi". Shoir muallimning hayotdagi o'rnini quyidagi baytida bayon qiladi:

Ustod, muallimsiz qolganda zamon,
Nodonlikdan qora bo'lurdi jahon.

Alisher Navoiy (1441-1501) ijodida muallimlarga munosabat alohida berilgan. Uning fikricha, har bir inson o'ziga ta'lim va tarbiya bergan ustozini, o'qituvchisini umrbod hurmat qilishi va uni e'zozlashi kerak. O'qituvchi mehnatini har qanday xazina bilan o'lchab bo'lmaydi:

Haq yo'linda kim senga, bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado, oning haqqin yuz ganj ila.

[1] Abul-Qosim Mahmud az-Zamahshariy. Nozik iboralar. – T.: "Kamalak", 1992, 16-bet.

Alisher Navoiy yosh avlod tarbiyasini har qanday tasodifiy murabbiyga ishonib topshirib bo'lmasligini aytib, o'qituvchiga yuksak talablarni qo'yadi. Bolani tarbiyalash va unga bilim berish, uning qobiliyatini o'stirish uchun nihoyatda savodli o'qituvchi va mahoratli tarbiyachi bo'lish kerak. Alisher Navoiy o'qituvchini faqat dars beruvchi, bilim beruvchi deb bilmaydi, balki mahoratli tarbiyachi bo'lishi lozim deb ilm va odobni birga olib borilishini, bu ikki jarayon hech qachon ajralmasligini ta'kidlab o'tadi.

Buyuk alloma o'zining *"Mahbub-ul qulub"* didaktik asarida o'qituvchi xalq oldida obro'ga, hurmat va izzatga sazovor bo'lishi kerakligini, u xalq g'ami bilan yashashini, xalqqa yordam beruvchi, xalq bilan birga bo'lishi lozimligini aytadi. Nodon, mutaasib, johil mudarrislarni tanqid qilib, mudarris olimlar orasidagi eng sara **"malak qiyofali"** kishi bo'lishi, ya'ni sof ko'ngilli, pok qalbli, insofli, karam-muruvvatli, odobli, vafoli, kishilikning eng yaxshi va oliyjanob xislatlarini o'zida aks ettiruvchi bo'lishi kerak deydi.

Ayniqsa, madrasalarda ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi mudarrislarga jiddiy talablarni qo'yadi: "Mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni unga bosh o'rin bo'lmasa, yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa... nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni qilish mumkin, balki halol desa, qilmas ishlarni qilmoq undan sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa, bu mudarris emas, yomon odatni tarqatguvchidir". Demak, mudarris bilimli, fozil va donishmand bo'lishi, kishilikning eng yaxshi fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan oliyjanob va kamtarin bo'lishi, har qanday yaramas ishlardan holi va pok bo'lishi, o'z xulqi va odobi bilan boshqalarga namuna bo'lishi lozim.

Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatini eng murakkab va mashaqqatli ish ekanligini xolisona baholaydi: *"Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashdan ojizlik qilardi. U esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima yetsin. Shunisi ham borkim, u to'dada fahm-farosati ozlar ham bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat qilsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarda uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa unga (muallimga) qulluq qilsa arziydir".*

Kamoliddin Husayn Voiz al-Koshifiy (1440-1505) "Futuvvatnomayi Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" asarida ustoz-shogird munosabatlariga keng to'xtalgan. U muallimlarning shogirdlariga beradigan har bir o'gitini qadrlaydi. "Maraka joylarida" (dars–ma'ruza o'qiladigan joy) shogirdlar muallimning har bir so'zini e'tibor bilan tinglashini va unga amal qilishini ta'kidlaydi. Jumladan, alloma shunday yozadi: *"Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi, deb so'rasalar, irodat ustiga, deb javob bergin. Agar irodat nima deb so'rasalar, samo va toatdir, deb aytgin. Agar samo (eshitish) va toat nimadir deb so'rasalar, nimani ustoz aytsa, uni jon qulog'i bilan eshitish, chin ko'ngli bilan qabul qilish va vujud a'zolari orqali amalga ado etishdir deb ayt".*

Husayn Koshifiy asarida shogirdlikning 8 ta odobini ko'rsatib o'tadi:

- birinchi bo'lib salom berish;
- ustozning oldida kam gapirish;
- boshni oldinga egib turish;
- ko'zni har tomonga yugurtirmaslik;
- gap so'ramoqchi bo'lsa, avval ustozdan ijozat so'rash;
- ustoz javobiga e'tiroz bildirmaslik;
- ustoz oldida boshqalarni g'iybat qilmaslik;
- o'tirib turishda hurmat saqlash.

Husayn Koshifiy ustozlik shartlarini ham bayon qiladi: *"Bilgilkim, hech bir ish ustozsiz amalga oshmaydi va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa, ul ishning asosi mustahkam bo'lmaydi. Kimki, ustozsiz ish boshlagan bo'lsa, ishi va amali samara qozonmaydi, ustozning etagini tutib shod bo'l, bir muddat ustozga xizmat qilginda, so'ngra o'zing ustoz bo'l....Agar ustoz tarbiyasini olgan komil inson kim deb so'rasalar, u pok mazhabli, o'z aybini ko'radigan, dono va tamizli kishidir deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar bo'lmaydi".*

Husayn Koshifiy bola tarbiyasida maktab va muallimning alohida roli borligi haqida gapirib, muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan, adolatli bo'lishi zarur, deb hisoblaydi. Alloma murabbiylar to'g'risida yana bir asari "Axloqi Muhsiniy"da shunday yozadi: *"Murabbiy (bolaga) nasihat va ta'lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida unga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga gapirish zarur. Agar (murabbiy) nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir".*

Sharq allomalari adabiy meroslarida ta'kidlangan, o'qituvchilar haqida bildirilgan dono fikrlarni yoshidan, pedagogik mahoratidan, qanday dars berishidan qat'iy nazar barcha o'qituvchilar bilishlari va ularga qat'iy amal qilishlari lozim.

2.2. YUNON FAYLASUFLARI ASARLARIDA O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATI HAQIDAGI G'OYALAR

Antik davrdagi maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar. Qadimgi Yunonistonda bunday joylar **akademiya** deb nomlangan. "Akademiya" so'zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi V asrda Afina yaqinidagi Akadema so'zi bilan nomlanuvchi joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan bo'lib, keyinchalik ta'lim-tarbiya berish uchun tashkil etiluvchi maskanlar ham shunday nom bilan atala boshlangan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga ta'lim-tarbiya berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan edi.

Ular notiqlik san'atining yetuk namoyondalari bo'lib, o'zlarining chiroyli so'zlari, baland va ta'sirchan ovozlari bilan ta'lim oluvchilarning tafakkuriga, ongiga kirib borganlar, ta'lim va tarbiyada ulkan yutuqlarga erishganlar. Shu sababli, notiqlik san'ati va nutq madaniyatining nazariyasiga, uning cheksiz tarbiyaviy ahamiyatiga ilk marotaba qadimgi Yunonistonda asos solinganligi ilmiy adabiyotlarda bayon etiladi. Yunonistonda epos, lirika, drama, haykaltaroshlik, musiqa va me'morchilik san'ati bilan birga notiqlik san'ati ham murakkab va muhim san'at asari sifatida tan olingan. Notiqlik san'atini davlatning muhim ijtimoiy-siyosiy ishlariga taalluqli faoliyatdagi ahamiyati uchun hamda yosh avlodni tarbiyalashda ular ongi va tafakkuriga qizg'in ta'sir etuvchi murakkab vosita sifatida rivojlantirganlar.

Eramizdan avvalgi V asr Yunonistonda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng takomillashgan davri bo'lgan. Shu sababli "Notiqlik san'ati" ham qizg'in rivojlangan davr hisoblanadi. Bu davrda notiqlikning uchta qonuniyati umumiy shior sifatida e'tirof etilgan:

- o'quvchilarga tushuntirish (ma'lum bir mavzuni);
- o'quvchilar ongini uyg'otish (inson tafakkurini, ongini, maqsadini);
- har bir tinglovchida huzur-halovat va qoniqish uyg'otish.

Yunonistonda notiq ushbu qonuniyatlarga amal qilgan holda o'quvchilarga, ya'ni "tinglovchilarga halovat bag'ishlash" orqali ularni ezgulikka, adolatparvarlikka, vatan oldidagi burchga sadoqatli bo'lishga, yaxshi amallarni bajarishga, axloq va odob qoidalariga rioya qilishga chorlar edi. Bu uning jamiyat oldidagi asosiy vazifasi hisoblanardi. Notiqlik san'atini chuqur egallagan, o'zlarining go'zal va chiroyli nutqlari bilan jamiyatda hurmat va e'tibor qozongan Dinarx, Giperid, Gorgiy, Isokrat, Isey, Esxil, Demosfen kabi namoyondalar mashhur davlat arboblari bo'lib yetishganlar.

Yunon faylasuflari o'qituvchilarning ta'lim va tarbiya berishda og'zaki nutqning shakl va qonuniyatlarini, mulohaza va isbot kabi mantiq ilmi qoidalarini chuqur o'zlashtirishlari lozimligini qat'iy talab qilganlar. Shuning uchun pedagog o'qituvchilar o'z fikrlari va tuyg'ularini o'quvchilar hamda tinglovchilar tafakkuri va ongiga chuqur singdira olganlar

va keskin ta'sir o'tkazganlar. Har bir pedagog o'zlarining notiqlik san'ati ustida tinimsiz mashg'ulotlar olib borgan, sehrli ovoz sohibi bo'lish uchun nutq texnikasining barcha qonuniyatlariga amal qilgan. Ular o'z nutqlarini mafkuraviy va siyosiy kurash hamda yosh avlodni tarbiyalash quroli deb hisoblaganlar.

Mashhur faylasuf olim **Sokrat** (eramizdan avvalgi 469-399) o'quvchilar bilan savol-javob usuli orqali ta'lim-tarbiya berishning suhbat metodiga asos solgan. Sokratning shogirdi Platon o'z ustozi g'oyalarini davom ettirib, o'quvchilar bilan savol-javob usulini notiqlik san'atining bir shakli sifatidagi ahamiyati cheksiz ekanligini bayon etadi hamda uni inson tafakkuri va ongini, dunyoqarashini og'zaki nutq bilan boyituvchi noyob uslub sifatida baholaydi.

Yunonistonda yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda notiqlik san'atining ahamiyatini yoritib berish hamda uning rivojlanishi faylasuf olim **Demosfen** (eramizdan avvalgi 384-322) nomi bilan uzviy bog'langan. U yoshlik yillaridanoq notiqlik san'atiga qiziqdi. Tug'ma duduq bo'lishiga qaramasdan, o'quvchi va tinglovchilarning istehzolariga bardosh berib, qizg'in va shiddatli mehnati bilan notiqlik mahoratini namoyish eta olgan.

Barcha dunyoviy bilimlarni faqat notiqlik san'atining olijanob qudrati asosida tinglovchilar tafakkuriga yetkazish mumkin deb ta'kidlagan edi faylasuf. Faqat Demosfen Yunonistonda notiqlik san'atining yetuk namoyodasi, ya'ni elitasi sifatida mashhur bo'ldi. U davlat tribunasini siyosiy va mafkuraviy kurash maydoniga aylantirdi.

2.3. YEVROPA OLIMLARINING O'QITUVCHILAR KASBIY MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH TO'G'RISIDAGI FIKRLARI

O'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirish to'g'risidagi muammolar Yevropa olimlari Y. A. Komenskiy, Djon Lokk, G.Pestalotssi, A.Disterverg, K.D.Ushinskiy kabilarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, chex olimi, mashhur pedagog Y. A. Komenskiy o'qituvchining eng muhim xususiyatlari qatoriga bolalarni sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, qobiliyati kabilarni kiritadi va ularning mohiyatini mukammal tavsiflab beradi.

Qdimgi Rusda o'qituvchilarni ustalar (master) deb atab, bu bilan yosh avlodning ustozi shaxsiga bo'lgan cheksiz hurmatni ifodalaganlar. Biroq o'z tajribasini yosh avlodga o'rgatgan usta-hunarmandlarni o'qituvchi deb atashgan. A.I.Gersen, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, I.G.Chernishevskiy, V.A.Suxomlinskiy, A.S.Makarenko kabi rus pedagog olimlari ham g'arb mutafakkirlari g'oyalarining vorislari sifatida mazkur muammolarga o'z mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, A.I.Gersen mulohazalariga ko'ra, o'qituvchining asosiy xislati – bu uning bolalar bilan munosabatda bo'layotganligini sezishda, bolalar ruhiy dunyosini tushuna olishida, axloqiy qobiliyatining mavjudligida, chunki u shunday iste'dodga ega bo'lmog'i zarurki, unga har qaysi o'qituvchi erisha olmaydi.

Dunyoga mashhur bo'lgan taniqli chex pedagog-gumanisti *Yan Amos Komenskiy* (1592-1670) birinchi bo'lib pedagogikani nazariy bilimlarning mustaqil sohasi sifatida ishlab chiqqan. Pedagog olim o'z davrida o'qituvchilarning bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga yuqori baho berib, o'qituvchilik "yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb" ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, o'qituvchi o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Y.A.Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi: *vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga mehr bilan muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e'tiqodni shakllantiruvchi.*

Y.A.Komenskiyning fikricha, o'qituvchi bog'dagi gullarni va o'simliklarni muhabbat bilan parvarish qiladigan bog'bon, o'z ilmi va mehri bilan inson atalmish mavjudot uchun dunyoning hamma burchaklarida ulkan binolar barpo etadigan me'mor, inson aqli va qalb sirlarini toshlarga batafsil yoritib sayqal beradigan haykaltarosh, yovuzlikka qarshi mardona kurash olib boruvchi bahodir[1]. Y.A.Komenskiy maktablar uchun o'nlab darsliklar, 260 dan ziyod noyob pedagogik asarlar yozib qoldirgan. "Dars", "sinf", "ta'til", "o'qitish" va boshqa tushunchalarni ilk bor ta'lim sohasiga olib kirgan yagona pedagog olimdir.

Shvetsariyalik mashhur pedagog olim Iogan Genrix Pestalotssi (1749-1827) pedagogika nazariyasi va amaliyotining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan. Olimning pedagogik faoliyatida *"o'qituvchi avvalo, bolani kuzatishi, har taraflama o'rganishi, so'ngra bolaga baho berishi kerak"* degan prinsip muhim ahamiyat kasb etadi.

XIX asr o'rtalarida ta'lim sohasining taniqli namoyandasi, nemis o'qituvchilarining ustozi deya e'tirof etilgan *Fridrix Adolf Vilgelm Disterveg* (1790-1866) tarbiyaning umuminsoniy maqsadlarini mukammal yoritib bergan: tarbiya haqiqatga, ezgulikka, go'zallikka xizmat qilishi lozim. Uning fikricha, har bir individda, har bir millatda insoniylik atalmish tafakkur olami shakllantirilishi lozim: *"bu umuminsoniy olijanob maqsadlarga intilishdir"*[2].

Bu maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchining mehnati alohida ahamiyatga ega, u o'quvchi uchun jonli ibrat namunasi sanaladi. O'quvchi o'qituvchiga hurmat keltiradi, ma'naviy kuch va ma'naviy ta'sir beradi. Ta'lim va tarbiya maskanining obro'-e'tibori – o'qituvchining qadr-qimmati bilan tengdir. A.V.Disterverg o'qituvchining ta'limdagi roliga yuqori baho berib, u o'z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi o'quvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. O'qituvchi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerakligini takidlab o'tgan.

Pedagog olim Djon Lokk o'qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlarini ishlab

[1] Қаранг: Коменский Я.А. Избраннее педагогические сочинения. – М., 1995. – С. 248-284.

[2] Дистервег А. Избранные педагогические сочинения. – М. 1956. – Б.237.

chiqqan. Ular orasiga mo''tadillik, g'ayrat-shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi xislatlarni kiritib, o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi rolini asarlarida yoritib bergan.

A.I.Gersen, L.N.Tolstoy, I.G.Chernishevskiy, K. D.Ushinskiy kabi rus pedagog olimlari g'arb mutafakkirlari g'oyalarining vorislari sifatida mazkur muammolarga o'z mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, A.I.Gersen mulohazalariga ko'ra, o'qituvchining asosiy xislati – bu uning bolalar bilan munosabatda bo'layotganligini sezishda, bolalar ruhiy dunyosini tushuna olishida, axloqiy qobiliyatining mavjudligida, chunki u shunday iste'dodga ega bo'lmog'i zarurki, unga har qaysi o'qituvchi erisha olmaydi.

Taniqli rus pedagogi *K.D.Ushinskiy* ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining roli va shaxsiga yuqori baho berib, o'qituvchi kasbiga oid ilmiy mulohazalarida hech bir Qonun yoki Programma, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi metod yoki tamoyillar o'qituvchi shaxsining pedagogik faoliyatdagi mahorati o'rnini bosa olmaydi deb hisoblaydi.

K.D.Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi. Mazkur g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o'qituvchilarni qayta tayyorlovchi kurslar tizimini tashkil etishni u ilk bor asoslab bergan.

K.D.Ushinskiy o'qituvchining mashaqqatli mehnatini ta'riflab shunday deydi: *"Hali yetilmagan va fikri xayoli tarqoq bo'lgan o'ttiz yoki qirqta o'quvchining ongini butun dars davomida mashg'ul qilib turish uchun o'qituvchi o'z so'zlari va bergan masalalari to'g'risida ko'p bosh qotirishi, serdiqqat bo'lishi kerak. Mana shu sababdan bilimi bo'lgan har bir kishi o'qituvchi bo'lishga layoqatli bo'lavermaydi. Jamiyat tomonidan hamma vaqt ham yetarlicha ta'rif qilinmaydigan bu vazifani insof bilan ado qilmoq uchun zo'r matonat va mahorat talab qilinadi".*

K.D.Ushinskiyning ta'kidlashicha, o'qituvchi qalbining bolalarga nisbatan mehrini bildiruvchi axloqiy xislatlaridan biri, muallimning tarbiyaviy kuchini va qobiliyatini ko'rsatadigan ma'naviy oyinasi ijtimoiy qimmatga ega bo'lib, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda namoyon bo'ladi. Pedagogik faoliyatning yana bir muhim tarkibiy qismi o'qituvchining xarakteri va his-tuyg'ularida, uning o'quvchilar bilan muloqotga kirishish usulida namoyon bo'luvchi **pedagogik-psixologik takt** (odob, axloq) xususiyatlarini qo'llashdir. Uning fikricha psixologik takt (odob, axloq) hayotimizning barcha jabhalarida g'oyatda keng qo'llaniladigan faoliyat turi, shuning uchun ushbu taktlarga ega bo'lmasdan, odamlar orasida hech qanday muloqot va nutq qobiliyatining o'zi ham bo'lishi mumkin emas, deb ta'kidlaydi.

K.D.Ushinskiy inson tarbiyasining eng asosiy yo'li e'tiqoddir deydi va e'tiqodga e'tiqod bilan ta'sir ko'rsatish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, har qanday o'qitish dasturi, har qanday tarbiya metodlari, ular qanchalik yaxshi bo'lmasin, o'qituvchining e'tiqodiga aylanmas ekan, jonsiz harf bo'lib qolaveradi, hech bir ta'sir kuchiga ega bo'lmaydi. Eng sinchkov nazorat bu ishda yordam bermaydi. O'qituvchi yo'riqnomaning ko'r-ko'rona ijrochisi bo'lishi mumkin emas: o'qituvchining yurak tafti bilan isimagan har

qanday yo'riqnoma hech bir kuchga ega bo'lolmaydi[1].

O'qituvchining kasbiy faoliyatidagi *g'oyaviy e'tiqod* shaxsning ijtimoiy-ma'naviy yo'nalganligini belgilaydigan boshqa barcha xususiyat va tavsiflarini, jumladan, ijtimoiy ehtiyojlari, axloqiy va qadriyatli yo'nalganligi, ijtimoiy burch va fuqarolik mas'uliyati hislarini belgilaydi. G'oyaviy e'tiqod o'qituvchining ijtimoiy faolligi asosini tashkil etadi. Aynan shuning uchun u o'qituvchi shaxsining tobora chuqur fundamental xarakteristikasi sanaladi.

A.S.Makarenko tomonidan yaratilgan, shakl va vositalariga ko'ra nozik, amalga oshirish usullariga ko'ra tarbiyaning individuallashtirish metodikasini o'z ichiga qamrab olgan *bolalar jamoasi nazariyasi* alohida ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, tarbiyachining ishi nihoyatda murakkab, "ehtimol, eng mas'uliyatli va shaxsdan nafaqat kuch-qudratni, balki katta iroda, ulkan iste'dod, noyob qobiliyatlarga ega bo'lishni talab etadi"[2]. O'qituvchilik kasbi paydo bo'lganidan boshlab, ular zimmasiga, avvalo, yagona va bo'linmas tarbiyaviy vazifa yuklangan. O'qituvchi – tarbiyachi, yetakchi, ustoz. Uning fuqarolik, insoniy vazifasi ana shundan iborat.

Buyuk rus yozuvchisi va pedagogi *Lev Nikolaevich Tolstoy* (1828-1910) o'qituvchilik kasbiy faoliyatida avvalo, insonparvarlikning eng yuksak ibtidosini ko'radi, bu ibtido tarbiyalanuvchilarga nisbatan cheksiz muhabbat tuyg'ularida o'z ifodasini topishi kerak. Uning ta'kidlashicha, "*agar o'qituvchi faqat ishiga havas qo'yib bolalarga mehr-muhabbatini bera olsa, u yaxshi o'qituvchi bo'la oladi. Agar o'qituvchi bolaga faqat otasi va onasi kabi havas qo'ygan bo'lsa, u oldingi o'qituvchidan yaxshiroq bo'ladi. Bordiyu, ikkala xislatni ham o'zida mujassamlashtirsa, u holda u mukammal va mahoratli o'qituvchi bo'la oladi*" – deydi L.N.Tolstoy[3].

Buyuk pedagog o'qituvchi kasbiy fazilatining mukammalligini o'z mutaxassisligiga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi bilan bir vaqtda bolalarga bo'lgan munosabatida, ularni xuddi o'z farzandlaridek jon-dilidan sevishida ekanligida ko'rgan. Bilimga ehtiyojning asosiy omillaridan biri *o'qitadigan fanini bilishga qiziqish* sanaladi. L.N.Tolstoy, bolani fan bilan tarbiyalash uchun o'z fanini sevish va bilish kerak, ana shunda o'quvchilar sizni sevib qoladi deb ta'kidlaydi. Shunda siz esa ularni tarbiyalaysiz. Ammo o'zingiz fanni sevmas ekansiz, o'qishga qanchalik majburlamang, fan tarbiyaviy kuchga ega bo'lmaydi[4].

Ma'lumki, pedagogik mahorat tizimida o'qituvchining pedagogik nazokati (odobi) muhim mavqega ega. O'qituvchi nazokatsiz, kasb odobisiz yuksak cho'qqilar sari odimlay olmaydi. Masalaga shu nuqtayi – nazardan yondashilganda, muallifning so'zlari, o'qituvchi pedagogik mahoratiga qo'yilgan talablarga mos va hamohangdir.

XX asrning 50-60-yillarida gumanistik tarbiya nazariyasi va amaliyotiga ulkan hissa

[1] *Ушинский К.Д. педагогические сочинения в 6 т. – М. – Т. 3. – Б. 168-169.*

[2] *Қаранг: Макаренко А.С. Сочинения: в 7 т. –М. 1958., -Т. 5. –Б. 178.*

[3] *Толстой Л.Н. Педагогические сочинения. – М., 1956. – Б. 362.*

[4] *Толстой Л.Н. Педагогические сочинения. – Москва, 1953. – Б. 72.*

qo'shgan pedagog olimlardan biri *Vasiliy Aleksandrovich Suxomlinskiy* (1918-1970) bo'ldi. Uning pedagogikada ilgari surilgan fuqaroviylik va insoniylik haqidagi g'oyalari bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. *"Aqlli, fikran boy, bag'ri keng insonchalik hech narsa yoshlarni qiziqtirmaydi, o'zining ortidan ergashtira olmaydi ham..., aql – aql bilan tarbiyalanadi, vijdon – vijdon bilan, vatanga sadoqatlilik – bevosita vatan uchun xizmat qilish bilan...,* – deb ta'kidlagan edi mashhur rus pedagogi. – *O'qituvchi o'zining butun borlig'i, kundalik hayoti, ma'naviy madaniyati bilan hamkasblari va o'quvchilarga o'rnak bo'ladi va ularni o'z ortidan ergashtiradi".* Olimning fikricha, maktabning birinchi galdagi vazifasi har bir insonda yaratuvchilikni, ijodkorni kashf etish, uning o'ziga xos ijodiy, intellektual salohiyatini rivojlantirish, insoniylik qadr-qimmatini oliy darajaga ko'tarish va to'laqonli mehnat maydoniga yo'llanma berishdan iborat.[1]

O'qituvchi o'z o'quvchilarini yaqin kelajakda mustaqil qadam qo'yishi kerak bo'lgan, hayotning muayyan talablariga tayyorlashi lozim. Jamiyat talablariga moslashgan, ijtimoiy hayotga mos barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish, tarbiyalanuvchida jamiyatni ma'lum maqsadlar asosida o'zgartirishga qodir bo'lgan ehtiyojni shakllantiradi. O'qituvchi o'quvchini ijtimoiy hayotga mos qilib tarbiyalay olmasligi natijasida esa, o'quvchi hayotida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

O'qituvchi faoliyatining qizg'in **adaptiv** yo'nalganligi uning o'ziga salbiy ta'sir ko'rsatadi, u asta-sekinlik bilan fikrlash mustaqilligini boy beradi, o'z qobiliyatlarini rasmiy va norasmiy ko'rsatmalarga bo'ysundiradi, pirovard natijada individualligini, o'zligini yo'qotadi. O'qituvchi o'z faoliyatini aniq talablarga, ehtiyojlarga moslashgan o'quvchilar shaxsini tarbiyalashga qanchalik bo'ysundirar ekan, u shunchalik kam darajada gumanist va ma'naviy yetakchi sifatida gavdalanadi.

O'qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirishning ilmiy–nazariy asoslari pedagog olim V.A. Slastyonin tomonidan ham tadqiq qilingan. U kasbiy–pedagogik tayyorgarlik, o'qituvchining shaxsi va kasbiy shakllanish yo'nalishi va bunda pedagogik mahorat to'g'risida so'z yuritib, shunday yozadi: *"O'qituvchi muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayansagina, o'qituvchilik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi. Birinchidan, ilmiy nazariyalar – taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalarini aks ettiruvchi ilmiy bilimlardir, amaliyot bo'lsa, doimo aniq vaziyatga asoslanadi. Ikkinchidan, pedagogik faoliyat – falsafa, pedagogika, psixologiyaga oid bilimlar sinteziga asoslanuvchi yaxlit jarayondir. Bu bilimlar sintezisiz pedagogik amaliyotni maqsadli qurish juda mushkul"*[2].

Demak, o'qituvchidan nafaqat pedagogik mahoratni mukammal egallash talab etiladi, balki pedagogik amaliyotni to'g'ri va maqsadli tashkil qilish uchun chuqur ilmiy -nazariy ma'lumotlarga ham ega bo'lish lozim. Ma'lumki, pedagogik mahorat tizimida o'qituvchining pedagogik nazokati (odobi) muhim mavqega ega. O'qituvchi nazokatsiz,

---

[1] Сухомлинсик й В.А. Избранные педагогические сочинения в 5 т. – Киев., 1981. –Т.5. –С. 102.

[2] Педагогика: Учеб. пособие для студентов пед. институтов /Под ред. Ю.К. Бабанского. – М: Просвещение, 1983, 600-бет.

kasb odobisiz yuksak cho'qqilar sari odimlay olmaydi. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashilganda, muallifning so'zlari, o'qituvchi pedagogik mahoratiga qo'yilgan talablarga mos va hamohangdir.

Shunday qilib, Yevropa mutafakkir olimlari o'z ilmiy asarlarida o'qituvchining bir qator muhim fazilatlari haqida fikr yuritganlar. Bularning qatoriga quyidagi fikrlarni alohida qayd etish lozim: o'qituvchining har tomonlama barkamol bo'lishi, o'zining yuksak xislatlari va his-tuyg'ulari bilan boshqa kasbdagi kishilardan ajralib turishi, bolalar ruhiyatiga oson kira olish qobiliyati, darslarni o'zlashtirishda orqada qolganlar bilan individual ishlar olib borish, o'quvchilar diqqatini o'ziga qaratish mahorati, mustaqil ishlash va o'z mahoratini, malakasini oshirish, pedagogik-psixologik odob (takt)ga ega bo'lish, notiqlik san'atini puxta bilish kabilardir.

Hozirgi kunda ham Yevropaning yetakchi olimlari (B.P.Zyazin, V.A.Kan-Kalik, Y.N.Kulyutkin, N.D.Nikandrov, L.I.Ruvinskiy va boshqalar) o'qituvchining pedagogik mahoratini yanada takomilashtirish uchun ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Xususan, ular o'z asarlarida "mukammal egallangan pedagogik mahorat"ni o'qituvchi doimo orzu qilib intiladigan, ammo yetisha olmaydigan yuksak ideal kasbiy mahorat sifatida izohlaydilar. Shu ma'noda "mahorat" terminini o'qituvchiga nisbatan kompliment, ya'ni maqtov tariqasida eng oliy baho sifatida qo'llash mumkin. Pedagogik mahorat faqat o'qituvchi batamom o'zlashtirishi lozim bo'lgan kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallashning eng yuqori cho'qqisi sifatida qabul qilinmasligi kerak. Tajribali o'qituvchi o'z ijobiy yutuqlari bilan qanoatlanib qolmasdan, hamisha kasbiga oid yangiliklarni o'zlashtirib borishi, jamiyat taraqqiyoti tufayli paydo bo'ladigan zamonaviy pedagogik vazifalar va muammolarni hal qilishda faol ishtirok yetishi; o'zining kasbiy ko'nikma va malakalarini uzluksiz oshirib borishga intilishi lozim. Bu pedagogik mahoratni egallashning ajralmas qismidir.

Pedagogik mahoratni egallash va rivojlantirishda (malaka oshirish, takomillashtirishda) o'qituvchi o'zi bilgan va o'rgangan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirib boradi. Demak o'qituvchi kasbiy mahoratini oshirishga intiladi. Uning chegarasi bormi? Bizga ma'lumki, bo'lajak o'qituvchining pedagogik mahorati aslida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida rasmiy ravishda egallanadi va bunga tajribali ustozlar, olimlar jalb etiladi. So'ngra o'quv tarbiyaviy faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi hujjat bilan ta'minlanadi. Shu bilan birga, ba'zan yosh o'qituvchining tajribasi va malakasi yetarli emasligi ham tan olinadi. Demak, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini yanada oshirish uchun, avvalo, uning malakasini oshirishga sabab bo'ladigan, pedagogik mahoratini shakllantiradigan zamonaviy manbalarni, omillarni, vosita va metodlarni izlab topish zarur. Ushbu yondashuv o'qituvchi pedagogik mahoratini rivojlantirish muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, har bir o'qituvchi ko'nikma va malakalarini oshirish bilan birga, o'z kasbiga sadoqatli bo'lishi, uni sevishi hamda uzluksiz takomillashtirib borishi shart. Bunda belgilangan maqsad sari intilish, albatta, pedagogik mahoratning eng yuksak cho'qqilarini egalashga ishonch – o'qituvchi uchun muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi zamon Yevropa olimlari ilmiy pedagogik tadqiqotlari tahliliga ko'ra, o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish muammolarini hal etish quyidagicha talqin etiladi:

- o'quv – tarbiyaviy jarayonni eng qulay uslublarini topish va joriy etish;
- o'z mehnatini muntazam ilmiy asosda tashkil eta olish;
- o'qituvchi pedagogik qobiliyatini va pedagogik madaniyatini oshirish;
- pedagogik muammolarni mohirona hal etish yo'llarini takomilashtirish;
- amaliy va nazariy bilimlarni doimiy oshirib borish;
- kasbiy ijodkorlikni uzluksiz rivojlantirish.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Sharq va G'arb olimlari tomonidan tahlil qilingan o'qituvchi kasbi haqidagi ko'pgina mulohazalar hozirgi kungacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda, demak millati va kelib chiqishidan qat'i nazar ajdodlar merosini takomillashtirish evaziga hozirgi kunda ta'lim va tarbiyani yanada yuksak bosqichlarga ko'tarish mumkin.

2.4. HOZIRGI DAVRDA O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Ta'lim muassasalarining o'quv–tarbiyaviy vazifalari jamiyat rivojlanishining turli bosqichlariga qarab jiddiy o'zgarib turgan. Vaqti-vaqti bilan o'qitishning tarbiyaga va aksincha tarbiyaning ta'limga nisbatan o'zgarib turishi aynan jamiyatdagi o'zgarishlar bilan izohlanadi. Biroq doimo ta'lim sohasidagi davlat siyosati, amalda o'qitish va tarbiyalashning dialektik birligiga, shaxsni barkamol inson darajasida rivojlantirishning uzluksizligiga yetarlicha baho bermagan. Bolaga tarbiyaviy ta'sir o'tkazmasdan, uni sevmasdan o'qitib bo'lmaganidek, tarbiyalanuvchilarni bilimlar, ko'nikma va malakalarning anchagina murakkab tizimi bilan qurollantirmasdan turib ularga tarbiya berib bo'lmaydi. Barcha xalqlarda va barcha zamonlarda taniqli faylasuflar, mutafakkirlar o'qitish va tarbiyalashni bir-biriga bog'lab olib borganlar. Qadimdan ular o'qituvchini, avvalo, tarbiyachi sifatida e'tirof etganlar.

O'qituvchining mahorati pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida bilim va malakalarni egallash davridayoq shakllanib boradi. Pedagogik kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi kasbga moslashishi, tanlangan kasb ichidagi uzluksiz taraqqiyotga moslasha oladigan, keng ma'nodagi o'qituvchining shakllanishiga bo'lgan talabga muvofiq holda bilimlarning pedagogik-psixologik va umummilliy mavqeyining o'sib borishida aks etmog'i lozim.

"Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar,

Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim... Jamiyatda o'qituvchi kasbi eng nufuzli va obro'li kasb bo'lishi lozim. Muallimlarimiz bolalarga sifatli ta'lim berish va o'z ustida ishlashdan boshqa narsa haqida o'ylamasligi uchun davlat barcha sharoitlarni yaratib berishi zarur," deb ta'kidlagan edi mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni "Oliy Majlisga Murojaatnomasi"da. Barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar samarasi yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yuksak malakali kadrlarga bog'liq. Zero Yangi O'zbekiston ham bilimli va bunyodkor yoshlarimiz bilan birgalikda barpo etiladi.

Bilimli va bunyodkor yoshlarni tayyorlash esa, avvalo, o'qituvchi-murabbiylar zimmasiga yuklatilgan. Shu sababli, chuqur bilimga ega bo'lgan, zamonaviy o'qituvchi-kadrlar taraqqiyotimizning muhim omili sifatida qaralib kelinmoqda. O'qituvchilarimiz bugungi zamon talablariga mos bilimlar sohibi, yangilangan ta'lim mazmunini egallagan bo'lishlari kerak. O'qituvchi-xodimlar o'zlarining kasb-ko'nikmalari va muallimlik mahoratlarini doimo takomillashtirib borishlari shart.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlash, avvalo, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda pedagogik mahoratlariga bog'liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk namoyondalari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev **"Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida quyidagilar qayd etilgan: *"tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash... oliy pedagogik ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish".***[1]

[1] *Mirziyoyev Sh.M. Pedagogik* ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston *Respublikasi Prezidentining* 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son Qarori – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa *konserni Bosh tahririyati*, 2020, 27-28-bet.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur? Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ushbu muammo bo'yicha ko'plab pedagog va psixolog olimlar o'z fikr va mulohazalari bilan chiqdilar. O'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini milliy an'ana va urf-odatlarimizdan, qadriyatlarimizdan kelib chiqib yanada takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida shakllantirish uchun metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar paydo bo'ldi. Hozirgi kunda ham ushbu muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda.

Pedagog olim Komil Zaripov o'qituvchining kasbiy mahorati mazmun va mohiyatini "Ilg'or o'qituvchi", "Ijodkor o'qituvchi", "Novator o'qituvchi" timsolida asoslaydi va shunday ta'riflaydi:

- "Ilg'or o'qituvchi", avvalo, boshqa o'qituvchilarga qaraganda o'z ishiga mas'uliyat bilan qaraydi. Shu sohadagi ijobiy tajribalarni o'rganib, o'z darslarida, ta'lim muassasasidan va guruhdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo'llaydi. Shu orqali u ta'lim va tarbiya sohasida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritadi.
- "Ijodkor o'qituvchi"da ham "Ilg'or o'qituvchi"dagi xususiyatlar bo'lishi mumkin. Ularning jiddiy farqi shundaki, ilg'or o'qituvchi mavjud manbalarni o'rganib, shular asosida ta'lim - tarbiya bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshirsa, ijodkor o'qituvchi bor manbalarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Ko'p hollarda mavjud metodik yo'l – yo'riqlarga o'z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat taqozosiga, o'zining imkoniyatlariga qarab mavjud tartiblardan farqli zamonaviy metodik usullardan foydalanadi"[1].
- "Novator o'qituvchi", o'zining yaxlit pedagogik vosita va usullari mavjudligi bilan farqlanib turadi. Shu bilan birga novator o'qituvchilarda ilmiy tahlil, o'ziga tanqidiy ko'z bilan qaray bilish xususiyatlari ham bo'ladi. Ularning ko'pchiligida g'oyat murakkab, boshqalar o'ziga ishonmaydigan sharoitlarda ham o'z ishlarining to'g'ri ekanligiga ishonch bo'ladi.

Demak, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'zida ham ilg'orlikni, ham novatorlikni (yangilikka intilish), ham ijodkorlikni tarbiyalashi lozim. O'qituvchi pedagogik mahoratini "O'qituvchilarning axloqiy shakllanishi" yo'nalishida o'rgangan professor Malla Ochilov pedagogik mahoratni egallashning muhim manbasi axloq deb ta'kidlab, kasbga oid axloq normalarini shunday ta'riflaydi *"Faoliyatning ma'lum bir sohasi bilan shug'ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy normalar, talablar ham bor. Bunday axloq kasb (professional) axloqi deyiladi. Har bir jamiyatda hukmron bo'lgan axloq bilan kasb axloqi o'rtasida ma'lum bir munosabat mavjud. Bu umumiylik bilan xususiylik*

[1] Zaripov K. O'qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarining roli. – T.: O'qituvchi, 1993, 97 – bet.

o'rtasidagi munosabatdir. Kasb axloqi umuminsoniy axloq nazariyasining qoidalari va kamchiliklarini o'zida mujassamlashtiradi, oydinlashtiradi va rivojlantiradi"[1].

Pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, uning o'qituvchi shaxsi va kasbi to'g'risida mukammal ma'lumot va tushunchalarga ega ekanligidadir. O'qituvchi inson sifatida shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi bilan birga, kasbiy, ya'ni ixtisoslik fazilatlariga ham ega bo'lishi lozimligini tajriba ko'rsatmoqda. Buni yuqorida kasb axloqi to'g'risida bildirilgan fikrlar misolida ham ko'rdik.

Shaxsiy sifatlar tizimida: milliy mafkuraviy onglilik, milliy odoblilik, farosat, nozik didlik, o'z kasbiga sadoqat va vijdoniylik, tashabbuskorlik, bolajonlik, talabchanlik, adolatparvarlik, pedagogik odob, tadbirkorlik, qat'iylik, har qanday vaziyatda o'zini idora qila olish, millatlararo muloqot madaniyati, kuzatuvchanlik, samimiylik, topqirlik, kelajakka ishonch, xushmuomalalilik kabi fazilatlarga ega bo'lishi kerak.

Kasbiy sifatlar tizimida: pedagogik ziyraklik, O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li mohiyati, beshta tamoyil rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlarini bilishi, milliy tarbiya mohiyati va mazmunini chuqur anglash, chuqur ilmiy-nazariy salohiyati, pedagogik ijod, o'z fanining tarbiyaviy imkoniyatlarini mukammal bilish, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilish, mamlakatimiz Prezidentining ichki va tashqi siyosatidan xabardorlik, o'zbek xalqining an'analari, qadriyatlari, urf-odatlarini yaxshi anglashi, siyosat, tarix, madaniyat, ma'naviyat, adabiyot va san'at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o'lkashunoslik, texnikaga oid ma'lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika, etnopsixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish va hokazo.

Bo'lajak o'qituvchilarda yuqorida qayd qilingan milliy pedagogikaning faoliyatga tayyorlovchi shaxsiy va kasbiy sifatlariga ega qilish lozim. Bu hol kasbiy mahorat egasi bo'lish va kadrlar tayyorlashning milliy dastur talablarini bajarishga yordam beradi.

"Muallimning yuksak sifati uning aqli, ilmi, fikri, so'zi, axloqu-odobidadir, – degan edi taniqli murabbiy, maktabshunos olim Hikmatulla Abdullayev o'zining "Yashil daftar hikmati" asarida. – *O'qituvchining yuz qarashlari ham, gapirishlari ham, qalbi ham, ko'rinishi ham, yurish-turishi ham, kiyinishi ham chiroyli va ibrat namunasi bo'lsin. Ayniqsa, uning nutqi tushunarli, ravon, ta'sirli bo'lishi darkor. U muloqotda bamisoli so'z zargari ekanligini ko'rsata olishi muhimdir. Shunga erishish kerakki, odamlar, ayniqsa, ota-onalar va o'qituvchilar uni rostgo'y, halol, pokiza, sog'lom fikrli, shafqatli va muruvvatli, insonparvar kishi sifatida e'tirof etsinlar".*

O'qituvchi "Sog'lom avlod uchun" kurashchi, bilimi va tajribasini ta'lim-tarbiya ishiga bag'ishlagan, o'z qadrini, o'z hurmati, o'z obro'sini saqlaydigan inson. U har bir daqiqa vaqtni to'g'ri taqsimlaydigan, bajariladigan vazifalarni hisobga oluvchi, darsga tayyorlanishi, dars o'tkazishni rejalashtiradigan, ta'lim muassasasining umumiy qo'shimcha topshiriqlarini tez va sifatli bajaradigan hamda vaqtida ovqatlanish, vaqtida dam olishni biladigan intizomli shaxsdir.

Ta'lim va tarbiya jarayoni har bir o'qituvchidan ulkan aql-zakovat, sabr-toqat,

[1] Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. – T.: O'qituvchi, 1997, 6-bet.

matonat, o'quvchilarga va o'z kasbiga yuksak mehr-muhabbatli bo'lishni talab etadi. O'qituvchining doimo bilim va tajribasini orttirib borishi, o'quvchilarni chuqur tushunish, ularning ichki dunyosini payqay olishi, o'sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borishi va zarur paytda so'z, ish yoki amaliy harakat bilan yordam bera olish qobiliyati ta'lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardir.

Pedagogik kasb – bu barkamol inson sifatida xarakterlanuvchi ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarning barqaror tizimidir. O'qituvchi o'z kasbiga ixlos qo'yishi va uning ijtimoiy ahamiyatini tushunib yetishi, bolalarga ta'sir o'tkazishi va ular bilan hamdardligini namoyon qila olishi shunday fazilatlar majmuasidirki, ular o'qituvchi faoliyati va muloqoti bilan uyg'unlashganda o'qituvchi mehnatining bir butunligiga erishiladi.

XXI asrga kelib o'qituvchining vazifasi yanada takomillashib bormoqda. Endilikda global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi o'qituvchidan yuksak mahoratni, o'tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi qanday ijobiy sifatlarga ega bo'lishi lozim? Avvalo, zamonaviy bilimlar, ilg'or tajribalar hamda pedagogik mahoratni yuqori darajada egallaganligi, pedagogik izlanish vazifasiga mos tadqiqot metodlari majmuasini shakllantira olishi, nazariy tadqiqot va amaliy tajriba-sinov ishlarini o'tkazish malakasiga ega bo'lishi, o'qitadigan o'quv fanidan o'quv dasturi, DTS, darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar, elektron darsliklarni yarata olishi va amalda qo'llay bilishi lozim. O'zining pedagogik faoliyatini doimiy takomillashtirib borishi, kasbiy sifatlarini rivojlantirishi, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash malakasini egallashi, yangi pedagogik g'oyalarni ishlab chiqa olish, zamonaviy axborot texnologiyalarini dars jarayonida qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi, o'qitishning istiqbolli yo'nalishlari talablari asosida metod, shakl va vositalarni yaratish va ularni ta'lim jarayonida uzviy qo'llash malakalarini bilishi kerak.

O'qituvchi – odobli, adolatli hamda "bola qalbining injeneri"dir. Bolaning ijobiy va salbiy xususiyatlari ba'zan murabbiydan o'tishini psixolog olimlar ta'kidlab o'tishgan. Chunki o'quvchi o'qituvchining yurish-turishi, kiyinishiga, gapirishiga taqlid qiladi. Bola garchi yosh bo'lsa-da, uning inson ekanligini yoddan chiqarmaslik kerak, uni ko'pchilik oldida obro'sizlantirmaslik, g'ururini toptamaslik kerak.

Hozirgi zamon o'qituvchisi o'z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni, hamda turli fan yo'nalishlari bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarni egallagan, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. Ushbu nuqtayi nazardan hozirgi kunda quyidagi burch va mas'uliyatlar o'qituvchilardan talab qilinadi:

1. O'qituvchi, eng avvalo, mas'uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisidir.
2. O'qituvchi tabiatan o'quvchilarni seva olishi, o'z mehrini, his-tuyg'ularini har lahzada o'quvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo'lishi kerak.
3. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi va ularga xolisona baho

berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bera olishi lozim.

4. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalar yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lib borishi talab etiladi.
5. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi kerak.
6. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil yetishi kerak.
7. O'qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.
8. O'qituvchi ijodkor, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsdir.
9. O'qituvchi kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o'zlashtirib borishi shart.
10. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi kerak: turli sheva so'zlardan holi bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi; o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi; hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli foydalana olishi lozim. Jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi), vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) kabi norasmiy so'zlardan holi bo'lishi lozim.
11. O'qituvchining kiyinish madaniyati o'ziga xos bo'lishi, ya'ni sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishi talab etiladi.
12. O'qituvchi ta'lim muassasasida sinf jamoasining asosiy tashkilotchisi va ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning eng faol ishtirokchisidir.
13. O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi ekanligini unutmasligi shart. Shuning uchun kasbiy faoliyatida pedagogik mahoratning bir qator sifatlarini uzluksiz tarkib toptirib borishi zarur.
14. O'qituvchi, eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mustaqil ravishda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi kerak.

O'qituvchilar unutmasliklari kerakki, o'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va lo'nda bayon etilishiga ahamiyat qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan boshlamasligi, aksincha, o'quvchilarning (yoki hamkasbi, ota-

onalar) muvaffaqiyatlarini e'tirof etishlari, ularni yanada boyitishga ishonch bildirishi bilan muloqotni tashkil qilishi lozim. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrxohlik, samimiylik, do'stona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib tursin.

O'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblari hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Hozirgi sharoitda jamiyatning o'qituvchilik kasbiga nisbatan qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri tashkil qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liq. Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi, avvalo, sinfdagi tarbiyaviy jarayonning tashkilotchisidir. O'qituvchi tarbiyachi sifatida quyidagi talablarni bilishi lozim:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalashda milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vataniga, tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;
- kasbiy bilimlarni puxta bilish bilan birga, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;
- yosh pedagogik psixologiya, pedagogika va psixologiya, yoshlar fiziologiyasi, tarbiyaviy ish metodikasi, maktab gigienasidan o'z kasbiga oid bilimlarni mukammal bilishi;
- o'z kasbi bo'yicha jahon fanida erishilayotgan so'nggi yutuqlar, tarbiya texnologiyasi, kompyuter va axborot texnologiya yangiliklaridan doimiy xabardor bo'lib borishi;
- ta'lim-tarbiya metodikasidan ko'nikma va malakalarini oshirib borishi;
- o'z kasbiga ijodiy yondashishi;
- pedagogik texnika (mantiq, nutq ta'limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;
- o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahoratning asosiy qonuniyati oz mehnat sarf qilib, ulkan natijalarga erishish. Ijodkorlik uning hamisha hamrohi bo'ladi. Pedagogik faoliyatga qiziqqan, qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat xislatlari shakllanib boradi. Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. O'qituvchi o'quvchi shaxsini shakllantiradi, kutilmagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qiladi, pedagogik muammolarni yechadi, o'quv jarayonini mustaqil boshqaradi. Bularning hammasi ijodkorlikning tub mohiyati, ishning maqsadi va xarakteri bilan bog'liq.

O'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy faoliyatda, ma'lum maqsadga erishmoq uchun o'qituvchilar bolalarni hamkorlik jarayoniga tortishi zarur. O'qituvchi o'quvchilarni o'zi bilan hamkorlik qilishga jalb eta olishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- hamkorlik vujudga kelishi uchun jamoada tashkil etilishi lozim bo'lgan faoliyat o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga va qiziqishlariga to'g'ri kelishi lozim;
- o'quvchilarni biror ishga jalb qilar ekan, o'qituvchi ularga pedagogik va psixologik

jihatdan to'g'ri vazifa qo'yishi, yo'l-yo'riq ko'rsatishi shart;

- o'quvchilar topshiriqni amalga oshirishga kirishganlarida o'qituvchi bir vaqtning o'zida ham ishtirokchi, ham maslahatchi vazifasini bajaradi.

Ijodiy faoliyat olib boruvchi o'qituvchi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur. Hozirgi zamon o'qituvchisi fan va texnika taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishi, o'z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni unumli qo'llay olishi taqozo etiladi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. VII asrlarga kelib O'rta Osiyoda ilm-fan va madaniyat sohasidagi rivojlanishlar nimalarga asoslangan?
2. "Avesto"da bolalar ta'lim-tarbiyasiga oid ma'lumotlar haqida fikr bildiring.
3. Abu Nasr Forobiy ta'lim va ustoz o'gitlari haqida qanday fikrlar bildirilgan?
4. Abu Rayhon Beruniyning adabiy meroslarida ta'lim va tarbiya birligi qanday ifodalangan?
5. Muslihiddin Sa'diy Sheroziy asarlarida mudarrislar ta'rifi qanday aks etgan?
6. Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub" didaktik asarida o'qituvchi obrazi qanday yoritilgan?
7. Yunonistonda Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
8. Yevropa olimlarining o'qituvchilar kasbiy mahoratlarini takomillashtirish to'g'risidagi fikrlaridan misollar keltiring.
9. Yan Amos Komenskiy asarlarida ta'lim va o'qituvchining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
10. Taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining roli va shaxsi haqida qanday fikrlar bildirilgan?
11. Pedagog olim V.A. Slastyoninning o'qituvchi shaxsi, pedagogik mahorati haqidagi mulohazalariga o'z fikringizni bildiring?
12. Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini qurishda hozirgi zamon o'qituvchisining vazifalari nimalardan iborat?
13. Bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni haqida aytib bering.
14. Hozirgi zamon o'qituvchisining burchi va vazifalari nimalardan iborat?

Talabalarning mustaqil tayyorgarliklari uchun topshiriqlar

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o'z fikr-mulohazalaringizni bildirib, "Mustaqil ish" yozing:

1. O'rta Osiyo mutafakkir allomalari adabiy meroslarida o'qituvchilik mahorati va

ularning vazifalari.
2. Yevropa pedagog olimlarining o'qituvchi kasbiy mahorati haqidagi mulohazalari.
3. O'qituvchi pedagogik mahoratiga hozirgi zamon nuqtayi nazaridan qo'yiladigan talablar va vazifalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4312785.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent shahri, 2024-yil 1-fevral № O'RQ – 901.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarori – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2020, 27-28-bet.
5. Abdullayev H. Yashil daftar hikmati. – Toshkent, O'qituvchi, 2000.
6. Zaripov K. O'qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarining roli. – T.: O'qituvchi, 1993, 97 – bet.
7. Karimov I.I. O'qituvchi, ustoz, murabbiy...: Talabalar va yosh o'qituvchilar uchun. // Risola. – Qo'qon DPI, 2009. – 99 b.
8. Коменский Я.А. Избраннее педагогические сочинения. –М., 1995. – С. 248-284.
9. Zaripov K. O'qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarining roli. – T.: O'qituvchi, 1993, 97 – bet.
10. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Iqtisod–moliya. 2009. – 240 b.
11. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. //Saylanma. – T.: O'qituvchi, 1997. – 118 b.
12. Педагогика: Учеб. пособие для студентов пед. институтов /Под ред. Ю.К. Бабанского. – М: Просвещение, 1983, 600-бет.13.
13. Сухомлинский В.А.Избранные педагогические сочинения в 5 т. –Киев., 1981. –Т.5. –С. 102.
14. Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma (L. I. Ruvinskiy tahriri ostida). – T.: O'qituvchi, 1991. – 376 b.
15. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005.- 206 b.
16. Толстой Л.Н. Педагогические сочинения. – Москва, 1953. – Б. 72.
17. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T.: Fan, 2009. – 168 b.
18. Ушинский К.Д. педагогические сочинения в 6 t. – М. – Т. 3. – В. 168-169.

3-BOB.

OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING KASBIY FAOLIYATIDA PEDAGOGIK MAHORATNI RIVOJLANTIRISH TIZIMI

Tayanch tushunchalar:

Kompleks; harakatlar strategiyasi; ustuvor vazifalar; dolzarb muammolar; jamiyat; ijtimoiy hayot; tafakkur; qonuniyatlar; qobiliyat; ko'nikmalar; ta'lim-tarbiya metodikasi; psixologik bilim; qadriyatlar; kasbiy faoliyat; optant; adept; global o'zgarishlar; kommunikatsion texnologiyalar; pedagogik faoliyat; integratsiya; ziddiyat; islohotlar; pedagogik-kommunikativ sifatlar; muloqot ko'nikmalari; optimal yechimlar; YUNESKO; tendensiya; insonparvar; kompetentlilik; ta'limda intensifikatsiya; ko'nikma va malakalar; falsafiy qarashlar; personalizatsiya va personifikatsiya; *mustaqil faoliyat; shaxsiy-ekzistensial vaziyat;*

3.1. PEDAGOGIK KADRLARNI KASBIY JIHATDAN TAYYORLASH

Mamlakatimizda ta'lim tizimini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash masalasiga doimiy ravishda jiddiy e'tibor qaratib kelingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida pedagog kadrlarning kasb mahorati sifati va saviyasini uzluksiz rivojlantirib borish eng muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etilgan. Ushbu qarorda mazkur tizimda ta'lim sifati va samaradorligini kafolatlashga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri – malakali pedagog kadrlarni tayyorlash uchun, avvalo, pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratlarini rivojlantirish masalasi ham o'z yechimini kutayotgan eng dolzarb muammolar sirasiga kiritilgan.

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirib borishga mustahkam zamin yaratilishi kerak. Oliy pedagogik ta'lim tashkilotlarida ushbu muammolarning yechimini topishda "Pedagogik mahorat" fanini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi.

Mamlakatimiz yigit-qizlarini zamon talablari darajasidagi bilimli shaxslar etib voyaga yetkazish, hozirgi kunda rivojlanib borayotgan jahon iqtisodiyoti va erkin mehnat bozorining barcha talablariga javob beradigan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash – o'qituvchilardan juda mukammal pedagogik mahoratga ega bo'lishni talab qilmoqda. Shu boisdan ham mamlakatimiz va rivojlangan xorijiy davlatlarda faoliyat yuritayotgan taniqli pedagog olimlar bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik mahoratni shakllantirish masalasiga alohida muammo sifatida jiddiy e'tibor bermoqdalar.

Pedagogik mahorat – har bir o'qituvchi va yoshlarga kasb-hunar o'rgatuvchi murabbiy uchun erishishi va muntazam tarzda takomillashtirib borishi zarur bo'lgan ta'lim-tarbiya berish san'atidir. Bu o'qituvchining pedagogik tizimda ta'lim-tarbiyani zamon talablari darajasida olib borishni, o'quvchilarning bilimi, dunyoqarashi, tafakkuri, qobiliyat va ko'nikmalarini har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan kasbiy ko'nikma va malakalarni muntazam egallab borishni taqozo etadigan yaxlit tizimdir.

Pedagogik mahorat sohibi – O'z ishining mohir ustasi yoki yangilik yaratuvchisidir. Mahoratli o'qituvchi – bu yuqori darajadagi madaniyat xodimi, o'z ishining ustasi, o'z fanini mukammal egallagan yetuk tafakkur egasi, ta'lim-tarbiya metodikasini, psixologik bilimlarni, turli fan va texnika sohalaridagi yangiliklarni chuqur biladigan dunyoviy bilimlar sohibi, bolalarni samimiy sevuvchi, vatanparvar, fidoyi insondir.

Pedagogik tizimda pedagogik mahoratning mohiyati o'qituvchining kasb-korlikka yo'naltirilgan vazifalarni maromiga yetkazib bajarishi jarayonida uning shaxs sifatidagi harakatlarida namoyon bo'ladi va pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlash garovi hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchining pedagogik mahoratini rivojlantirish hamda mahorat cho'qqisini egallashi uchun bosib o'tadigan yo'li mashaqqatli va uzluksiz jarayondir. K.Rodjersning obrazli ifodasi bilan aytganda, zero bu "sayohat" uning butun umri mobaynida davom etib shakllanib boradi. O'qituvchining kasbiy jihatdan shakllanib borishining asosiy bosqichlarini ta'riflashga ko'pgina yondashuvlar mavjud. Xususan, tadqiqotchi olim E.A.Klimov tavsiya qilgan shunday yondashuvlardan birida mukammal pedagogik kasb egasining hayot yo'lida uchraydigan quyidagi davrlarni ajratib ko'rsatadi:

Pedagogik mahorat – bu barkamol insonni har tomonlama rivojlantirishga, tarbiyalashga, dunyoqarashi hamda intellektual qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan barcha turdagi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni hozirgi zamon talablari darajasida optimallashtirishni yuqori saviyada tashkil qila olish salohiyatidir.

1. Pedagogik mahorat va kasbiy bilimlar, ijodkorlik, pedagog maqomi;
2. Pedagogik qabiliyat, ko'nikma va malakalar, refleksiv qobiliyat;
3. Pedagogik hamkorlik va o'z-o'zini boshqara olish san'ati, muosharat odobi, takt, kommunikativ qobiliyat;
4. Pedagogik muloqot va odob-axloq, notiqlik madaniyati, til va nutq;
5. Pedagogik va psixologik bilimlarni egallash, kompyuter savodxonligi;
6. O'qituvchining kasbiy kompetentligi, o'z-o'zini tarbiyalash.

6-chizma. Pedagogik mahoratning tarmoqlanishi

Optant (yoki optanit, optatsiya davri) – yoshlarning kasb tanlash bosqichi.

Adept (adept davri) – inson ongli ravishda o'zi qiziqqan kasbni tanlaydi hamda uni maxsus kasbiy ta'lim muassasalarida (kasb-hunar kolleji, akademik lisey, oliy ta'lim muassasasi va boshqalar) egallaydi.

Adaptant (yoki adaptatsiya, yosh mutaxassisning tanlagan kasbi bo'yicha ishga "ko'nikish" davri). Ayniqsa, yosh o'qituvchi faoliyatida bu davr amaliy pedagogik faoliyatga kirish, nostandart, ko'pincha kutilmagan ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelganda undan mustaqil chiqish uchun adolatli yo'l topishi bilan bog'liqdir. O'qituvchi uchun bu davr 3-5-yilga cho'ziladi deb hisoblanadi (shuni ta'kidlash lozimki, yosh o'qituvchilar aynan shu davrda o'z kasbini tashlab kyetishadi).

Internal (yoki mutaxassislikka kirishib ketish davri) – o'qituvchi asosiy kasbiy vazifalarini mustaqil tarzda va muvaffaqiyat bilan bajara oladigan, ko'nikma va malakalarga ega tajribali pedagog bo'lib yetishadi.

Master (kasbiy mahoratni to'liq egallash davri) – pedagog xarakter xususiyatlari nuqtayi nazaridan o'zining maxsus fazilatlari, ko'nikma va malakalari bilan ajralib turadi yoki kasbiy faoliyatning turli sohalarida osonlikcha yo'l topib keta oladigan universal mutaxassis bo'lib yetishadi, o'z tabiiy yo'nalishiga, o'ziga xos, takrorlanmas kasbiy faoliyat uslubiga ega bo'ladi, doimo ijobiy natijalarga erishadi.

Nufuz (nufuzga, hurmat-e'tiborga sazovor bo'lish davri) – o'qituvchi o'z kasbining mohir ustasi sifatida, o'z sohasida yoki undan tashqari biror sohada ulkan yutuqlarga erishadi, jamoada mashhur bo'ladi, unda kasbiy faoliyatiga xos istalgan vazifani hal qila oladigan ulkan pedagogik tajriba to'plangan bo'ladi.

Ustoz (yoki ustozlik davri) – o'qituvchi ta'lim muassasasida pedagogik jamoadagi kasbdoshlari orasidan o'z maslakdoshlariga, izdoshlariga, shogirdlariga ega bo'ladi, ular bilan yillar davomida to'plagan pedagogik tajribasini o'rtoqlashadi, ularning kasbiy omilkorligini va shaxsiy pedagogik mahorat maktabining shakllanishiga yordam beradi.

O'qituvchining kasbiy mahoratini shakllantirishda hamda asosiy bosqichlarni muvaffaqiyatli bosib o'tishida uchta tarkibiy qism yetakchilik qiladi: oliy ta'limgacha bo'lgan davr (o'rta maxsus pedagogik ta'lim); oliy ta'lim (oliy pedagogik ta'lim); oliy ta'limdan keyingi (pedagog kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida amalga oshiriladigan qo'shimcha pedagogik ta'lim) davr.

O'qituvchilik kasbini tanlagan ko'pchilik yosh yigit va qizlar o'rta pedagogik ta'limga ega bo'lmasdan pedagogika oliy o'quv yurtlariga intilishadi va kasbiy jihatdan shakllanishdagi dastlabki ma'lumotlarni umumiy o'rta ta'lim maktablari yoki o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi darajasida egallashadi. Kimdir esa kasb tanlash haqida umuman o'ylamaydi va o'qituvchilik kasbining o'ziga xos qiyinchiliklarini o'ylamasdan va butunlay boshqacha, kasbga aloqasi bo'lmagan maqsadlarni ko'zlab pedagogika oliy ta'lim muassasalariga o'qishga intilishadi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari birinchi kurs talabalari o'rtasida o'tkazilgan har yilgi so'rovnomalar natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarning yarmi pedagogik faoliyatni ko'zlagan holda oliy ta'lim muassasasini tanlashganligini ta'kidlaydi. Biroq bunday talabalar soni yil sayin kamayib bormoqda.

Hozirgi davrda ro'y berayotgan global o'zgarishlar, axborot va kommunikatsion texnologiyalarning rivojlanib borishi, murakkab madaniy va ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatda barkamol shaxs tarbiyasiga va pedagogik faoliyatga nisbatan qo'yilayotgan talablar soni bilan pedagogika oliy ta'lim muassasalari bitiruvchisining o'z kasbiy vazifalarini bajarishga asl tayyorgarlik (motivasion, nazariy va amaliy jihatdan) darajasi o'rtasida ulkan farq va ziddiyatlar mavjud. Bu ziddiyatlarni hal etish uchun pedagogik ta'lim tizimidagi ba'zi muammolarni hal etish lozim. Pedagog olim U.I.Inoyatov ta'lim tizimida davom etayotgan tub islohotlar natijasida pedagog kadrlarni tayyorlash va

mutaxassis sifatida har tomonlama ularning salohiyatini oshirishda muhim talablar qo'yilayotganini ta'kidlab, pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy mas'uliyat, o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasiga kirib borish uchun zarur pedagogik-kommunikativ sifatlar, ijtimoiy xulq-atvor va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga jiddiy e'tibor berish lozimligini ta'kidlaydi.

Malakali pedagogik kadrlarni tayyorlash, ularning pedagogik mahoratini, ijtimoiy xulq-atvorini, pedagogik-psixologik bilimlarini, kommunikativ ko'nikmalarini, yuksak tafakkurini, intellektual, professional salohiyatini, ma'naviy-axloqiy sifatlarini, siyosiy savodxonligini, o'z kasbiy faoliyatiga nisbatan mas'uliyatini yanada rivojlantirish va zamon talablari darajasida bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni maqsadli tashkil etish maqsadga muvofiqdir: ma'naviy - axloqiy tarbiya ishlarini oliy pedagogik ta'limning maqsad va vazifalari bilan uyg'unlashtirish, "Zamonaviy pedagogning ma'naviy qiyofasi"ni yaratish; bo'lajak o'qituvchilarning umumiy va kasbiy faoliyatiga xos bo'lgan intellektini, qobiliyatini uyg'unlikda rivojlantirish texnologiyalarini yaratish va amaliyotga joriy etish; ijtimoiy faollikni moddiy va ma'naviy motivatsiyalashning yangi va samarali usullarini ishlab chiqish va keng foydalanish; bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini hamda kasbiy moslashishga oid qo'shimcha malakalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy chora – tadbirlarni yanada kuchaytirish avlodini shakllantirish".

Ta'kidlash joizki, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosi hozirgi zamonaviy sharoitda o'zining dolzarbligini yo'qotmagan, balki yanada alohida ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, hozirgi kunda ushbu muammoning nazariy va amaliy darajadagi optimal yechimlari ilmiy tadqiqot ishlarida to'liq o'z ifodasini topmagan. Bu esa bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantirish zaruriyatini anglash va ushbu maqsadga erishish mexanizmlarining mutlaqo yo'qligi tufayli qarama-qarshiliklarni vujudga keltirmoqda. Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar mutaxassislik fanlaridan bilimlarni chuqur egallab, kasbiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lmoqdalar. Ushbu mexanizm asosidagi kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchi, oliy pedagogik ta'lim muassasasidan keyingi faoliyatda hamisha kutilgan natijalarga erishmaydi, bu esa o'qituvchi egallagan bilimlar va kasbiy ko'nikmalarni amaliyotda samarali qo'llashda qarama-qarshiliklarga olib keluvchi bizga noma'lum bo'lgan qonuniyatlar borligidan dalolat bermoqda.

Pedagogik xodimlar kasbiy tayyorlash tizimini qayta tashkil qilishning asosiy yo'nalishlari butunjahon, milliy va hududiy tendensiyalarni aks ettiradigan kasbiy ta'lim rivojining yetakchi tendensiyalari bilan bog'liqdir. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: ta'limning uzluksizligini ta'minlash; insonparvarlashtirish; ijtimoiylashtirish; demokratlashtirish; integratsiya; intensifikatsiya.

Ta'limning uzluksizligi ta'minlash. Kasbiy ta'limga bugungi kunda, mutaxassislarning doimiy kasbiy va shaxsiy jihatdan rivojlanishi va takomillashuvi, alohida kasb doirasida ham, kasbiy faoliyat sohasini o'zgartirgan sharoitda ham mehnatning sifat jihatidan o'zgarishi sharoitida ulardagi imkoniyatlarning kengayishini zamonaviy

ishlab chiqarish talablari taqozo qiladigan uzluksiz jarayon sifatida qaralmoqda.

Uzluksiz ta'lim mohiyati YUNESKOning "Mavjud bo'lishga o'rganish" nomli ma'ruzasida ta'rif berilgan, unda insonning yangi tajribalar uchun ochiladigan holati tushuniladi 1. Biroq mazkur qoida talqini uzluksiz ta'limni faqat vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladigan ta'lim yoki muayyan vaqt oralig'ida malaka oshirish deb qarashga intilish oqibatida ancha toraygan. Uzluksiz ta'limdan maqsad shundaki, asosiy kasbiy ta'lim sharoitida shaxs mustaqil tarzda, o'zini ma'lumotli qilishga va mukammallashtirishga, ijtimoiy va pedagogik muammolarning murakkab doirasida erkin yo'l topa bilishga, o'zgargan sharoitga muvaffaqiyatli tarzda moslasha olishga va o'ziga zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimini shakllantira bilsin.

Mazkur tendensiya ko'p bosqichli pedagogik tayyorgarlik tizimini, uning barcha (o'rta maxsus, oliy, oliy ta'limdan keyingi ta'lim) bosqichlarida pedagogik ta'lim mazmunining o'zaro aloqa va uzviyligini ta'minlaydigan va mutaxassislikka ega bo'layotgan shaxsning uzluksiz rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va professionallashuviga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarining yaratilishida o'z aksini topadi. Kasbiy ta'limning uzluksizligi va ta'lim dasturlarining uzviyligi o'rta, o'rta maxsus va oliy kasbiy ta'lim davlat standartlarining joriy qilinishi bilan ta'minlanadi.

Ta'limning insonparvarlashtirilishi shaxs rivojidagi yetakchi tendensiya sifatida ta'limning inson va uning takomillashishi uchun yo'naltirilganligi, uning individualligini rivojlantirish va ijtimoiy hayotda namoyon qilish uchun sharoitlar yaratish demakdir. Ta'lim insonni axloqsizlikdan, o'zining noyobligini yo'qotishdan, hayotdan, tabiat va madaniyat olamidan bezish xavfidan saqlashi lozim, uning o'zi ta'limni yashash va intilish uchun zarurligini sezishi, o'zini namoyon qilish, ma'naviy, ijtimoiy va kasbiy jihatdan shakllanishga bo'lgan oliy ehtiyojlarini mumkin qadar to'liq qondirishga qaratilgandir.

Pedagogik ta'limni insonparvarlashtirish o'zining ehtiyojlari, motivlari, maqsadlari, munosabatlariga ega bo'lgan bo'lg'usi o'qituvchi shaxsi oliy ta'lim muassasasi pedagogik jarayonidagi eng oliy qadriyat ekanligini taqozo qiladi. Mazkur tendensiya pedagogik ta'limning nafaqat maqsadlari, balki mazmunini, "shaxsni qaror toptiruvchi vaziyatlar" ni (V. Serikov) yuzaga keltiruvchi, talabaning o'quv va kasbiy faoliyat subyektiga aylanishini ta'minlovchi ta'lim texnologiyalarining bo'lishini; pedagogik jarayondagi munosabatlar tizimining o'zgarishini; bu jarayonning samaradorligini baholash mezonlarini taqozo qiladi.

Pedagogik ta'limni insonparvarlashtirish yo'nalishi bo'yicha rivojlanishi bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy jihatdan hozirgi zamon talablari darajasida mukammal tayyorlashni rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirishni taqozo qiladi. Bu o'z navbatida shaxsiy, individual, madaniyatshunoslik, aksiologik tomondan shaxsga va kasbga yo'naltirilgan turli yondashuvlar asosida amalga oshiriladi.

Bu yondashuvlar o'z navbatida keng madaniy va ma'naviy, ilmiy, ijtimoiy va kasbiy potensialga ega bo'lgan bitiruvchi shaxsni – kasb egasini har jihatdan mukammal shakllanishini ta'minlaydi.

Ta'limni ijtimoiylashtirish kasbiy ta'lim tuzilishi va mazmunini hayotiy ehtiyoj talablariga qarab, uning tizimini o'zgartirishga dahldor tendensiyadir. Bunda nafaqat o'quv rejasida ijtimoiy fanlar hissasining ko'payishi nazarda tutiladi, chunki ular miqdori har doim ham sifatga o'tavermaydi. Turli ilmiy kategoriya va dalillarni analitik-mantiqiy tushunishga asoslangan etika, estetika, psixologiya, tarix, adabiyot fanlari doimo shaxsning chuqur ichki dunyosiga ta'sir qilmaydi, insonning olamga va o'z-o'ziga bo'lgan hissiy qadriyatlarini, tabiat va jamiyatga nisbatan munosabatini shakllantirmaydi. Pedagogik ta'limni ijtimoiylashtirish – bu bo'lajak o'qituvchining ma'naviy va madaniy dunyosini, o'z-o'ziga va atrof muhitga insoniy munosabatlarini, murakkab axborot texnologiyalari olamida o'z o'rnini anglashga yetaklaydigan yo'llardan biridir. Bilimlarni "insonparvarlashtirish", ularni shaxsning ma'naviy jihatdan barkamol rivojlantirish quroliga aylantirish ijtimoiylashtirishning mohiyati bo'lib hisoblanadi.

Ta'limni demokratlashtirish insonparvarlashtirishning natijasi hisoblanadi va pedagogik jarayon ishtirokchilarining barchasini, birinchi navbatda, bo'lajak o'qituvchilar bo'lmish talabalarning huquq va erkinliklarini kengaytirilgan tizimi deb qaraladi. Bunda talabalarga yakka tartibda o'qish, eksternat, masofaviy ta'lim va boshqa turli zamonaviy ta'lim xizmatlarini, ta'lim olishning muqobil shakllarini havola qiladi; ta'lim muassasasidagi turli tashkiliy muammolarni ijobiy hal qilishda ularning ahamiyati oshiriladi, talabalarning o'z-o'zini boshqarish tizimi rivojlantiriladi.

Mazkur tendensiyaning namoyon bo'lishi ta'limning yakka tartibga o'tishi va differensiallashuvini tezlashtiradi. Bu kurslarni, yakka tartibda o'qish yo'llari va usullarini erkin tanlash orqali amalga oshiriladi.

Kasbiy ta'lim asosida amalga oshirilayotgan mutaxassisliklar, o'quv rejalari va dasturlarini belgilashda ta'lim muassasasining huquqlari ancha kengaytiriladi. Shu bilan birga, demokratizatsiya sharoitida kasbiy ta'limga xavf tug'diradigan turli hodisalarni ham hisobga olish lozim. Har qanday mamlakat ta'lim tizimida ikki obyektiv tendensiya mavjud. Birinchisi, har bir inson uchun teng huquqli ta'lim imkoniyatlarini yaratishdan iborat; bunda ta'limning bir xilligi tufayli erishiladi. Ikkinchisi, shaxsning o'ziga xos ehtiyojlari va qiziqishlarini ta'minlaydigan ta'limning variativligi bilan bog'liqdir.

Pedagogik jarayonning insonparvarlashtirilgani va demokratlashganini, shaxsga yo'naltirilganligida namoyon bo'ladigan ijobiy tomonlarini ta'kidlash bilan birga bu tizimni amalga oshirishdagi muammolar va kamchiliklarni ham hisobga olish lozim. Hozirgi paytda rivojlangan xorijiy davlatlardan bo'lgan Amerikada pedagog olimlar fanlarni erkin tanlash sharoitida ta'limning umumiy saviyasining pasayib borayotganini, davlat ta'lim standartlarining hozirgi zamon talablariga javob bermay qolganligi haqida gapirmoqdalar. Ularning fikricha, amerikacha ta'lim tizimi bir tomonga cho'zilgan, boshqa tomoni esa rivojlanmagan qing'ir-qiyshiq daraxtga o'xshagan mutaxassislarni ko'paytirmoqda.

Mamlakatimizda davlat ta'lim standartlarining kiritilishi bunday xavfning oldini olishi lozim. Shu bilan birga, standart ta'lim muassasasiga ta'limning variativligini belgilashda erkinlik beradi. Ta'limni demokratlashtirib shuni yoddan chiqarmaslik kerakki,

pedagogik jarayon ayrim ishtirokchilarining huquqlari boshqa ishtirokchilar hisobiga kengaytirilmasligi lozim.

Ta'lim integratsiyasi. Integratsiya tendensiyasi bo'lajak o'qituvchilarga tez o'zgarib turuvchi ta'lim sohasida erkin tarzda ko'chib yurishini ta'minlaydigan, muvaffaqiyatli tarzda ijtimoiylashuvga va madaniyat sohasiga kirib borishini ta'minlaydigan integratsiyalashgan kasbiy tayyorlik ko'rish imkoniyatlarini taqdim qilishi lozim. Turli pedagogik ixtisosliklar guruhi umumtarmoq va umum ishlab chiqarish darajasida mutaxassislarni tayyorlashda federal manfaatlarni kengaytirish imkonini beradi.

Integratsiyalashgan ixtisosliklar bo'yicha tayyorlangan mutaxassislarning ta'limiy potensiali ancha umumlashgan bilimlar tizimi bilan to'ldiriladi, bu esa ularning hajmini qisqartirish va o'quvchilarga o'quv yuklamasini kamaytirish imkoniyatini beradi, bir paytning o'zida yangi toifadagi mutaxassisliklarning kasbiy jihatdan tezkorligini oshiradi.

Integrasion jarayonlar, tezkor tarzda rivojlanayotgan ijtimoiy hayot, ilm va ishlab chiqarish sohasida, tor ixtisoslashgan kasbiy ta'limning kengayishini va birlashtirilishini talab qiladi.

Integratsiyaning amalga oshirilishi quyidagi jarayonlarga imkoniyat yaratadi: kasbiy va u bilan yondosh faoliyatlarning turli sohalarida mutaxassisning o'z yo'nalishini belgilashi va namoyon qilishini ta'minlash; olam va mehnat sohasining yaxlit manzarasini shakllantirish uchun sharoit yaratish; tajribali kasb egasining dunyoda ro'y berayotgan hodisalarni barcha aloqalari bilan birgalikda qamrab olishga imkoniyat beradigan tizimli tafakkurini rivojlantirish; shaxsning to'laqonli va har tomonlama, ya'ni ijtimoiy, iqtisodiy, jismoniy, ma'naviy, aqliy jihatdan rivojlanishini ta'minlash; ta'limning amaliy pedagogik faoliyat bilan o'zaro aloqadorligini o'rnatish; talabalarga keragidan ortiqcha vazifalarni yuklash muammosini tartibga solib hal qilish.

Ta'limda intensifikatsiya. (ta'lim samaradorligini oshirish) Mazkur tendensiyaning kasbiy ta'limda yuzaga kelishi kasbiy faoliyat va ijtimoiy hayotning murakkablashuvi, tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish sharoitlari, fan va zamonaviy texnologiyalarning talabalardan maksimal darajada unumli ishlashni, qizg'in aqliy va amaliy faoliyatga tayyorgarligini talab qiladigan jadal rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Intensifikatsiyani kasbiy ta'lim jarayonini tizimli takomillashtirish asosidagi kasbiy tayyorgarlik samaradorligiga erishish deb qarash mumkin. Mazkur tendensiya nafaqat jamiyat va shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari, balki shaxsning psixologik-pedagogik va tibbiy-fiziologik jihatdan rivojlanish asosini ham aks ettiradi. Ushbu tendensiya asosida mamlakatimiz psixologlarining rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillarida shakllangan shaxsning jadal rivojlanish sharoitlari haqidagi tasavvurlari ifodalanadi.

Intensifikatsiya tendensiyasi quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi: talabalar hayotining ijtimoiy jihatdan mazmunli bo'lishida; o'quv mehnatini intensifikatsiyalashda, ancha yuqori darajadagi ta'limda, talabalarning ijodiy faolligini rag'batlantirishda; o'qituvchining fundamental ilmiy tayyorgarligida; bo'lajak mutaxassislarning mukammal faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi kasbiy integratsiya sharoitida ta'lim mazmunini zamonaviy

talablar doirasida mazmunan boyitishda; talabalarning tizimli va mahsuldor tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratuvchi yangi ta'lim texnologiyalarini tatbiq qilishda; talabalarni zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter vositalari bilan ishlashga tayyorlashda; ta'limga ishtiyoqmandlik va qiziqishni oshiradigan ta'lim shakllari va metodlarini, shakl va uslublarini maqbul tarzda uyg'unlashuvida.

Kasbiy ta'lim rivoji asosiy tendensiyalari pedagogik xodimlarni kasbiy jihatdan tayyorlash maqsadlari, tuzilishi, mazmuni, tashkiliy shakllari va metodlarini takomillashtirishda aks etadi.

Hozirgi zamon pedagogik ta'limi oldida asosiy maqsaddan, ya'ni shaxsning madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirish, iqtisodiyot va mehnat bozorining o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim sohasida mutaxassislarni umummadaniy, ilmiy va kasbiy tayyorlashni ta'minlashdan tashqari bo'lajak o'qituvchilarga o'z kasbiy yo'lini ongli tarzda tanlashda, kasbiy faoliyatda va kelajagini o'zi belgilashda, ijodiy potensialini va o'z shaxsining muhim bo'lgan sifatlarini rivojlantirishda yordam berish vazifasi ham turadi.

Shaxs va jamiyatning turli kasbiy va madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirish pedagogik xodimlarni kasbiy jihatdan tayyorlash tuzilmasi va dasturlarining variativligi va ko'p bosqichliligi vositasida amalga oshiriladi.

Dasturda ajratilgan o'quv soatining yarmini talabalarni nazariy jihatdan o'qitish va amaliy jihatdan tayyorlashni ta'minlaydigan auditoriya mashg'ulotlari tashkil qiladi. Nazariy o'qitish o'z tarkibiga ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida nafaqat nazariy bilimlarni, balki talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini ham qamrab oladi. Kasbiy tayyorgarlikning o'zagini va bo'lg'usi o'qituvchining kasb-korlikka yo'naltirilgan kasbiy-pedagogik kompetentliligini shakllantirishning asosiy sharti uni mazmunan turlicha bo'lgan praktikumlar (ijtimoiy-madaniy, psixologik-pedagogik, fanlar), shuningdek, bevosita amaliy pedagogik faoliyatga (yozgi bolalar lagerlari, maktablari va boshqa ta'lim muassasalarida) jalb qilish orqali amalga oshiriladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy jihatdan pedagogik mahoratini rivojlantirishda mustaqil ishlar sezilarli ahamiyatga ega. Ular asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirish uchun ajratilgan vaqtning yarmiga yaqin hajmni egallashi lozim. Mustaqil ish doimiy o'z ustida ishlaydigan, o'z-o'zini rivojlantirishga, kasbiy muammolarni mustaqil hal qilishga undaydigan, o'z kasbiy faoliyatining subyekti bo'lmish o'qituvchining shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Auditoriya ishi faqat kasbiy kompetentlilikning shakllanish asoslarinigina yaratadi, uning to'laqonli shakllanishi faqat talabaning o'z ustida doimiy ish olib borishi jarayonida namoyon bo'ladi. Hozirgi zamon oliy pedagogik ta'limi buning uchun yuqori darajadagi imkoniyatlarni yaratgan. Bunda oliy ta'lim muassasalari ichida bir paytning o'zida asosiy pedagogik ixtisoslikdan tashqari yagona umummadaniy va umumkasbiy baza asosida istalgan boshqa ixtisoslikni olishi mumkin.

Shu bilan birga, kasbiy pedagogik tizimda bo'lajak o'qituvchilar mahoratini rivojlantirishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan talabaning o'ziga, uning qobiliyatiga, iqtidoriga, ma'lum bir maqsad sari yo'nalganligiga, ijodiy faolligiga va o'z ustida ishlashga, uzluksiz kasbiy jihatdan o'sishga doimo intilishiga bog'liq.

3.2. O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATIDA O'Z-O'ZINI KAMOLOTGA YETKAZISHI VA O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISHI

Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning eng yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga molik ekanligini anglatadi. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Yusuf Xos Hojib, Sa'diy Sheroziy, Husayn voiz Koshifiy va boshqa yetuk allomalar o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks yetishi zarur bo'lgan sifatlar xususida qimmatli ma'lumotlarni o'z asarlarida qizg'in bayon qilishgan. Shunday ekan pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi nafaqat ta'lim-tarbiya samaradorligi, balki inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ham ega bo'la olmaydi.

Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi bolani tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholashi, yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf yetishi, pedagogik faoliyatda hamisha ilg'orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lay olishi lozim.

Barcha davrlarning insonparvarlik pedagogikasidagi falsafiy qarashlarda o'qituvchi shaxsining shakllanishiga kasbiy-shaxsiy jihatdan o'z mavqeyini o'zi belgilashi, o'z-o'zini kamolotga yetkazishi va o'z-o'zini rivojlantirishiga alohida ahamiyat berilgan. K.D.Ushinskiy insonning hayotdagi o'z o'rnini izlashga intilishi insonning tug'ma ehtiyoji deb hisoblagan, bunda olim bu izlanishning tabiati va natijasi o'qituvchiga va butun tarbiya tizimiga bog'liq ekanligini tan olgan. Insonning o'z baxtini topishini u asosiy maqsadni, hayot mazmunini tanlashi va belgilab olishi bilan bog'lagan, bunda inson hayotidagi o'z insoniy iste'dodini asosiy ish, mehnatda qo'lga kiritadi va "ularni amalga oshirish uning uchun o'z hayotidan ham muhimroqdir". Faqat erkin mehnatgina hayotda shunday katta ahamiyatga egadir, yana shunday mehnatki, u ongli tarzda tanlangan bo'lishi lozim. Bu tanlov esa o'z-o'zini o'rganish, zamindagi o'zining rolini o'ylab ko'rish, hayotdagi o'z o'rnini anglab etish jarayonida amalga oshirilishi lozim. Pedagog mehnati o'sib kelayotgan shaxsga o'z hayotiy va kasbiy jihatdan mavqeyini belgilab olishida faqat aynan shu yo'lni bosib o'tgan tarbiyachigina yordam bera oladi degan ishonch bilan sug'orilgan bo'lishi kerak.

L.N.Tolstoy, *tarbiyaning mohiyatini tarbiyachining tarbiyalanuvchilarga tazyiqida emas, balki bola rivojlanadigan muhitning yaratilishida* deb bilgan, shuning uchun u tarbiya masalasiga barham bergan holda tarbiyachi shaxsi va siymosi, uning o'z ustida qizg'in ishlashi masalasini qo'ygan. Shaxs sifatida takomillashuvni kasbiy jihatdan

mukammallashuvdan ustun qo'yish va tarbiyachining o'z-o'zini takomillashtirishga yo'naltirilgan butun bir fan sohasini ishlab chiqish haqida L.N.Tolstoy quyidagi fikrlarni bildiradi: *"Bolalar tarbiyasi muvaffaqiyatli bo'lishi uchun tarbiyalovchi insonlar o'zlarini to'xtovsiz tarbiyalashlari, nimaga intilayotgan bo'lsalar, shunga erishishlari uchun bir-birlariga yordam berishlari lozim. Bunga zarur bo'lgan vositalar esa, asosiy ichki vositadan – har bir insonning o'z qalbi ustida olib boradigan ishidan boshlangan bo'lishi mumkin. Ularni qidirish, o'ylab ko'rish, ilova qilish, muhokama qilish kerak. O'ylaymanki, bu bolalarga ta'sir qilish uchun o'zini tarbiyalashning butun boshli va muhim fan sohasidir".*

XIX asrda yashab ijod qilgan mashhur pedagog P.F.Kapterev erkin va mustaqil faoliyat egasi sifatida o'qituvchi bo'lib shakllanishning muhim o'zagi, avvalo, o'z-o'zini rivojlantirishi, ko'nikma va malakasini oshirishi deb biladi. Uning fikricha, madaniyatdan, uni o'zlashtirish haqidagi tasavvurlardan va shaxsan takomillashuvdan rivojlanmaydigan o'qituvchi boshqalarning rivojlanishiga yordam bera olmaydi va shaxs sifatida doimiy izlanishda bo'lgan va o'z ustida ishlaydigan o'quvchidan ham ancha pastda turadi.

Olingan oliy pedagogik ta'lim o'z-o'zidan bo'lajak o'qituvchilarni o'z kasbiy vazifalarini sidqidildan bajarishga tayyor shaxsga aylantiradi deb o'ylamaslik lozim. Kasbiy-shaxsiy jihatdan o'z mavqeyini belgilash, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish va boshqa "o'z-o'zini mukammal darajadagi mutaxassis" sifatida uning mohiyati va ahamiyatini anglash, pedagogik mahoratning serqirra usullarini egallash bo'lg'usi pedagogning muhim vazifasidir. Mazkur tushunchalarga yuklangan ma'no va mazmunni tushunib olishga urinib ko'ramiz.

O'qituvchining o'z mavqeyini o'zi belgilashi shaxsning o'z mavqeyini, maqsadlarini va aniq hayotiy vaziyatlarda o'zi amalga oshirishdagi vositalarini tanlash jarayoni va natijasi; insonning ichki erkinligini qo'lga kiritishi va namoyon qilishining asosiy mexanizmi deb qaraladi. Shu ta'rifning o'zi ham bu murakkab hodisaning ko'pgina maqsad va chegaralarini aniqlashga imkon beradi.

O'z mavqeyini o'zi belgilash dinamik (harakatchan) hodisa, shaxs shakllanishi jarayoni, mexanizmi sifatida maydonga chiqadi va bu ma'noda "tanlov", "qaror qabul qilish", "muomala" kabi tushunchalar bilan munosabatga kirishadi va bir paytning o'zida subyektning o'z "men"ining chegarasini, olamda va hayotda o'z o'rnini belgilash bilan bog'liq bo'lgan qo'zg'almas, barqaror holat (tanlov natijasi), insonning atrof-olam va o'ziga bo'lgan munosabatini ta'riflab beradigan qadriyatlar, maqsadlar, mavqelar, ko'rsatmalarning muayyan barqaror tizimini qo'lga kiritish sifatida maydonga chiqadi.

O'z mavqeyini o'zi belgilashni subyektning barqaror holati sifatidagi nisbiyligini ta'kidlash lozim. Bu nisbiylik nafaqat butun umr davomida, balki uning ancha kichik bir qismida ham shaxs ongida o'z "men"ining chegaralarida kengayish yuz beradi, munosabatlar tizimida, olam bilan o'zaro munosabatlarda, hurmat-e'tibor qozonishda, qadriyatlarni belgilashda uning tafakkur olamida turli o'zgarishlar yuz beradi.

O'z mavqeyini o'zi belgilashning navbatdagi xususiyati uning bir vaqtdagi faoliyat

va qadriyat hamda maqsad ko'rinishidagi tabiatidir. Qaror qabul qilish jarayonidagi shaxs tomonidan qilingan tanlov nafaqat harakatni, balki shaxsning *o'z mavqeyini o'zi belgilashda amalga oshirilayotgan* borliqdagi sohalarga munosabatini ham o'z ichiga qamrab oladi.

Bundan tashqari, o'qituvchining *o'z mavqeyini o'zi belgilashi, bir tomondan, ancha uzoq, uzluksiz jarayon sifatida maydonga chiqsa, ikkinchi tomondan, insonning muayyan muammoli vaziyatlarda adolatli qarorlar qabul qilinayotgan paytdagi ma'lum harakatlarini aks ettiradigan bir lahzalik harakat sifatida maydonga chiqadi.*

Va nihoyat, *o'z mavqeyini o'zi belgilash tushunchasining turli ma'noli ekanligi uning turli yo'nalishli ekanligi – o'ziga, o'z-o'zini bilish va o'z mohiyatini tushunishiga; o'zidan tashqariga – olamdagi o'z o'rnini belgilashga va unga munosabatiga, hayotning turli sohalariga kirishib keta olishi bilan bog'liq. O'ziga yo'naltirilgan o'z mavqeyini o'zi belgilashga ko'pincha shaxsiy jarayon sifatida qaraladi*, qolgan turlari esa hayotda insonning o'z mavqeyini o'zi belgilaydigan sohalariga mosdir.

Kasbiy faoliyatda shaxsiy jarayon sifatida o'z mavqeyini o'zi belgilashning o'ziga xos jihatlari shundaki, bu jarayon va shaxsning yagonaligini, o'z imkoniyatlarining (har qanday vaziyatlarni hal etishga qodirman) va istak-xohishlarining (bajarishni xohlayman) hamda ularning atrof-olam bilan mosligini (Men – Men, Men – boshqalar, Men – jamiyat, Men – olam, Men – shaxs usti borlig'i) va shaxs sifatidagi o'sishining asosiy strategiyasi va yo'nalishlarini anglashi natijasidir.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy jihatdan o'z mavqeyini o'zi belgilashi kasb tanlash bilan bog'liq emas, u muayyan harakat yoki kasbiy shakllanish sifatida emas, balki uning mohiyat asosi, o'ziga xos mexanizm sifatida maydonga chiqadi va butun kasbiy faoliyat davomida to'xtamaydigan insonning o'z kasbiy faoliyati mazmunini izlash hamda qo'lga kiritish, haqiqiy kasb egasi sifatidagi o'z "men"ini kashf qilish va amalga oshirish, muntazam o'zgarib va murakkablashib turadigan kasbiy faoliyat davomida yuz beradigan muammoli vaziyatlarda tanlovni amalga oshirish jarayonini ifodalaydi. Mazkur jarayonning tabiati va yo'nalishi ko'p jihatdan shaxsning o'z mavqeyini o'zi belgilash jarayoniga qanday moslashgani bilan belgilanadi.

O'qituvchining doimiy kasbiy va shaxsiy jihatdan *o'z mavqeyini o'zi belgilash zaruriyati uning shaxsiy va kasbiy jihatdan shakllanish jarayonining murakkabligi va ziddiyatliligi tufayli yuzaga kelgan.* O'qituvchi shaxsiy hayotining kasb bilan bog'liq bo'lgan bo'lagida sezilarli shaxsiy o'zgarishlar bilan ajralib turadigan keskin burilish bosqichlari mavjud. Amalda o'qituvchi faoliyatidagi har bir bosqich muayyan tangliklar bilan murakkablashib turadi.

Kasbiy jihatdan o'z faoliyatiga moslashishdagi tanglik holati pedagogik faoliyatning qanday boshlanishiga borib taqaladi va kasbiy jihatdan o'zini boshqa kasbdoshlari bilan qiyoslash jarayonidagi murakkabliklar va kasbiy faoliyatni egallashi bilan bog'liqdir. Eskicha ishlashdagi tanglik yoki "pedagogik tanglik" vaqti-vaqti bilan har 10-15-yilda paydo bo'lib turadi va psixologik charchoq, ijodiy pasayish, faoliyatda bir xillik va bir

qolipga tushib qolishni sezish bilan, yolg'izlik, taranglik, o'ziga ishonchsizlik tuyg'ulari bilan ajralib turadi.

Kasbiy faoliyatning so'nggi bosqichlaridagi tanglik, kasbiy mahorat darajasining pasayishi, o'zini past baholashi, o'z imkoniyatlarining tugaganligini sezish, turli himoya motivlarining yuzaga kelish holatlari bilan belgilanadi. Mazkur tangliklar ijtimoiy-siyosiy, madaniy-tarixiy va shaxsiy-ekzistensial vaziyatlar oqibatida ham ancha murakkablashadi.

Kasbiy-shaxsiy jihatdan *shaxsning doimo o'sib borayotgan ehtiyojlari bilan emas, balki inson tez-tez o'z faoliyat sohasini o'zgartirib turadigan hozirgi zamon ijtimoiy sharoitlar oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin, shuningdek, o'qituvchini yangi ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarda o'z mavqeyini o'zi belgilashga undaydigan kasbiy faoliyati tabiati va mazmunining o'zgarishi bilan ham bog'liq.* Bu o'zgarishlar o'qituvchi faoliyatida ta'lim konsepsiyalari almashgan, ko'pgina o'quv fanlari mazmunida tub zamonaviy o'zgarishlar yuz bergan, yangi o'quv fanlari, axborot va ta'lim texnologiyalari paydo bo'lgan vaziyatlarda, ayniqsa, sezilarlidir. Bularning barchasi o'qituvchining doimo va uzluksiz tarzda kasbiy va shaxsiy jihatdan *o'z mavqeyini o'zi belgilashi va o'z-o'zini rivojlantirishi zarurligini tasdiqlaydi.* Biroq ushbu holat, ayniqsa, yosh o'qituvchining kasbni egallash bosqichida, talabalik yillarida juda samarali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini tushunishsiz inson hech qachon o'zi uchun yangi bilimlar olishga imkoniyat yarata olmaydi, ularga yangi mazmun bag'ishlay olmaydi, o'zi haqidagi jo'shqin yangiliklarni ochishga imkoniyat tayyorlashga ojizlik qiladi.

O'z-o'zini bilish va o'z-o'zini tushunish kasbiy va shaxsiy jihatdan o'z mavqeyini o'zi belgilashning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Aksariyat psixologik tadqiqotlarda "o'z-o'zini bilish" va "o'z-o'zini tushunish" tushunchalari tenglashtiriladi va o'zaro ma'nodosh so'zlar deb qaraladi. Shu bilan birga, o'z-o'zini bilishni o'zi haqida ma'lumotlar yig'ish, dastlabki axborotlarni to'plash jarayoni sifatida o'z-o'zini anglashning alohida shakli, shu axborotlarni tushunib yetish va uni talqin qilish jarayoni sifatidagi o'z-o'zini tushunishdan farqlash lozim. O'z-o'zini bilishning natijasi o'zi haqidagi yangi bilimlar, o'z-o'zini tushunish natijasi esa inson o'zi haqida bilganlarining yangi mazmuni bo'lib hisoblanadi.

Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, atrof-olamni tushunishdan, butunligicha inson hayoti mazmunidan, o'z borlig'idan, atrofdagi olamga munosabatini tushunishdan tashqarida o'z-o'zini samarali va mos tarzda tushunishi mumkin emas. Aynan tashqi olamda nimanidir tushuna turib, inson o'z qobig'iga kirib boradi va o'z qobig'i ustidan ko'tarila oladi.

O'z-o'zini tushunish nafaqat o'z-o'zini bilish bilan, balki "yashash" jarayonlari, o'z ichki holatini sezish, uning asosiy mexanizmi sifatida maydonga chiqadigan refleksiyani amalga oshirish shaklidagi o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini qiyoslashga – o'z "men"iga ega bo'lishga olib boradigan refleksiya bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Kasbiy-shaxsiy jihatdan bo'lajak o'qituvchilarning *o'z mavqeyini o'zi belgilashi*

quyidagi vaziyatlarni o'z ichiga qamrab oladigan jarayon sifatida maydonga chiqadi: bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zini bilishi, o'z xatti-harakatlariga javob bera olishi uning natijalarini bilishi – o'zining imkoniyatlarini, o'zlashtirayotgan pedagogik mahoratlarini o'z maqsadlari, qarashlari va tasavvurlari tizimi bilan qiyoslashi; kasbiy tanlovni amalga oshirish va shu asosda o'zining o'qituvchi sifatidagi jamiyatda tutgan o'rnini tasavvur qilishi, kasbiy maqsadlari, mahorati, imkoniyatlari, kelajagi, kasbiy-shaxsiy jihatdan mavqeyining o'sib borishi va takomillashishi asosida o'z "Men"i – konsepsiyasini qurishi.

Har qanday *o'z mavqeyini o'zi belgilash, bir tomondan, o'zining timsolini, dolzarb ehtiyojlar tizimini, maqsadlarini, intilishlarini, o'ziga xos fazilatlarini, boshqa tomondan – vaziyat yoki o'z "Men"i namoyon bo'ladigan, mavqeyi belgilanayotgan talab qilingan vaziyatlarni, va nihoyat uchinchi tomondan* – birinchini ikkinchiga yoki ikkinchini birinchiga qiyoslab, ulardan birini belgilovchi sifatida qayd qilib qo'yishni o'z ichiga oladi". Kasbiy-shaxsiy jihatdan *o'z mavqeyini o'zi belgilashdagi har qanday harakatga mos keladigan* bu mantiq siz keyinchalik amaliy mashg'ulot-treninglarda yoki mazkur jarayon bilan mustaqil shug'ullanadigan faoliyatning ichki mazmunini belgilab beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zini bilishi, anglashi, o'z mavqeyini ko'ra olishida quyidagi bosqichlardan xabardor bo'lishi kerak:

- o'z shaxsiy hayotidagi maqsadni va burchni, o'zining insoniy va kasbiy qiziqishini hayot mazmuni haqidagi yetakchi falsafiy konsepsiyalarni tushunib olish asosida anglashi;
- o'z "men"ini (hissiy, intellektual, ijtimoiy va ma'naviy) pedagogik faoliyat doirasida bilish va anglashi;
- shaxsiy hayotini kasbiy jihatdan ko'ra bilib kelajagini yaratishi (hayot va kasbiy faoliyat maqsadlarini, kasbiy va shaxsiy jihatdan o'z-o'zini mukammallashtirish yo'nalishlarini);
- o'qituvchi shaxsi modelini (professiogrammasini) yaratish asosida uning kasbiy faoliyatiga va shaxsiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- mazkur model asosida o'zining kasbiy imkoniyatlari bilan ehtiyojlarini bog'lashi;
- kasbiy va shaxsiy jihatdan o'z-o'zini mukammallashtirish dasturini ishlab chiqishi;
- kasbiy va shaxsiy jihatdan o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirib borish hamda mukammallashtirish usullarini egallashi;
- o'rganilayotgan fanlarning kasbiy va shaxsiy jihatdan o'qituvchining o'sishi va shakllanishidagi ahamiyatini aniqlash.

O'z mavqeyini o'zi belgilash bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy jihatdan pedagogik *mahoratlarini oshirib borishdagi murakkab va og'ir yo'ldagi birinchi, lekin oxirgi qadam emas. U o'qituvchining o'z-o'zini tarbiyalashi, o'z-o'zini mukammallashtirishi va o'z-o'zini rivojlantirishi uchun asos bo'lib maydonga chiqadi.* Ma'nosi jihatidan yaqin bo'lgan bu

tushunchalar, odatda, bir-birining o'rnida almashib qo'llaniladi. Ko'pincha insonning o'z ustida olib borgan ishini ifodalash uchun "o'z-o'zini tarbiyalash" atamasi ishlatiladi, bu atama insonning o'z qobiliyatlarini ongli va maqsadli tarzdagi faoliyatini, ijobiy fazilatlarni mukammallashtirish va kasbiy faoliyatidagi salbiy holatlarga barham berishni ifodalaydi. Shu paytning o'zida o'qituvchining kasbiy va shaxsiy jihatdan o'sishiga yo'naltirilgan jarayon va faoliyatlarni "o'z-o'zini rivojlantirish" va "o'z-o'zini mukammallashtirish" kabi tushunchalar ancha mos va aniq ifodalaydi.

O'z-o'zini rivojlantirish – shaxs tashqi ta'sirlarning emas, o'z harakatlarining natijasi sifatidagi faol, izchil ijobiy sifat jihatidan o'zgarish jarayonidir. O'z-o'zini rivojlantirish shaxsning o'zida bor bo'lgan, insonga tabiat tomonidan berilgan psixik va shaxsiy xususiyatlarini, masalan, iqtidor, xotira, tafakkur, diqqat, tuyg'ular sohasi, umumiy va kasbiy qobiliyatlar va yangilikka intilish kurtaklarini o'zgartirishga yo'naltirilgan faoliyati deb ham qaralishi mumkin.

O'z-o'zini mukammallashtirish (qaysidir ma'noda o'z-o'zini tarbiyalash darajasi bilan bir xildir) – bu insonning o'zida yangi fazilatlarni, xususiyatlarni, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va mavjud bo'lganlarini esa kuchaytirishiga, shuningdek, kamchiliklarni to'g'rilashga yo'naltirilgan faoliyatdir. "O'z-o'zini mukammallashtirish" tushunchasi insonparvarlik ma'nosini ham aks ettiradi, chunki insonning o'ziga ta'sir qilishni nazarda tutadigan o'z-o'zini tarbiyalashdan farqli o'laroq, o'zidagi eng yaxshi fazilatlarga suyanishni, ijobiy xislatlarini kengaytirishni va o'zining kasbiy cho'qqisi tomon harakatlanishini va nihoyat akme (grekcha acme – gullab-yashnash, cho'qqi) ga erishishni ifodalaydi.

Keyingi o'n yilliklarda samarali rivojlanayotgan akmeologiya fani (O.S.Anisimov, A.A.Bodalev, A.A.Derkach, N.V.Kuzmina, A.A.Rean va boshqalar) o'qituvchining *o'z-o'zini rivojlantirishi va o'z-o'zini mukammallashtirishini* o'z hayoti va kasbiy faoliyatidagi pedagogik mahorat cho'qqisiga, shaxsiy va kasbiy yetuklikka erishish va o'z ijodiy potensialini sarflay olish qobiliyatiga ega bo'lgan to'laqonli subyekt bo'lib yetishishdagi asosiy shartlaridan biri sifatida qaraydi.

O'qituvchining shaxs sifatidagi va kasbiy jihatdan o'sishiga olib keladigan jarayonning tarkibiy qismlaridan yana biri mustaqil tarzda **w**dir. An'analarga ko'ra mustaqil tarzda bilimni oshirish mustaqil shug'ullanish yo'li bilan kasbiy yo'nalish taqozo qiladigan bilimlarga ega bo'lish, ya'ni mustaqil ta'lim olishdir. Buning boshqacha talqini uni o'zini ma'rifatli qilish, madaniyatga mustaqil jalb qilish orqali amalga oshiriladigan o'z-o'zini yaratish, o'z-o'zini qurish jarayoni sifatida tushuniladi.

Mustaqil tarzda bilimni oshirish – insonning o'z mavqeyini o'zi belgilashi va o'z-o'zini mukammallashtirishning asosiy yo'llaridan biridir, chunki faqat madaniy olamga kirish orqaligina u o'zining yaxshi tomonga, o'zidagi oliy maqom tomonga harakatlanishni mo'ljalga olish sifatida xizmat qiladigan ideal timsolni yarata oladi. Demak, mustaqil tarzda bilimni oshirishni oddiy tarzda axborot yig'ish bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Bilimli bo'lish – boshqalarni, o'zini, hayot mazmunini, umrini, madaniy va ma'naviy olami oldidagi o'z mas'uliyatini tushunish demakdir. Shunday ekan, rivojlanayotgan inson

uchun madaniyat ham bevosita mavjudlik shakli (hayot, energiya, muloqot), ham o'z mavqeyini o'zi belgilash uchun, ongli tarzda o'zini yaratish uchun asosdir.

XX asr boshlarida yashab ijod qilgan rus faylasuf olimi V.V.Rozanov ongni, xotirani og'irlashtiradigan ko'pgina keraksiz ma'lumotlar olishga mo'ljallangan mustaqil bilim olishga qarshi chiqqan, uning maqsadini u insonning ma'nan rivojlanishida, erkin va ongli holatga ko'tarishda ko'rgan. "Onglilik – bu olamning turli xil tovlanishiga erkin nazar tashlashdan, bittasidan ikkinchisiga o'tayotib nimani qoldirish va nimani qidirayotganligi haqida o'ziga hisobot berishdan iborat bo'lmog'i lozim va uning birinchi bosqichi o'z shaxsiy olamiga cho'mish, bu olamni jonli tarzda his qilish va yorqin tushunishdir".

O'z mavqeyini o'zi belgilash, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini mukammal kasbiy cho'qqiga yetkazish va mustaqil bilim olish, asosiy maqsadi o'qituvchining shaxs sifatida va kasbiy o'sishini ta'minlash bo'lgan jarayonlardir. Shaxs sifatida va kasbiy o'sish nima degani? Mazkur tushunchalar mohiyatini oddiygina tushunish shaxs sifatidagi o'sishni insonning ijtimoiy mavqeyining o'zgarishi sifatida, kasbiy o'sishni esa insonning amal bo'ylab o'sishi sifatida qarashga intilish oqibatida yuz bergan. Olimlar insonning shaxs sifatida shakllanishi zamirida yotgan va kasbiy jihatdan shakllanishining asosiy yo'nalishini belgilaydigan ikkita jarayonni ajratishadi. Bular personalizatsiya va personifikatsiyalardir.

Personalizatsiya jarayoni – tadqiqotchi olim A.B.Orlov ta'kidlaganidek, insonning o'zini olamga, boshqa odamlarga kuchli ta'sir yetishi yoki hokimiyatga ega bo'lgan "shaxs" ga aylantirishidir. Mazkur jarayon uning "obro'li", "referent" yoki "jalb qiluvchi" bo'lishga intilishi bilan bog'liq va ko'pincha insonning o'ziga mos bo'lishga emas, balki oldindan berilgan ijtimoiy rolga mos bo'lishga intilishiga olib keladi. Shunday qilib, personalizatsiyaning asosida insonning o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan rolga o'z-o'zini tenglashtirish yotibdi.

Personifikatsiya jarayoni, aksincha, o'zligini yo'qotmaslikka intilishda namoyon bo'ladi, insonning o'ziga ehtiyoj seziladigan lahzalarni ko'paytirishiga olib boradi. Muvaffaqiyatli o'tayotgan personifikatsiya jarayoni insonning ijobiylik darajasini oshiradi va shaxs personalizatsiyasiga qaraganda ancha yaxlitroq, kirishimliroq jarayon sifatida namoyon bo'ladi. U insonga o'zini muayyan kasbiy rolga to'la tenglashtirishdan saqlaydi, uning olamga bo'lgan munosabatini individning asl mohiyati, ichki "Men"i nuqtayi nazaridan namoyon bo'ladigan ichki motivlari va maishiy qadriyatlari belgilaydi. O'qituvchining o'z kasbiy faoliyatida duch keladigan har qanday ziddiyatli vaziyatlarda ham tushkunlikka tushmasdan, yaxshi kayfiyat bilan faoliyatni boshqarishni ta'minlaydi.

Ma'lumki, personalizatsiya jarayonining personifikatsiya jarayonidan ustunligi eng avvalo, insonning hayotidagi bosh maqsadi sifatidagi oliy mavqega, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishga intilishida namoyon bo'ladi. Modomiki, o'qituvchi muayyan mavqega erishishi kasbiy rol bilan bog'liq bo'lgani uchun, aynan shu rol insonning atrofdagilarga va o'z-o'ziga, hayotidagi asosiy yo'nalishlarga, kasbiy faoliyatiga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Kasbiy yemirilishlarga, kasbiy faoliyatda shaxs sifatidagi rivojlanishda turli buzilishlarga olib kelgan holatlarda o'zi uchun asosiy maqsadni belgilab olishiga ko'maklashadi.

O'qituvchining shaxs sifatidagi va kasbiy o'sishi, eng avvalo, uning shaxs sifatidagi va kasbiy potensiali, ya'ni tafakkuri va ongining, o'z-o'zini anglashining kengayishi, o'zidagi asl mohiyatni, nimalarga qodir ekanligini kashf qilishi, borlig'idagi kasbiy va shaxs sifatidagi qadriyatlar va maqsadlarni, tanlagan kasbida o'zini namoyon qilishdagi o'ziga xos uslublari bilan bog'liq.

Shak-shubhasiz, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'sish ko'rsatkichlaridan biri sifatidagi mavqeyining ortishi va amal jihatidan ko'tarilishining ahamiyatini va rolini inkor qilib bo'lmaydi. Psixolog olim E.A.Klimovning fikriga ko'ra, "bu o'zaro bog'langan, ammo turli darajadagi: gnostik (ongni va o'z-o'zini anglashni qayta qurish shaklida) va amaliy (ijtimoiy mavqening, insonning insonlararo munosabatlar tizimidagi real o'zgarishlar shaklidagi) jarayondir". Bunda ikkinchi daraja birinchi darajaning mantiqiy davomi sifatida maydonga chiqishi lozim. Afsuski, mavjud hayotda ko'pincha oldingini chetlab o'tib ikkinchisiga erishishga intilishlar uchraydi. Aslida, insonning olamda va boshqa insonlar bilan o'zaro aloqada mavjud bo'lishining asosiy usulini aks ettiruvchi yo'nalish, shaxs sifatida va kasbiy jihatdan shakllanish jarayonlarining qadriyatli va maqsadli yo'nalish haqida so'z ketmoqda. Bunda u tashqi – mavqe, jamiyatdagi o'rin yoki ichki – o'zining mohiyatini, "men"ini namoyon qilishga qaratilgan bo'ladi.

Insonning shaxs sifatidagi o'sishi mohiyati insonparvarlik ruhidagi psixologiyada ancha to'liq ochilgan. A.Maslouning ta'kidlashicha, inson tabiatida ijobiy jihatdan o'sish va mukammallashuv uchun yashirin imkoniyatlar mavjud bo'lib, ular insonning universal vazifasi sifatidagi ijodida mavjuddir. Bu vazifa uning o'z-o'zini namoyon qilishi, "yashirin imkoniyatlar, qobiliyatlar va talantlar sifatida, o'z missiyasini amalga oshirishi sifatidagi, o'zining asl tabiatini to'la bilish sifatidagi, shaxsning birlikka, integratsiyaga yoki ichki energiyasiga uzluksiz intilish sifatida tushuniladigan o'z-o'zining zarurligini ko'rsatish sifatidagi yashirin imkoniyatlar mavjuddir". Inson o'zi yashirin imkoniyatlarini qay darajada yuzaga chiqaradi, bu uning shaxsiy ishi. Shaxs sifatidagi o'sishga va o'zining bu hayotda zarurligini namoyish qilishga bo'lgan ehtiyoj – inson ehtiyojlari qatoridagi eng yuqori bosqich hisoblanadi. Uning o'z mavqeyini o'zi belgilashi va o'z-o'zini rivojlantirishi aynan shu yo'nalishda amalga oshirilishi lozim.

3.3. O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATIDA O'Z-O'ZINI KAMOLOTGA YETKAZISHI VA O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISHI.

Barcha kasbiy faoliyatlar tarkibida bo'lgani singari pedagogik faoliyat tarkibida ham o'ziga xos rang-barangligi bilan ajralib turadigan, quyidagi komponentlardan iborat bo'lgan *faoliyat turlari* mavjud: *maqsad, vosita, obyekt, subyekt.*

O'qituvchi pedagogik faoliyatining ***maqsadi*** asosan mazkur jamiyat tomonidan belgilanadi. U o'z mehnatining yakuniy natijalarini erkin tanlash huquqiga ega emas,

zero uning harakatlari, qizg'in ijodiy faoliyati o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida har tomonlama rivojlantirishga, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan bo'ladi.

N.V.Kuzmina pedagogik faoliyat strukturasida o'zaro bog'liq to'rtta: konstruktiv, tashkilotchilik, kommunikativ va gnostik komponent va mos ravishda faoliyatning to'rt turini ajratadi. Pedagogik faoliyatning bu funksional turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchining o'z kasbiga nisbatan tegishli ko'nikma va malakalar talab etiladi.

Konstruktiv faoliyat, o'z navbatida, konstruktiv-mazmunli (o'quv materialini saralash va kompozitsiyalash, pedagogik jarayonni rejalashtirish va qurish) hamda konstruktiv-operativ (o'zining va o'qtuvchilarning harakatlarini rejalashtirish), shuningdek, konstruktiv-material (pedagogik jarayonning o'quv-moddiy bazasini rejalashtirish) faoliyatga bo'linadi.

Tashkilotchilik (tashkiliy) faoliyati o'quvchilarni faoliyat turlariga jalb qilish, jamoa yaratish va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishga qaratilgan harakatlar tizimini bajarishdan iborat.

Kommunikativ faoliyat pedagogning tarbiyalanuvchilar, maktabning boshqa pedagoglari, jamoatchilik vakillari, ota-onalar bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlarni o'rnatishga qaratiladi.

Gnostik faoliyat yangi bilimlarni egallash, o'rganilishi kerak bo'lgan hodisalarni va ularning aloqa hamda munosabatlarini tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish, tasniflash, strukturalashtirish, baholash bilan bog'liq.

Pedagogik faoliyat, avlodlarning ijtimoiy uzluksizligini amalga oshirishga, yoshlarni ijtimoiy aloqalar tizimiga olib kirishga, har bir insondagi tabiat tomonidan in'om etilgan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlariga, hayotiy tajribalarni egallashlariga xizmat qiladi.

O'zga bir insonlarning faoliyatini boshqarish (ta'lim-tarbiya berish) imkoniyatining mavjudligi, o'qituvchi pedagogik faoliyatining maqsadini belgilaydi va bevosita tarbiyalanuvchilarning kelajagi uchun javobgarligi bilan asoslanadi. Mamlakatning porloq kelajagi uchun mustahkam poydevor qurish o'qituvchi uchun aniq va tushunarli jarayondir. Ta'lim-tarbiya jarayonining murakkab va mashaqqatli ekanligini, shu sohada olib borilayotgan islohotlarni hayotga tatbiq etuvchi ongli fuqaroligini teran anglab yetgan mohir o'qituvchi o'z faoliyati mantig'ini o'quvchi ehtiyojlari asosiga qurishga harakat qiladi.

Pedagogik faoliyat maqsadlarining o'ziga xosligi shundaki, o'qituvchidan jamiyat oldida turgan ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishni ongli shaxs sifatida anglashni taqozo qiladi. Qachonki, jamiyat maqsadlari o'qituvchi pozitsiyasi nuqtayi nazarida "o'z aksini" topsagina o'qituvchi o'z oldida turgan vazifalarga ijodiy yondasha oladi, o'quvchilarning qiziqish va imkoniyatlarini to'g'ri inobatga olgan holda ularni ta'lim maqsadlariga xizmat qildirishga yo'naltiradi.

V.A.Suxomlinskiyning e'tirof yetishiga ko'ra, faqat ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga e'tibor qaratilgan ta'lim muassasalarida shaxsda pedagogik faoliyatning muhim ***vositalari***

bo'lmish, haqiqiy aql, iroda, e'tiqod, burch, mas'uliyatni his etish, majburiyat, o'zgalarga insonparvarlarcha e'tibor hissi tarbiyalanadi.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xos ***obyekti*** quyidagilarda o'z aksini topadi: Inson – hayotda bo'lib o'tayotgan voqea va hodisalarga nisbatan o'zining mustaqil fikr-mulohazalariga va qarashlariga ega bo'lgan hamda betakror individual xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan faol mavjudotdir. Shuningdek, u o'z shaxsiy xulqi, qiziqishlari, maqsadiga ega bo'lgan pedagogik jarayonning asosiy ishtirokchisi hisoblanadi. Demak, inson pedagogik faoliyatning obyektidir, shu bilan birga bir vaqtning o'zida u subyekt va ijod qiluvchi ham hisoblanadi. Shu boisdan har bir inson pedagogikaning ta'lim-tarbiyaviy ta'siriga o'zida mavjud qarashlar, ichki olamidan kelib chiqqan holda alohida yondashadi.

O'qituvchi o'zining pedagogik faoliyati jarayonida doimo o'sib, rivojlanib, o'zgarib turadigan inson bilan ish ko'rganligi bois ularga nisbatan aynan bir qolipda yoki shablonlar asosida ta'sir o'tkaza olmaydi. Bu o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida uzluksiz ijodkorlikni, doimiy izlanishni talab qiladi.

O'qituvchi bilan bir qatorda o'quvchilarga ularning yoshidan qat'i nazar doimiy ravish-da turli ziddiyat va muammolarga boy bo'lgan, uni o'rab turgan atrof-muhit, ijtimoiy hayot ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun o'qituvchi pedagogik faoliyatida mehnatni ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil qilish, barcha ta'sir etuvchi metodlarni – tarbiyalash, qayta tarbiyalash, o'z-o'zini tarbiyalash ishlarini to'g'ri tashkil qilish, muntazam takomillashtirib, jamiyat talablariga hamohang tarzda tegishli tuzatishlarni kiritib borishni shart qilib qo'yadi.

Subyekt – bu tarbiyalanuvchi o'quvchilarga bevosita ta'sir o'tkazuvchi o'qituvchi, tarbiyachi-murabbiy, ota-ona, jamoa, mahalla, ijtimoiy muhit. Ta'sirning asosiy quroli – o'qituvchi shaxsi, uning bilimi, tajribasi va malakasi. Agar o'quvchi chin ko'ngildan o'qituvchini qabul qila olmasa, uning bilimlariga tanqidiy ko'z va shubha bilan qaraydi, bunday o'qituvchining ta'siri tarbiyalanuvchi shaxsning keskin qarshiligiga duch keladi. Natijada o'qituvchi va o'quvchi orasida turli ziddiyatlar paydo bo'ladi. Qachonki o'qituvchi o'quvchi shaxsiga o'zining pedagogik mahorati, yaxshi insoniy fazilatlari, madaniyati, bilimi orqali ma'naviy-estetik jihatdan ijobiy ta'sir ko'sata olsagina, u haqiqiy murabbiy hisoblanadi. Buning uchun esa har bir o'qituvchi o'z ustida muntazam ishlashi, kasbiy mahoratini betinim oshirib borishi kerak bo'ladi.

O'qituvchi, tarbiyachi murabbiy shaxsida iymon-e'tiqod, odob-axloq, dunyoqarash-ning kengligi, faollik, ma'naviyat, dilkashlik, talabchanlik, o'z kasbini, bolalarni seva olish, ziyraklik, hozirjavoblik, vazminlik, pedagogik nazokat, tafakkur, qobiliyat, tashkilotchilik, keng ilmiy saviya, kasbiy layoqat, ma'naviy ehtiyoj, intellekt, yangilikni o'zlashtirib qo'llay olish, qat'iylik, o'z maqsadlari sari intilish, insonparvarlik, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy talablariga o'z fikr-mulohazalarini bildirish, fuqarolik burchini his etish, huquqiy bilimdonlik mukammal shakllangan bo'lishi lozim. Ta'kidlab o'tilgan ushbu xususiyatlarga ega bo'lmagan o'qituvchilar pedagogik faoliyatning birorta turini bajara olmaydi hamda ularning ta'lim sohasida muvaffaqiyatlarga erishishni tasavvur etish mumkin emas.

Shaxsda mukammal madaniyatni shakllantirish asosida unda inson hayotiy faoliyatining quyidagi ajralmas tarkibiy qismlariga bo'lgan ehtiyoj va ijobiy munosabatlarni mujassamlashtirish mumkin:

- tabiatga (shaxsda muayyan insoniy fazilatlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan axloqiy tarbiya) bo'lgan munosabat;
- hayotga (baxt, erkinlik, ozodlik, vijdon, birodarlik, tenglik kabi tushunchalarning muqaddasligi ishonch) munosabat;
- jamiyatga (jamiyatning siyosiy tizimi va qonuniy asoslaridan xabardor bo'lish; jamiyatda shaxsning rolini va uning muammolarini o'rganish: shaxsning zamonaviy "MEN" tushunchasi va jamiyatdagi o'rnini anglab etish; vatanparvarlik tarbiyasi) nisbatan munosabat;
- mehnatga (mehnat ko'nikmalarini uzluksiz egallab borish) nisbatan ijobiy munosabat.

Pedagogik mahorat o'quv-tarbiyaviy jarayonni optimallashtirishga xizmat qiladigan pedagogik muloqotning insonparvarlarcha munosabatda bo'lish muhitini yaratishdan boshlanadi. O'qituvchining kasbiy mahorati pedagogik faoliyatda namoyon bo'ladi va yillar o'tgan sari sayqallanib, boyib boraveradi. Mahorat – o'qituvchi shaxsini yuqori darajadagi kasbiy bilim, umuminsoniy yo'nalish, pedagogik qobiliyat va pedagogik texnikani pedagogik faoliyatda o'z o'rniga qo'yib foydalanishda mukammal safarbar yetishini ta'minlaydi.

- Pedagogik mahorat ta'lim jarayoniga *insonparvarlik yo'nalishini* zamon talablari darajasiga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi, uni amalga oshirish imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtiradi.
- O'qituvchining kasbiy pedagogik mahoratini rivojlantirishning fundamental asosini mavjud egallagan *kasbiy bilimlari* tashkil qiladi. E'tirof etilayotgan bilimlar o'qituvchilik kasbining asosiy "ustun"i hisoblanadi va muntazam takomillashtirib borishni taqozo etadi.
- ***Pedagogik qobiliyatlar*** – o'qituvchi pedagogik mahoratining asosiy mahsuloti hisoblanadi, kasb-korlikka yo'naltirilgan mahoratni takomillashtirish tezligini ta'minlaydi.
- ***Pedagogik texnika*** – o'qituvchining bilimlari, kasbiy faoliyatiga xos xislatlari, pedagogik takt, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar jamoasini boshqara olishda uddaburonligi, kommunikativ va gnostik malakalarni egallashi, o'quvchilar jamoasini uyushtira olishi va turli ziddiyatli vaziyatlarni ijobiy hal yetishida bilim, ko'nikma va malakalarga tayangan holda pedagogik faoliyat tizimini uyg'unlashtirishini ta'minlaydi.

Barcha sanab o'tilgan elementlar pedagogik mahorat tizimida bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Ular pedagogik faoliyat sohasidagi o'qituvchining bilimlarini sintezlash, samarali natijalar tomonga yo'naltirish yadrosida mujassamlashib o'z-o'zini rivojlantirishga xos xususiyatga ega, bunda erishilayotgan muvaffaqiyatlarning

muhim sharti pedagogik qobiliyatlarda namoyon bo'ladi. Yaxlitlikni, o'zaro aloqadorlikni hamda ma'lum bir maqsad sari yo'naltirib uning natijalarini ta'minlovchi vosita esa pedagogik texnika hisoblanadi.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabat o'qituvchi shaxsining muhim sifatlaridan biri sanaladi. Inson xususiyatlarini bilish, talabchanlik, ijodkorlik o'qituvchining muhim kasbiy mezonidir. Pedagogik faoliyatdagi *insonparvar* yo'nalishga egalik mahoratli o'qituvchi faoliyati asosini tashkil qiladi va uning faol pedagogik pozitsiyasini belgilaydi.

O'qituvchining kasbiy mahoratini mohirona boshqarishda turli pedagogik vaziyatlardan oqilona foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu vaziyatlarda o'qituvchi pedagogik vazifalarni o'zi belgilab, amalga oshirishni ham o'zi nazorat qiladi.

Shuni alohida qayd etib o'tish zarurki, o'qituvchilik kasbi murakkab va mas'uliyatli jarayondan iborat. Ushbu kasbning sharafliligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, o'qituvchi doimo ongning yagona sohibi bo'lmish inson ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanib, uning kelajagiga puxta zamin yaratishdek ulkan mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi, mamlakatimizning ravnaqi uchun javobgar barkamol shaxsni voyaga yetkazadi. Ongli va tirik jonzot esa aqliy, ruhiy, hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'ladi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilar tarbiyalanuvchi bilan doimiy muloqotda bo'lishi, unga ta'sir ko'rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya va tarbiya nazariyasini mukammal o'rganib, o'z kasbiy faoliyatini muttasil rivojlantirib borishi kerak.

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, o'quvchilarga nisbatan jonkuyar va mehribon bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrlarga ega bo'lolmaydi. Pedagogik jarayonning vazifalari bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo'lib, o'qituvchilarning faoliyat mezonini belgilab beradi. O'qituvchilarning kasbiy faoliyati pedagogik vazifalarni mukammal bajarib borishda namoyon bo'ladi.

Pedagogik vazifalar – pedagogik mahoratning asosi bo'lib, uning yechimi o'qituvchining kasbiy faoliyatga layoqatliligida o'z aksini topadi.

Pedagogik vazifalar – ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladigan mavjud vaziyatlarga pedagogik faoliyat maqsadlaridan kelib chiqqan holda oqilona baho berish asosida uni ijobiy tomonga o'zgartirish, hozirgi zamon talablari darajasida yuqori bosqichga olib chiqishdir (2-jadval). Ta'lim muassasalaridagi umumiy pedagogik faoliyat vaziyatlar zanjiridan tashkil topadi. Pedagogik vaziyatlar aksariyat o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan maxsus yaratiladi, ayrim holatlarda esa vaziyatlarning kutilmaganda o'z-o'zidan paydo bo'lib qolishi ham kuzatiladi.

O'qituvchining kasbiy mahorati pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga keladigan har qanday ziddiyatli vaziyatlarni pedagogik vazifalarga aylantira olish asosida ta'lim maqsadlariga mukammal erishishi bilan belgilanadi. Shu tarzda murakkab sharoitni ham o'zaro munosabatlarni qayta qurish asosida o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga yo'naltiradi.

Agar o'qituvchi pedagogik vaziyatga umuman e'tiborsiz, behafsalalik bilan qarasa, u

holda ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga kelgan jiddiy vaziyat boy beriladi hamda pedagogik vazifalarga aylanmay qolishi mumkin. O'quvchilar yuzaga kelgan noo'rin vaziyatlarni anglamagan holda, o'qituvchining qattiqqo'lligi va majburlashi bilan uni topshiriq sifatida qabul qilsalar ham, uning yechimini muayyan maqsadsiz izlashga harakat qiladilar, natijada ziddiyatli vaziyat o'z yechimini topolmaydi, aksincha jiddiyligicha qoladi. Agar o'qituvchi pedagogik vaziyatlarga bosqichma-bosqich ijodiy yondashib borsa, pedagogik vazifalar yechimini topishga qiyinchiliksiz erishadi:

Birinchi bosqich – vujudga kelgan pedagogik vaziyatni tahlil qilish va muammoni anglab olish. Pedagogik faoliyatini endigina boshlayotgan yosh o'qituvchilar aksariyat holatlarda ushbu bosqichni qo'ldan boy beradilar va ziddiyatning tub mohiyatiga yetmasdan turib odatiy holat sifatida baholab, shoshilinch tarzda bevosita uning yechimini topishga kirishib ketadilar.

Ikkinchi bosqich – yaxlit pedagogik faoliyat jarayonida pedagogik vaziyatning o'rni, o'qituvchi va tarbiyalanuvchilarning tasnifi, ularning o'zaro munosabatlari to'g'risida dastlabki ma'lumotlar tahlilini o'z ichiga oladi. Natijada faoliyat motivi, maqsadi, sharoitlarning o'ziga xosligi, o'zaro munosabat shakllari oydinlashadi. O'z pozitsiyasini hamisha yuqori va to'g'ri deb bilish natijasida o'qituvchi o'quvchi yoki talaba xulqidagi haqiqiy yutuq va nuqsonlarni nazardan qochirib qo'yishi mumkin.

Yakuniy bosqich – o'qituvchi mavjud amaliy va nazariy tajribalaridan kelib chiqib, o'z faoliyatiga maqbul bo'lgan, maqsadga muvofiq keluvchi pedagogik vazifalarni tanlashda faol fikrining va tafakkurining kuchidan foydalanib farazlarini ilgari suradi.

Pedagogik vazifalarning tarkibiy qismlari

1. Yaxlit pedagogik faoliyat jarayonida vujudga kelgan pedagogik vaziyatning o'rnini, tub mohiyatini aniqlash;
2. Bolalar va kattalarning o'zaro munosabatlaridagi xususiyatlarni, fikr-mulohazalarini, xatti-harakatlar motivini o'qituvchi pozitsiyasidan turib anglash;
3. Pedagogik vazifalarni hal etishda paydo bo'ladigan farazlar va usullarni tanlash, ilgari surish, ularning ta'siri tufayli yuzaga keladigan natijalarni anglash;
4. Pedagogik vazifalarni bajarishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish, pedagogik vaziyatlarni hal etib, tahlillarni, xulosalarni bir maqsadga yo'naltirish;

7-chizma. Pedagogik vaziyatlar va pedagogik vazifalar

Pedagogik vazifalarning mohiyatini anglashga qaratilgan barcha bosqichlar muvaffaqiyatli o'tib bo'linganidan so'ng uning yechimini topishga qaratilgan maqbul metodlar tizimi tanlanadi. Aynan ushbu metodlar tizimining tanlanishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, muammo mohiyatini yagona usul bilan yechishning maqsadga muvofiq kelmasligi bilan izohlanadi.

Zamonaviy pedagogikada o'qitish-o'rgatish muhim emas, balki o'qish va o'rganish muhim, degan qarash dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. O'qituvchining kasbiy faoliyatidagi pedagogik mahorati nafaqat mavjud bilim va ko'nikmalarga va hatto butun boshli pedagogik tizimga singib ketishida emas, balki bevosita o'quvchi va tarbiyalanuvchilarning bilimlarni egallashlariga, izlanishlariga bo'lgan xohish-irodasiga, intilishlariga ham bog'liq. Har qanday ta'lim muassasasida pedagogik mahorat asoslarini o'rganish juda zarur. O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan azaldan jiddiy talablar qo'yilgan. Chunonchi, mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A.Karimov o'z asarlarida o'qituvchining kasbiy mahoratiga quyidagi ta'riflarni bergan edi: "*Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirishi, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak*"[1].

Ta'kidlash joizki o'qituvchi asosiy maqsadga pedagogik vazifalarni muntazam bajarib borishi orqali erishadi. Ushbu vazifalar zamon talablaridan kelib chiqib o'zgarishi yoki to'ldirilib borishi mumkin:

1. Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratning nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladilar.
2. Pedagogik mahorat fanining pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik (muloqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, tarbiyachilik mahorati, ta'lim jarayonini boshqarish, nutq madaniyati, tarbiya texnologiyasi, pedagogik ijodkorlik, refleksiya kabi tarkibiy qismlari to'g'risidagi bilimlar tizimini egallaydilar.
3. Bo'lajak o'qituvchilar milliy urf–odat va an'analarimizda va O'rta Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks yetgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallashga nisbatan o'zlarida ehtiyoj va havasni rivojlantirib boradilar.
4. Egallangan pedagogik-psixologik va metodik bilimlar, ko'nikma va malakalar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida har bir bo'lajak o'qituvchi o'zining shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi.
5. O'quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so'nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o'zlashtiradilar.
6. O'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari uchun shaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar.
7. Tarbiyachi mahoratining mohiyati, funksiyasi, tuzilishi to'g'risida o'qituvchilar

[1] Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1993, 27-28-bet.

uzluksiz ma'lumotlarni o'rganib boradilar.

8. Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalanish asosida o'z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar.

Ushbu pedagogik vazifalarning hal etilishi o'qituvchilar va tarbiyachilarni zamon bilan hamnafas bo'lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko'ra olishga o'rgatadi. Har bir o'qituvchi shaxsini mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o'z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o'rgatadi hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo'lishni tarbiyalaydi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi.

? Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. "Pedagogik mahorat" fanini chuqur o'rganishning zaruriyati nimada?
2. Mahoratli o'qituvchining asosiy fazilatlariga ta'rif bering.
3. Tadqiqotchi olim E.A.Klimov tomonidan tavsiya qilingan pedagogik kasb egalarining davrlari so'rang.
4. Hozirgi davrda ro'y berayotgan global o'zgarishlar va ularning o'qituvchi kasbiy faoliyatiga ta'siri qanday?
5. Zamonaviy pedagogning ma'naviy qiyofasini yaratish uchun asosiy muammolar nimalardan iborat?
6. Ta'limning insonparvarlashtirilishidan asosiy maqsad nima?
7. Ta'lim integratsiyasi bo'lajak o'qituvchilar uchun qanday imkoniyatlarni tayyorlab beradi?
8. Intensifikatsiya tendensiyasi qanday holatlarda namoyon bo'ladi?
9. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy jihatdan pedagogik mahoratini rivojlantirishda mustaqil ishlarning ahamiyati qanday?
10. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchining vazifalari nimalardan iborat?
11. Taniqli rus faylasufi L.N.Tolstoyning ta'lim va tarbiya haqidagi ilg'or g'oyalari haqida fikr bildiring?
12. O'qituvchining o'z mavqeyini o'zi belgilashi nimalarni o'zida qamrab olgan?
13. O'qituvchining o'z faoliyatiga moslashishdagi tanglik holati qanday sodir bo'ladi?
14. O'qituvchining pedagogik mahoratiga personalizatsiya va personifikatsiyaning ta'siri qay darajada?
15. O'qituvchining o'z kasbiga nisbatan tegishli ko'nikma va malakalarini gapirib bering?
16. O'qituvchi pedagogik vaziyatlarda pedagogik vazifalar yechimini qanday topadi?

Talabalarning mustaqil tayyorgarliklari uchun topshiriqlar

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o'z fikr mulohazalaringizni bildirib, "Mustaqil ish" yozing:

1. O'qituvchining o'z mavqeyini o'zi belgilashi pedagogik mahoratni oshirishga ta'siri.
2. Ta'limni insonparvarlashtirish, ta'limni ijtimoiylashtirish, demokratlashtirish.
3. O'qituvchining o'z kasbiga nisbatan ko'nikma va malakalarini oshirib borishga qo'yiladigan talablar va vazifalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4312785.
3. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent shahri, 2024-yil 1-fevral № O'RQ – 901.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarori – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2020, 27-28-bet.
5. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1993, 27-28-bet.
6. Каптерев П.Ф. Избранные педагогические сочинения. – М., 1982. - С. 600-601.
7. Кузьмина Н.В. Педагогическое мастерство учителя как фактор развития способностей учащихся. //Вопросы психологии. –1984. – №1. – С.16.
8. Орлов А.Б. Психология личности и сущности человека: Парадигмы, проекции, практики: Учеб. пособие. – М., 2002. – С. 58 – 60.
9. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007.–380 b.
10. Розанов В.В. Сумерки просвещения. – М.: Педагогика, 1990.– 624 с.
11. Suxomlinskiy V.A. Bolalarga jonim fido. – T.: O'qituvchi, 1984.- 254 bet.
12. Толстой Л.Н. Педагогические сочинения. – М.: Педагогика, 1989. – 544 стр.
13. Ушинский К.Д. Педагогические сочинения в 6 т. – М. –2015. Т. 3. –Б. 168-169.
14. Хозяинов Г.И. Педагогическое мастерство преподавателя. – М.: Высшая школа. –1988. –168 с.

4-BOB.

O‘QITUVCHILARDA KASBIY BILIMLAR VA PEDAGOGIK QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH

Tayanch tushunchalar:

Qobiliyat; individual-psixologik xususiyat; individual; intellekt; proza va poeziya; jamiyat taraqqiyoti; zakovat; qobiliyat; tug'ma layoqat; kombinatsiya; gnostik; loyihaviy; tashkiliy; loyihaviy-gnostik; refleksiv-perseptiv; reproduktiv; ijodiy qobiliyatlar; tashkiliy, ekspressiv; kreativ qobiliyatlar; individual xususiyat; pedagogik takt; kuzatuvchanlik; tasavvur; ijodiy tafakkur kengligi; estetik did; reproduktiv; abstrakt; konstruktiv; tashkilotchilik; kommunikativ; kuzatuvchinlik; qat'iyatlilik, empatik komponentlar; mantiqiy tasavvur; kommunikativ qobiliyat; iqtidor; iste'dod; daholik;intellektual; ijodiy qobiliyatlar; pedagogik ijodkorlik; professiogramma.

4.1. O'QITUVCHINING PEDAGOGIK QOBILIYATI. QOBILIYATNING PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK TASNIFI

Qobiliyat – shaxsning individual-psixologik xususiyati bo'lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart–sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig'indisiga aytiladi, zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi. Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyat bo'lgani sababli, shaxsning boshqa sifatlari va xususiyatlariga, ya'ni aql sifatlariga, xotira va xarakter xususiyatlariga, his-tuyg'ulariga qarama-qarshi qo'yilmaydi, balki ular bilan bir qatorga qo'yilishi kerak.

Qobiliyatni inson tug'ma, tabiat in'omi sifatida tayyor holida olmaydi, balki hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi.

Amerikalik psixolog olim Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to'plami deb atadi va uning 9 ta jihatini ajratib ko'rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish nuqtayi nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olim Olga Matveeva ushbu jihatlarni psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modifikatsiyalaydi va o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb yetishini ta'kidlab, quyidagi 6 ta qobiliyatlarni alohida ko'rsatib o'tadi:

1. **Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati:** *O'qituvchi o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda, sinfda ijobiy ruhiy iqlim yarata oladi.*
2. **Voqealarni oldindan ko'ra olish qobiliyati:** *Bu qobiliyat turi har bir o'qituvchining sergakligida, o'quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko'ra olishida namoyon bo'ladi. Shunda o'qituvchi kim nimaga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.*
3. **Eshitish va his qilish qobiliyati:** *Bunday qobiliyatga ega bo'lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida proza va poeziyani yaxshi o'qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa she'r va qo'shiqlarni sevib tinglaydi.*
4. **Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat:** *O'qituvchining o'z xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilgan holda yo'naltiradi, vaqtni harakat sur'ati bilan his qiladi, o'zi uchun maishiy qulayliklarni yarata oladi, hayot marhamatlaridan rohatlanishni biladi.*
5. **Mantiqiy qobiliyat:** *Falsafiy mulohazalar yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni hal qilishni sevadi, sabab va oqibat natijalarini tushunish malakasiga ega, voqelikda asosiylikni ikkinchi darajalisidan ajrata oladi;*

6. **Shaxsning ichki qobiliyati:** *O'z-o'zini mukammal bilishi, tushunishi va his qilish qobiliyati, erkin shaxsda ichki qobiliyat mukammal rivojlanadi, irodasi mustahkam, qat'iyatli, har qanday vaziyatda o'z fikr-mulohazasini erkin bayon eta oladi.*

Qobiliyat o'qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyatli o'qituvchilar o'z faoliyatlarida ham qobiliyati past kishilarga qaraganda ko'proq yutuqlarga erishadilar.

Qobiliyat shaxsning ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida tezroq oldinga siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Qobiliyatli kishi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kirita oladi.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. **Bilim – bu ilmiy mutolaalar natijasidir, qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatdir.** Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, u ma'lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi.

Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakalardir.

Ko'nikmalar – o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usuli.

Malakalar – o'qituvchining ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig'indisi.

Ular o'qituvchi kasbiy faoliyati mexanizmining asosini tashkil qiluvchi jarayonlardir, ular qobiliyat bilan birgalikda pedagogik mahoratga erishishni ta'minlaydi. Buning natijasida o'qituvchilar kasbiy faoliyatida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi. Qobiliyatli, ammo ko'nikma va malakalarga ega bo'lmagan o'qituvchi ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko'nikma va malakalarni chuqur egallashda ro'yobga chiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo'ladi. Ko'nikma va malakalar yetarli bo'lmagan qobiliyatni birmuncha to'ldirishi yoki qobiliyatning kamchiligini tuzatishi mumkin. Ko'nikmalarni umumlashtirib **mohirlik** ham deb ataydilar. Mohirlik ham qobiliyatning o'zginasidir. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lish jarayonida shakllanadi.

O'qituvchi butun umri mobaynida ijod bilan mashg'ul bo'ladi, o'qiydi, tahlil qiladi va o'rganadi. O'z kasbiy darajasini muntazam oshirib borish o'qituvchining birinchi galdagi vazifasi hisoblanadi. Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterveg o'qituvchining doimiy ravishda kasbiy bilimlar bilan shug'ullanishi lozimligi haqida gapirib, shunday degan edi: *"O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek,*

kelajakda bunday o'qituvchidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi".

Inson qobiliyati juda katta ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega. Qobiliyat yuqori mehnat unumdorligini ta'minlashga, binobarin, ijtimoy boylikning son va sifat jihatidan tez o'sishiga, jamiyat taraqqiyotiga yordam beradi. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarning zakovati, qobiliyatini ochish hamda ulardan o'z o'rnida foydalanishini o'rganib olishi zarur ekanligi haqidagi masala qat'iy talab qilinadi.

Pedagogik mahoratning yuzaga kelishida nafaqat o'qituvchidagi kasbiy bilimlarning mavjudligi bilan kafolatlanadi, balki undagi **pedagogik qobiliyatlarga bo'lgan moyillik, layoqat va intellekt** ham muhim ahamiyatga ega. Ular pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omil sanalib, psixologik jarayonlarning muvozanatini bir maromda saqlaydi. Mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning pedagogik va psixologik adabiyotlarida pedagogik qobiliyatlar tahliliga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Y.P.Azarov, V.I.Grabeklis, I.A.Zyazyun, N.V.Kuzmina, V.P.Simonov, V.A.Slastyonin, V.A.Suxomlinskiy, G.I.Xozyainov, E.N.Shiyanov, A.P.Chernyavskaya, S.D.Yakusheva kabi olimlar "pedagogik mahorat" tushunchasiga asosan kasbiy bilim, qobiliyatlar kiritilishini ta'kidlashadi. Ular o'qituvchi xatti-harakatlariga qat'iyatlilik, asoslilik, tushunarlilik beradigan belgilar bo'lib keladi deb ta'kidlaydilar. V.P.Simonov "mahoratli o'qituvchi uchun zarur bo'lgan" quyidagi qobiliyatlar turkumini taklif qilad:

V. P. Simonovning "mahoratli o'qituvchi uchun zarur bo'lgan" noyob qobiliyatlar turkumi

1. Muammoli vaziyatlarni ilgari surish qobilyati
2. Har qanday vaziyatda o'ziga xos qabul qilish qobiliyati;
3. Oldindan ko'ra olish va bashorat qilish qobilyati;
4. Hissiyotlarni jilovlay olish va o'zini boshqara olish qobiliyati;
5. O'quvchilar va hamkasblar bilan o'zaro muloqotga kira olish qobiliyati;
6. Shaxsning kasbiy faoliyatida ijodkorlikning yuzaga kelishi uchun zaruriy bosqich hisoblangan "noaniqlik zonasi"ni yarata olish qobilyati;

8-chizma. V.P.Simonov "mahoratli o'qituvchi uchun zarur bo'lgan" qobiliyatlar turkumi

O'qituvchining "pedagogik mahorat"ini tavsiflovchi qobiliyatlar majmuasini qamrab olishga nisbatan tadqiqot ishlari olimlar tomonidan turli bochqichda olib borilgan. V.A.Slastyonin o'qituvchining yuzdan ortiq qobiliyatini ta'riflagan. Biroq tadqiqotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, V.A.Slastyonin tomonidan taklif etilgan pedagogik

qobiliyatlar turkumi hali tugallanmagan ro'yxatni bildiradi. Demak, qobiliyatlar majmuasi "pedagogik mahorat" tushunchasiga nisbatan ta'rifni ishlab chiqish uchun asos bo'la olmaydi, sababi ular aniq bir chegaraga ega emas.(**2-ilova**)

Y.Y.Ivanov, N.V.Kuzmina, Y.N.Kulyutkin, V.G.Kutsenko, R.P.Skulskiy, N.N.Tarasevich kabilarning fikriga ko'ra, bo'lajak o'qituvchining pedagogik mahorati modelini yanada yuqori darajasini "o'ziga xos shaxs xislatlari va xususiyatlari kombinatsiyasi" ni ifodalaydigan pedagogik qobiliyatlar hosil qiladi. Mualliflar pedagogik qobiliyatlar turkumini "bola shaxsini tarbiyalashda va bilim berishda yuqori natijalarga erishishning eng muhim omili" sifatida e'tirof etadilar.

Hozirgi kunda "pedagogik mahorat"da e'tirof etilayotgan qobiliyatlar tasnifini quyidagi tarzda ifodalashimiz mumkin:

1. Idrok qilish, konstruktiv kommuniaktiv, informatsion, tashkiliy qobilyatlar;
2. Gnostik, loyihaviy, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy qobilyatlar;
3. Refleksiv-perseptiv qobilyatlar.

9-chizma. Hozirgi kunda "pedagogik mahorat"da e'tirof etilayotgan qobiliyatlar tasnifi

Ilmiy pedagogik adabiyotlar tahlilida qator pedagogik qobiliyatlarning mavhum chegarasi mavjudligi kuzatiladi. Jumladan:

- o'z oldiga qo'yilgan maqsadga va natijalarga erisha olish qobiliyati;
- pedagogik mantiqiy fikrlash va mustaqil tahlil qila olish qobiliyati;
- ziddiyatni oldindan ko'ra olish, uning amaliy yechimini mustaqil hamda tez topish qobiliyati;
- boshqalarning ichki dunyosini tushuna olish qobiliyati;
- o'quvchilarga faol ta'sir ko'rsata olish qobiliyati.

Ushbu ta'riflar pedagogik qobiliyatlar guruhining bir-birini aslo to'ldira olmasligini ko'rsatadi. Gnostik, loyihaviy, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy, loyihaviy-gnostik va refleksiv-perseptiv; reproduktiv va ijodiy qobiliyatlar; kommunikativ, konstruktiv, tashkiliy, ekspressiv, perseptiv, kreativkabi qobiliyatlar "o'qituvchining pedagogik faoliyatga bo'lgan nisbiy imkoniyatlarini tavsiflovchi integral xislatlarini" ifodalaydi. Ba'zi tadqiqotchilar pedagogik qobiliyatlarni kasbiy faoliyatni qo'llashning asosiy sharti sifatida tahlil qilganlar va boshqalar.

Psixologiyaga oid tadqiqotlarida M.V.Gamezo va I.A.Domashenkolar qobiliyatni har bir insonning bajarayotgan biror kasbiy faoliyat jarayonini amalga oshirishidagi

muvaffaqiyatni belgilab beradigan o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlar sifatida e'tirof yetishadi. Shaxsning qobiliyati uning mukammal va sifatli bilim olishi, egallagan bilimlarni mustahkam va ishonchli bo'lishi, zarur ko'nikma va malakalarni ortiqcha qiyinchiliklarsiz tez va mustahkam egallashini ta'minlashda muhim omil sanaladi, lekin inson qobiliyatining o'zi alohida bilim, ko'nikma yoki malakalar sirasiga kirmaydi.

Olimlarning ilmiy tadqiqotlari natijasiga ko'ra, inson qobiliyatlari hayot mahsuli bo'lib, ular kishi hayotiy faoliyati natijasida muayyan ta'lim-tarbiyaviy muhit sharoitida shakllanadi, rivojlanadi va takomillashib boradi. Qobiliyatlar – o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, uyushgan faoliyat jarayonini, sharoitni taqozo etadi.

Qobiliyat uchun o'zgaruvchanlik, almashuvchanlik, birining o'rnini ikkinchisi qoplash kabi imkoniyatlarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega deb e'tirof etiladi. Kasbiy qobiliyatlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- umumiy qobiliyatlar (shaxsning individual xususiyati bo'lib, turli sohalarga oid bilimlarni tez va mukammal o'zlashtirish, har xil faoliyat turlarini qiyinchiliklarsiz egallay olishida namoyon bo'ladi);
- maxsus qobiliyatlar (shaxsning muayyan bir sohaga oid faoliyati jarayonida ulkan muvaffaqiyatlarga erishishi). Maxsus qobiliyatlar bevosita umumiy qobiliyatlar bilan chambarchas bog'liq.

Har qanday qobiliyat o'z tarkibiga ega bo'lib, ular o'zida yetakchi va yordamchi xususiyatlarni mujassam etadi. Masalan, adabiyot, san'at, matematika, pedagogika va badiiy sohalar bo'yicha qobiliyatlarning yetakchi xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Adabiyot sohasida – tasavvur va ijodiy tafakkurning kengligi; yorqin va barqaror xotiraga egaligi; estetik didning rivojlanganligi; so'zlarni mukammal va tez tushunish tuyg'usi;

Matematikada – umumlashtirishni bilish; tafakkur jarayonida epchillik va uddaburonlik; guruhlash va farqlash; xayolan to'g'riga va orqaga qaytishning tez va yengil bajarilishi;

Pedagogikada – pedagogik takt; kuzatuvchanlik; o'quvchilarga bo'lgan mehribonlik tuyg'usi; bilim berish, o'rgatishga bo'lgan ishtiyoq va ehtiyoj;

Badiiy san'atda – ijodiy tafakkur va tasavvurning yorqin xususiyatlarini namoyon yetishi; ijobiy obrazlar yaratish bilan bog'liq bo'lgan ko'rish va eslab qolish xotirasining kuchliligi; voqelikka nisbatan his-hayajonli munosabat va estetik didning rivojlanganligi; tasavvuridagi obrazlarni jonlantirish jarayonida lozim bo'ladigan shaxsning irodaviy sifatlari.

Shaxsda maxsus qobiliyatlarning rivojlanganligi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, musiqaga va ayniqsa matematikaga oid qobiliyatlar odatda bolalarga tengdoshlariga nisbatan juda erta uyg'onishi kuzatiladi.

Shu bilan birga qobiliyatlar maxsus darajalarga ajratilib tahlil qilinadi: reproduktiv[1] daraja (bilim olish va faoliyatni amalga oshirishni ta'minlashga xizmat qiladigan

[1] Reproduktiv – psixologik: xotiradagi narsani (yoki biror voqeani) tasvirlay olish.

qobiliyat); ijodiy daraja (yangi, original asarlar, ixtirolar yaratishga xizmat qiladigan qobiliyat) kabilar.

Shuni ham unutmaslik lozimki, har qanday reproduktiv qobiliyat o'zida ijodkorlik elementlarini qamrab oladi, ijodkorlik esa o'z tarkibida reproduktiv elementlarsiz faoliyat ko'rsata olmaydi.

Shuningdek, **nazariy va amaliy qobiliyatlar** ham mavjud bo'lib, ular o'qituvchi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Nazariy qobiliyatlar insonning abstrakt-nazariy mulohazalar yuritishga moyilligini anglatsa, amaliy qobiliyatlar shaxsning aniq amaliy harakatlarga ko'proq e'tibor qaratishidan dalolat beradi. Aksariyat holatlarda ular bir-birlari bilan o'zaro kelishmaydi. Aynan har bir o'xshash qobiliyatlar bir sohada faoliyat ko'rsatayotgan shaxslarda ham turli darajada rivojlangan bo'lishi mumkin.

Iste'dod – shaxsning biror faoliyat yuzasidan ulkan yutuqlarga erishishini ta'minlashga xizmat qiladigan mukammal qobiliyatlarning yuksak darajasi.

Daholik – insonning tegishli ma'lum bir faoliyat sohasida eng taniqli, ko'zga ko'ringan arbob sifatida kamol topishiga xizmat qiladigan mukammal qobiliyatlarning yuksak darajasi.

Insonning *badiiylikka moyilligi, yuksak tafakkurga egaligi, aqlan yetukligi* kabi uchta darajadan birortasiga mansubligi I.P.Pavlov ta'limoti bo'yicha uning o'ziga xos ma'lum bir ma'noda yuksak qobiliyat egasi ekanligidan dalolat beradi.

Inson psixik faoliyatida, nisbatan birinchi signal tizimining ustunligi uning *badiiy san'atga moyilligi*dan dalolat beruvchi toifaga, ikkinchi signal tizimi esa *tafakkurining o'tkirligi*dan dalolat beruvchi toifaga, ular bilan barobar vakolatga ega bo'lgan insonlar – *o'rta toifa*ga kiradilar. Hozirgi zamonaviy fanlarda e'tirof etilayotgan insonlardagi ushbu farqlanish inson bosh miyasining chap (og'zaki-mantiqiy) va o'ng (ifodali-ta'sirchan) yarim shari funksiyalari faoliyati bilan bog'laydilar.

Badiiy san'atga qiziquvchilar toifasiga kiruvchi insonlar uchun obrazlarning yorqinligi, tafakkurning kengligiga moyilligi bo'lgan insonlar uchun esa – abstraksiyaning, mantiqiy tasavvurlarning ustunligi o'ziga xos xususiyatga ega.

Alohida bir shaxsda ko'plab qobiliyatlar majmuasi shakllangan bo'lishi mumkin, lekin ulardan biri baribir boshqa qobiliyatlarga nisbatan mukammalroq rivojlangan. Shuningdek, har xil odamlarda aynan bir xil qobiliyat mavjud bo'lib, uning rivojlanganligi har kimda har xil darajada o'zaro farqlanadi.

Muayyan biror faoliyat bo'yicha inson turli usullar vositasida muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin. Inson ma'lum bir faoliyatni amalga oshirish va yutuqlarga erishishi jarayonida o'zida to'liq rivojlanmagan u yoki bu qobiliyatni, boshqa bir rivojlangan mavjud qobiliyatlari hisobiga tiklab borish imkoniyatiga ega.

4.2. PEDAGOGIK FAOLIYATNING SAMARADORLIGINI TA'MINLOVCHI QOBILIYATLAR KOMPONENTI

Pedagogik faoliyatning samaradorligini ta'minlovchi asosiy qobiliyatlarning konstruktiv, tashkilotchilik, kommunikativ, kuzatuvchinlik, tahlil qila olish, perseptiv, empatik komponentlari mavjud bo'lib, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy faoliyatida ularni munosib qobiliyatlar tizimi sifatida o'zida mujassam etishi lozim.

Konstruktiv qobiliyatlar o'quvchi shaxsini belgilangan maqsad sari rivojlantirishga qaratilgan qizg'in faoliyatda, o'quv materiallarini hamda tarbiyaviy vositalarni tanlash va tuzishda o'quvchining yosh va fiziologik, individual xususiyatlarini e'tiborga olishda o'z aksini topadi.

Tashkilotchilik qobiliyati o'quvchilarni o'qituvchi tomonidan turli jamoat ishlariga, samarali faoliyat turlariga, to'garaklarga jalb qila olishida, sinf jamoasining har bir a'zosiga alohida tarbiyaviy ta'sir o'tkaza olishida namoyon bo'ladi.

Kommunikativ qobiliyat o'qituvchining pedagogik jamoa va ota-onalar, o'quvchilar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarni xushmuomalalik, hamjihatlikka asoslab o'rnata olishida, barcha o'quvchilar jamoasi va alohida har bir o'quvchining o'ziga xos kayfiyatini, ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdard bo'lishida, muloqotga kirishishida o'qituvchining pok ko'ngilliligi, muomala madaniyatining shakllanganligida namoyon bo'ladi.

Kommunikativ qobiliyat pedagogik munosabatda o'qituvchining muvaffaqiyatlarga erishishini ta'minlaydi:

O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATIDA PEDAGOGIK MUNOSABATLAR

- o'quvchilar bilan bo'lajak munosabatni modellashtira olishi;
- munosabatda bo'ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi;
- bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o'rnatishi;
- munosabatda ustunlikka ega bo'lib, uni demokratik talablar asosida oqilona boshqarishi;
- munosabatning ijobiy va salbiy jihatlarini uzluksiz tahlil etib borishi lozim.

10-chizma O'qituvchining kommunikativ qobiliyatida pedagogik munosabatlar

Kuzatuvchanlik qobiliyati – o'qituvchining murakkab sifatlaridan biridir. U faqatgina ko'rish yoki eshitish, ta'lim berish va tarbiyalash bilan cheklanib qolmaydi, balki diqqat markazida turgan ob'ektga bo'lgan qiziqishini, kuzatuvi jarayonida olinayotgan axborotlarni parallel tarzda qayta ishlashni taqozo qiladi.

Tahlil qila olish qobiliyati – N.V.Kuzmina tomonidan o'qituvchining pedagogik faoliyati uchun zarur bo'lgan bilish va o'rganish malakalari ichidan uning afzalliklarini va nuqsonlarini ongli ravishda bilib tuzatish yoki takomillashtirish maqsadida ajratib ko'rsatilgan.

Perseptiv qobiliyat: tashqi olamni va muhitni sezish, idrok etish, ya'ni kuzatuvchanlik muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'quvchining psixologiyasini, psixik holatini o'ziga singdirib idrok etadi, sinf jamoasining holatiga pedagogik vaziyatiga odilona baho beradi.

Empatik qobiliyat: bolalarga bo'lgan muhabbatdan kelib chiqadigan o'quvchilarning his-tuyg'usini, psixologik holatlarini qalbdan his etish, tushunish, idrok etish, ularga achinish xususiyatlaridir.

Pedagogikada o'qituvchi qobiliyati – bu imkoniyatdir, uning mohirligi zaruriy darajasi faqatgina o'qitish va tarbiyalash jarayonida takomillashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. Tug'ma qobiliyatlar zehn deyiladi. Iqtidor, iste'dod, daholik – insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar xarakter kabi, shaxsning faqatgina ma'lum faoliyatidagina mavjud bo'lgan sifatlaridir. Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakalardir. Ular o'qituvchi kasbiy faoliyati mexanizmining asosini tashkil qiluvchi jarayonlardir, ular qobiliyat bilan birgalikda pedagogik mahoratga erishishni ta'minlaydilarki, buning natijasida o'qituvchilar kasbiy faoliyatida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi. Qobiliyatli, ammo ko'nikma va malakalarga ega bo'lmagan noshud o'qituvchi ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko'nikma va malakalarni chuqur egallashda ro'yobga chiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo'ladi. Ko'nikma va malakalar yetarli bo'lmagan qobiliyatni birmuncha to'ldirishi yoki qobiliyatning kamchiligini tuzatishi mumkin.

Psixologiyada qobiliyat – insonning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni qiyinchiliksiz, osonlik bilan mukammal egallashi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishiga aytiladi. U o'qituvchining kasbiy faoliyatida ham yorqin namoyon bo'ladi.

Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarining majmui insonning iste'dodi deyiladi.

Insondagi bilish va layoqat nishonalari jarayonlarining yig'indisi, iste'dodining yuksak cho'qqisi – *uning intellektini* belgilaydi. Intellekt – bu aqlan ish ko'rish, rasional fikrlash va hayotiy muammolarni mohirona hal qilishning global qobiliyati, ya'ni intellekt insonning atrof muhitga to'liq moslasha olish qobiliyati deb qaraladi (**3-ilova**).

Intellektual salohiyatning tarkibiy tuzilishi quyidagicha ta'riflanadi:

INTELLEKTUAL SALOHIYATNING ASOSIY SIFATLARI

IJOD	FIKRLASH TEZLIGI	MAHORAT
O'qituvchi faoliyatida mehnatning moddiy va ma'naviy mahsulotini yaratish, yuksak natijalarga erishish qobiliyati	Ta'lim-tarbiya jarayonida yangi holatga tez va to'g'ri munosabat bildirish; faoliyatni tanlashda tafakkur tezligi	Pedagogik faoliyatda erishilgan muvaffaqiyatlar o'lchovi; kasbiy bilimlarni mukammal bilish qobiliyati

11-chizma. Intellektual salohiyatning tarkibiy tuzilishi va asosiy sifatlari

O'qituvchining pedagogik qobiliyatini tahlil qilgan N.V.Kuzmina shunday yozadi: "Ta'lim – tarbiyada ro'y beradigan ko'plab kamchiliklar o'qituvchi o'z pedagogik qobiliyatining amaliy yo'nalishlarini yaxshi bilmasligi, iste'dodning o'qituvchida yo'qligi natijasida sodir bo'ladi".

Maxsus qobiliyatga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchilar o'zlari egallagan kasbiy yo'nalishlari bo'yicha muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadilar.

Biror faoliyatning muvaffaqiyatli, mustaqil va mukammal bajarilishini ta'minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasi talant deyiladi.

QOBILIYAT KO'RSATKICHLARI	⇄	KO'NIKMALARNI EGALLASH TEZLIGI ERISHILGAN YUTUQLAR SIFATI

QOBILIYATLAR

Insonning ma'lum faoliyat talablariga javob beruvchi va uning muvaffaqiyatli bajarilish sharti hisoblanuvchi individual-psixologik xususiyatlardir.	UMUMIY: aqliy faollik; tanqidiylik; tizimiylik; tahlil qilish; reaksiya tezligi; sintezlash; diqqatni jamlash; e'tiborlilik.	MAXSUS: tashkilotchilik; injener-texnik; loyihalashtirish; matematik; ijodiy; adabiy; musiqaviy.	Qobiliyatlarni rivojlantirishning eng yuqori darajasi – TALANTDIR

12-chizma. Bo'lajak o'qituvchilar qobiliyatlari, tabiiy iste'dodlar va ularning farqi

Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratida mavjud qobiliyatlarni o'rganishda xususiyatlar "ansambli" iborasini biz shuning uchun ham ishlatamizki, bunda xususiyatlarning oddiygina birgalikda mavjud bo'lishini emas, balki ularning uzviy bog'langan bo'lishini, muayyan tizimda o'zaro ta'sir qilishini ko'zda tutayapmiz. Bu tizimda xususiyatlardan biri oldingi o'ringa chiqib, yetakchi xususiyatga ega bo'lsa, ayni vaqtda boshqalar uchun yordamchi xususiyatlar rolini o'ynaydi.

Kishining qobiliyati juda katta ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega. Qobiliyat yuqori mehnat unumdorligini ta'minlashga, binobarin, ijtimoy boylikning son va sifat jihatidan tez o'sishiga, jamiyat taraqqiyotiga yordam beradi. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarning zakovati, qobiliyatini ochish hamda ulardan o'z o'rnida foydalanishini o'rganib olishi zarur ekanligi haqidagi masala qat'iy talab qilinadi. O'qituvchining pedagogik mahoratni takomillashtirishida qobiliyat bilim olish va malaka hosil qilishni ta'minlaydi. Qobiliyatli kishining yuqori unumli mehnati uni moddiy hayot darajasi bilan ta'minlaydi.

Har qanday faoliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talablarga javob bera olsa, kishi faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirishda o'z qobiliyatini ko'rsata oladi, agar xususiyatlaridan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatining muayyan turiga nisbatan kam qobiliyatli, deb xarakterlanadi.

Mana shuning uchun ham qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki inson shaxsining faoliyat talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlay oladigan xususiyatlar ansambli yoki sintezini tushunish lozim.

Ilmiy pedagogik adabiyotlar tahlilida qator pedagogik qobiliyatlarning mavhum chegarasi mavjudmi yoki yo'qmi degan farazlar kuzatiladi. O'qituvchida pedagogik qobiliyatlar bo'lishi yoki rivojlantirilishi kerak. Zero, barcha qobiliyatlar faqat bir narsaga – kasbiy faoliyatni yuksak mahorat bilan egallashga qaratilgan. Jumladan:

- o'z oldiga qo'yilgan maqsadga va natijalarga erisha olish qobiliyati;
- pedagogik mantiqiy fikrlash va mustaqil tahlil qila olish qobiliyati;
- ziddiyatni oldindan ko'ra olish, uning amaliy yechimini mustaqil hamda tez topish qobiliyati;
- boshqalarning ichki dunyosini tushuna olish qobiliyati;
- o'quvchilarga faol ta'sir ko'rsata olish qobiliyati.

Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarining majmui insonning iste'dodi deyiladi.

Iste'dod – shaxsning biror faoliyat yuzasidan ulkan yutuqlarga erishishini ta'minlashga xizmat qiladigan mukammal qobiliyatlarning yuksak darajasi.

Daholik – insonning tegishli ma'lum bir faoliyat sohasida eng taniqli, ko'zga ko'ringan arbob sifatida kamol topishiga xizmat qiladigan mukammal qobiliyatlarning yuksak darajasi.

HOZIRGI KUNDA "PEDAGOGIK MAHORAT"DA E'TIROF ETILAYOTGAN QOBILIYATLAR TASNIFINI QUYIDAGI TARZDA IFODALASHIMIZ MUMKIN:

a) idrok qilish, konstruktiv, kommunikativ, informatsion, tashkiliy qobiliyatlar;	b) gnostik, loyihaviy, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy qobiliyatlar;	d) refleksiv-perseptiv qobiliyatlar.

13-chizma. Pedagogik mahoratda e'tirof etilgan qobiliyatlar tizimi

Pedagogik qobiliyatlarning tayanch xususiyatlari asosan kuzatuvchanlikda namoyon bo'lib – shakliga ko'ra bilish ko'nikmasidir. Bu – individual narsaning o'ziga xos tomonini, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilishi demakdir. Rassomning kuzatuvchanligi, tabiatshunos olimning kuzatuvchanligidan farq qilishi o'z-o'zidan ravshan. Ularning kuzatuvchanligi turlicha yo'nalishda bo'lganligi sababli, har biri o'z tafakkuri va dunyoqarashiga ega. O'qituvchining kuzatuvchanligi o'quvchilar jamoasini bilim o'rganishga nisbatan qiziqishini oshirishi, ularni ta'lim olishga undashi lozim.

Qobiliyatning yetakchi xususiyati ijodiy tasavvur bo'lib, bu xususiyat faqat rassomga, matematika o'qituvchisiga, adabiyotshunosga xos bo'lmasdan, balki aynan barcha fan o'qituvchilariga ham tegishli. Pedagogik qobiliyatlarning yetakchi xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Adabiyot sohasida – tasavvur va ijodiy tafakkurning kengligi; yorqin va barqaror xotiraga egaligi; estetik didning rivojlanganligi; so'zlarni mukammal va tez tushunish tuyg'usi;

Matematikada – umumlashtirishni bilish; tafakkur jarayonida epchillik va uddaburonlik; guruhlash va farqlash; xayolan to'g'riga va orqaga qaytishning tez va yengil bajarilishi;

Pedagogikada – pedagogik takt; kuzatuvchanlik; o'quvchilarga bo'lgan mehribonlik tuyg'usi; bilim berish, o'rgatishga bo'lgan ishtiyoq va ehtiyoj;

Badiiy san'atda – ijodiy tafakkur va tasavvurning yorqin xususiyatlarini namoyon etishi; ijobiy obrazlar yaratish bilan bog'liq bo'lgan ko'rish va eslab qolish xotirasining kuchliligi; voqelikka nisbatan his-hayajonli munosabat va estetik didning rivojlanganligi; tasavvuridagi obrazlarni jonlantirish jarayonida lozim bo'ladigan shaxsning irodaviy sifatlari.

BO'LAJAK O'QITUVCHILAR MAHORATIDA ULARNING PEDAGOGIK QOBILIYATLARI TIZIMIGA KIRADIGAN YORDAMCHI XUSUSIYATLAR MUHIM AHAMIYATGA EGA. USHBU QOBILIYATLAR O'Z XUSUSIYATIGA KO'RA QUYIDAGILARDA NAMOYON BO'LADI:

1. aql-idrokning muayyan turlari, hozirjavoblik;
2. kamchiliklarga tanqidiy e'tibor, sobitqadamlik;
3. o'qituvchining nutqi: notiqlik san'ati, so'z boyligining teranligi;
4. aktyorlik xususiyati: mimika va pantomimika, xayoliy fantaziya ishlata olish, ruhiy hissiyotni jilovlay olish.
5. pedagogik takt va pedagogik nazokatga ega bo'lish.

14-chizma. Bo'lajak o'qituvchilar uchun rivojlantirilishi zarur bo'lgan pedagogik qobiliyatlar professiogrammasi

Har qanday kasbiy faoliyat sirlarini mukammal egallash uchun qobiliyat kerak. Pedagogik qobiliyat sog'lom o'qituvchidagina shakllanadi. Biroq u yuqori, o'rtacha va past darajada bo'lishi mumkin. Lekin ushbu turli darajadagi qobiliyatlarda mujassamlashgan xislatlar va xususiyatlarni bo'lajak o'qituvchi yillar davomida shakllantirib borishi mumkin.

Inson qobiliyatlari hayot mahsuli bo'lib, ular kishi hayotiy faoliyati natijasida muayyan ta'lim-tarbiyaviy muhit sharoitida shakllanadi, rivojlanadi va takomillashib boradi. Qobiliyat uchun o'zgaruvchanlik, almashuvchanlik, birining o'rnini ikkinchisi qoplash kabi imkoniyatlarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Qobiliyatlar ko'nikma va malakalarni chuqur egallashda ro'yobga chiqadi.

4.3. O'QITUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beruvchi imkoniyatlarni yaratish ularni ijodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Insonning har qanday yoshdagi ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning **birinchi** muhim sharti ijodiy faoliyatni qo'llash uchun qulay muhit yaratishdir. O'qituvchi-o'quvchi munosabatlarining shunday muhiti va tizimini yaratish lozimki, ular o'qituvchining turli xildagi ijodiy faoliyatlarini rag'batlantirsin.

O'qituvchining ijodiy qobiliyatlarini samarali rivojlantirishning **ikkinchi**, o'ta muhim sharti maksimal kuch-g'ayrat talab qiluvchi ijodiy jarayonning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Gap shundaki, inson o'z imkoniyatlarining "eng cho'qqisiga" qanchalik

ko'p holatlarda chiqib borsa va bu cho'qqidan asta-sekin yanada yuqoriroqqa ko'tarsa, uning ijodiy qobiliyatlari shunchalik muvaffaqiyatli natijalar beradi.

Ijodiy qobiliyatlarni muvaffaqiyatli rivojlantirishning **uchinchi** sharti bo'lajak o'qituvchiga kasbiy faoliyat turini tanlashda, o'z mehnatini amalga oshirishda rang-baranglikni tanlashda, bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz oshirib borishda erkinlik berishdan iborat. Shunda o'qituvchining xohishi, kasbiga qiziqishi, emotsional tuyg'ulari aqliy mehnatda zo'riqishga olib kelmasdan ijobiy natijalar beradi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning **to'rtinchi** muhim sharti – bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlashning kasbiy sohada o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari va salohiyatlarini ijodiy ro'yobga chiqarishga yo'naltirilganligidir. O'qituvchilarning o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini doimiy boyitib borish qobiliyati, kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlarining rivojlanganlik darajasi, o'zini kasbiy-ijodiy rivojlantirish va o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari va salohiyatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilganligi zamonaviy kasbiy-pedagogik ta'lim sifatining ustuvor ko'rsatkichlari, uning maqsadga yo'naltirilganligidadir.

Ma'lumki, ijod uchun qulay psixologik muhit va bo'sh vaqt bo'lishi zarur, shuning uchun – jamoadagi iliq, do'stona muhit ijodiy qobiliyatlarni muvaffaqiyatli rivojlantirishning **beshinchi** sharti hisoblanadi. Oliy ta'lim tashkilotlarining o'qituvchilari talabalarning ijodiy kashfiyotlarini amalga oshira oladigan xavfsiz psixologik zamin yaratishlari lozim. Talabalarni doimo ijodiy mehnatga qiziqishlarini rag'batlantirib borish, ijodiy g'oyalarni amalga oshirish uchun tegishli sharoit va qulay muhit yaratish muhim ahamiyatga ega.

Y.P.Azarov V.I.Grabeklis, I.A.Zyazyun, N.V.Kuzmina, V.P.Simonov, V.A.Slastyonin, V.A.Suxomlinskiy, G.I.Xozyainov, E.N.Shiyanov, A.I.Sherbakov kabi olimlarning fikricha, "pedagogik mahorat" tushunchasiga asosan *kasbiy bilim, qobiliyat va ko'nikmalar* kiritilishi kerak. Ular o'qituvchi xatti-harakatlariga qat'iyatlilik, asoslilik, tushunarlilik beradigan belgilar bo'lib, ijodiy qobiliyat tushunchasini beradi deb ta'kidlaydilar.

V.P.Simonov *"mahoratli o'qituvchi uchun zarur bo'lgan"* quyidagi ijodiy qobiliyatlar turkumini taklif qiladi :

- muammoli vaziyatlarni aql bilan ilgari surish qobiliyati;
- har qanday vaziyatda o'ziga xos qarorni qabul qilish qobiliyati;
- vaziyatni ko'ra olish va bashorat qilish qobiliyati;
- o'z hissiyotlarini jilovlay olish va o'zini boshqara olish qobiliyati;
- o'quvchilar va hamkasblari bilan o'zaro kasbiy muloqotga kirisha olish qobiliyati;
- kasbiy faoliyatda ijodkorlikni yuzaga kelishi uchun zaruriy bosqich hisoblangan "noaniqlik zonasini" yarata olish qobiliyati.

Olimlar tomonidan o'qituvchining "pedagogik mahorat"ini tavsiflovchi ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. V.A.Slastyonin tomonidan taklif etilgan professiogrammada o'qituvchining yuzdan ortiq qobiliyati ta'riflangan. Biroq tadqiqotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, V.A.Slastyonin tomonidan taklif etilgan pedagogik qobiliyatlar hali tugallanmagan ro'yxatni bildiradi. Demak ta'kidlash joizki, zamonlar o'zgarib ilm-fan rivojlanishi bilan ijodiy qobiliyatlar majmuasi ham yangi tushunchalar bilan boyib boradi. Biroq bu falsafa ham "pedagogik mahorat" tushunchasiga nisbatan ta'rifni ishlab chiqish uchun asos bo'la olmaydi, sababi ular aniq bir chegaraga ega emas.

Ijodkorlik qobiliyatlari va ularni rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqot ishlarining xilma xilligiga qaramasdan, oliy ta'lim tashkilotlarining o'quv faoliyatida ko'rsatilgan umumnazariy tasavvurlarni amalga oshirishda ma'lum qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Ijodkorlik qobiliyatlari va ularni rivojlantirish imkoniyatlari tushunchasiga asosiy yondashuvni dastlabki tanlab olish jarayoni murakkabdir. Ishlab chiqilgan modellar, dasturlar, texnologiyalarni, tizimlarni joriy etish ularning o'ziga xosligi, globalligi sababli qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Pedagogik faoliyatda o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining nazariy asoslarini amalga joriy qilishning pedagogik shart–sharoitlari adabiyotlarda yetarlicha to'liq ifodalab berilmagan. Ijodkorlik uchun qulay bo'lgan sharoitlarga oid turli xil nuqtayi nazarlargina mavjud. Ijodkor shaxsning ilhom fazasiga sho'ng'ib ketishiga yordam beruvchi psixologik shart–sharoitlar; ob'ekt yoki hodisani chuqur tadqiq qilishni tashkil etishga asoslangan sharoitlar; alohida ijodiy qobiliyatlarni qo'llash va rivojlantirishga qaratilgan o'qitish jarayonida ijodkorlik vaziyatini yaratishga oid tavsiyanomalar; samarali matematik faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish shartlarini klassifikatsiyalash; to'laqonli ilmiy ijodkorlik faoliyat sharoitlarini klassifikatsiyalash kabi ilmiy g'oyalar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, bo'lajak mutaxassisning (bo'lajak o'qituvchining) ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni kasbiy ma'noga ega bo'lishi kerakligini hisobga olish zarur.

A.B.Kovalenko, ijodkorlik masalalarini tushunish jarayonining o'ziga xos tomonlarini tadqiq qilib, obyektiv (axborot miqdori, masalaning berilish shakli, murakkablik darajasi) va subyektiv (ub'ektivning bilim darajasi, motivlari) omillarning ijodiy masalani tushunish jarayoniga ta'sirining o'ziga xos tomonlarini o'rganadi. A.B.Kovalenko subyektning bilim darajasidan kelib iqib, masalani tushunishning turli darajalarini ajratib ko'rsatdi. P.Y.Galperin samarali masalalarni yechish usullarini ochib beradi, bu esa ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish shartlarini o'rganishda alohida qiziqish kasb etadi.

Ijodkorlik o'qituvchining butun pedagogik faoliyatini shunchaki qamrab olmasdan, balki o'qituvchi professionalizmining mezonlaridan biri sanaladi. Shuning uchun pedagogik ijodkorlik dialektik xarakterga ega desak mubolag'a bo'lmaydi. O'qituvchi bolalarning o'sish va rivojlanishi jarayonida, doimiy o'zgarib turadigan sharoitda ijod qiladi. Pedagogik ijodkorlik jarayoni doimiy o'z-o'zini tahlil va o'z-o'zini baholashni talab qiladi. Biroq ijodiy harakatning dinamizmi bu kabi tahlil uchun hamisha ham vaqt qoldiravermaydi, ko'pincha u intuitiv darajadagi qarorlar, ong osti faoliyati bilan almashtiriladi.

Pedagogik ijodkorlik – kasbiy mehnatning yuqori cho'qqisidir. O'qituvchi mehnatining o'ziga xosliklari sirasiga uning natijalarini uzoq kutish kerakligi va ular haqida faqat qisman yakunlar bo'yicha mulohaza yuritishi mumkinligi ta'kidlanadi. Bu o'ziga xoslik o'qituvchi shaxsiga talablar qo'yadi: u pedagogik ta'sir oqibatlarini bashorat qila bilishi, muntazam ravishda kundan kunga maqsadli "ijod qilish" qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Pedagogik ijodkorlik o'quv-tarbiya jarayoni bilan uyg'unligi bois u doimo ijobiy natijalar berishi kerak. Salbiy natijalarga faqat xayoliy sinovlar va taxminlarda yo'l qo'yiladi, farazlarni tekshirishning qarama-qarshisidan kelib chiqib isbotlash, mavhum

holatga olib borish kabi usullariga o'qituvchining amaliy faoliyatida mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Pedagogik ijodkorlikning yana bir muhim o'ziga xosligi, tarbiyalanuvchilarning, butun pedagogik jamoaning ijodiy jarayoni bilan bog'liqligidir. Pedagogik jamoa, ijodiy jamoa bo'lib, doimiy yuzaga keladigan ziddiyat va nizolarga ega bo'lmasligi mumkin emas. Nizoli vaziyatlar va ziddiyatlarni bartaraf etish tanqid va o'z-o'zini tanqidni rivojlantiradi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi yo'llari va vositalarini izlashga majbur etadi, bu esa ijodiy jarayon sanaladi.

Ijodkorlikka asoslangan qobiliyatlar o'qituvchi pedagogik mahoratining eng muhim mezonlaridan biri sanaladi. Qolaversa, kasbiy ijod uchun zarur deb ta'kidlanadigan sifatlar asosan o'qituvchining ijodiy qobiliyatlariga mujassamlashgan. Pedagogik uchun shuningdek kommunikativ – ijodiy qobiliyatlarning roli muhim ekani ta'kidlanadi.

Demak, o'qituvchi pedagogik ijodkorlikda yuqori cho'qqilarni zabt yetishi uchun quyidagi mantiqiy zanjirni to'ldirib borishi zarur: umumiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish – pedagogik ijodiy qobiliyatlarini kuchaytirish – pedagogik faoliyatda professionalizmga yaqinlashish. Shu tariqa o'zining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish – o'qituvchining pedagogik mahoratida kasbiy tayyorgarligining zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunga kelib, o'qituvchi professiogrammasini tuzish bo'yicha anchagina boy tajribalar to'plangan. U o'qituvchiga qo'yiladigan kasbiy talablarni uchta asosiy kompleksga birlashtirish imkoniyatini beradi:

- umumfuqarolik sifatlari;
- o'qituvchilik kasbining o'ziga xosligini belgilovchi sifatlar;
- fan (ixtisoslik), ya'ni o'z mutaxassisligi bo'yicha maxsus bilim, ko'nikma va malakalar.

Psixologik – pedagogik adabiyotlarda pedagogik xususiyatlarga alohida e'tibor qaratiladi. Mualliflarning (F.I.Gonobolin, V.A.Kruteskiy, N.D.Levitov, M.N.Skatkin, V.A.Slastenin, A.I.Shcherbakov) ijodiy qobiliyatlar mazmuniga turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilib, quyidagi yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- akademik qobiliyatlar;
- konstruktiv qobiliyatlar;
- didaktik (bolalarga bilimlarni tushunarli, qisqa, qiziqarli shaklda, muammolarni ajratib ko'rsatgan holda bera olish) qobiliyatlar;
- perseptiv (kuzatuvchanlikka asoslangan o'quvchilar shaxsi va psixik holatini tushunish; turli pedagogik vaziyatlarda tez va aniq qaror qabul qilish; pedagogik takt) qobiliyatlar;
- loyihalashtirish (o'z ishining natijalari, shuningdek xatolarni va etimoliy qiyinchiliklarni oldindan ko'ra bilish, tarbiyalanuvchilari sifatlarini loyihalashtira bilish) qobiliyati;
- tashkilotchilik qobiliyatlari;
- kommunikativ qobiliyatlar;
- mustaqil va ijodiy fikrlash uslubining rang-barangligi, pedagogik tasavvurning kengligi.

Ijodiy qobiliyatlar o'qituvchining pedagogik mahoratini rivojlantirish samaradorligini ta'minlashga sharoitlar yaratadi:

- *motivasion sharoitlar:* o'qituvchining kasbiy faoliyatida ijodning o'rnini asoslash; muammolar yechimi uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'lishini anglab etish;
- *konstruktiv sharoitlar:* talabalarga ijodiy faoliyat mexanizmlari haqida bilim berish; ta'lim mazmuniga ijodiy xarakterdagi topshiriqlarni kiritish; mavzuga oid metodik ta'minotni ishlab chiqish;
- *tashkiliy sharoitlar:* o'quv – ijodiy faoliyatni takomillashtiruvchi ta'limning metod va shakllardan foydalanish; ta'limni tashkil qilishning individual shakllarini qo'llash;
- *kommunikativ sharoitlar:* o'qituvchi kommunikativ madaniyatining yuqori darajada shakllanganligi; o'qituvchi va talabalarning subyekt – subyekt o'zaro hamkorligi sifatida dialogdan foydalanish.

Ko'plab tadqiqotchilar ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishini (V.I.Andreyev, N.Yu. Postalyuk, I.G.Pchelinseva, I.A.Sharshov) tahlil qilishda ilmiy asoslar bilan farqlanadigan mezonlar kombinatsiyalaridan foydalanganlar. Mezonlar sifatida ijodiy jarayon bosqichlarini amalga oshirishda muvaffaqiyatli natijalar beruvchi vositalardan foydalanishgan:

- ijodiy qobiliyatlarning namoyon bo'lishini faqat ijodiy jarayondagi muvaffaqiyatlarga asoslanib kuzatish;
- ijodiy jarayonda ijodiy qobiliyatlarning integratsiyalashgan holati uning barcha bosqichlarida kompleks namoyon bo'lishi;
- ushbu yondashuvlar ijodiy qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasini farqlash uchun qulay sharoit yaratadi.

Ijodiy qobiliyatning ro'yobga chiqishi va rivojlanishida izchillikni bilish o'qituvchiga, birinchidan, qobiliyatni o'z vaqtida diagnostika qilish, ikkinchidan, uning rivojlanishiga barcha zarur tadbir-choralarni ko'rish lozim bo'ladi. Vaqtni o'tkazib yuborib qobiliyatni kechikib rivojlantirish, pirovardida ko'p kuch sarflashni talab qiladi va kam natija beradi. Tegishli qobiliyatning o'zini shakllantirish uchun optimal (eng qulay) vaqt sarflashga e'tiborni qaratish bilan birga, yaqin vaqt ichida yangi qobiliyat ko'rinishlariga hamda rivojlanishning yangi bosqichiga tegishlicha tayyorlash kerak. Shu tariqa ijodiy qobiliyatlarning shakllanishi uzluksiz jarayonni tashkil qilib, bu shaxsning umumiy va maxsus rivojlanishi uchun benihoya ulkan qulayliklar tug'diradi.

O'qituvchining ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda umumiy alomatlar hisoblanmish quyidagi jarayonlarni bilish lozim:

1. Bilimlarni egallash, ko'nikma va malakalarni hosil qilishda nisbatan tez siljish. Har qanday faoliyatdan ertaroq qutilish maqsadida hamma narsani naridan-beri bajarishga uringandagi shoshqaloqlikni tezlik bilan chalkashtirib yuborish yaramaydi. Shu bilan birga tabiatan sustkash (flegmatik) kishilar ishni epchil kishilardan ham oldin ulgurishi ehtimoldan holi emas. Lekin ko'ramizki, bu holatlarda ham ayniqsa, o'qish va mehnat uchun ulkan vaqt oraliqlari olingan hollarda nisbiy tezlik qolaveradi;

2. Bilimlarni egallash, ko'nikma va malakalarni hosil qilishdagi osonlik; qobiliyatli kishilar biror narsani tushunishda, o'rganilayotgan bilimlarni xotirada saqlab qolish, fikran qayta ishlashda qiyinchiliklarga duch kelmaydilar. Ish faoliyati qanchalik osonlik bilan bajarilsa, kasb egallash jarayoni ham shunchalik sifatli boradi. Bundan tashqari, bilimlarni va kasbni egallashdagi osonlik shaxsga quvonch bag'ishlaydi, optimistik kayfiyat tug'diradi, bu esa o'qish va mehnatning samaradorligini oshiradi. O'qishdagi yuksak muvaffaqiyatlar keyinchalik bilimlarni yanada oshirish jarayonini yengillashtiradi;

3. Dilimlarni egallash, ko'nikma va malakalar hosil qilishdagi ijodkorlik elementlari. Ijodiy qobiliyatlarga ega o'qituvchi did va farosatlilik ko'rsatadi, dadil va to'g'ri fikrlar bildiradi yoki masalani ilgari o'ziga ma'lum bo'lmagan yo'llar bilan yechishga erishadi, rasm chizishda o'z mohirligini namoyon etadi, rasmning muvaffaqiyatli kompozitsiyasi yoki yorqin koloritli yechimini topa oladi;

4. Doimo bilimlarni egallab borish, mukammal ko'nikma va malakalar hosil qilish. Ijodiy qobiliyatlarga intiluvchi tajribasiz o'qituvchi ham bir xil sharoitda pedagogik mahoratini rivojlantirib borishda yuqori darajalarga erishishlari mumkin.

Xususiyatlar "ansambli" iborasini biz shuning uchun ham ishlatamizki, bunda xususiyatlarning oddiygina birgalikda mavjud bo'lishini emas, balki ularning uzviy bog'langan bo'lishini, muayyan tizimda o'zaro ta'sir qilishini nazarga tutamiz. Ushbu tizimda ijodiy qobiliyatlarning xususiyatlaridan biri albatta oldinga chiqib, yetakchi xususiyatga ega bo'lsa, Ayni vaqtda boshqalari yordamchi xususiyatlar rolini o'ynaydi.

Har bir ijodiy qobiliyatning o'ziga xos tizimi bor. Qobiliyatlarning tizimida tayanch va yetakchi xususiyatlarni, va nihoyat, muayyan fonni yoki yordamchi xususiyatlarni farq qilish lozim.

Ijodiy qobiliyatlar uchun asosiy, tayanch xususiyat kuzatuvchanlik – ko'ra bilish va mulohaza qilish ko'nikmasidir. Bu – individual narsaning o'ziga xos tomonini, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilish demakdir. Rassomning kuzatuvchanligi tabiatshunos olimning kuzatuvchanligidan farq qilishi o'z-o'zidan ravshan. Ularning kuzatuvchanligi turlicha, har biri ijtimoiy dunyoni o'zicha ko'radi.

Rossiyaning yetakchi olimlari ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun alohida metodlar zarurligini ta'kidlaydilar.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi metodlar

1-bosqich: Rivojlantiruvchi va topqirlikka undaydigan qiziqarli metodlar:
2-bosqich: Xatoliklarni izlab topishga qaratilgan metodlar;
3-bosqich: Tarkibida tadqiqot elementlari bo'lgan metodlar;

15-chizma. R.S.Cherkasov ta'limoti bo'yicha ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi metodlari

Ijodiy qobiliyatning yana bir xususiyati ijodiy tasavvur qilishdir. Bu xususiyat faqat rassomga, matematik olimga, adabiyotshunosga emas, balki aynan o'qituvchiga va uning pedagogik mahoratiga ham tegishlidir.

Quyidagi qobiliyatlarning yordamchi xususiyatlari deb hisoblash mumkin:

- *xotiraning kuchliligi* (u faoliyat talablariga muvofiq ravishda o'ziga xos, spesifik ko'rinishda bo'ladi);
- emotsionallik, ya'ni his-tuyg'ularga beriluvchanlik (bu xususiyat shaxsning ijodiy faolligini oshiradi).

Ijodiy qobiliyatlar turli rivojlanish darajasida bo'lishi ham mumkin. Ilmiy mavhumlik qobiliyatning quyidagi darajalarini o'zida aks ettiradi:

- *reproduktiv aks ettirish darajasi;*
- *ijodiy aks ettirish darajasi.*

O'qituvchi ijodiy qobiliyatining birinchi darajasida bilimlarni juda mohirlik bilan o'zlashtiradi, faoliyatni o'rganib oladi va uni biror namuna orqali amalga oshiradi. Ikkinchi darajada o'qituvchi kasbiy faoliyatda yangilik yaratishga qodir bo'ladi.

Ushbu darajalarga befarq munosabatda bo'lish mumkin emas. Birinchidan, har qanday reproduktiv aks ettirish faoliyati ijodiy faoliyat elementlarini, o'ziga qamrab oladi, busiz ularni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ikkinchidan, yuqorida ta'kidlangan darajalar ham qandaydir o'zgarmas va qotib qolgan jarayon emas. O'qituvchi bilimlarni o'zlashtirib, ko'nikma va malakalar hosil qilish jarayonida, faoliyat jarayonidan yana bir ikkinchi jarayonga o'tib turadi. Ijodiy qobiliyat o'qituvchining kasbiy mahoratining shakllanishi va rivojlanishi natijasidir. Shu bilan birga, qobiliyatning tabiiy manbai ham bo'ladi va u *tabiiy zehn* deb yuritiladi.

O'qituvchining ijodiy qobiliyatini ulkan ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega desak mubolag'a bo'lmaydi. Qobiliyat o'qituvchiga pedagogik faoliyatda yuqori mehnat unumdorligini ta'minlashga, binobarin, jamiyatda ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlarni o'zlashtirib ijobiy jihatlarini o'zida mujassamlashtirishga yordam beradigan, sifat jihatidan yetuk va mukammal bilimga ega kadr sifatida shakllantiradigan muhim vositadir. Shuning uchun ham o'qituvchining zakovatini, qobiliyatini ochish hamda

ularni o'z o'rniga qo'yishni o'rganib olish zarur ekanligi haqidagi muammo zamonning har qanday sharoitida qat'iy qilib qo'yilgan va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish talab qilingan. O'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishda ijodiy qobiliyat uning teran bilim olishi, ko'nikma va malakalar hosil qilishini ta'minlaydi. Qobiliyatli o'qituvchining unumli mehnati moddiy hayot darajasini to'liq va mukammal bo'lishini ta'minlaydi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Shaxs qobiliyatining individual-psixologik xususiyati haqida so'zlab bering?
2. Psixolog olima Olga Matveevaning modifikatsiyalangan qobiliyatlar to'plami?
3. Qobiliyatga yaqin turadigan tushunchalarga ta'rif bering?
4. Pedagogik mahoratning rivojlanishida o'qituvchi qobiliyatining ahamiyati nimalardan iborat?
5. Mahoratli o'qituvchi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar majmuasi haqida fikrlaringiz?
6. Pedagogik qobiliyatlar guruhi haqida o'z mulohazalaringizni bildiring?
7. O'qituvchining nazariy va amaliy qobiliyatlari haqida fikrlaringizni bildiring?
8. Pedagogik faoliyatning samaradorligini ta'minlovchi asosiy qobiliyatlar turkumini ayting?
9. Intellektual salohiyatning tarkibiy tuzilishiga ta'rif bering?
10. Pedagogik faoliyatning samaradorligini ta'minlovchi asosiy qobiliyatlar tizimini sanab bering?
11. O'qituvchi pedagogik mahoratida qobiliyatlarning yetakchi va yordamchi xususiyatlarini ta'riflang?
12. Olimlar ilmiy tadqiqot ishlarida ijodiy qobiliyatlarning yo'nalishlari haqida fikr-mulohazalaringiz bildiring?

Talabalarning mustaqil tayyorgarliklari uchun topshiriqlar

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o'z fikr mulohazalaringizni bildirib, "Mustaqil ish" yozing:

1. "Shaxs qobiliyatining individual-psixologik xususiyati".
2. "Pedagogikada o'qituvchining qobiliyati cheksiz imkoniyat ekanligi".
3. "O'qituvchining pedagogik mahoratini oshirib borishda ijodiy qobiliyatlarning ahamiyati".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4312785.
3. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent shahri, 2024-yil 1-fevral № O‘RQ – 901.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarori – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2020, 27-28-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni. https://lex.uz/docs/6008663.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-6476175.
7. Азаров Ю.П. Искусство воспитывать.–М.: Просвещения, 1985.– 448 с.
8. Гамезо М.В., Домашенко И.А. Атлас по психологии: информ.-метод. пособие к курсу “Психология человека”. - М.: Просвещение, 2004.
9. Грабеклис В.И. Гуманистическая модель учителя как проблема его профессиональной подготовки //Психолого-педагогические проблемы повышения квалификации работников образования. – М.: 1994.– С.3.-17.
10. Дистервег А. Избранные педагогические сочинения. – М.: 2006.– 322.
11. Крутецкий В.А., Балбасова Е.Г. Педагогические способности, их структура, диагностика, условия формирования и развития: Учебное пособие. – М.: Прометей, 1991.- 112 с.
12. Кузьмина Н.В. Способности, одаренность, талант учителя. – Л.: Знание, 1985.–32 с.
13. Симонов В.П. Диагностика личности и профессионального мастерства преподавателя. //Учебное пособие для студентов педвузов, учителей и слушателей ФПК. – М.: Межд. пед. академия, 1995. –189 с.
14. Сластёнин В.А. Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. //Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. //Под ред. В.А.Сластенина. 2 ч. – М.: Гуманит. изд. центр. ВЛАДОС, 2003. – 256 с.
15. Сухомлинский В.А. Болаларга жоним фидо. – Т.: Ўқитувчи, 1984. – 254 бет.
16. Черкасов С.Р. О преподавании математики в предстоящем тысячелетии. // Математика в школе. 1996 № 1.

5-BOB.

O‘QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATI

Tayanch tushunchalar:

Kommunikativ qobiliyat; pirovard natija; ishontirish; taqlid qilish; ta'lim; tarbiya; samaradorlik; dunyoqarash; xulq-atvor, xatti-harakat; fikr-mulohaza; mustahkam iroda; psixologik tajriba; notiqlik malakasi; notiqlik san'ati; pedagogik ta'sir; nutq madaniyati; dunyoqarash; psixologik muhit; an'anaviy muloqot; imkoniyatlar; tasavvur; insonparvarlik; autogen mashqlar; emotsional muhit; kommunikativ; kasbiy-ijodiy kategoriya; axloqiy fenomend; muomala; regulyasion; affektiv; mimik, pantomimik, notiqlik san'ati; ta'sir ko'rsatish; an'anaviy muloqot; odob va ehtirom; muomala madaniyati.

5.1. O'QITUVCHINING FIKR ALMASHISH BILAN BOG'LIQ XUSUSIYATLARI

O'qituvchi faoliyatida tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik aloqalarning uzluksizligi ta'lim va tarbiya jarayonining asosiy qonuniyatlaridan biridir. *O'quvchilar bilan ta'lim-tarbiyaviy jarayonda ijobiy aloqalar o'rnatish, o'ziga ishontira olish va jalb qilish – o'qituvchi kommunikativ qobiliyatining asosiy mohiyati bo'lib, bunda bevosita o'qituvchi bilan bog'liq bo'lgan ruhiy jarayonlar, ma'lum bir pedagogik qolipdan chiqishi mumkin bo'lmagan muomala turlari va shartlari mavjud.* Ta'lim va tarbiyaning samaradorligi, pirovard natijada o'quvchilar bilan aloqa o'rnatishning shakl va uslublariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Asosiy maqsad, o'qituvchi va o'quvchilar munosabatida majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

O'qituvchi tarbiya usullari tizimini belgilab olgach, aloqa o'rnatish vazifalarini rejalashtirishi kerak. Albatta bu nihoyatda qiyin jarayon, zero tarbiyaning har bir usuli, tarkibiy qismi va tashkil etuvchi usullari muomala orqali aloqa o'rnatishning samaradorligiga bog'liq. Ushbu jarayon bevosita o'qituvchining fikr almashuvi (refleksiya) bilan bog'liq xususiyatlariga, o'quvchining ichki ruhiy holatini fikr tezligi bilan uqib olish san'atiga va pedagogik ta'sir ko'rsatishning turli usullarini bir biri bilan o'zaro aloqadorlikda qo'llay bilishiga taalluqli bo'lib, ular kommunikativ qobiliyatda uzluksiz shakllanadi.

O'qituvchining fikr almashuvi bilan bog'liq kommunikativ qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy xususiyatlari o'quvchi ongiga qaratilgan faoliyat bo'lib, nihoyatda murakkab jarayonda takomillashadi. O'zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog'liq bo'lgan kommunikativ qobiliyatning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

- o'quvchilarni ishontirish;
- o'quvchilar ongiga ta'sir etish;
- o'zgalarga taqlid qilish.

O'quvchilarni ishontirish *tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan bo'lib, o'qituvchi fikr mulohazalarini ta'sirchan nutq orqali o'quvchining bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, xatti-harakatiga ta'sir etadi va uni qisman o'zgartiradi. Ishontirish o'qituvchining kasb faoliyatiga taalluqli bo'lgan murakkab faoliyatida asosiy ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida ishlatiladigan usullardan biri hisoblanadi.* O'quvchi ongiga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan ishontirish usuli o'qituvchidan bahs, munozara asosida dalillar keltirishni, isbot va mantiqqa tayanishni talab qiladi. Ayniqsa o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida o'rganilayotgan mavzuga taalluqli muqobillik mavjud bo'lganda, tanqid va fikrlar kurashiga tayanilganda samarali bo'ladi.

Ishontirish tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan ekan, o'qituvchining his-tuyg'usi, nutqi va ishontira olish san'ati bunda muhim ahamiyatga ega. U kommunikativ qobiliyat usuli sifatida darslarda yangi mavzuni tushuntirishda, o'quv-tarbiyaviy soatlarda, turli uchrashuvlar va ijodiy suhbatlarda munozaralar shaklida qo'llaniladi. Tarbiyaviy tadbirlarda ishontirish usuli sinf jamoasi bilan hamda alohida o'quvchi bilan individual suhbatlar o'tkazish, siyosiy mavzulardagi darslarda keng qo'llaniladi. Ishontirish usuli yordamida o'quvchilarning dunyoqarashi shakllantiriladi. Bu ayniqsa o'quvchi ongini begona mafkuraviy g'oyalardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega, ishontirish asosida o'quvchiga ideal va mustaqil fikrlar qayta quriladi, ularni ba'zi psixik ta'sirlar tufayli sodir bo'ladigan tushkunlik holatidan asraydi, ularda erkinlik hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stiradi, o'ziga va kelajagiga ishonch uyg'otadi, o'z-o'zini tarbiyalashda, mustahkam irodani shakllantirishga undaydi.

O'quvchilar ongiga ta'sir *o'zaro fikr almashish jarayonida shakllanadigan murakkab psixologik xususiyat bo'lib, o'qituvchi kommunikativ qobiliyatining universal omili hisoblanadi. O'qituvchilarning o'zaro suhbati va faoliyati jarayonida tarbiyalanuvchi ongiga ta'sir etishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u o'quvchilarning psixikasi va xulq-atvoriga sezilarsiz ravishda ta'sir ko'rsatadi. Ta'sir o'quvchilar ongiga, psixikasiga nazoratsiz kirib borishi bilan* alohida *ahamiyatga ega, o'quvchilarning ijodiy faoliyatida, xatti-harakatlarida, intilishlarida yo'l-yo'riqlar ko'rsatish tarzida amalga oshiriladi.*

Ongga ta'sir – shunday bir psixik jarayonki, o'quvchilar o'qituvchining yoki biror shaxsning ta'siri ostida, o'z ongining yetarli nazoratisiz voqelikni idrok etadi. Agar o'qituvchi bunda pedagogik mahoratga, psixologik tajriba va bilimlarga ega bo'lmasa, o'quvchilar ongiga ta'sir qila olmaydi, natijada ta'lim-tarbiya jarayoni ijobiy natijalar bermaydi, o'qituvchi o'quvchilarning hurmat e'tiboriga sazovor bo'la olmaydi.

O'quvchi ongiga ta'sir o'tkazishda o'qituvchi yetakchilikni o'z qo'liga kiritishi uchun:

- o'quvchilarning salbiy xatti-harakatlari tufayli sodir bo'ladigan emotsional his-tuyg'ularga berilmasligi;
- har bir o'quvchining psixologik va ruhiy holatini puxta o'rganmasdan uning ongiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga harakat qilmasligi;
- har bir o'quvchiga alohida shaxs sifatida hurmat, e'tibor bilan munosabatda bo'lishi;
- sinf jamoasining norasmiy yetakchisini sezdirmasdan aniqlab olishi va uning xatti-harakatidan doimo ogoh bo'lishi, u bilan aslo masofa saqlamaslik;
- o'ylanmay aytilgan har bir so'zning, noo'rin fikr mulohazaning oqibatini hech qachon tuzatib bo'lmasligini o'qituvchi doimo his yetishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda axborot texnologiyalari maydonining nihoyatda kengligi tufayli o'quvchilar ongi tarbiyaga salbiy ta'sir o'tkazuvchi g'oya va mafkuralar bilan band bo'lishi tabiiy hol. O'qituvchilar yosh avlodni tarbiyalashda ongga

ta'sir qilishning keng imkoniyatlarini o'z o'rnida qo'llay olsalar, o'quvchilar ongini turli keraksiz g'oyalar va mafkuralardan himoya qila oladilar. Shuni unutmaslik kerakki, o'quvchilar o'zlarining yosh xususiyatlari va psixologik ta'sirga juda moyilligi tufayli har qanday ta'sirga nihoyatda beriluvchan bo'ladilar.

Taqlid qilish *shaxsning psixologik xususiyati bo'lib, o'zi sevgan biror insonning harakatiga, ijobiy xislatlariga o'xshashga harakat qilishidir. O'quvchi o'zi uchun ideal deb bilgan kishining xulq-atvoridagi yaxshi fazilatlariga, ish faoliyatidagi namunalariga ongsiz ravishda taqlid qiladi.* O'quvchilar o'zgalar xulq-atvoridan andoza olib, taqlid qilish yo'li bilan ulardan o'zining shaxsiy muhitida foydalanadilar. Taqlid qilishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, o'quvchilar o'z xatti-harakati va muomalasi jarayonida o'zi ko'rgan, kattalar bajargan harakatlarni takrorlashga intiladilar. Taqlid qilishning yana bir xususiyati o'quvchilar badiiy asarlarda o'qigan, kinofilmlarda ko'rgan sevimli idealidagi qahramon obraziga, xarakteriga, jasoratiga, imo-ishora, nutq, kiyinish uslublariga beixtiyor taqlid qiladilar, o'z harakat faoliyatida takrorlaydilar.

Beixtiyor taqlid qilish o'quvchi shaxsining shakllanishi ilk bosqichlarida muhim ahamiyatga ega, bundan o'qituvchi unumli foydalanishi, o'quvchiga ijobiy ta'sir etish yo'li orqali o'ziga mutlaqo og'dirib olishi mumkin. U kommunikativ qobiliyati bilan o'quvchiga ta'sir o'tkaza olsa, o'quvchi o'qituvchining eng ajoyib fazilatlariga taqlid qiladi. O'quvchi taqlid qilish yo'li bilan o'qituvchining kiyinishini, xatti-harakatini, nutqini, maneralarini, xulq-atvoridagi turli unsurlarni o'rganadi va o'zining xulq-atvoriga shakllantiradi, ruhiyatidagi ushbu jarayon asta-sekin va ko'r-ko'rona davom etadi.

O'qituvchi kommunikativ qobiliyati bilan pedagogik faoliyat olib borish jarayonida o'zaro fikr almashish yo'li bilan ta'sir ko'rsatishning ko'rib chiqilgan asosiy turlari – o'quvchini ishontirish, o'quvchi ongiga ta'sir etish, taqlid qilish – bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan psixologik xususiyatlardir va ayni vaqtda o'ziga xos farqlarga ega. Ishontirish va ongga ta'sirning o'zaro bog'liqligi shundan iboratki, biz ta'sir ko'rsatish usulining unisidan ham, bunisidan ham foydalanganda ko'pincha notiqlik san'atini namoyish etamiz. O'qituvchining so'z boyligi va notiqlik malakasi ishontirish va o'quvchi ongiga ta'sir etishning muhim manbalaridir.

5.2. PEDAGOGIK TA'SIR KO'RSATISH – KOMMUNIKATIV QOBILIYATNING ASOSIY VOSITASI SIFATIDA

Pedagogik ta'sir ko'rsatish o'qituvchining muhim kommunikativ qobiliyatlaridan biri bo'lib, avvalo, o'qituvchining tashqi qiyofasini ifodalovchi xulq-atvori, munosabatga kirishishi va nutq madaniyati asosida o'quvchilar bilan muntazam tarbiyaviy faoliyat olib borish jarayonida namoyon bo'ladi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish vositasi – tarbiyalanuvchiga ongli intizom va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish, tarbiyani ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir ko'rsatish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama barkamol inson sifatida kamol toptirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini takomillashtirish, yosh avlodni muayyan maqsad asosida tarbiyalash, ijtimoiy ong va xulq-atvorni xalqimizning boy mafkuralari asosida shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Pedagogik ta'sir ko'rsatish vositasi asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, unda ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish vositasi bilan jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning pedagogik jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi. *Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, o'qituvchining ta'lim va tarbiyaviy maqsadlarga erishishi qiyinlashadi.*

Pedagogik ta'sir ko'rsatish vositasi mazmunida tarbiyaning butun mohiyati ifodalangan bo'lib, uning mazmuni mamlakatning ijtimoiy maqsadlaridan kelib chiqib asoslanadi. Tarbiya mohiyati turli davrlarda har xil ifodalangan bo'lsa ham, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyatiga ko'ra bir-biriga o'xshash g'oyalarni ifodalaydi. Zero, har bir xalqning taraqqiy yetishi, davlatning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liqligi qadimdan o'z isbotini topgan.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab kamolotga yetkazishdan iborat.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish vositasining asosiy tarbiyaviy usullari hayotdan, millatning yashash tarzidan, milliy an'ana va urf-odatlardan kelib chiqib tanlanadi. Ular o'quvchilar tarbiyasini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish nuqtayi nazaridan tanlab oladi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish vositasi o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnat faoliyatini pedagogik jihatdan ma'lum bir maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun foydalaniladigan vositalar tizimidan iborat. Ushbu vositalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning xulq-atvorini shakllantiradi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan olib boriladigan pedagogik ta'sir *ko'rsatish vositasining* asosiy usullari: *talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikrining* ijobiy natijalar berishi bevosita o'qituvchining kommunikativ qobiliyati darajasi qanday shakllanganligiga bog'liq.

Talab – ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchining tarbiyalanuvchiga nisbatan shaxsiy munosabatlarida namoyon bo'ladi. O'quvchining barcha xatti-harakati o'qituvchi nazoratida bo'lib, ijobiy jihatlari rag'batlantirilib boriladi yoki aksincha nojo'ya xatti-harakati jazolanib, to'xtatib qo'yiladi.

Istiqbol – ta'sirchan pedagogik usul bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, ma'lum bir maqsadga, orzuga erkin intilish hissini takomillashtiradi. Bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlarida, qiziqish va muddaolarida namoyon bo'ladi. Ushbu usul maktab o'quvchilarini shaxs sifatida eng muhim insoniy fazilatlaridan biri bo'lgan maqsadga intiluvchanlikni rivojlantiradi.

Rag'batlantirish va jazolash – tarbiyaviy ta'sirning eng an'anaviy usuli bo'lib, o'quvchilar xulq-atvoriga ijobiy ta'sir etishdan iborat. Yaxshi xulq, foydali mehnat, yaxshi xulq, topshiriqlarning so'zsiz bajarilishi uchun o'quvchi rag'batlantiriladi. Nomaqbul xatti-harakat, tartibbuzarlik, o'z burchini bajarmaslik jazolash orqali bartaraf etiladi. Ushbu usul axloqiy ta'sir ko'rsatishni ta'minlaydi, uni qo'llash jarayonida o'qituvchidan nihoyatda ehtiyotkorlik, sezgirlik va hushyorlik talab etiladi.

Jamoatchilik fikri – tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng muhim usuli bo'lib, o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini bajarilish natijalariga qarab muntazam rag'batlantirib borishda namoyon bo'ladi. Jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ma'lum bir yo'nalishda amalga oshirilishini ta'minlaydi, o'quvchilarning bir-birlariga do'stona munosabatini shakllantiradi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish vositasi usullaridan samarali foydalanishning eng muhim sharti o'qituvchining insonparvarlik nuqtayi nazaridan yondashishini talab etadi. Ushbu usullar kasbiy mas'uliyatni his etadigan yagona intilishga qaratilgan kishilarning jonli munosabatini yagona yo'nalishga soladi. Pedagogik ta'sir qilish o'quvchilar psixikasining anglanmaydigan va o'qituvchi ko'rolmaydigan sohasiga qaratilgan bo'lib, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchilarning yaqindan aloqada bo'lishini, ularning o'zaro bir-birlariga ishonishini, o'zaro tushunishini, ta'sir qilish mazmuni, shaxsning bir butun holatiga amaliy ta'sir qilishini nazarda tutadi. Shunday qilib, ta'sir qilish ta'lim-tarbiya samaradorligini hozirgi zamon talablari darajasida takomillashtirib borishda yo'l-yo'riq yaratib, o'quvchilarning faolligini rag'batlantiradi.

O'qituvchi tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'sirga ega ekanliklarini, ularning o'zaro kommunikativ munosabatlari hamda faoliyatlari o'rtasidagi bog'lanishning mavjudligi, uning samaradorligini belgilashini unutmasligi shart. O'qituvchi sinfda va alohida tarbiyalanuvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatishida muvaffaqiyatlarga erishishi uchun, o'quvchilar orasida o'zaro pedagogik munosabatlar tizimini oqilona rejalashtirishi va psixologik muhitni ijobiy tomonga o'zgartirishi lozim.

To'g'ri tashkil etilgan va har jihatdan mukammal bo'lgan, yosh avlodning qalbi va ongini asrashga, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik munosabatlar tizimini o'zida mujassamlashtirgan kommunikativ qobiliyat o'qituvchining har bir o'quvchi ruhiyatini chuqur bilib olishi, ularning ichki

imkoniyatlaridan xabardor bo'lishi, axborot berishi, fikr almashishida muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o'qituvchi bilishi lozim bo'ladigan xususiyatlar:

O'qituvchining kommunikativ qobiliyatida pedagogik munosabatlar

- o'quvchilar bilan bo'lajak munosabatni modellashtira olishi;
- munosabatda bo'ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi;
- bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o'rnatishi;
- munosabatda ustunlikka ega bo'lib, uni demokratik talablar asosida oqilona boshqarishi;
- munosabatning ijobiy va salbiy jihatlarini uzluksiz tahlil etib borishi lozim.

O'qituvchi tarbiyachi sifatida tarbiyalanuvchi o'quvchilarni o'zi uchun hamisha tarbiya obyekti deb hisoblashi kerak. Biroq tarbiyalanuvchi o'qituvchi-tarbiyachi bilan erkin va ongli munosabatda bo'lishga erishsagina, tarbiyaviy munosabatlar samarali xarakter kasb etadi. Tarbiyaviy faoliyatning kommunikativ munosabatlar jarayonida o'ziga xos qator **qoidalari** ham mavjud bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda ushbu qoidalarni mukammal bilishi lozim:

O'QUVCHILARGA PEDAGOGIK TA'SIR KO'RSATISHDA O'QITUVCHI AMAL QILADIGAN QOIDALAR

1. tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi
2. tarbiyaning hayotiy faoliyat bilan bog'liq hodisa ekanligi
3. shaxsni jamoada tarbiyalanishida o'ziga xos yosh xususiyatlarini e'tiborga olish;
4. tarbiyalanuvchi shaxsga nisbatan talabchan bo'lish va uning shaxsini hurmat qilish
5. tarbiyalanuvchining psixologik va ruhiy xususiyatlarini hisobga olishi
6. tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazam olib borilishini ta'minlash

16-chizma. Kommunikativ munosabatda o'qituvchi bilishi lozim bo'lgan qoidalar

5.3. O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATIDA SO'Z BILAN OG'ZAKI TA'SIR O'TKAZISH

So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish o'qituvchining saviyasi va o'quvchi bilan muloqotida muhim ahamiyat kasb etadi. So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazishni amalda o'z pedagogik faoliyatida qo'llovchi o'qituvchi o'z hissiyotlarini, ijodiy ta'sirlanishini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi va o'z his-tuyg'ularini faqat ta'lim-tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish uchun ifodalashi hamda o'quvchi qalbini noo'rin so'zlar bilan jarohatlab qo'ymasligi, so'zlarni aniq ifodalashda pedagogik takt normalaridan chiqib ketmasligi lozim.

So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish o'qituvchidan fikrlarni, pedagogik qobiliyat texnikasini, ijodkorlikni talab qiladi. O'qituvchining imo-ishoralari va yuz harakatlari so'z bilan og'zaki ta'sir qilishni kuchaytiradi. Yuz harakatlari va imo-ishoralar nutqda ovozning baland-pastligi bilan mos kelishi kerak. *Ogohlantiruvchi so'zlar, notiqlik san'ati asosida ta'sir etish, vazifani ijro etishga undovchi buyruqlar, ta'qiqlangan iboralarni ishlatmaslik, hazil orqali fikrini anglatish, o'quvchining erkin mulohazalarini ma'qullash yoki nojo'ya harakatlari uchun ayblash so'zning og'zaki ta'sir etuvchi komponentlaridir.* So'z bilan imo-ishoraning va yuz harakatlarining birligi ma'lum qilinayotgan axborot hajmdorligi va ta'sirchanligini kuchaytirishi lozim.

O'qituvchining sinf jamoasi bilan bo'lg'usi muloqotga tayyorgarlik ko'rishiga doir ibratli misol F.M.Samuylenkovning "Masterstvo, pedagogicheskiy takt – eto avtoritet uchitelya" ("O'qituvchining mahorati va pedagogik takti – uning obro'sidir") kitobida keltiriladi: *"Men VIII "B" sinfga kirayotgan vaqtimda o'qituvchilar xonasidayoq yuzimdagi tabassumni quvaman. Sinfga kirishdan oldin ongli ravishda bir lahza to'xtab o'zimni to'g'rilab olaman, jiddiy bo'laman. O'quvchilar bilan kam, aniq, gaplashaman. Hech qanday hazilga yo'l qo'ymayman. Dars berayotgan vaqtimda o'tirmayman, bolalar bilan rasman xushmuomalada bo'laman. Bunday maromni saqlash menga oson emas, lekin shunga o'rganganman, chunki hozircha bu sinfda o'zimni boshqacha tutishim mumkin emas: sinf o'quvchilari tez ta'sirlanuvchan, ular tezda "qirg'oqdan chiqib ketishi va yana qaytib oqimga tushishi qiyin"*[1]. Olimning bu mulohazalari hozirgi kunda ham o'z qudratini yo'qotgan emas. U o'qituvchining deyarli har bir harakatida jiddiy fikr yuritishga undaydi.

Darhaqiqat, o'qituvchining har qanday hazili yoki bachkana qilig'i darhol teskari reaksiya berishi mumkin va bunda kommunikativ qobiliyat haqida so'z bo'lishi mumkin emas.

Hozirgi davrda o'qituvchi faoliyatida uchraydigan kommunikativ munosabatlarda so'z bilan og'zaki ta'sir etish nihoyatda xilma xil bo'lib, bevosita pedagogik ta'sir ko'rsatishning

[1] Самуйленков Ф.М. Мастерство, педагогический такт – это авторитет учителя. – М.: Просвещение, 1990.- 254 с.

nisbatan mustaqil ko'rinishini o'zida mujassamlashtiradi. Bilish, anglash, ekspressiv (his-tuyg'uga berilish holati), ijtimoiy an'anaviy muloqot, inson holatini so'zsiz tushunish, dilkashlik o'qituvchining pedagogik faoliyatida uchraydigan doimiy takrorlanib turadigan kommunikativ munosabatlarning turlaridir. Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda shularni nazarda tutish lozim.

Ayniqsa, pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etishda so'zning ahamiyati bilan bog'liq bo'lgan pedagogik muomala madaniyati va tarbiyachining shirin so'zligiga alohida talablar qo'yiladi. So'zlashganda odob va ehtirom o'qituvchining pedagogik mahoratida uchraydigan muhim insoniy fazilati sifatida namoyon bo'ladi. Xushmuomalalik – o'qituvchi va tarbiyachilarning sinfda individual ish olib borish jarayonida ota-onalar hamda o'quvchilar bilan muloqotni aniq bir tarbiyaviy maqsadni ko'zlagan holda tashkil eta olishi va ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri boshqara bilishidir. O'qituvchining kasbiy faoliyatida xushmuomalalikning yosh o'qituvchi amal qiladigan quyidagi mezonlarini alohida ta'kidlab o'tamiz:

YOSH O'QITUVCHI AMAL QILISHI LOZIM BO'LGAN XUSHMUOMALALIK MEZONLARI

1. o'quvchilarga og'zaki ta'sir qilishda shirinsuxanlik va insoniylik tuyg'ularini namoyish etishi
2. so'z bilan og'zaki ta'sir etishning barcha bosqichlarida hissiy osoyishtalikning namoyon bo'lishi
3. o'zaro fikr almashishga doir sifatlar, ko'nikmalar va malakalarning mavjudligi
4. o'quvchilarning ta'lim va bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirish
5. mustaqil fikr yuritish, o'z fikrini erkin bayon eta olish, insoniy qadr-qimmat tuyg'usini shakllantirish

17-chizma. O'qituvchining kasbiy faoliyatida xushmuomalalik mezonlari

O'qituvchi kommunikativ qobiliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan insoniy fazilat hamda xushmuomalalikni o'zida shakllantirishi uchun muntazam faoliyat olib borishi zarur. Kommunikativ qobiliyatga oid shaxsiy o'z-o'zini tarbiyalashning fikr almashishga doir quyidagi tizimlarini tavsiya yetishimiz mumkin.

1. Kasbiy faoliyat jihatidan o'z-o'zini anglashni (muomalada o'zaro fikr almashishga doir sifatlarni, ijobiy va zaif tomonlarini aniqlashni) amalga oshirish va shu asosda o'zaro fikr almashish asosida o'z-o'zini tarbiyalash dasturini ishlab chiqish.
2. O'z kasbiy faoliyatiga quyidagi yo'nalishlarda baho berish maqsadga muvofiq: kishilar bilan bo'lgan muomaladan so'ng olingan taassurotlarni tahlil qilish, o'quvchilar bilan muomalaning so'nggi holatlarini o'rganib, yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, muomaladagi imkoniyatlaringizni atrofdagilar (o'qituvchilar jamoasi,

ota-onalar, o'quvchilar) qanday baholashi haqidagi tasavvurlarga ega bo'lish.

3. O'zida insonparvarlikning asosiy xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan o'z-o'ziga ta'sir o'tkazuvchi "autogen" mashqlar asosida ishlash.
4. O'quvchilar va ota-onalar bilan turli jamoat ishlarini olib borish, bundan o'zaro fikr almashish faoliyatida ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.
5. Kommunikativ qobiliyatda salbiy kayfiyatlarni yengish tajribasini shakllantiradigan va xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratish.
6. Xushmuomalalikka milliy an'ana va urf-odatlarimiz, o'zbekona muomala madaniyati, milliy ma'naviyatimiz nuqtayi nazaridan yondashish.
7. O'z ona tilida puxta, lo'nda va jarangdor so'zlar tuza olish va uni nutqiy mahorat bilan ifodalash ta'lim muassasalarida o'rganilayotgan har bir fan o'qituvchisi uchun eng zarur kommunikativ qobiliyatlardan biridir.

Taklif etilgan ushbu tizim asosida pedagogik faoliyatda kommunikativ qobiliyatni rivojlantirib borish o'qituvchi kasbiga oid shaxsiy fazilatlardan biri bo'lgan insonparvarlik va xushmuomalalikni shakllantiradi. O'qituvchi kasbiy faoliyati davomida so'z qudrati asosida notiqlik san'atini takomillashtirib boradi. U o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali so'z boyligini go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi. Zero, go'zal va ta'sirchan so'zlay bilish ham san'at. Bu san'atdan bebahra bo'lgan o'qituvchining kasbiy mahorati shakllanmaydi. Qaysi fanni o'qitishdan qat'iy nazar, o'qituvchining asosiy quroli so'z boyligidir, u so'z qudrati asosida kommunikativ qobiliyatini namoyish etadi.

5.4. O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATIDA MUOMALA MADANIYATI

Mustaqillikdan keyin amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar tufayli ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Odamlarning ongi, dunyoqarashi o'zgardi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishida, har bir fuqaroning bilim olishi, ijodiy qobiliyatini shakllantirish, intellektual jihatdan rivojlantirish uchun o'qituvchining muomala madaniyati muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ta'kidlash joizki, pedagogik kasbga nisbatan talab va javobgarlik ham kuchaydi, o'qituvchilarning jamiyat oldidagi vazifalari yanada oshdi. Buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, o'quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish kabi vazifalarga javobgarlik hissi

o'qituvchilar zimmasiga yuklatildi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, har qanday kasb egasining kishilar bilan odatiy o'zaro hamkorlik tizimidagi muloqoti go'yo, shunchaki o'z-o'zicha sodir bo'ladi. Pedagogik faoliyatda esa muloqot muhim funksional, o'qituvchi uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli vosita sanalib, o'zaro ta'lim va tarbiyaviy ta'sir quroli sifatida namoyon bo'ladiki, bunda muloqotning muhim shartlariga, qonuniyatlariga, qo'shimcha vazifalariga rioya qilishga to'g'ri keladi.

Ma'lum bir maqsadga qaratilgan ta'lim-tarbiyaviy jarayonda esa, muloqot ijtimoiy vazifaga aylanadi, natijada o'qituvchining pedagogik muloqot qonuniyatlarini puxta bilishi, kommunikativ qobiliyat va madaniyatga ega bo'lishi talab qilinadi.

Odatiy va kasbiy kommunikativ vaziyatni qiyoslab ko'ramiz. Aytaylik, do'stingizga nimanidir gapirib berayapsiz. Masalan, ko'rgan filmingiz to'g'risida, uning mazmun va g'oyasini bemalol so'zlayapsiz. Bu holda muloqotning turmushda ro'y beradigan odatiy kommunikativ shaklidagi shaxsga yo'naltirilgan tizimi bilan ish ko'rgan bo'lasiz. Tasavvur qiling, sizga shu vazifani auditoriyada, minbarda turib, o'quvchilar oldiga chiqib gapirib berishni taklif etishdi. Siz kommunikatsiyani amalga oshirish vazifasini, avvalo, muloqotning tabiiy shakllari o'rniga kasbiy-funksional javobgarlik hissini, ya'ni kasbiy jihatdan anchagina murakkablashgan pedagogik faoliyatni darhol his etib, murakkab vazifani bajarishga kirishasiz.

A.N.Leontev pedagogik muloqotning tarbiyaviy-didaktik ahamiyatini baholar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi: faol pedagogik muloqotda – o'qituvchining kommunikativ qobiliyati, pedagogik jamoaning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni bilish va o'rganish kaliti va o'quv faoliyatining ijodiy xarakteri, o'quvchi shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadigan, ta'lim-tarbiyada maqbul bo'lgan emotsional muhitni ta'minlovchi, jumladan, ruhiy psixologik to'siqlarning paydo bo'lishini oldini oladigan, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to'g'ri yo'lga solib boshqarishni ta'minlaydigan va o'quv tarbiyaviy jarayonda o'qituvchining o'z pedagogik mahoratidan oqilona foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan muhim vositadir[1].

A.S.Makarenko kommunikativ qobiliyatni pedagogik ta'sirning ajoyib vositasi sifatida ta'riflab, insonlararo muloqotni ta'minlovchi eng muhim va nozik faoliyat ekanligini aytadi. *Pedagogik muloqot – shunchaki ijtimoiy-psixologik, pedagogik yoki kommunikativ hodisa, avvalo, kasbiy axloqiy fenomendir (hodisa). Jamiyatda axloq normalariga qat'iy rioya qilish hamda pedagogik vositalarning ilg'or jarayonlarini amaliy hayotga keng tatbiq etish uchun o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlik texnologiyalarini mukammal egallash lozim. Shunday "texnologiya"larning mavjudligini pedagogik tadqiqotlar isbotlab bermoqda.*

O'qituvchining kommunikativ qobiliyati maqsadli faoliyatga nisbatan ko'pincha ikkilamchi xarakterga ega bo'ladi, pedagogik mehnatning o'ziga xosligi ham aynan kommunikativ faoliyatning asosini tashkil yetishidan iborat ekanligidadir.

Modomiki, shunday ekan, ta'kidlash lozimki, o'qituvchining muloqoti kasbiy-ijodiy kategoriya bo'lib, pedagogik faoliyatda o'qituvchi tomonidan ko'plab kommunikativ

[1] *Леонтьев А.Н. Потребности, мотивы, эмоции. //Конспекты лекции. – М.: Педагогика, 1990,- 304 с.*

vazifalarni hal qilish jarayoni va ijobiy natijalar majmuasidir.

O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida muntazam pedagogik ta'sir o'tkazish metodlari bilan ishlaydi: masalan, dars jarayonida yangi materialni tushuntirishda, o'quvchiga aybi uchun dashnom berishda. Ushbu vaziyatda yosh o'qituvchi avvalo, nimalarga e'tibor berishi kerak: Birinchidan, vaziyat tahlil qilinadi; ikkinchidan, murakkab vaziyatdan chiqishning mumkin bo'lgan variantlari saralanadi, uchinchidan, ushbu faoliyat, odatda tezkor amalga oshiriladi (bunda ham pedagogik kommunikatsiyaning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi) va optimal metodlar tanlanadi, faqat shundan keyingina pedagogik ta'sir tashkil qilinadi. Biroq hali tanlangan ta'sir metodiga to'g'ri keladigan, u orqali pedagogik ta'sirni amalga oshiradigan kommunikativ qobiliyat tizimini topishimiz kerak. Ya'ni, ma'lum bir maqsadga qaratilgan umumiy pedagogik vazifani hal yetgandan so'ng, ta'sir metodini tanlab bevosita ta'sirni tashkil qilish uchun asosiy vazifa sifatida kommunikativ vazifa belgilanishi kerak.

Bu vazifalarning bajarilishiga, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy amalga oshiruvchisi bo'lgan o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muomalaga kirishish madaniyati orqali erishiladi. O'quvchi ma'naviy muhitining shakllanishi o'qituvchilarning yuksak axloq namunasi orqali namoyon bo'ladi.

Pedagogikada o'qituvchining muomala madaniyati, eng yaxshi fazilatlari va xatti-harakatlari o'quvchining ideali sifatida namoyon bo'ladi. Chunki insonning "aql-zakovati, fikr-tuyg'ulari, bilimi va madaniyat saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'zda ifoda etiladi. Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi" *(Aziz Yunusov)*. O'quvchining o'qituvchi shaxsi haqidagi qarashlari, uning xatti-harakati, pedagogik mahorati uning ma'naviy madaniyatiga mos kelmasa, yaxlit pedagogik jarayonni mukammal tashkil etishda ham ijobiy natijalar bermaydi. O'qituvchi subyekti bilan, o'quvchi obyekti o'rtasidagi qattiq avtoritar intizom ham o'zaro muomala madaniyatiga salbiy ta'sir etadi, natijada o'quvchining ichki hissiyoti hamda shaxsiy fazilatlari rivojlanmaydi.

Pedagogikada o'qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita, bunda o'qituvchining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o'ziga xos ta'rifga ega. *Pedagogikaning kategoriyasi sifatida* ***muomala*** o'quvchilar qalbiga yo'l topa olish, ularga yondashish uchun mehrini qozonish, pedagogik nuqtayi nazardan *ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan o'qituvchining kommunikativ qobiliyatidir.*

O'qituvchi o'quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida:

1. O'z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi.
2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhida tarbiyalaydi.
3. Sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi.
4. O'zining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish yetgan holda, har bir o'quvchi qalbiga yo'l topadi.

Muomala o'qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zida ulkan pedagogik imkoniyatlarni mujassamlashtiradi. Pedagogik muomalada o'qituvchi quyidagi faoliyatga qat'iy amal qilishi lozim:

- o'qituvchida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so'z va ohangni tanlay bilishi va ta'sir o'tkaza olishi;
- muomala obyekti bo'lmish o'quvchilar diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imo-ishoralarni o'z o'rnida ishlatishi, tarbiyaviy ta'sirni bilishi;
- o'quvchilarning ichki ruhiy hissiyotini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalb yetishi, darsni boshlashdan oldin o'quvchilarni ta'lim va tarbiyaviy muloqotga tayyorlashi;
- o'quvchilarga og'zaki, o'zaro ta'sir ko'rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi. O'qituvchining nutqi ravon, o'quvchilar ongiga ijobiy ta'sir qiladigan bo'lishi.

Nihoyat, o'qituvchining o'quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o'quvchilarning harakatlaridagi chuqur ma'no va haqiqiy sabablarni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida uning o'zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va o'quvchilarning xulq-atvop usullaridan foydalanadi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi hamda o'rnini to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Muomala o'zaro munosabatlar doirasida sodir bo'ladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala pedagogik faoliyatdan oldin sodir bo'ladi.

Pedagogik muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyatida o'zaro axborot almashish jarayoni vazifasini bajaradi. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida bevosita o'z tarbiyalanuvchilari, umuman o'quvchilar jamoasi haqida, unda ro'y berayotgan turli ichki hodisalar haqida g'oyat xilma-xil axborotlarga ega bo'ladi va o'zining kelgusi ta'lim-tarbiyaviy rejalarini hamda pedagogik faoliyatini belgilaydi. Shu bilan birga, o'qituvchi muloqot asosida o'z tarbiyalanuvchilariga ma'lum bir maqsadga qaratilgan axborotlar tizimini ma'lum qiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan yo'l qo'yiladigan arzimas bir xatolik, adolatsizlik, qo'pollik o'quvchilar bilan o'zaro muomala madaniyatining buzilishiga sabab bo'ladi va tuzatib bo'lmaydigan og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muomala madaniyatiga erishishi natijasida quyidagi holatlar paydo bo'ladi:

- pedagogik muloqot orqali o'qituvchi tarbiyalanuvchi ob'ekt bilan o'ziga xos muomala muhitini yaratadi. Bunday muhitda o'qituvchi o'zining psixologik, mimik, pantomimik, notiqlik san'ati, ta'sir o'tkazish kabi qobiliyatlar tizimini namoyish etadi;
- o'qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo'lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir;
- o'quvchilar jamoasi bilan muomalada o'qituvchining doimo psixologik bilimlarga tayanishi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda bir xil muvozanatni saqlaydi;
- o'qituvchi o'quvchilar jamoasi bilan o'zaro muloqotga kirishar ekan, yaxshi muomalasi bilan ular hissiyotida yashiringan eng nozik qatlamlarni ham anglab olishga qodir bo'ladi.

Mukammal shakllangan pedagogik muloqot madaniyati asosida obyekt va subyektning ichki hissiyoti bilan ular harakatlarining uyg'unlashuvi sodir bo'ladi. Ushbu o'zaro uyg'unlashuvni yuzaga keltiradigan muomalaning asosiy bog'lovchisi so'zdir. *So'z – mazmunan o'qituvchining nutqida, ma'ruzasida, dialog, monolog va deklamatsiyalarida o'z ifodasini topadi.*

Muomala madaniyati vositasida o'qituvchi har qanday axborotni qarab chiqar ekan, o'quvchilarning shaxsi va psixologik xususiyati haqidagi axborotlarning muhimligini alohida e'tiborga olishi lozim. Pedagogik muomala madaniyati, o'qituvchini g'oyat xilma-xil sharoit va ko'rinishlarga moslashishiga imkoniyat yaratadi. Bular sirtdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmasada, o'quvchilar ichki dunyosida sodir bo'layotgan, ularni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlarini bilib, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi.

O'qituvchi o'quvchilarning ichki dunyosini tushunib, muloqotga kirishishi lozim. O'qituvchining muomala madaniyati asosida gapiradigan har bir so'zi, fikri, turli hodisa va jarayonlar **o'quvchilar** tomonidan har xil ko'rinishda tushuniladi, bu o'quvchining fikr mulohazasiga, ichki dunyosining teranligiga, tafakkuri va dunyoqarashining kengligi bilan izohlanadi, bunda o'qituvchi mahoratining uchta jihatiga alohida e'tibor qaratiladi: hayotiy tajribasi; pedagogik faoliyat jarayonida egallagan ko'nikma va malakasi; muayyan **o'quvchilar jamoasi** bilan muomalada bo'lish tajribasi.

5.5. O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYAT ASOSIDA PEDAGOGIK VAZIFALARNI BAJARISHI

O'qituvchining kommunikativ qobiliyat asosida pedagogik faoliyat olib borishi murakkab pedagogik vazifalarni hal etadi. Zero u pedagogik vazifadan kelib chiqqan, shu sababli o'qituvchi tomonidan tanlanadi va belgilanadi. Aytish mumkinki, kommunikativ qobiliyat aynan kommunikatsiya tiliga o'tkazilgan pedagogik vazifaning o'zi. Kommunikativ qobiliyat pedagogik vazifaning asosini aks ettirib, unga nisbatan yordamchi, instrumental xarakterga ega bo'lgan jarayondir.

Pedagogik amaliyotlar natijasi shundan dalolat beradiki, o'qituvchi o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikning o'ziga xos to'g'ri metodni tanlab hamda vaziyatni to'g'ri baholagan taqdirda ham, ko'pincha o'z pedagogik ta'sirini kommunikativ jihatdan ta'minlay olmaydi, ya'ni kommunikatsiyani o'zaro muloqotda amaliy jihatdan tatbiq eta olmaydi.

Pedagogik ta'sirning o'qituvchi tomonidan tanlanib qo'llaniladigan metodlari bevosita muloqot orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan, kommunikativ qobiliyat pedagogik vazifalarni yuksak mahorat bilan, ongli ravishda tashkil etish, pedagogik faoliyatda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday vaziyatda bu jarayonga tayyor turish zarur. Buning

uchun har bir o'qituvchi mustaqil, o'z pedagogik tajribalariga va mahoratiga asoslanib, o'quvchilarga pedagogik ta'sir etishning quyidagi pedagogik vazifalarga asoslangan mantiqiy obrazlar jadvalini tuzadi, o'zi uchun kerakli bo'lgan, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni mustaqil ravishda yig'ib, qayd qilib borishlari hamda yig'ilgan ma'lumotlar asosida kommunikativ qobiliyatini rivojlantirib pedagogik vazifalarni bajarishga oid kasbiy ko'nikma va malakalarini oshirib borishlari mumkin:

Pedagogik vazifa va uni hal qilish jarayoni	Kommunikativ vazifani hal qilish uchun tanlangan pedagogik ta'sir metodlari tizimi	Pedagogik ta'sir etish metodini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kommunikativ vazifalar tizimi	Pedagogik ta'sir ko'rsatish (natijalar)

18-chizma. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning mantiqiy shakli.

O'zining pedagogik amaliyotini doimiy ravishda tahlil qiladigan o'qituvchi uchun pedagogik vazifalarni o'z faoliyatining asosiy instrumental komponenti sifatida anglashi qanchalik muhim ekanligini, bunda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tarbiyaviy ta'sir modeli qanchalik oydinlashishini, ta'sirning o'zi yanada jozibali, aniq, yorqin bo'lishiga ishonch hosil qiladi.

O'qituvchi "Favqulotda vaziyatlarda nima qilish kerak?" degan savolga yetarlicha muvaffaqiyatli javob bera olsa ham, "Qanday qilib amalga oshirish kerak?" degan muammoning javobida ikkilanib, o'ylanib qoladi. Bu savolga javob berish uchun – o'quvchilar bilan muloqot tizimini, mantiq va usullarini aniq belgilab olishi kerak.

A.S.Makarenko o'z faoliyatida qo'llagan pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasida foydalanilgan metodlar, aksariyat holatlarda ta'lim-tarbiyada mo'ljalni aniq olib, o'quvchilar bilan muloqotda vaziyatni to'g'ri tashkil qilish bilan belgilanishini ko'rish mumkin. Ayrim holatlarda o'ziga xos "yuzma-yuz hujum", ba'zan tarbiyalanuvchining o'qituvchi bilan bevosita muloqotisiz ham gap nimada ekanligini tushunish imkoniyatini beradigan muloqot, yig'ilishlarda rasmiy suhbat tizimi yoki sinf jamoasi bilan turli tadbirlarni birgalikda o'tkazish, har bir o'quvchining nimalarga qodir ekanligini anglab olish imkoniyatini namoyon etadi. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanadigan pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari orasida aynan – jamoaviy va yakka tartibdagi suhbat metodlari muhim ahamiyatga ega. Biroq bu metodlardan foydalanish samaradorligi va muloqot jarayonida paydo bo'ladigan vaziyatlar turlicha bo'lishi mumkin. Aynan ushbu metodlar ta'lim-tarbiya jarayonida ta'sir o'tkazish metodlarining samaradorligini ta'minlaydi.

Kishilarning kundalik hayot tarzidagi muloqotiga e'tibor beramiz. Tasavvur qiling, notanish kishidan biror narsani so'rashingiz kerak. Tabiiyki, asosiy metod – iltimos qilish. Biroq, bevosita so'raladigan narsa haqida gapirishdan oldin, sizga muvaffaqiyatni ta'minlaydigan dastlabki vaziyatni tashkil qilishga intilishingiz kerak. Bu holda siz ma'lum bir kommunikativ qobiliyat metodlaridan foydalanib xushmuomalalik bilan psixologik muhitni tashkil qilasiz, muloqotingizdagi ob'ektni psixologik jihatdan zabt etishni amalga oshirasiz, keyin esa bevosita ta'sir etishni qo'llaysiz. Sinfda, o'quvchilar jamoasi bilan muloqot jarayonida foydalaniladigan har bir ta'sir usuli xuddi shu kabi kommunikativ qobiliyat ta'limotiga asoslangan bo'lishi kerak.

Pedagogik vazifalarni bajarishda foydalaniladigan kommunikativ qobiliyat metodlarini belgilash doimo murakkab masala sanalgan. Ayniqsa, yosh o'qituvchilar pedagogik faoliyatlarining dastlabki oylarida bu qiyinchiliklarni keskin his yetishadi.

O'qituvchining kommunikativ qobiliyati kuchi bilan pedagogik vazifalarni bajarishi– pedagogik faoliyatning turli shakllaridan, sinf jamoasining shakllanib ulgurgan darajasidan, muloqotni boshqarish tamoyillaridan, vaziyat qatnashchilari bo'lgan o'quvchilarning individual yosh xususiyatlaridan, ta'sirning rejalashtirilayotgan metodlaridan kelib chiqadi. Pedagogik vazifalarni bajarishda kommunikativ qobiliyatga mutanosiblik, kommunikativ qobiliyatni tanlangan ta'lim-tarbiyaviy ta'sir metodikasi bilan nisbatlash va ularning birligini tashkil etish muloqot jarayoni va umuman pedagogik o'zaro hamkorlikning samaradorligini ta'minlaydi.

Bu o'rinda quyidagi bog'liqlik ko'zga tashlanadi: birinchidan, sinf jamoasi bilan ishlash metodikasi muloqot tizimi bilan vositalanadi, ikkinchidan esa, muloqot va joriy kommunikativ vazifalarni hal qilish yo'llari tanlangan pedagogik ta'sir metodikasi strategiyasi bilan belgilanadi. Kasbiy-pedagogik muloqot asoslarini bo'lajak o'qituvchi oliy pedagogik ta'lim muassasalarida, qizg'in pedagogik faoliyati davomida hamda o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida egallashi mumkin. Bunda o'qituvchi quyidagi muhim pedagogik vazifalarni bajarishi lozim:

O'QITUVCHI BILISHI LOZIM BO'LGAN MUHIM PEDAGOGIK VAZIFALAR

- Kasbiy-pedagogik muloqotning uzluksiz jarayonlarini o'rganish qonuniyatlari, tizimi va tamoyillarini mukammal bilish.
- Kommunikativ qobiliyatni ta'lim-tarbiya jarayonida bevosita qo'llash tartibi va texnologiyalarini muntazam egallab borish.
- Kasbiy-pedagogik muloqotning ko'nikma va malakalarini uzluksiz o'zlashtirib borish.
- Kommunikativ qobiliyatlarni doimiy rivojlantirish.

19-chizma. O'qituvchining pedagogik vazifalari.

Ushbu yo'nalishlar o'qituvchining kasbiy muloqot ko'nikmalarini egallash jarayonini to'la ta'minlay oladi, deb o'ylash xato bo'ladi. Umumiy ijodiy pozitsiyalarni o'zining kasbiy-pedagogik, muloqot faoliyati tajribasi bilan doimiy ravishda o'zaro nisbatlash, o'zi uchun uning tizimi, mantiqi, optimal individual shakllarini aniqlash pedagogik muloqotni egallash bo'yicha olib boriladigan faoliyatning muqarrar sharti sanaladi. Shuningdek, pedagogik faoliyatda kommunikativ qobiliyatning nazariy qoidalarini o'qituvchi o'z tajribalarida aprobatsiyalash (sinovdan o'tkazish) zarur.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi pedagogik vazifalarni qanday amalga oshiradi va u qanday funksiyalarni bajaradi? Pedagogik faoliyatda kommunikativ qobiliyatning ahamiyati ko'p qirrali ekanligini o'qituvchi yaxshi his qiladi. Ta'lim-tarbiya davomida o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlik, o'quvchilarni qandaydir jamoaviy ishlarni bajarishga uyushtirish, jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlarini shakllantirish, maqbul emotsional mikroiqlimni ta'minlash kabi kommunikativ vazifalarning pedagogik muammolarni hal qilishda yordam beradigan masalalari ro'yxatini hali uzoq davom ettirish mumkin.

O'qituvchining kommunikativ qobiliyatlari funksiyasi:

- axborot-kommunikativ qobiliyat;
- regulyasion-kommunikativ qobiliyat;
- affektiv-kommunikativ qobiliyat.

Pedagogik vazifalarni bajarish jarayonida bu funksiyalar yaxlit, kompleks tarzda amalga oshirilishi kerak, aks holda o'qituvchining kommunikativ qobiliyati rivojlanmaydi, oqibatda o'quvchilar bilan muloqot olib borish samaradorligi past bo'ladi va belgilangan ijobiy ko'rsatgichlarni bermaydi.

Kasbiy faoliyatini endigina boshlayotgan yosh o'qituvchilar kommunikativ qobiliyatni rivojlantirishlari uchun, o'z-o'zini muntazam tahlil qilib borishi, dars jarayoniga pedagogik jihatdan samarali tayyorgarlik ko'rishi, har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lishi talab qilinadi. Jumladan:

- o'z o'quv predmeti yuzasidan chuqur bilimga ega bo'lishi, o'rganilayotgan materialni puxta va mukammal bilishi;
- pedagogik - psixologik va metodik jihatdan o'quvchilar bilan muloqotga jiddiy tayyorgarlik ko'rishi;
- har bir o'quvchini va sinf jamoasining ichki psixologik xususiyatlarini mukammal bilishi;
- muloqotda o'zini erkin tutishi va ruhiy psixologik his-tuyg'ularini jilovlay olishi;
- sinf jamoasi bilan muloqot qilishning kasbiy ko'nikma va malakalarini egallashi;
- pedagogik madaniyat va pedagogik taktning yuksak namunalarini namoyish eta olishi, pedagogik tafakkur va dunyoqarashning rivojlanganligi;
- fanlarni o'qitish maqsadi, vazifasi va mazmuniga mos vosita va metodlarni tanlash

mezonlari asosida mashg'ulotning texnologik xaritasini tuza olishi;
- sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tasodifiy pedagogik ziddiyatlarni oldindan bilishi va unga nisbatan keskin choralar ko'rishi.

O'quvchilar bilan muloqotda pedagogik tayyorgarlikning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan o'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishda ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi va uni qo'llay olish layoqatiga, ma'lum bir obrazga kirishiga bog'liq.

Shu ma'noda taniqli rus pedagogi A.S.Makarenko o'z asarlarida o'qituvchining kasbiy fazilati to'g'risida fikrlarini quyidagicha bayon qiladi: *"Pedagog darsda ma'lum bir o'ziga xos rolni o'ynamasligi mumkin emas. Sinf sahnasida rol o'ynashni bilmaydigan o'qituvchi kasbiy faoliyat olib borolmaydi. U ma'lum ma'noda aktyor. Bizning xulq-atvorimiz, fe'limiz, xarakterimiz biz uchun pedagogik qurol bo'lishi ham aslo mumkin emas. Bolalarni qalb va ko'ngil azoblari bilan, hijronli his-tuyg'ularimiz yordamida tarbiyalashga umuman yo'l qo'yib bo'lmaydi. Axir biz insonmiz. Har qanday boshqa kasb egalarida ko'ngil zahmatisiz ish bitirish mumkin bo'lsa, pedagog ham ko'ngil azobisiz faoliyat olib borishi lozim bo'ladi. O'quvchiga ba'zan muloqotda ko'ngil azobini namoyish etishga to'g'ri keladi. Buning uchun pedagog sahnadagi aktyordek ijobiy rol o'ynashni ham bilishi kerak.*

Biroq shunchaki tashqi, sahnaviy rol o'ynash yaramaydi. Bu o'yinda pedagogning ajoyib shaxsiy mahorati bilan bog'laydigan qandaydir kamar bor, bu sizning go'zal xulqingizni namoyish etib beruvchi rolingiz. Bu sahnadagi o'yin o'lik bir holat yoki texnika emas, balki qalbingizdagi yashirin his-tuyg'ularingizni, mehringizni namoyon etuvchi haqiqiy jarayondir"[1].

Ma'lum ma'noda o'qituvchi pedagogik faoliyatida ruhiy ta'sirlanish, qayg'urish, boshqa kasb egalarining tabiiy his-tuyg'ularidan keskin farq qiluvchi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Ta'kidlash joizki, o'qituvchi o'zining kommunikativ qobiliyati rivojlanishiga qarab pedagogik vazifalarni bajarish jarayonida boshqa kasb egalari kabi tashqi muhitning turli ta'siri ostida va insoniy his-tuyg'ular girdobida yashaydi, kasbiy faoliyatining o'ziga xosligi ham ana shunda namoyon bo'ladi va o'qituvchining ta'sirlanishi, his-tuyg'ulari, hayajoni pedagogik maqsadga muvofiq bo'lishi lozim.

O'qituvchining kommunikativ qobiliyat asosida pedagogik vazifalarni bajarish jarayonida pedagogik ta'sir ko'rsatish, pedagogik faoliyat tufayli sodir bo'ladigan qayg'urish, his-hayajon, murakkab hayotiy va pedagogik maqsadga qaratilgan o'qituvchi tashvishlarining yig'indisidir, aynan shu jarayonda o'qituvchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq hayotiy, g'ayriixtiyoriy tashvishlar yig'indisi saqlanadi. Natijada, pedagogik vaziyatlarda o'qituvchining qayg'urishi pedagogik ixtiyoriylik yuzasidan o'z faoliyati oldida javobgarlik hissini ham paydo qiladi. Shu sababli, g'ayriixtiyoriy tashvishlar o'qituvchining ixtiyoriy tashvishlari va pedagogik ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarga qaratilgan his-tuyg'ulari asosida amalga oshiriladi.

---

[1] Қаранг: Сухомлинский В.А. Сердце отдам детям. Киев, 1969. –Б. 83.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. O'qituvchining o'quvchilar bilan aloqa o'rnatishida oid shakl va uslublarini sanang.
2. O'qituvchining fikr almashuvi bilan bog'liq kommunikativ qobiliyatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
3. O'qituvchining kommunikativ qobiliyati deganda nimani tushunasiz?
4. O'qituvchining fikr almashuvi bilan bog'liq bo'lgan asosiy xususiyatlarini ayting?
5. Tarbiyaviy jarayonda taqlid qilishning ahamiyatini tushuntiring.
6. O'quvchi ongiga ta'sir etishning psixologik manbalari qanday baholanadi?
7. "Pedagogik ta'sir ko'rsatish" iborasini izohlab bering.
8. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari?
9. O'qituvchining imo-ishoralari va yuz harakatlari og'zaki ta'sir ko'rsatishda qanday ahamiyat kasb etadi?
10. Sinf jamoasi bilan bo'lg'usi muloqotga tayyorgarlik shartmi?
11. Pedagogik munosabatda muvaffaqiyat garovi nimalardan iborat?
12. Xushmuomalalikda yosh o'qituvchi amal qiladigan mezonlarini ayting?
13. So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish komponentlari haqida mulohazalaringiz?
14. Kommunikativ qobiliyatda o'qituvchiga xos bo'lgan axloq normalarini ta'riflab bering?

Talabalarning mustaqil tayyorgarliklari uchun topshiriqlar

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o'z fikr mulohazalaringizni bildirib, "Mustaqil ish" yozing:

1. "O'qituvchining kommunikativ qobiliyatlari va ularning asosiy yo'nalishlari".
2. "Pedagogikada o'qituvchining o'quvchilarga ta'lim va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish vositalari".
3. "Pedagogik ta'sir ko'rsatishda kommunikativ qobiliyatning ma'naviyatimizga xos bo'lgan talablari".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida" gi O'RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4312785.
3. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent shahri, 2024-yil 1-fevral № O'RQ – 901.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4623-son Qarori – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2020, 27-28-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-134-son Farmoni. https://lex.uz/docs/6008663.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-6476175.
7. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi.– T.: O‘zbekiston, 1999. – 29 b.
8. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество: Библиотека учителя и воспитателя.- М.: Педагогика, 1990.- 144 с.
9. Леонтьев А.Н. Потребности, мотивы, эмоции. //Конспекты лекции. – М.: Педагогика, 1990,- 304 с.
10. Mahmudov N. M. O‘qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – T.: O‘zb. Milliy kutubxonasi, 2007. – 185 b.
11. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjaeva va boshqalar) – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. - 380 b.
12. Самуйленков Ф.М. Мастерство, педагогический такт – это авторитет учителя. – М.: Просвещение, 1990. – 254 с.
13. Suxomlinskiy V.D. Bolalarga jonim fido. – T.: “O‘qituvchi”, 1984. – 254 b.
14. Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o‘quv qo‘llanma (L. I. Ruvinskiy tahriri ostida). – T.: “O‘qituvchi”, 1991. – 376 b.
15. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T.: “Fan”, 2009. – 168 b.
16. Шедровицкий Г.П. Коммуникация, деятельность, рефлекция
17. //Исследование речемыслительной деятельности. – Алма-ата, 1974.- с. 12-28.
18. Hotamov N.T. Davraga she’r ulashing. – T.: “MERIYUS”, 2009. 287 b.

6-BOB.

PEDAGOGIK NAZOKAT VA PEDAGOGIK ETIKA. SHARQONA ODOB-AXLOQ

Tayanch tushunchalar:

Pedagogik nazokat; ekstravert; introvert; pedagogik nazokat; muosharat odobi; pedagogik etika; xulq-atvor; bilim; ma'rifat; tarbiya; informatsiya; rivojlanish; kommunikativ mahorat; barkamol inson; talabchanlik va qattiqqo'llik; etnopedagogik tuyg'ular; informatsion jarayon; qo'pol va dag'al so'zlar; ishonch tuyg'usi; nisbiylik va subyektivlik; dilkashlik; kasbiy mahorat; ekstravert shaxslar; introvert shaxslar; pedagogik nazokat; konvensiya; spekt; etik kodeks; insoniy fazilatlar; ijtimoiy muhit; halollik; rostgo'ylik; axloqiy poklik; odamiylik; tafakkur; pedagogik kasbiy ko'nikma; malaka; sadizm; pedagogik etika; pedagogik mahorat; pedagogik takt; fassinatsiya; notiq, voiz, badihago'y; kasbiy ziddiyatlar; sharqona tarbiya; muosharat odobi; o'qituvchi muloqoti.

6.1. PEDAGOGIK NAZOKAT HAQIDA TUSHUNCHA. UNING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

O'qituvchining o'quvchilar jamoasi muhitiga uzviy ravishda qo'shilib keta olishi nihoyatda qiyin jarayon. Lekin uning pedagogik faoliyati bevosita o'quvchilar orasida olib boriladi. O'zaro munosabatlarni ishonch va do'stlik tuyg'ulari bilan mustahkamlab borish o'qituvchidan jiddiy psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Buning uchun o'qituvchi avvalo, turli xarakterdagi o'quvchilardan iborat bo'lgan, sinf jamoasida tez-tez o'zgarib turadigan pedagogik vaziyatlarga darhol o'z munosabatini bildirishi va unga odilona baho berishi kerak. U o'quvchilar xatti-harakatini to'g'ri idrok yetishi, vaziyatlarni oldindan ko'ra bilishi, tarbiyaviy metodlarni o'z o'rnida qo'llashi, o'quvchilar bilan muomalada bosiqlik, sabr, milliy an'ana va turmush tarzimizdan kelib chiqqan muruvvat va himmat, odamiylik va mehr-oqibat tuyg'ularini ko'rsata olishi shart. Bu vazifalar o'qituvchining zimmasiga yuklanadigan va u rioya qilishi lozim bo'lgan **pedagogik nazokat** deb atalmish faoliyatning zarur shartidir.

Pedagogik nazokat – o'qituvchi axloqiy-ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi me'yor tuyg'usi hamda xulq va odob qoidalariga rioya qilishi demakdir. Pedagogik nazokat o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro munosabatini tashkil qilish vositasi. Psixologik til bilan aytilganda, nazokat insonning bir qolipdagi barqaror tasavvurlarida mujassamlashgan shaxsiy insoniy xislatlarining yig'indisidir.

Pedagogik nazokat me'yorlari o'qituvchidan avvalo, yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Zero, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishning asosiy maqsadlaridan biri barkamol inson tarbiyasi bo'lib, u davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan. Ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish o'qituvchi zimmasida. Shunday ekan, hozirgi demokratik jamiyat o'qituvchisining o'zi avvalo, barkamol inson bo'lishi, mukammal bilimlar sohibi, o'z kasbining yetuk egasi bo'lishi zarur. O'qituvchi xulq-atvorida pedagogik nazokat ma'lum bir muddatda shakllanib so'ngra nihoyasiga etadigan jarayon emas, uning omillari ham jamiyat taraqqiyoti natijasida uzluksiz sayqallanib, rivojlanib boradi **(4-ilova)**.

O'qituvchi pedagogik nazokatga ta'lim va tarbiya jarayonidagi har bir vaziyatga adolatli baho berishi, o'quvchilarning xatti-harakatini to'g'ri idrok yetishi, sabot va matonat, o'zini tuta bilish, sabr-toqat, sezgirlik, vijdon, oriyat kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi bilan erishadi. Pedagogik faoliyatda o'z kasbini sevgan o'qituvchigina butun kuch g'ayratini, qalb nuri va dil haroratini shu ishga bag'ishlaydi

va o'z faoliyatida yaxshi natijalarga erishadi. Bolalarni sevish, ularga mehr-muhabbatli bo'lish o'qituvchi axloqiy qiyofasini namoyon etuvchi muhim fazilatlardir.

O'qituvchi deyarli har kuni o'quvchilar bilan uchrashadi, savol-javob qiladi, ularning yaxshi xulq va ezgu ishlarini ma'qullaydi, bilimlarini baholaydi, nojo'ya xatti-harakatlari uchun tanbeh berib, lozim bo'lganda tarbiyaviy metodlarni qo'llaydi.

Pedagogik nazokat doimiy izlanishni, ijodkorlikni talab qiladi. Doimiy ijodiy izlanishda bo'lgan o'qituvchi tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi, ilm-fan muammolari, tarbiya etikasi va psixologiyasi yuzasidan erkin fikr yurita oladi.

O'qituvchi o'quvchilarning kattalar bilan muloqotga kirishish tizimiga ma'lum darajada kirib borib, ularning ichki qoidalarini o'rganishga harakat qilishi kerak. Bu narsa o'quvchilar bilan suhbatlashish orqali, fe'l-atvorini o'rganish, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlarini kuzatish, o'quvchilar hayotidagi turli voqealar va muammolarni birgalikda tahlil qilish, ular muhitida ro'y berayotgan hodisalarga nisbatan fikr-mulohazalarini bilish asosida amalga oshiriladi. Bunda u o'quvchilar jamoasida ro'y berib turadigan, tashqi tomondan kuzatganda aslo bilib bo'lmaydigan yashirin hodisalar va voqealarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada o'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy jarayonda o'z oldida turgan vazifalarni hal etishda o'quvchilarning o'zlarini ham jalb qila oladi.

Ijobiy natijalarga erishish uchun, o'qituvchi o'quvchilarning **ishonchini** qozona olishi shart. Yosh o'quvchi "do'st"lar ishonchini qozonish yoki ishonchiga kirishi uchun o'qituvchi pedagogik nazokat imkoniyatlarini o'z o'rnida qo'llay olishi lozim. O'zaro ishonch munosabatlari o'rnatilgach, o'quvchilar og'ir damlarda o'qituvchidan yordam so'rab murojaat qiladilar, o'z mulohazalarini u bilan baham ko'radilar. O'zaro ishonch norasmiy munosabatlarda ham o'qituvchiga o'quvchilarning ba'zan anglab bo'lmaydigan ichki dunyosini ko'rish imkoniyatini beradi.

O'quvchilar bilan munosabatlarda pedagogik nazokatga ega bo'lgan o'qituvchi uni qo'llash natijasida:

- o'qituvchi o'quvchilarning xarakterini, ichki dunyosini yaxshi bilib oladi, o'quvchilar bilan munosabatda do'stona muloqot qilish imkoniyatlari paydo bo'ladi;
- o'qituvchi o'quvchilar bilan chin ko'ngildan bir-biriga yaqin bo'ladi, ba'zan o'quvchilarning o'zaro sirli gaplarini eshitmasdan o'tib ketishi mumkin, negaki o'zgalar gapini tinglash pedagogik nazokat odobiga to'g'ri kelmaydi;
- o'qituvchi ba'zan o'quvchilar jamoasining kundalik ishlariga aralashmasligi, jamoada ro'y beradigan ba'zi ko'ngilsiz hodisalarni ijobiy hal etishni jamoa faollari zimmasiga havola yetishi mumkin.

Bularning hammasi o'qituvchining o'quvchilar bilan bo'ladigan ixtiloflariga, kelishmovchilik va ziddiyatlariga barham beradi.

Mamlakatimizda har qanday kasb egasi avvalo, odob va axloq namunalariga ega bo'lishi tabiiy, lekin pedagogik nazokat va odoblilik mutlaqo o'zgacha harakatni va muomalani talab qiladigan o'qituvchilar uchun chinakam mahoratdir. Chunki bu xislatlar faqatgina pedagogik qobiliyat va iste'dodga ega bo'lgan o'qituvchida yillar davomida shakllanadi.

O'qituvchining pedagogik nazokati mohiyatida avvalo, etnopedagogik tuyg'ular, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analar, o'zbekona tavoze va muomala madaniyati, o'quvchilar jamoasiga singib keta oladigan har qanday ijtimoiy muhitga moslashuvchi individual qobiliyatlar, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar mujassamlashgan bo'ladi.

Hozirgi kunda informatsion jarayonning jadal rivojlanishi o'quvchi ruhiyatiga keskin ta'sir qiladi. Ularning psixologik xususiyatlarini, ruhiy holatini bir maromda ushlab turish uchun o'qituvchidan kuchli iroda, muomala madaniyati va bosiqlik, pedagogik mahoratning keng imkoniyatlaridan foydalanish talab qilinadi.

Yosh avlod tarbiyasida o'qituvchi eng qiyin vaziyatlarda ham pedagogik nazokatning quyidagi holatlariga rioya qilishi va ushbu faoliyatga o'zini moslashtirishi lozim:

- emotsional his tuyg'ular va kechinmalarda, stress va affekt holatlarida o'zini boshqara olish qoidalariga rioya qilish;
- o'zining xulq-atvor xususiyatlarini doimiy bir muvozanatda saqlagan holda qo'llash;
- bachkana qiliqlar, ortiqcha xatti-harakatlar, pedagogik etikaga to'g'ri kelmaydigan bema'ni so'zlardan o'zini qat'iy tiyish;
- o'qituvchiga xos notiqlik san'ati sirlarini puxta egallash, o'quvchi shaxsiga og'ir ta'sir etadigan, uning ruhiyatini jarohatlaydigan iboralarni ishlatmaslik, muomalada, jazo metodlaridan foydalanishda qo'pol va dag'al so'zlar qo'llamaslik;
- dars jarayonida hissiy, aqliy bilim berishda belgilangan muayyan psixologik va fiziologik me'yorlarga asoslanish, manmanlikka yo'l qo'ymaslik, o'z holatidan boshqa salbiy holatga o'tishdan saqlanish;
- o'qituvchilar jamoasi va o'quvchilar bilan, ota-onalar hamda notanish kishilar bilan munosabatda kommunikativ qobiliyatning rasmiy va qat'iy muomala hamda ishbilarmonlik uslublariga asoslanish.

Pedagogik nazokatni egallash malakalari. Pedagogik nazokat pedagogik mahorat bilan birga yillar davomida ustozlar tajribasini o'rgangan holda va o'z hayotiy hamda kasbiy faoliyati tajribalaridan kelib chiqib shakllantirilib boriladi. O'qituvchining ma'naviy yetuklik darajasi, nazokat sirlarini o'rganishda o'quvchilar bilan muloqot qilish ko'nikma va malakalarini egallashi, maxsus psixologik bilimlarga ega bo'lishida, o'z ustida tinimsiz mehnat qilishi natijasida erishiladi. avvalo, bu bilimlar o'quvchilar yosh xususiyati psixologiyasini va bolalarning individual xarakterini bilish bilan bog'liq.

Axloq asoslarini bilish, xatti-harakatlarda axloqiy ma'noni kasb ettirish ham katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga o'quvchi ruhiyatiga ijobiy-tarbiyaviy ta'sir etish yo'llarini bilish o'qituvchilarning kundalik faoliyatiga aylanishi lozim:

- o'quvchilarni chin ko'ngildan sevish, o'z muhabbatini o'zaro munosabatda ko'rsata olish;
- o'quvchilar xulqi va ruhiyatidagi yashirin ichki tuyg'ularni anglashga harakat qilish, ko'rish va kuzatish;
- sinf jamoasidagi har qanday sharoit va muhitga moslashish;
- sinf jamoasi bilan o'zaro hamkorlikni ta'lim-tarbiyaviy maqsadga muvofiq yo'lini tanlash;
- o'quvchilar bilan norasmiy suhbatlarda o'z ichki hissiyotini s'ezdirmaslik, aksincha ular ishonchini qozonish.

Pedagogik nazokatning asosiy xususiyati shundan iboratki, o'qituvchiga muloqotni ijobiy hissiyotlar asosida qurishga, o'quvchilar bilan psixologik kontaktga kirishish uslublarini saqlashga yordam beradi.

Pedagogik nazokatning quyidagi xususiyatlari hozirgi kunda muvaffaqiyat poydevori hisoblanadi:

- o'qituvchi pedagogik nazokat talablariga amal qilib, o'zida muloqotning erkin demokratik asosini shakllantiradi;
- sinf jamoasida ongli intizomni vujudga keltiradi; o'quvchilar bilan haqiqiy muloqot madaniyatiga erishadi;
- o'qituvchi sinfda yakka (avtoritar) hukmronlikdan, erkin muloqotga o'tib, demokratik prinsiplar asosida pedagogik faoliyatga kirishish shaklini qo'llaydi;
- o'quvchilarni muloqot asosida ongli ravishda tartib-intizomga o'rgatadi.

Pedagogik nazokat asosida o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotda qarama-qarshilikka yo'l qo'ymasligi o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. Bizga ma'lumki, o'qituvchining fikr-mulohazalarida nisbiylik va subyektivlik alomatlari ham mavjud. U hammaga birdek, to'g'ri munosabatda bo'la olmasligi tabiiy holdir, lekin u mohiyatan barcha o'quvchilarga holis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, adolatli kishi ekanligiga ishonch uyg'otishi kerak. Bu holat pedagogik nazokatning muhim xususiyatlaridan biridir.

6.2. O'QITUVCHI PEDAGOGIK NAZOKATIDA KASBIY DILKASHLIK

Pedagogikada axloq va odobning muhim xususiyatlaridan biri bo'lmish *dilkashlik insonning atrofdagi odamlar bilan barqaror, yaqin munosabatda bo'lishga intilishi deb ta'riflanadi.* Bu intilish o'qituvchining o'quvchilar va atrofidagi kishilar bilan tez aloqa o'rnata olishi va belgilangan maqsadga erishishini ta'minlaydi. Albatta bu jarayon birdaniga sodir bo'lmaydi, ayniqsa yosh o'qituvchilardan psixologik bilim, kishilar bilan muloqotda xushmuomalalik, ehtiyotkorlik talab qilinadi. Psixologlar o'qituvchilarning dilkashlik xususiyatini pedagogik nazokatning bir turi sifatida, uni ikki toifadagi odamlar xarakterida mujassamlashgan deb ta'kidlaydilar:

Birinchisi, ***ekstravert*** shaxslar: Ular barcha ishlarda faol, jiddiy va vazmin, osoyishtalikka va tashqi ta'sirchanlikka moyil kishilardir.

Ikkinchisi, ***introvert*** shaxslar: Ular faqat o'z ichki olamiga beriluvchan, atrofidagi odamlarga aralashmaydigan, o'z-o'zini nazorat qilishga, doimo ichki xavotirga moyil kishilardir.

Pedagog olimlar o'qituvchining dilkashligi ekstravert yoki introvert xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar xarakterining birlashuvida paydo bo'lishini aytadilar. Biroq, *ko'pincha pedagogikada ekstravert tipdagi shaxslar dilkash insonlar sifatida e'tirof etilganlar.*

O‘qituvchida ushbu xislatlarning mavjudligi, uning pedagogik nazokat qoidalariga rioya qilib dilkashlik xususiyatlarini rivojlantirishi pedagogik mahorat sirlarini takomillashtirish zamini va shartidir.

Dilkashlik munosabatlarini o‘zida mujassamlashtirgan o‘qituvchi:

- sinf jamoasiga nisbatan bir qolipdagi fikrlarning muayyan tizimiga ega bo‘lishi;
- o‘quvchilar bilan doimo erkin muloqot qila olishi, har bir o‘quvchiga individual shaxs sifatida yondashishi;
- birorta ham o‘quvchisining yomon bo‘lishiga, ularning hurmat e’tiborini qozonmasligi mumkin emasligiga ishonch hosil qilishi;
- biror o‘quvchiga nisbatan ishonchsizlik, salbiy munosabat sinf jamoasi bilan o‘zaro yaxshi munosabatni yo‘lga qo‘yilishiga xalaqit qilishini bilishi;
- o‘quvchilar bilan muloqotda haddan tashqari jiddiy masofani (subardinatsiya) saqlash mumkin emasligi;
- sinf jamoasida sodir bo‘ladigan kulgili vaziyatlarda o‘qituvchining o‘ta jiddiy va qat’iy bo‘lishi jamoadagi qaltis ahvolni murakkablashtirib yuborishini unutmasligi;
- har bir o‘quvchiga beriladigan xolisona va adolatli baho (ijobiy yoki salbiy) o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi munosabatni mustahkamlaydigan ko‘prik ekanligini unutmaslik.

O‘qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatida dilkashlik fazilati o‘quvchilar jamoasi bilan qizg‘in, muvaffaqiyatli muloqotga kirishib ketishida namoyon bo‘ladi. Avvalo, o‘qituvchi o‘zining kasbiy-pedagogik dilkashlik fazilati haqida va uning nima ekanligini va tarkibiy qismlari nimalardan iboratligi to‘g‘risida aniq ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Shu bilan birga o‘qituvchi o‘zining kasbiga xos bo‘lgan shaxsiy fazilatlari nuqtayi nazaridan e’tibor berib, dilkashlikning qanday jihatlarini o‘zida shakllantirish lozimligini aniqlashi va o‘z-o‘zida kommunikativ xislatlarni tarbiyalashning shaxsiy rejasini tuzishi kerak.

Pedagogik kommunikatsiyaning o‘qituvchi kasbiy faoliyatidagi ahamiyati shundan iboratki, unda o‘qituvchining yuksak kommunikativ madaniyati qay darajada ekanligi namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining kommunikativ madaniyati o‘z navbatida turli pedagogik vaziyatlarda paydo bo‘ladigan oddiy insoniy dilkashlik xususiyatiga tayanadi. Har birimizda, o‘z shaxsiy muloqotimizning va o‘zgalarning biz bilan olib boradigan shirin xushmuomalali muloqotidan ko‘plab ajoyib taassurotlar xotiramizda saqlanadi. O‘zaro muomalada dilkashlik fazilatlarini namoyish etadigan ko‘plab pedagog ustozlarni bilamiz. Ular har qanday vaziyatlarda kishilar bilan bemalol muloqotga kirishib keta oladilar. Biroq, muloqotda butun suhbat jarayonini faqat o‘ziga qaratib, kommunikatsiyaning qoq markazida faoliyat ko‘rsatishni istovchi o‘qituvchilar ham bor.

Hayotda yana shunday o‘qituvchilar uchraydiki, ular muloqotda kamgap, suhbatda istar-istamas ishtirok yetishadi, mutlaqo faol kommunikativ rolni bajarishmaydi. Faqat kommunikativ xulqi bilan suhbatdoshini qo‘llab turadi. Ba’zan hech kim bilan umuman muloqotga kirisha olmaydigan tund toifali o‘qituvchilar ham uchraydi. Ammo, pedagogik faoliyatda muloqotdagi xushmuomalalilik nafaqat insoniy fazilat sifatida, balki o‘qituvchilik kasbini tanlagan har bir kishining **kasbidagi yuksak shaxsiy fazilati** sifatida namoyon bo‘ladi. Xushmuomalalilik, Sharq mutafakkirlari ijodida yuksak odob namunasi sifatida

tasvirlangan. Dilkashlik, o'qituvchi uchun ajoyib bezak hisoblanadi va **muosharat odobi** sifatida talqin qilinib, o'quvchilar ongiga singdirilgan.

O'qituvchining xushmuomalaligi va dilkashligi o'zida butun bir global insonparvarlik jarayonini qamrab oluvchi, ko'plab tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan ajoyib fazilatlaridan biridir. O'z pedagogik kasbidan voz kechgan sobiq o'qituvchilar bilan suhbat jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, ularning ko'pchiligi qo'pol, muloqotda nazokatsiz kishilar. Odamlar bilan muloqotga kirishish, ular uchun qiziqarli emas. Shu sababli o'qituvchi sifatida kasbiy xislatlari ham shakllanmagan. O'qituvchi nazokatidagi xushmuomalalilik va dilkashlik – doimiy, uzoq vaqt davomida shakllanuvchi, keng qamrovli jarayon. Zero, shuning uchun pedagogik faoliyat – muomalada qo'pol, nazokatsiz o'qituvchilarni charchatadi, ish jarayoni uning g'ashiga va asabiga tegadi, ta'lim muassasasidagi faoliyatiga putur yetkazadi.

Xushmuomalalilik va dilkashlik shaxsning insoniy fazilati sifatida o'qituvchilarning ham kasbiy faoliyatidagi yuksak fazilatlaridan biriga aylanib, o'qituvchining pedagogik muloqoti unumdorligini ta'minlaydi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbga yo'naltirishda, xushmuomalalilik va dilkashlikni shakllantirish uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tishni taqozo etadi.

O'qituvchining dilkashligi – uchta tarkibiy qismni birlashtiruvchi jarayondir:

- muloqotda zaruriyatning mavjudligi;
- muloqotdan keyin, muloqot paytida, muloqotgacha yaxshi kayfiyat;
- kommunikativ ko'nikma va malakalarga ega bo'lish.

Ushbu ta'rifda muloqotning o'qituvchi kasbiy faoliyatidagi ijodiy jihatlari ko'rsatilgan. Biroq, muloqot uchun zaruriyat hamisha mavjudligi – umuminsoniy xususiyat bo'lib, u barcha kasb egalariga taalluqlidir.

Rus olimi A.V.Mudrik o'z ilmiy tadqiqotlarida o'qituvchining xushmuomalalilik bilan muloqotga kirishishi va unga ko'nikma hosil qilishga nisbatan qobiliyatini aniqlaydigan quyidagi mezonlarni ajratib ko'rsatadi:

- inson tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarga muvofiqligi;
- notiqlik san'atini mukammal egallaganlik yoki nutqda erkinlik;
- xushmuomalalilik va shirinsuxanlik;
- empatiya va o'z-o'zidan paydo bo'ladigan o'tkir zehnga ega bo'lish;
- ma'lum bir maqsadga qaratilgan aniq ijtimoiy munosabat (masalan, muloqot jarayonining natijalariga emas, balki o'ziga nisbatan qiziquvchanlik);
- kommunikativ mahoratda – vaqtni, suhbatdosh ichki dunyosini, munosabatni, vaziyatni aniq mo'ljalga olish[1].

Ushbu nuqtayi nazardan ta'kidlash joizki, o'qituvchining kasbiy faoliyatida mavjud

[1] Мудрик А.В. Введение в социальную педагогику. – М.: Инс-т прак. психологии, 1997,- 368 с.

bo'lgan pedagogik dilkashlik ham o'ziga xos mazmunga ega va uning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- ta'lim va tarbiyaning turli sharoitlarida o'quvchilar bilan doimiy muloqotda bo'lish uchun barqaror zaruriyatning mavjudligi;
- o'qituvchining shaxsiy va kasbiy jihatdan dilkashlik va xushmuomalalik fazilatlarini namoyon qilishda uzviylikning doimiyligi;
- dilkashlik va xushmuomalalikning barcha bosqichlarida ruhiy xotirjamlikni his etish;
- muloqotning samaradorligi va pedagogik faoliyatning turli tarkibiy qismlariga ijobiy ta'sir etishi;
- pedagogik kommunikatsiya jarayonini amalga oshirishda qobiliyatning mavjudligi;
- o'qituvchining pedagogik kommunikativ ko'nikma va malakalarni doimiy egallab borishi.

5-ilovada sizga havola etilayotgan "*Yosh o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik dilkashligini o'rganish*" Dasturi uch qismdan iborat bo'lib, oddiydan murakkablikka qarab yo'naltirilgan. Berilayotgan savollarga javob bergan holda siz o'zingizda yashiringan ichki imkoniyatlaringizni aniqlashingiz, yoki aksincha kamchiliklaringizni yaqqol ko'rib uni bartaraf yetishingiz mumkin. Savollar uzoq pedagogik izlanishlar natijasida tanlangan bo'lib, kasbiy mahoratingizda pedagogik nazokat va dilkashlik qobiliyatingizni mustaqil ravishda oshirib borishingizda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining pedagogik mahoratida kasbiy dilkashligi birdaniga shakllanib qolmaydi, u yillar davomida pedagogik faoliyatda, ustozlar tajribasini o'rganishda, dars jarayonida, sinfdan tashqari faoliyatda va tarbiyaviy soatlarda o'quvchilar bilan muloqotda takomillashib boradi. Dars jarayonida pedagogik mahoratning asosi bo'lmish dilkashlikka ega bo'lish o'qituvchi uchun juda zarurdir.

Kommunikativ jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash tizimi individual, berilgan tavsiyalar inobatga olingan holda ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Tabiiyki, muloqotga oid ko'p narsalarni har qanday o'qituvchi o'zining shunchaki sog'lom tafakkuri va tajribasi bilan ishlab chiqishi mumkin. Masalan, boshqalar bilan muloqotda tabiiy noqulaylikni his qiladigan odamlar, bunday muloqotdan keyin o'z tajribasini ongli ravishda orttirishi, psixologik to'siqlarni ma'lum bir maqsadni ko'zlab bartaraf yetishi lozim. Buning uchun yosh o'qituvchi turli seminarlarda, yig'ilishlarda, o'qituvchilar davrasida ko'proq chiqish qilishga intilishi, hamkasblari va kishilar bilan muloqot qilishning har bir imkoniyatidan foydalanishi kerak. Masalan, birorta muammo haqida bir nechta hamkasblaringiz bilan gaplashish vazifasini qo'ying.

Yoshi ulug', tajribali o'qituvchilarga o'zingizni qiziqtirgan muammoli savollar bilan murojaat qiling, do'kon sotuvchisining xaridorlar bilan muomalasidagi xatti - harakatini sharhlab bering va hokazo. Ko'chada yo'lovchining savoliga javob berganingizda, u bundan qoniqish hosil qilganini tushunishga harakat qiling. Har safar darsga tayyorgarlik ko'rib, yangi materialni tushutirishda nafaqat pedagogik vositalar va metodlarni qanday qo'llashni, balki sinf jamoasi bilan qanday muloqotga kirishish haqidagi fikr xayolingizni band qilsin. O'quvchilar bilan maktabdan tashqari ta'lim va tarbiya jarayonida muloqot

qilish haqida o'ylang. Sizga ajoyib taassurot qoldirgan, yaxshi kayfiyat bag'ishlagan muloqotdagi vaziyatlarni aslo unutmang. O'quvchilar bilan muloqotdagi ba'zi muvaffaqiyatsizliklarni tahlil qilishga urining. Xatolaringizni tan oling va ko'ra biling, sizga qoniqish bag'ishlashi uchun navbatdagi muloqotlarni qanday tashkil qilishni o'ylang.

Sizga muloqotda noloyiq inson ekanligingizni aytishsa, aslo ruhiy tushkunlikka tushmang. Xulqingiz, xatti-harakatlaringiz, hayot va ish tajribangiz bilan shaxsiy xususiyatlaringiz buning aksi ekanligiga, muloqotda dilkashlik va xushmuomalalilik fazilatlari sizda mavjudligiga o'zingizni ishontirishga harakat qiling. Tajribalar asosida o'z kasbiy holatingiz ustida tinimsiz ishlash, muloqotda dilkashlikni kasbiy jihatdan ahamiyatli xususiyatlarini rivojlantirish, kommunikativ qobiliyatlarni takomillashtirish, pedagogik kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun kasbdoshlaringizning darsini tahlil qiling, keyin esa o'zingizni yoki kasbdoshingizni sinf jamoasi bilan muloqotini solishtirib baholang. Ularning eng yaxshi jihatlarini o'zlashtirishga harakat qiling.

6.3 O'QITUVCHINING PEDAGOGIK ETIKASI

Insoniyat faqat bilim o'rganish natijasida mehnat va ijod sohasida yaratuvchanlik faoliyatiga, ijtimoiy va axloqiy me'yorlarga asoslangan ishchanlikka, shaxsiy aloqalar vositasida boshqa insonlar bilan muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Ingliz olimi Dj. Saymon bilimni *"insonni jamiyat uchun shakllantirish usuli"* deb atagan.[1]

Mashhur rus yozuvchisi va publisisti N.G.Chernishevskiy o'z asarlarida bilim uchta mukammal tarkibiy qismni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi: *keng qamrovli bilimlar, fikrlashga chorlovchi bilimlar, olijanob tuyg'ularni rivojlantiruvchi bilimlar.*

Faylasuf olim E.V.Zolotuxina-Abolinaning ta'kidlashicha, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida yoshlar ongini yuksak texnologiyalarning rivojlanishi natijasida paydo bo'ladigan, ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib etilayotgan turli bema'ni g'oyalar ifodalangan ma'lumotlar, shafqatsizlik, sadizm, qo'pollik, pornografik filmlar egallaydi. Hozirgi zamon axloq "me'yorlari"ning imkoniyatlarini uzoq vaqtgacha sanayverish mumkin. Shunisi achinarliki, yoshlar ommaviy tarzda ularga taqlid qilishi uchun namuna bo'la olmaydilar, zero ko'pincha ochko'zlik, shafqatsizlik va adolatsizlik ko'ngillariga o'rnashib qolgan ba'zi yoshlar, o'zlarining tuban ehtiroslariga berilganligi uchun boshqalarning dardlariga mutlaqo befarq bo'ladilar[2]. Hozirgi kunda faylasuflar, psixologlar va pedagoglar jamiyatda yoshlar orasida ro'y berayotgan bunday ahvolni madaniyat, ong va axloqning tanazzulga uchrashi deb baholamoqdalar.

Jamiyatda yuz berayotgan keskin o'zgarishlar, inson ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan har xil muammolar pedagogik jarayonda ham o'z aksini topmoqda. Ijtimoiy-

[1] Simon J. The History of Education in Past and Present? // Oxford Review of Education. - 1977. - Vol. 3. - № 1.

[2] Золотухина-Аболина Е. В. Современная этика: истоки и проблемы: учебник. — Ростов н/Д, 2000.

iqtisodiy munosabatlar, bozor iqtisodiyotida ro'y berayotgan keskin raqobat "o'qituvchi-o'quvchi", "o'qituvchi-talaba" munosabatlarida ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Pedagog olim M.A.Verbning ta'kidlashicha, o'qituvchi kasbiy madaniyatining muhim asosini **pedagogik etika** yoki *deontologiya* (yun. Deon- qarz va logos - ta'limot) tashkil qiladi. Ma'lumki, etika (yun. ethos - fe'l-atvor, odat) – o'zini tutish me'yori va qoidalari, insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar haqidagi fan. Pedagogik etika umumetika me'yorlari asosida o'qituvchining kasbiy faoliyatda o'z muhitidagi insonlar, hamkasblari, o'quvchilar, ularning ota-onalari bilan muloqot jarayonida amal qilishi lozim bo'lgan me'yoriy-axloqiy pozitsiyalarni belgilab beradi[1].

Insonparvarlik pedagogikasida asrlar davomida o'zining eng sara vakillari nomidan bolalarga bo'lgan qizg'in muhabbat etik me'yorlarning boshlang'ich nuqtasi ekanligini aytib kelishmoqda. Bunda bolaga bo'lgan hissiy-qadriy munosabatlar turlicha namoyon bo'ladi. J.J.Russo, L.N.Tolstoy, R.Shtayner kabi olimlarning asosiy pedagogik g'oyasi, bolalarni sevish ularning yosh xususiyatiga qarab muloqotda bo'lish ehtiyojlariga mos tarzda ularga mumkin qadar keng ijodiy erkinlik berish hisoblangan. I.G.Pestalotssi va Y.Korchak kabi olimlar nafaqat bolalarga mehr berish kerakligini, balki ularning quvonchlariga va g'amlariga sherik bo'lib yashash lozimligini ham ishonch bilan uqtirishgan. R.Ouen va A.S.Makarenko, o'z tarbiyalanuvchilari haqida g'amxo'rlik qilgan holda, ularni kelajak hayotda baxtli bo'lib yashashga o'rgatishgan.

Pedagogika fanida ba'zi olimlar o'z tadqiqot ishlarida bolalarga nisbatan o'qituvchining qattiqqo'lligi tarafdori ekanliklarini ta'kidlashgan. Biroq qattiqqo'llik va qo'pollik haqida olimlar nimalar deyishmasin, baribir bolalar bilan o'zaro yaqin munosabat, xushmuomalalik, bir-birini chin ko'ngildan tushunish, g'amxo'rlik kabi tuyg'ularsiz o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ruhiy o'zaro yakdillikka erishib bo'lmaydi. V.A.Suxomlinskiy buni haqli ravishda ta'lim-tarbiya jarayonining *alfa va omegasi* deb atagan.

Y.A.Komenskiy O'rta asrning so'nggi davrlarida bolalar ta'lim olayotgan barcha muassasalarni *"insonparvarlikni tarannum etuvchi ustaxonalar"* kabi bo'lishi lozim deb hisoblagan. Keyinroq bu haqda I.I.Beskoy, N.I.Pirogov, P.P.Blonskiy, M.Montessori kabi taniqli olimlar ham o'z asarlarida yozishgan. Bolalarga bo'lgan insonparvarlik tuyg'ulari, ya'ni mehribon va g'amxo'r bo'lish, ularni qalban tushunish va ehtiyot qilish hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika, kompyuter va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi jarayonida ayniqsa nihoyatda dolzarbdir.

O'qituvchining insonparvarligi vatanimizda va xalqaro miqyosda qabul qilingan ta'lim to'g'risidagi hamda bolalarni himoya qilish haqidagi turli hujjatlarda belgilangan, ularning huquq va erkinliklari to'g'risidagi qoidalargi rioya qilishda namoyon bo'ladi. BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasida (20.11.1989) har bir bola to'laqonli ta'lim olishga, san'at va sport turi bilan shug'ullanishga, o'zining erkin va shaxsiy fikriga ega bo'lish huquqiga egaligi ta'kidlangan.

---

[1] Введение в педагогическую деятельность: учеб. пособие / А. С. Роботова, Т.В.Леонтьева, И.Г.Шапошникова и др.; под ред. А.С.Роботовой. — М., 2002.

Rus pedagogi Y. Korchak o'zining "Bolalar uyi" Nizomida tarbiyalanuvchilarning ko'p sonli huquqlari ichida *o'yin, sir saqlash, o'z muammolariga diqqat bilan munosabatda bo'lish, talabchanlik, norozilik bildirish, bolaning erkin fikrlash erkinligi huquqlari* sanab o'tilgan. Bolalarga nisbatan majburlash harakatlari, ya'ni birovning fikrini tiqishtirish, g'ururini paymol qilish, tan jazosini qo'llash, erkinligini cheklash, ovqatdan va uyqudan mahrum qilish mumkin emasligi haqidagi fikrlar alohida ta'kidlangan. Ushbu me'yorlar ijtimoiy va oilaviy tarbiyaga ham bir xil tegishlidir[1].

O'qituvchining o'z tarbiyalanuvchilari bilan dars va darsdan tashqari muloqotida namoyon bo'ladigan etik fazilatlari spektri nihoyatda keng va xilma-xildir. Ushbu muammo bo'yicha pedagogikada olib borilgan maxsus tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalarida yuqori sinf o'quvchilari o'z o'qituvchilari xarakterida mavjud bo'lgan samimiylikni, xushmuomalalikni, mehribonlikni, adolatparvarlikni, o'quvchilarning o'rganilayotgan fani bilan bog'liq ba'zi muammolarni tushunishga ko'maklashishini, mashg'ulotda berilgan materialni tushunishda yordam berish istagini, dilkashlikni, halollikni, mehnatkashlikni, vazmin va bosiqlikni, o'quvchining bilish qobiliyati va qiziquvchanligini e'tirof yetishini, sabr-bardoshni, talabchanlikni va boshqa qator pedagogik kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarini qadrlashadi. Biroq o'quvchilar asosan, o'qituvchi bilan munosabatlaridagi samimiylikni, sofdillikni, sidqidillikni ko'proq qadrlaydilar. Taniqli olim M.O.Knebel, pedagogika fani bolaga nisbatan ona fazilatlariga yaqin turadigan fazilatlarni talab qiladi, deb ta'kidlagan edi. U o'zining "Poeziya pedagogiki" *("Pedagogika nazmi")* nomli kitobida ona o'zida mavjud bo'lgan eng yaxshi ezguliklarni bolalariga bergani kabi, o'qituvchi ham o'z qalbini o'quvchilariga baxshida yetishi lozimligi haqida yozgan.

Pedagog kasbining ichki asosiy mazmuni ham ana shundadir. Qalbni bolalarga bag'ishlash ham qiyin, ham quvonchli. Shuning uchun qiyinki, bu nafaqat ruhiy, balki jismoniy kuch sarflashni talab qiladi. Shuning uchun quvonchliki, o'qituvchining butun sarf qilgan kuchlari, qiyinchiliklari va mashaqqatlarining javobi go'yo yoshlik kuch-quvvati kabi unga qayta oqib keladi[2].

O'quvchining shaxs sifatida shakllanishiga oiladagi va bolalarning turli tarbiya muassasalaridagi pedagogik talablarning bir biriga mushtarakligini ta'minlash uchun yosh o'qituvchi, tarbiyachi muloqotning ishonchli va sinalgan muomala usullarini tanlashi lozim.

O'qituvchining o'z pedagogik jamoasidagi hamkasblari bilan o'zaro munosabatida norasmiy *"etik kodeks"* mavjud. Oliy pedagogik ta'lim muassasasini tugatib, yosh mutaxassis sifatida pedagogik jamoaga kelgan o'qituvchi o'z faoliyatini nimadan boshlashi mumkin. Bu murakkab savol barcha yosh o'qituvchilarni hayajonli vaziyatga solishi aniq. Ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan ustoz o'qituvchilar o'giti asosida quyidagi tavsiyalarga rioya qilishingizni so'raymiz:

1. Ushbu ta'lim muassasadagi yillar davomida sayqallanib shakllangan an'analarni,

[1] Корчак Я. Как любить ребенка // Корчак Я. Педагогическое наследие. — М., 1991.

[2] Введение в педагогическую деятельность: учеб. пособие / А. С. Роботова, Т.В.Леонтьева, И.Г.Шапошникова и др. под ред. А.С.Роботовой.

ish jarayonini tanqid qilishga va "eshikdan kiriboq" o'zingizga ma'qul bo'lgan yangi qoidalarni taklif qilishga shoshilmang. Jamoadagi vaziyatni, o'z hamkasblaringizning, ya'ni turli avlod vakillarining muvaffaqiyatlarini va kamchiliklarini tushunib olishga harakat qiling.

2. Hamkasbingiz bo'lmish o'qituvchining ochiq darsini yoki mashg'ulotlarni boshqarish tarzini, ayniqsa rahbarlar ishtirokida muhokama qila turib, birinchi navbatda uning yutuqlaridan va ijobiy tomonlaridan gap boshlang. Bu bilan siz o'z hamkasbingizga ma'naviy jihatdan ko'mak bergan bo'lasiz.
3. O'zingiz bevosita mashg'ulotlar olib boradigan sinfda o'quvchilar berilgan topshiriqlarni bajara olmasa yoki o'zlarini intizomsiz tutishsa, bunda o'quvchilar jamoasini, sinf rahbarini, ota-onalarni ayblash odobdan emas. Muvaffaqiyatsizlikning sabablarini kasbiy faoliyatingizdagi metodik xatolaringizdan qidirish lozim.
4. Agar siz yoshi ulug', hurmat-ehtiromga sazovor bo'lgan hamkasbingizning yoki muassasa ma'muriyatining pedagogik faoliyat yuzasidan bildiriladigan mulohazalari va e'tirozlariga rozi bo'lmasangiz, kelishuvchanlik mavqeyini egallamaslik lozim, ammo munosabatlarni ham keskinlashtirmaslik kerak. Eng yaxshisi, o'z mavqeyingizni kuchaytiradigan dalillar keltiring va raqiblaringizning nohaq ekanliklarini isbotlashga harakat qiling.
5. Yodingizda bo'lsin: sizning xayrixohligingiz, kirishimliligingiz, mulozamatli bo'lishingiz, ishda o'zaro hamkorlikka intilishingiz, eng yaxshi tajribani tan olishga, yangi tashabbusni qo'llab-quvvatlashga tayyorligingiz – erishiladigan muvaffaqiyatli faoliyat uchun qulay muhit yaratadi va mehnat jamoasida yaxshi ijodiy kayfiyatning paydo bo'lishida asosiy omil hisoblanadi.

Demak, pedagogik etika pedagogik mahoratning muhim bir qismidir. O'zaro munosabatlar (o'qituvchi – o'quvchi, o'qituvchi – talaba) samaradorligi ko'pincha pedagogik taktga rioya qilishga ham bog'liq ekanligini yodda tutish lozim.

6.4 O'QITUVCHINING PEDAGOGIK TAKTI

Tilshunos olim S.I.Ojegovning "Rus tili lug'ati"da *takt* so'zi o'zini munosib ravishda *"xushxulq, o'zini odobli tutish me'yorlarini bilish tuyg'usi"* sifatida ta'riflanadi[1].

B.M.Bim-Bad tahriridagi *"Pedagogik qomusiy lug'at"*da pedagogik takt: o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muloqoti jarayonida rioya qilishi lozim bo'lgan me'yoriy tamoyil sifatida talqin qilinadi; o'qituvchining pedagogik mahorati va tajribasi, uning madaniy va shaxsiy insoniy fazilatlarining yuksak darajasi bilan belgilanadi; o'quvchining insoniy huquqini, g'ururini paymol qilmasdan va tarbiyaviy jarayonga qarshilik qilishni keltirib

[1] Ожегов С. И. Словарь русского языка / под ред. Н. Ю. Шведовой. - 19-е изд., испр. - М., 1987. С.684

chiqarmasdan istalgan vaziyatlarda (shu jumladan, ziddiyatli vaziyatlarda ham) eng maqbul tarbiyaviy ta'sir me'yorlarini topish ko'nikmalari orqali ifodalanadi[1].

Ta'kidlash joizki, pedagogik taktning o'ziga xos xususiyati shundan iborat, ya'ni u o'qituvchining kasbiy faoliyatida o'zini tutishi, xatti-harakatlari, muomalalarining me'yori hisoblanadi; bu o'qituvchi va tarbiyalanuvchilar, o'qituvchi va jamoa o'rtasidagi o'zaro yaxshi munosabatlarni tashkil etishning muhim sharti; tarbiyaviy ta'sir va o'zaro bir-biriga ta'sir qilishning turli metodlarini, shakllarini, vositalarini tanlash va qo'llash me'yoridir.

Pedagogik takt muloqot qiluvchi a'zolarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni, o'qituvchining kasbiga taalluqli axloqiy-etik qoidalariga rioya qilishni taqozo qiladi[2].

Pedagogik takt – o'qituvchi kasbiy mahoratining asosi bo'lib, o'quvchilarga barcha demokratik talablar asosida pedagogik ta'sir o'tkazish, muloqotni insonparvarlik tuyg'ulari asosida o'rnatish o'lchovi, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni hamda ongli intizomni tarkib toptirish ko'nikmalarini hosil qilish shaklidir. Pedagogikada o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabati ularning yosh xususiyatlariga qarab belgilanishi va bu qonuniyatga amal qilinishi qat'iy talab qilinadi. *Shunday ekan, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida hali to'liq shakllanmagan, ta'sirlarga va ruhiy kechinmalarga tez beriluvchi, ota-onasining sevimli farzandi bo'lgan murg'ak qalb egalari bilan muloqot qilayotganligini aslo unutmasligi kerak.*

O'quvchilar bilan muloqotda pedagogik taktga qarama-qarshi bo'lgan qo'pollik, adolatsizlik, qo'rqitish, haqorat, mensimaslik hamda pedagogik qonuniyatlarda belgilanmagan jazolash usullarini qo'llash va boshqa ular shaxsiga salbiy ta'sir qiladigan turli jargon so'zlar ishlatish o'quvchilar qalbini umuman tuzalmaydigan darajada jarohatlab qo'yishi, yoki o'qituvchining obro'siga putur yetkazishi mumkin. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bunday qarama-qarshiliklar ko'pincha dars va darsdan tashqari jarayonlarda sodir bo'ladi. Bunda ayniqsa yosh o'qituvchilarning pedagogik takt sirlarini bilmasligi, tajribasizligi pand beradi.

Ta'kidlash joizki, o'qituvchi va o'quvchi muloqoti jarayonida uning ikkita hissiy qutbi shakllanadi. Tarbiyaning samaradorligi, o'qituvchining ijobiy tuyg'ularga asoslangan o'zaro munosabatlarni mukammal tashkil qilish qobiliyati bera oladi. Tarbiyaviy jarayonda o'qituvchi salbiy hissiy holatlar girdobiga ham tushib qolishi mumkin, lekin bu ta'sir etishning oxirgi maqsadi sifatida emas, balki ijobiy hissiy samaradorlikka erishish uchun bartaraf qilinadigan ziddiyatli vaziyat vositasi sifatida paydo bo'lishi mumkin.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, aynan pedagogik taktning mavjudligi o'qituvchiga o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotni ijobiy tuyg'ular asosida tashkil etishga, ular bilan munosabat olib borishga imkoniyat beradi.

Pedagogik takt mohiyatini ochishning murakkabligi shundaki, ushbu pedagogik hodisa umumiy qabul qilingan "takt" tushunchasi bilan qiyoslanganda o'ziga xosligi bilan alohida izohlanadi.

Takt so'zi qiyosiy tarjima qilinganda "taalluqli, dahldor" ma'nosini ifodalaydi. Bu

---

[1] Педагогический энциклопедический словарь / гл. ред. Б. М.Бим-Бад; ред. кол.: М.М.Безруких, В.А.Болотов, Л.С.Глебова и др. — М., 2002.

[2] Введение в педагогическую специальность: учеб. пособие / А. С. Роботова, Т.В.Леонтьева И.Г.Шапошникова и др.; под ред. А.С.Роботовой.

insonlarning bir-birlariga dahldor bo'lgan o'zaro munosabatlarini yaxshilashga yordam beradigan axloqiy kategoriyadir. Insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda taktik xulq va odob eng murakkab va ziddiyatli vaziyatlarda ham insonga nisbatan hurmat-ehtiromning saqlanishini talab qiladi. Odobli bo'lish – har bir insonga, ayniqsa, rivojlanayotgan barkamol shaxs bilan muloqotda bo'ladigan o'qituvchiga xos bo'lgan axloqiy talabdir.

Pedagogik takt – o'qituvchi kasbiy fazilati va kasbiy mahoratining muhim qismidir. Pedagogik takt inson fazilatiga xos bo'lgan "takt" so'zining umumiy tushunchasidan shu bilan farq qiladiki, u nafaqat o'qituvchining shaxsiy xususiyatlarini, balki o'quvchilarga axloq-odob doirasida insonparvarlarcha yondashish ko'nikmasi hamdir, ya'ni bu o'quvchilarga sezilarli darajada tarbiyaviy ta'sir qilish vositasidir.

Taniqli pedagog olim I.V.Straxovning ta'kidlashicha, ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatning muvaffaqiyati avvalo, pedagogik mahorat zamirida mujassamlashgan pedagogik taktga bog'liqdir. Mazkur sohada olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili natijasida ***pedagogik taktning quyidagi asosiy yo'nalishlari e'tirof etildi:***

- rasmiyatchiliksiz, tabiiy, odatiy tarzdagi muomala;
- muloqotda qalbakilik va jiddiylikdan yiroq bo'lgan ohang;
- o'quvchi shaxsiga nisbatan beparvo bo'lmasdan ishonch bildirish;
- o'quvchiga ortiqcha iltifot qilmasdan iltimos qilish;
- majburan asabiga tegmasdan maslahat va tavsiyalar berish;
- o'quvchining mustaqilligini paymol qilmasdan talablar qo'yish va ta'sir qilish;
- o'zaro munosabatlarda keskin masofa saqlashga yo'l qo'yilmaydigan jiddiy ohang;
- o'rni kelganda o'quvchi shaxsini kinoyali so'zlar bilan kamsitmasdan hazil qilish;
- o'quvchini turli arzimas voqealar uchun asossiz ayblamaslik, unga nisbatan talabchan bo'lish;
- o'zaro munosabatlarda serjahllik, beparvo va sovuqqonlikni ishchan faoliyat bilan engish;
- qo'yilgan talablarni asossiz ravishda bekor qilmasdan tarbiyaviy ta'sirni bevosita amalga oshirish uchun qat'iylik va izchillik;
- o'quvchilarga ortiqcha iltifot ko'rsatmasdan, ularning erkin fikrlashini va mustaqilligini rivojlantirish;
- shoshilmasdan va ko'r-ko'rona qarorlar qabul qilmasdan tarbiyaviy ta'sirning tezligi va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;
- nazoratga jiddiy urg'u bermasdan o'quvchilarga nisbatan e'tibor; o'zaro muloqotda beparvolik, tez ta'sirlanishdan yiroq bo'lgan bosiqlik va vazminlikni namoyon etish;
- o'quvchilarga nasihatgo'ylik bilan doimo aqlli bo'lishni o'rgatmasdan aniq rejalashtirilgan biror mavzu asosida suhbat olib borish.

Pedagogik taktning asosiy belgisi – o'qituvchi va o'quvchining o'zaro muloqoti jarayonida jamoada mukammal psixologik iqlimni yaratish uchun ma'lum bir me'yorni topa bilish[1].

1 Страхов И. В. Психология педагогического такта. – Саратов, 1996.

Shunday qilib, pedagogik takt o'qituvchi xulqidagi eng olijanob insoniy fazilatlarida, uning vazminligida namoyon bo'ladi. U o'quvchiga bo'lgan ishonchni, A.S.Makarenko ta'kidlaganidek, pedagogik faoliyat jarayonida hatto xatolikka yo'l qo'yish xavfi paydo bo'lganda ham, "optimistik faraz" bilan yondashishni taqozo qiladi. O'quvchilarning imkoniyatlariga past nazar bilan qarab baholaydigan va buni doimo o'ziga odat qilib olgan o'qituvchi, yomon o'qituvchidir. O'qituvchining ishonch bilan yondashuvi o'quvchilar ishida rag'batlantiruvchi asos bo'lishi lozim. O'quvchi o'z imkoniyatlaridan, tirishqoqligidan quvonch hosil qilishi uchun uning muvaffaqiyatlarini ongli tarzda bo'rttirib ko'rsatish usuliga murojaat qilish ham mumkin. Ishonch bu o'qiuvchi harakatlariga beparvolik emas, aniq ishlar bilan tasdiqlangan bo'lsa, nazorat tarbiyalanuvchiga nisbatan hushyorlik bilan birga uyqashsa, ta'sir qiladi. Biroq nazorat ham rasmiyatchilik tarzida bo'lib, o'quvchini shubhalar bilan ezib tashlamasligi lozim.

6.5. O'QITUVCHI KASBIY FAOLIYATIDA ZIDDIYATLARNING PEDAGOGIK YECHIMI

Pedagogik mahoratda pedagogik etikaning o'rni haqida so'z borar ekan, ta'limning eng keskin muammolaridan biri – ziddiyat to'g'risida ba'zi mulohazalarni bildirib o'tamiz. Sir emaski, o'quvchilar jamoasida ham, pedagogik jamoada ham insonlar kayfiyatiga ta'sir qiladigan va mikromuhit yaratadigan munosabatlar tez o'zgaradigan vaziyatlarga borib taqaladi va bu o'zaro munosabatlarda ziddiyatlarning kelib chiqishiga va nizolarga sabab bo'ladi.

Biz *ziddiyatni pedagogik taktning bir qismi* sifatida e'tirof etamiz. Shu munosabat bilan ziddiyat chuqur tahlil qilinmaydi. Mazkur muammoga ko'plab psixolog va pedagog olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari bag'ishlangan. Zero "Konfliktologiya" deb nom olgan mustaqil fan ham mavjud bo'lib, u ziddiyatlarga falsafiy nuqtayi nazardan yondashadi. Biz ziddiyatni faqat pedagogik nuqtayi nazardan ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, har qanday jamoada ro'y beradigan ziddiyatlar oxir oqibatda turli nizolarni keltirib chiqaradi. Ta'lim muassasalarida ro'y beradigan pedagogik nizolar – ta'lim va tarbiya ishtirokchilari bo'lmish rahbariyat, pedagogik jamoa, o'quvchilar hamda ularning ota-onalari o'rtasida yuzaga keladigan, bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlarining to'qnashuvi asosida sodir bo'ladi. Ziddiyatlar asosida ro'y beradigan ushbu nizolarning asosiy obyekti o'quvchi va unga beriladigan ta'lim-tarbiya bo'lib, har qanday jamoaning ijtimoiy ruhiy muhitiga putur yetkazadi. V.A.Suxomlinskiy o'z davrining maktablarida ro'y bergan ziddiyatlarga jiddiy yondashgan. Asarlarida o'z mulohazalarini quyidagicha bayon etadi: "O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolar – maktab faoliyatiga xos bo'lgan jiddiy, murakkab ko'ngilsiz hodisalardir. Nizo ko'pincha o'qituvchining o'quvchi shaxsi to'g'risida nomunosib fikrlar yuritishi, qo'pol muomalasi sababli kelib chiqadi. O'quvchi

kim bo'lmasin, u bilan doimo xumuomalada bo'lish pedagogik ziddiyatlarning kelib chiqishini oldini oladi. Ziddiyatlarga yo'l qo'ymaslikka erishish – o'qituvchining pedagogik mahoratida muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Ziddiyatlar natijasida ro'y berishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olib, sinf va pedagogik jamoaning tarbiyaviy kuchini saqlaydi va ularni jipslashtiradi"[1].

Ziddiyatlar har xil bo'ladi va ularga turli nuqtayi nazardan munosabatda bo'lish mumkin. O'zining o'rni, darajasi va mavqeyiga ko'ra ziddiyatlar quyidagi ko'rinishlari bilan farqlanadi: ichki va tashqi, shaxslararo va guruhlararo, ijtimoiy munosabatlar orasida, tashkilotlararo, millatlararo va davlatlararo, potensial va dolzarb, bevosita va bilvosita, konstruktiv (mahsuldor, amaliy) va destruktiv (natijasiz, noamaliy), vertikal va gorizontal, narsalar o'rtasidagi va kishilar o'rtasidagi, rag'batlantiruvchi, kommunikatsion (tushunishga asoslangan) va boshqalar.

Faylasuf olim A.J.Kusjanovaning ta'kidlashicha, maktab – bu hayotga tayyorgarlik emas, balki hayotning aynan o'zidir. Hayotni o'rab turgan muhit bir necha yildan keyin foydalanish uchun emas, balki shu kunning o'zida yaratiladi. Maktab, bir tomondan haqiqiy hayotni kutish psixologiyasini, ikkinchi tomondan – vaqtinchalik sharoitga (bu sharoitga u hech qanday roziliksiz qo'yilgan) o'quvchi jiddiy qaramaydigan "qisqa vaqtdan foydalanish" psixologiyasini shakllantiradi. Hayotning barcha o'rinlarida – maktabda, uyda, atrof-muhitda ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos ustunlarini yaratish, o'ziga va atrof-borliqqa ta'limiy munosabatlarni hayotiy me'yorlar bilan bog'lash – maktabdagi har bir kunning vazifasi va muammosidir[2].

Har bir inson, avvalo, o'qituvchi, ziddiyatlar haqida, ularni hal qilish va nizoli vaziyatlarda o'zini qanday tutish kerakligi to'g'risidagi qoidalar haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Pedagogik faoliyatda ziddiyatlar tez-tez bo'lib turadi. O'qituvchiga, ayniqsa, yosh o'qituvchilarga, murakkab nizoli vaziyatlarda allaqachon sinab ko'rilgan o'zini tutish qoidalarini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ushbu qoidalar ziddiyatli vaziyatlardan chiqib ketishga yordam beradi:

Birinchi qoida. Eng avvalo, ziddiyatli vaziyatni qo'lga olish lozim, bu ikki tomonlama salbiy emotsional hissiy keskinlikning yumshatilishi deganidir[3]. Qanday qilib? O'zingizdan boshlang: "ortiqcha" jismoniy keskin harakatga, baland ovozda baqirish (o'shqirish), maqsadsiz noo'rin harakatlarga barham bering. Bizga ma'lumki, mimika, gavdaning tik turishi, imo-ishoralar, nafaqat ichki holatni ifodalaydi, balki unga ta'sir ham qiladi. Shunday ekan, sirtdan vazmin va bosiq bo'ling.

Ikkinchi qoida. O'zini bosiq va vazmin tutish bilan sherikka (o'quvchiga, hamkasbga) ta'sir qilish. Nizo ishtirokchisiga indamasdan qarab turish ham keskinlikka barham berishga yordam beradi, bu esa o'qituvchiga diqqatni bir joyga jamlashga, nizo ishtirokchisining ahvolini jiddiy o'rganishga imkoniyat beradi.

Uchinchi qoida. Suhbatdosh xulqidagi psixologik motivlarni tushunishga urinish.

---

[1] Сухомлинский В. А. Методика воспитания коллектива. – М.: Просвещение 1981.- С. 185.

[2] Кусжанова А. Ж. Социальный субъект образования // Credo. — 2002. — № 6.

[3] Аникеева II. П. Учителю о психологическом климате в коллективе. — М., 1983.

Fikriy tahlilni ishga solish emotsional tuyg'ular tug'yonini pasaytiradi. Qiyin vaziyatni tushunganlikni namoyish qilgan ma'qul: "Men sizning ahvolingizni tushunaman" va hokazo. O'z ahvolini bayon qilish: "Bu holat meni ham ranjitadi". Shunday qilib, ro'y bergan hodisaga birdaniga baho bermang, avvalo, yuzaga kelgan vaziyatga nisbatan o'z munosabatingizni ifodalashga harakat qiling.

To'rtinchi qoida. Maqsadlar o'zaro kelishib olinishi kerak. Imkon qadar o'quvchi bilan sizni nimalar birlashtirayotganini tushunib oling, birgalikda bir maqsad sari harakatlanishning umumiy nuqtalarini ko'ra biling, "barchamiz" degan mavqega chiqib, uni namoyon qilish lozim.

Beshinchi qoida. Mahsuldor qaror qabul qilish imkoniyatiga ishonch hosil qilish bilan o'z mavqeyini mustahkamlash. Va nihoyat, ziddiyatga barham berilgandan keyin fikran ortga qaytib, uning sabablarini va oldini olish imkoniyatlarini tahlil qilish lozim. Har doim ham nizolar natijasida yuzaga keladigan keskin to'qnashuvdan qochish, unga barham berishdan ko'ra osonroqdir[1].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ziddiyatlarning asosiy sabablaridan biri – o'quvchilar tashqi ko'rinishiga, aqliy imkoniyatlariga, qobiliyatlariga nisbatan o'qituvchining qo'pol muomalasi va odobsizligidir. Nizolar ko'pincha shundan boshlanadi. So'nggi yillarda fanda ushbu muammolar yo'nalishiga "Konfliktologik madaniyat" jumlasi kirib kelmoqda. Odamlarning, ayniqsa yoshlarning falsafiy va psixologik dunyosida o'zgarishlar ro'y bermoqda. Shu sababli pedagogik konfliktologiyaning ilmiy yo'nalishida keskin o'zgarishlar bo'ladi. Ayniqsa, konfliktologik madaniyat shubhasiz bu sohada ijobiy munosabatlarni olib kiradi.

Muloqot ishtirokchilarining aniq yoshiga, jinsiga, fiziologik jihatlariga munosib baho bera olmaslik, ya'ni kattalar bilan yosh boladay va aksincha, yosh bolalar bilan kattalarday muloqotga kirishish ham ziddiyatlarga olib kelishi mumkin (ayrim o'qituvchilar, bolalardan yoshi va axloqiy rivojlanishiga mos kelmaydigan xulq va odobni talab qiladilar). Yosh o'quvchilarni etiketga o'rgatish mumkin, ammo u mustaqil ravishda muloqot etikasi va madaniyatini ongli tarzda o'zlashtirishi mumkin emas.

O'qituvchi va o'quvchi muloqoti tajribalari shuni ko'rsatadiki, ijobiy ko'rinishda bo'lsa ham, o'zaro kelishuvsiz bema'ni topshiriqlar, odob doirasidan tashqarida bo'lgan me'yorsiz "laqablar qo'yib" chaqirish, o'quvchini kamsitish, aybini ko'rsatib kamsitish, jamoa oldida uyaltirish ziddiyatli muhitning shakllanishiga olib keladi. Muloqot strategiyasi va taktikasini tanlashda me'yorni bilmaslik ham ziddiyatlarga olib keladigan asosiy sabablardan biridir. Har qanday axloqiy sifatlar (shu jumladan ijobiy-axloqiy sifatlar ham)ning me'yordan chekinishi (masalan, ota-onalarning bolaga haddan tashqari g'amxo'rligi) o'quvchining kelajakda shaxslararo munosabatlarining murakkablashuviga olib keladi.

Barcha o'quvchilar diqqat, hurmat-e'tibor va hamdardlik bilan ularga yondashadigan o'qituvchilarga samimiy munosabatda bo'lishni yaxshi ko'rishadi. Bunda o'quvchilar savoliga javob berish jarayonida jilmayish, nigoh, bosh bilan tasdiqlash orqali quvvatlab

[1] Основы педагогического мастерства: учеб. пособие / И. А. Зязюн, И. Ф. Кривонос, Н.Н.Тарасевич и др.; под ред. И.А.Зазюна. - М., 1989.

turish lozim. Javobni pala-partish, yo'l-yo'lakay izohlab berish maqsadga muvofiq emas[1].

Muloqotning to'g'ri uslubini shakllantirishda sabr-toqat, vazminlik, adolatlilik, boshqalar tajribasiga ijodiy yondashuv pedagogik texnikani rivojlantirish, hazil-mutoyiba katta ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi har doim o'z o'quvchilarini inson sifatida hurmat qilishi va o'zining kasbiy g'ururini asrashi lozim.

O'qituvchi pedagogik taktni axloqiy odat darajasiga olib chiqishi lozim, uning taktik sergakligi kasbiy faoliyatining asosiy mazmuniga aylanishi lozim.

Shunday qilib, o'qituvchi va o'quvchi orasida ziddiyatsiz o'zaro munosabatni takomillashtirib muloqotga kirishishda asosiy usul, nizo yuzaga kelgan zahotiyoq unga tezlik bilan barham berish hisoblanadi. O'quvchilarga qiziqarli kulgili biror voqeani hikoya qilib berish yordamida nizoni hazilga yo'yish ham mumkin. "Kulgi" ulashuvchi faylasuf nomini olgan Demokrit, "insonlarning barcha ishlari kulgiga loyiqdir", deb ta'kidlaganda qisman haq bo'lgan.

Muloqotning axloqiy-psixologik atmosferasini yaratish uchun samimiylik va tuyg'ular jozibasi muhim ahamiyatga ega. Psixologiyada hattoki *"faksinatsiya"* degan atama ham mavjud bo'lib, ingiz tilida "maftun qilmoq, sehrlamoq" ma'nosini bildiradi. Ma'lumki, o'qituvchining samimiyligi, ochiq chehrali nigohi, ohangdor ovozi, nutqning musiqaviyligi, jonli tuyg'ulari, sog'lom fikr va chuqur falsafiy aqli har qanday o'quvchini sehrlab, jalb etadi.

6.6. SHARQONA TARBIYA VA MUOSHARAT ODOBINING O'QITUVCHI MULOQOTIGA TA'SIRI

Odamlarning mehr-oqibati, bir-birlariga nisbatan o'zaro hurmat e'tiborda bo'lishlari o'zaro muomala jarayonida namoyon bo'ladi. Xalqimizda azaldan muloqot salomlashish madaniyatidan boshlanadi. Salomlashish turli xalqlarda har xil amalga oshiriladi. Xalqimizda salomlashish axloqlilikning yuksak namunasi sifatida e'tirof etilib, uning negizida umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, shu millatning ruhiy xususiyatlari, o'zaro munosabatlarining ma'naviy asoslari, bo'lajak muloqotning xarakteri, o'zaro hamkorligi aks etadi.

Ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy merosi, ular yaratgan so'z, xalq tilining tuganmas boyligi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Xisrav Dehlaviy, Abu Hamid G'azzoliy, Kaykovus, Shayx Sa'diy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa Sharq va G'arb donishmandlarining boy meroslarida farzandlarni tarbiyalash va kamolotga yetkazish asosiy muammo sifatida targ'ib qilingan.

[1] *Психическая саморегуляция в педагогическом процессе.* — Пермь, 1977.

Ular so'zni va nutqni ta'lim-tarbiyada ilohiy ne'mat va hikmat deb bilishgan hamda har bir so'zning o'z o'rni va ahamiyati borligini, tarbiyada so'zdan kuchliroq va qudratliroq narsa yo'qligini, tilga e'tibor – elga e'tibor ekanligini, so'z sehri mo''jizalar yarata olishini ta'kidlab kelganlar. Bularning barchasi mudarris va shogirdlarning samimiy muloqoti jarayonida amalga oshirilgan.

Mudarrislar barkamol va tarbiyalangan insonning o'nta nishonasi borligini alohida ta'kidlashgan:

1. xalq to'g'ri deb topgan narsaga noto'g'ri deb qaramaslik;
2. yoshlikdan o'z nafsiga erk bermaslik;
3. birovlardan aslo ayb qidirmaslik;
4. yomonlik va omadsizlikni hamisha yaxshilikka yo'yish;
5. agar gunohkor uzr so'rasa, uzrini qabul qilish va kechirimli bo'lish;
6. muhojirlarga yaxshilik qilib hojatini chiqarish;
7. doimo vatanni sevish, muqaddas burch deb bilish;
8. aybini tan olish va boshqa takrorlamaslik;
9. odamlar bilan hamisha ochiq chehrali bo'lish;
10. odamlar bilan shirin muomalada bo'lish.

Muloqotda nazokatli bo'lish sharqona tarbiyada axloq ko'rki sanalgan. Muallim har bir o'quvchining qanday dunyoqarashga egaligi, tafakkuri, bilim saviyasi, hayotga nisbatan munosabati odamlar bilan o'zaro muloqotida namoyon bo'lishini uqtirishgan. Sharq mutafakkirlari merosida muloqot – azaldan insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa vositasi bo'lgan. Muloqotning asosiy quroli til hisoblangan. Shuning uchun ham til – aloqa quroli sifatida ta'riflanib kelingan.

Insonning tili shirin, muomala madaniyatiga ega bo'lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro'-e'tibor topadi. Ko'p gapirish hech qachon kishiga obro' keltirmaydi. Shuning uchun ham o'tmishda yashab o'tgan mutafakkirlarimiz tilga, aytiladigan har bir so'zga hurmat bilan, o'ylab yondashish lozimligini uqtirib o'tganlar. O'qituvchi *"so'z aytishdan avval, har daqiqada so'z ortidan keladigan oqibatlarni o'yla*shi *(I.P.Pavlov)*ni ta'kidlashgan. Alisher Navoiy o'z adabiy meroslarida muomala madaniyati, xushmuomalalik, tilning ahamiyati to'g'risida, shirinso'zlik haqida noyob fikrlarni bayon qilgan. Bugungi kunda ham bu fikrlar o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. *"Til shirinligi – ko'ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa foydali. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun acal kabi totlidir"* - deydi alloma.

O'quvchilar nutqini o'stirishda o'qituvchining til boyligi muhim ahamiyatga ega: bir tomondan, shirin tillilik o'quvchilarni o'qitish va tafakkurini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, o'qituvchining til boyligi nutqining obrazli, chiroyli, jarangdor, namunali bo'lishini ta'minlaydi, natijada o'quvchi diqqatini

o'ziga jalb etadi. Zotan, til va nutqning teranligi, o'qituvchining mahoratini, ma'naviy boyligini, o'qituvchilik qobiliyatining qay darajada ekanligini ifodalaydigan o'lchov, ko'rsatkich hisoblanadi. Amerikalik taniqli shoir Rolf Emerson: *"Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur qiladi"* deydi. Sharq mutafakkirlari ijodida til va nutq vositalari orqali notiq, voiz, badihago'y, qissaxon kabi maxsus san'at ahillari va mudarrislar diniy, ta'lim-tarbiyaviy, islomiy aqidalarni ommaga singdirishgani, pand-nasihatlar qilishgani bayon etiladi. Ushbu nutq sohiblari keng qamrovli bilimga, boy axborotga ega bo'lishgan.

Alisher Navoiy *"Voiz olimning o'zi avvalo, halol ish ko'ruvchi bo'lishini, uning nasihatidan chiqmaslikni"* o'z asarlarida bayon yetgan. Shuning uchun til shirinligi va notiqlik san'ati ustida ishlash, nutq madaniyatini takomillashtirib borish har bir o'qituvchining eng asosiy ijtimoiy burchi va mas'uliyati xisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida nutqning ta'sir kuchi nihoyatda beqiyosdir. O'qituvchining tili, nutqiy qobiliyati o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, xulq-avtori va fikr yuritishlariga ulkan ta'sir etuvchi kuchli vositalardir. O'qituvchining *"til boyligi va notiqlik san'ati barcha zamonlarda yonma-yon yashab kelgan" (A.P.Chexov).* Uning his-tuyg'usi, intilishlari, iroda va e'tiqodi nutqida aks etadi. O'qituvchi til boyligi bilan o'quvchilarda xursandchilik, ruhlanish, muhabbat, Vatanga sadoqat, g'azablanish, nafratlanish hissiyotlarini uyg'otadi, bilim olishga undaydi. Shuning uchun o'qituvchi *"tilning xalq o'tmishi, hozirgi va kelajak avlodni buyuk bir yaxlitlikka, tarixiy, jonli bir jipslikka aylantiruvchi eng hayotiy, eng boy va eng mustahkam vosita" (K.D. Ushinskiy)* ekanligini unutmasligi kerak.

Til shirinligi, samimiyat, so'zlaganda nazokatli bo'lish – barchasi inson odob-axloqining ziynati hisoblanadi, ularning barchasini bir qolipga yig'ib, kishilarning o'zaro bir-birlari bilan samimiy munosabatlarida shirinsuxanligini, go'zalligini, so'zlashuv ohangidagi muloyimligini myosharat odobi deb atashgan. Muosharat odobi insonning go'dakligida ota-ona bag'rida, oilada shakllantirilishi kerak. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deyiladi xalq maqollarida. Oilada o'rganilgan muosharat odobining poydevori mustahkam bo'ladi. Bola ulg'aygach esa, maktabda, ijtimoiy muhitda ko'nikma hosil qilish jarayonida oilasida o'rganilgan muosharat odobining kuch-qudratini doimo his qiladi.

O'quvchilarga muosharat odobini shakllantirish uchun o'qituvchining o'zi avvalo, xushmuomalaligini namoyish etib, o'quvchilar qalbiga yo'l topa olishi, mehribonligi, ular bilan hamdard, hamfikr bo'lib, o'rnak bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Sharq mutafakkirlari asarlarida muosharat odobi turli ko'rinish va nomlarda bayon etiladi. Jumladan, Al Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida asosiy g'oya – fozil kishilar obrazi. U kim bo'lishidan qat'iy nazar shohmi, gadomi, oddiy fuqaromi fozil kishidir. Shaharning fozil kishilari bir-birlariga nisbatan hurmat va izzatda bo'ladilar. Ota-ona va farzand, ustoz va shogird, do'stlar, qarindoshlar o'rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom mavjud. Forobiy asarida bundan bir necha asr ilgari ham ota-bobolarimizning ma'naviyati naqadar yuksak bo'lganligi va bu avlodlarga o'rnak bo'lishi ta'kidlangan[1]. Onore de Balzak *"Xushmuomalalik va kamtarlik kishining chinakam ma'rifatli ekanligidan dalolat*

[1] Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри – Т.: А. Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993. – 187 б.

beradi" deydi. Ingliz donishmandi Jon Libbok *"Odamlar odob yordamida hattoki kuch bilan erishish mumkin bo'lmagan g'alabalarga erishishi mumkin"*ligini aytadi. Demak, muosharat odobi nafaqat milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizning ko'zgusi bo'lgan, balki barcha xalqlarning noyob insoniy fazilati sifatida e'tirof etilgan. Bu g'oyalar o'z navbatida yosh avlod ta'lim-tarbiyasida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonning eng ulug', lekin murakkab va mashaqqatli faoliyatlaridan biri odamlar orasida, ya'ni jamiyatda o'z o'rnini topib yashashidir. By faoliyatning murakkabligi shundaki, ko'pchilikka qo'shilish, ular bilan ahil bo'lib yashash uchun insonda shunga yarasha muomala va munosabat bo'lishi kerak. Muomala va munosabatda o'quvchilarning diliga to'g'ri kelmaydigan qo'pol va dilozor muloqot olib boruvchi o'qituvchilarni hech kim yoqtirmaydi. O'quvchilar xushfe'l, shirinsuxan, adolatparvar, muomalasi shirin o'qituvchi va tarbiyachilarni dildan yoqtirishadilar va hurmat-e'tibor bilan qarashadi. Insonlar orasida munosib o'rinini topish, inoq va hamjihat bo'lib yashash shartlaridan biri odamning kamtarligidir. Kamtarin inson hech qachon o'zining yutug'i bilan, badavlatligi bilan, ilm-hunari bilan maqtanmaydi, hamma vaqt kamgap, sodda bo'ladi. Ammo insondagi kamtarlik samimiy bo'lmog'i zarur.

Shirin so'z muloqotga kirishishning asosiy qurolidir. U inson qalbini ilitadi, qo'pol so'z inson kalbini jarohatlaydi. O'qituvchining *"aql-zakovati, fikri, his-tuyg'ulari, bilimi va madaniy saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'zda ifoda etiladi. Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi" (Aziz Yunusov).* Chunki so'zning qudrati katta. O'qituvchi o'z so'ziga, tiliga nihoyatda ehtiyotkor bo'lmog'i lozim. Eng avvalo, o'quvchilarga muomala madaniyatini, kattalar oldida o'zini tuta bilishi, gapini bo'lmasligi, yoshi ulug'larga gap qaytarmaslikni o'rgatish zarur.

Muloqot madaniyati hamma joyda kerak. Ish joyida, transportda, uyda biz kim bilan qanday muomala qilishni bilishimiz zarur. O'qituvchining qanchalik bilimli, aql-zakovatli ekanligi o'quvchilarning o'zaro va ota-onalari bilan olib boradigan muloqoti orqali namoyon bo'ladi.

Odamlar butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va munosabatlarini bir-birlariga so'z yordamida yetkazadilar, amalga oshiradilar. Shu tufayli so'zlashuv munosabatlari nihoyatda go'zal va muloyim bo'lishini hayot taqozo etadi. So'z qudrati haqida R.Dekartning quyidagi fikrlari o'qituvchilarga ham bevosita taalluqlidir: *"So'zlarning ma'nolarini, qudratini odamlarga aniq ifodalab tushuntirib bering, shunda siz insoniyat olamini barcha anglashilmovchilik va fojialarning yarmidan xalos qilgan bo'lasiz".*

So'zga boy, shirinsuxan kishilarning muomalalari yoqimli, ishi ham yurishgan bo'ladi. Bunday kishilarni yoqtiradilar, hurmat qiladilar. So'zlashuv ham o'ziga xos san'atdir. Bu san'atning ildizi muosharat odobi bo'lib, uni mukammal o'rganish har bir inson uchun zarur. Shu bilan birga, ona tilini mukammal o'rganmoq va sof adabiy tilda o'quvchilar bilan muloqot qilish o'qituvchining noyob qobiliyatidir.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Pedagogik nazokat me'yorlari o'qituvchidan nimani talab qiladi?
2. O'qituvchi xulq – atvorida pedagogik nazokat qanday shakllanadi?
3. Yosh o'qituvchi qiyin vaziyatlarda pedagogik nazokatning qanday holatlariga rioya qilishi kerak?
4. Pedagogik nazokat tuyg'usi qanday xususiyatlarga ega?
5. Pedagogikada axloq va odobning muhim xususiyati bo'lgan dilkashlikka ta'rif bering?
6. Yosh o'qituvchining kasbiy faoliyatida dilkashlik qanday namoyon bo'lishi lozim?
7. Sharq mutafakkirlari asarlarida mudarrisning muosharat odobi qanday ta'riflangan?
8. O'qituvchining dilkashligini namoyon qiluvchi tarkibiy xususiyatlar?
9. A.V.Mudrik ta'rifi bo'yicha o'qituvchining xushmuomalalilik bilan muloqotga kirishish mezonlarini ayting.
10. O'qituvchining muosharat odobi hozirgi davrda qanday ahamiyat kasb etmoqda?
11. Pedagogik dilkashlikning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
12. So'z qudrati haqida R.Dekartning fikrlarini ifodalab bering.
13. O'qituvchi kasbiy mahoratining asosi bo'lgan pedagogik taktga ta'rif bering.
14. Kasbiy–pedagogik dilkashlikni o'rganish DASTURIni o'qing va javob yozing.

Talabalarning mustaqil tayyorgarliklari uchun topshiriqlar

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o'z fikr – mulohazalaringizni bildirib "Mustaqil ish" yozing:

1. "Hozirgi zamon demokratik jamiyat o'qituvchisining pedagogik nazokati".
2. "Yosh o'qituvchining hushmuomalaligi, dilkashligi va pedagogik takti".
3. "Sharq mutafakkirlari asarlarida o'qituvchining o'quvchilar bilan muomala madaniyati va xushmuomalaligi".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4312785.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent shahri, 2024-yil 1-fevral № O'RQ – 901.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim

sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarori – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2020, 27-28-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" gi PF-134-son Farmoni. https://lex.uz/docs/6008663.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-6476175.
7. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания.- Л.: ЛГУ. 1968.- 340 с.
8. Батарщев А.В. Психодиагностика способности к общению или как определить организаторские и коммуникативные качества личности.- М.: Гуманит. Изд. Центр ВЛАДОС, 1999.- 176 с.
9. Грехнев В.С. Культура педагогического общения: Книга для учителя. – М.: Просвещение, 1990. – 144 с.
10. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi.– T.: O'zbekiston, 1999. – 29 b.
11. Загвязинский В.И. Педагогическое творчество учителя. Библиотека учителя и воспитателя. – М.: Педагогика, 1987.- 160 с.
12. Мудрик А.В. Введение в социальную педагогику.- М.: Ин-т практ. психологии, 1997.- 368 с.
13. Основы педагогического мастерства: учеб. пособие / И. А. Зязюн, И. Ф. Кривонос, Н.Н.Тарасевич и др.; под ред. И.А.Зазюна. - М., 1989.
14. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjaeva va boshqalar) – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. – 380 b.
15. Самуйленков Ф. Мастерство, педагогический такт – это авторитет учителя. – М.: Просвещение, 1990.- 254 с.
16. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri – T.: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – 187 b.

7-BOB.

O'QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATIDA MULOQOT MAHORATINI SHAKLLANTIRISH

Tayanch tushunchalar:

O'zaro muloqot; kommunikatsiya; madaniyat; ma'naviyat; muloqot san'ati; tasavvurlar; g'oyalar; qarashlar; kategoriya; kasbiy mahorat; kommunikativ qobiliyat; intellektual faoliyat; falsafiy va psixologik tajriba; pedagogik kommunikatsiya; muloqot predmeti; bilimlar; pedagogik kommunikatsiya; ko'nikma va malakalar; axborotlar; pedagogik mahorat; falsafa ensiklopediyasi; manipulyatsiya; tafakkur; xotira; tasavvur; diqqat; fan-texnika; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari; kasbiy-pedagogik muloqot; intellektual, emotsional, axloqiy rivojlanish; improvizasion; avtoritar; demokratik; predmetli modellashtirish.

7.1. MULOQOT VA KOMMUNIKATSIYA

Mashhur fransuz adibi A.De Sent-Ekzyuperi o'zining asarlarida kishilarning o'zaro muloqotini "yagona lazzat manbai, inson qalbning ziynatidir" deb, uni inson ma'naviyatining yuksak namunasi sifatida tarannum yetgan. Zero, muloqotsiz nafaqat biror bir faoliyatning amalga oshishi, balki kishilik jamiyatining o'zi ham mavjud bo'lishi mumkin emas. **Muloqot** – yunoncha so'z bo'lib, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o'zaro fikr almashuv ma'nosini bildiradi hamda ikki yoki undan ortiq kishilarning so'zlashuvida paydo bo'ladi.

O'zini yuksak madaniyatli va ma'naviyatli deb hisoblaydigan har bir inson atrof muhitidagi kishilar bilan o'zaro muloqot san'atini mukammal egallashga harakat qiladi. V.I.Safyanovning ta'kidlashicha, har qanday kishi o'z yaqinlari yoki begonalar davrasida o'zini erkin tutishni, barchada o'zi haqida iliq taassurotlar qoldirishni, o'ziga hamda uni o'rab turgan atrof muhitidagi shaxslarga muloqot asosida quvonch keltirishni orzu qiladi. Odamlar orasida obro'-e'tibor bilan yashash, hayotda o'z o'rnini topish mahorati va san'atiga ega bo'lish qanchalik og'ir, biroq zarurligi bilan birga uning bir qator murakkab jihatlari ham mavjud. Uning murakkabligi shundaki, har qanday inson umuminsoniy munosabatlarining me'yor va tamoyillarini bilishi, kishilar bilan muloqotda hamda ijtimoiy hayotda vaziyatni to'g'ri baholay olishi, shuningdek, muloqotning psixologik jihatlariga, bilim va tamoyillariga amal qilib yashay olish darajasiga rioya qilishi bilan belgilanadi[1].

Mashhur pedagog olim B.F.Lomov *muloqotga bir insonning ikkinchi inson bilan hamkorligi asnosida o'z tasavvurlari, g'oyalari, qarashlari, qiziqishlari kayfiyatlari bilan erkin fikr almashinuvi asosida sodir bo'ladigan o'ziga xos shakl sifatida qaraydi.*

Ijtimoiy hayotda atrofdagilar bilan o'zaro muloqot jarayonida har bir shaxs insoniyat tomonidan yaratilgan "ma'naviy boylik zahiralari"ni o'rganadi, shu bilan bir qatorda o'zining tafakkur imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda "ma'naviy zahirasi"ni boyitish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aynan mana shu jarayon inson hayotida muloqotning o'rnini, uning ahamiyati naqadar ulkanligini belgilab beradi[2].

Odamlar orasidagi o'zaro muloqot serqirra jarayon. U alohida murakkab kategoriya sifatida doimo falsafa, sosiologiya, pedagogika va psixologiya kabi fanlarda tahlil qilinib o'z ifodasini topgan. Muloqot o'z ifodasini topayotgan fanlarda muloqotning vujudga kelish hodisasi turli nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Shu boisdan ularda talqin etiladigan *"muloqot"* tushunchasi, so'zsiz bir-biridan keskin farq qiladi.

Aksariyat holatlarda "muloqot" hamda "kommunikatsiya" atamalari parallel tarzda qo'llanilgani bois mazkur tushunchalarning o'zaro muvofiq kelishi yoki nomutanosibligiga oydinlik kiritilishi lozim.

---

[1] Сафьянов В.И. Этика общения: учеб. пособие. – М., 1998.

[2] Ломов Б.Ф. Вопросы общей, педагогической и инженерной психологии. – М., 1991.

Pedagogik adabiyotlar hamda ko'plab olimlarning ilmiy izlanishlarida "muloqot" hamda "kommunikatsiya" (yoki kommunikativ qobiliyat) atamalari sinonim tarzda ishlatilgan.

TUSHUNCHALAR DARAJASI

MULOQOT	KOMMUNIKATSIYA
Kishilar o'rtasida faoliyat, tajriba, bilimlar, ko'nikma va malakalarga doir foydali va hissiy axborotlarning o'zaro almashinuvi	Subyektlarning obyektlar, ya'ni insonlar, hayvonlar, turli texnikalar bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlovchi vosita, axborotlar almashinuvi jarayoni

20-chizma. "Muloqot" hamda "kommunikatsiya" tushunchalarining bir-biridan farqlanishi

Hozirgi zamon pedagogikasida o'qituvchining bilimi tajribasi, pedagogik mahorati bilim oluvchilarning manfaatlari, ehtiyojlari, imkoniyatlari, hamkorlik faoliyatlarini ko'zlagan holda, o'zaro muloqotga asoslangan bo'lishi, shaxsga yo'naltirilgan uzluksiz ta'limni amalga oshirishga qaratilishi dolzarb vazifa sifatida e'tirof etilmoqda.

Barcha davrlarda ta'lim va tarbiyaning samaradorligi va muvaffaqiyati o'qituvchi shaxsi va uning kasbiy mahoratiga bog'liq bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Shu boisdan ham ushbu bobda pedagogik mahoratning ajralmas tarkibiy qismi sanalmish o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi muloqoti xususida mulohazalar yuritiladi.

"Falsafa ensiklopediyasi"da "kommunikatsiya" tushunchasiga qisqacha "Muloqot, ya'ni tilning kommunikativ vositasi, o'zaro muloqot vositasi, fikrlar almashinuvi"[1], deb izoh beriladi.

"Kommunikatsiya" atamasi XX asr boshlariga qadar ilmiy adabiyotlarda faqat "muloqot" ma'nosida qo'llanilib kelingan bo'lsa, hozirgi kunda turli fanlar tomonidan o'ziga xos ma'no va maqsadlarda har xil atamalar bilan ishlatilishi kuzatilmoqda. Ilmiy adabiyotlarning tahlili natijasida "Kommunikatsiya" atamasining (yunonchadan: *kommunikare* – bog'lamoq, umumiy muomala qilmoq) quyidagi uchta ma'nosini ta'kidlab o'tish mumkin:

1. Xabar berish yo'nalishi.
2. Aloqa shakli yoki vositasi (ommaviy axborot vositalari uchun).
3. Ma'lumotlarni yetkazib berish hamda muloqot turi.

Mazkur tushunchalarning omma orasida juda keng tarqalganligiga qaramasdan, ularning darajasiga bo'lgan turlicha talqinlar hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda[2].

[1] Фалсафа энциклопедияси - М.,1994.-Т.3

[2] Зарецкая И.И. Профессиональная культура педагога: учеб. пособие-М., 2002.-С.28.

Kommunikatsiya so'zi umumiy ma'noda o'zaro dinamik tizimlar o'rtasidagi har qanday axborotlarni saqlash, qayta ishlash hamda uzatishni anglatadi. ma'lumotlarni uzatuvchi tizim (gap insonlar, hayvonlar va texnikalar xususida bo'lishi mumkin) – ***jo'natuvchi*** va tegishli tarzda ma'lumotlarni qabul qiluvchi esa ***oluvchi*** sifatida e'tirof etiladi.

Pedagog olim M.S.Kaganning ta'kidlashicha, muloqot bilan kommunikatsiya o'zaro bir-birlaridan quyidagi jihatlari asosida farqlanadi:

1. Muloqot *amaliy, moddiy, ma'naviy, axborot hamda amaliy-ma'naviy* xarakterga ega.
2. Kommunikatsiya atamasi ma'lumotlarni uzatish yo'llari, aloqa vositasi singari boshqa ma'nolarni nazarda tutmaganda, u muayyan biror ma'lumotni yetkazuvchi *axborotlarni uzatish jarayoni*dan iborat bo'lar edi[1].

Kommunikatsiya – bu subyektning boshqa bir ob'ekt (insonlar, hayvonlar, texnikalar) bilan aloqa qilish vositasi orqali, o'zaro axborot almashishi.

Muloqotda jo'natuvchi yoki oluvchi ishtirok yetmasdan, faqat hamsuhbatlar, muloqot ishtirokchilari guruhi mavjud bo'ladi.

Kommunikatsiyada axborotlar oqimi hamda uni uzatuvchi va qabul qiluvchining ishtiroki shart bo'lib, ma'lumotlar faqat bir yo'nalishga qaratilganligi bois axborotlar harakati oluvchida ko'paygani sari uzatuvchida esa kamayib borishi kuzatiladi.

Muloqotda ishtirokchilarning barchasi faol harakatda bo'lishi munosabati bilan ma'lumotlar suhbatdoshlar orasida o'zaro aylanishi natijasida kamaymaydi, aksincha barcha uchun ular *ko'payib, kengayib, boyib* boraveradi.

Falsafiy va psixologik nuqtayi nazardan olib qaralganda muloqot xabarlarni yetkazish yoki axborotlar almashishiga qaraganda o'zgacha kengroq ahamiyat kasb etadi. M.S.Kaganning ta'kidlashicha, muloqot – uning ishtirokchilari uchun yangi axborot (ma'lumot)larni ishlab chiqarish jarayoni hamda ularning hamjihatligini ta'minlovchi vositadir (**6-ilova**).

Muloqot natijasida odamlar o'rtasida nafaqat g'oyalar hamda fikrlar almashinuvi sodir bo'ladi, balki har bir suhbatdoshda psixologik holatlar, shuningdek, inson tafakkurining mulkiy almashinuv hodisalari ham sodir bo'ladi. Muloqot asosida jamoa shakllanadi, fikr almashinuvi esa muloqot a'zolarining bir-biriga yaqinlashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Pedagog olim M.G.Yaroshevskiyning ta'kidlashicha: *"Qachonki qandaydir muloqotlar turi, g'oyalar yig'ilib qolishi natijasida ilmiy muloqot mohiyatining ustunligi to'g'risida gapirish hech qanday asosga ega emas. Haqiqiy jarayon va ustunlik, ilmiy muloqot maktabini o'tagan tadqiqotchilar tafakkurida turli g'oyalarning o'zaro qarama-qarshiligi, to'qnashuvi natijasida tamomila yangilanib shakllanadi va bu g'oya mahsulotlarning paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Ko'z o'ngimizda ijodiy sintez qilingan fenomen namoyon bo'ladi"*[2].

---

[1] *Каган М.С. Мир общения: проблемы межсубьектных отношений.-М.,1988.*

[2] *Ярошевский М.Г. Дискуссия как форма научного общения. //Вопросы философии.-1978. - №3 - С.98.*

Muloqot natijasida suhbatdoshlarning g'oyalari yoki buyumlarining almashinuvi ro'y bermaydi, aksincha har bir sherikning axborot informatsion ma'lumotlar asosida alohida to'plangan "boy"liklari hajmining kengayishi sodir bo'ladi. Muloqotda ***fikrlarning umumiyligi*** ro'yobga chiqadi, fikr almashishda esa suhbatdoshlarning ***xolisligi*** ta'minlanadi.

Muloqotda axborot va ma'lumotlarni uzatishning fundamental farqi shundaki, ularni ma'lum bo'lgan usullar asosida tahlil qilib ajratish talab etiladi: xabar uzatish tizimi ***monologik*** tarzda namoyon bo'lsa, muloqot tizimi ***dialogik*** shaklda amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, bunda butun insoniyat faoliyatidagi muloqotni dialogik tizim sifatida qarash kerak emas, balki kommunikatsiyada qachon monologik nutqdan foydalanish kerakligi, qaysi o'rinda esa yuzma-yuz dialogik nutqdan foydalanish maqsadga muvofiqligi yaxshi samara berishi mumkinligini to'g'ri anglash lozim va ulardan vaziyat taqozosiga ko'ra nisbatan zarur bo'lganiga murojaat qilish va tasavvurga ega bo'lish talab qilinadi.

7.2. PEDAGOGIK KOMMUNIKATSIYA HAMDA PEDAGOGIK MULOQOT MOHIYATI

Hozirgi zamon o'qituvchisi qanday ijobiy sifatlarga ega bo'lishi lozim?

Avvalo, o'zining pedagogik faoliyatini doimiy takomillashtirib borishi, kasbiy sifatlarini rivojlantirishi, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash malakasini egallashi, yangi pedagogik g'oyalarni ishlab chiqa olish, zamonaviy axborot texnologiyalarini dars jarayonida qo'llash ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi, o'z imkoniyatlarini obyektiv baholay olishni bilishi zarur. Ayniqsa, intellektual faoliyat (tafakkur, xotira, tasavvur, diqqat) umuminsoniy madaniyatga va muloqot odobiga ega bo'lishi, o'quvchini bilish, tushunish, hurmat qilish kabi majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi, o'qitishning istiqbolli yo'nalishlari talablari doirasida ta'limning metod, shakl va vositalarini yaratishi va ularni ta'lim jarayonida uzviy qo'llashni bilishi kerak.

Endilikda global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan yuksak pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qilmoqda.

Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash va bilim berish murakkab jarayon bo'lib, qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari sifatida o'qituvchilar jalb qilingan. O'qituvchilar jamiyatning porloq kelajagini barpo etuvchi, dunyoga mashhur mutafakkir va olimlarning davomchisi bo'lgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs sifatida e'tirof etilmoqda.

O'qituvchilik kasbini tanlagan har bir inson ulkan mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

O'quv faoliyatining tashkilotchisi sifatida u o'z faoliyatini munosib bajarishi uchun avvalo, pedagogik muloqotni amalga oshirishning mazmun va mohiyatini, kommunikativ faoliyatni mukammal bilishi zarur.

Pedagogik muloqot mohiyati va uning o'ziga xos jihatlari A.A.Bodalev, A.A.Leontev, N.V.Kuzmina, V.A.Kan-Kalik, Y.L.Kolominskiy, I.A.Zimney, A.A. Rean va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Pedagog olim A.A.Lobanovning e'tirof etishicha, ***kasbiy-pedagogik muloqot,*** –"o'qituvchi-o'quvchi" munosabatlari bilan cheklanmasdan, balki ta'lim yo'nalishiga aloqador bo'lgan boshqa subyektlarni, ya'ni o'qituvchining o'z kasbdoshlari, o'quvchilar jamoasi va ularning ota-onalari, ta'limni boshqaruv idoralari xodimlari, jamoatchilik vakillari bilan o'zaro kasbiy pedagogik hamkorligida namoyon bo'ladi va butun pedagogik faoliyatni qamrab oladi. Mazkur tushuncha pedagogik adabiyotlarda qo'llaniladigan "o'qituvchi muloqoti" tushunchasiga nisbatan kengroq ma'no kasb etadi[1].

"Pedagogik muloqot",- deb yozadi A.A. Leontev, – o'qituvchining o'quvchilar bilan dars yoki darsdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy jarayonda alohida o'quvchi bilan hamda o'quvchilar jamoasi orasida sog'lom psixologik muhitni yuzaga keltirishi, o'quv faoliyati samaradorligini oshirishi, uni optimallashtirishi maqsadida amalga oshiriladigan faoliyatdir[2].

Pedagog olim I.I.Zareskaya pedagogik kommunikatsiya hamda pedagogik muloqot tushunchalari o'rtasida o'ziga xos tafovut mavjudligini e'tirof etadi hamda ularni farqlashning quyidagi xususiyatlarini taklif qiladi: *Agar o'qituvchi ta'lim muassasasidan tashqari turli ob'ektlar bilan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatga taalluqli kompleks hamkorlik olib borsa – bu pedagogik kommunikatsiyadir*; bordi-yu *ta'lim muassasasida pedagogik faoliyat alohida subyekt bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy hamkorlik to'g'risida borsa, demak, bu pedagogik muloqotdir,* deb ta'kidlaydi. Bunday cheklov yoki tafovut ilmiy adabiyotlarda muloqotni inson faoliyatining qizg'in bir turi sifatida tavsiflashga bo'lgan urinishlar bilan izohlanishi mumkin. Ayrim holatlarda odamlarning o'zaro muloqotini amalga oshirish uchun, muloqot boshqalarni o'z tajribasiga, shuningdek, o'zaro hamkorlikdagi faoliyatiga jalb qilish maqsadida qo'llanilishi ta'kidlanadi[3].

Tadqiqotchi V.D.Shishov pedagogik kommunikatsiyaning ta'lim-tarbiya jarayonidagi mohiyatini tahlil qilar ekan, bir qator konseptual holatlarni ilgari suradi. U pedagogik kommunikatsiyani *"ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda axborotlarni muntazam qabul qilish, qayta ishlash va uzatish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkillashtirish usuli"* sifatida talqin qiladi. Informatsion jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan pedagogik kommunikatsiyaning ilmiy asoslarini puxta bilish o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi kommunikativ faoliyatning irodaviy, emotsional hamda rasional sifatlarini doimiy oshirib borish imkoniyatini beradi[4].

---

[1] *Лобанов А.А. Основы профессионально-педагогического общения: учеб. пособие. – М., 2002.*

[2] *Педагогическое общение. – М., 1979.- с. 3.*

[3] *Зарецкая И.И. Профессиональная культура педагога: учеб. пособие. – М., 2002.*

[4] *Шишов В.Д. Сущность и структура понятия "Педагогическая коммуникация" //Понятийный аппарат педагогики и образования. – вып. 1. – Екатеринбург, 1995. – С. 81.*

Y.M.Ivanovning fikriga ko'ra, pedagogik kommunikatsiyaning o'qituvchilar uchun lozim bo'lgan uchta asosiy manbasi mavjud[1].

Y.M.Ivanov ta'limoti bo'yicha o'qituvchi muloqotining uchta asosiy manbasi:

- organizmning hayotiy faoliyatini avtomat tarzda ta'minlab beradigan *ong osti* instinkti va emotsiyasi;
- analitik faoliyatlarni amalga oshiradigan *ong mahsuli;*
- ijodiyot, intuitsiya va tasavvurda namoyon bo'ladigan *ong usti hissiyotlari.*

M.V.Bulanov-Toporkovaning ta'kidlashicha, *pedagogik muloqot* o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik asosida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish va samaradorligini oshirishni ta'minlash maqsadlariga qaratilgan usul va vositalar majmuasidan iborat.

Aytish joizki, mavjud pedagogik-psixologik adabiyotlarda muloqotga kirishuvchi tomonlarning o'ziga xos jihatlarini yoritishga doir ko'plab ma'lumotlar mavjud. E.Byorn ijtimoiy guruhlar, ikki yoki undan ortiq shaxslarning "vaqtni birga o'tkazish"ida *marosimlar tashkil qilish, vaqtni yaqinlar davrasida o'tkazish, o'yinlar, birgalikda hamkorlik hamda o'zaro faoliyat ko'rsatish* kabi vositalari mavjudligini ta'kidlaydi.

V.N.Sagatovskiy muloqotning manipulyatsiya (murakkab vaziyatlarda muloqotdan foydalanish), refleksiv o'yinlar, huquqiy muloqot hamda axloqiy munosabatlar singari to'rtta darajasini ajratib ko'rsatadi.

Y.S.Krijanskaya va V.P.Tretyakovlar muloqotni kishilarning bir-birlarini yaqindan bilishlari uchun eng muhim suhbat vositasi ekanligini e'tirof etgan holda uning *marosimli, manipulyativ (yolg'ondakam) hamda insonparvarlikni namoyon etish* kabi uchta usuli mavjudligini o'z tadqiqotlarida bayon qilishgan. Haqiqatan, e'tirof etilayotgan muloqot usullarini turli xarakterdagi suhbatdoshlar doirasiga xos darajalar sifatida e'tirof etish mumkin.

Darhaqiqat, pedagogik muloqot – bu o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda o'zaro hamkorlikning maqsad va mazmunidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan **kommunikatsiya**ni tashkil qilish, o'rnatish va rivojlantirishning murakkab jarayonidir.

Pedagogik muloqot – bu o'zaro munosabatlarning o'ziga xos bir original turi hisoblanadi, shunday bo'lishiga qaramasdan, u bir shaxsning ikkinchi bir shaxs bilan o'zaro muloqotga kirishishida mavjud bo'lgan umumiy psixologik qonuniyatlarga bo'ysunadi.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi muloqoti, o'zaro munosabatlarning asosiy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan kommunikativ, interfaol hamda perseptiv funksiyalar amalga oshiradi.

[1] Иванов Ю.М. Как управлять собой и влиять на других людей. – М., 1991.

7.3. PEDAGOGIK MULOQOTINING TARKIBIY QISMLARI VA FUNKSIYALARI

A.A.Lobanovning ta'kidlashicha, pedagogik muloqot, o'qituvchining kundalik hayotida amalga oshiriladigan muloqotining deyarli barcha asosiy vazifalarini o'zida aks ettirishi bilan bir qatorda o'ziga xos va bir-biri bilan bog'liq bo'lgan qator funksiyalariga ega. Ularni o'qituvchining hozirgi zamon pedagogik mahorati nuqtayi nazaridan tahlil qilib quyidagicha ta'riflash mumkin:

1. Axborot funksiyasi ma'lum bir ijtimoiy-maishiy, o'quv-uslubiy, izlanuvchanlik, ilmiy-tadqiqotlarga oid axborotlarni muloqot asosida ikkinchi bir shaxsga yetkazib berishni nazarda tutadi. Bu funksiyani amalga oshirish bilan to'plangan hayotiy tajriba, ilmiy bilimlarni transformatsiya qilish asosida shaxsning jamiyat moddiy va ma'naviy qadriyatlariga aralashuviga ko'maklashadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilar uchun muayyan bir fan, adabiyot, san'at, madaniyat yoki amaliy faoliyatning biror sohasiga doir axborotlar manbai sifatida gavdalanadi. Shuning uchun ham o'qituvchi bilan muloqot asosida o'quvchilar uchun tegishli axborotlarning tanlanib saralanishiga olib keladi.

2. Tarbiyaviy funksiya. Pedagogik muloqotning tarbiyaviy funksiyasi o'qituvchining kasbiy faoliyatida markaziy o'rinni egallaydi. O'qituvchi tarbiyaviy funksiyadan kelib chiqadigan asosiy maqsadlarni to'g'ri tanlashiga bog'liq hamda volyuntaristik (ko'ngilchanlik) xarakterga ega bo'lmasligi lozim. Tarbiyaviy funksiya pedagogikaning nazariy va amaliy qonuniyatlari, jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar, ushbu jarayon yuzasidan qabul qilingan maxsus qonun va qoidalar asosida belgilanadigan maqsadlar va milliy qadriyatlar to'g'risidagi falsafiy tasavvurlar, shuningdek jamiyat va davlat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

3. Kishilarning bir-birlarini muloqot asosida to'g'ri anglashi. O'qituvchi har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini, jismoniy, intellektual, emotsional, axloqiy rivojlanishini, o'qishga va mehnatga nisbatan motivatsiyasini, o'ziga nisbatan hamda atrof muhitdagi kishilarga bo'lgan munosabatlarini, o'zaro individual xususiyatlarini yaxshi bilishi shart. O'z navbatida, o'quvchilar ham o'zlari bilan qanday o'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy faoliyat olib borayotganini, uning inson sifatidagi yoki mutaxassis sifatidagi mahoratiga, bilim darajasiga befarq bo'lishmaydi. Ular uchun o'qituvchining qanday muomala qilishi yoki qanday munosabatda bo'layotganligi juda muhim. Chunki faqat bir-birlari bilan o'zaro muloqot hamda hamkorlik faoliyati asosida o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi xarakterlarini, xususiyatlarini yaxshi anglaydilar.

4. Ta'lim muassasasida ishlab chiqarish, ilmiy bilish hamda o'yin faoliyatlarini tashkil qilish va xizmat ko'rsatish. Ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan har qanday pedagogik faoliyat turiga xos muloqotni tashkil qilish *muloqot vositasi* hisoblanadi. O'qituvchi aynan muloqot orqali o'quvchilarning bilish, anglash kabi amaliy faoliyatlarining samaradorligi haqidagi axborotlarni aniqlash imkoniyatiga ega. Shuning uchun ham pedagogik jarayonda muloqot biror bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatga xizmat ko'rsatishga yordam berayotgan bo'lishiga qaramasdan, avvalo, shaxsning ta'lim-tarbiyaviy faoliyati sifatiga o'zining muhim ta'sirini ko'rsatadi.

5. Boshqa kishilar bilan muloqotga kirishish uchun ehtiyoj hissini ro'yobga chiqarish. Odamlar doimo o'z psixologik toliqishlari va ruhiy charchoqlaridan qutilish, kundalik turmush tashvishlari va quvonchlari to'g'risida boshqalar bilan o'rtoqlashishga intilib yashaydilar. Buning yaqqol dalili sifatida sinfdoshlar, hamkasblar yoki kursdoshlarning o'zaro bir-birlari bilan uchrashuvlarini keltirish mumkin. Inson bunday uchrashuvlardan olgan o'ziga xos boy *(hayotda erishgan yutuqlari, xotiralari, o'z shaxsiy hayotini do'stlariniki bilan taqqoslash)* taassurotlaridan qoniqish hissi bilan yashashi uchun qizg'in muloqotga ehtiyoj sezishadi. Ta'lim muassasalarida o'qituvchi o'quvchilarning tengdoshlari bilan muloqotda qoniqish hissini darsdan tashqari tarbiyaviy jarayonlarda shakllantirib borishlari mumkin.

6. Suhbatdoshni muloqotga jalb qilishda tashabbuskor bo'lish. Bu ayniqsa ota-onalar va bolalar, o'qituvchi-o'quvchilar jamoasi hamda alohida o'quvchi o'rtasidagi muloqotda muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar bilan pedagoglarning vazifasi kattalar hayotida muhim o'rin egallaydigan umuminsoniy qadriyatlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishishni ta'minlashda ularga yaqindan yordam berishdan iborat bo'ladi.

Hozirgi zamon o'quvchilari kompyuter va axborot texnologiyalarini kattalarga nisbatan mukammalroq egallashgan, xorijiy tillarni yaxshi biladilar, personal kompyuterlardan tez va samarali foydalanadilar, sport va san'atda ham yuqori natijalarga erishadilar. Shu bilan bir qatorda ularning ayrimlari o'z ustozlari bilan yutuqlari, egallagan bilimlari hamda tajribalari bilan o'rtoqlashishni ham uddalamoqdalar. Ota-onalar va pedagoglar o'z farzandlari yoki shogirdlarining tajribasini, yoki o'z bilganlarini o'rganishdan cho'chimaydilar, chunki aynan shu muloqot tomonlar o'rtasidagi samimiy munosabatlarning shakllanishiga olib kelishini ular yaxshi biladilar.

7. Suhbatdoshi e'tiborini o'zining yaxshi jihatlariga qaratish, o'zidan o'rnak olishga chaqirish. Mazkur jarayon bevosita kishining o'z-o'zini tarbiyalashiga olib keladi. Muloqot asosida tashabbuskorlikni shakllantirish bu boshqa shaxslardan o'rnak olgan, nusxa ko'chirgan holda o'zining "Men"ini yaratish jarayonidir. Bunday shaxs vazifasini ota-ona, o'qituvchi, o'rtoq, sevgan yigiti (qizi), asar yoki kino qahramoni, san'at va sport sohasidagi o'quvchining ideal obrazlari siymosida amalga oshirishi mumkin.

O'zi uchun o'rnak, namuna bo'ladigan shaxsga qarab o'quvchilar tashqi ko'rinish (kiyinishi, soch turmagi, o'zini tutish)lari, uning qarashlari(nima dedi, nimani yoqtiradi,

nimani yomon ko'radi)ga taqlid qiladilar. Buning natijasida bola boshqa shaxsdagi mavjud xususiyatlarni taqlid qilish orqali asta-sekinlik bilan o'zida o'zlashtirib, xarakterida shakllantirib boradi.

Agar uning sevimli qahramoni o'z o'qituvchisi bo'lsa, u holda o'quvchi nafaqat uning tashqi ko'rinishlarini, balki xatti-harakatini, xarakter xususiyatlarini, insoniy fazilatlarini, mas'uliyatni his yetishini, axloqiy jihatlarini, muomala madaniyatini ham o'zlashtiradi. Bu esa har bir o'qituvchining o'z o'quvchilari uchun har tomonlama o'rnak, namuna bo'lishga harakat qilishi ham pedagogik mahoratning bir shakli sifatida naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

8. O'quvchini muloqot faoliyatiga tayyorlash funksiyasini pedagog olimlar V.Y.Pityukov hamda N.E.Shurkovalar o'zlarining pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarida atroflicha yoritib berishgan[1]. O'quvchilarni qizg'in muloqotga tayyorlash unda atrof muhitidagi do'stlari, tengdoshlari, yoshi katta kishilar bilan fikr almashishga o'rgatish, muloqot jarayonida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy psixologik to'siqlarni olib tashlash, mavhum jarayon va hodisalardan qo'rqmaslikka ularni o'rgatish, avvalo, o'qituvchidan begonasiramaslik, boshqa shaxslarning, jumladan o'qituvchining o'ziga nisbatan mehribonligini, samimiy munosabatda bo'lishi mumkinligini anglab yetishlariga yordam beradi. Muloqotning e'tirof etilayotgan funksiyasini amalga oshirishda o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotda nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashishi, o'quvchining ichki dunyosini ko'ra olishi, o'quvchining psixologik xususiyatlarini bilmasdan, unga nisbatan turli tarbiyaviy choralar qo'llamaslik, ularning yosh jihatlariga qarab muloqot qilishning o'ziga xos metodlarini mustaqil ishlab chiqishi, ular bilan samimiy munosabatda bo'lish, beg'arazlik, o'quvchilar kelajagi uchun mas'ulligini bildira olish hamda ularga bolalarni ishontira bilishi muhim ahamiyatga ega.

9. O'quvchini muloqot ishtirokchisiga aylantirish funksiyasi o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotga kirishishida ularni qo'llab-quvvatlashiga xizmat qiladi. Bunda o'quvchi shaxsiga, uning ta'lim va tarbiya jarayonida erishayotgan yutuqlariga nisbatan qiziqishni ifodalay olish, uni sidqidildan tushunib tinglash, o'quvchiga o'zining beg'araz yordamini tavsiya eta olishi juda muhim. O'qituvchining ana shunday muloqoti o'quvchini har taraflama mukammal bilishga harakat qilishi, o'quvchilarning aksariyat holatlarda yaqin insonlariga ko'nglini ochishni istamaydigan ichki dunyosiga kirishi, hamda o'quvchining suhbat asnosida o'z "Men"ini topishiga yordam berishi va uni bemalol atrof muhitga, jamoada namoyon qila olishiga keng sharoit yaratadi.

10. O'quvchi shaxsini ruhlantirish. Mazkur funksiyani amalga oshirish o'quvchining ma'naviy kamolotiga, uning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Maktab o'qituvchisining o'quvchi bilan muloqoti natijasida uni o'rab turgan atrof muhitdagi shaxslarga nisbatan mehr, e'tibor, o'zaro hurmat kabi ko'plab ijobiy xislatlar shakllanadi.

[1] Питюков В.Ю. Основы педагогической технологии. – М., 1997; Щуркова Н.Е. Практикум по педагогической технологии. – М., 1998.

Demak, muloqotning ta'riflab o'tilgan uslublarining har biri o'qituvchi faoliyati uchun o'ta muhim bo'lgan muloqot funksiyalarini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu funksiyalar pedagogik faoliyatda muloqot muhim funksional, o'qituvchi uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli vosita sanalib, o'zaro ta'lim va tarbiyaviy ta'sir quroli sifatida namoyon bo'lishini, bunda muloqotning muhim shartlari va vazifalariga qat'iy rioya qilinishi e'tirof etadi. Ma'lum bir maqsadga qaratilgan ta'lim-tarbiyaviy jarayonda muloqot ijtimoiy vazifaga aylanadi, natijada o'qituvchi pedagogik muloqot qonuniyatlarini puxta bilishi, muloqot madaniyatiga ega bo'lishi talab qilinadi.

N.V.Kuzminaning ta'kidlashicha, o'qituvchi pedagogik faoliyatining so'nggi daqiqalariga qadar professional darajada qolishni, shogirdlari orasida hurmat-e'tiborga ega bo'lishni istaydi. Buning uchun undan avvalo, ularni doimo ruhlantirishi, kayfiyatini ko'tarishi, o'z o'quvchilariga nisbatan mustaqil kommunikativ muloqot tizimiga, tashkilotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratishi hamda o'quvchilarga erkin va samimiy munosabatda bo'lishni mukammal o'zlashtirishi talab etiladi[1].

7.4. O'QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATIDA MULOQOT USLUBLARI

Ta'lim muassasalarida o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik faoliyati dars va darsdan tashqari turli ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarda namoyon bo'ladi. Ular davomiylik nuqtayi nazaridan muayyan chegaralarga ega. O'qituvchining muloqoti o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro munosabatlari bilangina cheklanmasdan, balki o'z tarkibiga muloqotning boshqa turli uslublarini ham qamrab oladi.

Ta'kidlash joizki, nafaqat pedagogikada, balki psixologiyada ham muloqotning har xil uslublari tahlil qilingan. Jumladan, psixolog olima G.M.Andreevaning ta'limoti bo'yicha odamlar o'rtasidagi o'zaro muloqot jarayoni kommunikativ, interfaol, perseptiv kabi uchta asosiy uslublarga bo'linib o'rganilishi ta'kidlanadi (10-chizma). Ushbu bo'linish psixologiya fanida G.M.Andreevaning odamlarning bir-biri bilan o'zaro "Muloqot tizimi" deb nomlanadi.

[1] Кузьмина Н.В., Реан А.А. Профессионализм педагогической деятельности. – СПб., 1987.

Muloqot tizimi (G.M.Andreyeva ta'limoti bo'yicha)

1. Kommunikativ uslub: ta'lim-tarbiya jarayonida muloqot subyektlarining bir birlari bilan axborotlar almashinuvi;
2. Interfaol uslub: odamlarning nafaqat bilimlari, g'oyalari va tafakkurlari bilan, balki o'z xatti-harakatlari bilan ham fikr almashinuvlari;
3. Perseptiv uslub: suhbatdoshlarning bir biri bilan muloqot asosida o'zaro hamkorligi va uning natijasida bir-birlarini anglashlari.

21-chizma. Muloqotning tarkibiy qismlari

Pedagog olimlar V.A.Kan-Kalik va N.D.Nikandrovlar muloqotning quyidagi asosiy bosqichlarini muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab ajratib ko'rsatishadi.

1. Bashorat qilish bosqichi – o'qituvchining muloqot asosida sinf, auditoriya vakillari (kattalar yoki bolalar) ishtirokida bevosita amalga oshiradigan kasbiy faoliyatidagi bo'lg'usi suhbatini modellashtirish.
2. Muloqotning boshlanish bosqichi – auditoriya yoki sinf vakillari bilan bevosita suhbatni boshlashda o'zaro muloqotni tashkillashtirish.
3. Uzluksiz rivojlanib boradigan pedagogik jarayondagi muloqotni boshqarish.
4. Amalga oshirilgan muloqot tizimi bilan bo'lg'usi faoliyatda amalga oshirilishi lozim bo'lgan muloqotning modellashtirish tizimini qiyociy tahlil qilib borish[1].

Insonlarning o'zaro munosabatlari, jumladan, ularning ta'lim-tarbiyaga qaratilgan pedagogik jarayondagi hamkorlik faoliyatlari bir-birlariga hurmat bilan qaraydigan teng huquqli subyekt- subyekt munosabatlari doirasida amalga oshiriladi. E'tirof etilayotgan shart-sharoitlarga amal qilish asosidagina shaxslararo yaqin munosabat yuzaga keladi, natijada o'zaro ijobiy dialogga yo'l ochiladi, suhbatdoshlardan birining ikkinchisini qalban anglashiga, unga ta'sir o'tkazishiga imkoniyat yaratiladi.

Pedagogik faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan ***o'qituvchining rang-barang muloqot uslublari***ga ham bog'liq. Ta'lim-tarbiyada muloqotni ijobiy amalga oshirish uslubi nima va u tufayli muvaffaqiyatlarga qanday erishiladi? avvalo, bu o'rinda "uslub" so'zining o'zini pedagogik mazmunini izohlashga harakat qilib ko'ramiz.

Mashhur ingliz yozuvchisi Jonatan Svift ***uslubni*** o'z o'rnida ishlatiladigan so'z yoki insonning auditoriya darajasida hamda davraga moslab muloqot qila olish san'ati deb hisoblaydi. Odamlarning *"Ma'noli va bejirim gapira bilishi, nutq daryosidagi maqbul va nomaqbul to'lqinlarni ilg'ay olishi, so'zning orqa o'ngini, munosib o'rnini farqlay bilishi, nutqiy fahmu farosat, taxrli so'z odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqining, ma'naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan"* deb ta'kidlaydi o'z tadqiqotlarida tilshunos olim N.Mahmudov[2].

[1] *Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д.* Педагогическое творчество. – М., 1997.

[2] *Mahmudov N. O'qituvchi nutq madaniyati.* Darslik. – T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. – 185 b.

Uslub so'zi pedagogikaga oid adabiyotlarda, jumladan, pedagogik lug'atda inson hayoti va faoliyat tarzi sifatida izohlangan. A.A.Bodalev uslubga har bir kishining yashash va harakat tarzi, turli davralarda o'zini tuta bilish maneralarining individual o'ziga xos xususiyatlari sifatida qaraydi[1].

Pedagogik uslub klassifikatsiyasi mavjud adabiyotlarda turli tavsiflarga, qarashlarga ega bo'lib, ular har-xil ilmiy qarashlar nuqtayi-nazaridan quyidagicha ifodalangan:

• ***reglamentga ega bo'lgan uslub*** - pedagogik jarayon ishtirokchilari vazifalarining va funksiyalarining qat'iy talablarga bo'ysundirilishini, shuningdek, muayyan shablon hamda qonuniyatlarga amal qilishini talab qiladi. Odatda, bu uslub ustunlikka ega bo'lib, o'quv-tarbiya jarayonining mukammal, aniq va puxta, samarali tashkil qilinishida muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

• ***improvizasion (maxsus tayyorgarliksiz amalga oshiriladigan) uslub*** – pedagogik jarayonda ta'lim-tarbiya sohasida yuzaga keladigan ziddiyatlar hamda favqulotda holatlar yuzasidan o'sha paytning o'zida vaziyatga qarab muhim va aniq qarorlar chiqara olishni taqozo yetishi bilan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Biroq, bu kabi vaziyatlarda har bir individning tezda to'g'ri xulosa chiqarish darajasi turlicha bo'lganligi bois, tajribada o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikda har doim ham ushbu uslubning muvaffaqiyatli amalga oshavermasligi kuzatilgan.

A.V.Petrovskiy, Y.L.Kolominskiy, V.V.Shpalinskiy, M.Y.Kondratev kabi olimlar o'z izlanishlarida pedagogik uslub muammosiga alohida to'xtalishgan. Ularning asarlarida e'tirof etilishicha, pedagogik jarayon ishtirokchilarining tutgan mavqeyi, o'rni mezonlaridan kelib chiqqan holda uslublarni *avtoritar, demokratik hamda loqaydlik* kabi uchta turlarga ajratish lozim.

Taniqli psixolog olim V.A.Kan-Kalikning ta'kidlashicha, kishilarning muloqoti juda nozik faoliyat sohasi hisoblangani uchun uni egallash, o'zlashtirish uchun shaxsdan mukammal darajadagi qiziqish, intilish va istak talab qilinadi. "Muloqot uslublari deganda,- deb yozadi, biz o'qituvchi bilan o'quvchilarning individual o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-psixologik hamkorlikdagi o'zaro munosabatlarini tushunamiz"[2].

V.A.Kan-Kalik ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi pedagogik muloqotning quyidagi uslublarini ajratib ko'rsatadi:

1. Pedagogik jarayonning barcha sohalarini qamrab oladigan **yuqori darajadagi kasbiy ko'rsatmalarga asoslangan o'qituvchining pedagogik muloqot uslubi.** Odatda, bunday o'qituvchilarning ortidan o'quvchilar doimo ergashib yurishadi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida talabalar mutaxassislik kafedralarining yetakchi professor-o'qituvchilari bilan bo'lajak hamkasblar sifatida yaqindan muloqot qilishga harakat qiladilar.

2. Do'stona samimiy munosabatga asoslangan pedagogik muloqot uslubi o'zaro umumiy qiziqish hamda manfaatlar uyg'unligi mavjud shaxslar orasida amalga oshiriladi. Hamkorlik asosida amalga oshiriladigan o'quv – tarbiya jarayonining bunday muloqotida o'qituvchi murabbiy, yaqin o'rtoq, maslahatchi rolini ijro eta olishi lozim. Lekin

---

[1] Бодалев А.А. Психология обучения. //Избр. психол. труды. – М., 1997.

[2] В.А.Кан-Калик. Учителю о педагогическом общении. –М.1987.- С. 94

bu o'rinda o'qituvchi-o'quvchilar munosabatlarida belgilangan pedagogik me'yorlarga amal qilish, munosabatlarning o'quvchi yoshiga nisbatan muvozanatda saqlash, ustoz-shogird chegaralaridan chiqmaslik maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, yosh o'qituvchilar ta'lim muassasalarida turli ziddiyatli vaziyatlardan qochish uchun aksariyat hollarda o'quvchi yoki talaba bilan "yaqin do'stona" munosabatda bo'lishga harakat qiladilar.

3. Masofali muloqot uslubi ta'lim muassasalarida pedagogik muloqotning eng ko'p tarqalgan uslublaridan biri hisoblanadi. Bu uslubdagi muloqotda o'qituvchi yoshi, tajribasi, mukammal bilimga va ilmiy tafakkurga egaligi, obro'si bilan o'quvchilardan yaqqol farqlanib ma'lum bir masofada turishga majbur qiladi. Bunday masofali uslub "o'qituvchi-o'quvchi" munosabatlarini shakllantiradi.

4. Majburiy yoki qo'rqitishga asoslangan muloqot uslubi – muloqot uslubining salbiy, noinsoniy shakli, odatda pedagogik tajribasi, mahorati yetarli bo'lmagan, muloqotda biror ko'nikma va malakaga ega bo'lmagan o'qituvchilar tomonidan pedagogik jarayonda amalga oshirishga harakat qilinadi.

5. O'ynoqi muloqot uslubi – endigina pedagogik faoliyatini boshlayotgan yosh o'qituvchilarga xos bo'lgan faoliyat uslublaridan biri. Muloqotning mazkur uslubidan foydalanish asosida ular tezda obro'-e'tibor qozonishni orzu qiladilar, lekin bunday urinishlar natijasida soxta, vaqtinchalik, yolg'on obro' orttirilgani muloqotning har ikkala tarafidagilarga keyinchalik ma'lum bo'lib qoladi.

Pedagogik amaliyotda o'qituvchilar bir nechta muloqot uslublarini aralash tarzda qo'llash holatlari ham tez-tez uchrab turadi, ammo shunday bo'lishiga qaramasdan qo'llanilayotgan uslublarning qaysi biridir o'qituvchi pedagogik faoliyatida yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Taniqli pedagog V.A.Kan-Kalik o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishishi uchun, o'zaro munosabatlarni to'g'ri tashkil qilish maqsadida amalga oshirayotgan pedagogik muloqotning sanab o'tilgan uslublaridan o'rinli foydalanishni, ularga amal qilishni tavsiya qiladi.

Xorijiy mamlakatlarda o'qituvchining muloqot uslubi. So'nggi yillarda xorijiy mamlakatlarda pedagog olimlar tomonidan o'qituvchi muloqot uslubining bir qator qiziqarli klassifikatsiyalari yaratildi. Ayniqsa, hozirgi kunda Yevropa mamlakatlarida M.Talen tomonidan ishlab chiqilgan *muloqot tipologiyasi* keng qo'llaniladi. Bir necha modellardan iborat o'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyati pozitsiyasi nuqtayi nazaridan tavsiya qilingan ushbu muloqot tipologiyasini e'tiboringizga havola qilamiz:

I model: *"Sokrat".* Ushbu toifadagi o'qituvchilar o'quvchilar bilan dars jarayonida turli mavzularda bahslashishadi, o'z mulohaza hamda mushohadalari bilan ularni o'rganilayotgan mavzuga jalb qilishga moyil bo'lishadi. Bu uslubga individuallik xos bo'lib, ta'lim jarayonida muayyan belgilangan dars reglamentiga aksariyat holatlarda amal qilinmaydi, o'rganilayotgan mavzuga oid bilimlarga o'z nuqtayi nazarini o'quvchilar oldida doimiy tarzda himoya qilishga harakat qiladi va o'quvchilarni ham shu jihatlarga o'rgatadi.

II model: *"Jamoadagi butun guruh munozarasiga rahbar".* Ushbu toifadagi o'qituvchilar muloqotdan asosiy maqsad butun sinf o'quvchilari orasida bir-birini tezda

anglashga qodir bo'lgan sog'lom muhitni yaratish deb biladilar hamda bu jarayonda o'zlarini vositachi deb hisoblaydilar. Ular uchun bahs-munozarada tomonlarning yagona bir demokratik kelishuvga asoslanishi, munozaraning har qanday natijalaridan ham muhimroqdir.

III model: *"Ustoz"*. Mazkur toifadagi o'qituvchilar o'quvchilar uchun nafaqat o'z bilim-tajribalari bilan, balki butun pedagogik faoliyati, muloqotda shirinsuxanligi, hayoti davomida erishgan ulkan yutuqlari, xulq-atvori, axloqi, hamkasblariga hamda atrofidagi insonlarga namuna bo'ladigan munosabatlari bilan har tomonlama o'rnak bo'la oladilar.

IV model: "General". Ta'lim-tarbiya jarayonida har qanday ikkilanishlardan holi bo'lgan o'z talablarini joriy qiladi, o'quvchilarga xuddi harbiy xizmatchilarga bo'lgan kabi qattiqqo'llik bilan munosabatda bo'ladi va ularni tartib-intizomga qat'iy bo'ysunishga majbur qiladi. Olimlarning e'tirof yetishiga ko'ra muloqotning bu uslubi ko'plab mamlakatlarning ta'lim-tarbiya tizimida boshqa muloqot uslublariga nisbatan juda keng tarqalgan.

V model: "Menedjer". Muloqotning ushbu uslubi ta'lim jarayoni radikal tarzda yo'lga qo'yilgan ta'lim muassasalarida ko'p tarqalgan va unda o'quvchilarning erkinligi, mustaqil faolligi, tashabbuskorligi rag'batlantirilib boriladi. Ulkan imkoniyatlar yaratilishi asosida ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiyada samaradorlikning yuqori darajada tashkil qilinishiga erishiladi. O'qituvchi ta'lim-tarbiyaga taalluqli bo'lgan muammolarni hal qilishda har bir o'quvchi bilan individual muloqotga kirishishga, ularni xolisona baholashga, shuningdek, nazorat qilishga intiladi.

VI model: *"Trener"*. Sinf jamoasi bilan muloqot muhiti hamkorlikka va hamjihatlikka asoslanadi. Sinf o'quvchilari xuddi bir sport jamoasining alohida komandasi singari o'zaro bir-birlariga yordam, qo'llab-quvvvatlash faoliyati asosida birgalikda harakatlanishlari orqali ta'lim sohasida ulkan natijalarga erishadilar. O'qituvchining pedagogik faoliyati muloqot asosida o'quvchilar jamoasini yutuqlarga yo'naltirish va ruhlantirishga qaratiladi. Bu tipdagi faoliyatning yakuniy natijasi o'quvchilar nafaqat ta'lim-tarbiya sohasida, balki sport, turli to'garaklar, bilimlarni o'zlashtirishda ham yorqin g'alaba, muvaffaqiyat hamda yutuqlarga qarab olg'a intilishi va ijobiy natijalarga erishishi bilan belgilanadi.

VI model: *"Gid"*. O'qituvchi o'z kasbining jonli ensiklopediyasi sifatida o'quvchilarni qiziqtiradigan barcha ma'lumotlarni o'zida mujassam yetgan. Hamma narsani biladi, aniq hisob-kitobga ega va sabr-qanoatli. O'quvchilar tomonidan beriladigan har qanday savollarni oldindan biladi va ularga mukammal javob berish uchun hamisha tayyor turadi. Eng so'nggi texnologiyalarni mukammal o'zlashtiradi, xotirasi va bilish qobiliyati juda kuchli, shu bois ham ba'zan sinfdagi oddiy jarayon yoki o'quvchining javobidan qanoatlanmaganligi, zerikayotganligi darhol yuz ifodalarida namoyon bo'ladi.

M.Talen yuqorida sanab o'tilgan pedagogik muloqot uslublarini tasnif qilishda o'quvchi faoliyati, talab va ehtiyojlarini emas, balki o'qituvchi faoliyati hamda ehtiyoj va imkoniyatlarini asos qilib oladi.

O'qituvchining pedagogik mahorati ko'p jihatdan uning muloqot uslubini mukammal egallaganligiga, turli sharoitlardan kelib chiqqan holda ularni vaziyatga qarab o'zgartira olish layoqatiga egaligiga hamda mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish darajasiga bog'liq.

7.5. O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MULOQOTIDA IJOBIY NATIJALARGA ERISHISHINI TA'MINLOVCHI YO'NALISHLAR

O'qituvchining pedagogik faoliyatida muloqot o'quvchilarga zamon talablari asosida ta'lim va tarbiya berish vazifalarini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta'minlash tizimi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa o'qituvchilar oldida ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlarning yetakchi amalga oshiruvchisi sifatida yanada jiddiy va murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Ayniqsa, hozirgi kunda kompyuter va axborot texnologiyalarining rivojlanib borishi natijasida o'quvchilar ahamiyatsiz turli ma'lumotlar girdobiga tushib qolmoqdalar. Bu holat ularda muloqot madaniyatini shakllantirishga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy-psixologik, tarbiyaviy va ma'naviy vazifalarning murakkabligi o'qituvchilarning muloqot jarayoniga jiddiy e'tibor berib, qizg'in tayyorgarlik ko'rishni talab qilmoqda. O'qituvchilar o'z kasbiy faoliyati va individual pedagogik mahoratlaridan, xarakterlaridan, ta'lim va tarbiyaning hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, muloqotda yuksak pedagogik va psixologik natijalarga erishishlari uchun, ko'p yillik nazariy va amaliy tajribalardan, shu sohada olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlaridan unumli foydalanib muloqotning o'zlariga xos bo'lgan yo'nalishlarini tuzib olishlari va boyitib borishlari mumkin. Quyida sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan muloqot yo'nalishlarini tavsiya etamiz. O'qituvchi ushbu yo'nalishlarni boyitib borishi, yoki o'ziga moslashtirib o'zgartirishi ham mumkin:

1. *O'qituvchining individual pedagogik faoliyati uchun mustaqil muloqot qilish uslublarini tanlashi:* O'qituvchi sinf jamoasidagi har bir o'quvchining oilaviy ahvoli, sog'ligi, xarakter va yosh xususiyatlari, qiziqishi, uni o'rab turgan ijtimoiy muhit bilan bevosita tanishib o'zi uchun muloqot qilish modelini shakllantiradi. Bunda o'qituvchi aslo adashishi mumkin emas, zero u har bir o'quvchiga yil davomida muloqot orqali ta'lim-tarbiya berib uning natijasini ko'ra oladi. O'quv yilining boshida muvaffaqiyatli tashkillashtirilgan muloqot har bir o'quvchida ijobiy xislatlarni boyitadi. O'qituvchining pedagogik faoliyati hech qanday ziddiyatlarsiz olib boriladi. Bir o'quvchi uchun noto'g'ri tanlangan muloqot qilish uslubi jiddiy ko'ngilsiz vaziyatlarni kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.
2. *Muloqot asosida tarbiyaviy ta'sir etish metodlarini tanlash va ulardan oqilona foydalanish:* O'qituvchi fikr mulohazalarini ta'sirchan nutqi orqali o'quvchilarning bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, xatti-harakatiga ta'sir etadi va uni qisman o'zgartiradi. O'quvchilar bilan dastlabki muloqotni tashkil etish jarayonidayoq o'zaro ta'sir metodlaridan bevosita foydalanib, tashabbuskorlikni qo'lga olish nihoyatda murakkab. Bunda to'g'ri tanlangan ta'sir etish metodlari muhim ahamiyatga ega. Zero tarbiyaning har bir usuli, muloqot orqali aloqa

o'rnatishning samaradorligiga bog'liq. Ushbu jarayon bevosita o'qituvchining individual fikr almashuvi (refleksiya) bilan bog'liq xususiyatlariga, o'quvchilar ruhiy holatini fikr tezligi bilan uqib olish san'atiga va pedagogik ta'sir ko'rsatishning usullarini o'z o'rnida bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikda qo'llay olishiga bog'liq.

3. *Tobora takomillashib, rivojlanib borayotgan pedagogik faoliyatda muloqotning yangi texnologik shakllaridan unumli foydalanish va uni boshqarish:* Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan mukammal pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi. Endilikda o'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash ta'lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o'qituvchilar mehnat faoliyatining o'zgarishiga, pedagogik mahoratlarini yanada takomillashtirishga ta'sir etmoqda. Shu sababdan ta'limning o'qituvchi-darslik-o'quvchi paradigmasi o'quvchi-darslik-o'qituvchi paradigmasi bilan o'rin almashadi. Kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal sur'atda rivojlanishi hozirgi zamon o'qituvchisining pedagogik mahorati naqadar serqirra bo'layotganligidan dalolat bermoqda.

4. *O'qituvchining bo'lajak pedagogik faoliyat uchun olib boradigan muloqot tizimini modellashtirishi:* Modellashtirish – predmetlar va hodisalarning mavjud bo'lgan hamda quriladigan modellarini o'rganish va ishlab chiqishdir. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchilar bilan bo'lajak muloqotni ishlab chiqishi va amalga oshirishda modellashtirishdan foydalanishi va ularni yaxlit pedagogik hodisa sifatida o'rganib chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi. Modellashtirishning shakli va qo'llanilishi foydalaniladigan modellar va ularni qo'llanish sohalariga bog'liq. O'quvchilar bilan muloqotning samaradorligini oldindan ko'ra bilish yoki loyihalashtirishda modellashtirishdan foydalanish to'g'risidagi muammo "pedagogik modellashtirish" deb nom olgan.

   Modellar xarakteriga ko'ra predmetli va belgili (informatsion) modellashtirishga bo'linadi. Shartli ravishda ular alohida ob'ektning belgilangan funksional xususiyatlarini ifodalaydi. Pedagogik faoliyatda maxsus reja asosida olib boriladigan tadqiqot modellari **predmetli modellashtirish** deb ataladi. Jadvallar, chizmalar, formulalar kabi modellar **belgili modellashtirish** sifatida namoyon bo'ladi. Biz predmetli modellashtirishdan foydalangan holda, modellashtirilishi lozim bo'lgan ob'ektning xarakteri va yosh xususiyatlariga ko'ra, avvalo, uning xulq-atvori, psixologik xususiyatlari, unda kechadigan ruhiy holatlar va o'zgarishlarga amal qilib muloqot tizimini modellashtiramiz.

   5. *Muloqotni amalga oshirishda o'qituvchining pedagogik refleksiya imkoniyatlaridan foydalanishi:* N.V.Kuzmina refleksiyani pedagogik qobiliyat sifatida o'rganib, ilk bor o'qituvchining refleksiv – perseptiv qobiliyatlarini alohida komponent sifatida pedagogikaga tatbiq yetgan. U pedagogik intuitsiyaning shakllanishi refleksiv pedagogik qobiliyatlarning shakllanganlik darajasiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. O'qituvchining pedagogik faoliyatida, refleksiyaning shaxsga

nisbatan ahamiyatini o'rganishda bu tushunchaning ijtimoiy psixologik nuqtayi nazardan ta'rifi mukammal ekanligi e'tirof etiladi, unda refleksiya insonning borliqda boshqa insonlar tomonidan qanday qabul qilinishi va baholanishi sifatida qaraladi. Insonning qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish avvalo, muloqot asosida sodir bo'ladi. O'qituvchining refleksiv imkoniyatlarida muloqotni o'zi mustaqil tashkil yetishi va amalga oshirishi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi zamonaviy pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'plab olimlar refleksiyaning I.N.Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifiga tayanadilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini taklif etib sharhlagan:

a) *Intellektual refleksiya:* O'qituvchining ta'lim jarayoniga taalluqli muammolarini tafakkur boyligi asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi.
b) *Shaxsiy refleksiya:* **O'qituvchining** o'quvchilar bilan nizoli (konfliktlar) pedagogik ziddiyatlardan janjalsiz chiqishini fikran izlanish asosida bartaraf qilishini ta'minlaydi.
d) *Kommunikativ refleksiya:* Muloqot jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining hamda boshqa subyektlarning **o'zaro bir-birlarini** do'stona tushunib munosabatda bo'lishi.
e) *Kooperativ refleksiya:* Sinf jamoa a'zolarining birgalikdagi o'zaro mehnat faoliyatlarini muntazam muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat.

7.6. PEDAGOGIK MULOQOTNI MUVAFFAQIYATLI AMALGA OSHIRISHGA OID MUHIM TAVSIYALAR

O'qituvchilik barcha kasblar orasida muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Zero, o'qituvchi yosh avlod qalbining, kamolotining me'mori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb–hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy–iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Shu mas'uliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchilarga ta'lim va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishini, qobiliyatini, iste'dodini, e'tiqodini va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topishni talab etadi. Buning uchun doimo o'qituvchilarning kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini hozirgi zamon talablari doirasida oshirib borish, ularga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, zarur shart – sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy – metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam qo'llab quvvatlash va ko'maklashish lozim.

Ijodiy faoliyat olib boruvchi o'qituvchi faqatgina o'quvchilarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan,

tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur. Hozirgi zamon o'qituvchisi fan va texnika taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan unumli foydalanishi, o'z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlarini qo'llay olishi, o'quvchilarning doimiy o'zgarib turadigan psixologik xususiyatlariga o'z munosabatlarini bildira olishi, pedagogik ziddiyatlarni mustaqil o'zi bartaraf qilishi taqozo etiladi.

Ayniqsa, pedagogik faoliyatda o'qituvchining muloqot olib borish mahorati ta'lim-tarbiyaviy tizimning ma'naviy mazmundorligini oshirishga xizmat qiladi, zero aynan pedagogik muloqotning keng imkoniyatlari asosida ta'lim-tarbiyaning ma'naviy asoslari shakllantiriladi. Kasbiy-pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'qituvchining tashabbuskorligi bu o'rinda muloqotni boshqarish vositasi sifatida namoyon bo'lib, yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonni ham boshqaradi. Aytish lozimki, ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan dars jarayonida o'qituvchi hamda ta'lim oluvchilarning o'zaro ijodiy faoliyatlarida ta'lim va tarbiyaning yaxlitligiga va bilim olishga qaratilgan izlanishni boshqarish, faqat pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilingan muloqot natijasida amalga oshiriladi.

Quyida Respublikamizda o'qituvchilik kasbining o'ziga xos etnopsixologik fazilatlari, xislatlari, qobiliyatlari ish uslublari, pedagogik muloqot sirlarini egallash yo'llari, shaxslararo muloqot qilish madaniyati yuzasidan turli davrlarda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida, pedagogik muloqotning har jihatdan to'g'ri tanlangan tarbiyalovchi imkoniyatlari, o'qituvchining ma'naviy saviyasi, betakror kasbiy xususiyatlariga muvofiq keluvchi **vazifalar majmui** e'tiboringizga havola qilinadi:

Pedagogik jarayon o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabatlari asosiga quriladi. Aynan shu munosabat har bir "pedagogik harakatga" o'zgacha, betakror shaxsiy ma'no va mazmun bag'ishlashi kerak. Muloqot asosida o'zaro bir-birini tushunish, jamoada iliq psixologik iqlimning yaratilishi o'quv materiali va pedagogik talablarga ajoyib ehtiros, jo'shqinlik baxsh etadi, sanab o'tilgan jihatlarsiz esa bola qalbiga kirish, uni bilim olishga va o'rganishga bo'lgan qiziqishini tarbiyalash, tafakkurini rivojlantirish mumkin emas.

Pedagogik maqsad va vazifalar ta'lim-tarbiya jarayonida va muhim ahamiyat kasb yetishiga qaramasdan, pedagogik muloqotni amalga oshirishda faqatgina ular bilan chegaralanib qolmaslik lozim. Bunday chegaralanishga asoslangan pedagogik muloqotda faqat o'qituvchi tomonidan bildiriladigan fikr-mulohazalar birlamchi bo'lib qoladi, o'quvchining erkin muloqot tashabbuskoriga aylanish darajasi yo'qoladi yoki keskin pasayishiga olib keladi. Natijada o'quvchining butkul "beqilib" qolishi sababli, uning ichki dunyosi, xarakteri, psixologik xususiyatlari o'qituvchi uchun noaniq bo'lib qoladi.

Pedagogik muloqotni yuzaga keltirish jarayonida o'qituvchining alohida olingan aynan bir bolaga yoki butun jamoaga nisbatan murojaat qilayotganligi yaqqol sezilib turishi va buni har bir ta'lim jarayoni ishtirokchisi teran anglashi talab etiladi. Bu o'qituvchi uchun xuddi ma'lum bir ta'lim usuli yoki texnologiyasini tanlashdek juda muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqotning aniq bir suhbatdosh obyektiga yo'naltirilganligiga erishish uchun, muloqotni "qat'iy vazifaviy tarkib"dan o'zaro hamjihatlik asosidagi pedagogik hamkorlikka olib o'tish kerak va bu orqali ta'lim jarayonining eng muhim funksiyalaridan biri hisoblanadigan psixologik vazifaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga zamin

yaratiladi.

Pedagogik muloqot jarayonining yakunini faqat birgina axborot olish yoki berish vazifasi bilan cheklab qo'ymaslik lozim. O'qituvchi muloqot tarkibida mujassam bo'ladigan o'zaro axborot almashish, munosabatlarni tartibga solish, boshqalarga ta'sir o'tkazish, bola shaxsini anglash kabi barcha "repertuar"idagi boylaridan samarali foydalana olishi, ularni joriy qilishni ham puxta bilishi kerak.

O'quvchilar bilan muloqotga kirishar ekansiz, hech qachon ular bilan vertikal tarzda yuqoridan pastga qarab qo'pol muomala qilishga urinmang. Chunki har bir o'quvchi turli muloqot jarayonida o'z erki va mustaqilligini qandaydir darajada himoya qilishga urinadi va bunga qodir bo'ladi. Shunga asosan, o'qituvchi muloqot asosidagi suhbatning tashkilotchisi hamda yetakchisi sifatida o'quvchi bilan muloqotda demokratik pedagogik jarayon mantig'idan kelib chiqqan holda uning shaxsiga nisbatan hurmat bilan tabiiy munosabatda bo'lishga va ijobiy natijalarga erishishga harakat qilishi lozim.

Har bir o'qituvchi uchun auditoriyadagi psixologik vaziyat, ruhiy holat, jamoadagi muhitni his qilish juda muhim. Busiz o'quv-tarbiyaviy jarayonning samaradorligi to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas. Shu bois har bir mashg'ulot chog'ida aynan siz ham ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyat garovi hisoblangan sog'lom psixologik muhit, ijobiy iqlim yaratish san'atini egallashga harakat qiling. Bunda sizga shu sinfdagi ilg'or o'quvchilar hamda siz tomoningizdan lozim bo'lgan psixologik bilimlar, turli ta'sir etuvchi tarbiyaviy metodlarni puxta bilishingiz yaqindan yordam beradi.

Kasbiy pedagogik muloqotning muhim komponenti, o'qituvchining o'z fikr va mulohazalarini, emotsional his-tuyg'ularini aniq ifoda eta olish mahoratidir. Turli tasodifiy pedagogik vaziyatlarda, hayotda uchrab turadigan favqulotda hodisalarda ham o'qituvchi g'azablanganda, quvonganda, xafa bo'lganida, tushkun bir ahvolga tushganida auditoriyada ichki his-tuyg'ularini bir holatdan boshqa holatga, bir shakldan boshqa shaklga aktyorlarga xos iqtidor bilan rol o'ynab vaziyatdan chiqishni ham bilishi lozim.

O'qituvchi o'zini tashqaridan, o'quvchilar ko'zi bilan ko'ra olish ko'nikmasiga ega bo'lishi, o'z faoliyatini tahlil qila olishi, o'zini bevosita o'qitadigan yoki muloqot qilayotgan bolaning o'rniga qo'yib ko'ra olishi, tajribali ustozlari va hamkasblarining darslarini kuzatishi, ular bilan o'z faoliyatini taqqoslay olishi, o'quvchilar bilan samarali ishlash uchun o'zidagi aynan qaysi sifatlarning xalaqit qilayotganligini bilishi, o'z xatosini, kamchiliklarini tan ola bilishi, aynan hozirgi paytda nimanidir bilmayotganligini, tushunmayotganligini anglab yetishi, darsdan tashqari paytlarda ham o'quvchilar bilan muloqotga kirisha olishi, agar sinfda yoki ta'lim muassasasida sizga nisbatan biror nojo'ya gaplar yoki laqab qo'yilganligini bilib qolganingizda o'quvchilardan xafa bo'lmaslik, aksincha uning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilib bartaraf etishga harakat qilish juda muhim.

Har qanday sharoitda ham o'quvchilarni shoshmasdan tinglay olishni o'rganish lozim. Hatto, sizning vaqtingiz yo'q bo'lishiga, so'zlashayotgan o'quvchingizning yolg'on yoki noto'g'ri gapirayotganligini bilib turgan bo'lsangiz ham uni oxirigacha diqqat bilan tinglash kerak. Bu sizning o'quvchi shaxsiga nisbatan hurmat-e'tiboringizni ifodalaydigan eng muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

O'quvchilar bilan muloqotni tashkil etish jarayonida muntazam tarzda ularning kayfiyatini kuzatish, sinfdagi har qanday darajadagi mikromuhitning o'zgarishlarini ilg'ay olishga erishish, jamoadagi norasmiy yetakchining faoliyatidan boxabar bo'lib borish uchun o'qituvchi o'zida kuzatuvchanlik qobiliyatlarini muntazam rivojlantirib borishi talab qilinadi.

Sinfda o'quvchilar jamoasi orasida, dars yoki darsdan tashqari vaziyatlarda turli ziddiyatlarning paydo bo'lishi o'qituvchining bilimi, kasbiy mahorati darajasi yetarli emasligi, o'zaro (o'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi) teng kelmaydigan talablar, mafkuralar, odat va ko'nikmalar, nomutanosib ko'rsatmalar to'qnashuvi natijasida kelib chiqishi mumkinligi hamda bu ziddiyatlarning oldini olish yoki ularni bartaraf etish choralarini zudlik bilan o'rganishi. O'qituvchining o'quvchilardan xafa bo'lishga, ulardan ranjishga kasbiy nuqtayi nazardan haqqi yo'q. Bu ham pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Pedagogik muloqot chog'ida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida ilmiy bahs-munozaralar yuzaga kelish holatlari tez-tez uchrab turadi, bunday vaziyatda o'qituvchi bolani ranjitmasligi, aksincha uning qarashlarini qo'llab-quvvatlashi, kezi kelganda fikrlari noto'g'ri bo'lsa tushuntirishi kerak. O'quvchining xatoga yo'l qo'yganligi yoki adashganligini tushuntirish uning xarakter xususiyatlarida mavjud nuqsonlar bilan bog'lamasdan amalga oshirilishi talab etiladi. Ya'ni bu o'rinda o'qituvchi *"Men sening xatti-harakatlaringdan, xulqingdan uyaldim", "Sendan buni kutmagan edim"* kabi jumlalarni ishlatishi maqsadga muvofiq. Natijada o'quvchi unga nisbatan o'qituvchi qanday munosabatda ekanligini teran anglab yetadi va bu kabi vaziyatlarga boshqa yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi.

Aksariyat holatlarda faoliyatini endi boshlayotgan yosh o'qituvchilar ayrim o'quvchilar bilan to'g'ri va yaxshi muloqot qila olmaydilar. Bu kabi og'ir holatlarda o'qituvchi aynan e'tirof etilayotgan o'quvchilar bilan muloqotni Nimaga?, Qanday?, Nima uchun? kabi savollar bilan boshlashi maqsadga muvofiq. Munosabatlarning shu asnoda boshlanishi ular orasida muloqotning asta-sekin mukammallashib borishiga turtki bo'ladi. Agar o'qituvchi paydo bo'layotgan rishtalarni yo'qotib qo'ysa, orada uzilish vujudga kelsa, munosabatlarni qayta tiklash juda qiyin kechishi yoki umuman amalga oshmay qolishi mumkin. Shuning uchun bu kabi o'quvchilar bilan muloqot uzluksiz hamda doimiy xarakter kasb yetishi shart.

Muloqot jarayonida o'qituvchining tashabbuskorligi ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda ulkan ahamiyatga ega. Muloqotdagi tashabbus shaxsning odamlar bilan tez munosabat o'rnatishini, ularni to'g'ri tushunish psixologiyasining shakllanishini, o'quvchilar bilan ta'lim subyektlari sifatida o'zaro til topish, bir-birini to'g'ri anglashni, ta'lim jarayonini optimallashtirishni, ularda turli faoliyatlarga qizg'in kirishuvchanlik xislatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ta'lim muassasalari o'quvchilari bilan muloqotni yo'lga qo'yishda qiz bolalarning emotsional his-tuyg'ularga egaligi, o'qituvchiga nisbatan keskin munosabatlarini yashira olishlari, har bir voqelikka, harakatga ta'sirchanliklari, hurmatsizlik va qo'pol muomalani ko'tara olmasliklari, ko'ngilchanlik kabi xususiyatlarga egaligini yaxshi bilish maqsadga muvofiqdir. Qiz bolalar o'qituvchining bevosita tarbiyaviy ta'sirlarini ko'tara olmaydilar,

shu bois ular bilan munosabatda bilvosita muloqot tizimini qo'llash yaxshi samara berishini nazarda tutish lozim.

O'quvchilar bilan muloqotda bir xil qolipdagi uslubdan foydalanish maqsadga muvofiq emas. Bunday qolipdagi muloqot: o'zini tutishning umumiy maneralarida; o'quvchilar xulqiga munosabat bildirishda; dars jarayonini mexanik tarzda bir xil boshqaradigan, insoniy munosabatda "psixologik jihatdan yopiq", darsda faqat pedagogik funksiyalarni amalga oshiradigan o'qituvchilar muomalasida tez-tez ishlatilishi kuzatiladi. Bir xil qolipli munosabat o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga, bilimga qiziqishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Alohida xulq-atvorga ega o'quvchilarga nisbatan mavjud salbiy munosabatlarni tark etish, kek saqlab yurmaslik lozim, aks holda bu sizga maktab o'quvchilari bilan bo'ladigan muloqotlaringizga, shuningdek, jamoadagi umumiy psixologik iqlimga, muhitga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi.

O'quvchilarning xulq-atvorini, bilimini, turmush tarzini ochiqdan-ochiq tanqid qilish hech qanday samara bermaydi. Keskin tanqid o'quvchini to'g'ri yo'lga boshlash, uni ijobiy tomonga o'zgartirish xususiyatidan yiroq va o'quvchida o'qituvchiga nisbatan salbiy munosabatlarni rivojlantiradi. Bunday tanqid o'quvchini o'zini himoya qilishga, o'z qobig'iga o'ralib qolishga majbur qiladi, o'zi va irodasiga bo'lgan ishonchning, pasayishiga olib keladi. O'quvchilar bilan muloqotda o'qituvchining tanqidi yetakchi ahamiyat kasb etmasligi lozim, aks holda o'zaro hurmat, iliq muloqot shakli yo'qoladi, bu esa, o'z navbatida shaxslararo ijobiy hamda ijodiy samarali hamkorlik munosabatlarining yuzaga kelishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

O'quvchilar bilan muloqot jarayonida ko'proq jilmayishga harakat qiling. Sinfga kirib darsni boshlashdan oldin yoki darsdan tashqari turli tadbirlarda o'qituvchining tabassumi naqadar yoqimli ekanligini anglatadi. Umuman, o'qituvchi chehrasidagi tabassum o'quvchilarda samimiy munosabat kurtaklarini paydo qiladi hamda ularni qizg'in do'stona muloqotga undaydi va sinf jamoasining erkin faollik ko'rsatishi asosida o'zini namoyon etishlariga sharoit yaratib beradi. O'quvchilar aksariyat holatlarda bevosita o'qituvchining kayfiyatini, ruhiy xususiyatini uning nomini, o'rgatadigan fani bilan bog'laydi va natijada ularda shaxsga bo'lgan salbiy yoki ijobiy munosabat aynan shu pedagog o'qitadigan fanga nisbatan bo'lgan munosabatda ham aks etadi.

O'qituvchi ota-onalar, o'quvchilar, hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan boshlamaslik kerak, aksincha, o'quvchining muvaffaqiyatlarini e'tirof yetishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi, o'quvchilar va ularning ota-onalari qalbiga yo'l topishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur. O'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning ota-onalar, o'quvchilar, hamkasblari orasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan amalga oshiradigan pedagogik hamkorlik faoliyati jarayonida muloqot asosida imkon qadar o'quvchilarni rag'batlantirishga, maqtashga

hamda ularni ilhomlantirishga harakat qilishi zarur. Bu o'quvchining kundalik yoqimli xotira va kechinmalarini sizning shaxsingiz bilan bog'lashiga olib keladi. Qo'llab-quvvatlash, do'stona xayrixohlik, o'zaro hamkorlik pedagogik faoliyatning muhim sharti hisoblanadi.

Pedagogik muloqot jarayonida vujudga keladigan har qanday zo'riqishni, shuningdek, boshqa noxush holatlarni yengish uchun o'qituvchi o'zining ijodiy kasbiy holatini bir yo'nalishda ushlab turishi yuzasidan doimiy faoliyat olib borishi zarur. Bunda o'qituvchi o'z-o'ziga ta'sir qilishning qator usullaridan foydalanishi mumkin, ulardan eng muhimlari quyidagilar: *O'z-o'zini ishontirish, o'z-o'ziga buyruq berish, o'z-o'zini majbur qilish, o'z-o'ziga majburiyat yuklash, o'z-o'zini rag'batlantirish, o'z-o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lish, o'z-o'zini mashq qildirish, o'z-o'ziga ta'sir o'tkazish. O'qituvchining o'z-o'ziga* ta'sir qilishi (refleksiya) va uning samarali jihatlari refleksiya to'g'risidagi alohida mavzuda o'rganiladi.

O'quvchilarga nisbatan ijobiy va xayrixohlik munosabati o'qituvchi shaxsi va pedagogik faoliyatida mavjud bo'lgan eng kichik mikroelementlarning ham o'zlashtirilishiga sabab bo'ladi. O'qituvchining o'quvchi javobiga, xatti-harakatlariga nisbatan bildirgan tanqidiy bahosiga o'quvchining reaksiyasi ularning o'zaro shaxsiy munosabatlaridan kelib chiqib belgilanadi. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'zining o'quvchilarga nisbatan munosabatlarini sinfda haqqoniy "namoyish" etishga o'rganishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ xotiraning rivojlanganligi o'qituvchiga sinf bilan oldingi dars jarayonida ro'y bergan turli holat va vaziyatlarga tez kirib borish, bir xil muvozanatga qaytish, emotsional muloqot muhitini yaratish, o'rganilayotgan mavzularga to'g'ri izohlar berish, amalga oshiriladigan psixologik harakatlarni, pedagogik texnikani oldindan belgilab olish imkoniyatini beradi. Har bir o'quvchining ismi, familiyasi va boshqa o'ziga xos psixologik xususiyatlarini bilish o'qituvchiga muloqot jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Maktab o'quvchisi bilan muloqotga (individual suhbatga) kirishishdan oldin muloqotning strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish, o'quvchining suhbat chog'ida o'zini qanday tutish ehtimoliy variantlarini o'qituvchi ko'z oldiga keltirish kerak. Maktab o'quvchisi, ayniqsa, o'smirlar boshqalarni uning shaxsini hurmat qilishini istaydi va bunga intilib yashaydi. Shu boisdan ham muloqotda asosiy e'tiborni o'quvchi shaxsiga, uning ijobiy xususiyatlariga qaratish lozim. O'quvchilar bilan muloqotda ular bilan samimiy munosabatda bo'lish va buni o'quvchilarning his qilishlariga erishish juda muhim.

Shuni unutmaslik kerakki, sinf jamoasi bilan uzoq yillar mobaynida muloqot qilish asnosida biz muloqotning shu jamoada shakllangan bir xil qolipiga tushib qolamiz va bu qolipni birinchi yildan ikkinchi va uchinchi yillarga olib o'tamiz. Lekin o'quvchilarning yildan-yilga o'sib-ulg'ayib, xarakterlarining o'zgarib borayotganligiga, ularning tevarak-atrofdagi muhitga hamda insonlarga nisbatan bo'lgan munosabatlarining ham rang-barang, boshqacha tus olganligiga aksariyat holatlarda yetarli darajada e'tibor bilan qaramaymiz. Shu sababli o'quvchilar bilan muloqotda ularda vaqt o'tishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ta'sirida sodir bo'layotgan yosh xususiyatlari bilan bog'liq har qanday o'zgarishlarini inobatga olish borish talab etiladi.

O'qituvchi dars jarayonidagi muloqot faoliyatiga nisbatan kommunikativ tayyorgarlikka alohida e'tibor qaratishni yoddan chiqarmasligi kerak. Bir soatlik dars

ishlanmasini tayyorlash jarayonida bo'lajak mashg'ulotning borishi, sinf jamoasining umumiy psixologik holatini ko'z o'ngingizdan o'tkazgan holda dars fragmentlariga, uning ayrim qismlariga alohida tayyorgarlik ko'rish lozim.

Muloqot jarayonini tahlil qilish ko'nikmasini mukammal egallang. O'z nutqingizni kuzating va unga nisbatan talabchan bo'ling, notiqlik san'atingiz sizning kasbiy faoliyatingizni oyinasi ekanligini unutmang, qo'pol va nojoiz so'zlarni ishlatmaslikka harakat qiling. O'quvchilar nutqida uchraydigan xatolarni siz ham nutqingizda takrorlab qo'yishdan saqlaning.

Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan amalga oshirishingiz lozim bo'lgan muloqotni o'zingiz oldindan tayyorlang, ular bilan o'tkaziladigan suhbat uchun tayyorgarlik ko'ring va quyidagilarni yodda tuting:

- tarbiyasi og'ir o'quvchilar pedagogik yoki psixologik e'tiborsizlikning oqibatida paydo bo'ladi, unda ruhiy-fiziologik patologiya asoratlari mavjud;
- u ota-onasi, tengdoshlari, muhit yoki boshqa biror o'qituvchining salbiy ta'sirida yuzaga kelgan hamda uning qalbida yig'ilib qolgan nafrat, alam, g'azab kabi hissiy ta'sirlar bosimi ostida yashaydi;
- tarbiyasi og'ir o'quvchilarga hamisha optimal farazlar bilan yondashish lozim, muloqotda uni tushunish, hayotning murakkabligini uning ongiga singdirish, o'qituvchilar va sinf jamoasi faqat yaxshilik tilashi yuz ifodalarimizdan, xatti-harakatlarimizdan, umumiy psixologik holatimizdan unga yaqqol sezilib turishi, bularga uni ishontira olish talab qilinadi;
- tarbiyasi og'ir o'quvchini ma'lum bir pozitsiyani egallashga majburlab bo'lmaydi, aksincha uning qarashlarini shakllantirishda tushuntirish ishlarini olib borish asosida u yoki bu pozitsiyani ixtiyoriy va ongli ravishda egallashiga ko'maklashish maqsadga muvofiqdir;
- ta'lim muassasasi o'quvchisida mavjud bo'lgan negativ, salbiy shaxslararo munosabat tizimini, o'quvchining maktab va sinf jamoasiga nisbatan ijobiy, o'zaro do'stlik va ishonchga asoslangan munosabatlari tizimiga almashtirishni bosqichma-bosqich amalga oshirishni ta'minlashga erishish zarur;
- tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan nafaqat ta'lim maqsadlari asosidagi munosabatlarni, balki shaxs bilan shaxsning faoliyat turlari bilan bog'liq o'zaro insoniy muloqotni yo'lga qo'yishga va rivojlantirishga harakat qilish, o'quvchi qalbida o'z shaxsi va kelajagiga nisbatan o'qituvchining befarq emasligiga ishonchni uyg'otishga harakat qilish lozim. Bu kabi pedagogik hamkorlik insoniy kechinmalarning yuzaga chiqishini ta'minlaydi va ta'lim subyektlari orasidagi o'zaro ishonchni shakllantiradi.

7.7. O'QITUVCHINING MULOQOT MADANIYATI

Dunyo mutafakkirlari va ulug' ajdodlarimizning bebaho ma'naviyati mahsuli bo'lmish pand-nasihatlari va dono fikrlari, ibratli so'zlari yoshlar tarbiyasida naqadar muhim ahamiyat kasb yetishini mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida shunday ta'kidlaydi: "Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir"[1]. Yangi O'zbekistonning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir".

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan intellektual salohiyatga ega, jismonan sog'lom, axloqan pok, ma'naviy yetuk mutaxassislarni tayyorlashni kun tartibiga qo'ymoqda. Respublikamizda milliy vatanparvarlik tarbiyasi hamda milliy g'oya va ma'naviyat asoslari tayyorgarlikda ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish orqali axloqan pok, kasbga sadoqatli, yuksak mahoratga va intellektual salohiyatli, Vatan va xalqi uchun jonini fido eta oladigan, kiyinchiliklardan qo'rqmaydigan, Vatanga xizmat qilishda barcha murakkabliklariga bardosh bera oladigan fidoyilarni tayyorlash eng dolzarb masalalardan sanaladi. Bu dolzarb muammoni hal etishda ta'lim-tarbiya iste'moliga milliy qadriyatlarimizni kiritish orqali vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy yuksaklikni tarbiyalash bugungi kunda kasb mahorati bilan birga intellektual salohiyatni ham tarkib toptiradi. Demak, ma'naviy madaniyat manbalarida ilgari surilgan g'oyalarga amal qilish, ularni yosh avlodga o'rgatish va ongiga singdirish o'qituvchining jamiyat va Vatan oldidagi yuksak burchidir.

O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi. Shu boisdan hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida kasb tanlash motivlari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanib qolmaslikni, balki bo'lg'usi pedagog kadrlar shaxsiy faoliyatida kasbiy madaniyatni tarkib toptirish mutlaqo zarur ekanligi ta'kidlanadi. Respublikamizda o'qituvchilik kasbining o'ziga xos etnopsixologik fazilatlari, xislatlari, qobiliyatlari ish uslublari, pedagogik mahorat sirlarini egallash yo'llari, shaxslararo muloqot madaniyati yuzasidan turli davrlarda har xil ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Muloqot madaniyatining tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy sifatlari bilan belgilanishini ta'kidlash lozim. Pedagogik muloqot madaniyatining har jihatdan to'g'ri tanlangan, o'qituvchining ma'naviy saviyasi, betakror

[1] Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

xususiyatlariga muvofiq keluvchi uslublari quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi:

birinchidan, muloqotda har bir o'quvchiga alohida e'tibor va dilkashlik sinf jamoasi bilan umumiy muloqot jarayonini soddalashtiradi, o'qituvchining erkin pedagogik faoliyati uchun zamin tayyorlaydi, ziddiyatli vaziyatlarni oson hal qiladi;

ikkinchidan, har bir o'quvchi bilan o'zaro munosabatni erkin muloqot asosida tashkil qilish, ularning yosh xususiyatlariga monand pedagogik va psixologik muloqot uslublarini tanlash, uning ruhiyatini bilishga, ichki dunyosiga "kirib borish"ga yo'l ochadi;

uchinchidan, pedagogik muloqotda o'qituvchining ma'naviy-axloqiy normalari muvaffaqiyatlar kaliti bo'lib, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi, muloqotning barcha bosqichlarida o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqish hissini va xotirjamligini ta'minlaydi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqot madaniyati individual uslublarini shakllantirish metodikasining bosqichlari **7-ilovada** to'liq aks etgan.

Pedagogik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh o'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida o'quvchilar bilan muloqot madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi va o'quvchilarning bevosita o'zaro munosabatini ma'lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo'naltiruvchi kuchdir. Bu o'rinda o'qituvchi quyidagi vaziyatlarni e'tiborga olishni alohida ta'kidlash lozim:

- *o'qituvchining ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat, so'z ohangiga e'tibor, an'anaviy muloqotning eng yaxshi xususiyatlarini o'zlashtirishi;*
- *muloqot asosida sinf jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, o'quvchilar xatti-harakatining oldingi holati bilan, tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib doimiy baho berib borish;*
- *o'z muloqot uslubi natijalarini tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni uzluksiz bartaraf etib borish. Zarur so'z, ovozdagi yoqimli ohang, xulq-atvorni vujudga keltirish;*
- *pedagogik muloqot madaniyatining samarali kechishi uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi, o'quvchilar bilan o'zaro muomalaning "ustoz-shogird" an'analariga xos boshlanishi va o'zaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal qilish bilan muomala obyektining diqqatini o'ziga jalb qilish;*
- *muloqot obyekti, ya'ni o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma'nosi o'qituvchi o'zining xushmuomalaligi, madaniyati, go'zal xulqi, muloqotda o'quvchilar qalbiga yo'l topa olishi bilan o'z mahoratini namoyish qilib, muloqot madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olishidir.*

Kasbiy faoliyatning noyob fazilati bo'lmish pedagogik muloqot madaniyatiga amal qiladigan har bir o'qituvchi quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi lozim:

- *mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy talablari va ehtiyojlariga mos bo'lgan yuksak ma'naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e'tiqod, davlatimiz ideallari, milliy g'oya va istiqlol mafkurasiga sodiqlik, vatanparvarlik, fidoyilik tuyg'ulari shakllangan ijtimoiy-siyosiy faol shaxs;*
- *o'quvchilarga samimiy mehr–muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, xatti-harakatlari motivlarini, xulq-atvorlarini tushunish ko'nikmasi va malakasining shakllanganligi;*
- *jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar, jahonda ro'y berayotgan voqealar, tabiatga, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlarga nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, yangilikka, ijodiy izlanishga nisbatan intilish qobiliyatining mavjudligi;*
- *pedagogik faoliyatning barcha jabhalarida odamlarning xatti-harakatlari, munosabatlaridagi xususiyatlarni oqilona tushunish, o'z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatni tarkib toptirish;*
- *har qanday favqulotda vaziyatlarga, jamiyatda ro'y berayotgan yangiliklarga nisbatan hamda ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlarga omilkorlik va aql-idrok bilan munosabatda bo'lish, o'z oldiga to'g'ri maqsad qo'ya olish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o'z imkoniyatlarini namoyon eta olish;*
- *pedagogik faoliyatlarda, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhiy munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini namoyish etish;*
- *dunyoqarashi va tafakkur ko'lamining kengligi, dunyoviy bilimlarni bilishga nisbatan qiziqishining serqirraligi, ilmiy izlanishlarga moyilligi, muayyan ilmiy salohiyat va pedagogik mahorat darajasini muntazam oshirib borish;*
- *o'quvchilar bilan muloqotda layoqatliligi, nutq madaniyatining mantiqan ixcham, ma'noli, ta'sirchan kuchga egaligi, psixologik ta'sir o'tkazish uslublari bilan qurollanganligi.*

Har qanday tajribali o'qituvchining pedagogik muloqoti jarayonida o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga keladi. O'quvchilar jamoasida sodir bo'ladigan har qanday pedagogik vaziyatga javobgar shaxs o'qituvchidir. Bu barcha davrlar pedagogik faoliyatida namoyon bo'ladigan tipik hodisa. Ayniqsa, ushbu holat endigina o'z faoliyatini boshlagan yosh o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida muammoli vaziyatlarni paydo qiladi. Yosh o'qituvchilarning o'quvchilar bilan olib boradigan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini doimiy nazorat qilish, ularga to'g'ri yo'nalish berish, barcha o'quv muassasalari pedagogik jamoatchiligiga, ustoz o'qituvchilar zimmasiga yuklatilishi lozim. Pedagogik faoliyatda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadigan o'qituvchining yoshiga va ish tajribasi ko'lamiga odatda o'quvchilar hech qachon e'tibor bermaydilar. Chunki, o'quvchilar yoshidan va tajribasidan qat'iy nazar barcha o'qituvchilarni ustoz deb ataydilar. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya va pedagogik muloqotning o'ziga xos an'analari, milliyligimizga mos shakl va metodlari mavjud.

Mamlakatimizning buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarishga jiddiy ahamiyat berib kelinmoqda. Bu ulkan mashaqqatlar evaziga amalga oshirilib kelinayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning muhim yo'nalishidir. Hozirgi zamon o'qituvchisidan, hayot sinovlariga bardoshli bo'lish, millat qadriyatlarini anglash, jamiyatda o'zining munosib o'rnini topish, yuksak ma'rifatli va ulkan salohiyatli bo'lish, eng so'nggi zamonaviy texnologiyalarni mukammal bilish talab etiladi. Zero, o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan turli ziddiyatli vaziyatlarni tezda bartaraf yetishi uchun, avvalo, o'z iqtidoriga, pedagogik mahoratiga tayanishi kerak. Pedagogik muloqot asosida erishiladigan yutuqlar o'qituvchining ijodiy mehnati mahsulidir. Ushbu mehnatning salbiy va ijobiy tomonlari bo'lishi shubhasiz. Har bir vaziyatni oqilona baholash, uni to'g'ri rejalashtirish, tarbiyaviy jarayonlarda aql-idrok bilan muloqotni tashkil etish zarur.

O'qituvchi bilan o'quvchilarning muloqotda bir-birlarini o'zaro tushunmasliklari, muloqot vositalarining qashshoqligi, har bir o'quvchining ruhiyatiga qarab muomala qilinmasligi, barchaga bir xil majburiy itoatkorlik munosabati, o'quvchilarni tor doiradagi intizomga chaqiruvchi emotsional jihatdan salbiy tus berilgan buyruq shaklidagi muloqot doimiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Pedagogik muloqot usullari ustida ishlashning asoslangan tizimini tuzish uchun, har bir o'qituvchi o'zining muammolaridan, yo'l qo'yilgan kamchiliklaridan kelib chiqib, qiyinchiliklarni tahlil qilish bilan bartaraf yetishi lozim.

Pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot xarakteri o'qituvchining shaxsi, uning qarashlari nuqtayi nazarlarida va xulqida namoyon bo'ladigan g'oyaviy siyosiy saviyasi, professional tayyorgarligi va bilishga intilishi bilan uzviy bog'liq. Bu asosiy xislatlardan tashqari o'qituvchining umumiy va boshqa qobiliyati, uning moyilligi xarakteri, muvaqqat psixik holatlari, shuningdek, to'plangan tajribasi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining o'z-o'zini tarbiyalash yo'llaridan yana biri - ijobiy xislatlarini, professional jihatlarini, shuningdek pedagogik faoliyat va muloqotlarining barqaror xususiyatlarini, bilimdonlik saviyasini va tarbiyalanganligi natijalarini tahlil qilishga doir mashqlarda ham namoyon bo'ladi.

7.8. O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MULOQOTIDA ILMIYLIK YOKI SAN'ATKORONA YONDASHUV

Pedagogik faoliyatda muhim omil sanaladigan muloqot mohiyatini teran anglash uchun avvalo, "Muloqotga ilmiy yondashamizmi yoki san'atkorona?" degan savolga

javob topish lozim bo'ladi. Pedagogik faoliyat jarayonida mazkur savol bilan o'zimizga, talabalar hamda hamkasblarga tez-tez murojaat qilib turamiz. Muloqotning ilmiy asoslarini, texnologiyasini, uslubi va shakllarini, vositalarini, uning tarkibini bilish juda muhim ahamiyatga ega. Lekin o'qituvchining o'quvchilar bilan amalga oshiradigan jonli muloqoti hech bir qonuniyatga va algoritmik tarkibga sig'masligini unutmaslik lozim. Shu boisdan ham muloqotning aniq bir qolipga solingan qoidalarini yaratib bo'lmaydi, chunki har bir muloqot o'ziga xos vaziyatga, shart-sharoitga hamda o'quvchi yoki o'qituvchining individul xususiyatlariga ega bo'lib, musiqiy ohang kabi o'zgarib tebranadi.

Muloqot, har bir ishtirokchining shaxsi hamda ungagina xos bo'lgan individul xususiyatlarga bog'liq, bir xil sharoitdagi vaziyatlarda turli o'qituvchilar har xil muloqot uslublaridan foydalanishlari tabiiy. Shu bois muloqot shaxsning tamoman individual-ijodiy sohasi hisoblanadi. Ilmiylik esa shaxsning muloqot san'atida o'ziga xos ustun vazifasini o'taydi. O'zaro munosabat chog'ida o'qituvchining o'quvchi shaxsiy jihatlarini inobatga olgan holda muloqotning ilmiy asoslaridan ijodiy foydalana olishining o'zi ham san'at hisoblanadi.

O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan o'qituvchi bir vaqtning o'zida sinfda mashg'ulot jarayonida ham demokratik, ham avtoritar, ham liberal qiyofalarga kira oladi. Uning muloqot qilish san'ati va mahorati har bir vaziyat taqozosidan kelib chiqqan tarzda ta'lim-tarbiya jarayonida qaysi muloqot turini to'g'ri tanlay olish malakasi bilan belgilanadi. Muloqot olib borish san'ati zamirida o'qituvchining muvaffaqiyatlari bilan bog'liq uning xulqi, hissiyotlarini boshqarish madaniyati, o'quvchilar bilan muomala qilishi, ularni kuzatishi, diqqatini kerakli tomonga qarata olishi, o'quvchilarning ruhiy holatini to'g'ri anglay bilishi va ularning harakatini obyektiv baholashi, ichki hissiyot va maqsadlarini yuzidan o'qiy olishi kabi sifatlar mavjud.

V.A. Suxomlinskiy *"...o'qituvchining bolani eshita olish qobiliyati uning eng ulkan san'ati hisoblanadi"*, deb yozadi. Pedagogik muloqot o'qituvchi shaxsi orqali amalga oshirilishini alohida ta'kidlash joiz.

Muloqot san'atini o'zlashtirish uchun o'qish, xohish-istak talab qilinadi, deb yozadi A.A. Leontev, agar biror o'qituvchi bolalarni, kasbini sevmasa hamda o'zini pedagog deb hisoblashni istamasa, bunday kishilarni muloqot turlariga o'rgatib bo'lmaydi[1].

Biz quyida o'z kasbini va bolalarni sidqidildan sevadigan o'qituvchilarga nisbatan taniqli pedagog va psixologlarning dono maslahatlaridan ayrim namunalarni tavsiya qilamiz:

- Pedagogik faoliyatda muloqotning mavjud axborot almashinuv, o'zaro munosabatlar o'rnatish, bolaning individualligini anglash, unga tarbiyaviy ta'sir etish kabi barcha imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanishga erishish zarur.
- Muloqotda va muloqot jarayonida bajariladigan vazifalaringizni aniq tasavvur qiling va shakllantirib amalga oshiring.
- Bolalar ongiga va xulqiga tez ta'sir etuvchi muloqot taktikasi va strategiyasini

[1] Леонтьев А.А. Педагогическое общение. – М.; Нальчик, 1996. - С. 11

oldindan ishlab chiqib rejalashtiring, ularni to‘g‘ri tanlay biling.

- Barcha urinish va harakatlaringizni, shaxsiy pedagogik xususiyatlaringizni diqqat – e’tiboringizni muloqot asosida hal qilishingiz lozim bo‘lgan muammoga yo‘naltiring.
- Bolalar bilan muloqotni “o‘zingiz tarafdan” emas, balki “ular tarafdan” kelib chiqadigan xayrixohlik evaziga amalga oshirish maqsadga muvofiq, shundagina bolalar pedagogik diqqat-e’tibor radiusida bemalol ko‘rinadi.
- Bolalar bilan muloqotga kirishishni vertikal tarzda (o‘qituvchi ustun,-o‘quvchi past), yuqoridan quyiga qarab amalga oshirmasdan, balki gorizontal holatda (o‘qituvchi bilan o‘quvchi teng) amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.
- O‘quvchilar bilan muloqot chog‘ida ularning kayfiyati, yuz ifodasidagi eng kichik o‘zgarishlarni ham payqay olishga, sinfdagi mikromuhitning holatini, jamoaning norasmiy liderlarini doimiy nazorat qilishga, har qanday pedagogik va psixologik o‘zgarishlarni o‘z vaqtida ilg‘ab olishga urining.
- Muloqotda faol va tashabbuskor bo‘lishga intiling, faollik va tashabbus ta’lim jarayonini boshqarishda sizga bir qator ustunliklarga ega bo‘lishingizni kafolatlaydi.
- Muloqot jarayonida o‘zingizni erkin va bemalol tutishga harakat qiling. Ikkilanish, hadik, yuz tuzilishingizdagi norozilik alomatlari, g‘azab, xayolingiz parishon bo‘lib ikkilayotganligingizni bolalarga bildirib qo‘yishi mumkin.
- Bolalar bilan muloqotda doimo faoliyatning bir xilligi, yasama so‘zlar, keraksiz ortiqcha xatti-harakatlarni amalga oshirish, bolalarning dars paytida salbiy harakatlariga nisbatan reaksiyaning tezligi bilan bog‘liq bo‘lgan qolipga tushib qolishdan qochishga harakat qiling.
- Muloqot jarayonida sizning talablaringizga javob berolmaydigan o‘quvchilarga nisbatan shaxsiy adovat saqlashdan voz kechib, ularga samimiy munosabatda bo‘lishga odatlaning.
- Tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan muloqotga kirishishdan oldin, ular bilan bo‘ladigan muloqotning alohida rejasini tuzing va muloqotga maxsus tayyorgarlik ko‘ring.
- Muloqot asnosida o‘quvchilarni imkon darajasida rag‘batlantirishga, maqtashga, *ularning* xatti-harakatini va intilishlarini qo‘llab-quvvatlashga intiling.
- *O‘z nutqingizga* nisbatan talabchan bo‘ling, o‘qituvchining notiqlik san’ati kasbiy *faoliyatining* o‘ziga xos ko‘zgusi sanalishini unutmang.
- *O‘quvchilarni* samimiy tinglashni o‘rganing.
- O‘quvchilarga tabassum bilan muomala qilishga odatlaning, yuzingizdagi tabassum ular bilan uchrashish sizga huzur-halovat baxsh yetishini ifodalaydi.

Bolalar – *bizning* umidimiz, kelajagimiz. Pedagogik muloqot mahoratiga ega bo‘lish har bir o‘qituvchining muqaddas burchi. Busiz o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol avlod ruhida tarbiyalab bo‘lmaydi. Insoniyat uchun eng dahshatli fojia – bu insonning odamiylik qiyofasini butkul yo‘qotishidir. Muloqot asosini kishilar o‘rtasidagi samimiy so‘zlashuv asosida vujudga keladigan munosabatlar tashkil qiladi.

L.N.Tolstoy, *“Agar sen muloqotni o‘zing va suhbatdoshing uchun malol kelishini*

istamasang, o'zing sevmagan, yoki seni yoqtirmagan kishilar bilan zinhor muloqotga kirishma", deb ta'kidlaydi.

XXI asrdagi texnologik rivojlanishlar inson ongiga turli ta'sirlar o'tkazmoqda. Shu sababli muloqot tipologiyasiga ham o'ziga xos ulkan o'zgarishlar olib kiritilayapdi. Daraxtlarda bir-biriga o'xshash bir xil yaproq bo'lmagani kabi hayotda ham aynan bir xil odamlar uchramaydi. Har bir shaxs o'zining psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib o'ziga xos muloqot manerasiga ega. ***Biroq o'qituvchining muloqot qilish mahorati shunday qudratli kuchki, u boshqa biror kasb egasining muloqotiga aslo o'xshamaydi. O'qituvchi o'z muloqot san'ati bilan butun jahonni gullatib yashnatadigan, dunyoda tinchlikni mustahkamlaydigan, kurrayi zaminimizni turli ofat va falokatlardan asraydigan yosh avlodga ta'lim va tarbiya beruvchi shaxsdir.***

V.A.Slasteninning ta'kidlashicha, o'qituvchining muloqot bilan bog'liq bo'lgan mashaqqatli mehnati – o'quvchilarning ichki dunyosi hamda yuksak shaxsiy sifatlari taraqqiyotiga doir qonuniyatlarni mukammal bilishni talab qiladigan buyuk san'atdir.

? Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Muloqot – inson ma'naviyatining yuksak namunasi sifatida e'tirof etilishini tushuntiring.
2. Mashhur pedagog olim B.F. Lomov ta'limotida muloqotga qanday ta'rif beriladi?
3. "Muloqot" va "kommunikatsiya" tushunchalarining o'zaro muvofiq kelishi yoki nomutanosibligi nimada?
4. Pedagog olim M.S.Kagan ta'limoti bo'yicha muloqot bilan kommunikatsiyaning o'zaro bir-birlaridan farqlanishi?
5. Pedagogik kommunikatsiyaning ta'lim-tarbiya jarayonidagi mohiyati nimalardan iborat?
6. Muloqot predmetining o'qituvchilar uchun lozim bo'lgan uchta asosiy manbasi?
7. "Muloqot" va "kommunikatsiya" tushunchalari yana qaysi fanlarda o'rganiladi?
8. Pedagogik muloqot funksiyalariga hozirgi zamon nuqtayi nazaridan ta'rif bering?
9. Odamlar o'rtasidagi muloqot jarayonining kommunikativ, interfaol, perseptiv kabi asosiy uslublarga bo'linib o'rganilishini sanang.
10. Pedagog olimlar V.A.Kan-Kalik va N.D.Nikandrovlar ta'limotida muloqotning asosiy bosqichlari - bu...
11. Pedagogik faoliyatning samaradorligini oshiruvchi o'qituvchining rang-barang muloqot uslublarini ta'riflab bering?
12. Pedagog olim V.A.Kan-Kalik ta'limotida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi pedagogik muloqotning uslublari?
13. Xorijiy mamlakatlarda o'qituvchining o'quvchilar bilan pedagogik muloqot qilish

tipologiyasiga ta'rif bering?

14. O'qituvchining refleksiv imkoniyatlar asosida o'quvchilar bilan muloqotga tayyorgarlik ko'rishi?
15. Pedagogik muloqotning har jihatdan to'g'ri tanlangan tarbiyalovchi imkoniyatlarini ta'riflang?
16. O'qituvchi muloqotida ma'naviy saviyasi, betakror kasbiy xususiyatlariga muvofiq keluvchi vazifalar majmuini ayting.

Talabalarning mustaqil tayyorgarliklari uchun topshiriqlar

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o'z fikr – mulohazalaringizni bildirib "Mustaqil ish" yozing:

1. "O'qituvchining kasbiy faoliyatida muloqot va kommunikatsiyaning pedagogik mahoratni oshirishdagi ahamiyati".
2. "Pedagogik muloqot funksiyalari va ularni takomillashtirib borish".
3. "Pedagogik muloqotda ***o'qituvchining*** ijobiy natijalarga erishishini ta'minlovchi yo'nalishlar va muhim tavsiyalar".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4312785.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent shahri, 2024-yil 1-fevral № O'RQ – 901.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarori – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2020, 27-28-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni. https://lex.uz/docs/6008663.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent. – O'zbekiston. – 2017. – 488 b.
7. Mambetova L.M. 9-sinf ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. – Toshkent, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.

8. Батарщев А.В. Психодиагностика способности к общению или как определить организаторские и коммуникативные качества личности.- М.: Гуманит. Изд. Центр ВЛАДОС, 1999.- 176 с.
9. Грехнев В.С. Культура педагогического общения: Книга для учителя. – М.: Просвещение, 1990. – 155 с.
10. Зарецкая И.И. Профессиональная культура педагога: учеб. пособие-М., 2002.- С.28.
11. Каган М.С. Мир общения: проблемы межсубъектных отношений.-М.,1988.
12. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество: Библиотека учителя и воспитателя. – М.: Педагогика, 1990.- 144 с.
13. Леонтьев А.А. Педагогическое общение. – М.; Нальчик, 1996. – 204 с.
14. Лобанов А.А. Основы профессионально-педагогического общения: учеб. пособие. – М., 2002.
15. Сафьянов В.И. Этика общения: учеб. пособие. – М., 1998.- 187.

8-BOB.

O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHILAR O‘RTASIDAGI MULOQOT

Tayanch tushunchalar:

Muomala kategoriyasi; muloqot; axloqiy me'yorlar; nutq dinamikasi; muloqot funksiyalari; prognostik etap; norasmiy liderlar; modellashtirish; psixologik muhit; pedagogik jarayon; kommunikativ aloqa; tashkilotchi va ijrochi; hurmat va talabchan; norasmiy liderlar; interaktiv muloqot; perseptiv muloqot; jonli muloqot; pedagogik muloqot; tashkilotchi va ijrochi muloqot odobi; tavoze; o'qituvchi so'z san'ati; ishonchni qozonish; tamoyillar; muloqot funksiyasi; ta'sir etish; ma'qullash; demokratik yondashuv; avtoritar uslub; demokratik uslub; liberal uslub; sinf jamoasi; muloqotni boshqarish bosqichlari; muloqotni ta'minlaydigan talablar.

8.1. O'QITUVCHI VA O'QUVCHILAR O'RTASIDAGI MULOQOTNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA FUNKSIYALARI

Inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, ta'lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar g'oya va mafkura omillari ta'sirida yashab ijtimoiylashadi va shaxs sifatida kamolotga yetadi. Kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqot pedagogik-psixologik fanlarning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, u o'ziga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi.

Pedagogikada muloqot o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining bir-biriga o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib, uning mohiyati, o'zaro axborot almashishida, ta'lim va tarbiyaviy ta'sir o'tkazishida, o'zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo'ladi hamda quyidagi xususiyatlarga ega:

- muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyatida eng muhim kasbiy qurol hisoblanadi;
- muloqotda uning maqsadga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim ahamiyatga ega;
- muloqot o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi munosabatlarining eng muhim tarkibiy qismi sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o'ynaydi;
- pedagogikada muloqot – o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir o'tkazish asosida o'zaro munosabatini faol tashkil qilishi, muayyan bir maqsadni dastur asosida amalga oshirishning rejalashtirilgan funksiyasini bajarishidir;
- muloqot – o'zaro hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiqadi va shaxslararo munosabatning ko'p qirrali jarayoni hisoblanadi;
- o'qituvchining noto'g'ri pedagogik muloqotidan o'quvchilarda qo'rquv, o'z kuchiga ishonchsizlik paydo bo'ladi, ularning diqqat–e'tibori, ishchanlik harakati susayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati pasayadi.

O'qituvchi va o'quvchi muloqoti – bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari pedagogik faoliyatda eng qulay psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy-ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad:

- *salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;*
- *o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish;*
- *o'quvchilarni bilim olishda faollikka, erkin fikrlashga, o'z fikr mulohazalarini cho'chimasdan bayon qilib unga tayanishga o'rgatish;*
- *o'quvchilarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish;*
- *dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish.*

A.S.Makarenkoning fikricha, o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti hurmat va talabchanlikka asoslangan munosabat shaklida bo'lishi lozim.

V.D.Suxomlinskiy o'qituvchining *"...maktab hovlisida gapirgan har bir so'zi puxta o'ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma'lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak"* deb ta'kidlaydi. O'qituvchining har bir so'zi olimning fikricha, nafaqat o'quvchi qulog'iga aytiladi, balki uning qalbiga ham qaratilgan bo'lishi shart. Umuman ilg'or o'qituvchilarning fikricha, ta'lim va tarbiya faqat o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorlik pozitsiyasi asosidagi muloqot jarayonida quriladi.

O'qituvchining pedagogik muloqoti ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, quyidagi funksiyalar bilan xarakterlanadi:

O'QITUVCHI VA O'QUVCHI MULOQOTI FUNKSIYALARI

1. o'zaro axborot almashishni yo'lga qo'yish
2. ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni birgalikda tashkil etish;
3. o'quvchilarni erkin fikr-mulohaza yuritishga o'rgatish;
4. salbiy holatlarni o'quvchilar bilan hamkorlikda bartaraf etish;
5. do'stlar uchun qayg'urish va ularga yordam berishga o'rgatish;
6. o'zligini anglash, o'quvchilar bilan muloqotda qoniqish his etish.

22-chizma. O'qituvchi va o'quvchi muloqoti funksiyalari

Muloqot jarayonida o'qituvchi qisqa muddatda o'zining psixologik bilimlariga tayanib o'quvchilarning psixik xususiyatlarini mukammal bilishga harakat qilishi lozim. O'quvchilarning ichki dunyosiga, ruhiy holatiga kirib borib ularni o'rganmasdan, unga nisbatan turli tarbiyaviy jazolar qo'llash, tanbeh berish mumkin emas. Bu holat o'quvchilar bilan o'zaro muloqotni tuzatib bo'lmas darajada buzilishiga, o'quvchilarning yashirin holatga, o'z "qobig'i"ga kirib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'qituvchilarning o'zaro axborot almashishi bilan bog'liq xususiyatlari, uning sinf jamoasiga singib keta olish qobiliyati bilan bog'liq. Sinf jamoasida ro'y berayotgan har qanday voqea va hodisalar o'qituvchilar nazoratida bo'lishi, ularning oqibatini o'qituvchilar tez va adolatli tahlil qilishi va oldini olishi lozim. Bu faqat faol o'quvchilar bilan axborot almashib turish natijasida amalga oshiriladi. Shundagina, o'qituvchining o'quv tarbiyaviy jarayondagi faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratiladi va ijobiy natijalar beradi.

O'qituvchi ta'lim – tarbiyaviy faoliyatni o'quvchilar bilan birgalikda tashkil etadi. Bunda sinfning faol o'quvchilari hamda norasmiy liderlari bilan o'zaro muloqotning adolatli bo'lishi muhim ahamiyatga ega: *o'quvchilarni tarbiyaning turli elementlarini ongli ravishda mustaqil 6ajarishga jalb etish, bunda o'quvchilarga tashkilotchilik va ijro etish*

rollarini bajarishga imkoniyat yaratib berish lozim.

O'qituvchining to'g'ri tashkil etilgan muloqoti o'quvchining o'zligini anglash funksiyasini takomillashtiradi. Bunda o'qituvchining vazifasi muloqot asosida o'quvchilarga o'zining "Men"ligini anglashini, shaxs sifatida o'z fikrini dadil va erkin gapirishni, jamoada o'z o'rnini bilishni, o'z-o'zini baholashni o'rgatishi kerak.

Pedagogik muloqot tuzilishi jihatidan o'qituvchi shaxsiy ijodkorligining noyob namunasidir. Pedagog olimlar o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotiga ko'plab tavsiflarni ilmiy asarlarida bayon etsalarda, muloqot avvalo, o'qituvchining shaxsiy psixologik xususiyatlaridan kelib chiqishini unutmaslik kerak. Olimlar esa, muloqot ta'lim-tarbiyada o'qituvchiga yo'nalish beradi xolos degan xulosani e'tirof etadilar. Rus pedagogi V.A.Kan-Kalikning fikricha, o'qituvchining o'quvchilar bilan pedagogik muloqot funksiyasi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi kerak:

1. *Prognostik bosqich (modellashtirish):* O'qituvchi tomonidan sinf jamoasi bilan bo'lajak muloqotni modellashtirish.
2. *Kommunikativ aloqa:* O'quvchilar bilan dastlabki o'zaro tanishuv jarayonida bevosita muloqotni tashkil etishga erishish.
3. *Pedagogik jarayon:* O'qituvchining xatti-harakati, pedagogik mahorati bevosita o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotni boshqarishga qaratilgan bo'lishi kerak.
4. *Natijalar tahlili:* Amalga oshirilgan muloqotni tahlil etish, yutuq va kamchiliklarni xolisona baholab kelgusi faoliyat uchun modellashtirish[1].

Olimning fikrlari asosida muloqotning ushbu yo'nalishlarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

Modellashtirish bosqichida auditoriyaning barcha andozalarga javob berishi, har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini o'rganishi, ta'lim-tarbiyaviy jarayonda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar dinamikasini oldindan ko'ra olish va bartaraf etish, muloqotning o'zaro hamkorlik asosida qurilishi, ya'ni muloqot o'qituvchi shaxsiga emas, balki o'quvchi shaxsiga ham mos kelishini ta'minlash zarur.

Kommunikativ aloqa bosqichida sinf jamoasini o'zaro muloqotga tez jalb etadigan suhbat texnikasini puxta bilish, ularning barcha qiziqishlariga javob bera olish, erkin fikr bildirishlariga imkoniyat yaratish va o'quvchilar ongiga ijobiy ta'sir etishning turli usullarini qo'llash metodlarini egallash lozim.

Pedagogik jarayon bosqichida o'qituvchining faoliyati bevosita ta'lim-tarbiyaviy ishlarni ma'lum bir yo'nalishga solish, o'quvchilar tashabbusini qo'llab-quvvatlash, sinf jamoasining rasmiy va norasmiy liderlari bilan adolatli muloqotni tashkil etish, o'z fikrlarini jamoa fikrlari bilan real sharoitga moslashtira olish ko'nikmalarini yaratish kabi faoliyat olib boriladi.

Natijalar tahlilida o'qituvchi o'z faoliyatiga xolisona baho berishi, yutuq va kamchiliklarni inobatga olib, kelgusi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida tanqidiy qo'llashni bilishi lozim, ushbu yo'nalishda maqsad, reja va natijalarning birligi ta'minlanadi, o'quv-tarbiya jarayonida o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotni tashkil etish va boshqarishda rahbarlikni, tashabbuskor bo'la olishni bilishi kerak.

---

[1] Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении: //Кн. для учителя.1987.-190с.

O'quvchilarning axloqiy jihatdan tarbiyalanganligi uning atrof-muhitga nisbatan bo'lgan munosabatlarida ham namoyon bo'ladi. Axloqiy tarbiyalanganlik o'quvchining his-tuyg'ularida, ichki kechinmalarida ifodalanadi va xulq-atvorida, o'qituvchi bilan muloqot jarayonida yuzaga qalqib chiqadi. O'quvchilar bilan yaqin munosabatda bo'lish va mehribonlikni namoyish etish, o'qituvchining sinf jamoasi bilan munosabatda to'g'ri va odilona muloqotini tashkil etishda asosiy zamin bo'ladi.

Muloqot turli rollar orqali shaxs faoliyati uchun ijtimoiy maydon yaratadi, shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiradi. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida o'zining shaxsiy tashabbuskor va rahbarlik rolini namoyish etadi. Dars jarayonida esa o'qituvchi o'quvchilarni *tashkilotchi va ijrochi* rollarida bo'lishga imkoniyat yaratishi kerak. Muloqot asosida shaxs o'zligini tanishni o'rganadi. O'qituvchi darsni rejalashtirar ekan, faqat o'rganilayotgan dars mavzusi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida o'quvchilarni axborot ko'lamiga jalb etishni o'ylamasligi kerak, balki o'qituvchining yordamiga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni topishi, ularga yordam berish uchun sharoit yaratishi, har bir o'quvchining qiziqishini ta'minlovchi sharoitlarni ko'ra olishi va o'zaro hamkorlikni ta'minlashi lozim.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot asosida o'quvchilar bilan yaxshi munosabatni tashkil eta olishi, demokratik talablarni qo'llashi va birgalikda ijodiy faoliyat olib borishi kerak. Pedagogik muloqot esa, bu o'qituvchi kasbiy faolligining bir ko'rinishi bo'lib, bunda ta'lim va tarbiya muammolari o'qituvchi hamda o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir vositasi bilan hal qilinadi. Bu vaziyatda o'qituvchi baho beruvchi rolida namoyon bo'ladi hamda uning o'zi baho oluvchi hisoblanadi. bunday hollarda pedagogik ta'sir ko'rsatish vazifalari va vositalari hamda o'qituvchining o'quvchilar bilan pedagogik muloqoti quyidagi prinsiplarda namoyon bo'ladi:

O'qituvchining o'quvchilar bilan pedagogik muloqoti prinsiplari

1. Kommunikativ muloqot.
2. Interaktiv muloqot.
3. Perseptiv muloqot

23-chizma. Pedagogik muloqot prinsiplari

1. **Kommunikativ muloqotda** bir tomonlama axborot uzatiladi. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashuvini qamrab olgan bo'lib, kommunikativ muloqot sifatida tavsiflanishi mumkin. O'qituvchi va o'quvchi bir - birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muloqotning muhim vositalari bo'lmish til va nutq faoliyati bevosita muhim ahamiyat kasb etadi.

2. **Interaktiv muloqotning** muhim jihati ikki tomonlama bir-biriga ta'sir etishdir.

Muloqotga kirishuvchi o'qituvchi o'zaro ta'sir etishda, o'quvchilarning tarbiyaviy faoliyatiga nafaqat so'z orqali, balki fikr almashinuv, xatti-harakati va xulq-atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazishi tushuniladi.

3. Perseptiv muloqotda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi o'zaro bir-birlarini idrok qilishi, anglashi tushuniladi. Bunda muloqotga kirishuvchilar o'zaro bir-birlarini idrok qilish asosida ulardan biri ikkinchisining ishonchini qozonadi, aqlli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega barkamol inson sifatida idrok qilinadi.

Muloqotning har uchala tomonini yaxlit olib qaraganda o'zaro hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usullari va unda ishtirok etuvchilarning munosabatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Pedagogik muloqot muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun, o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlik faoliyatiga chuqur kirishib keta olishi, shaxsni har tomonlama shakllantirishning maqsad va vazifalarini chuqur anglab, faoliyat olib borishi lozim.

8.2. O'QITUVCHI VA O'QUVCHILARNING JONLI MULOQOTINI TASHKIL ETISH.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son asosida ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish, barcha ta'lim turlari qatori umumiy o'rta ta'lim jarayonlari subyektlari uchun ham ta'lim-tarbiya metodlarini tanlash, ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda mustaqil qarorlar qabul qilish, ta'lim muassasasining mustaqil siyosatini olib borish, ta'lim jarayonlarini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyalarini mustaqil belgilash, hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish kabi yo'nalishlarda keng imkoniyatlar berildi.

Demak, o'qituvchilarning asosiy vazifasi shaxs erkinligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Shundagina ta'lim tizimida yoshlarga erkin fikrlash imkoniyatlari yaratiladi. *Davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lmish yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishga mas'ul – o'qituvchilar zimmasiga bugungi kunda rivojlanayotgan jamiyatimiz uchun yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, irodasi baquvvat, o'z kasbini mukammal biladigan XXI asr kadrlarini tayyorlash mas'uliyati yuklangan.*

O'qituvchining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatida erishishi lozim bo'lgan barcha ijobiy natijalari uning o'quvchilar bilan jonli va erkin muloqotni to'g'ri tashkil yetishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi so'z san'atining cheksiz qudrati asosida o'quvchilarga

tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi, har bir darsni samarali olib boradi, o'quvchilar bilan so'zlashishni biladi, tarbiyaning suhbat, ma'ruza, hikoya qilish kabi usullaridan o'rinli foydanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan qizg'in muloqotni amalga oshiradi.

Ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni mukammal tashkillashtirish o'qituvchining jonli muloqotni samarali tashkil yetishiga bog'liq. Bunda o'qituvchi va o'quvchining muloqoti ijobiy natijalar berishi uchun o'qituvchida o'quvchilar bilan erkin so'zlashuv qobiliyati bo'lishi kerak. Zero, o'qituvchi bilan o'quvchining muloqotini bog'lovchi asosiy vosita – so'zdir. O'qituvchining so'z boyligi qanchalik keng va mukammal bo'lsa, muloqot olib borish qobiliyati tez namoyon bo'lib, ijobiy natijalarga erishishi oson bo'ladi.

Odatda so'z boyligi, kommunikativ qobiliyati qashshoq bo'lgan o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatlarida o'quvchilar bilan tez-tez ziddiyatlarga duch keladilar. O'qituvchining jonli muloqoti har qanday tarbiyaviy tadbirning mazmun va mohiyatini o'quvchiga tabiiy holda yetkazadi, shu jarayonning obyekti va subyekti o'rtasida muloqot uchun mustahkam ko'prik yaratadi va ichki hissiyot bilan harakatlarning uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

Jonli muloqot – o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta'lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini og'zaki so'z bilan o'quvchilarga yetkazadigan, o'qituvchini ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo'lgan faoliyatdir.

Yosh o'qituvchi pedagogik mahoratida mujassamlashgan nutqning jozibadorligi, bilim saviyasining va tafakkurining kengligi, o'tkir dunyoqarashi, ma'naviy madaniyat darajasi, pedagogik qobiliyati, ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarning mutanosibligi har qanday dars va darsdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy tadbirning muvaffaqiyatini ta'minlovchi hamda o'qituvchi jonli muloqotini tashkil etuvchi omillardir. O'qituvchi kasbiy faoliyatidagi jonli muloqot qobiliyatini takomillashtirish uchun o'z oldiga doimo quyidagi savollarni qo'yib, unga mustaqil fikr-mulohazasi asosida javob bera olishi kerak:

1. O'quvchilarni nimaga o'rgatish:

a) o'quvchilarni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ilmiy yangiliklardan xabardor etish, fan terminlarini tushuntirish, o'quv predmetini to'liq o'zlashtirishga;

b) o'quvchilarda shaxs erkinligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga;

d) o'quvchilarning o'rganilayotgan fan bo'yicha qiziqishlarini, ko'nikma va malakalarini oshirishga;

e) yangi mavzuni fanlararo aloqadorlik asosida tushuntirishga;

f) dars jarayonini pedagogik va axborot texnologiyalarining qiziqarli metodlari asosida tashkil etish.

2. Kimni o'rgatish:

a) kelajakda mamlakat taraqqiyoti uchun mas'ul, davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lmish barkamol insonga ta'lim-tarbiya berish;

b) o'quvchilarni bilim olish va tarbiyalanishi jarayonida duch keladigan muammolar va qiyinchiliklarni mustaqil bartaraf etishga o'rgatish;

d) dars va darsdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy jarayonni o'quvchilar fikrlarini

inobatga olgan holda tashkil etish;

e) yosh va murg'ak qalb egasi bo'lmish o'quvchilarning psixologik o'zgarishlari va rivojlanishlarini inobatga olish;

3. Qanday o'rgatish:

a) o'qituvchi o'z faoliyati davomida to'plagan pedagogik tajribalari asosida kompyuter, axborot va innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda ta'lim berishi;

b) yuksak pedagogik mahorat bilan dars va darsdan tashqari vaziyatlarda tarbiyaviy jarayonni milliy mafkura, an'ana va qadriyatlar asosida tashkil etish;

d) o'quvchilarni bilim olishga qiziqishini oshirish maqsadida pedagogik ta'sir ko'rsatishning turli usullaridan foydalanish;

e) ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda belgilangan maqsadga erishish uchun, mahalla faollari, ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikni mustahkamlash.

O'qituvchining o'quvchilar hamda o'qituvchilar jamoasi bilan uzviy aloqada bo'lishi, uning jonli muloqotni to'g'ri tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar bilan jonli muloqotga kirishib, ularning hurmat e'tiboriga sazovor bo'lish birdaniga sodir bo'ladigan va ta'lim-tarbiya sohasida yutuqlarga darhol yetaklaydigan jarayon emas. Buning uchun o'qituvchi yillar davomida tayyorlanadi, pedagogik mahorat sirlarini egallaydi, tajribali ustoz-o'qituvchilarning yutuqlaridan foydalanadi.

Yosh o'qituvchilar uchun jonli muloqotni tashkil etishda talab qilinadigan vazifalar.

- o'quvchilarning individual xususiyatlarini, psixik holatini chuqur o'rganish, sinf jamoasining rasmiy va norasmiy liderlari faoliyati bilan tanishish, ularga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish;
- jonli muloqot asosida mustaqil fikrlovchi, o'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga intiluvchi erkin shaxsga ta'lim-tarbiya berishi shartligini unutmaslik;
- jonli muloqotning pirovard natijasi o'quvchilarni o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati bilan mas'uliyatni his yetishini ta'minlashi, ularni ongli ravishda ozod va hur fikrlovchi inson bo'lib tarbiyalanishini ta'minlash;
- jonli muloqot tufayli o'quvchilarning yuksak darajadagi intellektual salohiyatlarini, aql zakovati qudratini yuzaga chiqarishga erishish.

Pedagogikada jonli muloqotning muhim jihatlaridan biri uning vositalaridir. Vositalar tashkilotchilik qobiliyati, baho beruvchi, intizomga undovchi bo'lishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda o'qituvchi o'z ishining mohir ustasi bo'lishi uchun tashkilotchilik qobiliyati asosida ta'sir ko'rsatishga ko'proq yondashishi lozimligi ta'kidlanadi.

O'qituvchilarning jonli muloqoti uchta qarama-qarshi shakllarga ega bo'lgan faoliyatlardan birida namoyon bo'ladi:

- ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikda hamkorlik qilishlari;
- o'qituvchining o'quvchilarga tazyiq o'tkazishi va ularning faolligini ro'yobga chiqarmasligi;
- o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muloqotda, nisbatan mo'tadil munosabatda

bo'lishi va o'quvchi jamoasi tomonidan hal etilayotgan barcha muammolardan o'zini chetga olishi.

Muloqotdagi noo'rin vaziyatlarni o'qituvchining o'zi tajribasizligi tufayli paydo qiladi. U o'quvchilar bilan bir xil o'zaro jonli muloqot olib bora olmaydi, ba'zi ishtirokchilarga nisbatan tazyiq o'tkazsa, ba'zi ishtirokchilarga muvofiq ravishda faoliyat olib boradi.

O'qituvchi jonli muloqotga emotsional tus berish bilan neytral holat orqali muloqotdagi faoliyatini ijodiylikdan salbiylikka o'zgartirishi mumkin. Bularning hammasi muloqot muhitini, sinfdagi ma'lum iqlimni o'zgartiradi. Takomillashgan pedagogik muloqot o'qituvchining o'z jonli muloqoti jarayonida va erishilgan yutuqlari natijalarini muntazam nazorat qilib borishini nazarda tutadi.

To'g'ri tashkil etilgan pedagogik muloqot davomida o'qituvchi tanlagan vositalar ta'lim-tarbiya jarayonining vazifa va sharoitlariga muvofiq kelishini o'lchovchi vosita sifatida tushuniladigan pedagogik nazokat mujassamlanadi.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchi jonli muloqot orqali quyidagi funksiyalarni bajaradi:

birinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonining o'qituvchi tomonidan yakka holda olib borilishi va bu faoliyatga yagona o'zi javobgarligi;

ikkinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonida bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik tizimni bir maromda ta'minlashi;

uchinchidan, ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini belgilovchi o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatida muayyan bir tizimning tashkil qilinishi;

to'rtinchidan, o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi erkin shaxs sifatida shakllantirish, yashirin iste'dodini ro'yobga chiqarishga erishish imkoniyatlaridan foydalanish;

beshinchidan, barkamol inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi sifatida o'qituvchi pedagogik faoliyatining birlamchi vazifasi ekanligini unutmaslik.

Jonli muloqot jarayonida o'quvchilarning xulqi ijtimoiy qonuniyatlar maromiga zid kelsa, u holda uning xatti-harakatiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladi, ya'ni, e'tiroz, tanbeh, ogohlantirish kabi vositalar qo'llaniladi. Jonli muloqot o'qituvchilarning axloqiy namunalari muhim ahamiyatta ega bo'lib, axborot almashinuv, o'zaro ta'sir kabi muloqot vositalarining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Har bir fikr va e'tiroz bildirilganda, muloqotdan o'quvchining ruhiy o'zgarishlariga, tashqi ko'rinishiga e'tibor berish, lozim bo'lganda o'qituvchining uzr so'rashi, tavoze bilan o'quvchiga murojaat qilishi o'qituvchi muomala odobining muhim belgisidir.

Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot jarayonida nojo'ya xatti-harakati, qo'polligi, o'ylanmay bildirilgan noto'g'ri fikri, ortiqcha imo-ishoralari natijasida o'quvchilar bilan bo'ladigan jonli muloqotning buzilishiga, tuzatib bo'lmas qaltis vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Oqibatda muloqot odobi, yaxshi muomala bilan fikr almashuv o'z o'rnini nizoli vaziyatlarga bo'shatib beradi. Ushbu salbiy holatlarga yo'l qo'yilmaslik uchun, pedagogik muomalada o'quvchilar bilan o'zaro munosabat hurmat va ishonch negizida qurilishi kerak. Bunda o'qituvchi o'quvchining huquq va majburiyatini, maktabda, jamoada, oilada bajaradigan vazifalari nimalardan iborat ekanligini har lahzada eslatib turishi lozim.

8.3. O'QITUVCHINING O'QUVCHILAR BILAN MULOQOTNI TASHKIL ETISH USULLARI VATARBIYAVIY JARAYON TAMOYILLARI

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti samarali bo'lishi uchun suhbatdoshni o'ziga moyil qilib olish zarur. O'zaro moyillikka erishish uchun amalda qo'llanilib kelinadigan bir qator murakkab bo'lmagan pedagogik ta'sir etuvchi usullardan foydalaniladi. Ularning eng muhimlari o'quvchi *ishonchini qozonish; ta'sir etish va ma'qullash* usullaridir.

Ishonchini qozonish usuli o'quvchilar bilan muloqot asosida ta'sir ko'rsatishning yuqori samara beradigan usuli. U o'quvchi ongiga qaratilgan bo'lib, idrok qilish orqali o'quvchilar ishonchini qozonishni va ularning roziligini nazarda tutadi. Ishonchini qozonish dalillash, isbotlash orqali olib boriladi. Ishonchini qozonish usuli muloqot dasturi sifatida darsdan tashqari jarayonlarda, o'quvchi bilan yakka holda suhbatlarda, ma'naviy-tarbiyaviy soatlarda qo'llaniladi. Ishonchini qozonish usuli yordamida o'qituvchi o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantiradi, ularda o'z-o'zini tarbiyalashga nisbatan javobgarlik hissini oshiradi.

Ishonchini qozonish usuli nafaqat o'qituvchi bilan muloqot jarayonida, balki ta'lim-tarbiyaviy faoliyatdan tashqari holatlarda ham o'quvchiga ta'sir qiladi. O'quvchi ishonchini qozonish ijobiy yoki salbiy natijalar paydo qilishi ham mumkin. O'qituvchi ishontirish bilan o'quvchida ijobiy xislatlarni uyg'otishi uchun tarbiyaviy metodlarni o'z o'rnida qo'llashi shart. Tarbiya jarayonida har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Chunki bir xil yoshdagi o'quvchilar psixik jihatdan turli xarakterga ega bo'lishi mumkin. O'quvchilarning qobiliyat va iqtidorlari, qiziqishlari, irodaviy xislatlari *har xil bo'lgani uchun* bir o'quvchiga nisbatan foydali bo'lgan ishonchini qozonish usuli, *boshqasiga zararli bo'lishi* mumkin. Shuning uchun har bir o'quvchining ruhiyatini, *psixologiyasini, ichki dunyosini* o'qituvchi muntazam o'rganib borishi, o'quvchilarning *o'ziga xos xususiyatlarini*, tarbiyalanuvchi temperamentining umumiy tiplarini o'rganish *metodikasini bilish lozim*. Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglashi, *sust fikr yuritishi*, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki *g'ayratsizligi*, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yoki ishga tez *kirishib ketishi kabilar* nerv faoliyati tizimiga bog'liq bo'lib, o'qituvchining o'quvchilar *ishonchini qozonishi* uchun ularni bilishi va zarur bo'lgan xulosalarni ishlab chiqishi *shart*.

O'quvchilar ishonchini qozonishning yana bir muhim xususiyati o'quvchilarni shaxs *sifatida rivojlanishida* o'z-o'zini tarbiyalashidir. O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchining o'zini *o'zi idora qilishi*, o'zida erkinlikni, ijtimoiy mavqeyini, tashabbuskorlik va mustaqillikni *shakllantirishdir*. O'quvchining yashirin qobiliyatlari o'z-o'ziga ishonch orqali yuzaga

chiqadi. O'quvchi uchun o'z o'zini baholash qiyin jarayon. O'quvchi ta'lim-tarbiya berayotgan o'qituvchilarga ishonch bilan ergashib, o'ziga nisbatan ishonch ruhida tarbiyalanar ekan, unda avvalo, mustahkam iroda shakllanadi, o'z burchini to'g'ri tushunadi, bilish va o'rganishga qiziqishi kuchayadi, o'z-o'zini har tomonlama takomillashtirishga intiladi, o'ziga atrof muhitdagi o'rtoqlari ko'zi bilan xolisona baho beradi, o'ziga ishonadi va unda qoniqish hissi paydo bo'ladi. Xarakteridagi salbiy odatlarni, zararli sifatlarni tez anglab, ularni yo'qotish va bartaraf etishga intiladi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muloqotida **ta'sir etish va ma'qullash usuli** muloqotning eng ko'p ishlatiladigan umumiy jarayonidir. Ikki suhbatdoshning bir-birlariga ta'sir ko'rsatishlari, tarbiyaviy maqsadni ma'qullattirish vositasi sifatida o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ushbu usul vositasida o'qituvchi o'quvchi ruhiyatiga va xulq-atvoriga tarbiyaviy maqsadni ko'zlab sezilarsiz ravishda psixologik ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi psixikasida nazoratsiz kiradi. Ushbu usul, muloqot jarayonida o'qituvchi o'quvchilarda axloqiy-irodaviy xislatlarni faol takomillashtiradi. O'qituvchi xushmuomalaligi, muosharat odobining cheksiz qudrati bilan o'quvchilar psixikasining anglanmagan qirralariga pedagogik ta'sir etadi, o'qituvchi va o'quvchining yaqindan muloqotda bo'lishini, bir-birlariga ishonchini, topshiriqlarni ma'qullab vaqtida bajarish uchun javobgarlik hissini shakllantiradi.

O'qituvchi o'quvchilar jamoasi bilan pedagogik muloqotni har tomonlama mukammal tashkil etish va ko'zlangan maqsadga erishishi uchun tarbiyaviy jarayonning jamiyat talablariga mos keluvchi yetakchi **tamoyillari**dan o'rinli foydalanishi lozim:

1. Tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishda demokratik yondashuv. Muloqot jarayonida o'qituvchi o'quvchini ijtimoiy qadriyat deb tan olishi, har bir bola, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilishi, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini e'zozlashi lozim. Zero, ta'limni isloh qilishdan asosiy maqsad, tarbiyada demokratiyaning ustunligi, tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining bir-birlariga o'zaro ishonchi, hamkorlik asosida pedagogik munosabat mohiyatini ijobiy tomonga yo'naltirish demakdir. Muloqotni demokratik uslubda tashkil etishdan maqsad, ta'lim-tarbiyani insonparvarlashtirish, pedagogik faoliyat markazida inson shaxsi turganini unutmaslik, insonga nisbatan bebaho boylik sifatida munosabat tuyg'ularini o'quvchilarda ham shakllantirish vazifasi bajariladi.

2. O'quvchilar bilan do'stona munosabat. Aslida muloqotdan maqsad o'quvchilar bilan do'stona munosabatni ro'yobga chiqarishdir. O'quvchi shaxsini hurmat qilish o'qituvchining insonparvarlik tuyg'ularidan kelib chiqadi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish, ularga cheksiz mehr-muhabbat ko'rsatish va ularga ishonish shart. Bolalarga nisbatan hurmat tuyg'usi ularning kuchiga kuch qo'shadi, o'z imkoniyatlariga ishonch tuyg'usini shakllantiradi, tarbiyaning samaradorligini oshiradi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish va munosabatni adolatli talabchanlik mezonlari asosida qurishdir. Do'stona muloqot o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi bilimlarni puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi

va mukammal shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobi o'qituvchilarning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasida aks etadi. O'qituvchining o'ziga va o'z kasbiga, o'quvchilarga bo'lgan munosabati uning muloqotida yaqqol namoyon bo'lishi mumkin.

O'z faoliyatini endigina boshlagan o'qituvchilar ayniqsa, har bir o'quvchining kelajagiga umid bilan qarashlari, unga individual yondashishga harakat qilishlari, tarbiyaviy jazolash usullarini tartibsiz qo'llamasliklari, o'quvchilar jamoasi oldiga istiqbolli tarbiyaviy maqsadlarni qo'yishga intilishlari lozim. Yosh o'qituvchilar ma'lum bir pedagogik mahorat sirlarini egallashga intilmasalar, o'z fanidan bilimlari sayoz bo'lsa, shaxslararo munosabatlarga ijodiy yondashmasalar, kommunikativ qobiliyatini takomillashtirib bormasalar, o'quvchilar uni asta - sekin tan olmay qo'yishadi. Natijada o'qituvchi va o'quvchilar muloqotida tuzatib bo'lmas xatoliklar paydo bo'lishi mumkin.

3. Muloqotni ijtimoiy hayot qonuniyatlari bilan bog'lab olib borish. Yosh avlodning o'sib ulg'ayishi va shakllanishiga hayot, ijtimoiy muhit qonuniyatlari ham muntazam ta'sir etadi. Muhit ijtimoiy omillarning eng muhim xususiyati bo'lib, u shaxsga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muhit deganda, shaxsning tarbiyalanib, shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi olam voqealari, hodisalar majmui tushuniladi. Muhit tushunchasi o'zida geografik-hududiy, ijtimoiy va mikromuhit xususiyatlarini ifodalaydi. Ayniqsa, oila, maktab, do'stlar davrasi, tengqurlar kabilarni o'z ichiga oladigan mikromuhit shaxsni tarbiyalash jarayoniga muhim ta'sir yetishi pedagog va psixolog olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Oila muhiti o'quvchining tarbiyasi va barkamol inson sifatida shakllanishida o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega. Shuning uchun o'qituvchi muloqotni tashkil etishda ota-onalar, mahalla faollari, o'quvchilar jamoasi faollari, uchastka nozirlari bilan doimiy aloqada bo'lib, ular bilan birgalikda faoliyat olib borishi kerak. Muloqotda ijtimoiy hayot qonuniyatlarini hisobga olish, o'quvchilarni maqsadli tarbiyalashda muvaffaqiyatlarga erishish uchun zamin yaratadi.

4. Muloqotni tashkil etishda mehnat faoliyatining o'rni. Ta'lim muassasalarida o'quvchilar o'z mehnat faoliyatlari bilan qobiliyatlari va iste'dodlarini namoyon qiladilar. Mehnat – yosh avlodni yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvorini namoyon qiluvchi, kasbiy qobiliyatlarini uyg'otuvchi, tarbiyaviy jarayonning eng qadimiy va sinalgan vositasidir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani jismonan chiniqtiradi va faollashtiradi, xulq mukammalligini ta'minlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qilib shakllantiradi. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotni ularning mehnatsevarligiga yoki dangasaligiga qarab belgilasa ham bo'ladi. Ta'lim muassasalarida bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muhabbat va mehnat qiluvchilarga hurmat ruhida tarbiyalashda o'zaro muloqotning o'rni cheksiz. Ta'lim muassasalarida o'qish va bilimlarni o'zlashtirishning o'zi ham mehnatdir. Muloqotdan maqsad ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun mehnat tarbiyasi bilan aloqadorlikda olib borilishi lozim.

5. Qo'rquv va hayajonga asoslangan muloqot uslubi. Bunday muloqot uslubiga odatda yosh, tajribasiz o'qituvchilar tushib qolishi mumkin. Ushbu uslub asosida boshlangan muloqot ko'pincha o'quvchilarni tez-tez ogohlantirish, ularni qattiqqo'llik bilan tarbiyalashga harakat qilish, o'qituvchi yoqtirmagan o'quvchilar xatti-harakatini ta'qiqlash vaziyatida olib boriladi. O'quvchilar faolligi, tashabbuskorligi inkor etiladi. Natijada o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida ko'z ilg'amas qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi.

Muloqot jarayonidagi ushbu qarama-qarshiliklar o'quvchilarda o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlar bilan o'qituvchining o'quvchilarga qo'yadigan talablari va ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishidan paydo bo'ladi. Ba'zan o'quvchining ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq kelmasligidan, yoki o'qituvchining o'quvchilar yosh xususiyatlarini, fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik jihatdan sog'lomligini bilmasliklari oqibatida ziddiyatlar kelib chiqadi. Muloqot jarayonidagi ushbu ziddiyatlarni bartaraf etishda asosan o'qituvchining o'zi qizg'in faoliyat olib borishi, ustoz o'qituvchilar tajribalaridan foydalanishi, lozim bo'lganda, tortinmasdan ulardan yordam so'rashi maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, axloqiy normalarni o'zlashtiradilar. *O'quvchi eng yaxshi insoniy fazilatlarni, axloq-odobni, muloqot madaniyatini asosan o'qituvchi timsolida anglab olishini unutmaslik kerak.* O'quvchilar jamoasida o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Ular odatda ikki xil bo'lib biri rasmiy, ikkinchisi norasmiy muomala deyiladi.

Rasmiy muomala munosabatlari O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, direktiv hujjatlariga asoslanadi.

Norasmiy muomala pedagogik etika va estetikaning qonuniyatlariga va o'qituvchi odobiga asoslanadi va jamoaning har bir a'zosi tomonidan ixtiyoriy ravishda bajariladi. Muloqot odobi psixologik qonuniyatlar, odob normalari va qoidalari, talablari hamda o'qituvchilar jamoasining fikri asosida boshqariladi.

8.4. O'QITUVCHINING MULOQOT ASOSIDA SINF JAMOASINI BOSHQARISH USULLARI

Ijtimoiy munosabatlar ko'lamining kengayishi o'qituvchidan o'sib kelayotgan yosh avlodni o'ta murakkab xususiyatga ega munosabatlar jarayonida har tomonlama chuqur bilimga ega, barkamol inson qilib tarbiyalash vazifasini qo'ymoqda. Psixologik, intellektual va fiziologik jihatdan sog'lom muhitda mukammal tarbiyalangan inson hayotiy qarama-qarshiliklar, xususan turli buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolish, nosog'lom turmush kechirish va noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etishdan o'zini saqlab qola oladi. Shuningdek, shaxsning aqliy salohiyatga egaligi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omildir.

O'zbekiston Respublikasida demokratik va huquqiy jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda yosh avlodning mustaqil va erkin fikrlay olishi ro'y berayotgan voqea-hodisalarga shaxsiy munosabatini bildirishga imkon beradi. Ijtimoiy borliqda kechayotgan o'zgarishlarga nisbatan shaxsiy nuqtayi nazarning shakllanishi shaxs faolligini ko'rsatuvchi muhim jihatlardan biridir. Qolaversa, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxs o'z imkoniyatlari, qobiliyatlarini erkin namoyon eta oladi. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning ham asosiy maqsadi erkin, mustaqil fikrga ega bo'lgan barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Ushbu yuksak javobgarlikni talab qiluvchi vazifalar o'qituvchilar zimmasiga yanada ulkan mas'uliyatlarni yuklaydi. Xususan bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni e'tirof etadi: "Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak"[1] - deya ta'kidlaganlari ham bugungi kunda ta'limga katta ahamiyat berilayotganini ko'rsatmoqda.

Pedagogik mahorat bo'lajak o'qituvchilarda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun mas'uliyat hissini shakllantiradi. O'qituvchi bunday murakkab vazifalarni amalga oshiruvchi, davlat va jamiyatning ishonchli vakilidir. O'quvchilar jamoasini birlashtiruvchi sinfda ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va boshqarishda o'qituvchining bilimi, pedagogik mahorati va psixologik xususiyatlari ochiq namoyon bo'ladi. Avvalo, o'qituvchi va o'quvchilar orasida o'zaro hamkorlik va bir-birlariga nisbatan ishonch tuyg'ulari bo'lishi hamda o'qituvchi o'z kasbiy bilimlaridan tashqari boshqa o'quv fanlarini ham puxta egallagan bo'lishi lozim.

Zero, sinf jamoasini boshqarish – pedagogik jamoa, ota-onalar oldida o'qituvchining obro'-e'tibori qay darajada ekanligini ko'rsatuvchi mezon. O'qituvchining axloqiy

[1] Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi. 2022-yil 28-yanvar. https://yuz.uz/uz/news/.

saviyasini, bilimini muloqot asosida sinf jamoasini boshqarishda erishayotgan yutuqlari belgilaydi. Odatda o'qituvchilarning xarakteri, individual xususiyatiga qarab:

- tashabbuskor;
- ijodkor;
- tashabbussiz;
- o'z fikriga ega bo'lmagan;
- barcha ishlarga befarq qarovchilar toifasiga ajratishadi.

Pedagog va psixolog olimlarning ko'p yillik ilmiy izlanishlari, kuzatishlari va ilmiy tajribalariga asoslangan holda o'qituvchilarning rahbar sifatida sinf jamoasini boshqarishida qo'llaydigan muloqot uslublarini quyidagicha tavsiflaydilar:

1. Avtoritar uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar.
2. Demokratik uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar.
3. Liberal uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar.

Avtoritar uslubda faoliyat olib boradigan o'qituvchi ish faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlar mujassamlashgan bo'ladi:

- o'zi yolg'iz holda sinf o'quvchilari faoliyatining ta'lim-tarbiyaviy yo'nalishlarini belgilaydi;
- o'zi sinf jamoasi faollarining ko'magisiz o'quvchilarga ko'rsatmalar va buyruqlar beradi;
- jamoadagi ta'lim-tarbiyaviy jarayonga javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;
- sinf o'quvchilarning unga so'zsiz bo'ysunishini yoqtiradi va unga da'vo qiladi;
- har qanday ziddiyatli vaziyatlarda ham sinfda qattiq intizom asosida ish olib boradi;
- sinf jamoasi a'zolariga berilgan har bir topshiriqning to'liq bajarilishini talab qiladi;
- o'zi bildirgan fikrlarni inobatga olmagan, gap qaytargan yoki fikr bildirgan o'quvchini aslo yoqtirmaydi;
- o'quvchilarga bildirgan tashakkuri ham go'yo buyruqdek chiqadi, so'zlari, muomalasi qattiq va qo'pol;
- muloqotda no'noqligi uchun o'quvchilarga biror muammoni to'liq tushuntirmasdan uning natijasini talab qiladi.

Avtoritar uslublarda pedagogik faoliyat olib boruvchi o'qituvchi "Mening aytganim aytgan, deganim degan" shaklidagi prinsip asosida pedagogik faoliyat olib boradi. U sinf jamoasi bilan muloqotga kirishishda quyidagi uslublarni qo'llaydi: buyruq, ko'rsatma berish, qattiqqo'llik bilan ishlash, tarbiyaviy jazo turlarini tez-tez qo'llash. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayoniga qo'pol, dag'al, do'q-po'pisa, majbur etish, qo'rqitish, cho'chitish orqali kirishadi. Ushbu uslub o'qituvchi asab tizimini doimiy taranglashib yurishiga sabab bo'lib, uning sog'ligiga putur yetkazishi mumkin. Natijada o'qituvchi tez charchaydi. Avtoritar usulning ijobiy tomonlari ham bor: ya'ni, ular faqat favqulodda vaziyatlar jarayonida ishlatilishi (yong'inda, suv toshqinida, aholini evakuatsiya qilishda) mumkin. O'qituvchi muloqotining ushbu uslubda boshqarilishi sinf jamoasini tarqoqlikka, hamjihatlikning buzilishiga olib keladi.

Demokratik uslub asosida faoliyat olib boradigan o'qituvchining bosh shiori o'quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmalarini va ongli intizomni hosil qilishdan iborat. O'qituvchining muloqoti barcha demokratik talablar asosida quriladi. Zero, "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi"[1]. Ushbu uslubni mukammal egallagan o'qituvchi o'z pedagogik faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlarni mujassamlashtiradi:

- pedagogik faoliyatda sinf jamoasining fikr va mulohazalariga tayanib ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etadi;
- sinf jamoasining tashabbusini ma'qullaydi, rivojlantiradi, o'quvchilarning erkin fikr bildirishlariga imkoniyat yaratadi;
- muloqot jarayonida o'quvchilar fikr-mulohazalarini inobatga olib, pedagogik faoliyatida qo'llaydi;
- muloqotga kirishishning asosiy shakllari: iltimos, maslahat berish, samimiy muomala.

Demokratik uslubda muloqotni tashkil etuvchi o'qituvchi hozirgi zamon talablariga, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlardan kutilayotgan maqsadlarga javob bera oladi. O'qituvchining vazifasi barkamol inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb bilgan holda, yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan tengdoshlariga namuna bo'ladigan bilimli, ma'rifatli, aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli o'quvchilarni tarbiyalash uchun qizg'in pedagogik faoliyat olib borishi lozim. Muloqot jarayonida o'quvchilarning jamoa bo'lib birlashishlari, ularda o'zaro yordam tuyg'usini o'stirishga xizmat qilishi kerak. Samarali demokratik tarbiyaviy jarayon, sinf jamoasi a'zolarining qobiliyat va iste'dodlarini yuzaga chiqaradi, o'quvchining jamoada har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar paydo qiladi. O'quvchilar bilan muloqotning erkin demokratik asosda tashkil etilishi sinfning ahil jamoa bo'lib birlashib, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda muvaffaqiyatlarga erishishiga zamin yaratadi. Yaxshi uyushgan jamoada har bir o'quvchining fikri ulkan tarbiyaviy kuchga ega.

Liberal uslub asosida faoliyat olib boruvchi o'qituvchi xususiyatlariga sho'rolar zamonidan qolgan ta'lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlar mujassamlashgan. O'qituvchining pedagogik faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlar mavjud:

- tashabbussiz, eski qolipdagi metodlar asosida pedagogik faoliyat olib boradi;
- sinf jamoasining pedagogik qonuniyatlarga asoslangan tarbiyaviy faoliyatiga aslo aralashmaydi;
- sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiyaga oid turli muammolarga ko'maklashmaydi, aksincha yuzaki qarab chiqadi;
- o'z mustaqil fikriga ega emas, kasbiy faoliyatiga oid har qanday javobgarlikdan o'zini olib qochadi;
- o'quvchilarga berilgan topshiriqlarning natijalari bilan qiziqmaydi;
- o'quvchilarning kelajagiga, qiziqishlariga, taqdiriga e'tiborsiz, beg'am qaraydi;

[1] Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 97-bet.

- o'zining kasbiy pedagogik faoliyatiga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'ladi.

Biroq, yillar o'tib, zamonlar o'zgargan sari, XXI asrda jamiyatning ijtimoiy talablaridan kelib chiqib, o'qituvchining xulq-atvori, pedagogik va psixologik bilimlar saviyasi, o'z kasbiy faoliyatiga nisbatan munosabati, pedagogik va axborot informatsion texnologiyalarini puxta o'zlashtirish saviyasi ham o'zgarmoqda. Shu bois, o'qituvchilar o'z bilim va tafakkurlari nuqtayi nazaridan kelib chiqib, sinf jamoasini boshqarishning turli shakl va metodlarini amalda qo'llamoqdalar. Sinf jamoasining har qanday boshqaruv uslubi o'qituvchi muloqoti asosida tashkil etiladi. Muloqotdan kutilayotgan natija, tarbiya asosida o'quvchining ongini va tafakkurini boyitish va o'zgartirishdir.

8.5. O'QITUVCHINING SINF JAMOASINI MULOQOT ASOSIDA BOSHQARISH BOSQICHLARI

Biz yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlarga asoslanib, muloqot asosida sinf jamoasini boshqarishda o'qituvchi uchun lozim bo'lgan quyidagi bosqichlarni tavsiya etamiz:

Sinf jamoasi bilan muloqotni tashkil etishning birinchi bosqichi. *Mazkur bosqichda talab faqat o'qituvchilar tomonidan qo'yiladi. Bu sinf jamoasi shakllanishining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu davrda o'quvchilar jamoasi hali tarbiyalanuvchi jamoa bo'lmay, balki "birlikni tashkil etuvchi" guruh hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan talablarning qo'yilishiga e'tiborsiz qarashi tabiiy bir holat.* O'qituvchi tashkilotchi sifatida jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatlarini tashkil qilishi va ularni yagona maqsad atrofida birlashtirishga erishishi lozim, shundagina jamoa qaror topadi. O'qituvchi muloqoti asosida o'quvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok yetishi faollashadi, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat birligi jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishni paydo bo'lishiga olib keladi. O'quvchilarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasidagi tajribalarga ega emasliklari bois o'qituvchining asosiy maqsadi muloqot asosida jamoa a'zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat.

Ushbu bosqichda o'qituvchining talabchanligi, jamoaning barcha a'zolariga birday talabni qo'ya olishi, u tomonidan qo'yilayotgan talabning qat'iyligi, izchilligi hamda murosasizligi muhim omil hisoblanadi. Bu vaziyatda o'qituvchining muloqotda "hukmdorlik" qilishi uzoq davom yetishi mumkin. Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faollarining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir.

Sinf jamoasi bilan muloqotni tashkil etishning ikkinchi bosqichi. *Ushbu bosqichda jamoa faollarining o'qituvchi muloqotidan kelib chiquvchi talablarni*

qo'llab-quvvatlashi hamda o'z navbatida bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tavsiflanadi. O'qituvchi jamoada paydo bo'ladigan muammolarni yolg'iz o'zi hal qilmaydi. Jamoa faollari bilan qizg'in muloqot natijasida ta'lim va tarbiyaviy ishlarni olib boradi.

O'quvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrning muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda o'qituvchi muloqotni jamoaning muhim ishlarini o'quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishiga, tadbirlarni o'tkazishga, faoliyat natijalarini muhokama qilishga, jamoa faoliyatining ijodiy xususiyat kasb yetishini ko'rsatuvchi omillariga tayanib tashkil qiladi.

Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faollarining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faollari, jamoa a'zolari orasida hurmat qozona olishi, ularga namuna bo'lishi, o'z burchlarini aniq va puxta bajarishi hamda o'z mavqelaridan noo'rin foydalanmasliklari kerak.

Sinf jamoasi bilan muloqotni tashkil etishning uchinchi bosqichi. *Sinf jamoasi faliyatida bu bosqich sermahsul hisoblanadi. Endilikda jamoa ishiga faqat faollargina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotida ijtimoiy va erkin fikrlash vujudga keladi. O'qituvchi mazkur yo'nalishda muloqotni maqsadga muvofiq va izchil pedagogik faoliyat olib borgan sharoitdagina o'quvchilarda erkin fikr yuritish va ongli intizomni shakllantirishga erishishi mumkin.* Shu maqsadda o'qituvchi muloqot asosida u yoki bu tadbir rejasini, jamoaning birgalikdagi faoliyatini va uning a'zolari xatti-harakatini jamoa bo'lib muhokama qiladi, turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo tarbiyaviy bilimlarning targ'iboti tashkil etiladi.

Sinf jamoasi bilan muloqotni tashkil etishning to'rtinchi bosqichi. *Bu bosqichda o'qituvchi muloqoti barcha sinf jamoasi a'zolarining jamoa oldida turgan vazifalari asosida o'z-o'zlariga qat'iy talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish joizki, har bir bosqichda ham jamoa a'zolari o'zlariga nisbatan muayyan talablar qo'yishlari lozim. Ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi bilan ajralib turishi zarur.*

To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash asosida olib borilishi kerak. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli va o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda o'qituvchi muloqoti asosida amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo'yish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi.

A.S.Makarenko sinf jamoa a'zolari o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlarning ichki xususiyatlariga ulkan ahamiyat bergan va jamoada shakllanadigan quyidagi eng muhim

belgilarni ajratib ko'rsatgan:

1. O'z jamoasi bilan g'ururlanish asosida o'z qadr-qimmatini anglash.
2. Jamoaning har bir a'zosida qaror topgan do'stona birlik.
3. Tarbiyali, ishchan harakatga yo'llovchi faollik.
4. Hissiyotni boshqara olish hamda muloqot odobiga amal qilish[1].

Tajribali pedagog olim tomonidan ta'kidlab o'tilgan ushbu fikrlar o'qituvchining sinf jamoasi bilan tashkil etiladigan muloqotida va o'quvchilar oldiga qo'yadigan talablarni tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Puxta o'ylab qo'yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi maktabda muayyan tartib o'rnatilishini ta'minlaydi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muloqotini ta'minlaydigan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natijalar beradi:

1. Qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi hamda ularning yosh xususiyatlari inobatga olingan bo'lishi kerak.
2. Talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim.
3. Jamoaning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatiga nisbatan qo'yilayotgan talablari jamiyat talablari bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi shart.
4. O'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

O'qituvchi qo'yilayotgan talablar hajmini va tizimini bilib o'rgangan holda, talab qo'yish metodikasini ham o'zlashtirgan bo'lishi lozim.

Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo'shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab ish. O'quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashlari mumkin, biroq aksariyat holatlarda ularga rioya qilmaydilar. Shu bois muntazam ravishda xulq-atvorni mashq qildirish lozim.

Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatiladi. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinf xonasidagi navbatchilik, stendda baholarni qayd etib borilishi va boshqalar. Qo'yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo'lishi zarur. Olib borilayotgan nazorat natijalaridan o'quvchilarni doimiy ravishda ogoh etib borish maqsadga muvofiqdir.

[1] Макаренко А.С. О воспитании. //Золотой фонд педагогики.- М.: Школьная пресса, 2003.- 192 с.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Pedagogikada muloqot qanday xususiyatlarni o'zida namoyon etadi?
2. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad nima?
3. Pedagogik muloqot funksiyalariga ta'rif bering?
4. V.A.Kan–Kalik o'qituvchining pedagogik muloqoti tizimini qanday yo'nalishlar asosida ta'riflaydi?
5. Muloqotning har bir bosqichida yosh o'qituvchi nimani bilishi kerak?
6. Tashkilotchi va ijrochi o'quvchilar to'g'risida tasavvurlaringizni ayting.
7. O'qituvchining o'quvchilar bilan pedagogik muloqoti qanday prinsiplarda amalga oshiriladi?
8. O'qituvchining jonli muloqoti qanday uslublar asosida takomillashtiriladi?
9. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot orqali qanday ta'lim va tarbiyaviy funksiyalarni bajaradi?
10. O'qituvchining pedagogik ta›sir etuvchi usullariga ta›rif bering?
11. O'qituvchining rahbar sifatida sinf jamoasini boshqarishda qo'llaydigan muloqot uslublarini sanang.
12. O'qituvchi muloqotini ta›minlaydigan asosiy talablar haqida o'z fikringizni bildiring?

Talabalarning mustaqil tayyorgarliklari uchun topshiriqlar

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o'z fikr – mulohozalaringizni bildirib "Mustaqil ish" yozing:

1. "Muloqotning pedagogik – psixologik xususiyatlari".
2. "Demokratik jamiyatda o'qituvchi va o'quvchi munosabati".
3. "O'qituvchi va o'quvchi munosabatlarida ziddiyatlarning pedagogik yechimi".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4312785.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent shahri, 2024-yil 1-fevral № O‘RQ – 901.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarori – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2020, 27-28-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni. https://lex.uz/docs/6008663.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent. – O‘zbekiston. – 2017.– 488 b.
7. Karimov I.I. O‘qituvchi, ustoz, murabbiy.... //Talabalar va yosh o‘qituvchilar uchun. Risola. – Qo‘qon DPI, 2009. – 99 b.
8. Макаренко А.С. О воспитании. //Золотой фонд педагогики.- М.: Школьная пресса, 2003.- 192 с.
9. Mambetova L.M. 9-sinf Ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish – Toshkent, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi.
10. Педагогика. (Под ред. П.И. Пидкасистого).- М.: Педагогическое общество России, 2003.- 608 с.
11. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjaeva va boshqalar) – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. – 380 b.
12. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001.
13. Suxomlinskiy V.D. Bolalarga jonim fido. – T.: “O‘qituvchi”, 1984- 254 b.
14. Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o‘quv qo‘llanma (L. I. Ruvinskiy tahriri ostida). – T.: “O‘qituvchi”, 1991. – 376 b.
15. Hotamov N.T. Davraga she’r ulashing. – T.: “MERIYUS”, 2009. – 287 b.
16. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: “Iqtisod – moliya” 2009.- 156 b.

9-BOB.

PEDAGOGIK TEXNIKA – PEDAGOGIK MAHORATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Tayanch tushunchalar:

Pedagogik texnika; imo–ishora; ma'noli qarash; istehzoli tabassum; tarbiyalanuvchi obyekt; aktyorlik san'ati; integrasion usullar; ilg'or va novator o'qituvchilar; ma'naviy va estetik qiyofa; "Mehnat professiogrammasi"; nutq texnikasi; so'z qudrati; fonasion ovoz; kommunikativ malakalar; gnostik malakalar; pedagogik ijodkorlik; "Murabbiylik shartlari"; mimika; pantomimikà; hissiy holat; o'qituvchining anatomik–fiziologik xususiyati; mimik ifoda; o'qituvchining tashqi ko'rinishi; o'qituvchining gavda holati; talaffuz tarzi; ijobiy tarbiyaviy ta'sir; nutq tempi; ovoz diapazoni; relaksatsiya usullari; integrasion bilimlar; ko'nikma va malakalar; o'qitish samaradorligi.

9.1. O'QITUVCHINING PEDAGOGIK TEXNIKASI HAQIDA MA'LUMOT

Pedagogik texnika – o'qituvchining nafaqat ta'lim–tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari – bu avvalo o'qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalari hisoblanadi, ya'ni uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasi va bilimini tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongi va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilardir.

O'qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko'nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida o'qituvchi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida qanday tashkil qilishi, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo'lib o'rganiladi. Birinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlari va xulqi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim–tarbiya jarayonida o'z–o'zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo'ladi:

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika);
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hissiyoti va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo'ya ta'sirlarga berilmaslik;
- mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi) bilishi va o'z o'rnida qo'llay olishi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning rolini beqiyos deb biladi. Chunki u o'qituvchiga o'z gavdasi harakatlarini to'g'ri tuta bilishi (mimika, pantomimika), his-tuyg'ularini (emotsiyasini) boshqara olishi, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallashi va ularni o'quv faoliyatida, o'qishdan tashqari ta'lim va tarbiyaviy faoliyatlar jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntiradi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, bu guruh ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

- o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;
- ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;
- ta'lim muassasasida va o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
- o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

Demak, pedagogik texnika o'qituvchi kasbiy faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisiki, u o'qituvchining pedagogik faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi.

Ilg'or va novator o'qituvchilarning texnik mahorati pedagogik faoliyat olib borishlarida, mimik va pantomimik harakatlarida, ovozini idora qila olish xususiyatlarida kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, o'qituvchilar pedagogik texnika san'atini mukammal egallaganlar, uning ko'nikma va malakalarini o'zlarida aniq shakllantirishgan va turli pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlariga egadirlar.

Pedagogikada o'qituvchi chuqur hissiyotga berilishini, shaxsiy hayotidagi turli ruhiy vaziyatlar tufayli kayfiyatining o'zgarib turishini o'zi qattiq nazorat qilish talab qilinadi. Ushbu nazoratni o'qituvchining o'zi boshqarishi lozim. Bu jarayonning ijobiy natijalari o'qituvchining refleksiv qobiliyatlarida namoyon bo'ladi.

O'qituvchining pedagogik texnikasida – yana bir muhim xususiyat pedagogik ta'sir ko'rsatishdagi o'qituvchining ma'naviy va estetik qiyofasidir. Bu tarbiyalanuvchilarga yaqqol namoyon bo'ladigan xususiyatdir. Agar o'qituvchi ma'naviy qashshoq bo'lsa, nutqi tartibsiz va muloqotda no'noq bo'ladi, didi past, o'z hissiyotlarini jilovlay olmaydigan qo'pol bo'lsa, uning ta'lim-tarbiya berishi haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Pedagogik texnikaning sirlarini egallash yo'llari o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotlar va mustaqil pedagogik faoliyat jarayonida shakllanib boradi. Pedagogik texnika sirlarini mukammal egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'qituvchi o'z-o'zini doimiy shakllantirib borishi, ya'ni o'z oldiga qo'yilgan talablar nuqtayi nazaridan mohir o'quvchi shaxsiy fazilatlari va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyati muhim rol o'ynaydi.

9.2. PEDAGOGIK TEXNIKA – O'QITUVCHI FE'L-ATVORINI NAMOYON ETUVCHI VOSITA SIFATIDA

Barcha millatning orzusi bo'lgan barkamol avlodni sog'lom va komil inson bo'lib voyaga yetishida ota-onasi bilan birga o'qituvchilarning o'rni va ahamiyati doimo e'tirof etilgan. Zero insonni inson qilib kamol toptirishda, unga bilim va tafakkur, vatanga sadoqat, mehr-oqibat, orzu va istaklar bilan yashash tuyg'ularini singdirishda, jamiyatimizning munosib fuqarosi bo'lib, hayotdan mustahkam o'rin egallashida o'qituvchi va murabbiylarning hissasi beqiyos. Ularning ta'lim-tarbiya sohasida erishayotgan muvaffaqiyatlari tinimsiz mehnatlari natijasida yuzaga kelayotganligi barchaga ayon. Bu uzoq, mashaqqatli mehnat, ta'lim va tarbiyada ta'sir etish usullarining sayqal berilganligida, turli amaliy vazifalarning o'z o'rnida qo'llanilishida va ta'lim va darsdan tashqari faoliyatda zarur bo'ladigan maxsus ko'nikmalarning mukammal hal qilinishida namoyon bo'ladi.

O'qituvchining pedagogik faoliyatida nutq texnikasi, ovozni bir maromda egallashning qanchalik muhim ekanligini ushbu kasb egalari yaxshi bilishadi. O'qituvchining xatosiz, chiroyli va tushunarli gapirishi, o'z nutqini ifodali va mazmundor qilib sayqallashi, so'zda o'z mulohazalarini, fikr va tuyg'ularini aniq aks ettira olishi, imo-ishoralarni va ifodali nigohni belgilangan nuqtaga aniq yetkazishi – kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishning garovidir.

Pedagogik texnika – o'qituvchiga o'z tarbiyalanuvchilarini ko'rish, eshitish va his qilish imkoniyatini beradigan ko'nikmalar majmuidir. Mashhur pedagog A.S.Makarenko o'z asarlarida shunday yozgan edi: "Tarbiyachi tashkilotchi bo'lishi, hazillashish, quvonish va jahldorlikni o'z o'rnida qo'llashi kerak. U ta'lim dargohiga qadam qo'ydimi o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin"[1].

Pedagog olim Y.P.Azarov ilmiy tadqiqotlarida pedagogik texnikaga quyidagicha ta'rif berilgan: **birinchidan**, rivojlangan pedagogik texnika o'qituvchi pedagogik faoliyatida o'zini chuqurroq va yorqinroq namoyon qilishga, o'quvchilar bilan munosabatda o'zidagi barcha yaxshi, kasbiy jihatdan ahamiyatli tomonlarni ochishga yordam beradi. Pedagogik texnika o'qituvchiga kerakli so'zni, ohangni, nigohni, imo-ishorani tez va aniq topishga yordam beradi, shuningdek, keskin va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda ham, aql va idrok bilan xotirjam fikrlash, tahlil qilish qobiliyati asosida ziddiyatlardan tez va oson chiqish imkoniyatini beradi, o'qituvchiga o'z kasbiy faoliyatidan qoniqish hissini

[1] Макаренко А. С. О воспитании. //Золотой фонд педагогики.- М.: Школьная пресса, 2003.- 192 с.

sezishga bevosita sharoit yaratadi.

Ikkinchidan, shaxsiy pedagogik texnika o'qituvchining yoshiga, jinsiga, temperamentiga, xarakteriga, kayfiyatiga, ruhiy holatiga, sog'ligiga, anatomik-fiziologik xususiyatlariga sezilarli darajada bog'liqdir.

Masalan, nutqning ifodaliligi, tozaligi, xatosizligi ustida ishlash o'qituvchi tafakkurini bir maromda rivojlantiradi. Ruhiy holatni bevosita boshqara olish usullariga egalik inson tabiati uchun muhim deb e'tirof etiladigan vazminlik fazilatining o'sishiga olib keladi. Bundan tashqari, pedagogik faoliyatda o'zaro ta'sir etish jarayonida o'qituvchining pedagogik texnika sohasidagi barcha ko'nikmalari bir paytda namoyon bo'ladi. O'z-o'zini kuzatish (refleksiya) esa ifoda vositalarini tanlashni muvaffaqiyatli tarzda yo'lga qo'yish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnikani egallash jarayonida o'qituvchining shaxs sifatidagi insoniy xislat va imkoniyatlari, umumiy va kasbiy madaniyati darajasini aks ettiradigan axloqiy va estetik jihatlari, pedagogik takti va nazokati yanada to'liq ochiladi.[1] Tadqiqotchining pedagogik texnikaga nisbatan bergan ushbu ta'riflarida o'qituvchi kasbiy faoliyati uchun pedagogik texnika naqadar muhim qurol ekanligi ta'kidlanadi. Ushbu tasnifda mualliflarning nisbiy qarashlari ma'no jihatidan bir-biriga yaqinligi kuzatiladi. **V.P.Galaxovaning fikriga ko'ra, "pedagogik mahorat"ning mukammal tasnifini – o'qituvchining pedagogik texnikasidan izlab topish lozim.**

Mashhur olim pedagogik texnika – "o'qituvchining shaxs sifatida o'zini yanada yorqinroq, ijodiy, mukammal ifoda eta olishga hamda kasbiy pedagogik faoliyatda yuqori natijalarga erishishga, o'quvchilarga o'z fikrini, bilimini qalban yetkaza olishga imkoniyat beradigan qobiliyatlar majmuasi"ni bildirishini ta'kidlaydi[2]. Pedagogik texnika – o'z xulq-atvorini boshqara olish qobiliyati va bola shaxsi, bolalar jamoasiga pedagogik ta'sir o'tkaza olish qobiliyatini o'z ichiga oladi - deydi. Ko'rinib turibdiki, V.P.Galaxovaning pedagogik texnikaga oid ta'rifini mukammal berilgan ta'riflar sinfiga kiritish mumkin.

---

[1] Азаров Ю.П. Искусство воспитывать. — 2-е изд. — М., 1985.

[2] Галахова П.В. Педагогическая техника в профессиональной подготовке учителя //Автореф. дисс... канд. пед.наук. – Казань, 1987. – 14 стр.

9.3. PEDAGOGIK TEXNIKA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OVOZ, TALAFFUZ ETISH VA TO'G'RI NAFAS OLISH

Pedagog-tadqiqotchi I.R.Kalmikova o'z asarlarida, matn mazmunan qanchalik qiziqarli va ifodali bayon etilgan bo'lmasin, agar u so'zlovchi-notiq tomonidan tushunarsiz tarzda, bo'g'iq, kuchsiz, dag'al, ifodasiz ovoz bilan aytilsa, tinglovchilar tomonidan mutlaqo qabul qilinmasligini ta'kidlaydi. Gapirish paytida nutqning mazmuni, notiqning tashqi ko'rinishi, o'zini tutishi kabi ovozi ham ulkan ahamiyatga ega. Ovoz yordamida u o'z ma'lumotini auditoriyada o'tirgan tinglovchilarga yetkazadi. Inson ovozi – so'z bilan ommaga ta'sir qilishda qudratli vositadir[1].

Ham so'z ila elga o'limdan najot,
Ham so'z ila topib o'lik tan hayot.

– deb ta'rif beradi Alisher Navoiy. Notiq o'zining chiroyli, jarangdor va ta'sirchan ovozi tufayli ilk daqiqalardanoq tinglovchilar diqqatini jalb qiladi, ularning qalbidan joy olib, ishonchini qozonadi.

V.D.Suxomlinskiy o'qituvchining "gapirgan har bir so'zi puxta o'ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma'lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak" deb ta'kidlaydi.Olimning fikricha, o'qituvchining har bir so'zi nafaqat o'quvchi qulog'iga aytiladi, balki uning qalbiga ham qaratilgan bo'lishi shart.

So'z qudrati haqida R.Dekartning quyidagi fikrlari o'qituvchilarga ham bevosita taalluqlidir: "So'zlarning ma'nolarini, qudratini odamlarga aniq ifodalab tushuntirib bering, shunda siz insoniyat olamini barcha anglashilmovchiliklarning yarmidan xalos qilgan bo'lasiz".

Bundan tashqari, ovoz inson kasbiy martabasining oshishiga yordam beradi, yoki askincha to'sqinlik qiladi. Ingichka, chiyildoq ovozli jurnalistni, yoki quloqni qomatga keltiradigan, manqa ovozli mashhur siyosat arbobini tasavvur qila olasizmi?

Yaxshi ovoz nafaqat oddiy ishchidan tortib, tadbirkorlik sohasida kasbiy yutuqlarga erishishida, balki kundalik-hayotiy muloqotda ham zarur bo'ladi. Yoqimli, jozibali ovozga ega bo'lgan insonlarni, odatda, dag'al, chinqiroq ovozli odamlarga nisbatan mamnuniyat bilan uzoq tinglashadi.

Ovoz inson fikrini va tuyg'ularini ifodalash qobiliyatiga ega. Pedagogik faoliyatda ma'ruza paytida, she'r va prozani o'qib berishda ifodali gapirish, har bir jumlani, gapni

[1] Калмикова И.Р. Работа над техникой речи в курсе школьной риторике.- Ярославль, 1997,

o'ylab, muhim so'zlarga va ifodalarga urg'u berib, ulardan turli vaziyatlarda to'g'ri foydalangan holda ovoz ohangi va kuchiga ega bo'lish pedagogik texnikada muhim ahamiyatga ega.

Ovoz – o'qituvchi og'zaki nutqining asosiy ifodaviy vositasi bo'lib, u o'z ovozidan mukammal tarzda foydalana bilishi lozim. P.Soperning ta'kidlashicha, "odamlarning bizga bo'lgan munosabatiga ko'ra, ovozimizdan olgan taassurotlari nihoyatda kuchli. Zero, insonlar faqat ovozga e'tibor beradilar va uningchalik doimiy e'tiborga muhtoj narsaning o'zi yo'q[1]".

Ovozga egalik fonasion (tovush), nutqiy nafas olish bilan bevosita bog'liq. Bu o'z navbatida nafaqat muloqotda yordam berib qolmay, balki talabalarning tuyg'ulariga, fikrlariga, xulqiga va muomalalariga ta'sir qilgan holda o'qituvchi nutqining estetik va hissiy boyligini yetkaza olish imkoniyatini beradi.

Nutq texnikasiga ega bo'lish – nutqiy nafas olishga, ovozga, talaffuz tarziga va orfoepik talaffuzga ega bo'lish demakdir. O'qituvchi pedagogik texnikasini shakllantirar ekan, doimo o'z talaffuz tarzi, nafas olishi va ovozi ustida ishlashi lozim.

Nafas olish fiziologik vazifani bajarib, vujudning hayotiy faoliyatini ta'minlaydi. Bir paytning o'zida u nutqning energetik asosi hamdir. Nutqiy nafas olish **fonasion** (yunon. phono – tovush) nafas olish deb ataladi. Kundalik hayotda, nutqimiz ko'pincha dialogik ko'rinishda bo'lgan paytda, nafas olish uncha qiyinchilik tug'dirmaydi.

Nafas olish – bevosita tovush manbai hisoblanadi. "Ovozning yaxshi bo'lishi, - deb ta'kidlaydi T.F.Posadskova, – fonasion (nutqiy) nafas olish, mushaklar tarangligini bo'shashtirish ko'nikmalarini egallash, tovushning chidamliligi, jarangdorligi, muloyimligi, ta'sirchanligi va barqarorligini egallash demakdir"[2].

Nafas olishning asosiy tayanchi – umurtqa pog'onasidir, shuning uchun ovozga erkinlik berishning birinchi bosqichi – gavdani to'g'ri tuta bilish odatini shakllantirish, asab jarayonlarining nozikligini va muloqot ehtiyojini ta'minlaydigan mushaklar harakatini bir maromda saqlashdir. O'zingizni tashqaridan kuzatishni o'rganishingiz lozim, bunda e'tiborni o'zingizning nima qilayotganingizga emas, balki qanday qilib bajarayotganingizga qaratish lozim.

Turli keraksiz his-tuyg'ulardan xalos bo'lish (relaksatsiya) o'qituvchi energiyasini tejaydi, ovoz apparatining mahsuldorligini ta'minlaydi. Taranglik esa ovozni kuchaytiruvchi (lablardagi, yuzdagi, ko'krakdagi) titrashni yo'qotadi. To'g'ri nafas olish tovushni tayanchga, ya'ni umurtqa pog'onasiga qo'yishga yordam beradi va tomoqda emas, balki yengil ovoz bilan erkin gapirishni ta'minlaydi.

Nafas olish mashqlaridan maqsad – ko'p miqdorda havo yutishni o'rganish ko'nikmasini ishlab chiqish emas, balki mavjud havo zahirasini tejab sarflashni mashq qilishdir. Tovush nafas chiqarish paytida hosil qilinganligi sababli nafas chiqarishni tashkil

---

[1] Сопер П. Основы искусства речи. — М., 1992. — С. 159.

[2] Основы культуры и искусства речи: учеб.пособие/Т.Ф.Посадскова и др. - М., 1999. - С. 288.

etish to'liq, tinch va sezilmaydigan nafas olishni to'g'ri yo'lga qo'yish asosi hisoblanadi.[1]

Talaffuz tarzi – bu ayrim tovushlarni aniq va to'g'ri talaffuz qilishdir, bular esa nutq a'zolarining to'g'ri ishlashi orqali ta'minlanadi. Artikulyatsion apparat faol, ortiqcha zo'riqmasdan ishlashi lozim. Barcha tovushlar va tovush birikmalarini istalgan sur'atda aniq, yengil va oson talaffuz qilish lozim.

Nutqdagi barcha talaffuz va ovozdagi buzilishlar organik (uni to'g'rilash bilan logopedlar shug'ullanishadi) va noorganik (ular mashqlar yordamida bartaraf qilinishi mumkin) turlarga bo'linadi. Bu buzilishlar artikulyasion apparatning (lablar, til, jag'larning) bo'shashganligi va unlilar talaffuzida og'izning yarim ochilishi, undoshlarning noaniq talaffuz qilinishi bilan bog'liq.

O'qituvchilar orasida tabiat bergan qobiliyatli ovoz sohiblari ham uchraydi, lekin bular juda kam miqdorda. Ushbu yaxshi ovoz ham yillar o'tishi bilan buziladi va zavol topadi. Ovozga sayqal berishda tez aytishlar va mashqlar yordam beradi, bulardan maqsad tovushlarni aniq va to'g'ri talaffuz qilishni ishlab chiqish, artikulyasion apparat tizimini faollashtirishdir.

O'qituvchining ovoz gigienasiga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda ovoz bilan bog'liq kasb egalarida, ayniqsa o'qituvchilarda ovoz apparatining kasallanish darajasi juda yuqori. Ovoz apparatining ovoz buzilishiga olib keladigan ortiqcha zo'riqishi o'qituvchi ish vaqtining 50 foizga yaqin qismida gapirishi, buning ustiga mashg'ulotlar paytida odatdagidan ko'ra balandroq ovozda gapirishi oqibatida sodir bo'ladi.

Har bir insonga kuchli, aniq va jarangdor ovoz berilgan. Ovoz ustida mashqlar olib borishda birinchi navbatda uni zo'riqtirib qo'yishdan xalos qilish lozim, uning yaxshi sifatlarini takomillashtirish uchun tartibli mashqlar rejasini tuzish kerak. Ovoz va tana o'rtasida, ayniqsa o'qituvchining bajarayotgan qo'l, oyoq, gavdaning har bir harakatida chuqur aloqadorlik mavjud, shuning uchun ovoz ustida mashqlar olib borish zaminida nutqiy muloqot muhim ahamiyatga ega. Asosan teatr pedagogikasiga suyanadigan va nutqiy nafas olish, ovoz hosil qilish va talaffuz ko'nikmalari ko'rinishidagi majmua sifatida o'qituvchiga o'z so'zlarining butun boyligini o'quvchiga yetkazishga imkon yaratadi.

[1] Основы культуры и искусства речи: учеб.пособие / Т. Ф. Посадскова и др; под ред. В. А. Лапшина и Ю. П. Богачева. — М., 1999. - С. 288.

9.4. PEDAGOGIK TEXNIKANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rivojlangan pedagogik texnikaning o'ziga xos xususiyatlari o'qituvchiga o'quvchilar bilan muloqot jarayonida zarur so'z va gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda bosiqlik va osoyishtalik, aniq fikr yuritish, vaziyatni fikran va tez tahlil qilish kabi qobiliyatlarini namoyish etish bilan ifodalanadi. Pedagogik texnikaning ushbu xususiyatlari o'qituvchi kasbiy mahoratida aniq ifodalangan individual shaxsiy shakl oladi, ya'ni o'qituvchining psixologik–fiziologik xususiyatlari asosida uning shaxsiy pedagogik texnikasini tarkib toptiradi.

Individual pedagogik texnikaning shakllanishi o'qituvchining yoshi, jinsi, mijozi, fe'l-atvori, salomatligi, anatomik-fiziologik xususiyatlariga bog'liq. O'qituvchilarda individual shaxsiy pedagogik texnika malakalarini shakllantirish muammolari ayniqsa psixolog olimlarning tadqiqot markazidan o'rin olgan. Psixolog olimlar R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, M.Abdullajonova kabilar o'qituvchilarning individual kasbiy faoliyatini batafsil o'rganib, o'qituvchining shaxsiy "Mehnat professiogrammasi"ni ishlab chiqdilar. Olimlarning fikrlariga ko'ra, o'qituvchi professiogrammasi o'qituvchilarga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga oladi hamda har bir fan o'qituvchisining alohida ixtisoslashgan xarakteristikasini belgilab beradi. Jumladan, ular ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib boradigan kasb egalarining "O'qituvchi-murabbiy professiogrammasi"da quyidagi xislatlar, ya'ni "Pedagogik texnika" malakalari mujassamlashgan bo'lishini ta'kidlaydilar:

"O'qituvchi-murabbiy professiogrammasi"da pedagogik texnika malakalarining ifodalanishi.

1. **O'qituvchining shaxsiy xislatlari:** bolalarni sevishi, kamtarligi, dilkashligi, mehnatsevarligi.
2. **Kasbiga xos bilimlari:** ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyatini bilishi, pedagogik va psixologik bilim asoslarini egallashi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga asosan psixologik imkoniyatlarini anglashi, tarbiyaviy ta'sir etishning samarali usullaridan oqilona foydalana olishi, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan faoliyat mazmunini puxta bilishi.
3. **Kasbiga xos xislatlari:** milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlar, milliy an'ana va urf-odatlarning asl mohiyatini tushunishi, kuzatuvchanligi, pedagogik qobiliyatga egaligi,o'zini qo'lga ola bilishi, o'zini anglay olishi, pedagogik takt, nutq madaniyati.

4. **Shaxsiy pedagogik uddaburonligi:** dars mashg'ulotlarida zarur materiallarni tanlay olishi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishi, ta'lim-tarbiya jarayonini istiqbolli rejalashtirishi, o'quvchilar jamosini boshqara olishi.
5. **Tashkilotchilik malakalari:** o'quvchilar jamoasini uyushtira bilishi, turli ziddiyatli vaziyatlarda ham o'quvchilar jamoasini boshqarishi, amaliy muammolarni hal etishda uddaburonligini namoyish eta olishi.
6. **Kommunikativ malakalari:** o'quvchilarni o'ziga jalb etishni bilishi, o'quvchilar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik muloqotlarni tashkil qilishi, o'quvchilarning jamoada o'zaro munosabatlarida bir xil muvozanatni tartibga solishi.
7. **Gnostik malakalari:** o'quvchilarning asab psixik holati darajasini aniqlay olishi, o'z pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi, ustoz o'qituvchilar mahoratini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib borishi, psixologik va pedagogik adabiyotlardan to'g'ri foydalana bilishi, o'quvchilar xulq-atvorini mukammal o'rganishi.
8. **Ijodiy hislatlari:** o'z pedagogik mahoratini doimiy takomillashtirib borishi, o'quvchilarni tarbiyalashda o'z dasturini ishlab chiqishi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishi, o'quvchilar nazari bilan voqelikni tahlil qilish qobiliyati, o'quvchilarga pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko'ra olishga intilishi.

24-chizma. Professiogrammada pedagogik texnika malakalari

Psixolog olimlarning fikricha, ushbu professiogramma yosh o'qituvchilarga kelgusida o'qituvchilik kasbini to'g'ri va ongli ravishda tanlab, kasbiy mahoratlarini takomillashtirib borishlariga yordam beradi. Demak, o'qituvchi professiogrammasi ham pedagogik texnikani egallashning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, o'qituvchilarning o'z kasbiy texnikasini mukammal egallab, rivojlantirib borishiga va o'z kasbiy faoliyatidan qanoatlanishni his etishga olib keladi. Bularning barchasi o'qituvchilarning tinimsiz pedagogik mehnati tufayli yuzaga keladi. O'qituvchining pedagogik texnikasi – pedagogik faoliyatining tashkiliy shakli bo'lib, qo'l bilan tutib bo'lmaydigan, behad uzoq ijodiy izlanishlar va his-tuyg'ularga boy kechinmalar, tinimsiz pedagogik faoliyat, o'qituvchining fahm-farosati, bilimi va mahorati bilan amalga oshiriladigan qizg'in ijodiy mehnatining mahsulidir.

Bir maromda olib boriladigan tizimli ijodiy mashg'ulot tufayli aktyor yuksak cho'qqilarni egallaydi. O'zgalar obrazini mujassamlashtirishda ma'lum bir qolipdan chiqib keta olmaydi. Demak har qanday ijodkorlik, hatto pedagogik ijodkorlik ham ma'lum bir belgilangan qolipda shakllanishi kerak. U o'qituvchining ichki kechinmalari, tuyg'ulari va hissiy reaksiyalari asosida qurilishi mumkin emas. Chunki, tarbiyalash san'atida o'qituvchining pedagogik texnikasi, ya'ni "bir qolipda"gi mehnat madaniyati borki, u

boshqa biror kasbiy faoliyatga aslo o'xshamaydi. Shuning uchun, respublikamizda tarbiyaviy texnologiyalarni muntazam bilishga intilish, o'qituvchi kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini uzluksiz oshirib borish o'qituvchining bir qolipdagi mehnat madaniyatini shakllantirishga, pedagogik texnika malakalarini doimiy oshirib borishiga qaratilgan.

Hali biror o'qituvchi oliy ta'lim muassasasini tugatib, yoki malaka oshirish kurslarida Vbilim olib birdaniga pedagogik texnika sirlarini mukammal biladigan tajribali o'qituvchi bo'lib qolgani yo'q. O'qituvchida pedagogik texnika ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatish jarayonida, o'quvchilar bilan yakkama yakka muloqot jarayonida, pedagogik amaliyotda shakllanib boradi.

O'qituvchining pedagogik texnikasi ham vatanparvarlikka, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlashga, o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishiga asoslangan bo'lishi shart. Shu ma'noda taniqli adiba va faylasuf olima Tursunoy Sodiqova asarlarida hozirgi kun o'qituvchisiga qo'yiladigan "Murabbiylikning shartlari" oqilona berilgan: "...Siz insonlarning hech bir yo'q joydan "shoxini ko'kartirish", qulfi dilini ochish, dunyosini kengaytirish, kechagi holatidan bugunini yuksakroq qilish uchun bu ishga qo'l urdingiz. Murabbiylikni xohlagan, shu kasbga o'qigan odam murabbiy bo'lib qolmaydi. Ustozlikning o'ziga xos parhezlari, bosib o'tilmaydigan chegara chiziqlari bordir! Har bir ishingizga fidoyilik bilan kirishing. Buning otini ixlos deydilar! Shu ishtiyoq sizda qanchalik kuchli bo'lsa, Tangri sizga shuncha ko'p uquv beradi, ep beradi, mushkullaringizni O'zi osonlashtiradi. Murabbiylikda ta'tilga chiqish, sog'ligi, kayfiyatiga qarab faoliyatini to'xtatish, degan gap yo'q. Yo'lda ham, cho'lda ham, hamma fasl, hamma manzilda, qo'yingchi, umringizning oxirgi nuqtasigacha siz faoliyat ustidasiz. Bu degani, sizning borlig'ingiz, har bir so'z, har bir ishorangiz odamlar uchun nur, madad va xaloskorlikdir.

Nazardan qolgan, qarg'ish olgan, loqayd murabbiylar tarbiya maskanlariga qadam bosmasliklari kerak. Ular ishlayveradilar, ammo o'qituvchilikning noni yuqmaydi, ro'shnolik ko'rmaydilar, falokatlari arimaydi, niyatlariga etmaydilar. Chunki muqaddas kitoblarda "neki bersak, egallab turgan kasb koringizdan berurmiz" deb yozilgan. Kasbga halollik buyuk ibodatdir"[1]. Adiba o'qituvchidan o'z kasbiga sadoqatli bo'lishni, fidoyilikni, tinimsiz mehnatni, o'quvchilarga nisbatan mehr va muxabbatni, halol va pokiza bo'lishni talab qiladi. Bu aynan o'qituvchi pedagogik texnikasining ham muhim xususiyatlaridan biridir.

[1] Содиқова Т. Мураббий ким?... – Т.: "Ислом университети", 2006. 11 – бет.

9.5. KASBIY FAOLIYATDA PEDAGOGIK TEXNIKANI NAMOYON QILISHDA O'QITUVCHINING TASHQI KO'RINISHI

O'qituvchining tashqi ko'rinishi – pedagogik texnikasini namoyon etuvchi eng muhim xususiyatlardan biridir. Sinf sahnasida bajarilayotgan uning xoh ijobiy, xoh salbiy xatti-harakatlari o'quvchilarga ta'sir o'tkaza boshlaydi. Ayniqsa, yosh o'qituvchilar ilk bor darsga kirishlaridan oldin his-hayajonini, qo'rquvini yengishlari, o'zlarini erkin tutishlari, birinchi dars paytida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday muvaffaqiyatsizlikdan o'zlarini yo'qotmasliklari lozim.

Endigina ish boshlayotgan o'qituvchining auditoriya tinglovchilari bilan muloqoti ochiq-oshkora bo'lganligi sababli odatda, unda "muskul tortishishi", o'ziga ishonmaslik qo'rquvni keltirib chiqaradi, u o'zini qo'l-oyog'i bog'langanday sezadi. Imo-ishoralar fikr yo'nalishini aks ettirishi mumkin. Biroq ular unchalik ahamiyat kasb etmaydi. O'qituvchining kasbiy faoliyatida tez-tez uchraydigan, tuyg'ularni ifodalaydigan ruhiy holatni kasb etuvchi imo-ishoralar ko'proq muhimdir.

Shuni ta'kidlash joizki, imo-ishoralar, tananing boshqa harakatlari singari, aytilayotgan fikrlar ortidan emas, balki undan oldin yuradi. Muloqot faol bo'lishi uchun gavda holati ochiq turishi: qo'llarni chalishtirmaslik, tinglovchiga tomon qarab turish lozim. Oldinga bir qadam tashlash aytilayotgan fikr ahamiyatini oshiradi, auditoriyaning diqqatini jamlashga yordam beradi. Orqaga qadam tashlash bilan notiq go'yo tinglovchilarga dam beradi.

O'qituvchining tashqi ko'rinishida, pedagogik texnikasi tizimidagi **mimik, pantomimik** holatlar muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining xatti-harakatini bevosita namoyish etuvchi mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, mashg'ulotlarni samarali va mazmunli o'tishida puxta zamin tayyorlab beradi.

MIMIKA – bu o'z fikrlarini, kayfiyatini, holatini, tuyg'ularini, hissiyotini qosh, ko'z va chehra muskullarining harakati bilan ifodalash san'atidir. Ba'zan o'qituvchi chehrasining va nigohining ifodasi o'quvchilarga so'zlardan ko'ra ham kuchliroq ta'sir qiladi. Imo-ishoralar va mimika, axborotning hissiy ahamiyatini oshirib, uni tinglovchilar tomonidan yaxshi qabul qilinishiga yordam beradi.

Tinglovchilar (ya'ni o'quvchilar) o'qituvchi yuzini ma'ruzadan ko'ra "tez o'qib olishadi": uning munosabatini, kayfiyatini, his-tuyg'ularini aniqlashga urinishadi, shuning uchun yuzda aks etgan tuyg'ularni nafaqat ifodalashi, balki yashirishi ham lozim. Inson yuzidagi eng ifodali a'zo – bu qalb oynasi bo'lmish ko'zlardir.

O'z xulqini va o'quvchilar xulqini anglashda to'g'ri yo'l tanlashni rivojlantirish uchun

psixolog olimlarning ishlarida berilgan tavsiyalar bilan tanishish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining nigohi doimo tinglovchilarga qaratilgan bo'lishi lozim, shunda vizual aloqa o'rnatilib ijobiy natijalar beradi.

Hissiy tashvishlarning tashqarida namoyon bo'lishiga ta'sir qilish vositasida uning kengligini o'zgartirish mumkin, chunki tuyg'ularning somatik va vegetativ namoyon bo'lishini nazorat qilish ularning o'z-o'zidan to'g'rilanib ketishiga olib keladi.

Yangi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rayotgan va o'ziga ishonmaslik, qo'rquv holatidagi yosh mutaxassisga jismoniy va ruhiy jihatdan bo'shashuvga olib keladigan relaksatsiya hodisasini o'tkazish tavsiya qilinadi. Autogen mashqlar – o'ziga xos psixofizik gimnastika – o'qituvchi uchun nafas olish va artikulyasion mashqlar bilan bir qatorda turadigan majburiy bajariladigan mashqlar tizimiga kirishi lozim.

Birinchi mashg'ulotdagi omadsizlikdan umidsizlanmaslik kerak. Bu yerda tizimli ish olib borish, pedagogik faoliyatda asta-sekinlik bilan itoatkorlik quroliga aylanib boradigan psixofizik apparatni mashq qildirish o'qituvchi harakati texnikasini bir maromga yo'naltiradi.



Mimik harakatlar, ifodalar ma'lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtirish imkoniyatini beradi. O'quvchilar o'qituvchining muomalasi va hatti-harakatiga qarab kayfiyatini, munosabatini tezda "**uqib**" oladilar. Shuning uchun oiladagi ba'zi noxushliklar, hissiyotga berilish, g'am va tashvishning o'qituvchi chehrasida va mimik belgilarida ifodalanishi mumkin emas. Chunki ushbu noxushliklar o'qituvchining pedagogik faoliyatiga dars mashg'ulotlarini mukammal bajarishida o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. O'qituvchining chehrasida, mimik belgilarida faqat dars mashg'ulotlariga xos bo'lgan, o'quvchilarga ta'lim va tarbiyaviy topshiriqlarni echishga yordam bera oladigan ko'rinishlarni ifodalash lozim.

O'qituvchining chehrasidagi ifoda, nutqi, o'quvchilar bilan o'zaro munosabati uning individual xarakteriga mos bo'lishi kerak. O'qituvchi chehra ko'rinishidagi mimik ifoda, ta'lim-tarbiya qonuniyatlariga mos ishonch, ma'qullash, ta'qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Bunda ovozdagi turli o'zgarishlar, nutqning tushunarli bayon etilishi muhim ahamiyatga ega. Mimik ifodaning asosiy belgilarini namoyish etishda qosh, ko'z, chehra ko'rinishi ishtirok etadi.

Qosh, ko'z, chehra o'quvchilar javobidan qoniqish, xursand bo'lish, faxrlanish yoki e'tirof, norozilik, qoniqmaslik, xafa bo'lish va boshqa belgilarni ifodalash bilan birga, o'quvchilar diqqatini bo'lmasdan, boshqalarga xalaqit bermasdan ta'lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishga ham yordam beradi. Shuni alohida qayd qilib o'tish joizki, mimik ifodalar o'qituvchining xarakterini, ichki dunyosini, ma'naviyatini, pedagogik faoliyatining individual xususiyatlarini bekamu ko'st namoyish etadi. O'qituvchining mimikasi ifodalangan nigohi o'quvchilarga, yoki ayrim o'quvchiga qaratilgan bo'ladi. Doskaga, eshikka, derazaga, ko'rgazmali qurollarga yoki devorga nigoh tashlab mimik ifodalarni namoyish qilish aslo mumkin emas.

PANTOMIMIKA – bu o'qituvchining gavdasi, qo'l, oyoq harakatini tartibga soluvchi uslub bo'lib, asosiy natijani ajratib ko'rsatishga yordam beradi, o'qituvchi ma'lum ma'noda o'ziga xos obraz yaratadi.

O'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida o'quvchilar bilan muloqoti muhim ahamiyat kasb etishi barchaga ma'lum. Biroq o'quvchilar bilan muloqotda o'qituvchining pantomimikasi, ya'ni, gavda, qo'l, oyoq harakati to'g'ri ifodalanmasa, ta'lim-tarbiyaga asoslangan muloqot natija bermasligi mumkin. O'qituvchi o'z gavdasi, qo'li, oyoq harakatlarining holati orqali har qanday pedagogik ma'lumotlarning obrazini "chiza" olsa, o'quvchilar bundan zavqlanadilar, ular ichki his-tuyg'ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo'shilib butun ongini o'quv materiallari mazmunini o'zlashtirishga qaratadilar. Pantomimika gavdani rost tutib yura bilish, qo'l va oyoq harakatlarining bir-biriga mosligi, fikrlarini aniq va to'liq bayon qilib qo'lini, boshini turli harakatlarda ifodalash o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi. Shuning uchun o'qituvchining o'quvchilar oldida o'zini tuta bilish holatini tarbiyalashi lozim. (oyoqlari 12-15 cm. kenglikda, bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish). O'qituvchining yurishi, qo'l va oyoq orqali imo-ishoralari ortiqcha harakatlardan holi bo'lishi kerak. Masalan: auditoriyada orqaga oldinga tez-tez yurish, qo'llari bilan turli imo-ishoralar qilish, boshini har tomonga tashlash va hokazo. Bunday holatlar dars davomida o'quvchilarning e'tiborini bo'lib, g'ashini keltiradi va o'rganilayotgan fanga, o'qituvchiga nisbatan hurmatsizlik kayfiyatini uyg'otadi.

O'qituvchi mashg'ulot paytida o'quvchilar oldida to'g'ri turish tarzini ishlab chiqishi lozim. Barcha harakatlar va gavda holati o'zining go'zalligi va oddiyligi bilan tinglovchilar diqqatini jalb qilishi lozim. Gavda holatining estetikasi yomon odatlarni, ya'ni orqa-oldinga chayqalish, gavda og'irligini goh u oyoqqa, goh bu oyoqqa solib turish, stul suyanchig'iga suyanish, begona narsalarni qo'lida aylantirib turish, boshini qashish, burun yoki qulog'ini kovlash va uqalash kabi odatlarni yoqtirmaydi. O'qituvchi mashg'ulot o'tish jarayonida faqat old tomonga yurishi tavsiya qilinadi. U yondan, bu yonga yurish

talabalar fikrini bo'ladi. Old tomonga yurayotganida o'qituvchi muhim voqealarni bayon qilishi mumkin, chunki bunda talabalar o'qituvchini butun diqqatlari bilan eshitayotgan bo'ladilar.

O'qituvchining imo-ishorasi tabiiy va bosiq bo'lishi, yumshoq va kam bo'lgani ma'qul, keskin harakat, gavdaning biror a'zosini siltash hamda qo'pollik pantomimik mohiyatni buzadi.

Imo-ishoralar tasviriy va psixologik turlarga bo'linadi. Talabalarning o'qituvchi nutqini qabul qilish va tushunish jarayoni o'quv vaqtining taxminan 1/4-1/2 qismiga to'g'ri keladigan darsni tinglash jarayoni bilan chambarchas bog'langan. Shuning uchun o'quv materialining tinglovchilar tomonidan to'g'ri qabul qilinishi o'qituvchi nutqining mukammalligiga bog'liq.

O'quvchilar o'qituvchining nutqiy xususiyatlariga juda e'tibor berishadi. Ayrimlar ovoz va uning tembri insonning tabiiy iste'dodi deb hisoblashadi. Biroq zamonaviy eksperimental fiziologiya fanining ta'kidlashicha, har qanday ovozning sifatini tubdan yaxshilash mumkin.

O'qituvchining pantomimik harakatlari tizimida o'z hissiy holatini boshqara olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida qizg'in kuzatuv ostida bo'ladi. Uning kayfiyatidagi o'zgarishlar pantomimik harakatlarida namoyon bo'ladi. Shu tufayli o'quvchilarga ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish jarayonida (darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o'z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo'lishi, umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatida bo'la olish qobiliyatlariga ega bo'lishi zarur. Pantomimik harakatlar tizimi o'qituvchiga birdaniga paydo bo'ladigan ko'nikma emas. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida tinimsiz ishlashi, ilk pedagogik faoliyati davrida kamchiliklarini tezda topib bartaraf eta olishi darkor. Chunki, yillar davomida o'qituvchi o'zining har bir harakatiga moslashib uni odat qilib olishi mumkin. Mukammal pantomimik malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z-o'zini nazorat qila oladi, ko'p yillik faoliyati davomida sog'lom asab tizimini o'zida tarbiyalab asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo'riqishlardan o'zini saqlay oladi.

Pantomimik harakatlarda o'z hissiy holatini nazorat qilishda o'qituvchi quyidagi faoliyatlarga jiddiy e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir:

1. sport bilan muntazam shug'ullanish;
2. yoshlar psixologiyasiga oid bilimlarni doimiy o'rganib borishi;
3. o'quvchilarga nisbatan xayrixohlik va optimizmga ega bo'lishi;
4. o'z harakatini nazorat qilishi (muskul zo'riqishini, qo'l, oyoq va bosh
5. harakatini, nutq tempini bir maromda saqlash, nafas olishini tartibga solish;

6 madaniy hordiqni to'g'ri uyushtirishi (dam olishi, o'z sog'ligiga doimiy e'tibor, lirika, musiqa, yumoristik hajviyalarni sevib o'qiy olish);
7 o'z-o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lib, ta'sir ko'rsata olish.

25-chizma. O'qituvchining pantomimik harakatlari

O'qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchining harakatlarida aktyorlik va rejissyorlik malakalari ham mujassamlashgan bo'lishi lozim. Xususan, gumanitar fanlar o'qituvchilari aktyorlik qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Ma'lum mavzular, obrazlar, tarixiy qahramonlar haqida so'zlaganda aktyorlik, rejissyorlik malakalari zarur. Ular o'qituvchiga o'quvchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishda, mavzu qahramonlariga nisbatan hissiy-qadriyatli munosabatda bo'lish tajribasini o'zlashtirishiga yordamlashadi.

O'qituvchining tashqi ko'rinishida nutq texnikasi, his-tuyg'ularini boshqara olish, mimik va pantomimik malakalar bir qolipda mukammal olib borilganda ko'zlangan maqsadga albatta erishiladi. Bunda so'z, gap ohangi, qarash, imo-ishoralar, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda uddaburonlik, osoyishtalik bilan ziddiyatdan chiqish, voqelikni oldindan ko'ra olish va adolatli tahlil qilishga asoslanish maqsadga muvofiqdir. Bu xususiyatlar o'qituvchining shaxsiy, individual psixik, fiziologik fazilatlari asosida tarkib topadi. Pantomimik harakatlarni boshqarishda ham o'qituvchining individual pedagogik texnikasi, yoshi, jinsi, mijozi, fe'l-atvori, sihat-salomatligi va anatomik-fiziologik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega.

9.6. O'QITUVCHINING PEDAGOGIK TEXNIKA MALAKALARINI EGALLASH MAHORATI

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini mukammal takomillashtirgan holda o'z mahoratini oshirishi uchun quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

1. O'qituvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan pedagogik texnikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri uning nutq texnikasidir (Nutq tempi, diksiyasi, tovush ohangini baland, o'rta, past qila olishi va hokazo).
   Dars jarayonida o'quv materiallarini idrok qilishda o'qituvchining nutqi muhim rol o'ynaydi. Olimlarning fikricha, o'quvchilar tomonidan 1/2 foiz o'quv materialini tafakkur orqali idrok qilish va o'zlashtirish o'qituvchilarning nutqiga va uning so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishiga bog'liq. O'quvchilar o'qituvchining nutqini nihoyatda kuzatuvchanlik va qiziqish bilan tinglaydilar.

Past ohangda gapiradigan o'qituvchining darsi o'quvchilar uchun zerikarli bo'ladi, nihoyatda baland gapirish, oddiy suhbat chog'ida ovozni baland qilib so'zlashish o'quvchilarni darsdan bezdiradi va charchatadi. O'quvchilarning bunday o'qituvchi ta'limidan ko'ngillari soviydi.

Chiroyli, savodli, ta'sirchan gapiruvchi o'qituvchilarning nutqlari o'quvchilar ongiga tez ta'sir etadi, o'quv materiallarini oson o'zlashtirib olishiga katta imkoniyat yaratadi, o'quvchilar bunday o'qituvchilarning darslarini toqatsizlik bilan kutadilar. O'qituvchilar o'z nutqlari ustida tinimsiz ishlashlari, so'zlarning chiroyli, ma'noli, ta'sirchan bo'lishi uchun mashq qilishlari, ovoz diapazonlarining kuchi, nutq tembrining harakatchanligi va diksiyasini doimo mashq qilib borishlari lozim.

O'qituvchi tovush diapazonini, uning tembri bilan bog'lab ishlatsa, gaplari chiroyli, mayin, jozibali chiqib, tinglovchilarni o'ziga jalb etadi va o'quv materiallarini o'zlashtirish mazmunan yanada yaxshilanadi.

2. Pedagogik texnika malakalarini mukammal egallash uchun avvalo, o'qituvchi o'z fanini, o'qitadigan predmetining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda bilishi, pedagogik va axborot texnologiyalarini, pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalay oladigan bo'lishi zarur. Chunki pedagogik texnika o'qituvchilarning individual shaxsiy xususiyatlariga ham bog'liq. Har bir o'qituvchi o'z tafakkuriga, fikrlash qobiliyatiga, o'zining kasbiy yo'nalishi, kasbiy laboratoriyasiga ega bo'lishi kerak. Bu yo'nalish va laboratoriyani o'qituvchilarning o'zlari mustaqil fikr yuritishlari, mustaqil bilim olishlari, pedagogik mahoratini oshirib borishlari orqali qo'lga kiritadilar va mohir o'qituvchiga xos fazilatlarni tarbiyalaydilar hamda kasbiy ideal sari harakat qiladilar.
3. Pedagogik texnika sirlarini mukammal bilish o'qituvchining tashkiliy - metodik malakalarni egallashiga ham bog'liq. Bu malakalar zarur bilimlar bo'yicha ma'ruzalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni o'qish orqali qo'lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalarni o'zining individual kasbiy tajribasida sinab, ko'nikma hosil qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

   Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo'lib ishlash, o'qish, faoliyat ko'rsatish asosida qurilgani ma'qul. Chunki guruh yoki jamoa bo'lib o'qish, ishlash har bir o'qituvchiga refleksiv qobiliyatlari asosida, o'zini boshqalar ko'zi bilan ko'rishni va baho berishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni, muomala va xulq-atvorning yangi shakllarini izlab topish va sinash imkoniyatini beradi.
4. Pedagogik texnikani bir maromda egallashda, har bir o'qituvchining o'z individual dasturini ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday dasturni tuzishdan oldin o'qituvchi o'zida pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining

boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur, ya'ni, o'qituvchining o'z-o'zini bilish, tarbiyalash, pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko'rish, nazariy masalalarini hal qilish uchun tajriba maydonini tashkil qilishga zamin yaratadi. O'quv-tarbiya ishlaridagi natijalarida, nutq madaniyatining to'g'ri yoki noto'g'ri qo'yilishida, harakatidagi mimik va pantomimik holatlarda ro'y beradigan nuqsonlar e'tirof etiladi. Ushbu faoliyat natijasida ko'nikma va malakalar yanada rivojlantiriladi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarining yetishmaydigan jihatlarini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur ma'lum mashqlar yoki mashqlar majmuini o'z ichiga oladi.

5. Shuni ham unutmaslik lozimki, pedagogik texnikani namoyish etishda o'qituvchining umumiy madaniyati, ma'naviy va estetik dunyoqarashi muhim o'rin tutadi. Agar o'qituvchining tashqi ko'rinishi qashshoq, so'zlarni talaffuz qilish qobiliyati past, estetik jihatdan no'noq, bo'lar bo'lmas har xil voqealarga nisbatan o'z hissiyotiga erk beradigan bo'lsa, tarbiyalanuvchilarning e'tiqodiga, aql-idrokiga, bilish va anglash tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, o'qituvchi o'zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashi lozim.

Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, guruh yoki ketma-ketlikda o'tkaziladi. Masalan, zarur bilimlar ma'ruzalarda yoki tegishli adabiyotlarni mustaqil o'qish asosida, integrasion bilimlarni o'rganish, portal, kompyuter texnologiyalari yordamida egallanishi mumkin. Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlar (turli artikulyatsiya, fonasion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) o'qituvchi tomonidan muntazam mashg'ulotlar asosida egallanadi.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda o'qituvchining jamoada faoliyat olib borishi va mashg'ulotlarda o'z-o'zini nazorat qilishi alohida rol o'ynaydi. Pedagogik texnika mashg'ulotlarining bu shaklini ancha batafsilroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda ma'lum darajada ko'rsatib berilmagan.

Har qanday jamoada, xoh o'qituvchilar, xoh o'quvchilar jamoasi bo'lsin, o'qituvchi ular oldida o'zini boshqa kishilar ko'zi bilan ko'rishi, xulq-atvor va muomalaning yangi shakllarini izlab topishi va sinab ko'rishi, o'zining jamoa bilan birga bajaradigan ishi xususiyatlarini anglashi lozim. Shundagina pedagogik faoliyatning individual uslublarini ongliravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Jamoa shaxsning o'z-o'zini bilishi va o'z-o'zini tarbiyalash laboratoriyasi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi usullarini tekshirib ko'radigan, nazariy va amaliy masalalar, turli muammolar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo'lib qolishi mumkin.

Pedagogik texnikaning keng imkoniyatlarini jamoa bo'lib o'rganish, o'qituvchilar orasida bunday jamoalarning eng qulay miqdorini 10-14 kishidan iborat etib belgilash maqsadga muvofiqdir. Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har birining boshqa o'qituvchilar bilan birga faoliyat olib borishda individual psixologik muammolarini juda to'liq ravishda aniqlab hal etish, refleksiv va empatik darajasini jiddiy oshirish, kasbiy pedagogik bilimlarini rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarini kengaytirish

imkoniyatlarini ochib beradi.

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy hamkorlik jihatidan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o'z-o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha muvaffaqiyatli faoliyat olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Barcha hollarda ham individual, ham guruhiy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Bunday ko'nikma va malakalarning mavjudligi pedagogik texnika imkoniyatlarini mukammal shakllantirishni ancha osonlashtiradi. Shunga qaramasdan barcha hollarda ana shu ko'nikmalarni tegishli malakalar tarkibiga kiritish yuzasidan muayyan faoliyat olib borilishi zarur.

Pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'z faoliyatini endigina boshlayotgan o'qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklarning asosiy sababi aynan pedagogik texnikaga oid ma'lumotlarni bilmasligi oqibatida sodir bo'lmoqda. Pedagogik texnika to'g'risida yuqorida aytib o'tilgan fikr va mulohazalarga e'tibor qilmaslik, pedagogik faoliyatda nazariy va amaliy tajribalarning yo'qligi, o'z faoliyatiga tanqidiy nazar bilan baho berolmaslik oqibatida hamda o'qituvchida individual pedagogik texnikani rivojlantirish, tahlil qilish va uni takomillashtirish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyatning yo'qligi mazkur qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri ekanligini unutmaslik kerak. Pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash bo'lajak o'qituvchiga o'zining kasbiy yo'nalishining boshlanishidayoq ko'pgina xatolardan holi bo'lishda, talabalarga ta'lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

Y.P.Azarov so'zlari bilan aytganda, pedagogik texnikaning ustuvor tomoni shundaki, "har bir bo'lajak o'qituvchiga o'zining iste'dodiga mutlaq ishonchni singdirish, qo'rqinch va o'ziga ishonchsizlikni yo'qotish, ijodga bo'lgan qudratli intilishni uyg'otish lozim".

O'qituvchi doimo o'z yurish-turishini, his-tuyg'ularini, kayfiyatini, ijtimoiy-perseptiv qobiliyatlarini, nutq texnikasini boshqarishi lozim. Ta'lim va tarbiya jarayonining texnologik tomonlarini puxta o'rganib shaxs va jamoaga ta'sir qilishi shart. O'qituvchining tashqi ko'rinishi nafosatli bo'lishi kerak; uning kiyinishi, taqinchoqlari, pedagogik vazifalarni hal qilishga bo'ysundirilgan bo'lishi, ya'ni tarbiyalanuvchi shaxsini shakllantirishga samarali ta'sir qilishga qaratilgan bo'lishi lozim.

MAVZUNI O'ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. O'qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko'nikma va malakalardan iborat?
2. Pedagogik texnika tushunchasi ikki guruhga bo'linib o'rganiladi, ularga ta'rif bering.
3. Pedagogik texnikaning muhim xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Pedagog va psixolog olimlar o'qituvchining pedagogik gexnikasi haqidagi fikrlari?
5. "O'qituvchi–murabbiy professiogrammasi"da talqin etilgan pedagogik xislatlari nimalardan iborat?
6. O'qituvchi harakatlarida aktyorlikka xos xususiyatlarga ta'rif bering.
7. T.Sodiqovaning falsafiy fikri: pedagogik texnika va "murabbiylik shartlari"ga o'z mulohazalaringizni bildiring.
8. O'qituvchining tashqi ko'rinishida pedagogik texnikaning qanday holatlari muhim ahamiyat kasb etadi?
9. Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari qanday olib boriladi?
10. Pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalari haqida mulohazalaringiz?
11. O'qituvchining pedagogik faoliyatida mimik va pantomimik harakatlar qanday ahamiyatga ega?
12. O'qituvchining o'z hissiy holatlarini nazorat qilishida qanday faoliyat turlari muhim rol o'ynaydi?
13. Yosh o'qituvchilar o'z shaxsiy pedagogik texnikasini takomillashtirish uchun nimalarga e'tibor berishlari lozim?
14. Pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini takomillashtirish jarayoni?

TALABALARNING MUSTAQIL TAYYORGARLIKLARI UCHUN TOPSHIRIQLAR

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o'z fikr-mulohazalaringizni bildirib, "Mustaqil ish" yozing:

1. "Pedagogik texnikaning o'qituvchi kasbiy faoliyatidagi o'rni".
2. "O'qituvchining milliy an'analarga xos bo'lgan pedagogik teznikasi".
3. "O'qituvchining pedagogik texnikasini takomillashtirishda hozirgi kun talablari".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4312785.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent shahri, 2024-yil 1-fevral № O‘RQ – 901.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4623-son Qarori – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2020, 27-28-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni. https://lex.uz/docs/6008663.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent. –O‘zbekiston.–2017.–488 b.
7. Азаров Ю.П. Тайны педагогического мастерства: учеб. пособие. – М.; Воронеж, 2004. - С. 54.
8. Галахова П.В. Педагогическая техника в профессиональной подготовке учителя //Автореф. дисс... канд.пед.наук. – Казань, 1987. – 14 стр.
9. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi.– T.: O‘zbekiston, 1999. – 29 b.
10. Загвязинский В.И. Педагогическое творчество учителя. Библиотека учителя и воспитателя. – М.: Педагогика, 1987.- 160 с.
11. Коджаспирова Г.М. Теория и практика профессионального педагогического самообразования.- М.: МГОПИ, Альфа, 1993.- 120с.
12. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjaeva va boshq.) -T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007.- 380 b.
13. Макаренко А.С. О воспитании //Золотой фонд педагогики.- М.: Школьная пресса, 2003.- 192 с.
14. Основы культуры и искусства речи: учеб.пособие / Т. Ф. Посадскова и др; под ред. В. А. Лапшина и Ю. П. Богачева. — М., 1999. - С. 288.
15. Самуйленков Ф. Мастерство, педагогический такт – это авторитет учителя. – М.: Просвещение, 1990.- 254 с.
16. Sodiqova T. Murabbiy kim?... – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2006. – 183 b.

10-BOB.

O‘QITUVCHINING NUTQ TEXNIKASI VA NOTIQLIK MADANIYATI

Tayanch tushunchalar:

Professional notiqlik; notiqlik san'ati; qadimgi Yunoniston; "San'atlar shohi"; suhbat metodi; ideal notiq; ovoz ritorikasi; nutq odobi; voizlik san'ati; va'zxonlik; suxango'ylar; nutq texnikasi; til va nutq; nutqning ravonligi; nutqning ta'sirchanligi; grammatik norma; nutqning mantiqiyligi; nutqning tozaligi va ifodaliligi; dialektizm va varvarizm; sultoniya; jihodiya; g'aribona; jargon; vulgarizm; tashqi nutq; ichki nutq; o'qituvchining nutq madaniyati; grammatik norma; metonimiya; metafora; monologik nutq; dialogik nutq; kommunikativ nutq; tovush; diapazon va tembr; nutq funksiyalari; fonosional nafas; diksiya; ritmika; artikulyatsiya;improvizasion; diafragma ishtirokida nafas olish; dialogik nafas oli;. dialogik nafas olish.

10.1. NOTIQLIK SAN'ATINING PAYDO BO'LISHI TARIXI

O'qituvchining pedagogik mahoratida uning nutqi, notiqlik qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa ushbu muammoga mustaqillikdan keyingi yillarda jiddiy e'tibor qaratildi. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda avvalo milliy istiqlol mafkurasi muhim ahamiyatga ega. Mafkuramizning yuksak ustunlaridan biri — millat tilidir. O'zbekiston Respublikasining (yangi tahrirda) 1989-yil 21-oktyabrda qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi N 3561-XI sonli hamda O'zbekiston Respublikasining (yangi tahrirda) 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637 sonli Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni va boshqa hujjatlarda barkamol avlod tarbiyasida o'z ona tiliga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish e'tirof etilgan. Yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida o'qituvchining nutqi, uning notiqlik san'ati alohida e'tibor kasb etadi. Mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A.Karimov ona tilimizni e'zozlab shunday degan edi: "O'z fikrini mutlaqo mustaqil ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbarlik kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin".

O'qituvchining nutqiy madaniyatini shakllantirish uning kasbiy faoliyatida naqadar muhim ahamiyatga egaligi to'g'risida mulohaza yuritar ekanmiz, avvalo, notiqlik san'atining kelib chiqish tarixini bilish lozim. Professional notiqlik san'atining paydo bo'lishi Yunoniston, O'rta Osiyo, va Hindistonda o'zining uzoq tarixiga ega.

Tarixchi olim G.Z. Apresyanning ma'lumotlariga ko'ra, Notiqlik san'atiga eramizdan oldingi VII asrda Yunonistonda asos solingan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilar edi. Ular, notiqlik san'atining yetuk namoyondalari bo'lib, o'zlarining chiroyli so'zlari, baland va ta'sirchan ovozlari bilan odamlar tafakkuriga, ongiga kirib borganlar, ta'lim va tarbiyada ulkan yutuqlarga erishganlar. Shu sababli, notiqlik san'ati va nutq madaniyatining nazariyasiga, uning cheksiz tarbiyaviy ahamiyatiga ilk marotaba qadimgi Yunonistonda asos solinganligi ilmiy adabiyotlarda bayon etiladi. Yunonistonda epos, lirika, drama, haykaltaroshlik, musiqa va me'morchilik san'atlari bilan birga notiqlik san'ati ham murakkab va muhim san'at asari sifatida e'tirof etilgan. Notiqlik san'atini davlatning muhim ijtimoiy-siyosiy ishlariga taalluqli faoliyatdagi ahamiyati uchun hamda yosh avlodni tarbiyalashda ular ongi va tafakkuriga qizg'in ta'sir etuvchi murakkab vosita ekanligi uchun Yunonistonda uni "San'atlar shohi" deb atashgan.

Eramizdan avvalgi V asr Yunonistonda "Notiqlik san'ati"ning eng takomillashgan va rivojlangan davri hisoblanadi. Bu davrda notiqlik san'atining quyidagi uchta qonuniyati qizg'in takomillashtirilib, notiqning unga jiddiy e'tibor berishi talab qilingan:

Yunonistonda "Notiqlik sanati"ning uchta muhim qonuniyati etirof etilgan. Bular:

1. Notiqlik san'ati asosida tinglovchiga tushuntirish (ma'lum bir g'oyani);
2. Notiqlik san'ati asosida tinglovchining tafakkurini uyg'otish (fikri, ongi, maqsadni);
3. Notiqlik san'ati asosida tinglovchini o'ziga jalb qilish (huzur-halovat va qoniqish hissini uyg'otish asosida).

26-chizma. Notiqlikning uchta muhim qonuniyati

Notiqlar ushbu qonuniyatlarga amal qilgan holda "tinglovchilarga halovat bag'ishlash" orqali odamlarni ezgulikka, adolatparvarlikka, vatan oldidagi burchlariga sadoqatli bo'lishga, eng yaxshi insoniy fazilatlarga amal qilib, ularni doimo bajarishga, odob va axloq qoidalariga rioya qilishga chorlar edilar. Bu ularning asosiy vazifasi hisoblanardi. Yunonistonda notiqlik san'atini chuqur egallagan, o'zlarining go'zal va chiroyli nutqlari hamda noyob asarlari bilan jamiyatda hurmat va e'tibor qozongan Sokrat (Suqrot), Platon (Aflotun), Dinarx, Giperid, Gorgiy (Horgiy), Isokrat, Isey, Esxil, Demosfen, Siseron, Kvintilian kabi namoyondalar Yunonistonning mashhur davlat arboblari bo'lib etishganlar.

Yunon notiqlari og'zaki nutqning shakl va qonuniyatlarini, mulohaza va isbot kabi mantiq ilmining qoidalarini chuqur o'zlashtirganlar. Ular o'z fikrlari va tuyg'ularini ruhan o'quvchilar hamda tinglovchilar tafakkuri va ongiga chuqur singdira olganlar va keskin ta'sir o'tkazganlar. Har bir notiq o'z ustida yillab tinimsiz mashg'ulotlar olib borgan, sehrli ovoz sohibi bo'lish uchun nutq texnikasining barcha qonuniyatlariga amal qilganlar. Ular o'zlarining ta'sirchan nutqlarini namoyish qilish bilan notiqlik san'atini "Mafkuraviy va siyosiy kurash hamda yosh avlodni tarbiyalash quroli" deb hisoblaganlar va buni o'z faoliyatlarida isbotlab berganlar.

Mashhur yunon faylasufi Suqrot (eramizdan avvalgi 469-399-yillar) o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda munozara, savol-javob usulini joriy qilib, ushbu usul orqali suhbat metodiga asos solgan.

Suqrotning shogirdi Platon esa o'z ustozi g'oyalarini davom ettirib, savol-javobni notiqlik san'atining bir shakli sifatidagi ahamiyatini o'z asarlarida yoritadi hamda uni inson tafakkuri va ongini, dunyoqarashini og'zaki nutq bilan boyituvchi noyob uslub sifatida baholab, uni mazmunan amaliy va nazariy jihatdan yanada boyitdi.

Yunonistonda notiqlik san'atining har tomonlama takomillashishi Demosfen (eramizdan avvalgi 384-322-yillar) nomi bilan uzviy bog'langan. U yoshlik yillaridanoq notiqlik san'atiga qiziqdi. Tug'ma duduq bo'lishiga qaramasdan, o'quvchi va tinglovchilarning istehzolariga bardosh berib, qizg'in mehnati bilan notiqlik mahoratini namoyish eta olgan. Faqat Demosfen Yunonistonda notiqlik san'atining yetuk namoyodasi, ya'ni o'z davrida "notiqlik san'atining elitasi" sifatida mashhur bo'ldi. U davlat tribunasini notiqlik san'atiga asoslangan siyosiy va mafkuraviy kurash maydoniga

aylantirdi.

Demosfenning notiqlik san'ati to'g'risidagi g'oyalarini uning shogirdi faylasuf, notiq va siyosiy arbob Siseron Mark Tulliy (eramizdan avvalgi 106-43-yillar) davom ettiradi. Qadimgi Yunonistonda nutq mahorati, uni takomillashtirish yo'llari, nazariyasi va tarixi bo'yicha o'z tajribalaridan kelib chiqib Siseronning 19 ta asari, 800 dan ziyod maktublari hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Siseronning notiqlik san'ati tarixiga bag'ishlangan "Brut", "Notiqlik san'ati namoyondalari", "Notiq", "Notiqlik haqida" kabi asarlari shular jumlasidandir. Notiqlik san'atining ulkan imkoniyatlarini, odamlarni va jamiyatni boshqarishda qudratli qurol ekanligini ta'kidlab, uni davlatning siyosiy jihatdan bosh quroli deb hisoblaydi. Shu sababli har bir davlat rahbari va davlat arbobi notiqlik san'atining cheksiz imkoniyatlarini chuqur egallashi lozimligini aytadi. Siseronning notiqlik san'ati nazariyasida "Ideal notiq" haqidagi g'oyalari muhim ahamiyatga ega. Uning fikricha, "Ideal notiq egasi yuksak ma'naviyatli, chuqur bilimga ega, tafakkuri boy faylasuf bo'lishi kerak." Ideal notiqlar tinglovchilar qalbiga va his tuyg'ulariga tez, chuqur kirib borishi, ularning kayfiyatini, ruhiyatini bilib, shodlik va sevinch tuyg'ularini, yoki aksincha, g'azab va nafratini ta'sirchan nutqi asosida uyg'ota olishi lozim.

Siseron tomonidan ishlab chiqilgan va nazariy hamda amaliy jihatdan asoslangan notiqlik san'ati haqidagi ma'lumotlarni, tizimlar va uslublarni rimlik Kvintilian (eramizdan avvalgi 35-95-yillar) ma'lum bir tartibga keltirib, tabaqalashtirib, undan notiqlik san'ati sohasi bo'yicha faoliyat ko'rsatuvchilar unumli foydalanishlari uchun qayta ishlab chiqadi. U notiqlik san'atining balandparvoz, asabga teguvchi teatr artistlariga xos ovoz ritorikasiga qarshi edi. Kvintilianning fikricha, notiq tashqi ovoz natijalari bilan emas, balki ilmiy asosga ega bo'lgan, mazmunan boy, mukammal va "tiniq" nutq orqali ulkan yutuqlarga erishishi mumkin. U "Tarbiya haqida" nomli asarida o'z nazariyalariga asoslanib, notiqlik san'atini o'rganish metodikasini yaratdi. Faylasuf olim o'z asarida ilk bor notiqlik san'atining ta'lim-tarbiya maskanlarida bolalar bilimi, ongi va tafakkuriga ijobiy ta'siri haqidagi g'oyalarini ilgari surdi. Kvintilian o'qituvchilar va tarbiyachilarning qizg'in faoliyat olib borishlari uchun notiqlik san'atini mukammal o'rganishga doir o'zining metodikasini taqdim etdi. Ushbu metodika notiqlik san'ati tarixida ulkan ahamiyatga ega va hozirgi davrda ham o'z qimmatini yo'qotmagan.

10.2. SHARQ MUTAFAKKIRLARI NOTIQLIK SAN'ATI HAQIDA

Mamlakatimizda notiqlik san'atining rivojlanishi O'rta Osiyo madaniyati tarixi bilan bog'liq bo'lib, nutq madaniyati hamisha o'ziga xos mavqega ega bo'lib kelgan. O'rta Osiyoda notiqlik san'atining xususiyatlari shundan iborat ediki, u eng avval o'sha

davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davrda notiqlik san'ati ustalarini nadimlar, qissago'ylar, masalgo'ylar, badihago'ylar, qiroatxonlar, muammogo'ylar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilishi ham ana shundan dalolat beradi. Movarounnahrda notiqlik san'ati **voizlik** deb atalgan. Voizlik, ya'ni va'zxonlik "Qur'on"ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati, ma'nosini anglatgan. "Va'z" so'zi arab tilidan pand-nasihat ma'nosini beradi. Va'z aytuvchi, nutq so'zlovchi shaxs Voiz deb atalgan. Voizlik san'ati tinglovchining, jamoaning ongiga, his tuyg'usiga ta'sir etish mahorati bo'lib, qadimgi Sharqda hukmdorlar ushbu san'at namoyondalari xizmatini yuksak darajada qadrlaganlar. IX asrdan boshlab, davlat hukmdorlari notiqlik bilan bog'liq barcha tadbirlarni maxsus tayyorgarlikka ega so'z ustalariga yuklab, ularni "voizlar" deb ataganlar.

Markaziy Osiyoda XII asrdan boshlab voizlik san'ati nazariyasi va amaliyotini targ'ib qiluvchi ko'plab ilmiy va uslubiy risolalar yozilgan. Jumladan, allomalar Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri", Unsurul Maoliy Kayqovus "Qobusnoma", Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiy "Majolis un-nafois", "Nazmul-javohir", Husayn Voiz Koshifiy "Dah majlis", "Mahzan ul-insho", Ali Yazdiy "Zafarnoma", Xondamir "Makorim ul-axloq", Voiz Samarqandiy "Ravozat ul-voizin", Muhammad Rafiq Voiz "Avbob ul-jinon", Quraysh Saidiy "Anis ul-voizin" kabi o'zlarining asarlari bilan "voiz"lik san'ati xazinasiga munosib hissa qo'shganlar.

Ey farzand, agar sen har qanday notiq bo'lsang ham, o'zingni bilganlardan pastroq tutgil

Voizlik san'ati namoyondalari tinglovchilarning ijtimoiy va siyosiy mavqei hamda lavozimlarini hisobga olgan holda uch yo'nalish bo'yicha faoliyat ko'rsatishgan. Birinchisi, sultoniyot, ya'ni hukmdorlar hamda yuqori tabaqali a'yonlar uchun mo'ljallangan va'zxonlik bo'lib, unda hamdu sanolar aytilgan, ularning obro' e'tibori, martabasi, faoliyatlari ulug'lanib maqtalgan. Ikkinchisi, jihodiya, ya'ni vatan himoyachilariga mo'ljallangan va'zxonlik bo'lib, unda vatanparvarlik, jangovarlik, botirlik, qahramonlik, fidoyilik ulug'langan, dushmanga nisbatan shafqatsiz bo'lish ifodalangan. Uchinchisi, g'aribona deb atalib, asosan mamlakatning oddiy fuqarolariga mo'ljallangan va'zxonlikdir, unda barcha fuqarolar asosan itoatkorlikka, mehnatsevarlikka chaqirilgan. Voizlikning har bir yo'nalishi o'ziga xos ohangga, usulga, jozibaga ega bo'lgan. Voizlar nutqda ma'lum bir muvaffaqiyatga erishish uchun har bir so'zning, tushuncha va ohangning badiiy jihatdan yuksak va ta'sirchanligini ta'minlab, muayyan bir fikr, mulohaza, hukm, g'oya, mafkura va xulosani tinglovchilarga yetkazish maqsadida suxandonlik (ritorika) fanini puxta o'zlashtirishgan.

Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o'zining "Geodeziya" asarida har bir fanning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini ta'kidlab, notiqlik san'atining ildizlari bo'lmish grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojlarning hosilasidir degan g'oyani ilgari surgan.

Ulug‘ vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy to‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go‘zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati cheksizligi haqida shunday deydi: “Qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berish masalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman...” Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida mudarrisning “so‘zlari aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin... Bilish va o‘qishga muhabbati bo‘lsin, o‘rganmoqchi bo‘lgan bilimini charchashni sezmasdan, osonlik bilan o‘zlashtira olsin” deydi.

Unsurul Maoliy Kayqovus tomonidan 1082-1083-yillarda yaratilgan, qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib namunalaridan biri hisoblangan “Qobusnoma”da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz fikrlar bayon etilgan. Muallif farzandiga qilgan nasihatlari orqali o‘quvchini yoqimli, muloyim, o‘rinli so‘zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. So‘zlaganda o‘ylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosalarni ko‘z oldiga keltirib gapirish kerakligini, kishi aql-idrokli bo‘lishi, o‘zini xalq orasida omiy, kamtar tutishi lozimligini eslatib, mahmadonalik qilish, ko‘p gapirish donolik belgisi emasligini ta’kidlaydi hamda “Odamlarda mavjud barcha qobiliyatlarning eng yaxshisi nutq qobiliyatidir” deydi.

“Ey farzand, agar sen har qanday notiq bo‘lsang ham, o‘zingni bilganlardan pastroq tutgil, toki so‘z bilimdonligi vaqtida bekor bo‘lib qolmagaysan. Ko‘p bilu, oz so‘zla, kam bilsang, ko‘p so‘zlama, chunki aqlsiz kishi ko‘p so‘zlaydi, deganlarki, jim o‘tirish salomatlik sababidir. Ko‘p so‘zlovchi aqlli odam bo‘lsa ham, xalq uni aqlsiz deydi...” - deb uqtiradi alloma. U axloqlilikning birinchi belgisini suxandonlikda deb biladi. “Suxango‘ylar notiqlikda rost so‘zlash kerak. So‘zlaganda andishalik bo‘lish, sovuq so‘zlik bo‘lmaslik, kam gapirish, kamtarlik, birovning so‘zini diqqat bilan eshitish ularning burchidir” deb ta’kidlaydi.

Ulug‘ shoir Yusuf Xos Hojib turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo‘lgan “Qutadg‘u bilig” (“Baxt keltiruvchi bilim”) asarida so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va to‘g‘ri qo‘llash haqida “Bilib so‘zlasa so‘z bilig sanalur” degan. Mutafakkir so‘zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda, hovliqmasdan, so‘zning ma’nolarini yaxshi anglab, nutqni ravon qilib tuzishga chaqiradi va so‘zning qudratini shunday ifodalaydi:

Kishi so‘z tufayli bo‘ladi malak,
Ortiq so‘z qiladi bu boshni egik,
Tilingni avayla – omondir boshing,
So‘zingni avayla uzayar yoshing.

Adib Ahmad Yugnakiy (XII-XIII) ham mudarrislarni so‘zlaganda nutqni o‘ylab, shoshilmasdan, aql-idrok bilan tuzishga, keraksiz, bema’ni so‘zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so‘zlar izlab topishga chaqiradi, Noto‘g‘ri tuzilgan nutq tufayli keyin xijolat chekib yurmagin, deb so‘zlovchini ogohlantiradi:

Uquv so‘zla, so‘zni eva so‘zlama,
So‘zing kizla, keyin, boshing kizlama.

(So'zni uqib so'zla, shoshib gapirma, keraksiz, yaramas so'zlarni yashir, yaramas gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma.)

Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko'rsatmalarda sodda va o'rinli gapirish, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik laqmalikni qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to'g'ri, rost va dadil gapirish, yolg'onchilik, tilyog'lamalikni qoralash va boshqa qonuniyatlar to'g'risida fikr yuritiladi.

Buyuk alloma Abdurahmon Jomiy o'z adabiy merosida so'z va nutqning qudrati naqadar ulug'ligini, tildek insonga chiroyli libos kiydirguvchi vosita hech qaerda bo'lmasligini bayon etgan:

Tildagi ketma-ket xatoga hayhot,
Chiroyli kiyimlar berolmas najot.
So'zni kiyimingdek bekamu ko'st qil,
Yoki kiyimingni so'zingga rost qil.

Mutafakkir Alisher Navoiy davlat arbobi sifatida, o'zbek mumtoz adabiy tilining homiysi bo'lgan buyuk shoirdir. Alisher Navoiy turkiy tilda go'zal nutq tuzishning bayrokdori sifatida, o'zining butun ijodiy merosi bilan o'zbek tili boyliklarini namoyon etdi. Navoiy o'zbek adabiy tilida buyuk asarlar yaratish mumkinligini va shu bilan o'zbek xalqini butun jahonga mashhur qilishni isbotlab berdi. Shoir o'zining "Muhokamatul-lug'atayn" asarida har bir tilning ijobiy va salbiy tomonlari borligini eslatib o'tadi. Alisher Navoiyning "Muhokamatul-lug'atayn", "Mahbub-ul-qulub", "Nazmul-javohir" asarlari o'zbek tilida nutq tuzishning go'zal namunalari bo'lishi bilan birga, uning yuksalishiga ham katta hissa qo'shdi. U o'zining "Mahbub-ul-qulub" asarida shunday yozadi: "Til muncha sharaf birla nutqning holatidir va ham nutedurki, agar nopisand zohir bo'lsak, boshning ofatidir..." ya'ni, til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar u o'rinsiz ishlatilsa boshning ofatidir. Navoiy ta'limi bo'yicha so'z:

Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,
Har neki ag'yor durur yor aylar.
So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar,
Yumshog'i ko'ngillarni giriftor aylar.

Xullas, Sharq mutafakkirlari, so'z va nutqning inson hayotidagi o'rni, vazni va qadr qimmatiga jiddiy ahamiyat berganlar. Ular har bir so'zning nutqda o'z o'rni va ahamiyati borligini, nutqni qudratli qiluvchi so'zdan kuchliroq va buyukroq narsa yo'qligini, tilga e'tibor – elga e'tibor ekanligini, so'z sehri ila odamzod mo''jizalar yarata olishini doimo ta'kidlab, isbotlab kelganlar. So'z orqali nutq va fikr oydinlashadi. O'qituvchi ta'lim-tarbiyasining samaradorligi so'z boyligi bilan belgilanadi. Demak, "So'z tuzadi, so'z buzadi, olqish ham so'zdan, qarg'ish ham so'zdan, omonlik ham, yomonlik ham so'z bilan, borliq ham, yo'qlik ham so'zdan, olamning yaralishi va gullab-yashnashi ham so'zdan, yo'q bo'lishi ham so'zdan"(R. Jumaniyozov).

10.3. NUTQNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. TIL VA NUTQ

O‘qituvchining pedagogik faoliyatida nutq texnikasini mukammal egallash muhim ahamiyatga ega. Zero, nutq vositasida o‘qituvchi bolaning his-tuyg‘ularini uyg‘otadi, o‘quvchilar bilan ongli muloqotni ta’minlaydi, ta’lim-tarbiyaga oid ma’lumotlarni tahliliy idrok etadi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchi avvalo nutq sirlarini, uning o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqotda ta’sir kuchini puxta bilishi kerak. Nutqning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish uchun, nutq texnikasiga oid talablarni bilish lozim. Bu talablar nutqning mantiq jihatdan to‘g‘ri, aniq, chiroyli, yorqin va maqsadga muvofiq bo‘lishidir.

Nutqning quyidagi asosiy xususiyatlari ushbu talablardan kelib chiqadi.

Nutqning asosiy xususiyatlari

1. Nutqning to‘g‘riligi va ravonligi.
2. Nutqning aniqligi va ta’sirchanligi.
3. Nutqning mantiqiyligi.
4. Nutqning tozaligi va ifodaliligi.

27-chizma. Notiqlik xususiyatlari

Nutqning to‘g‘riligi va ravonligi uning adabiy til normalariga to‘g‘ri kelishidir. Bunda ikkita jihatga e’tibor beriladi: urg‘u va grammatik normalarga amal qilinishi.

Urg‘u – so‘zlarning to‘g‘ri talaffuz etilishini ta’minlaydi.

Grammatik norma – nutqning mazmundorligini, ma’noli ekanligini bildirib, nutq oqimidagi so‘zlarning o‘zgarishi, mazmunan bir-biriga birikishini ifodalovchi xilma-xil qoidalar yig‘indisidir.

Nutqning aniqligi va ta’sirchanligi – mazmundor nutqning tinglovchiga ta’sir etish omilidir. O‘qituvchi so‘z va tilning ravonligi, notiqlik qobiliyati bilan aniq faktlar asosida o‘quvchilarga bilim beradi, ularning ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi. O‘qituvchi nutqining aniq bo‘lishi, o‘z mas’uliyatini chuqur his etish shartidir. Aniqlik, o‘rganilayotgan mavzuning o‘qituvchi tomonidan ifodalanayotgan voqelikka, faktlarga muvofiq kelishidir. Aniqlikning chegarasini belgilashda o‘qituvchi so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llay olishi, o‘zbek tili grammatikasini mukammal bilishi, to‘g‘ri talaffuz eta olishi talab qilinadi.

Nutqning mantiqiyligi – nutqning mantiqiy bo‘lishi eng avvalo o‘qituvchining so‘z boyligi, tafakkur yuritish qobiliyati, idrok etish mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchi tilni juda

yaxshi bilishi, so‘z boyligi keng bo‘lishi mumkin. Ammo o‘zi fikr yuritayotgan mavzuga nisbatan chuqur bilimga ega bo‘lmasa, bilimlarini o‘z tafakkuri doirasida tahlil qila olmasa notiqlik san’ati natija bermaydi. So‘zlarning o‘qituvchi ifodalayotgan mavzuga mos ravishda to‘g‘ri ifodalanishi, so‘z birikmalarining, gaplarning, matnlarning bir-biriga to‘g‘ri kelishi, fikrni izchil bayon etish uchun bo‘ysundirilishi nutqning mantiqiy boy ekanligidan dalolat beradi. O‘quvchilarga aytilayotgan fikr mantiqan bir-biriga bog‘langan bo‘lishi kerak. Gaplar o‘rtasida fikriy bog‘lanish, izchillik yo‘qolishi bilan o‘qituvchi nutqining mantiqiyligiga putur yetadi.

O‘rganilayotgan mavzu matnlari o‘rtasida mantiqiy bog‘lanish bo‘lish uchun, matnlar boshlanma bilan ajratiladi (masalan, xulosa qilib aytganda; shu bilan birga; ta’kidlash lozimki va hokazo). Demak, o‘qituvchi nutqining mantiqiyligi deyilganda, yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikr va mulohazalar rivoji izchil bo‘lgan, har bir so‘z, ibora aniq maqsadga muvofiq ishlatiladigan nutq tushuniladi.

Nutqning tozaligi va ifodaliligi – O‘qituvchi nutqining tozaligi, avvalo uning adabiy til lisoniy normalariga muvofiq ifodalanishi bilan belgilanadi. O‘qituvchilarning chiroyli va mazmunan boy nutqi hozirgi o‘zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilganiga qarab baholanadi. Nutqning toza bo‘lishiga xalaqit beruvchi unsurlar: dialektizm va varvarizmdir. Zero, ushbu unsurlar badiiy adabiyotda ma’lum bir badiiy – estetik vazifani bajarsa-da, o‘qituvchining dars jarayonidagi va tarbiyaviy faoliyatidagi nutqida ishlatilmasligi kerak. O‘qituvchi doimiy ravishda idoraviy atamalarni, rasmiy so‘z va iboralarni noo‘rin ishlatishi o‘z nutqining notabiiyligiga, ishonchsiz chiqishiga sabab bo‘ladi. Oqibatda o‘quvchilar ta’lim–tarbiyasida o‘qituvchi tomonidan ishontirish metodi orqali qo‘llaniladigan fikrlar mukammal bayon etilmaydi.

Nutqning tozaligi, uning turli sheva so‘zlaridan holi bo‘lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishidir. Til vositalari vaziyatga qarab ishlatilgan, siyqa so‘z va iboralarsiz hosil bo‘lgan o‘qituvchi nutqi tabiiy va samimiy bo‘ladi, tinglovchi va o‘quvchilarning qalbiga tez borib yetadi.

Jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos bo‘lmagan so‘zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o‘zga millatlarga xos so‘zlarning noo‘rin qo‘llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, qo‘pollik asosida qo‘llaniladigan so‘zlar) hamda konselyarizm (o‘rni bo‘lmagan vaziyatlarda rasmiy so‘zlardan foydalanish); parazit (ortiqcha) so‘zlarning ishlatilishi nutqning tozaligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu hodisalar o‘qituvchi nutqida uchramasligi uchun, o‘qituvchi o‘zini, fikrini boshqara olishi, doimiy ravishda o‘z nutqini boyitib borishi, mashq qilishi kerak.

O‘qituvchi tilni qancha chuqur bilsa va unda so‘z boyligi qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning tafakkuri shunchalik boy bo‘ladi. **So‘z barcha dalillar, barcha fikrlar libosi, o‘qituvchi nutqining poydevoridir.** Hikmatli so‘zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko‘chirma gaplardan o‘rinli va samarali foydalana olish lozim. Zero, dunyoda so‘z mulkidan ham ortiq va qimmatli xazina yo‘qligini Sharq mutafakkirlari o‘zlarining adabiy meroslarida bayon etganlar:

So‘z ichra mudom aql yashirindur,
So‘z chimildig‘u, aql kelindur.

(Nosir Xisrav)

So‘zni bilgan zarga bo‘lmaydi muhtoj,
Zar qimmati so‘z bilan topar rivoj.

(Abdurahmon Jomiy)

Ham so‘z ila elga o‘limdan najot,
Ham so‘z ila topib o‘lik tan hayot.

(Alisher Navoiy)

Agar bo‘lsang ipak kabi muloyim,
Muloyim sen bo‘lsang quling bo‘loyin.
Qulog‘imga bergan panding olayin,
Kishiga qattiq so‘z aytguvchi bo‘lma.

Oqmasdan qolmaydi bir oqqan ariq,
Bir tanda odam goh semiz, goh oriq.
Bir ko‘zi qarodir bir ko‘zi yorug‘,
Qora deb qattiq so‘z aytguvchi bo‘lma.

(Maxtumquli).

Til va nutq. Nutq madaniyati – til normalarini egallamoq, talaffuz, urg‘u, so‘z ishlatish, gap tuzish qonuniyatlarini chuqur bilmoqdir. Shuningdek, tilning tasviriy vositalari har xil sharoitlarga mos, maqsadga muvofiq bo‘lishi kerak. Nutqda til – fikr almashish quroli, o‘qituvchi qalbining oyinasi, o‘qituvchining dars berish uslubini, pedagogik mahoratini to‘liq namoyon qiluvchi vosita. Nutqda – tildagi rang-barang vositalar o‘z ifodasini topsa, bunday nutq – boy nutqdir.

Til va nutq azaldan bir-biri bilan chambarchas bog‘langan vositalardir. Nutq qaysi tilda aytilmasin, o‘sha millat tilining qonun-qoidalari asosida ro‘yobga chiqadi. Biroq ular bir-biridan farqlanadi.

Til nutq uchun moddiy material. Shu material asosida nutq tashkil topadi.

Nutq – tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda reallikka aylangan fikr bo‘lib, ikki xilda namoyon bo‘ladi:

- ichki nutq;
- tashqi nutq.

O‘qituvchi ongida hosil bo‘ladigan, hali amalga oshmagan til elementlaridan tashkil topgan, kishining og‘iz ochmasdan fikrlashi, mulohaza yuritishi, o‘ylashi ichki nutqdir.

O‘qituvchi mulohazasi va fikrining til vositasida nutq organlariga ta’siri va harakati

bilan real tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq – tashqi nutq bo'lib, u ijtimoiy hodisadir.

O'qituvchi nutqiy faoliyati: so'zlash, mutolaa qilish va eshitishdan iborat. Nutq hodisasi monolog, dialog, polilog, deklamatsiya hamda ayrim tekst va kitob shaklida bo'lishi mumkin. Nutq maxsus belgilangan tartibda o'zining hajmi bilan notiqqa havola etiladi.

Til hodisasi fonemalar tizimida, morfemalarda, sinonimiya, omonimiyalarda, mavjud grammatik qoidalarda, murakkab terminlar va frazeologik iboralarda namoyon bo'ladi.

TIL VA NUTQNING QIYOSIY TAHLILI:

TILNING IMKONIYATLARI:		NUTQNING IMKONIYATLARI:
Til aloqa materiali.	1	Nutq aloqa shaklidir.
Tilni xalq yaratadi.	2	Nutqni har bir shaxs yaratadi.
Tilning hayoti qadim xalq hayoti bilan bog'liq.	3	Nutqning hayoti qisqa bo'lib, u aytilgan paytdagina mavjud.
Ayrim shaxslar ayni zamonda bir nechta tilni bilishi mumkin.	4	Ayrim shaxsning nutqi ayni zamonda faqat bitta bo'ladi, chunki u ma'lum vaqtda va ma'lum o'rinda yuz beradi.
Tilning hajmi noaniqdir.	5	Nutqning hajmi esa aniq.
Til – turg'un statik hodisa.	6	Nutq harakatda bo'luvchi, dinamik hodisa.

28-chizma. Til va nutq – qiyosiy tahlil

Til xatosida so'zning ma'nosi keskin buzilishi mumkin (Masalan: sof-sop, tif-tip, fan-pan, dil-til, nufuz-nufus, servis-serviz, xo'p-xo'b).

Nutq xatosidagi buzilishlar ko'pincha faqat akustik tomondan o'zgaradi (fikr-pikr, fabrika-pabrika, safar-sapar kabilar).

Til va nutq hodisalarining qonun-qoidalarini mukammal bilish, uning qoidalariga doimo rioya qilish, obyektiv sharoitda tinimsiz mashg'ulotlar olib borish – o'qituvchining til sofligi, nutq madaniyati va odobi masalalariga oqilona yondashishiga olib keladi.

10.4. O'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIGIDA NOTIQLIK SAN'ATINING AHAMIYATI

Tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini barkamol avlod tafakkuriga tarbiyaviy vositalar asosida singdirishda, insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning nozik qirralarini yosh avlodga o'rgatishda nutqning ahamiyati beqiyos ekanligi – o'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatda asrlar davomida olimlar tomonidan e'tirof etib kelingan haqiqatdir.

O'qituvchining kasbiy faoliyatida nutqni rivojlantirish muammolari, birinchi navbatda, uning notiqlik madaniyati bilan bog'liq. Notiqlik madaniyati til va bilish jarayoni orasida obyektiv tarzda mavjud bo'lgan aloqa tamoyillari asosida rivojlantiriladi.

Pedagogikada o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi notiqlik madaniyati muammosi L.S.Vigotskiy, L.A.Vvedenskaya, P.Y.Galperin, I.A.Zimniy, V.V.Ilin, V.V.Kraevskiy, A.N.Ksenofontova, V.I.Maksimov, L.I.Skvorsov, L.V.Sokolova kabi taniqli olimlar hamda boshqa psixolog olimlar tomonidan qizg'in tahlil qilingan.

Kasbiy pedagogik jarayondagi nutqiy faoliyat, T.G.Nesterova va A.N. Ksenofontovaning fikricha, o'quvchilarning faolligini va mavqeini bir maromda namoyon bo'lishida va ularni rag'batlantirish uchun sharoit yaratilishida muhim vazifani bajaradi. O'qituvchining notiqlik madaniyati o'quvchining konstruktiv pozitsiyaga ega bo'lgan subyekt sifatida o'z mustaqilligini namoyon qila olishida ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarning nutqiy faolligi, ularning mustaqilligi va ijodiy izlanishlari, bilish va o'zlashtirish imkoniyatlariga tayanadi[1].

Inson faoliyatining birorta sohasini, insoniyatning ma'naviy va madaniy dunyosini nutqiy faoliyatdan tashqarida rivojlanib borishini tasavvur qilish mumkin emas. O'z vaqtida L.S.Vigotskiy nutqiy faoliyatni asosiy faoliyat sifatida ajratib ko'rsatib, unda inson shaxsi, ongi, tafakkuri, barcha bilish jarayonlarini rivojlantirishning keng imkoniyatlarini ko'ra bilgan edi.

Pedagog olim T.S.Bochkaryova nutqiy faoliyat o'qituvchining butun ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini qamrab olishini o'z tadqiqotlarida ta'kidlaydi hamda nutqning quyidagi sifatlarini alohida tavsiflaydi[2].

T.S.Bochkaryova ta'limoti bo'yicha o'qituvchi nutqiy faoliyatining alohida sifatlari:

[1] Нестерова Т.Г. Учебная задача как средство развития речевой деятельности студентов //Материалы Всероссийской научно-практической конференции. – Оренбург, 2010.- Ч. 4.

[2] Бочкарёва Т.С. Развития речевой культуры студентов //Вестник Оренбургского государственного университета, 2001.- №. 2.

1. badiiy adabiyot tili normalarining talaffuziga rioya qilish (urg'u, grammatika, orfografiya);
2. nutqning predmetli va tushunchaviy jihatdan aniqligi;
3. mantiq va tafakkur qonuniyatlariga mos keladigan darajada til birliklarining nutqda ma'no jihatidan birikishida namoyon bo'ladigan mantiqiyligi va uzviyligi;
4. axloq me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan, adabiy tilga begona bo'lgan unsurlardan holi bo'lgan sof nutq tili;
5. nutqning ifodaliligi – o'qituvchilar va o'quvchilar diqqatini va qiziqishini susaytirmaslikka yordam beradigan tuzilmaviy o'ziga xos nutq;
6. nutqning boyligi (rang-barangligi) – bir xil belgili so'zlar zanjirining va ma'noli so'zlarning takrorlanmasligi, til tuzilmasining xilma xilligi (so'zlar, so'z birikmalarga boyligi, lug'aviy, frazeologik, semantik jihatdan boyligi);
7. tilning barcha vositalarini bog'lab turadigan va estetik funksiyaga ega bo'lgan nutqning nafisligi (estetikasi).

O'quvchilarni kasbga, ijtimoiy foydali mehnatga qiziqtirish, ularni kelgusida qizg'in hayotga tayyorlash, asosan muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirmasdan, nutqiy faoliyat darajasining barcha turlarini mukammal bilishga o'rgatmasdan amalga oshirib bo'lmaydi.

O'quvchilar nutqiy faoliyatning barcha darajalarini mukammal tushunmasdan, og'zaki va yozma shakldagi nutqni to'liq idrok etib tushunish qobiliyatiga ega bo'lmasdan turib, umumta'lim maktablari hajmidagi bilimlarni to'laqonli o'zlashtirishlari, bilishning ko'nikma va malakalarini rivojlantirishlari aslo mumkin emas[1].

So'nggi paytlarda o'qituvchining kasbiy faoliyatida so'z bilan (xoh og'zaki, xoh yozma bo'lsin) tarbiyalash bo'yicha xilma xil tajribalar to'plangan. Har bir o'quvchi maktab partasidan boshlab sevimli ustozi, o'z o'qituvchisining siymosini eslab qoladi. V.I.Zozulya va B.P.Yalinskiy kabi olimlarning fikricha, o'quvchilar sevimli ustozlarining nafaqat so'zlarini, balki ularni gapirish ohangini, imo-ishoralarini go'yo sevimli qo'shiqday eslashadi. K. Paustovskiy o'zining tarix o'qituvchisini eslab, uning dars jarayonida hikoya qilish qobiliyatini alohida ajratib ko'rsatgan holda shunday iborani ishlatadi: "U tarixiy so'zlarni xuddi loy parchalari kabi sochib tashlar va tarixiy obrazlardan tirik haykallar yasar edi".

O'qituvchining kommunikativ muomalasi uning nutqida yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish vazifalarini mukammal bajarilishini ta'minlaydi. O'qituvchi o'z nutqining mazmuni, sifat va samaradorligi, uning natijasida paydo bo'ladigan oqibatlar uchun ijtimoiy mas'uldir. Shuning uchun o'qituvchi nutqi uning pedagogik mahoratida muhim ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat deb e'tirof etiladi.

F.N.Gonobolin va T.A.Ladijenskaya kabi olimlarning ta'kidlashicha, "o'qituvchining nutqi" (sinonimi – "pedagogik nutq") atamasi adabiy til qoidasi bo'yicha, so'z birikmasida o'qituvchining og'zaki nutqi (yozma nutqdan farq qiladigan) haqida gap borganidagina

[1] Шу асарда.

ishlatiladi[1]. Og'zaki nutq deganda ham gapirish jarayonini, ham bu jarayonning natijasi bo'lmish og'zaki fikr-mulohazani nazarda tutishadi. O'qituvchining og'zaki nutqi – bu ovoz chiqarib gapirish paytida (ovoz chiqarib o'qilgan yozma nutq, masalan darslikda berilgan mavzuning bandini ovoz chiqarib o'qishdan farq qiladigan) hosil qilinadigan nutqdir.

Pedagogik nutq quyidagi faoliyatlarni ta'minlashi lozim:

a) o'qituvchining o'quvchilar bilan ta'lim va tarbiyaviy jarayonda ma'lum bir maqsadga qaratilgan o'zaro mahsuldor aloqasini;
b) o'quvchilar ongiga, his-tuyg'ulariga ularni har taraflama barkamol inson darajasida tarbiyalash uchun, o'z orzulariga ishonch bilan intilishlarini shakllantirish, har qanday faoliyatni bajarish maqsadida ijobiy ta'sir etishni;
d) ta'lim jarayonida bilimlarni to'laqonli idrok etish, bilish, anglash va mustahkamlashni;
e) o'quvchilarning ta'lim jarayonida o'quv va amaliy faoliyatlarini unumli tashkil qilishni.

"Pedagogik nutq" tushunchasi bilan "o'qituvchining kommunikativ muomalasi" tushunchasi bir-biri bilan hamisha chambarchas bog'liq tushunchalardir. Mashhur psixolog olim A.A.Leontev "Pedagogik muloqot" nomli kitobida kommunikativ muloqot deganda faqat gapirish jarayonini va axborot yetkazishni emas, balki o'zaro munosabatlar tabiatiga ta'sir qiladigan ta'sirchan nutqni tashkil qilishni, o'qituvchi va o'quvchilar muloqotidagi ijobiy iqlim yaratadigan hissiy-ruhiy muhitni ham nazarda tutgan.

Ta'kidlash lozimki, nutqiy faoliyatning ushbu har bir turi og'zaki va yozma shakllarga xosdir. Aynan shuning uchun biz og'zaki va yozma nutqning xususiyatlarini u bajaradigan aniq, o'ziga xos vazifalari nuqtayi nazaridan tahlil qilishga asosiy e'tiborni qaratdik. Bu nafaqat pedagogik, balki psixologik nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyatga ega.

Og'zaki va yozma nutq mahorati ijtimoiy jamiyatda qanday kasb bo'yicha faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar har bir insonga kerak. Raqobatbardosh, bilimdon mutaxassis bo'lib etishish, aniq, ixcham, ishonchli va xatosiz yozishni o'rganish, chiroyli so'zlash hammaning qo'lidan keladi. Buning uchun nutqiy faoliyat qonuniyatlarini bilish va shu qonuniyatlarga qat'iy rioya qilgan holda o'z ustida ishlash uchun istak va xohish lozim bo'ladi. O'qituvchilar esa qaysi fan bo'yicha dars berishidan qat'iy nazar o'quvchilarga grammatika va adabiy til qoidalarini faqat yodlab qolmasdan, dars jarayonida, konspekt paytida qanday qo'llanishini mukammal o'rgatishlari lozim.

[1] Гоноболин Ф.Н. Книга об учителе.- М.: Просвещение, 1965.- С. 47.

10.5. O'QITUVCHI NUTQINING SHAKL VA USLUBLARI

"Nutqiy mahoratga o'rgatish psixologiyasi" nomli kitob mualliflari B.S.Badmaev va A.A.Malishev kabi olimlar an'anaviy ta'limda nutqiy ko'nikma, ya'ni insonning o'z fikrini so'z va gaplarda aks ettira bilish ko'nikmalari maxsus ta'lim natijasi emas deb hisoblashadi. O'z fikr-mulohazalarini notiqlik mahorati bilan suhbatdoshiga ifodalab berish insonga asosan betartib ravishda, o'z-o'zidan, tasodifan, bo'lak-bo'lak tarzda beriladi. Unda ham barcha odamlarga barobar notiqlik qobiliyati paydo bo'lavermas ekan.

Hozirgi kunda "Eng muhimi – ishni qilish kerak, gapirishni hammamiz bilamiz", yoki "gap kelganda otangni ham ayama" kabi bema'no iboralar hayotimizda odatiy holga aylanib qoldi. So'zning asosiy rolini bunday tushunish bilan aslo kelishish mumkin emas.

Odamlarni maktab partasidayoq nutq madaniyatiga o'rgatish – bu birinchi navbatdagi zaruriyat, hozirgi davr talabi. Zero, ba'zan odamlarga oddiy bir arzimas voqelikni ham asl mohiyatini, narsalarning aniq holatini nutq va so'z qudrati bilan isbotlashga to'g'ri keladi. Demak har qanday kasb egasi avvalo so'zlashuv va nutq madaniyatini bilishi, o'z fikr mulohazalarini aniq, ravon til bilan suhbatdoshiga yetkaza oladigan bilim va saviyaga ega bo'lishi kerak. Bunda o'qituvchining pedagogik mahorati asosiy mezonlaridan biri bo'lmish notiqlik qobiliyatini mukammal egallashi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero u mamlakatimizda demokratik jamiyat qurishga javobgar shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazadi. Yosh avlodni kelajakda raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishi uchun avvalo o'qituvchi zimmasiga ulkan vazifalar yuklatilgan. Ushbu muhim vazifalardan biri fuqarolarda so'zlashish va nutq madaniyatini shakllantirishdir. O'z fikr va mulohazasini ona tilida so'z va nutqning cheksiz qudrati bilan to'g'ri tushuntirib izhor etolmaydigan o'quvchidan kelajakda raqobatbardosh kadr yetishib chiqishi mumkin emas. Shuning uchun o'qituvchi qaysi fandan o'quvchilarga bilim berishidan qat'iy nazar, avvalo o'zi chiroyli so'zlashuv san'atini va notiqlik madaniyati sirlarini puxta egallashi lozim. Shunda u o'quvchilar ongiga ham so'zlashuv san'ati va madaniyatini, nutq qobiliyati sirlarini singdira oladi.

O'qituvchining og'zaki nutqi ikkita shaklda – monolog (monologik nutq) va dialog (dialogik nutq) shakliga bo'linib o'rganiladi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotida bunday nutqning ikkala shakli rang-baranglikni kashf etadi. Hikoya, ma'ruza, izoh, qonun, qoida va atamalarning to'g'ri talqini, kengaytirilgan baholash mulohazalari kabilar monologik nutqning ancha keng tarqalgan turlari sanaladi. Dialogik nutq o'qituvchining o'quvchilar bilan olib boradigan dars va darsdan tashqari turli mavzulardagi suhbatlari shaklida beriladi. Bundan tashqari, pedagogik amaliyotda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida

o'zaro salomlashishni, baholash tufayli yuzaga keladigan tushunmovchiliklarni, har xil mulohazalar bilan o'zaro fikr almashish zaruriyatini bildiradigan, mavhum muammolarni, favqulotda hodisalarni, axloq me'yorlarini muhokama qilishni talab qiladigan vaziyatlar hosil qilinadi.

So'nggi paytlarda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro salomlashish holati haqida g'alati tasavvurlar va gaplar paydo bo'lmoqda. Quyida o'qituvchining dars boshlanishidan oldin salomlashish tufayli yaqinda o'quvchilar bilan sodir bo'lgan voqeasini keltiramiz.

O'qituvchi auditoriyaga ilk bor kirganida kollej o'quvchilari salomlashishni xayoliga ham keltirmasdan o'z joylarida bemalol o'tirganlarining guvohi bo'ldi. O'qituvchi o'quvchilarning o'zi bilan nega salomlashmayotganlari sababini so'raganida, ular kollejda demokratiya, shuning uchun o'qituvchi auditoriyaga kirganida turish har kimning ixtiyorida ekanligini aytishdi. Ko'p yillik pedagogik stajga ega bo'lgan o'qituvchi bu holatga ilk bora duch kelishi edi. Nima bu – demokratiyami yoki kollej ma'muriyatining muomala etikasini noto'g'ri tushunishimi?

O'qituvchiga demokratik talablarga rioya qilishni uqtirish bilan bir paytda o'quvchilarning ustozlari bilan oddiy muomalaga layoqati haqida ham yoddan chiqarmaslik kerak. O'quvchilarga muloqot qilish odobining oltin qoidalari uzluksiz o'rgatilib borilishi lozim. Axir har qanday ta'lim muassasasidagi pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiya ajralmas faoliyatdir.

O'qitish va tarbiyalash jarayonlarida o'quvchilarni jamiyat talablari asosida kamolotga yetkazish va shakllantirishga qaratilgan maqsadning ajralmas birligi tushuniladi. O'qitish va tarbiyalash, garchi ilm-fan ularni farqlasa-da, bir-biriga bog'liq va ko'p umumiylikka ega. Shu ma'noda uzoq tarixga ega millatimiz "ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan aslo ajratmagan – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir" (I.A.Karimov.).

Og'zaki nutq shakllari kam holatlarda o'zlari alohida, "toza" ko'rinishda mavjud bo'ladi. Ular hikoya, luqma, savol, javob, baholash kabilarning murakkab chatishmasi sifatida go'yo bir-birlarining ichiga kirib singib ketadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ muloqot asosida yaratilgan odatiy muhit xoh dars jarayonida bo'lsin, yoki darsdan tashqari vaziyatda bo'lsin bir zumda namoyon bo'ladi, uni so'zma-so'z yana qayta tiklash qiyin (ovoz yozish texnik vositalarini ishlatish holati bundan mustasno). Buni barcha, hatto bo'lg'usi o'qituvchilar ham hisobga olishi lozim, chunki bunday bir zumlik muloqot jarayonida ishlatilgan so'zlarni tanlash, ohang, imo-ishoralar uchun mas'uliyat odatda o'qituvchiga yuklanadi.

Shuni unutmaslik kerakki, notiq tomonidan (albatta o'qituvchi) "terib" aytilgan har bir so'z tinglovchilar (o'quvchilar) xotirasida go'yo uchrashuvdan olingan taassurot sifatida uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi. Rivojlangan texnologik asrda har bir o'quvchi ovoz yozish moslamasi bilan qurollanganligini ba'zan o'qituvchilar unutib qo'yadilar.

O‘quvchilar mashg‘ulot paytida o‘qituvchining eng nozik tomonlarini, jumladan, qaltis hatti-harakatini, nutqidagi ayrim kamchiliklarni, mavzudan mutlaqo chetga chiqib, o‘z hayotida ro‘y bergan voqealarni berilib so‘zlashlarini, ba’zan ta’lim-tarbiya me’yorlariga zid bo‘lgan gaplarni ishlatishlarini ovoz yozish texnik moslamalariga yoki videosuratga tushirib oladilar. Ularning qo‘ldan qo‘lga o‘tib tarqalib ketmasligiga hech kim kafolat bermaydi. Shuning uchun o‘qituvchi notiqlik san’ati va nutq madaniyatining barcha qonuniyatlariga, o‘quvchilar bilan og‘zaki muloqot qilish tartib-qoidalariga qat’iy amal qilishi shart.

O‘qituvchining nutqi pedagogik faoliyatiga mos keladigan muayyan talablarga javob berishi lozim: mukammal me’yorlarga ega bo‘lishi (hozirgi zamon adabiy tiliga xos bo‘lgan aksentologik, orfoepik, grammatik me’yorlarga mos kelishi lozim); so‘zlarni qo‘llashda aniqlik (so‘zlar jarangdor, muloyim va aniq talaffuz qilishi; ifodalilik (obrazlilik, hissiylik, yorqinlik). Umuman nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, o‘rinli qo‘llanilishi, lug‘aviy jihatdan boyligi, ifodaliligi, sofligi kabi sifatlari o‘qituvchining notiqlik madaniyatini belgilaydi.

10.6. PEDAGOGIK FAOLIYATDA NUTQ FUNKSIYALARI

O‘qituvchi nutqining sifat va samaradorligiga bo‘lgan talablar pedagogik jarayon vazifalaridan kelib chiqadi. O‘qituvchiga xos nutqning asosiy vazifalardan biri – bilimlarni o‘quvchilarga to‘laqonli, mukammal tarzda yetkazib berishdan iborat. O‘qituvchi nutqining o‘ziga xos jihatlari bilan, o‘quvchilarning tafakkur kengligi bilan bilimlarni muvaffaqiyatli qabul qilishi va eslab qolishlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud. O‘qituvchining nutqi bilimlarni qabul qilishga yordam berishi ham, yoki aksincha qiyinlashtirishi ham mumkin.

U shunday ustoz edi-ki, so‘zlarni miyamizga xuddi mix kabi qoqar edi.

Ushbu vazifaning muhimligi shundaki, bilimlar o‘qituvchi nutqining o‘ziga xos yorqinligi bilan, ya’ni emotsional rang-barangligi, muloyim va jarangdor ohangi, bir maromda to‘lqinsimon yo‘naltirilganligi, so‘zlarning obrazli talaffuzi tufayli o‘rganilayotgan mavzu ta’lim oluvchi o‘quvchilar xotirasida uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi.

Shunday ustoz-o‘qituvchilar borki, uzoq yillar o‘tsa ham uning pand-nasihati, bergan bilimi, nima gapirgan bo‘lsa barchasi, shogirdlari tafakkurida umrbod saqlanib qoladi. Ustozlar haqida shogirdlar “u so‘zlarni xuddi mix kabi qoqar edi” kabi iboralarni ishlatishgan. Uzoq yillar o‘tgandan keyin ham o‘quvchilari uning so‘zlarini, ifodalarini, gapirish odatlarini takrorlab yurishgan.

Taniqli pedagog olimlar M.N.Skatkin va I.Ya.Lerner shunday yozishgan:

"Darsda yangi mavzuni bayon qilishda o'qituvchi nutqining asosiy pedagogik vazifasi – o'quvchilar ongiga nafaqat o'rganilayotgan bilimlarni yetkazish, balki ular tafakkurida o'rganilgan bilimlarga nisbatan his-tuyg'u, bebaho qadriyat sifatida munosabatni, o'z xulq-atvorida bilimlarni dasturilamal deb bilish zaruriyatini asos qilib olishni shakllantirish kerak. Zamonaviy didaktika ta'lim mazmuniga hamda o'quvchilar ongiga o'rganilayotgan bilimlarga nisbatan his-tuyg'u bilan va bebaho qadriyat sifatida munosabatda bo'lishni talab qilmoqda"[1].

O'quvchilarni og'zaki va yozma nutqning ta'sirchan go'zal ohanglariga rom qilishning asosiy shartlaridan biri, ularga nima uchun va nima sababdan nutqni yaxshi egallash zarurligini ilk maktab partasiga kelib o'tirgan kundanoq tushuntirishdir.

O'qituvchining kasbiy tayyorgarligida nutqning ahamiyatini tahlil qilar ekan, B.S.Badmaev va A.A.Malishev kabi olimlar og'zaki va yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatishgan:

Og'zaki nutqning o'ziga xos funksiyalari axborot beruvchi, ishontiruvchi, ruhlantiruvchi, ko'ngil ochuvchi, chorlovchi kabi nutqiy faoliyatlardan iborat.

Axborot beruvchi nutq odamlarni so'nggi ma'lumotlardan xabardor qiladi, ularning qiziquvchanligini uyg'otadi, avvaldan ma'lum bo'lgan biror narsa to'g'risida yanada yangi taassurotlarni hosil qiladi. U xolisligi, obyektivligi, notiqning siyosiy jihatdan shaxsiy maylini istisno qiladigan betarafligi bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, axborot beruvchi nutq insonlarning amaliy ehtiyojlariga javob beradigan yangi, dolzarb, qiziqarli ma'lumotlarga intilishiga mo'ljallangandir.

Ishontiruvchi nutq, axborot beruvchi nutqdan farqi shundaki, u his-tuyg'ularga, ehtirosga boy, mazmunan so'zlovchi shaxsga qaram bo'lib, lekin shu bilan birga so'zlovchi nutqi ta'sirchan va ma'noli, lug'aviy jihatdan chuqur mantiqqa ega bo'ladi, qandaydir qoidalarni, ma'lum bir nuqtayi nazarni isbotlash yoki aksincha, rad qilish, qandaydir (yoki kimningdir) mavqeni tasdiqlash yoki rad qilishga yo'naltirilgan bo'ladi. Amalda ishontiruvchi nutq ilmiy g'oyalarni targ'ib qilish yoki siyosiy targ'ibot ishlarini olib borish uchun ishlatiladi.

Ruhlantiruvchi nutq – targ'ibot va tashviqot nutqining turlaridan biri bo'lib, bunda gapiruvchi tinglovchilarni o'z nutqiga ishontirishdan tashqari qandaydir hayotiy masalalarga aniqlik kiritishga, tinglovchilarga uning kelgusida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashga va ularni ruhan ko'ngillarini ko'tarishga intiladi. Axborot beruvchi nutqdan farqi shundaki, ruhlantiruvchi nutq yangi ma'lumotlarni berish, yangi axborotlarni taqdim qilish, shuningdek, odamlarning fikrini tashviqot asosida o'zgartirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi. Masalan, ishonchli vakil deputatlikka, hokimlikka yoki biror mansabdagi nomzodga ovoz berishni targ'ib qilayotib, nomzodning foydali mehnat

1 Дидактика средней школы / под ред. М.Н.Скаткина и И.Я.Лернера.— М., 1982. - С. 103.

faoliyatini namoyish qiluvchi yoki tasdiqlovchi dalillarni va raqamlarni bayon qilishi ovoz berishga chaqirmagan holda va amalda fikr mulohaza yuritib, ularni qo'llashga ruhlantirishi mumkin.

Agar ruhlantiruvchi nutqda notiq o'rinli gapirayotgan bo'lsa va odamlarga uning so'zlari yoqib tushsa, notiq gapirganiga ular rioya qilishi, olijanob maqsadlardan chalg'itadigan mayda gaplarni, ahamiyatsiz g'oyalarni bir chetga surib tashlash istagi uning bevosita natijasi sifatida maydonga chiqadi.

Ko'ngil ochuvchi nutq. Uning maqsadi o'z nomida aks etgan, chunki ko'ngil ochuvchi nutq tinglovchilarni xursand qilishdan, ularni xotirjamlikka va xushchaqchaqlikka undashdan, zaruriyat paydo bo'lganda ovuntirishdan boshqa maqsadi yo'q. Odamlar ko'nglini xushlash, ularni xursand qilish – og'zaki nutq mazkur turining asosiy maqsadidir. Ko'ngil ochuvchi nutq muayyan sharoitlardagina o'z oldiga qo'yilgan maqsadga javob berishi mumkin. Birinchidan, tinglovchining diqqatini va qiziqishini jalb qilish uchun unda hazil va jiddiy fikrlar, haqiqat va uydirmalar, qissa va latifalar, beozor hazil-mutoyibalar va o'tkir satira, piching va qalbaki jiddiylik aralash bo'lishi, bir-birining do'stona satirali ko'rinishi aks etgan suratlarini chizishi lozim. Ikkinchidan, ko'ngil ochuvchi nutqni maromiga yetkazib gapiruvchining o'zi ham hazilkash va odamlarni kuldira olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Bu qobiliyat hammaga ham nasib qilavermaydi. Satirik yozuvchilar, yumoristik janrda faoliyat ko'rsatayotgan artistlar, sirk masxarabozlari, teatrning komediyali spektakllari va kinokomediyalarda rol o'ynovchi aktyorlar bunday iste'dodga egadirlar. Uchinchidan, ko'ngil ochuvchi nutqning mavzusi aniq va muayyan mantiqiy rivojlanishga, yagona mazmuniy chiziqqa va mazkur janrga xos bo'lgan, lekin belgilangan daqiqalarga mo'ljallangan hajmga ega bo'lishi kerak. Estrada janrlarida qisqa aytiladigan yumoristik hikoyalar, satirik hikoyalar yozuvchilarining kitobxonlar bilan uchrashuvlaridagi chiqishlari xuddi shu belgilangan talablarga javob berishi kerak. Biroq ko'pincha mo'ljallangan biror mavzu o'rniga umumiy maqsad – nutqni tinglovchilar uchun qiziqarli, maroqli va kulgili qilish maqsadi ham mavjud bo'ladi. Do'stlar davrasining kichik tadbirlarida va maslakdosh o'rtoqlarning tor doiradagi uchrashuvlarida, hamsuhbatlarning qiziqarli xotiralarga yo'g'rilgan turli yig'inlarida aytiladigan latifalar, kulgili va bachkana matallar, ko'ngil ochuvchi suhbatlar nutqning ma'lum bir mavzusiga to'g'ri kelmaydi, faqat xursandchilik qilish uchun xizmat qiladi.

Ko'ngil ochuvchi nutq amaliy ahamiyatga ega emas, biroq badiiy va adabiy kechalarda, jamoa bo'lib biror yig'inlarda o'tirish uchun muhim ahamiyatga ega. Har qanday yaxshi davra o'z ichida hazil-mutoyibalar, rivoyatlar, kulgili hikoyalar va voqealar bilan barchaning ko'nglini xushlaydigan biror odam bo'lishini xohlaydi. Bundan tashqari, turli yig'inlarda jiddiy nutq so'zlayotgan notiq qobiliyatida ham albatta hazil-mutoyibaning, yumorning o'rni bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Chorlovchi nutq insonlarni faol xatti-harakatga undaydigan nutqdir. Chorlovchi nutqning asosiy rolini saylov oldi targ'ibot ishlarida, dehqonlar tomonidan tayyorlangan hosilni nes-nobud qilmasdan yig'ib-terib olishga undovchi nutqlardan, turli fasllarda shaharlarda o'tkaziladigan shanbaliklarga chorlovchi nutqlar orqali bilamiz. Chorlovchi nutq davlat ahamiyatidagi va mahalliy hududdagi salbiy hodisalarni bartaraf etishga

da'vat etuvchi faoliyat turi bilan ham bog'langan. (Favqulotda hodisalar, texnologik avariyalar, turli baxtsizliklar va halokatlarda).

Yozma nutqning o'ziga xos funksiyalari. Bizga ma'lumki yozma nutq, biror faoliyat turi bilan bog'langan, o'zining alohida mustaqil maqsadiga ega emas, boshqa biror faoliyatga daxldor muloqot turlariga ham mansub emas, shaxs tomonidan yozilayotgan birorta matn ham bebaho hisoblanmaydi, ammo boshqa har qanday faoliyatning vositasi bo'lib xizmat qiladi. Inson tomonidan bajarilayotgan biror faoliyatning vositasi bo'lish – uning asosiy funksiyasidir. Xo'sh, yozma nutq qaysi faoliyat turlarida vosita sifatida qo'llaniladi? Bu avvalo epistolyar faoliyatda, yozma (adabiy) ijodiyotda, ilmiy-tadqiqot ishlarining borishi va natijalarini yozib borishda, boshqaruv faoliyatida.

Epistolyar faoliyatda[1] yozma nutqda ikki inson ma'lum bir masofadan turib bir-birlariga yozma ravishda bevosita aloqa qilishlari mumkin. Bir birlariga yaqin masofada bo'lsalarda, uchrashib gaplashishni lozim ko'rmagan yoki buni iloji bo'lmagan og'ir vaziyatda aloqa vositasini bajarishdir. Ba'zan odamlar uchrashish imkoniyatiga ega bo'lganlarida ham o'z fikr-mulohazalarini, g'oyalarini, dardlarini, ichki hissiyotlarini jamiyatda o'zi tutgan pozitsiyasini, mavqeini yozishmalar orqali bayon qilib aloqa qilishni afzal ko'rishgan. Masalan, ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning o'z ustozi Abdurahmon Jomiyga, shogirdlariga, do'stlariga yozgan xatlari, yoki boshqa mashhur allomalarning, shoir va yozuvchilarning yaqin insonlariga yozgan xatlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Vaholanki, ular ijodiy faoliyat zaruriyati yuzasidan muntazam uchrashib turganlar. Demak, o'z g'oyalarini, fikr-mulohazalarini, his-tuyg'ularini tinch, izchil ifoda qilish uchun zaruriyat bo'lganda maktub yozish, yoki oddiy til bilan aytganda yozishma orqali ifodalash odamlar orasida hozirgi kunda ham o'z mohiyatini yo'qotmagan. Dunyoda mashhur mutafakkirlar, allomalar, yozuvchilar, shoirlar, boshqa turli taniqli tarixiy arboblarning epistolyar merosi hozirgi kunda ulkan madaniy va ma'naviy qimmatga ega bo'lib, ilmiy tadqiqot ishlari uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Yozma nutq funksiyasi bo'lmish epistolyar janrning o'ziga xos xususiyati – undagi samimiylik darajasining yuqoriligi va bir paytning o'zida ommadan yashirinligidir, chunki mualliflar hayotligida ularning xatlari nashr etilib ommaga taqdim etilmaydi.

Epistolyar faoliyatning mahsuli sifatida xat va yozishmalardan tashqari esdaliklar, otkritkalar, telegrammalar, shaxsiy xarakterdagi telefakslar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy nima uchun ustozi Abdurahmon Jomiyga, shogirdlariga, do'stlariga va boshqa yaqin insonlariga maktublar yozib turgan? Vaholanki ular ijodiy faoliyat zarurati yuzasidan muntazam ucgrashib turishgan.

Yozma (adabiy) ijodiyot – yozma nutqning yana bir muhim funksiyalaridan biri bo'lib, uning vazifasi yozuvchi, shoir, jurnalist mehnatini ommalashtirishdan iborat. Adabiy asar epistolyar janr kabi bir shaxsga qaratilgan bo'lmay, balki ko'p odamlarga,

1 Epistolyar faoliyat – ikki kishining bir-biriga yaqin masofadan turib yozma ravishda aloqa bog'lashi.

ommaga – kitobxonlarga, ya'ni mavhum iste'molchilarga mo'ljallangandir. Shuning uchun yozma ijodiyotning adabiy mahsuloti, muayyan doiradagi, ma'lum toifadagi kitobxonlarni nazarda tutadi, ammo aniq bir shaxsning alohida xususiyatlarini hisobga olmaydi. Shuning uchun ham "qishloq hayoti to'g'risida", yoki "muhabbat qismatlarini so'zlovchi" romanlar, bolalar va kattalar uchun mo'ljallangan ertaklar, turli mavzudagi hikoyalar, ommalashgan p'esalar va dramalar yozma (adabiy) ijodiyotning mahsuli hisoblanadi. Bu albatta, birorta yozilgan adabiy asar kitobxonlarning kasbi, yoshi yoki boshqa jihatdan chegaralangan muhitiga mo'ljallangan degani emas: balki bolalar uchun yozilgan pesalarni kattalar ham jon-dildan tomosha qilishlari mumkin, yoki "qishloq hayotiga bag'ishlangan" romanlarni shaharliklar ham katta qiziqish va hayajon bilan o'qishlari mumkin. Asosan asarning badiiyligi va haqqoniylik nuqtayi nazaridan yozuvchi yoki shoir tomonidan yaxshi yoki yomon yozilganligiga, adabiy qimmatiga, muayyan kishilar taqdirini, hayotiy to'qnashuvlarni qay darajada aks ettirishiga, asardagi asosiy qahramonlar qiyofasini psixologik jihatdan qanchalik ishonchli chizganligiga bog'liq. Kitobxon badiiy asar bilan tanishish vositasida qalam ustasi tomonidan hushyorlik bilan kuzatilgan hayotni uning o'zidan o'rganadi, chunki asar yozuvchi har doim ham yaxshi psixologik qobiliyatga ega bo'ladi, shuning uchun ham ular dunyoga taniladilar va mashhurlik shohsupasiga ko'tariladilar.

Ilmiy-tadqiqot ishlarining borishi va natijalarini yozib borish – yozma nutq faoliyatining muhim funksiyasi sifatida ilmiy tadqiqot ishlari jarayonidan mazmun va mohiyati jihatidan keskin farq qiladi, chunki u tadqiqotchilarning o'zlariga emas, balki keng ilmiy jamoatchilikka yoki amaliyot sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlarga, ya'ni tadqiqotning o'ziga xosliklarini va nozikliklarini ko'p holatlarda tushunmaydigan "ba'zi toifadagi odamlarga" mo'ljallangan va eng asosiysi, u keng ommaga mo'ljallanmagan, hatto olimlar ham bundan mustasno emas. Qachonlardir mashhur olim K.A.Timiryazev tomonidan aytilgan "Fan uchun ishlayman, xalq uchun esa yozaman" degan so'zlarining mashhur bo'lib tarqalishi bejiz emas. Buyuk va olamshumul kashfiyotlar ham, bo'lg'usi fan doktorlarining kamtarona ilmiy ishlari natijalari ham keng kitobxonlar ommasiga o'zining amaliy natijalari bilangina qimmatbaho sanaladi. Ana shuning uchun ham yozma nutq ilmiy tadqiqot ishlarining natijalarini ommalashtirishda o'ziga xos vazifani bajaradi.

Ba'zan umumta'lim maktablarida adabiyot fanidan yozilgan eng yaxshi insholar ham adabiy ijod namunasi sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Yozma nutqning mnestik[1] funksiyasi (yozma nutqning eslab qolish vositasi sifatidagi funksiyasi yoki axborotni xotirada saqlab qolish jarayoniga xizmat qilish funksiyasi) – bu odatdagi, barchaga ma'lum bo'lgan xotirada saqlash uchun qaydlardir. Bu ehtimol, yozma nutqning eng qadimgi funksiyasi bo'lishi ham mumkin. Taniqli olim L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, "yozuvning rivojlanish tarixidagi ilk davrni ko'pgina tadqiqotchilar "mnemo-texnik davr" deb atashlari darhaqiqat bejiz emas"[2]. Xotirada

[1] Mnestik – Axborotni xotirada saqlab qolish.

[2] Выготский Л. С. Развитие высших психических функций. - М., 1960. - С. 102.

saqlash uchun qaydlar – bu muallifning fikr va mulohazalarini aks ettiruvchi konspektlar, xotiranomalar, tezislar, kundaliklar, kelgusi rejalar va hokazolar. Ko'pchilik olimlar barchaga ma'lum bo'lgan shpargalkalarni ham mnestik funksiyaga kiritishadi, ammo bu unchalik to'g'ri kelmaydi[1]. Yozma nutqning yuqorida qayd etilgan mahsulotlardan farqi shundaki, xotira uchun qaydlar o'z muallifidan tashqari boshqa biror kishiga mo'ljallanmagan, yoki ular shaxsan muallifning o'zi uchun yoziladi. Xotirada saqlash uchun qaydlarning ayrimlari mutlaqo boshqa funksiyalarni ham bajaradi – ya'ni xotirada saqlash bilan birga, omma oldiga chiqishlar qilishda ilmiy tadqiqot ishlarining borishi natijalari hamda yozma ijodiy jarayon mahsuli haqida paydo bo'lgan fikr-mulohazalar yoki yuz berishi mumkin bo'lgan biror voqelik oshkora o'qish uchun qayd etib belgilab boriladi. Boshqacha aytganda, ushbu qo'shimcha funksiyalar nafaqat mnestik vazifalarni bajaradi, balki boshqa funksiyalarga ham borib taqalishi mumkin.

Va nihoyat, yozma nutqning **boshqaruvchilik funksiyasi** – boshqaruv instansiyalariga bo'ysunadigan ijro etuvchi tuzilmalar uchun mo'ljallangan farmonlar, qarorlar, ko'rsatmalar, farmoyishlar, buyruqlar, yo'riqnomalar, hisobotlar, axborot-tahliliy qaydlar va boshqa turli ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Sanab o'tilgan hujjatlar ichida bizning davrimizda ancha keng tarqalgani axborot-tahliliy qaydlar alohida ahamiyatga ega. Boshqaruv funksiyasida qaydlar – tahlilchi (analitik) olimlarning (konsultantlar, maslahatchilar, ekspertlar, ilmiy muassasalar xodimlari va hokazo) boshqaruv tuzilmalari tomonidan qabul qilingan qarorlarini har tomonlama tahlil qilinganligini, ya'ni yaxshi o'rganilganligini anglatib, real sharoitga tayanishlari uchun tuzilgan ilmiy hujjat turiga kiradi[2].

Shunday qilib, o'qituvchi nutqining funksiyalari rang-barangligi bilan ajralib turadi va ularning barchasi muhim ahamiyatga ega. Ularga pedagogik jarayonda e'tibor bermaslik o'qituvchi kasbiy faoliyatini qoniqarsiz natijalarga olib keladi.

10.7. O'QITUVCHINING NUTQ TEXNIKASINI EGALLASHI

O'qituvchining pedagogik faoliyatida nutq texnikasi eng murakkab va doimiy munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan jarayon. Psixologik til bilan aytganda nutq texnikasi, notiq nutqining o'rinli yoki o'rinsiz ekanligini belgilashda namoyon bo'ladi. O'qituvchi har xil vaziyatlarda, turli xarakterdagi o'quvchilar bilan muloqotda bo'ladi. Demak u o'z nutqini ana shu vaziyatlar asosida, o'quvchilar holatiga qarab tuzishi, o'zgartirishi, doimo nutqining ta'sirchan chiqishiga e'tibor berishi, o'quvchilarni zeriktirib

[1] Shpargalka – aslida xotirada saqlash uchun emas, balki xotiraga keltirish, eslash uchun yoziladi. Shpargalkadan foydalanish to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotni xotirada saqlashdan ozod qiladi. O'rganilgan har qanday muhim ma'lumotlar ba'zan beixtiyor xotiradan butunlay chiqib ketadi – bu inson xotirasining biologik qonuniyati va qisqa daqiqalarda egallangan bilimlarni rasmiy tekshiradigan imtihonlarning psixologik tabiatidir.

[2] Бадмаев Б.Ц., Малышев А. А. Психология обучения речевому мастерству. - М., 1999.

qo'ymasligi uchun tilning tasviriy vositalari bo'lmish metonimiya, metafora kabilardan foydalanishi lozim. O'quvchilar diqqatini jalb etish, o'rganilayotgan mavzuga ularni qiziqtira olish o'qituvchi nutq texnikasining asosiy xususiyatlaridandir.

O'qituvchining takomillashgan nutqqa ega bo'lishi, o'quv materialini talabalar tomonidan puxta o'zlashtirilishini ta'minlash garovidir. Bolalar o'qituvchi nutqiga juda e'tibor beradilar. Biror harf yoki tovushni noto'g'ri aytilishi kulgiga sabab bo'ladi. Bir ohangdagi nutq-tezda charchatadi. Individual suhbat paytidagi o'qituvchining baland ovozidan o'quvchi o'zini aldanayotgandek his etadi. Bu o'qituvchiga ishonchsizlik bilan qarash hislarini uyg'otadi. Ayrim mutaxassislar insonning tovushi va uning tembri tug'ma xususiyat deb aytishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovush sifatini o'zgartirish mumkinligini tasdiqlaydi. Bugungi kunda mutaxassislar tomonidan nutq texnikasini takomillashtirish bo'yicha ko'plab mashqlar kompleksi ishlab chiqilgan. Ular asosan teatr pedagogikasi tajribasiga asoslangan bo'lib, so'zlashish paytida nafas olish, tovush hosil qilish va uni ma'noli ifodalash malakalarini rivojlantirishga qaratilgan, bu esa o'qituvchilarga o'z so'zi mazmunini o'quvchilarga yanada to'laqonliroq qilib yetkazishga ham imkoniyat beradi.

O'quvchi hayoti davomida o'qituvchisining nutqiy xususiyatlarini, o'quvchilarga murojaat qilish, savollarga aniq va mukammal javob berish usullarini xotirasida saqlaydi. O'qituvchining nutqi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish vazifasini bajarishi kerak. Shuning uchun unga faqat umummadaniy emas, balki kasbiy va pedagogik talablar ham qo'yiladi. O'qituvchilar o'z so'zlarining mazmuni, sifati va oqibati uchun jamiyat oldida ijtimoiy javobgar shaxsdir. Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi nutqi pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Texnik jihatdan nutqiy tajribaga ega bo'lgan o'qituvchining nutqi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

1. o'qituvchi va uning tarbiyalanuvchilari o'rtasidagi o'zaro munosabati va mahsuldor muloqotini;
2. ta'lim jarayonida bilimni to'la qabul qilinishi, anglanishi va mustahkamlanishi;
3. o'quvchilar faoliyatiga, ulardagi qobiliyat va iqtidor instinktini shakllantirish maqsadida ongi va hissiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish;
4. o'quvchilarning o'quv va amaliy faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish.

29-chizma. Notiqlik tajribalariga ega bo'lgan o'qituvchining asosiy vazifalari

O'qituvchi nutqi deyilganda, ta'kidlab o'tganimizdek, o'qituvchining og'zaki va

yozma nutqi nazarda tutiladi. Yozma nutq va og'zaki nutq – bu o'qituvchining gapirish vaqtida tuziladigan nutqi bo'lib, o'quvchilar ongiga, istak va motivlariga, his-tuyg'ulariga ta'sir etuvchi muhim omillardir. O'qituvchilar og'zaki nutqi asosida zarur bo'lganda o'z kamchiliklarini tuzatib, korreksiyalab boradi.

"Pedagogik nutq texnikasi" tushunchasi o'qituvchilarning kommunikativ xulqi tushunchasi bilan uzviy bog'liq. O'qituvchining kommunikativ xulqi deyilganda, faqat uning gapirish va axborot berish jarayonigina emas, balki, o'qituvchi va o'quvchi muloqoti uchun emotsional psixologik muhit yaratishga, ular o'rtasidagi munosabat va ish uslubiga ta'sir ko'rsatuvchi nutqni tashkil etish va unga mos o'qituvchining nutqiy nazokati ham ko'zda tutiladi.

Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli olib borish uchun o'qituvchining nutqi ma'lum talablarga javob berishi, ya'ni notiqlik mahoratini shakllantirish uchun lozim bo'lgan kommunikativ sifatlarga javob berishi hamda nutqi bir nechta adabiy normalarga chunonchi, zamonaviy normalarga, ifodali, adabiy til normalariga mos kelishi lozim.

Pedagogik nutqning to'g'rilik, aniqlik, moslik, leksik boylik, ifodalilik va tozalik kabi kommunikativ sifatlari o'qituvchi nutqining madaniyatini belgilaydi.

Maqsadga muvofiq keladigan pedagogik nutq texnikasi o'zining mantiqiyligi, ishonchliligi, kuzatuvchanligi bilan bir nechta tkrorlanmas yo'nalishlarni bajaradi:

O'qituvchi nutqining birinchi yo'nalishi – o'rganilayotgan bilimlarni to'liq holda berilishini ta'minlashdan iboratdir. O'qituvchi nutqining kommunikativ o'ziga xosligi bilan bilimni o'quvchilar tomonidan qabul qilinishi va esda qolishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa mavjud. Nutq buni ta'minlashi yoki qiyinlashtirishi mumkin.

O'qituvchining nutqi faqat axborot berib qolmay, o'quvchining ongi,sezgisiga ta'sir qilishi, ularning fikrlashini rivojlantirishi kerak.

O'qituvchi nutqining ikkinchi yo'nalishi, o'quvchining o'quv faoliyati jarayonida o'qituvchi nutqi asosida, darsda o'rganilayotgan bilimlarni samarali o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat.

O'quvchilar, o'qituvchi nutqini eshita turib qator operatsiyalarni bajaradi: berilayotgan axborotni ko'rgazmali shaklda aniqlashtiradi, o'zidagi bilim bilan unga nisbatan munosabat bildiradi, eslab qoladi, nutq mantiqini, fikrlar rivojini kuzatib boradi.

Ovoz tonining balandligi, tovushning yuqoriligi, bir xilda gapirish o'quvchilarni charchatadi. O'quv – biluv jarayonining samarali bo'lishiga darsda o'qituvchilar tomonidan tanlangan kommunikativ xulq uslubi ham ta'sir qiladi. o'qituvchi ko'pincha "ovozingni o'chir", "jim o'tir", "boshingni ko'tarib o'tir", "mashqni tugat", "kitobni yop" kabi norozilikni bildiruvchi so'zlarni ishlatadi yoki o'quvchining mavzu bo'yicha javobini bo'ladi, "har doimgidek hech narsa bilmaysan", "sen bu mavzuni qayerdan ham tushunarding" kabi pedagogik taktga xos bo'lmagan so'zlarni ishlatadi. Bu holat o'qituvchi bilan o'quvchi orasidagi munosabatning keskin buzilishiga, o'quvchilarning darsda faolligini pasayishiga olib keladi.

O'qituvchi nutqining uchinchi yo'nalishi – o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi mahsuldor o'zaro munosabatni to'g'ri ta'minlashdan iborat.

O'qituvchining nutq texnikasi – o'qituvchi va o'quvchilar munosabatini boshqarish rolini ham bajaradi. Bu yerda hamma narsa ahamiyatli: **o'qituvchining o'quvchilarga qanday murojaat qilishi, salomlashishi, talablarni qanday qo'yishi, qanday ogohlantirishi, xohishini qanday bayon qilishi; nutqining jozibadorligi, chehradagi ifoda, qarashi ham o'quvchilarga ta'sir ko'rsatadi.** Darsdan tashqari muloqotda bularning ahamiyati yanada ulkan. O'qituvchining individual muloqot uslubi (qo'rqitishga asoslangan, tarbiyaviy ta'sirga asoslangan, do'stona aloqaga asoslangan), uning psixologik xarakter xususiyatiga ham bog'liq.

O'qituvchi nutq texnikasining xususiyati – avvalo o'quvchilarga qaratilgan hamda yo'naltirilgan qizg'in va uzluksiz faoliyatdir. O'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi nutqini bemalol pedagog monologi deb atash mumkin, unda pedagogik mahoratning eng noyob jihatlari mujassamlashgan. O'qituvchining obro' e'tibori, asab tizimining bir maromda ishlashi, ish faoliyatining unumdorligi va ijobiy natijalarga erishishi unda nutq texnikasining qay darajada rivojlanganligiga bog'liq.

O'qituvchi og'zaki nutqining asosiy xususiyati, uning mazmuni o'quvchilar tomonidan ikkita kanal orqali tovush va vizual yo'l bilan qabul qilinishidadir. Vizual harakatlar o'qituvchi nutqining ta'sirchanligini, ifodaliligini oshiradi, u o'qituvchining kayfiyati haqida ham o'quvchilarga uzluksiz axborot berib turadi. Shuning uchun yosh o'qituvchi muloqotda o'zining tashqi ko'rinishini boshqara olish ko'nikmasini shakllantirishi kerak.

O'qituvchi og'zaki nutqining yana bir muhim xususiyati, uning improvizasion (hech qanday tayyorgarliksiz) xarakterda ega ekanligidadir. Ba'zan o'qituvchi tajribalariga tayanib mashg'ulot tekstiga yoki konspektiga qaramasdan, uyga maxsus tayyorlanmasdan gapiradi, o'quvchi uni tinglab turib, so'z va ifodalarda tutilayotganligini, ba'zan nutqiy kamchiliklarini ko'ra oladi. Shunday holat vujudga keladiki, go'yoki o'qituvchi notiq sifatida o'zligi haqidagi haqiqatni, fikrlarini birinchi marta o'quvchilar bilan ochayotgandek bo'ladi.

Kommunikativ nutqning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun, o'qituvchilar o'zida notiqlik san'atiga xos, qator maxsus qobiliyatlarni rivojlantirishi talab qilinadi.

O'qituvchining notiqlik san'atiga xos maxsus qobiliyatlar yig'indisi

- ijtimoiy perseptiv qobiliyat;
- ijtimoiy tasavvur qobiliyati;
- o'zini boshqara olish qobiliyati;
- muloqotda o'zining ruhiy holatini boshqara olish qobiliyati;
- irodaviy ta'sir ko'rsatish qobiliyati;
- ishontira olish qobiliyati.

Nutq texnikasi malakalari va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallash uchun sharoit yaratuvchi notiqning umumiy ruhiy, jismoniy xususiyatlarini takomillashtirish, bunda

tasavvurni, obrazli xotira va fantaziyani rivojlantirish ko'zda tutiladi. Bunday faoliyatda tovush, diapazon, tembr, diksiya, artikulyatsiya, ritmika, to'g'ri nafas olish muhim rol o'ynaydi.

Tovush. Ba'zi o'qituvchilarga tovush tug'ma qobiliyat sifatida berilgan, lekin bu ham mashq qilib turilmasa buziladi. O'qituvchi o'z tovushini kuchli, egiluvchan, emotsional ta'sirchan qila olishi mumkin. O'qituvchi pedagogik faoliyatida tovushning o'ziga xosligi nimalarda namoyon bo'ladi?

Avvalo tovush, chiqarilgan havoni hiqildoqdan o'tishi paytida ovoz pardalarining tebranishi natijasida vujudga kelishini ta'kidlash lozim. Tovush o'zining quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

- tovush kuchi – tovush apparati organlarining faol ishlashiga bog'liq. Chiqarilayotgan havo oqimining tovush tirqishiga bo'lgan bosimi qancha kuchli bo'lsa, tovush ham shuncha baland bo'ladi;
- tovush uchuvchanligi – tovushning balandligida hamda uning kuchli nutq apparati organlarining faolligiga bog'liq. Tovush eshitilishining uchuvchanligi, (polyotnost) bu ovozni masofaga moslay olish, tovushni boshqara olishdir.
- tovushning ixchamligi va harakatchanligi – o'qituvchi nutqining mazmuniga, tinglovchilarga moslab o'zgartira olish qobiliyatiga bog'liq bo'lib, bunda notiq tovushni yengil boshqarishi va tinglovchilarga moslashtira olishi tushuniladi.

Diapazon – tovushning hajmi bo'lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi ohanglar bilan belgilanadi. Diapazonning qisqarishi nutqni bir xil ohangda zerikarli bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. O'qituvchining bir ohangda gapirishi, tinglovchilar tomonidan axborotni idrok qilishni pasaytiradi va ularni zeriktirishi mumkin.

Tembr – tovushning rang-barangligi, yorqinligi hamda yumshoqligini namoyon qilib, shu bilan birga o'qituvchi nutqining chiroyli, mayin, jozibali, o'ziga xosligini ta'minlaydi. Ba'zilar tovush va uning tembri tug'ma deb bilishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovushni to'liq qayta qurish mumkinligini isbotlab bergan.

O'qituvchida kasbiy kasallik kelib chiqmasligi uchun, tovush gigienasiga amal qilish kerak. O'qituvchi ish vaqtining 50 foizi davomida gapirib turadi. O'qituvchi ish vaqti tugagach, 2-3 soat davomida uzoq vaqt kishilar bilan so'zlashishdan qochishi talab qilinadi. Zarur holatda qisqa va sekin gapirishi kerak.

Dars jadvali qo'yilishida shunga e'tibor berish kerak. 3-4 soat darsdan so'ng nutq apparati charchaydi, shundan so'ng 1 soat tovush dam olishi kerak. Tajribali, ko'p yillar ishlagan o'qituvchi 2-3 soatda charchaydi va 2 soat dam olishi kerak. Yuqori nafas yo'llari, asab tizimlari, ovqatlanish rejimiga e'tibor berish kerak.

O'qituvchi nutqining tezligi, individual sifatiga, uning nutq mazmuni va muloqot holatiga bog'liq. Turli millatlarda nutq tempi turlicha bo'ladi. Chunonchi, rus tilida minutiga 120 ta so'z atrofida, ingliz tilida 120-150 ta so'zgacha. Tadqiqotlarga ko'ra, 5-6 sinflarda o'qituvchi minutiga 60 ta so'z, 9-11-sinflarda 75 tagacha so'z gapirishi to'g'ri bo'ladi.

Materialning murakkab qismini o'qituvchi past tempda, keyin esa tezroq gapirishi kerak. Mavzuga oid qoidalar va qonuniyatlar aytilganda, xulosa qilinganda nutq sekinlashadi.

Diksiya – aniq talaffuz qilish. Talaffuzning aniqligi o'qituvchi uchun professional zarurat bo'lib, o'qituvchi nutqini talabalar tomonidan to'g'ri tushunilishini ta'minlaydi. Talaffuzning aniqligi aytilayotgan so'z, bo'g'in va tovushlarning qat'iy aniqligidir. U nutq apparati barcha a'zolarini (lablar, jag', tishlar, yumshoq va qattiq tanglay, kichik til, kekirdak, tomoq orqa devori, tovush naychalari) birgalikda ishlashiga bog'liqdir. Til, lablar, yumshoq tanglay, kichik til, va pastki jag' nutqda faol ishtirok etadi. Shuning uchun ham ularni mashq qildirish muhim ahamiyatga egadir.

Artikulyatsiya – aniq talaffuz qilishni takomillashtirish, ya'ni artikulyatsiya – nutq organlarini harakatlantirish orqali vujudga keltiriladi. Artikulyatsiya gimnastikasi ikki turga bo'linadi. Birinchisi nutq apparatining dastlabki mashqlari va ikkinchisi har bir unli va undosh tovushlarni to'g'ri aytishga o'rgatuvchi mashqlar (ifodali o'qish, tez aytishlar).

Ritmika – bu ayrim so'z bo'g'inlarining aytilish muddati va to'xtalishi gapirishdagi to'liq davomiylik, nutq va ifodalarning navbat bilan o'z o'rnida ishlatilishini bildiradi. Shu bilan birga nutqni tashkil qilish jarayoni. Bu nutqning muhim elementlaridan biri bo'lib, ba'zan intonatsiya va pauza o'rniga so'zdan ko'ra kuchli emotsional ta'sir qiladi.

Ritm nutqning eng asosiy qismidir, chunki "Nutq ohangi" va to'xtamlar ham tinglovchilarga beixtiyor o'zgacha hissiy ta'sir ko'rsatadi. K.S.Stanislavskiy ritmga quyidagicha ta'rif beradi: "Quruq so'z novdan tushayotgan no'xatdek yopirilib chiqadi, ma'noli so'z esa xuddi simob to'ldirilgan sharcha kabi asta-sekin shakllanadi. Berilayotgan bilimlarning qiyin qismini o'qituvchi asta-sekin tushuntiradi va so'ngra yanada tezroq gapirishga o'tishi mumkin".

Tarixdan ham ma'lumki, 6a'zi kishilar o'zlarining nutq tovushlarini takomillashtirib borganlar. Chunonchi, Demosfen o'zining bu sohadagi kamchiliklarini tugatib borib, qadimgi Yunonistonning siyosiy oratorlaridan biriga aylangan. Yoki Vladimir Mayakovskiy ham 20 yoshidan boshlab rasmiy chiqishlar uchun og'ziga toshchalar olib, Rion daryosi bo'yida nutq so'zlashni mashq qilgan.

To'g'ri nafas olish. So'zlayotganda to'g'ri nafas olish, ovozni yo'lga qo'yish va uning tovlanishi, so'zlarni xatosiz talaffuz qilish, notiqlik san'atini takomillashtirib borish o'qituvchining nutq texnikasini shakllantiruvchi xususiyatlardir. Ovoz o'zgarishi, to'g'ri nafas olish, diksiya, ritmika asosida nutqning ko'nikma va malakalari yig'indisini mukammal rivojlantirish o'qituvchining nutq texnikasida takomillashadi.

Ovoz o'zgarishi, to'g'ri nafas olish nutq texnikasi bo'yicha ishlab chiqilgan mashqlar turkumiga kirib, o'qituvchi ravon nutqining muntazam shakllanishini ta'minlaydi. Nafas olish organizmga hayot bag'ishlovchi fiziologik funksiyalarni bajaradi. Shu bilan birga nutqning energiya bazasi bo'lib ham hisoblanadi.

Dars davomida o'qituvchi juda ko'p gapiradi, yangi mavzuni tushuntiradi, ma'ruza o'qiydi. Agar o'qituvchi to'g'ri nafas olish texnikasini puxta egallamagan bo'lsa, uning qon tomirlarini urishi tezlashib, yuz rangi qizarib ketishi, nafas qisishi sodir bo'lishi mumkin.

Muskullarning ishtirok etishiga qarab nutqda to'g'ri nafas olish jarayoni 4 turga bo'linadi:

Yuqori nafas olish – yelkalarni ko'tarilib tushishi va ko'krak qafasining yuqori

qismi ishtirokida hosil qilinadi. Bu bo'sh, yuzaki nafas olish bo'lib, unda faqat o'pkaning yuqori qismi ishtirok etadi. Ko'krak qafas bilan yuqori nafas olish qovurg'alar o'rtasidagi mushaklar yordamida hosil qilinadi. Bunda ko'proq nafasning ko'ndalang hajmi o'zgaradi. Diafragma kam harakat qiladi. Shuning uchun ham nafas chiqarish kuchsiz bo'ladi.

Diafragma ishtirokida nafas olish – ko'krak qafasning bo'ylama hajmini ortishi hisobiga vujudga keladi. Bunda diafragma qisqaradi. Uning qisqarishi, qovurg'achalar oralig'idagi nafas mushaklari hamda qorin mushaklari ishtirokida vujudga keladi.

Nutqiy nafas olish organizm uchun muhim hayotiy manba bo'lishi bilan birga u nutqning energiya bazasi sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Nutqiy nafas olish **fonosional** nafas ham deyiladi (fono-tovush).

Dialogik nafas olish kundalik hayotda nutqimiz **dialogik** tarzda bo'lib, bunda nafas olish qiyinchilik tug'dirmaydi. Lekin darsda o'qituvchi ko'p gapirgan, ma'ruza o'qigan vaqtlarida o'zgarmagan nafas, mashq qilinmasa qiyinchilik tug'diradi: yuz qizarib ketishi, nafasni tez-tez olish holati paydo bo'lishi mumkin. O'qituvchi nutqiga xos bo'lgan to'g'ri nafas olish jarayonida qaysi muskullar ishtirok etishiga qarab, nafas olishning quyidagi funksiyalari ajratiladi:

1. Yelka va ko'krak qafasining yuqori qismini ko'taruvchi muskullar ishtirokida nafas olishda kuchsiz nafas olinib, o'pkaning faqat yuqori qismi faol ishlaydi.
2. Ko'krak orqali nafas olishni qovurg'alar orasidagi muskullar amalga oshiradi, diafragma kam harakatda bo'lib, nafas chiqarish kuchsiz bo'ladi.
3. Diafragmali nafas olish ko'krak hajmining o'zgarishi, diafragma qisqarishi hisobiga harakatlanadi.
4. Diafragma va qovurg'a orqali nafas olishda – diafragmaning har tomonlama hajmi o'zgarishi, qovurg'alar orasidagi va qorindagi nafas muskullari ham qatnashadi. Shu nafas to'g'ri bo'lib, bu nutqiy nafas uchun asos hisoblanadi.

O'qituvchi o'z nutqini takomillashtirishi uchun ta'lim va tarbiya jarayonida quyidagi yo'nalishlarga doimiy amal qilib borishi lozim:

- o'zbek adabiy tili qonuniyatlari va normalarini mukammal bilishi;
- o'z-o'zini va nutqiy faoliyatini muntazam nazorat qilishi;
- o'zining nutqiy madaniyatini doimiy rivojlantirib borishi;
- nutqiy muloqotnint barcha holatlarida adabiy nutq qoidalarini
- egallash uchun o'ziga sharoit yaratishi.

Nutqingizni tayyorlash va mashq qilish jarayonida o'zingiz mustaqil ravishda quyidagi savollarga javob toping:

Tinglovchilarda qanday fikr uyg'otmoqchiman?

Auditoriyada ijobiy muhitni qanday kayfiyat asosida yaratmoqchiman?

Nutq mazmuni va sharoiti qanday intonatsiya va ritmni talab etadi?

Har qanday ta'lim-tarbiyaviy mashg'ulot oldidan bir necha bor o'z nutqingizni yozib olib (audiodisk, diktofon) tinglang va xatolaringizni tuzatishga harakat qiling, nutqingizni qaytarib mashq qiling. Nutqingizni rang-barang badiiy-adabiy so'zlar bilan boyiting. O'z taassurotlaringizni qo'shgan holda boyitib, to'ldirib boring. O'qituvchi nutqining

mukammalligi, tozaligi, ta'sirchanligi bilan o'quvchilar e'tiborini jalb qiladi, ular qalbiga yo'l topadi, hech qanday qiyinchiliksiz kasbiy pedagogik faoliyatida duch keladigan barcha ziddiyatlarni bartaraf etadi. Natijada o'qituvchi pedagogik faoliyatda aslo toliqmaydi, asab tizimi doimo sog'lom bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining notiqlik mahorati hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Umuman, nutqiy faoliyat turlarining tasnifi zamirida hali yechimini kutayotgan dolzarb muammolar mavjud. Ular xilma-xil ta'riflarga ega bo'lishi mumkin. Jumladan, shunday muammolardan biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan jamoat joylarda qo'llaniladigan nutqiy faoliyatdir. Jamoat joylarda nutqiy faoliyatning ijtimoiy-siyosiy, kasbiy-ishlab chiqarishga oid, o'quv-pedagogik, akademik (ilmiy), sud jarayoniga oid, diplomatik, ijtimoiymaishiy kabi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

? MAVZUNI O'ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Notiqlik san'atining paydo bo'lishi tarixi?
2. Sharq mutafakkirlarining notiqlik san'ati haqidagi fikrlarini ayting.
3. Nutq texnikasida nutqning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Nutqning to'g'riligi va ravonligi, aniqligi va ta'sirchanligiga ta'rif bering.
5. Nutqning mantiqiyligi deganda nimani tushunasiz?
6. Til va nutq bir–biridan qanday farqlanadi: ularning qiyosiy tahlili?
7. O'qituvchi nutqiy faoliyatining komponentlari nima, ularni izohlang.
8. O'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish vositalarini sanang.
9. Nutqning ta'sirchanligi va ifodaliligi qanday namoyon bo'lishini ta'riflab bering.
10. O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rishda nutqning qaysi jihatlariga e'tibor beradi.
11. Tajribali o'qituvchi nutqida namoyon bo'luvchi holatlarni ayting
12. O'qituvchi nutqining funksiyalarini izohlab bering.
13. To'g'ri nafas olishning qanday funksiyalarini bilasiz?
14. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi o'z nutqini takomillashtirishi uchun nimalarga e'tibor berishi kerak?
15. Bo'lajak o'qituvchi nutqiy faoliyatini qanday takomillashtirishi mumkin?

TALABALARNING MUSTAQIL TAYYORGARLIKLARI UCHUN TOPSHIRIQLAR

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o'z fikr-mulohazalaringizni bildirgan holda "Mustaqil ish" yozing:

1. "O'rta Osiyoda notiqlik san'atining rivojlanishi".
2. "O'qituvchi nutqining funksiyalari va yo'nalishlari".
3. "Hozirgi kunda o'qituvchi nutq madaniyatini takomillashtirish muammolari".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4312785.
3. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent shahri, 2024-yil 1-fevral № O‘RQ – 901.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarori – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2020, 27-28-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni. https://lex.uz/docs/6008663.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent. –O‘zbekiston.–2017.–488 b.
7. Апресян Г.З. Ораторское искусство. М., Изд-во Моск. университета, 1978. – 280 с.
8. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – To‘ldirilgan 2–nashri. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2000. – 248 b.
9. Kaykovus. Qobusnoma (Forschadan Muhammad-Rizo Ogahiy tarjimasi).: S.Dolimov. – T., O‘qituvchi, 2006. – 208 b.
10. Mambetova L.M. 9-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensi-yalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish – Toshkent, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi.
11. Mahmudov N. M. O‘qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – T.: O‘zb. Milliy kutubxonasi, 2007. – 185 b.
12. Muhiddinov A.G. O‘quv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O‘qituvchi, 1995.
13. Navoiy A. Mahbub ul–qulub. Asarlar 15-tom.- T.: “Fan” 2005.
14. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “Iqtisod–moliya”. 2009. – 240 b.
15. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjaeva va boshqalar) – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. – 380 b.
16. Hotamov N.T. Davraga she’r ulashing. – T.: “MERIYUS”, 2009. – 287 b.
17. Husanov B., Gulomov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya” 2009.- 156 b.

11-BOB.

O‘QITUVCHINING TA’LIM JARAYONIDAGI MAHORATI

Tayanch tushunchalar:

Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash; zamonaviy o'qituvchi; samimiylik; ziddiyatlar; dars jarayoni; pedagogik ta'sir ko'rsatish; ma'naviy – axloqiy sifatlar; dars turlari; aralash darslar; dars turlari; nazariy bilimlar; tashkiliy va yakuniy bosqich; ta'limiy faoliyat; tarbiyaviy faoliyat, ta'limning rivojlantiruvchi talablari; ijodiy kayfiyat; pedagogik ijodkorlik; o'z–o'ziga ta'sir qilish; kasbiy omilkorlik; individual kasbiy xususiyatlar; pedagogik madaniyat; texnologik madaniyat; noan'anaviy ta'lim metodlari; ijodiy kayfiyat; o'quv harakatlari; tashxislash; bashoratlash; rejalashtirish; tashkil etish; o'quv harakatlari; loyihalashtirish

11.1. HOZIRGI ZAMON O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK FAOLIYATI

O'qituvchi – pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisosligi bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlik va yuksak axloqiy fazilatlarga boy, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'lim sohasidagi islohotlar markazida o'qituvchi turganligini ta'kidlab shunday deydi: "Men o'qituvchi, muallim deganda o'zim uchun eng aziz va hurmatli bo'lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman"[1].

O'qituvchi ta'lim jarayonida o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Hozirgi kunda o'qituvchining pedagogik mahoratida "Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash" kabi didaktik qonuniyatlar ta'lim berishning muhim kategoriyalari sifatida e'tirof etilgan. Shaxsga ta'lim–tarbiya berish nihoyatda murakkab jarayon, qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk arboblari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uni tashkil etish mazmuni va nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilovchi muhim ahamiyatga molik bo'lgan omil ekanligi ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" kabi muhim vazifalar belgilandi.

Bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni yil sayin yangilanib, zamon talablariga moslashib bormoqda. Zamonaviy o'qituvchi ta'limni qanday tashkil etishi zarur?

- avvalo u o'z mutaxassisligi bo'yicha ta'lim beradigan fanlardan pedagogik texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini mazmunan yaxlitligini ta'minlashi;
- pedagogik va axborot texnologiyalari hamda o'quvchilar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo'llashi, o'quv mashg'ulotlarida pedagogik va axborot texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini uyg'unlashtirish malakasiga ega bo'lishi;
- ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitish mazmuniga mos ravishda pedagogik tizimni loyihalay olishi;

[1] Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлисга Мурожаатномаси – 2020 йил, 17 январь.

- ta'lim beradigan fanlar turkumini rivojlantirish istiqbollarini ochib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni muntazam amalga oshira olishi;
- ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda jahonning rivojlangan mamlakatlarida pedagogika va psixologiya sohasida erishilayotgan ilg'or tajribalarni amalda modernizatsiya qilgan holda qo'llashi;
- O'rta Osiyo mutafakkirlarining boy ma'naviy meroslaridan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda foydalanishi;
- darsning barcha turlarida, mashg'ulotlarda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qitish metodlaridan foydalanishi;
- o'qitadigan fan turkumi bo'yicha avtomatlashtirilgan ta'lim tizimi uchun amaliy dasturlar paketini yaratishi lozim.

Zamonaviy o'qituvchi qiyofasidagi shaxs pedagogik-psixologik jihatdan yuksak tayyorgarlikka ega bo'lishi uchun unda quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi kerak (so'z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarni ifodalaydi):

1. O'qituvchi mamlakatimizning ijtimoiy va siyosiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berishi lozim.
2. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.
3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi shart.
4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslaridan ko'nikma va malakaga ega bilishi, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o'z faoliyati tashkil etishi zarur.
5. O'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda pedagogik va axborot texnologiyalarining eng samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.
6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi davr talabidir.
7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativ layoqatni, pedagogik texnika sirlarini (nutq, chehra, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.

Ayniqsa, o'qituvchi o'zining individual notiqlik madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni aks ettirishi kerak:

a) nutqning to'g'riligi;
b) nutqning aniqligi;
d) nutqning ifodali bayon etilishi;
e) nutqning sofligi (ya'ni, nutq tozaligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi so'zlardan

holi bo'lishi, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos bo'lmagan so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etiladigan, o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilishda qo'llaniladigan qo'pol so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlaridan holi bo'lishi;

f) nutqning ravonligi;

g) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish). O'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak.

O'QITUVCHINING INDIVIDUAL NUTQ MADANIYATI XUSUSIYATLARI

a) nutqning to'g'riligi;
b) nutqning aniqligi;
d) nutqning ifodali bayon etilishi;
e) nutqning sofligi;
f) nutqning ravonligi;
g) nutqning boyligi.

30-chizma. O'qituvchining individual nutq madaniyati

O'qituvchi pedagogik-psixologik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarni tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni o'z iroda kuchi bilan bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O'qituvchi o'quvchilar, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchining (yoki hamkasbi, ota-onalar) muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi, u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur.

O'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar orasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

11.2. DARS – TA'LIM JARAYONINING ASOSIY SHAKLI

Dars –ta'lim jarayonining asosiy tashkiliy usuli bo'lib, unda sinf dars tizimining barcha xususiyatlari aks etadi. Darsda o'qituvchi tashkiliy tartibni va ta'limning muntazamligini ta'minlaydi.

Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shaklidir.

O'qituvchining o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati dars jarayonida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi darsda muayyan tayyorgarlikka ega o'quvchilar jamoasi bilan faoliyat olib boradi. Darsda o'qituvchi o'ziga tegishli mutaxassislik fanining ma'lum bir reja asosida belgilangan mavzusini o'quvchilarga tushuntirish bo'yicha ishlaydi. Bilimlarni ta'lim metodlari asosida o'quvchilar ongiga singdiradi, o'quvchilarning olgan bilimini muntazam ravishda baholab boradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta'lim shakllarini birlashtirish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Darsda o'qituvchi rahbar sifatida har bir o'quvchining bilim olish xususiyatlarini inobatga oladi, o'quvchilarning ta'lim jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlarini rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda shakllantirish uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo'lishi mumkin. Bu o'quv materialining mazmuniga, darsning didaktik maqsadlariga, o'quvchilar va sinf jamoasining xususiyatlariga bog'liq.

Ta'lim jarayonida darsning quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan:

- aralash darslar;
- yangi materiallar bilan tanishish darslari;
- bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darslari;
- o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslari;
- ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;
- bilimlarni tekshirish darslari;

Aralash (kombinatsiyalashgan) darslar, yoki murakkab tuzilishga ega bo'lgan ushbu dars jarayonida o'qituvchi quyidagi kombinatsiyani qo'llashi mumkin: uy vazifalarini tekshirish va o'quvchilar bilan savol-javob, yangi materialni o'rganish, bilimlarni mustahkamlash, o'quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish.

O'quvchilarning yangi materiallar bilan tanishish darsi yoki yangi bilimlarni berish (o'rganish) darsida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar mustaqil ish olib boradilar, o'qituvchi darsning tuzilishi va olib borilishini quyidagicha ta'minlaydi: yangi materialni o'rganish uchun asos bo'lgan avvalgi materialni takrorlash, o'qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishlashni tushuntirishi, bilimlarni tekshirish va mustahkamlash, uyga vazifa berish.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darsida o'qituvchi darsning asosiy mazmunini ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashga qaratadi. O'qituvchi asosiy e'tiborni o'rganilgan mavzularni takrorlash tarzida mashg'ulot olib borishga qaratadi. Tuzilishi bo'yicha bunday darslarni o'qituvchi quyidagi bosqichda tashkil etadi: o'quvchilarning bilish qobiliyatini va tafakkurini tekshirish, og'zaki va yozma mashqlarni bajarish, topshiriqlarning bajarilishini nazorat qilish, uyga vazifa berish.

O'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslarida bevosita o'qituvchi rahbarligida o'rganilgan o'quv materiallaridan murakkab savollarni takrorlash va tizimlashtirish asosida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarning mavjud kamchiliklari to'ldiriladi va o'rganilayotgan yangi mavzuning muhim g'oyalari ochib beriladi. O'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslarini o'qituvchi o'rganilgan mavzuning, bo'lim yoki o'quv kurslarining yakunida o'tkazadi.

Ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darsi egallangan bilimlarni o'quvchilar tomonidan mustahkamlash hamda amaliyotda qo'llay olish bilan bog'liqdir. Ushbu ta'lim jarayoni bir nechta maxsus darslarda amalga oshiriladi. Yangi mavzularni o'rganishda davom ettiriladi. Bunda o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning nazariy bilimlar asosida egallagan malaka va ko'nikmalarini, hayotiy amaliyotlarida turli vaziyatlarda qo'llashni o'zlashtirib olishlarini nazorat qilishdan iborat.

Bilimlarni tekshirish (nazorat) darsida o'qituvchi o'quvchilarning fanlar yuzasidan o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini, o'quv materiallarining o'zlashtirishdagi kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarni bajarish yo'llarini belgilab olishiga yordam beradi.

Yuqorida ifodalangan dars turlarning samaradorligiga erishish o'qituvchining pedagogik mahoratiga, pedagogik-psixologik metodlarni ta'lim jarayonida qo'llay olish tajribasiga bog'liq. Darslarning majburiy elementi tashkiliy va yakuniy bosqich hisoblanadi. Tashkiliy bosqich maqsadlarni qo'yish va ularni o'quvchilar tomonidan qabul qilish sharoitlarini ta'minlash, bilimlarni idrok etish, anglash, eslab qolish yuzasidan beriladigan ko'rsatmalarni shakllantirish ko'zda tutiladi. Darsga yakun yasash bosqichida maqsadlarga erishish qayd etiladi. Shu bilan birga o'qituvchi

yangi, zamonaviy, odatdan tashqari ta'lim berishning dars–ma'ruza, dars–seminar, dars–munozara, dars–konferensiya, dars–sayohat, dars–musobaqa, mustaqil ish darslari kabi noan'anaviy ta'lim metodlaridan ham foydalanishi mumkin.

O'qituvchi o'z tajribalaridan va kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib ta'lim jarayonining quyidagi kombinatsiyalariga alohida e'tibor berishi lozim:

Integral fanlarning ilg'or yutuqlari, kompyuter, pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, darsni hozirgi zamon o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;

- darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash;
- o'quvchilarning qiziqishlari, iqtidori va talablarini e'tiborga olgan holda, ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- o'quvchilarda fanlarning o'zaro aloqadorligi asosida bilishga qiziqishni rivojlantirish;
- o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarga, shuningdek, ular ongi va tafakkurini rivojlantirish darajasiga tayanish;
- o'quvchining o'zi qiziqqan, orzu qilgan kasbi bo'yicha mahoratini har tomonlama shakllantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;
- o'quv-tarbiyaviy faoliyatning barcha bosqichlarida mantiqiylik va emotsionallikni ta'minlash;
- pedagogik texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan o'z o'rnida samarali foydalanishni bilish;
- zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyatning rasional usullarini shakllantirish;
- mavjud bilimlarni dunyoviy bilimlar bilan doimo boyitib borish va o'z ehtiyoji darajasida foydalanish;
- har bir darsni yuksak mahorat bilan puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxislash va taxmin qilish.

O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rar ekan, asosiy maqsadga erishish uchun ta'lim jarayonining quyidagi talablaridan foydalanib, o'z imkoniyatlariga erishishi lozim:

- ta'limiy;
- tarbiyaviy;
- rivojlantiruvchi.

Ta'limiy talablarga har bir darsning ta'limiy vazifalarini aniq belgilash, darsni turli axborot vositalari bilan boyitish, yangi o'rganilayotgan mavzuni ijtimoiy hayot bilan, turmush tarzi bilan bog'lab mazmunan boyitish va optimallashtirish, so'nggi pedagogik texnologiya yutuqlaridan oqilona foydalanish, turli ta'lim shakli, metodlari va ko'rinishlarini qo'llash, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, darsni yuksak pedagogik mahorat talablari asosida o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi.

Tarbiyaviy talablardan asosiy maqsad, ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan yangi

o‘quv materiali asosida egallangan bilimlardan tashqari uning tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, o‘quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda tirishqoqlik, tartiblilik, mas’uliyatni his etish, intizomlilik, erkin fikr yuritish, qobiliyatlilik, e’tiborlilik, halollikni shakllantirishdir.

Rivojlantiruvchi talablar ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘z imkoniyatlarini o‘quvchilarda o‘quv-bilish faoliyatining ijobiy sifatlariga nisbatan qiziqishini oshirishga, ijodiy tashabbuskorlik va faollikni rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mudroq qobiliyatlarini uyg‘otishga, ong va tafakkurlarini dars jarayonida shakllantirishga qaratadi.

Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, **ta’limning yordamchi shakllari** ham mavjud bo‘lib, ular asosan o‘qituvchining pedagogik tashabbuskorligi natijasida tashkil etiladi. Ta’limning yordamchi shakllari quyidagilar: turli to‘garaklar, praktikum, seminar, konferensiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg‘ulotlar, o‘quv sayohatlari, o‘quvchilarning mustaqil uy vazifalari.

11.3. TA’LIM JARAYONIDA O‘QITUVCHIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR VA IJODIY KAYFIYATNI BOSHQARISH

Ta’lim jarayoni o‘qituvchi ijodiy qobiliyatini namoyish etuvchi sahnadir. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan o‘qituvchilik mahorati hech qachon bir yo‘nalishda qotib qolmasligi kerak. O‘qituvchining ta’lim jarayonidagi mahorati jamiyatda fan olamida ro‘y berayotgan yangiliklar va hodisalar bilan doimo chambarchas bog‘langan holda shakllanib boradi. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar ta’lim sohasida o‘qituvchi oldiga yuksak vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy ta’lim o‘qituvchidan quyidagi vazifalarni e’tiborga olishni talab qiladi:

- o‘z mutaxassisligi bo‘yicha eng so‘nggi bilimlardan xabardor bo‘lib borish, ta’limni pedagogik texnologiyalar hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanib amaldagi o‘quv tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etishi;
- ta’limda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini e’tiborga olib o‘z mahoratini, bilimini va qobiliyatini namoyish etishi;
- o‘quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olgan xolda, ular tomonidan bilimlarni puxta o‘zlashtirilishiga sharoit yaratish;
- o‘quvchilar tomonidan o‘rganilayotgan o‘quv fanlarining o‘zaro aloqadorligini ta’minlash;
- ta’limni tarbiyaviy jarayon bilan o‘zaro aloqadorligi asosida shaxsni har tomonlama kamol topishini faollashtirish;
- o‘quv tarbiyaviy faoliyatning barcha bosqichlarida ta’limning emotsionalligini

ta'minlash;

- internet va axborot texnologiyalari asosida fanning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lib borish;
- ta'limda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari, fikrlash va faoliyat turlarini boyitish maqsadida ular ruhiyatini doimiy o'rganib borish;
- har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi erishishi lozim bo'lgan yutuqlar ko'p jihatdan uning ijodiy kayfiyatini boshqara olishi bilan bog'liq. Ijodiy kayfiyat o'qituvchi kasbida muhim ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlardan biridir. Ijodiy kayfiyat, o'qituvchi aql idrokini namoyon etuvchi pedagogik mahoratning muhim qirrasi hisoblanadi. **Ijodiy kayfiyat** – o'qituvchining ruhiy holatini bir maromda ushlab turuvchi, kasbiy jihatdan ijodkorligini ta'minlovchi, kasbiy xususiyatlarining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatuvchi, o'quvchilar jamoasiga tez kirishib ketishini ta'minlovchi vositadir.

O'qituvchi o'z ijodiy kayfiyatini vujudga keltirish uchun psixologik yo'nalishlarning xilma-xil usullarini bilishi kerak. Bu darsni fikran xayoldan o'tkazish va loyihalash, har bir o'quvchi qalbiga oson yo'l topa olish mahorati, muloqot madaniyati. O'qituvchi ijodiy kayfiyatini avvalo o'zi yaratadi, bu uning xarakter xususiyatidan, o'z kasbiga nisbatan munosabatidan paydo bo'ladi. Quyida tajribali ustoz o'qituvchilar sinovidan o'tgan, ijodiy kayfiyatni ta'lim jarayonida shakllantirishning ba'zi vositalarini havola etamiz:

- Yangi o'rganilayotgan o'quv mavzusidan o'z ijodiy kayfiyati uchun vositalar qidirish.
- Sinf o'quvchilari bilan bo'layotgan har bir muloqotdan ijodiy kayfiyat uchun motivlar topa olish.
- His tuyg'u va kechinmalarini yaxshilikka, ijodiy kayfiyatga yo'naltira olish.
- O'quvchilarning nojo'ya xatti-harakatlariga doimiy e'tibor bermaslik va qulay vaziyatda rasmiy, ta'sirchan tanbeh berish.
- Dars jarayonida aslo g'azablanmaslik, o'quvchilar kulgisini achchiq so'z bilan to'xtatmaslik, aksincha to'g'ri qabul qila olish.
- Dars jarayonida muloyimlik, mehr shafqatli bo'lish ulkan pedagogik yutuqlar kaliti ekanligini unutmaslik.
- Doimiy jiddiylik va asabiylashish, asab va yurak tizimini tez charchatishini unutmaslik.

Bolalar bilan bo'lajak muomala oldidan o'qituvchining ijodiy kayfiyatini hosil qilishida uning o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv materialiga o'z hissiy munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini oldindan topishga intilishi muhim rol o'ynaydi: bular tegishli imo-ishoralar, yuz harakatlari, gapirish ohangidir.

Muomalada ijodiy kayfiyatni vujudga keltirish va saqlashning muhim vazifasi o'qituvchining o'rganilayotgan yangi o'quv materialiga nisbatan o'z hissiy munosabatini ifodalashda topgan tashqi shakllarni mustahkamlashdir, u o'qituvchi tomonidan quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi: darsning borishini, tadbirni fikran yodga tushirish; ko'zgu oldida takrorlash; namuna sifatida san'at (adabiyot, kino, rang tasvir) asarlaridagi

vaziyatlardan foydalanish.

Ta'lim jarayonida ijodiy kayfiyatni boshqarish – o'qituvchi mehnatining eng muhim kasbiy jihatdan talabi bo'lib, u o'qituvchining sinfda, o'quvchilar bilan muomalada erkin bo'lishini, xulq-atvorining samarali bo'lishini ta'minlaydi. Pedagogik ijodkorlikning asosiy bosqichlariga nisbatan o'qituvchining ijodiy kayfiyatiga muomala ta'sirining quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. O'qituvchi sinf jamoasi bilan bo'ladigan dastlabki muomalani oldindan payqashi, uning ijodiy kayfiyatini saqlovchi omil ekanligi.
2. Sinf jamoasi bilan dastlabki aloqa bevosita muomala paytida sodir bo'lishi, o'qituvchi ijodiy kayfiyatini rag'batlantiruvchi omil sifatida.
3. O'qituvchining sinf jamoasi bilan muloqoti tizimi, pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchining ijodiy kayfiyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiradi.
4. O'quvchilar bilan muomaladan qanoat hosil qilish, keyingi pedagogik faoliyatda o'qituvchining ijodiy kayfiyatini rag'batlantiruvchi omil ekanligi.

Pedagogik ijodkorlik va muomala jarayonida vujudga keladigan har qanday zo'riqishni, shuningdek boshqa noxush holatlarni yengish uchun o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalash yuzasidan doimiy faoliyat olib borishi zarur. O'z-o'ziga ta'sir qilishning bir qator usullari mavjud bo'lib, ulardan eng muhimlari quyidagilardir: O'z-o'zini ishontirish, o'z-o'ziga buyruq berish, o'z-o'zini majbur qilish, o'z-o'ziga majburiyat yuklash, o'z-o'zini rag'batlantirish, o'z-o'zini jazolash, o'z-o'zini mashq qildirish, o'z-o'ziga ta'sir qilish. O'qituvchining o'z-o'ziga ta'sir qilishi (refleksiya) va uning samarali jihatlari alohida mavzu asosida o'rganiladi.

11.4. O'QITUVCHINING TA'LIM JARAYONIDA KASBIY OMILKORLIGI

Mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini yuqori saviyadagi umumiy va kasbiy madaniyatga ega, metodologiya va pedagogika sohasida fundamental bilimlarni chuqur biladigan, ta'lim jarayonida pedagogik muammolarni tizimli ravishda olib boruvchi mahoratli va omilkor o'qituvchilarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu jihatdan pedagogika oliy ta'lim muassasalarida asosiy e'tibor bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy pedagogik faoliyatning o'ziga xos usullarini shakllantirishga va takomillashtirishga qaratilgan.

O'qituvchilik kasbining mohir ustasi bo'lish, avvalo shaxsning o'z individual xususiyatlaridan yuqori saviyada foydalanish va individual ishlay olish qobiliyatining

qanday shakllanganligi bilan bog'liq. Bu usul oliy o'quv yurtida o'quv va amaliy mashg'ulotlar jarayonida shakllantiriladi va kelajakda ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi individual, o'ziga xos usullar tizimidan iborat bo'ladi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashda bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy mahorat va omilkorlikni shakllantirish g'oyasi yetakchi o'rinda bo'lishi kerak. Yuksak malakali o'qituvchining kasbiy mahoratini shakllantirish yo'llari har xil bo'lishi mumkin. Bo'lajak o'qituvchi o'z kasbiy mahoratining shakllantirilganligini bildiruvchi kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar yig'indisiga, pedagogik muomala madaniyatiga ega bo'lishlik kasbiy – pedagogik omilkorlikning asosiy poydevori hisoblanib, o'qituvchining kasbiga nisbatan shaxsiy tavsifnomasi hisoblanadi.

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati o'qituvchi kadrlarning kasb mahorati va savodxonligiga bevosita bog'liq. Shu o'rinda barcha rivojlangan jamiyatda bo'lgani kabi, o'qituvchining kasbiy mahorati ta'lim muassasasida – ta'lim jarayonida va ish faoliyatida shakllanishini ta'kidlab o'tish lozim. Shu nuqtayi nazardan pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchi talabalar o'z mahoratlarini ikki tomonlama – amaliyotda hamda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayonida shakllantiradilar. Bo'lajak o'qituvchilar ko'proq amaliy jihatdan o'z malakalarini oshirishni xohlaydilar. Chunki ish faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan muammolar ko'p. Ularning echimini oliy ta'lim muassasasi partasida, etakchi olimlar hamkorligida topishni orzu qilishadi.

Bo'lajak o'qituvchilarga avvalo, kasb mahorati va uni qanday qilib shakllantirish mumkinligi to'g'risida ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, barcha sohalarda bo'lganidek, kasb mahorati ham o'qituvchida yillar davomida shakllanib takomillashadi. Shu narsa alohida e'tiborga loyiqki, o'qituvchining kasbiy mahorati, amaliy va uslubiy tajribaga ega bo'lishi uchun asosiy zamin ish faoliyati jarayonida shakllanadi. Chunki kasb mahorati o'ta murakkab va milliy xususiyatga ega bo'lgan jarayon bo'lgani bois, uni egallash, yuqorida ta'kidlanganidek, o'qituvchining uzoq yillar samarali izlanishlari, ijodkorlik mehnati evaziga ro'yobga chiqadi. Ammo pedagogik mahorat sirlarining ilmiy va amaliy negizi o'z vaqtida berilmas ekan, uni oliy ta'lim muassasasidan keyingi kasbiy faoliyati jarayonida kashf etish har doim ham samara bermaydi.

Har tomonlama kamol topgan, jamiyatda ilg'or turmush tarziga moslashgan, ta'lim va kasb - hunar dasturlarini hamda pedagogik va axborot texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan doimo xabardor, ongli ravishda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, pedagogik-psixologik jihatdan bilimlarga ega bo'lgan, davlat va oila oldida javobgarlikni his etadigan fuqarolarni tarbiyalovchi o'qituvchida yuksak nazariy va metodologik tayyorgarlik bo'lishi lozim. Hozirgi zamon talablariga mos, axborot texnologiyalari hamda fan va texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zlashtirgan, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni ta'lim tizimiga tatbiq eta oladigan o'qituvchidan yangicha kasb mahorati talab qilinadi.

O'qituvchi o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun, avvalo o'zining individual kasbiy xususiyatlaridan yuqori saviyada foydalanishi va individual ishlay olish qobiliyatini

mukammal shakllantirib borishi lozim. Bu usul oliy ta'lim muassasasi faoliyatida o'quv va amaliy mashg'ulotlar jarayonida shakllantiriladi va kelajakda muvaffaqiyatni ta'minlovchi individual, o'ziga xos usullar tizimidan iborat bo'ladi.

Pedagogik mahorat sirlarining ilmiy va amaliy negizi o'z vaqtida berilmas ekan, uni oliy ta'lim muassasasidan keyingi kasbiy faoliyati jarayonida kashf etish har doim ham o'z samarasini bermaydi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy mahorat va omilkorlikni shakllantirish g'oyasi etakchi o'rinda bo'lishi kerak. Yuqori malakali kasbiy mahoratni shakllantirish yo'llari har xil bo'lishi mumkin. Bo'lajak o'qituvchi o'z kasbiy mahoratining shakllantirilganligini bildiruvchi kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar yig'indisiga, pedagogik muomala madaniyatiga ega bo'lishi kasbiy – pedagogik omilkorlikning asosiy poydevori hisoblanib, o'qituvchining kasbiy mahoratini namoyon qiluvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida yuksak mahoratli omilkor o'qituvchini shakllantirish uchta yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

- o'z mutaxassisligi bo'yicha bazaviy puxta tayyorgarlik (kasbiy va pedagogik-psixologik bilimlar);
- metodologik bilimlarni egallash madaniyati;
- pedagogik ijodkorlik va kreativlik.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kasbiy ta'lim tizimi bo'lajak mutaxassisni shakllantiradi va uni murakkab kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Hozirgi kunda zamonaviy mutaxassis lozim bo'lgan kasbiy sifatlarning murakkab to'plamini an'anaviy ta'lim jarayonida qisqa fursatda egallashi lozim. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida barcha ijobiy xususiyatlar amaldagi ta'lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etib borgan holda ular yangi zamonaviy bilimlar bilan to'ldirilib borilsa, unga rasional yondashuvlar joriy etilgan integral bilimlar tizimi bir-birini to'ldirib qo'llanilganda shakllantirilishi mumkin.

Ushbu jadvalda o'qituvchining ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan pedagogik mahoratini belgilab beruvchi yuqorida keltirilgan uchta yo'nalishdan har birining (bazaviy, metodologik, ijodiy) tashkil etuvchi muhim jihatlari ko'rsatilgan:

PEDAGOGIK MAHORAT OMILKORLIGINI TA'MINLOVCHI XUSUSIYATLAR

BAZAVIY OMILKORLIK

Kasbiy – pedagogik tayyorgarlik:
- asosiy fanlar;
- o'qitish metodikasi;
- falsafiy bilimlar;
- pedagogik bilimlar;
- psixologik bilimlar;
- pedagogik axloq va hokazo.

METODOLOGIK OMILKORLIKLAR

- Falsafiy, umumilmiy va aniq fanlar darajasiga mos keluvchi metodologik bilimlarni, ta'lim muammolarini, integral, faoliyatga taalluqli bilimlarni mustaqil yondashuv asosida o'zlashtira olish qobiliyati va hokazo.

IJODIY PEDAGOGIK MAHORAT VA OMILKORLIK

- kasbiy qadriyatlarga yo'naltirilganlik;
- motivatsion ijodkorlikka yo'naltirilganlik;
- ta'limda innovatsiyaning asosiy muammolarini tushunish;
- pedagogik vazifalarni hal qilishga tizimli yondashishga qaratilganlik;
- dasturiy-maqsadli rejalashtirish qobiliyati;
- ilmiy - tadqiqot madaniyati;
- texnologik madaniyat;
- grafika madaniyati;
- kasb ahloqi;
- ta'lim muammolarini mustaqil anglash qobiliyati;
- kommunikativlik;
- dilkashlik.
- kasbiy moslashuvchanlik, kutilmagan holatlarga tayyor turish, kirishuvchanlik metod va metodikalari, salbiy holatlarni keltirib chiqaruvchi turli aqidaparastlikni yengib chiqishga qodirlik qobiliyati;
- ergonomik fikrlash;
- kasbiy faoliyatning individual uslubi;
- o'zining kasbiy sifatlariga baho bera olish, o'z faoliyatini va uning natijalarini refleksiv baholash qobiliyati, tanqid va o'z-o'zini tanqid qilish;
- o'z-o'zini rivojlantirish va mustaqil ta'lim olish qobiliyati va hokazo.

31-chizma. Pedagogik mahoratning omilkorligini ta'minlovchi xususiyatlar

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbga ijodiy yo'naltirilganligining muhim jihatlaridan biri uning *pedagogik madaniyati bo'lib*, u pedagogik-psixologik fanlar tizimining turli yo'nalishlarida *tatbiq qilingan. Chunonchi:* metodologik jihatdan V.A.Slastenin, V.V.Kraevskiy, axloqiy - *estetik jihatdan* E.A.Grishin, D.S.Yakovleva, kommunikativlik jihatlarini A.V.Mudrik,

O.O.Kiseleva, T.N.Levasheva, texnologik jihatlarini M.M.Levina, N.E.Shurkova kabi olimlar ishlab chiqqanlar.

Ayniqsa, o'qituvchining texnologik madaniyati uning texnologik faoliyati jarayonida kasbiy mahoratning muhim jihati sifatida individual pedagogik faoliyatini ochib beruvchi muhim ijodiy ko'nikmasidir. O'qituvchining texnologik tayyorgarligi "pedagogik omilkorlik" kategoriyasini tushunishning muhim qismi hisoblanadi va u pedagogik voqelikni idrok etish va saqlash vazifalarini bajaruvchi pedagogik madaniyatning mohiyatini aks ettiradi. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlarning asosi sifatida qaralayotgan o'qituvchining texnologik madaniyati o'quvchilarning ichki imkoniyatlarini ijodiy tomonga yo'naltiruvchi jarayondan iborat.

O'qituvchining texnologik madaniyati uning texnologik faoliyati jarayonida kasbiy mahoratining muhim jihati sifatida individual pedagogik faoliyatini ochib beruvchi ijodiy usullaridan iborat. O'qituvchining ta'lim jarayoniga tayyorgarligi "pedagogik omilkorlik" kategoriyasini tushunishning muhim qismi hisoblanadi va u pedagogik voqelikni idrok etish va saqlash vazifalarini bajaruvchi pedagogik madaniyatning mohiyatini aks ettiradi. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlarning asosi sifatida qaralayotgan o'qituvchining texnologik madaniyati talabalarning ichki imkoniyatlarini ijodiy tomonga yo'naltiruvchi jarayondan iboratdir.

Har bir bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassis-o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatining ixtisosligi va xususiyatidan qat'iy nazar fundamental bilimlarga, kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Ana shu bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashda, bo'lajak mutaxassisga o'z kasbiga oid u yoki bu savol yoki muammo bo'yicha o'z nuqtayi nazarini aniqlab olish imkoniyatini beruvchi ijodkorlik, tadqiqotchilik va mustaqil faoliyat tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy pedagogik bilimlar ta'lim jarayonining samaradorligiga zamonaviy ta'lim muhiti talablari bilan talabaning o'zgarib turuvchi o'quv dasturlari sharoitida etarlicha yo'nalish ola bilmasligi natijasida salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Oliy pedagogika ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchining yuksak tayyorgarlik darajasiga va ma'naviy axloqiy saviyasiga qo'yiladigan talablar ham yangilanib boradi. Ijodkor o'qituvchi esa o'z sohasi bo'yicha yangi pedagogik texnologiya metodikalarini ajrata olmog'i hamda uni amalda samarali qo'llay bilishi lozim.

11.5. O'QITUVCHINING TA'LIM JARAYONIDAGI FAOLIYATI VA DARSGA TAYYORGARLIGI

Har qanday ta'lim muassasasida tashkil etiluvchi ta'lim jarayonida o'quvchining faoliyati o'qituvchining bevosita rahbarligi ostida kechadi. O'qituvchining vazifasi pedagogik mahorat imkoniyatlaridan foydalanib, o'quvchilarni fan asoslarini chuqur egallashga yo'naltirish, bilim olishga va kasbiy mahorat sirlarini bilishga nisbatan qiziqish

uyg'otish, ijtimoiy borliqqa nisbatan erkin va ongli munosabatni tarbiyalashdan iboratdir.

O'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat bo'lib, o'qituvchi o'zining ijodkorligi, pedagogik mahorati nuqtayi nazaridan ushbu jarayonni tashkillashtiradi:

1. Rejalashtirish.
2. Tashkil etish.
3. O'quv harakatlari.
4. Natijalarni baholash va tahlil qilish.

O'qituvchi faoliyatida rejalashtirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslarning rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, ijodiy faoliyat lozim bo'ladi. O'qituvchi mustaqil ravishda o'quvchilarning tayyorgarliklari darajasini, ularning o'quv imkoniyatlarini, moddiy baza holatini, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, o'quv materiali mazmunini tanlab olishi, dars olib borish shakli va metodini ishlab chiqishi kerak.

O'quvchilarga dars o'tish faoliyatini tashkil etish uchun o'qituvchi o'quvchilar oldiga o'rganilgan mavzu asosida o'quv masalalarini qo'yishi va uni bajarishi uchun imkoniyatlar yaratishi lozim. Bunda o'quvchilarning faoliyati bilim olishdan iborat bo'ladi. Bilim olish faoliyatining o'ziga xos xususiyati faoliyat qonuniyatlariga egaligidir. Bilim olish borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajribalar asosida xulq-atvor hamda ko'nikma va malakalarning mustahkamlanib borishi, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borishi jarayoni. Bilim olishning ushbu komponenti ta'limiy xarakterga ega bo'lgan faoliyat natijasida rag'batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishidir.

Bilim olishning yana bir komponenti o'quv harakatlari sanalab, ular belgilangan maqsadga binoan amalga oshiriladi. O'quv harakatlari o'quv jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi. Harakatlar tashqi (kuzatiladigan) va ichki (kuzatilmaydigan) ko'rinishda bo'ladi.

Tashqi o'quv harakatlariga predmetli harakatlar (yozish, rasm chizish, tajribalar o'tkazish); perseptiv harakatlar (tinglash, fikrlash, kuzatish, sezish) hamda nutqdan foydalanish kiradi.

Ichki, ya'ni mnemonik (yunonchadan "mnemonikon" — eslab qolish madaniyati) harakatlarga materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, shuningdek, tasavvur va fikrlash harakatlari kiradi.

Natijalarni baholash va tahlil etish o'quv harakatlarining ajralmas qismlari hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchi tomonidan o'zini nazorat qilish, o'zini baholash va o'zini tahlil qilishni amalga oshirish o'qituvchining o'rgatuvchi harakatlari asosida shakllanadi. Bu harakatlarni shakllantirish o'quvchilarni o'z tengdoshlari faoliyatini kuzatishga jalb etish, o'zaro nazoratni tashkil etish, o'rnatilgan mezonlar asosida o'z faoliyati natijalarini o'zaro baholash va tahlil qilishga yordam beradi.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi. Darsning samaradorligi uni samarali

tashkil etilishi bilan bog'liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, yetarlicha o'ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o'quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo'la olmaydi. **Darsga tayyorgarlik** aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta'minlovchi o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etuvchi tadbirlarni ishlab chiqishdir.

O'qituvchining ma'lum bir fan asosida darsga tayyorgarlik ko'rishida quyidagi uchta bosqich muhim ahamiyatga ega: **tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalashtirish).**

- **Tashxislashda** o'qituvchi didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtiradi, uning natijalarini belgilaydi. O'qituvchining tashxislashida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi.
- **Bashoratlash** o'qituvchi tomonidan bo'lajak darsni samarali tashkil etilishining turli variantlarini tanlab olib baholash va qabul qilingan mezonlarga muvofiq darsni tashkil etishning eng ma'qul variantini tanlab olish va qo'llashdir.
- **Loyihalashtirish** (rejalashtirish) o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, o'qituvchi o'zi uchun boshqarish jarayoni (kimdan va qachon so'rash, qayerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqichiga qanday o'tish)ni belgilab olishga imkoniyat beruvchi faoliyatdir.

? MAVZUNI O'ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Hozirgi zamon o'qituvchisining pedagogik fazilati qanday bo'lishi kerak?
2. Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan talablar mazmuni nimalardan iborat?
3. Yosh o'qituvchining darsda pedagogik–psixologik jihatdan tayyorgarligi nimalarda namoyon bo'ladi?
4. O'qituvchi individual nutq madaniyatiga ega bo'lishi uchun nimalarga e'tibor berishi kerak?
5. Pedagogik – psixologik muloqot jarayonining asosiy mohiyati nimalardan iborat?
6. Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida o'tiladigan dars turlari haqida fikringiz?
7. O'qituvchi zamonaviy darslarning qanday kombinatsiyalarini bilishi lozim?
8. Dars jarayonida asosiy maqsadga erishish uchun qanday talablar qo'yiladi?
9. Zamonaviy ta'limda o'qituvchilarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
10. Ijodiy kayfiyat nima va u ta'lim – tarbiya jarayonida qanday shakllantiriladi?
11. O'qituvchining o'z – o'ziga ta'sir qilish usullariga ta'rif bering?
12. O'qituvchining kasbiy omilkorligini shakllantirish istiqbollarini sanang

Talabalarning mustaqil tayyorgarliklari uchun topshiriqlar

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va fikr – mulohazalaringizni bildirib, "Mustaqil ish" yozing:

1. "O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarni tayyorlash siyosati".
2. "Hozirgi kunda o'qituvchining ta'lim jarayoniga tayyorgarligi".
3. "Kasbiy omilkorlikning pedagogik faoliyatga xos xususiyatlari".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4312785.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent shahri, 2024-yil 1-fevral № O'RQ – 901.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4623-son Qarori – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2020, 27-28-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni. https://lex.uz/docs/6008663.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent. – O'zbekiston.– 2017.– 488 b.
7. Педагогика. (Под ред. П.И. Пидкацистого).- М.: Педагогическое общество России, 2003.- 608 с.
8. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjaeva va boshqalar) – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. – 380 b.
9. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T.: "Fan", 2009. – 168 b.
10. O'qituvchi ish faoliyatini baholash va uni rag'batlantirish mezoni (Metodik tavsiyanoma). – T.: 1993. – 34 b.
11. G'aybullayev N.R., va boshqalar. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. – T.: O'zMU, 2005. – 176 b.
12. G'oziyev E. Psixologiya. – T.: O'qituvchi, 1994. – 224 b.
13. G'oziyev E. O'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish. T.: – "O'qituvchi", 1984. – 104 b.

12-BOB.

O‘QITUVCHINING TARBIYACHI SIFATIDAGI MAHORATI

Tayanch tushunchalar:

Yuksak malakali kadrlar; ong mahsuli; tarbiya jarayoni; tarbiyaning maqsadi; komil inson tarbiyasi; o'qituvchining tarbiyachilik mahorati; tarkibiy qismlar; shaxsning umummadaniyat unsurlari; texnologik tizim; ijtimoiy psixologik tizim; o'z-o'zini tarbiyalash; ixtiyoriylik; o'z-o'zini anglash; inson kamoloti; tarbiyalash metodlari; ko'p qirrali jarayon; obyektiv omillar; subyektiv omillar; tarbiyaning uzluksizligi; tarbiyaviy ish rejasi; tarbiyaviy tadbirlar; tarbiyalanganlik natijalari; tarbiyaviy texnologiya; komil inson tarbiyasi; barkamol avlod tarbiyasi; tarbiyaning yaxlitligi; tarbiyaning davriyligi; didaktika; umuminsoniylik me'yorlari; tarbiyaning texnologiyaviyligi; dolzarb rivojlanish hududi; modellashtirish; tarbiyaviy reja; biologik omillar; norasmiy yetakchi; tarbiyaviy jarayonni modellashtirish; tarbiya mazmuni; g'oyaviy - siyosiy tarbiya; tarbiya qonuniyatlari; tarbiyaning uzluksizligi; tarbiyada to'g'ri va teskari aloqa; o'z-o'zini anglash; iroda erkinligi; pedagogik talab; o'rgatish; tarbiyalanadigan holatlar.

12.1. HOZIRGI KUNDA BARKAMOL INSONNI TARBIYALASH MUAMMOLARI

Barkamol avlod tarbiyasi mamlakatimizda, avvalo, o'qituvchilar zimmasiga yuklatilgan eng olijanob vazifadir. So'nggi yillarda Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablarini strategik boshqarishda sog'lom ta'lim muhitini yaratish; rahbar-xodimlarning salohiyati va kasbiy yetukligini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash malakalarini tarkib toptirish; o'z-o'zini nazorat qilish va baholash tizimini yo'lga qo'yish orqali monitoring va baholash strategiyasining imkoniyatlarini kengaytirish; umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim xizmatlari sohasining keng yo'lga qo'yib borilishi; har bir ta'lim muassasasi rivojlanish holatini baholash, shuningdek, istiqbolli rivojlanishning muqobil variantlarini ishlab chiqish; innovatsion boshqaruv jarayonida muassasaning istiqbol maqsadi va imkoniyatini pedagog xodimlarning manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi uzoq muddatli strategik rejalar asosida strategik boshqaruvni takomillashtirish kabi ta'limning ustuvor sohalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim va tarbiyada "...inson kapitalini rivojlantirish, maktab o'qituvchilarini belgilangan xalqaro standartlar asosida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash"[1] ustuvor vazifalar etib belgilandi.

Komil inson, o'qituvchining ta'lim va tarbiyadagi mashaqqatli mehnati namunasidir. Sharq allomalari ilmiy meroslarida ham komil inson tarbiyasi doimo munozarali mavzu bo'lib kelgan. Jumladan, mashhur alloma Aziziddin Nasafiy o'zining "Komil inson" nomli kitobida shunday yozadi: "Bilgilki, komil inson quyidagi to'rt fazilatga mukammal shaklda ega bo'lgan insondir. Ularning birinchisi yaxshi so'z, ikkinchisi ezgu faoliyat, uchinchisi go'zal axloq, to'rtinchisi ilm". Ushbu mukammal shakllarga ega bo'lgan inson buyuk davlatimiz poydevorini, farovon hayot asoslarini qura oladi. Komil insonni tarbiyalash va voyaga yetkazish jarayoni – pedagogik faoliyatning uzluksiz jarayoni bo'lib, pedagogik texnologiyaning so'nggi namunalari doirasida amalga oshiriladigan hamda tarbiyalanuvchilarning ijobiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadlariga qaratilgan tashkiliy faoliyatdan iborat.

Bu faoliyatda o'qituvchi tarbiyaviy jarayonning quyidagi asosiy xususiyatlarini bilishi kerak:

- tarbiyaning yaxlitligi;
- tarbiyaning tizimliligi;
- tarbiyaning davriyligi;
- tarbiyaning texnologiyaviyligi.

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni // https://lex.uz/uz/docs/5841063.

Tarbiyaning yaxlitligi deganda tarbiyalash va o'qitish jarayonlarining, shuningdek, o'quvchilarni jamiyat talablari asosida kamolotga yetkazish va shakllantirishga qaratilgan maqsadning ajralmas birligi tushuniladi. Tarbiyalash va o'qitish, garchi ilm-fan ularni farqlasada, bir-biriga bog'liq va ko'p umumiylikka ega. Shu ma'noda uzoq tarixga ega millatimiz "ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratmagan – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi" (I.A.Karimov). O'qitishning mazmunini asosan dunyo haqidagi ilmiy bilimlar tashkil etadi. Tarbiyaning mazmunida me'yorlar, qoidalar, qadriyatlar, ma'naviy boyliklar ustunlik qiladi. O'qitish asosan aql-idrokka ta'sir ko'rsatadi, tarbiyalash esa, birinchi navbatda shaxsning doimiy iste'mol sohasiga aylangan. Ikkala jarayon shaxsning ongi va xulq-atvoriga birday ta'sir ko'rsatadi va ijtimoiy rivojlanishiga zamin yaratadi. Qanchalik yaqin bo'lishiga qaramay, bu o'ziga xos jarayonlar bo'lib, ilm-fan ularni tarbiya nazariyasida va didaktika (ta'lim jarayoni)da alohida ko'rib chiqadi. Bunda o'qituvchi tomonidan zamonaviy shart-sharoitlarga asoslangan holda uslubiy tamoyil va, ayniqsa, dolzarb hisoblangan butun pedagogik jarayonning yaxlitligi ta'minlanadi.

Tarbiyaning tizimliligi tarbiyaviy jarayonda umumiylikni tashkil etadi, chunki tarbiyaviy jarayonlar bir nechta tizimlarning turli xususiyatlaridan iborat. Aytish mumkinki, tarbiyaviy jarayonlar – bu tarbiyaviy tizim holatlarining ketma-ket almashinuvidir. Tarbiyaviy jarayonni tizimli ravishda ko'rib chiqish, tizim va jarayonning tuzilmaviy xususiyatlarini, shuningdek, ular o'rtasidagi funksional aloqalarning ajratib ko'rsatilishini ifodalaydi. O'qituvchi uchun har bir tarbiyaviy uslubning o'ziga xos xususiyatini, mohiyatini, birining boshqasiga ta'siri natijasida o'zgarishini anglab yetishi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, tarbiyalash maqsadi uning mazmunini belgilab beradi, tarbiya ko'rganlik darajasi esa tarbiyalash usullarini tanlashga ta'sir ko'rsatadi va hokazo.

Pedagogik jarayonda **tarbiyaning davriylik** tuzilishi – bu tarbiya texnologiyalarining asosiy xususiyatlariga muvofiq bo'lgan, uning tarkibiy qismlari yig'indisidir. O'qituvchi buning natijasida tarbiyaning davriylik tuzilmasini belgilab olishi mumkin:

1. Maqsadni belgilash – tarbiyalashdan kelib chiqadigan maqsadlarni ma'lum bir muddatli jarayonlarga bo'lib chiqishi.
2. Mazmunni tanlash – tarbiyalash mazmunini jamiyat talablari darajasida mustaqil ishlab chiqishi.
3. Demokratik faoliyatli – tarbiyaviy jarayon ishtirokchilarini tarbiyalashda va o'zaro munosabatda erkin fikrlilik va umuminsoniylik me'yorlariga rioya qilish qonuniyatlari.
4. Baholash – tarbiyalash jarayonida erishilgan natijalar samaradorligining o'qituvchi tomonidan baholanib borishi va doimiy tahlil qilinishi.

Pedagogik faoliyat ham o'qituvchi tomonidan tarbiyaviy jarayonning tuzilmasiga muvofiq quriladi: faoliyatning maqsadlari, mazmuni, usullari va turlari ishlab chiqiladi va natijalari tahlil qilinadi. Tarbiyalash maqsadlarini aniqlash pedagogik aniqlashni (diagnostika) — tarbiyaviy jarayon holati, birinchi navbatda o'quvchilarning tarbiya ko'rganliklarini, shuningdek, jarayonning boshqa shartlarini o'rganishni talab etadi.

Tarbiyaviy jarayon bosqichlarining o'zaro munosabatida tarbiyaviy jarayonlarning

ketma-ketligi uning davriyligini va qaytarilib turishini belgilaydi. Shaxs rivojlanishida tarbiyaviy maqsadlar o'qituvchi tomonidan uning yoshiga qarab belgilanadi va rejalashtiriladi. Tarbiyaviy jarayonning davriyligi shaxsning yosh xususiyatlarini hisobga oladi. Bunda asosiy e'tibor quyidagi faoliyatga qaratilishi kerak:

- shaxsning muayyan bir yoshiga xos bo'lgan anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarning chuqur o'rganilishi;
- davriylik tizimi asosida tarbiyaviy ish faoliyatining tashkil etilishi;
- muayyan bir yoshga xos bo'lgan tarbiyalanganlikning doimo aniqlanib (diagnostika), loyihalashtirilib borilishi;
- ijobiy natijalar beradigan tarbiyaviy o'zaro ta'sirning o'qituvchi tomonidan turli shakl va metodlari darajalarining belgilanib (diagnostika) amalga oshirilishi.

Tarbiyaning texnologik jarayon bilan bog'liqligi ta'lim muassasalarida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish va unga erishishga sharoit yaratadi, nazariy asoslangan uzluksiz davom etadigan tarbiyalash jarayonining shakllari, metodlari, usullari va vositalarini o'qituvchi to'g'ri tanlab natijalarga erishishini ta'minlaydi. U ilmiy modellashtirish (loyihalashtirish) asosida amalga oshiriladi, modellashtirishda tarbiyaviy maqsadlar bir xil ma'noda beriladi hamda o'qituvchi tomonidan insonning shaxsiy xususiyatlari va sifatlarini rivojlantirishning muayyan bosqichlarini obyektiv ravishda o'lchash va baholash imkoniyatlarini yaratadi.

Tarbiyaning texnologiyaviyligi har qanday pedagogik tizimda – ilmiy muammolar bilan o'zaro munosabatda bo'lgan tushunchadir. Biroq, agar ilmiy muammo tarbiyalanuvchiga bilim berish, ilmiy tafakkurini oshirish hamda ko'nikma va malakalarini shakllantirish kabi maqsadlarni ifodalaydigan bo'lsa, u holda tarbiya texnologiyasi o'qituvchiga o'quvchilarni tarbiyalash yo'l-yo'riqlari va ularga erishish vositalarini to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi.

Tarbiyaning texnologiyaviyligi tarbiyalashga yo'naltirilgan ilmiy muammo sifatida o'quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun lozim bo'lgan va komil insonga xos barcha insoniy fazilatlarni muayyan shart-sharoitlarda uzluksiz tarbiyalash asosida takomillashtirishni nazarda tutadi, bu esa ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini ham belgilaydi.

Shu munosabat bilan tarbiyaviy jarayonni harakatga keltiruvchi kuch, turtki asosan nimada ekanligi to'g'risida savol paydo bo'ladi. Pedagogikada inson tarbiyasiga qo'yiladigan, uning hayotida yuzaga keladigan talablar va uning huquqiy imkoniyatlari, ijtimoiylashuvi, shaxsiy rivojlanish darajasi o'rtasidagi ziddiyatlar bunda asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Ushbu talablar uning yosh xususiyatlariga muvofiq kelgandagina, insonni tarbiyalash va uni shaxs sifatida rivojlantirish jarayonining boshlanishiga turtki bo'ladi. L.S.Vigotskiy bolaning biror harakatni kattalarning yordamisiz bajara olishi mumkin bo'lgan holatini dolzarb rivojlanish hududi deb atagan. Bola o'qish jarayonida biror yangi narsani o'qituvchining yordami bilan salohiyatli tarzda o'zlashtirishga qodir bo'lgan daraja yaqin rivojlanish hududi bilan belgilangan. Hududlar orasidagi masofa ziddiyatli tarbiyaviy holatni vujudga keltiradi — tarbiyaviy jarayonning bunday holati

shaxsni shakllantirishda vujudga keladigan va erishiladigan yutuqlar o'rtasidagi tafovut mavjud bo'lganda yuzaga keladi. Bunday qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun o'qituvchi-tarbiyachi belgilangan tarbiyaviy maqsadlarni o'z maromida uzluksiz, mukammal amalga oshirishi lozim. Shundagina tarbiyaviy nuqsonlarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga shart-sharoit yaratiladi.

O'qituvchining tarbiyaviy maqsadlarni to'g'ri tanlashi volyuntaristik (ko'ngilchanlik) xarakterga ega bo'lmasligi lozim. U pedagogikaning uslubiyoti, jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar, ushbu jarayon yuzasidan qabul qilingan maxsus qonun va qoidalar asosida belgilanadigan maqsadlar va milliy qadriyatlar to'g'risidagi falsafiy tasavvurlar, shuningdek, jamiyat va davlat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Tarbiya texnologiyasida o'qituvchi tomonidan belgilanadigan maqsadlar turli darajada bo'lishi va bosqichma-bosqich bir biriga bo'ysunishi, ketma-ket bajarilishi mumkin. Biroq tarbiyaviy maqsadning asosiy mohiyati – davlat maqsadlari, ijtimoiy buyurtmalardan kelib chiqishi lozim. Aytish mumkinki, asosiy daraja – mamlakatda inson va uning fuqarolari qadr-qimmati to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarni aks ettiradigan maqsadlardir. Ular mutaxassislar tomonidan ishlab chiqiladi, hukumat tomonidan qabul qilinadi, qonunlar va boshqa hujjatlarda qayd etiladi. Keyingi daraja – ta'lim dasturlari va standartlarida aks etadigan maqsadlar, ya'ni davlat ta'lim standartlari, maxsus ta'lim tizimlarining va ta'lim bosqichlarining maqsadlari. Eng quyi daraja – muayyan yoshdagi kishilarni tarbiyalashda maqsadning birligi.

Shaxsni shakllantirish, boshqarish, tarbiyaviy faoliyat natijasida yuksak ma'naviy va axloqiy hislatlarga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tasodifiy harakatlar orqali emas, balki, oldindan belgilangan va puxta o'ylab tuzilgan tarbiyaviy maqsadlar asosida olib boriladi. Tarbiyaviy texnologiyada uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'z o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, o'qituvchining tarbiyalash maqsadlarini to'g'ri belgilashi va yo'lga qo'ya olishiga nisbatan g'oyaviy yondashuv ijtimoiy buyurtma asosida belgilanib, amalga oshirilishida mavjud shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi.

12.2. TARBIYACHILIK MAHORATINING MAZMUNI VA FAOLIYAT JARAYONI

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma'lum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir. O'z davrida

jamiyat taraqqiyotida tarbiyaning o'rnini izohlab, mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarini bayon etgan edi: "Ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi". Yoshlarni o'qitish va tarbiyalash, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yuksak malakali kadrlarni tayyorlashda, ayniqsa, o'qituvchining tarbiyachi sifatidagi o'rni beqiyosdir. Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tarbiyachi-o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog'liq.

Ma'lumki, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy jarayon bevosita o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish va kasbga yo'naltirish o'qituvchilar zimmasiga yuklatilgan.

Ko'pchilik yosh o'qituvchilarda, ta'lim berish mahoratiga qaraganda tarbiyachilik mahoratini egallash jarayoni qiyin kechadi. Albatta, buning obyektiv sabablari bor: tarbiya tushunchasi, insonning aqliy imkoniyatlarini rivojlantirish, axloqan pok, estetik didli, mehnatsevar qilib tarbiyalash omili bo'lib, ta'lim berish ko'nikmalarini egallashga qaraganda keng ma'nodagi tushuncha bo'lganligi uchun doimo ziddiyatlarga va tasodifiy hodisalarga boy. Tarbiya – o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo'lib, tarbiyalanuvchini ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo'naltirilgan qizg'in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, o'zida ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan, kishilar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo'ladi.

Tarbiya jarayonida jamiyatning shaxsga nisbatan axloqiy talablariga muvofiq keluvchi xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga o'qituvchi tomonidan pedagogik mahorat qonuniyatlari asosida ta'sir etib boriladi. Agar ularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiyaning mohiyati va mazmuni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy maqsadlarini ifodalaydi, jamiyatning fuqarolar oldiga qo'yadigan talablaridan kelib chiqib asoslanadi. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liqligi qadimdan o'z isbotini topgan.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi,

ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Zero, "Sog'lom avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asoslarini qurish deganidir".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvarda "Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi"da so'zlagan nutqida quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak".

Tarbiya xususida taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo falokat, yo saodat, yo razolat masalasidur"[1] – deb aytgan fikrlari barcha millat vakillarining tarbiyasiga mos keluvchi haqiqatdir. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy va davlat ishidir.

O'zining kasbiy mahoratini endigina boshlagan yosh o'qituvchilarda **tarbiyachilik mahoratining ko'nikma va malakalarini** egallash qiyin shakllanadi. Bunga, asosan, yosh o'qituvchilarda kasbiy sifatlar tizimini egallash harakati bilan bog'liq subyektiv sabablar mavjud bo'ladi. Bu nimani nazarda tutadi? Boshlovchi o'qituvchilarning ziddiyatli vaziyatlarda o'quvchilar orasida o'zini tuta bilishi, xilma-xil tarbiyaviy usullardan foydalanib, ko'zlangan maqsadiga erishishi tarbiyachilik mahorati bilan bog'liq. Pedagogik faoliyatni endigina boshlagan tarbiyachi-o'qituvchilar jazolash usullarini ko'proq egallashga harakat qiladilar. Ular oldida go'yo tarbiyaviy maqsadlarga erishishning omili sifatida "qanday jazolamoq kerak?" muammosi barcha tarbiyaviy masalalarni hal qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi tarbiyachilik faoliyatining mazmunida, oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatlari mohiyati aks etadi. O'qituvchi **tarbiya mazmunini** shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi g'oyalari asosida belgilaydi. Shu bilan birga, tarbiyaviy faoliyat, avvalo o'qituvchining pedagogik mahorati, yuksak tashkilotchilik faoliyatiga ham bog'liqdir:

1. O'qituvchining tarbiyachilik mahorati – o'quvchilar dunyosiga kirib borishida, ularning mehriga sazovor bo'lishida, ta'lim muassasasidagi pedagogik faoliyatni to'g'ri va ma'lum bir maqsadga yo'naltira olishida namoyon bo'ladi.
2. O'qituvchining tarbiyachilik mahorati – bu maktab o'quvchisini har taraflama rivojlantiruvchi pedagogik vaziyatlarni to'g'ri tashkil qila olish malakasidir.
3. O'qituvchining tarbiyachilik mahorati – bu "o'qituvchi-o'quvchi" munosabatini

[1] Авлоний Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент, Ўқитувчи, 1992.

bir zumda ijobiy tomonga hal qilish emas, balki o'quvchilar jamoasi va alohida shaxsga tarbiyaviy ta'sir etish, jamoada tarbiyaviy muhitni bir maromda tashkil qilishdir.

4. O'qituvchining tarbiyachilik mahorati – bu faqat kasbiy bilimlarni mukammal egallash emas, balki tarbiya qonuniyatlari hamda o'quvchilar jamoasi hayotini tashkil qilish qonuniyatlaridan kelib chiqadigan usul va metodlarning amaliyotga tatbiq etishidir.
5. Bilim va unga asoslangan ko'nikma va malakalar – o'qituvchi tarbiyachilik mahorati mohiyatiniig asosi hisoblanadi. O'qituvchidan tarbiyachi sifatida intellektual qobiliyatlar tizimiga ega bo'lish talab etiladi.

U tarbiyachi sifatida o'zida ushbu qobiliyatlarni yillar davomida shakllantirib boyitib borishi zarur. Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 30-oktyabr kuni "Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari" muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ta'kidlagan "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi"– degan fikrlari ayni haqiqatdir.

Demak, o'z faoliyatini endigina boshlayotgan o'qituvchilar va doimiy izlanishda bo'lgan tajribali o'qituvchilar ham tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi jarayonlarni bilishi kerak:

- har qanday pedagogik vaziyatlarda o'quvchining ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunish malakasini oshirish;
- pedagogik vaziyatlarni to'g'ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;
- tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;
- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobiliyati;
- xilma-xil pedagogik taktlardan o'zi uchun eng muhimini ajrata olish qobiliyati;
- ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qilish;
- tarbiyada ta'sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobiliyati;
- fikr va mulohazalarini so'z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan o'quvchi ongiga aniq yetkaza olish;
- dars va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilar bilan kommunikativ aloqa o'rnata olish qobiliyati;
- o'quvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni, o'z fikr-mulohazalarini qo'rqmasdan bayon qilish ko'nikmalarini tarbiyalash;
- qiyin holatlarda o'quvchilarga yordam bera olish;
- tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda o'quvchilar jamoasi bilan doimo maslahatlashish;
- o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar yuzasidan o'quvchilarning fikrlarini o'rganish;
- o'z-o'zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish;
- har bir o'quvchining yashirin ijobiy fazilatlarni ko'ra olish va takomillashtirish;
- o'quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo'lish.

12.3. O‘QITUVCHINING TARBIYACHI SIFATIDA PEDAGOGIK MAHORATI VA UNING TARKIBIY QISMLARI

Pedagogikada o‘qituvchining tarbiyachilik mahorati doimiy o‘zgarib turadigan, jamiyat talablaridan kelib chiqib, to‘ldirilib boriladigan bir butun tizimga ega. Uning bir-biri bilan bog‘liq quyidagi tarkibiy qismlari o‘qituvchining tarbiyaviy faoliyatida muhim yo‘nalishlar bo‘lib doimo, zamon talablari asosida mazmunan boyitilib boriladi:

Tarbiyada maqsadning aniqligi. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq mamlakatimizda amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan tarbiyaviy maqsad aniq belgilab olingan va o‘qituvchi zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklangan. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari g‘oyalariga ko‘ra tarbiyachilar va o‘qituvchilar zimmasiga jamiyatimiz tomonidan qo‘yilayotgan talablar – erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo‘lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo‘lidagi asosiy vazifa – bu shaxsda umumiy madaniyat unsurlarini, ya’ni, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, siyosiy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalashdan iborat.

Texnologik tizim yoki tarbiya texnologiyasi bu pedagogik metod, usul va vositalarni rejali va kutilgan iatijalarga erishishga imkon beradigan, shaxsga va jamoaga aniq tasir ko‘rsatadigan jihatlarini tanlash tizimidir. Bu tarbiyachi-o‘qituvchining o‘quvchilar amaliy faoliyatini to‘g‘ri tashkil qila olishi va boshqarishining ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishidir. Texnologik jarayon natijalaridan asosiy maqsad, tarbiyachi ijodiy izlanishlar tufayli, o‘quvchilar tashabbuskorligini ta’minlaydi. Tarbiyachi-o‘qituvchining o‘quvchilar o‘z-o‘zini boshqarish uyushmalari bilan hamkorlikda ishlashi natijasida murakkab masalalarni hal qilish uchun vaqt ajratadi. Texnologik tizimda tarbiyaviy ahamiyatga ega tadbirlarni muvaffaqiyatli uyushtirish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. Uyushqoqlik bilan o‘tkazilgan tadbirlar o‘quvchilarning aqliy rivojlanishini, bilish tafakkurini, kasb tanlashga nisbatan qiziqishini, erkin fikrlashlarini, o‘z fikr-mulohazalarini cho‘chimasdan to‘g‘ri tasavvur bilan bayon etish tushunchalarini shakllantiradi.

Tarbiyachi-o‘qituvchining mahorati har bir o‘quvchiga alohida yondashuv imkoniyatlarini topish, o‘quvchi iste’dodida namoyon bo‘ladigan holatlarda uning faolligini oshirishga qaratiladi. Tarbiyachi-o‘qituvchi tomonidan uyushtiriladigan tarbiyaviy tadbirlarga qo‘yiladigan asosiy talablar: **tarbiyaviy tadbirlar hech qachon tasodifiy**

bo'lmasligi va har bir tadbirga puxta tayyorgarlik ko'rilishi lozim.

Ijtimoiy psixologik tizim. O'qituvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati – bu tarbiyalanuvchilarni ma'lum bir maqsadga muvofiq tarbiyalash uchun mo'ljalga olish san'atidir. O'quvchilar har kuni quvonchli daqiqalarni, katta va kichik ko'ngilsizliklarni birgalikda boshdan kechiradilar. Ular tarbiyachi-o'qituvchining o'zlariga nisbatan yaxshi va yomon yoki insoniy munosabatlarini tez ajrata oladilar va bunga darhol o'z "javoblarini" qaytaradilar. Ijtimoiy psixologik bilim va malakaga ega bo'lish tarbiyachi-o'qituvchida uddaburonlikni va sezgirlikni shakllantiradi. U o'quvchilar jamoasini uyushtira oladi, o'quvchilar qalbiga yo'l topadi. Chunki o'quvchilar jamoasi umumiy maqsad asosida tashkil topgan, yuqori darajada uyushtirilgan birlashma bo'lib, shaxs shakllanishining yetakchi omili sifatida ijtimoiy munosabatlar ichida muhim yacheyka hisoblanadi.

O'quvchilar orasidagi munosabatlarga mohirona rahbarlik qilish uchun tarbiyachi jamoaning ichki va jamoalararo ziddiyatlarni ham bilishi kerak. Bu ziddiyatlarning barham topishi tarbiyachi shaxsi, uning tarbiyalanuvchilar bilan yaqin munosabatlariga bog'liq. Haqiqiy va mohir tarbiyachi-o'qituvchi bu ziddiyatlarni bartaraf etishda o'quvchilar jamoasi, o'quvchilar o'zaro munosabatlarining kuchidan foydalanadi. Har bir o'quvchi o'zining ijtimoiy va psixik olamiga ega. Uni bilish, o'rganish o'qituvchidan psixologik nuqtayi nazardan yondashishni talab qiladi. O'quvchining jamoa bilan yaxshi munosabatda bo'lishi uchun o'qituvchi quyidagi omillarga e'tibor berishi shart:

- har bir o'quvchiga alohida pedagogik topshiriqlar qo'yishi;
- jamoada o'zaro xayrixohlik, o'zaro yordam muhitini shakllantirish;
- oilaning tarbiyaviy ta'siridan o'z o'rnida fodalanish;
- o'quvchilarning o'zaro aloqalarini kuchaytiruvchi, ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi faoliyatlarini tashkil qilish;
- o'quvchilarga o'zaro teng, adolatli munosabatda bo'lish.

Estetik tizim. Agar tarbiyaviy vosita, usul va metodlar orqasida yetakchi g'oya turmasa, texnologik tizim va ijtimoiy–psixologik munosabatlar tizimi maqsadli tarbiyaviy natijalar bermaydi. O'qituvchining har bir harakati, o'quvchilarning estetik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiyachi faoliyati hayotiy me'yor va qadriyatlar asosida olib borilishi kerak, shundagina, o'quvchining tarbiya jarayonidagi faolligi ta'minlanadi. Dunyoqarashi hali to'la-to'kis shakllanmagan o'quvchilar uchun o'qituvchining hayotiy tajribalari, shaxsiy namunalari ham estetik tarbiyaviy ta'sir kuchiga egaligini unutmaslik kerak. Shuning uchun o'qituvchining jamoaga nisbatan diqqat motivlarini shakllantirishda, avvalo, tarbiyachining estetik jihatdan tarbiyalanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Estetik tizim tarbiyalanganlikning yuqori darajasini belgilovchi vosita bo'lib, uning talablarini bir maromda o'quvchi ongiga singdirib borish uchun har bir o'quvchi, sinf, maktab jamoasi harakat qiladi. Estetik tizimda ulkan tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun o'qituvchidan nihoyatda mohirona talabchanlik, ijobiy ta'sir etish vositalarining birligiga erishish talab etiladi:

- tarbiyada o'quvchilar jamoasi muhitining birligi;
- o'quvchilar mustaqilligi va o'z-o'zini tarbiyalashning birligi;

- fuqarolik va insoniylikning birligi;
- talabchanlik va ishonch birligi;
- o'quvchi shaxsiga ehtiyotkorona munosabat;
- jinsiy tafovutlarni hisobga olish;
- bolalarning axloqiy va jismoniy sog'ligi haqida qayg'urish;
- axloq me'yorlariga amal qilish.

O'z-o'zini anglash. Mamlakatimizda mustaqillikdan keyin joriy etilgan "Ta'limning yangi modeli, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'lamiz". ("Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". "Muloqot" jurnali, 1998-yil, 5-son). O'qituvchining vazifasi va burchi tarbiya natijasida o'quvchida milliy qadriyatlarga e'tiqod, milliy mafkura, demokratik qarashlar va hayotiy pozitsiyani shakllantirishdan iborat. Tarbiya mazmunining eng muhim xususiyatlaridan biri – bu insonning hayotiy jihatdan o'z-o'zini anglashi, uning shaxsiy hayoti va faoliyati o'zi yashab turgan muhitning subyekti sifatida e'tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy jihatdan o'z-o'zini anglash muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarni, o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni o'z ustida ongli, batartib ishlashga o'rgatsagina tarbiya jarayoni samarali natijalar beradi. O'quvchilarni o'z-o'zini tarbiyalash metodlariga ko'nikma hosil qildirish o'qituvchining mahoratiga, tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri tashkil etishiga bog'liq. O'quvchilar odatda yaqin kishilarining, ba'zan o'qituvchilarining xulq-atvoriga taqlid qiladilar. Shuning uchun o'qituvchi o'z pedagogik mahoratiga tayanib, o'quvchi qalbida o'ziga nisbatan ishonch, mehr tuyg'ularini uyg'ota olishi lozim. O'quvchilar o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, kiyinishi, muomalasini, kishilar bilan o'zaro munosabatini kuzatib boradilar. Bu ham o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashda ta'sirchan vosita hisoblanadi va ijtimoiy mavqeyini oshirishning muhim usulidir. O'quvchilar o'qituvchining bevosita nazoratida ta'lim va tarbiya jarayonida, dam olishda, jamoat ishlarida, o'z-o'zini tarbiyalash usullariga ko'nikma hosil qiladilar, bu usullar o'quvchilarni tashabbuskorlikka, mustaqil fikr-mulohaza yuritishga undaydi.

O'qituvchi tarbiya jarayonida quyidagi "O'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash metodlari"dan foydalanishi mumkin:

- o'z-o'zini tahlil qilish va nazorat qilish;
- o'z-o'zini baholash (tengdoshlariga taqlid qilish asosida);
- izohlash (o'quvchining ma'naviy-axloqiy sifatlari izohlanadi);
- munozara (o'quvchilarga siyosiy, madaniy, estetik, huquqiy mavzularda og'zaki ta'sir o'tkazish).

Ixtiyoriylik. Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g'oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da va ta'lim-tarbiyani yanada takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlarda shaxsning erkinligi, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga birlamchi e'tibor berilgan. Zero, erkinlik ta'minlangan jamiyatda fikr rivojlanadi, fikr rivojlanishi esa jamiyatning kuchli bo'lishi garovidir. Erkinlik tufayli o'quvchi irodasi shakllanadi, u bir necha imkoniyatlardan birini ixtiyoriy tanlab oladi, ta'lim tizimida o'quvchilarga ushbu imkoniyatlar yaratilgan, ularning erkinlik huquqlari ta'minlangan.

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi subyektiv va obyektiv omillar ko'zga tashlanadi. O'qituvchi subyektiv omillar asosida o'quvchilarning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlari mazmunini anglashga yordam bersa, obyektiv omillar esa shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi. Tarbiya faoliyatining mazmuni, yo'nalishi va shakli obyektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, o'quvchi shaxsini maqsadga muvofiq shakllantirish borasida o'qituvchi muvaffaqiyatga erishadi. O'qituvchilar tarbiya jarayonining ko'p qirrali ekanligini, uni tashkil etish va boshqarishda nafaqat tarbiyachi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, shaxsiy o'ziga xos jihatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmasligi kerak.

Tarbiyaning uzluksizligi. Tarbiyaning yana bir xususiyati uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yoki yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Shaxsning muayyan vaqtning o'zida, turli qarashlar mavjud sharoitda harakat qilishi tarbiya jarayonini murakkablashtiradi. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy faoliyat shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan. Binobarin, yoshlik yillarida insonning asab tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiyada muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi bolalarni o'quvchilik yillarida to'g'ri tarbiya berishi talab etadi. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy jarayon bu – o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari yig'indisidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o'tkazilishiga erishish lozim.

Ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning tarbiyaviy faoliyati yetakchi o'rinni egallasa ham, ba'zan o'quvchilarga uzluksiz tarbiyaviy ta'sir o'tkaza olmaydi, chunki, o'quvchilar ta'lim muassasalarida ma'lum muddatgina o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri va nazorati ostida bo'lib, qolgan bo'sh vaqtining asosiy qismini oilada, ko'chada, do'stlari davrasida, har xil tashqi muhitda o'tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta'tillar davrida o'quvchilar ta'lim muassasasi o'qituvchisi ta'siridan chetda qoladilar. Demak, ta'lim muassasasida o'quvchilarni tarbiyalash vaqt jihatdan chegaralangan bo'lib,

sinfdan va maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy faoliyatlardan holi vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining ta'siri hamda nazoratida bo'lishlari kerak.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish. Tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun reja tuzish va uni bajarish tarbiya samaradorligini ta'minlashning asosiy yo'lidir. O'qituvchining tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishi – ijodiy jarayon. O'qituvchi tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda asosan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" g'oyalariga hamda milliy qadriyat, urf-odatlarimizga tayanadi. Uning mazmuni o'quvchilarni o'qishga, ilm olishga, mehnatga ijobiy munosabatni tarbiyalashdan iborat.

Tarbiyaviy ish rejasida mehnat tarbiyasiga alohida ahamiyat beriladi. O'qituvchi o'quvchilarning mehnat tarbiyasi rejasini tuzar ekan, o'quvchilar mehnatining mashaqqati, charchoq va hordiq haqida aniq tasavvurlarga ega bo'lishlarini hisobga olishlari kerak. Ota-onalar bilan ishlash bo'limida oila, maktab tarbiyasini tavsiflaydigan qisqa ma'lumotlar beriladi. Mohir o'qituvchi tarbiyaviy ish rejasiga aniq bir maqsadni qo'yadi. Tarbiyaviy ish amaliyotida xulq me'yorlaridan chetga chiqqan o'quvchilar ham uchraydi. Ular tarbiyasi "qiyin" o'quvchilar. Ular bilan tarbiyaviy faoliyat olib borish – bu alohida e'tiborni, sabr-toqat va mahoratni, qalb sezgirligini talab qiladigan murakkab ishdir. Tarbiyachi bunday o'quvchilarni pedagogik jihatdan o'rganish dasturini tuzishda quyidagi jihatlarga e'tibor berishi lozim: shaxsning ijtimoiy kelib chiqishi; oilada umumiy rivojlanish darajasi; axloqan tarbiyalanganlik darajasi. Dastur asosida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha alohida tarbiyaviy ishlar rejasi tayyorlanadi:

1. O'quvchi olamining hayotiy yo'nalishlarini diqqat bilan o'rganish.
2. Xarakteri va xulqidagi og'ishganlik sabablarini o'rganish.
3. Ijobiy yo'nalishga, o'zgarishiga ta'sir etuvchi hayotiy ko'rinishlarni tanlash.
4. Muloqotni o'smirning "psixologik hudud"idan izlash.
5. O'quvchilar xulqida namoyon bo'ladigan har xil o'zgarishlar ustidan doimiy nazorat o'rnatish.

Ma'lumki, tarbiyalanganlik natijalarini hisobga olish o'quvchilar xulqida, ularning o'qish va mehnatga munosabatlaridagi o'zgarishlarni ifodalaydigan pedagogik o'lchamdir. Tarbiyaviy faoliyat samaradorligini aniqlash masalasi murakkab masaladir. Hech qachon tarbiya natijalarini o'tkazilgan tadbirlar, ishtirok etgan o'quvchilar soni bilan belgilab bo'lmaydi. Tarbiyaviy ish samaradorligi o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi bilan baholanadi.

Tarbiyachi-o'qituvchi o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini chuqur his etgan holda, vaziyatni hisobga olib mavzu tanlashi, uni tayyorlash va o'tkazishda o'quvchilarni keng ko'lamda jalb etishi, yuksak samaradorlikni ta'minlanishiga e'tibor berish bilan birga, har bir o'quvchiniig xohishini hisobga olishi, keskin rad etmasdan, yana o'ylab ko'rish, qiziqarliroq, soddaroq yo'llarini topishing mumkin deb umidvor qilish o'rinlidir. Tarbiyachi ijodkor bo'lishi, o'quvchilarni ham ijodiy faoliyat yuritishga jalb etishi, har bir tarbiyalanuvchida o'zini va o'zgalarni hurmat qilishga ishonch hosil qilishi lozim.

12.4. TARBIYA TEXNOLOGIYALARINI MODELLASHTIRISH

Modellashtirish – obyektlarda ijtimoiy reallikning muayyan qismlarini tadqiq etish uslubi hamda predmetlar va hodisalarning real mavjud bo'lgan hamda quriladigan modellarini o'rganish va ishlab chiqishdir. Shunday ekan, tarbiya texnologiyalarini ham ishlab chiqish va amalga oshirishda modellashtirishdan foydalanish ularni yaxlit pedagogik hodisa sifatida uslublarini o'rganib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Modellashtirishning shakli va qo'llanilishi foydalaniladigan modellar va ularni qo'llash sohalariga bog'liq. Tarbiya texnologiyalarining samaradorligini oldindan ko'ra bilish yoki loyihalashtirishda va tadqiq etishda modellashtirishdan foydalanish to'g'risidagi muammo "pedagogik modellashtirish" nomini olgan.

Modellar xarakteriga ko'ra predmetli va belgili (informatsion) modellashtirishga bo'linadi. Shartli ravishda ular asl obyektning belgilangan funksional xususiyatlarini ifodalaydi.

Pedagogik faoliyatda maxsus reja asosida olib boriladigan tadqiqot modellari **predmetli modellashtirish** deb ataladi.

Jadvallar, chizmalar, formulalar kabi modellar **belgili modellashtirish** sifatida namoyon bo'ladi.

Modellashtirilishi lozim bo'lgan obyektning xarakteri va yosh xususiyatlariga ko'ra avvalo, uning xulq-atvori (unda kechadigan tarbiyaviy jarayonlarga amal qilinishi) modellashtiriladi. Bunda tarbiya texnologiyasining quyidagi ikkita muhim jihatini e'tiborga olish zarur:

1. Barcha tarbiyalanuvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan tarbiyaviy jarayonni modellashtirish.
2. Pedagogik faoliyatda mukammal tarbiyalanishi mumkin bo'lmagan tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan o'zaro tarbiyaviy faoliyatni modellashtirish.

Tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda modellashtirishdan foydalanishning bayon etilgan nazariy asoslaridan tashqari yana bir nechta mustaqil, biroq o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi kuchga ega bo'lgan tarbiyaviy jarayonning bir-biri bilan o'zaro bog'liq jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- tarbiyaviy faoliyatda obyekt va subyektning o'zaro kommunikativ munosabati;
- bir maqsadga qaratilgan va aniq mazmunga ega tarbiyaviy metodlar;
- uzluksiz faoliyatli tarbiyaviy jarayon va uning ijobiy natijalari;
- guruh jamoasi norasmiy yetakchisi (lideri)ning tarbiyaviy jarayonga ta'siri.

1. Obyekt va subyektning o'zaro kommunikativ munosabati tarbiyaviy texnologiya modelida asosiy faoliyat ko'rsatuvchi deb e'tirof etiladi. Unda tarbiyalashni amalga oshiradigan o'qituvchi yoki shaxslar guruhi, shuningdek, manfaatlari doirasida tarbiyaviy o'zaro ta'sir ko'rsatishni tashkil etuvchi shaxs yoki ijtimoiy muhit guruhi (masalan: sinf guruhi) tushuniladi.

2. Tarbiyaviy reja asosida tarbiyalashning bir maqsadga yo'naltirilganligi, tarbiyaviy texnologiya unsurlarini modellashtirishda o'qituvchi tomonidan belgilangan hamda obyektni tarbiyalashdan ma'lum bir maqsadni ko'zlash yoki faraz qilishdir. Ushbu jarayon asosida o'qituvchi ishtirokida olib boriladigan tarbiyaviy faoliyatning bir maqsadga qaratilganligi aniq mazmunga ega tarbiyaviy vositalarda, shakl va metodlarda ifodalanadi.

3. Uzluksiz faoliyatli tarbiyaviy jarayon tarbiya texnologiyalarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ta'limning uzluksizligini va nafaqat ta'lim muassasalarida, balki tarbiya oilada, ijtimoiy va geografik muhitda, mahallada olib borilishini bildiradi. Zero, ota-ona yoki avlod-ajdodlarga xos bo'lgan nutq, tafakkur, mehnat, ijod qilish qobiliyati va boshqa iste'dod alomatlarining irsiyat orqali bolaga o'tishini ta'minlovchi **biologik omillarning** (layoqat va iste'dod mudroq holatda bo'lib, uning uyg'onishi uchun oilada va ta'lim-tarbiya muassasalarida qulay sharoit yaratish talab etiladi) hamda shaxsga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi oila, maktab, do'stlar va tengqurlar davrasi kabilarni o'z ichiga oluvchi **mikromuhitning** uzluksiz tarbiyaviy jarayonda ta'siri beqiyosligi olimlarimiz tomonidan e'tirof etilgan. Ayniqsa, oila muhiti shaxsning shakllanishida o'ziga xos muhim tarbiyaviy maskan bo'lib, nihoyatda keng tarmoqli tarbiyaviy ta'sir etish quvvatiga ega. Ota-onaning tarbiyalanganligi va tarbiyaviy tajribalarni mukammal bilishi, bola tarbiyasida doimiy nazorat va javobgarlik hissi o'zbek oilasi uchun eng qadrli burch sifatida e'zozlanadi. Bularning barchasi tarbiyalanuvchi subyektga nisbatan komil inson shaxsiga xos sifatlarni shakllantirishga qaratilgan.

4. Guruh jamoasida norasmiy yetakchining (lider) xatti-harakati va xulq-atvori bilan tarbiyaviy jarayonga ta'sir etishi guruhda tarbiyalanuvchilarning barcha hayotiy faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Bolalar va o'smirlar jamoasidagi lider (yetaklovchi, boshlovchi) o'qituvchi yoki tarbiyachi tomonidan guruhda rasman tayinlanmaydi. Jamoadagi bolalarga norasmiy yetakchilik qiluvchi o'quvchi o'qituvchilar oldida e'tibordan chetda yuradi, o'zining qattiqqo'lligi, xarakteridagi guruhga yetakchilik qilishga xos tug'ma qobiliyati, mustahkam irodaga egaligi, qo'rqmasligi bilan guruh a'zolarining hurmatini qozonib, jamoadan ajralib chiqadi va o'zi bilan hammaslak, hamfikr bolalarni yetaklaydi. Norasmiy liderning har qanday faoliyati salbiy oqibatlarga olib kelishi yoki ijobiy natijalar berishi ham mumkin. Bunda o'qituvchining mahorati, psixologik tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining norasmiy liderga nisbatan qattiqqo'lligi, tarbiyaning jazolovchi metodlarini qo'llashi foyda bermaydi, aksincha zararli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

O‘qituvchi o‘zining ziyrakligi va chuqur psixologik bilimi, yuksak pedagogik mahorati bilan, avvalo, o‘quvchilar guruhi jamoasidagi liderni aniqlashi, kerak bo‘lsa, unga yon bosib, o‘z tomoniga og‘dirib olishi lozim. Pedagogik mahoratning ishontirish va ta’sir etish usullari asosida norasmiy lider ongiga s’ezdirmasdan kirib borib, o‘z ta’sirini o‘tkaza olgan o‘qituvchi guruh jamoasida bir xil tarbiyaviy muvozanatni saqlay oladi. Shundan keyin tarbiyaviy texnologiyaning ma’qul bo‘lgan unsurlarini modellashtirib qo‘llashi va cho‘chimasdan tarbiyaviy faoliyat olib borib, belgilangan maqsadga erishishi mumkin.

O‘quvchilar jamoasida norasmiy yetakchilar bilan birga rasmiy, o‘qituvchilar tomonidan tayinlangan yo‘lboshchilar ham mavjud. Odatda, rasmiy yo‘lboshchilar tarkibini a’lo baholarga o‘qiydigan, jamoa ishlarida faol ishtirok etuvchi o‘quvchilar tashkil etsa, norasmiy liderlar garchi bu kabi sifatlarni namoyon etmasalarda, ayrim sifatlariga ko‘ra tengdoshlarini o‘z ortlaridan ergashtiradilar. Norasmiy liderlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi boshqa o‘quvchilarga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois sinf rahbari bilan birga o‘quv muassasasi pedagogik jamoasi norasmiy liderlarni aniqlab ular faoliyatini bevosita nazorat qilib borishlari zarur.

O‘quvchilar uyushmasiga pedagogik rahbarlik, yuqorida qayd etilganidek, aksariyat holatlarda guruh rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli guruh rahbari guruhning umumiy hamda har bir a’zosining individual xususiyatlarini bilishi, xulq-atvoridagi har bir o‘zgarishni inobatga olgan holda jamoaga yondashishi zarur. Guruh rahbarining norasmiy liderlar va ularning shaxsi haqida to‘laqonli ma’lumotlarga ega bo‘lishi, ota-onalari bilan muntazam aloqada bo‘lishi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga yordam beradi.

O‘qituvchi tarbiyaviy faoliyatning barcha unsurlari o‘zaro aloqadorligini va o‘zaro bog‘liqligini nazariy va amaliy jihatdan tushunishi tarbiyaviy jarayonni to‘g‘ri yo‘naltirishga imkoniyat beradi. Bunda pedagogikada tarbiyaviy o‘zaro ta’sir ko‘rsatishning shakllari, metodlari, usullari va vositalarini ochib beradigan hamda tarbiyaviy texnologiyalarning “pedagogik vositalari”ni shakllantiruvchi faoliyati va natijalariga, tarkibiy qismlariga alohida e’tibor qaratiladi. O‘qituvchi, avvalo, tarbiyadan kelib chiqadigan maqsadga to‘g‘ri baho bera olishi kerak.

12.5. TARBIYAVIY JARAYON VA TARBIYA MAZMUNINI MODELLASHTIRISH

Tarbiyaviy jarayonni modellashtirishda o'quvchilarning hayoti va faoliyatini ta'lim muassasalarida pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish uchun, ularning tashqi ta'sir etuvchi omillarga nisbatan ta'sirchan munosabatda bo'lishini unutmaslik kerak. Pedagog va psixolog olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, shaxsga tashqi omillarning o'zaro (xoh salbiy, xoh ijobiy bo'lsin) ta'siri, avvalo, o'quvchilarning o'zaro munosabatlariga bog'liq. O'quvchilarning tarbiyaviy faoliyatini uyushtirayotganda o'qituvchi yoki tarbiyachi tashqi ta'sir etuvchi omillarga nisbatan tarbiyalanuvchining munosabatini, kechinmalarini, qanday anglashini, baholashini ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur.

Tarbiya jarayonini modellashtirishda o'quvchining nafaqat ongi, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borishga erishish lozim, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keluvchi xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilarning ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonga faol kirib borishlarini o'z xohish-istaklari bilan tarbiyaviy faoliyatga faol ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi.


Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Ushbu faoliyatni modellashtirishda o'qituvchi o'quvchilar jamoasining manfaati va talab istaklarini e'tiborga olishi zarur. Bola o'z xulqi, xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi.

Ushbu holatlar tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Jamiyatda axborot-kommunikatsion texnologiyalarining jadal sur'atlarda rivojlanib borishi natijasida o'quvchilar ko'p vaqtlarini ta'lim va tarbiyaga mutlaqo aloqasi bo'lmagan kommunikatsion texnologik ma'lumotlarga sarflamoqdalar (modul telefonlar, internet, kompyuter, DVD filmlar va boshqalar). Ushbu vositalardan oqilona foydalanishni o'quvchiga o'rgatish, ta'qiqlangan texnik vositalardan foydalanishni man etish, ularni nazorat qilish o'qituvchilar va ota-onalarning hamkorlikdagi vazifalariga kiradi. O'quvchilarning ko'p vaqtlarini olayotgan keraksiz texnik ma'lumotlarni bartaraf etish uchun faqat modellashtirish asosida ish olib borish mumkin. O'qituvchining tarbiyaviy ishlar rejasida ushbu muammolar yuzasidan turli mavzudagi suhbatlar uyushtirish rejasi o'rin olishi lozim.

Bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Aks holda xulq me'yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida o'quvchi ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ma'lumotlarga va tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan bo'lib qolishi mumkin.

Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'z-o'zini

tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilangan tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishda ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g'oyalar yaxlit tarzda quyidagicha aks etadi:



32-chizma. Tarbiyaviy jarayonni modellashtirish

Tarbiyani samarali modellashtirish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini, har bir o'quvchining tarbiya jarayonidagi faoliyatini yaxshi bilish kerak. Buning uchun o'qituvchi quyidagi holatlarni unutmasligi lozim:

- tarbiyalanuvchi ruhiyatini puxta bilish;
- ota-onalar bilan muntazam aloqada bo'lib, ular ishtirokida o'quvchi bilan tarbiyaviy mazmunda suhbatlar o'tkazish;
- o'quvchining ichki dunyosini, xarakterini bilmasdan u bilan qo'pol muomalada bo'lmaslik, sodir etilgan xatoliklarni kechira olish;
- o'quvchining qiziqishlarini, uni o'rab turgan tashqi muhitni doimiy nazorat qilish;
- o'quvchini qat'iy kundalik rejimga o'rgatish va uni kuzatib borish;
- iste'dodini, qobiliyatini va o'zi tanlagan kasbga moyilligini e'tiborga olib uni takomillashtirish;
- o'quvchining bola ekanligini, adashishga, ba'zan xatoliklarga yo'l qo'yishini unutmaslik, ushbu salbiy holatlarni kechiktirmasdan tuzatib borish.

Shaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldindan modellashtirilgan va puxta o'ylangan rejalar asosida belgilanib hal etib boriladi.

Tarbiyaviy jarayonni modellashtirishda o'qituvchi bilimli, raqobatbardosh yetuk

kadrlarni tarbiyalash uchun javobgar shaxs ekanligini unutmasligi kerak. Ushbu vazifalar tarbiya texnologiyalari maqsadlaridan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun tarbiyaning quyidagi umumiy vazifalarini hal etish o'qituvchi-tarbiyachi zimmasiga yuklatilgan:

a) O'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va maqsad birligi hissini uyg'otish;
b) O'quvchilar ongini mustaqil davlatchiligimiz siyosatining tub mohiyati mujassamlashgan milliy mafkuramiz va umuminsoniy qadriyatlar, chuqur bilim va tafakkur, keng dunyoqarash bilan boyitib borish;
d) Umuminsoniy axloq me'yorlari (odamiylik, kamtarlik, o'zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatli bo'lish, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglashiga, muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;
e) O'quvchilarda huquqiy va axloqiy me'yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuyg'usi, ijtimoiy burchga mas'ullikni qaror toptirish;
f) Tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasida mas'uliyat hissini rivojlantirish;
g) Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, o'zga millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kamsitmaslik tuyg'usini qaror toptirish;
h) O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish;
i) Insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, rahm-shafqatli bo'lish, uning sha'ni or-nomusi, qadr-qimmati, huquq va burchlarini hurmat qilishga o'rgatish.

Shu bilan birga tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlari bo'lmish, axloqiy, aqliy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy tarbiyaning g'oya va maqsadlari o'qituvchi tomonidan modellashtirilib, bajariladigan vazifalar belgilab olinadi va amalga oshiriladi. Ushbu tarbiyaviy vazifalar mazmunini anglagan holda o'qituvchi quyidagi faoliyatni olib borishi lozim:

1. Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'qituvchi ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor bo'lishi, ularga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimizdan kelib chiqib belgilangan axloqiy me'yorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini bilishi, ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va ta'qiqlar) asosida o'quvchilarda axloqiy ong va madaniyatni shakllantirishi.

2. Aqliy tarbiyani yo'lga qo'yish asosida – o'quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etadi, ularga ijtimoiy va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarni berish bilan tafakkuri shakllantiriladi, dunyoqarashi rivojlantiriladi.

3. Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida – o'quvchilarni o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanishi

hamda uning ishchanlik qobiliyatini oshirish borasida g'amxo'rlik qilish tuyg'usini yuzaga keltiradi, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o'quvchilarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, mehnat, iroda va xarakterni qaror toptirish) jismoniy harakat sifatlarini rivojlantirish.

4. **Estetik tarbiyani** olib borish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalaydi, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantiradi, estetik madaniyat rivojlantiriladi.

5. **Ekologik tarbiyani** olib borish bilan – o'quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat uyg'unligi hamda aloqadorligi haqidagi ma'lumotlar tushuntiriladi, ularda ekologiyaning insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalar qaror toptiriladi, o'qituvchi o'quvchilarda tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi tuyg'ularni tarbiyalaydi.

6. **Iqtisodiy tarbiyani** tashkil etish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyatga faol ishtirok etish ko'nikma va malakalarini hosil qildiradi, inson mehnati bilan asrlar davomida bunyod qilingan moddiy va ma'naviy boyliklarni asrash borasida qayg'urish tuyg'ularini qaror toptiradi, iqtisodiy madaniyatni shakllantiradi.

7. **Huquqiy tarbiyani** tashkil etish jarayonida o'quvchilarga davlatimiz Konstitusiyasi, davlat haqidagi ta'limot, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosi tushuntiriladi, ular ongiga ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tushunchalar singdiriladi, huquqiy munosabat va madaniyat mohiyati yuzasidan tasavvurga ega bo'lishni ta'minlaydi.

8. **G'oyaviy-siyosiy tarbiyani** tashkil etish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga siyosiy bilimlarni berish, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari faoliyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati mazmunini to'g'ri tushunishni ta'minlash asosida siyosiy faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni tarkib toptiradi, siyosiy madaniyat me'yorlari shakllantiriladi.

12.6. TARBIYA QONUNIYATLARI VA TARBIYA MAZMUNI TAMOYILLARINI MODELLASHTIRISH

Tarbiya texnologiyasida tarbiya jarayoni, mazmun va mohiyatidan kelib chiqib belgilangan vazifalarni o'qituvchi amalga oshirishi uchun uning o'ziga xos qonuniyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyaning eng muhim qonuniyatlaridan biri aniq maqsadga yo'naltirilganligidir. Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi. Yagona maqsadga erishish yo'li zamonaviy tarbiya jarayonining maqsadini tavsiflaydi.

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (subyektiv va obyektiv) omillar ko'zga tashlanadi. Subyektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlari mazmunini anglashga yordam bersa, obyektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etish uchun sharoit yaratadi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik shaxsiy xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonining yana bir qonuniyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Shaxsning muayyan vaqtning o'zida, turli-tuman qarashlar mavjud bo'lgan bir sharoitda harakat qilishi tarbiya jarayonini murakkablashtiradi. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy jarayon shaxs ongi va dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Binobarin, yoshlik yillarida insonning asab tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiyada muvaffaqiyatga erishish uchun o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligi talab etiladi.

Tarbiya jarayonining yana bir qonuniyati uning uzluksizligidir. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiya jarayoni bu – o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni tarbiyalashda ta'lim muassasasi yetakchi o'rin egallasa ham, o'quvchilarga uzluksiz tarbiyaviy ta'sir o'tkaza olmaydi, chunki, o'quvchilar belgilangan

ma'lum muddatda ta'lim muassasasida, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan bo'sh vaqtining asosiy qismini oilada, ko'chada, jamoat orasida o'tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va, ayniqsa, yozgi ta'tillar davrida o'quvchilar ta'lim muassasai o'qituvchilari ta'siridan chetda qoladilar. Demak, ta'lim muassasalarida o'quvchilarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo'lib, sinfdan va maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining ta'siri hamda nazoratidan uzoqlashadilar. Ayni vaqtda respublikamizda o'quvchilarning ta'lim muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo'shimcha ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida o'quvchilar xususiy fanlar hamda xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishlari, texnik va badiiy yo'nalishlar bo'yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari mumkin. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo'nalish va mavzulardagi uchrashuvlar, ko'rgazmalar, ko'rik-tanlovlar, suhbatlar o'quvchilarning tafakkurini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o'rin tutmoqda.


Tarbiya jarayonining yana bir qonuniyati – bu uning yaxlit holda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g'oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, shaxs ma'naviy-axloqiy sifatlarni navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o'zlashtira boradi, shu bois pedagogik ta'sir ham yaxlitlik, tizimlilik xarakteriga ega bo'lishi lozim. Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati qator pedagogik talablarga amal qilish, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni qaror toptirishni talab etadi.

Tarbiyaning yana bir qonuniyati shundan iboratki, bu jarayon ikki tomonlama aloqa xususiyatiga ega bo'lib, unda o'quvchining o'zi ham faol ishtirok etadi. Ikki tomonlama aloqa ikki yo'nalishda, ya'ni, o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan ta'siri (to'g'ri aloqa) hamda o'quvchining o'qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzida tashkil etiladi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyasiga muvofiq, endilikda o'quvchi tarbiya jarayonining obyektigina bo'lib qolmasdan, subyekti sifatida ham faoliyat ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo'layotgan tashqi ta'sirlar va axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakun topadi. Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir xususiyati – tarbiyada qarama-qarshilikning mavjudligi kelib chiqadi. Ushbu qarama-qarshiliklar o'quvchilarga o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlar o'rtasida yoki o'quvchilarga qo'yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.

Undan tashqari ushbu qarama-qarshiliklar ko'pincha o'quvchining ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo'lmasligidan, o'qituvchi va tarbiyachilarning o'quvchilar yosh psixologik, fiziologik xususiyatlarini (fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik jihatdan sog'lomligi) yaxshi bilmasliklari oqibatida sodir bo'ladi.

Demak, tarbiya jarayonida quyidagi qonuniyatlar modellashtirish xususiyatini o'zida namoyon etadi:



33-chizma. Tarbiya qonuniyatlarini modellashtirish

O'qituvchi tarbiya mazmunini shaxsning barkamol inson darajasida shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatini anglagan holda modellashtiradi. Ushbu modellashtirilgan mohiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy muhitda kishilar bilan o'zaro munosabatlar darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi g'oyalari asosida belgilanadi. Modellashtirish asosida o'qituvchi quyidagi zamonaviy tarbiya mazmunining tamoyillarini belgilab oladi:

1. **Maqsadning aniqligi.** O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikka erishgan dastlabki yillardayoq yosh avlodni tarbiyalashda aniq maqsadlar belgilab olindi. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ko'rsatilgan vazifalarga asosan tarbiyaning asosiy maqsadi – erkin, ijodkor, mustaqil fikrga ega bo'lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vazifa – bo'lajak kadrlar salohiyatini har tomonlama yuksaltirish, ularda madaniyat va ma'naviyat unsurlarini shakllantirish, ya'ni, har bir shaxsning kasbiy bilimlarni puxta egallashda aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, siyosiy jihatdan ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdir.

2. **Birgalikdagi faoliyat.** O'qituvchilar o'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirishning eng yaxshi namunalarini izlashi, shu asosda tarbiyaviy faoliyatni hayotiy me'yor va qadriyatlar bilan mutanosibligini ta'minlashi, o'quvchilarning tarbiyaviy dunyosiga chuqur kirib borib, o'zaro yaxshi munosabatlar asosida ularning axloqiy tafakkurini shakllantirishi lozim. O'qituvchining pedagogik mahorati, tarbiyaviy faoliyatda doimo o'rnak bo'lishi o'quvchilar faolligini ta'minlaydi. Zero, dunyoqarashi hali mukammal shakllanmagan o'quvchilar uchun o'qituvchilarning ma'naviy dunyosi, hayotiy tajribalari, ularning shaxsiy namunalari ulkan tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega.

3. **O‘z-o‘zini anglash.** Barkamol avlodni tarbiyalashdan asosiy maqsad, yoshlarda e’tiqod, demokratik qarashlar va ijtimoiy hayotda o‘z mustaqil fikriga va mustahkam pozitsiyasiga ega bo‘lish shakllantiriladi. Insonning hayotda o‘z-o‘zini anglashi, tarbiya mazmunining eng muhim unsurlaridan biri sanaladi. O‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy hayoti va faoliyatlarini subyekt sifatida e’tirof etib, o‘z-o‘zlarini qanday anglashi bilan tavsiflanadilar. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy jihatdan o‘z-o‘zini anglashi muhim ahamiyatga egadir.

4. **Iroda erkinligi.** Tarbiya jarayoni o‘qituvchi tomonidan oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o‘zida o‘qituvchi va o‘quvchilar ma’naviyatini boyitadi. Agar o‘qituvchi o‘quvchilarning qiziqishini, faoliyatini, o‘rtoqlik va fuqarolik burchini his etishini, mustaqillikka intilish tuyg‘ularini anglab, uni takomillashtirib borsa, o‘quvchida yuksak iroda va erkinlik tuyg‘ulari shakllanib boradi.

5. **Tarbiyaning shaxsga yo‘naltirilganligi.** Mazkur g‘oya barcha ta’lim muassasalari amaliyotining markaziy nuqtasida o‘qituvchilarning tarbiyaviy ishlar dasturida, turli tarbiyaviy maqsadlarga yo‘naltirilgan tadbirlarda, tarbiyaning shakl, metod va vositalarida, asosan, o‘quvchi shaxsi turganligini anglatadi. Tarbiyaviy jarayonda uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o‘ziga xos xarakteri, o‘z qadr-qimmatini anglash tuyg‘ulari modellashtirish asosida rivojlantirilib boriladi.

6. **Jamoaning ta’siri.** O‘quvchilarda barkamol insonga xos xususiyatlar, avvalo, sinf jamoasida rivojlantiriladi. Sinf jamoasining tarbiyaviy ta’siri ostida o‘quvchining bir-birlariga nisbatan ijobiy munosabatlari qaror topadi, jamoa yordamida o‘quvchi har tomonlama kamolotga erishadi, dunyoqarashi shakllantiriladi, insonparvarlik va o‘zaro hamkorlik tuyg‘ulari rivojlantirilib boriladi.

Zamonaviy tarbiya mazmunida ilgari surilgan g‘oyalarni modellashtirilishi yaxlit tarzda quyidagi ko‘rinishga ega:



34-chizma. Tarbiya mazmunini modellashtirish

Tarbiya mazmunining mukammal belgilangan qonuniyatlari mavjud bo'lib, u asrlar davomida har bir davrning talablariga mos ravishda takomillashtirilib kelingan. Tarbiya mazmunida tarbiyalanuvchining yoshi va ijtimoiy kelib chiqishiga qarab belgilangan tarbiyaviy maqsad va vazifalarga muvofiq ular tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda axloqiy sifatlari mujassamlashgan.

O'quvchini yuqorida qayd etilgan tarbiyaviy jarayonlarning nima uchun kerakligi, ularning insonga nima bera olishi kabi masalalar qiziqtiradi. Ushbu tarbiyaviy faoliyatlarning har birini oqilona, jamiyat taraqqiyoti va milliyligimizga xos ravishda modellashtirib o'quvchilar ongiga singdirish kerak.

12.7. TARBIYA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHDA PEDAGOGIK VOSITALARDAN FOYDALANISH

Tarbiyalanuvchilarning harakati faol bo'lishi, ular bilan olib boriladigan tarbiyaviy faoliyat funksiyalari esa doimo almashinib, yangilanib turilishi lozim. Shuning uchun ham tarbiyalanuvchilarning faoliyati ustidan rahbarlik qilishda, o'qituvchi pedagogik mahoratning boy tajribalariga ega bo'lishi zarur. So'nggi yillarda pedagogika fanida tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri tashkil etishda yetakchi yondashuv sifatida turli pedagogik vositalar va metodlar qo'llanilmoqda. Mazkur faoliyatni mukammal yo'naltirish uchun quyidagi pedagogik vositalar va metodlardan foydalanish mumkin:

Pedagogik talab jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor, ijtimoiy qoidalar, an'ana va urf-odatlarning muayyan me'yorlarini bajarish uchun o'quvchiga qo'yiladigan talablar majmui tushuniladi. Talab ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarining yig'indisi, real masala yoki biror-bir xatti-harakatlarning bajarilishi to'g'risidagi aniq ko'rsatma sifatida ifodalanishi mumkin. Ushbu talablar bajarilish shartiga ko'ra bevosita yoki bilvosita bo'ladi. Bevosita ko'rsatma yoki yo'riqnomalar axloq me'yorlariga so'zsiz bo'ysunish ko'rinishiga ega bo'lishi lozim. Bilvosita talablar esa, iltimos, maslahat, imo-ishora ko'rinishida taqdim etilib, bajarilishi, o'quvchilarning o'zlariga havola etiladi. Barkamol, har jihatdan kamolotga erishgan jamoada ko'pincha bilvosita talablardan foydalaniladi.

Jamoada o'zaro munosabatni tarbiyalash metodi jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyati va xulq-atvorlariga qo'yiladigan talablarning aks etishidir. Jamoa bo'lib va ayrim kishilar tomonidan jamoaning fikr-mulohazalarini ifoda etish uni amalga oshirish vositalariga o'qituvchi rahbarlik qiladi. Tarbiyalanuvchilarning faoliyatini, xulq-atvoridagi ijobiy hislatlarni baholash asosida ularni rag'batlantiradi, jamoada sog'lom fikrni, o'zaro yaxshi muhitni tarkib toptiradi, do'stona munosabatlarni shakllantiradi.

O'rgatish – bu tarbiyalanuvchilar uchun belgilangan axloqiy me'yorlarni ularning xulq-atvoriga singdirish, ko'nikmalar hosil qilish kundalik faoliyatga aylantirish va

doimiy bajarilishini tashkil etishdir. O'qituvchi ushbu barqaror odatlarning shakllanishiga o'quvchilarga yordam beradi. Belgilangan axloqiy va ma'naviy me'yorlarni kuzatish, shuningdek, mavjud qoidalarning (shaxsiy gigiena, muomala va boshqalar) bajarilishi shaxs rivojlanishining ilk bosqichlarida yaxshi samara beradi. Tarbiyaviy vositalar tarbiyalanuvchilarga nimani, qanday va nima uchun bajarish kerakligini tushuntirish o'qituvchidan talab etiladi. Bir vaqtning o'zida o'qitish, xatti-harakatlar bajarilishining tekshirilishini ham ko'zda tutadi.

Mashq qilish fe'l-atvorga xos odatlarni, aniq sohada faoliyatning maqbul algoritmini shakllantirish maqsadida harakat usullarining ma'lum bir tartibda qaytarilishidan iborat. Mashq qilish metodining vositalariga oilada, ta'lim muassasasida va boshqa jamoat joylarida belgilangan tartibga rioya qilish, to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyati, bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy topshiriqnomalar kiradi.

Bu keng ma'noda o'qituvchi-tarbiyachi rahbarligida ijtimoiy me'yorlarga muvofiq xatti-harakatlar uchun shart-sharoitlar yaratuvchi, o'quvchilar hayoti va faoliyatining to'g'ri tashkil etilishidir. Mashq qilish o'rgatishga tayanadi, shuning uchun o'qituvchi asosiy vazifani bajaradi. Rejalashtirish, ijro etish, baholashda jamoada faol bo'lish o'quvchining iqtidorini rivojlantiradi va axloqiy sifatlarini shakllantiradi. Biroq o'rgatish va mashq qilishda o'quvchilar faoliyatining ijobiy tomonlariga tayanish lozim va o'z navbatida ularni shakllantirgandagina samara berishini hisobga olish zarur.

Tarbiyalanadigan holatlar – bu o'qituvchi tomonidan ziddiyatli holatlarda mustaqil tarzda amalga oshiriladigan o'quvchilarda ijobiy fe'l-atvor ko'nikmalarini shakllantiruvchi murakkab vositalardan biridir. Buning uchun tasodifiy ziddiyatli holatlarni modellashtirish, guruhda nizolarni bartaraf etishda foydalanish, muammoni to'g'ri hal qilish yo'llarini tanlash kabi vositalardan foydalaniladi.

Rag'batlantirish – tarbiyalanuvchilarning qizg'in faoliyatga moyillik ko'rsatishga jalb etish maqsadida ma'naviy va moddiy rag'batlantirish usullari va vositalarining yig'indisidir. Mazkur metod tarbiyalanuvchi yoki guruhning ijobiy bahosi, xususiyatlarini ma'qullash va e'tirof etish, xatti-harakatlari va xulq-atvorining ifodasi sifatida ham qaralishi mumkin. U o'quvchilarning o'z faoliyatidan qoniqishini, o'z kuchiga ishonch hissini, o'z-o'ziga ijobiy baho berishni yuzaga keltiradi, o'quvchilarni axloqiy me'yorlar asosida xulq-atvorini yaxshilashga tomon rag'batlantiradi. Rag'batlantirish vositalariga o'qituvchi va ota-onalarning, ta'lim muassasasi xodimlarining maqtovi, minnatdorchiligi, turli mukofotlar, "Faxriy yorliq"lar bilan taqdirlash yoki boshqa moddiy mukofotlar kiradi. Bunda tarbiyachining so'z bilan maqtovi, minnatdorchilik bildirishi, imo-ishoralari, mimikasi va baholashi, rag'batlantirish vositalari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Rag'batlantirish nafaqat natijani, balki faoliyatning sababi va usulini ham ma'qullashni, tarbiyalanuvchilar ijobiy faoliyatini ma'qullashning dalilini emas, balki uning moddiy hissasini qadrlashga o'rgatishni tavsiya etadi. Rag'batlantirishni ayniqsa, ko'pincha kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga va o'zlarining imkoniyatlariga ishonmaydigan o'smirlarga berish talab etiladi. Katta yoshdagi o'quvchilar uchun ham ulardan foydalanish tarbiyaviy samara beradi.

Tanqid asosida o'qituvchi tomonidan tarbiyalanuvchilar shaxsiy sifatlarida namoyon bo'ladigan salbiy odatlariga baho beriladi yoki jamoa faoliyatida ro'y beradigan tasodifiy salbiy hodisalar o'quvchilar bilan tahlil qilinib ko'rib chiqiladi. Bunda, o'qituvchi ma'lum bir maqsadga bog'liq holda tanqidning turli usullarini vaziyatga qarab qo'llaydi. Chunonchi, sinf jamoasida bir shaxsga taalluqli bo'lgan yoki sinf jamoasiga nisbatan tanqid, kamchiliklarni bartaraf etishga undovchi rag'batlantiruvchi tanqid, kutilmagan hodisalarni bayon etuvchi afsusli tanqid, jamoa bilan birgalikda ro'y bergan kamchilik uchun qayg'urish tanqidi, ta'nali tanqid kabilar.

Majburlash – bu o'quvchining xulq-atvoriga qo'yiladigan salbiy baholashning ifodasi, xulq-atvor me'yorlariga zid bo'lgan hatti-harakatlari va bema'ni qiliqlarining muhokamasidir. Pedagogika fanida ushbu vosita tarbiyalashning eng so'nggi metodi sifatida ifodalanadi. Ushbu metod turlari, qo'llanilayotgan boshqa tarbiyaviy metodlar istalgan tarbiyaviy maqsadga erishishda imkoniyat bermagandagina, qo'llanilishi mumkin.

XX asrning o'rtalarida pedagogikada majburlashdan shaxsni kamsituvchi va salbiy oqibatlarga olib keluvchi tarbiyalash metodi sifatida foydalanish rad etilgan. Biroq keyinchalik majburlashdan pedagogik jihatdan to'g'ri foydalanish qonuniy deb e'tirof etildi: u uyat, or-nomus tuyg'ulari o'quvchida bo'lmaganda, uning xatti-harakati salbiy oqibatlarga olib keladigan holatlarda, tarbiyalanuvchining xulq-atvorini tuzatadi, unga xatosini tushunib yetishga imkoniyat beradi.

Tarbiyaviy faoliyatda majburlash metodi shaxsning qadr-qimmatini kamsitmaydigan puxta o'ylangan xatti-harakatlar asosida olib boriladi va uni amalga oshirishda bunday vositalarning tanlanishi chuqur tahlil talab qilinishini hisobga olish zarur. Ular qatoriga o'qituvchining tanbehlari yoki qat'iy talablari, yanada jiddiy mas'uliyatga ehtimolli jalb etish to'g'risidagi ogohlantirish, jamoada muhokama qilish yoki pedagogik kengashga chaqirish, boshqa sinfga yoki maktabga o'tkazish, umumta'lim muassasasidan haydashni kiritish mumkin.

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda tarbiyalashning ko'rib chiqilgan pedagogik vositalaridan tashqari shaxs bilan tarbiyaviy o'zaro ta'sir ko'rsatishning ayrim umumiy usullari ham o'z aksini topadi. Ular qatoriga pedagogik faoliyatning yangi turlarini joriy etish, muomala ma'nosini o'zgartirish kabilarni kiritish mumkin. Biroq ularning mazmuni tarbiyalanuvchilarning ongiga ta'sir ko'rsatishdan iborat hamda ma'no jihatidan yuqorida ko'rib chiqilgan tarbiyalash metodlarini o'z ichiga oladi.

Tajribali o'qituvchi bir vaqtning o'zida psixologik tarbiyaviy ta'sir metodlaridan ham foydalanish yetarli darajada samara berishini biladi. Ta'kidlab o'tilganidek, o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan pedagogik vositalar o'quvchilarning ongiga yo'naltirilgan. Pedagogik tajribalarning ko'rsatishicha, og'zaki bo'lmagan ta'sir ko'rsatish metodlari (mimika, pantomimika, imo-ishora, holat, xatti-harakatlar, ko'zlarning ifodasi, ovoz intonatsiyasi), his-tuyg'uga yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatish metodlari (birgalikda qayg'urish, g'azablanish, xursand bo'lish) va oqilona ta'sir ko'rsatish metodlari (asosiy

vosita — ishontirish) juda samarali hisoblanadi. Shu bilan birga psixologik metodlar ham, pedagogik metodlar bilan bir vaqtda qo'llanilishi o'qituvchining o'quvchi shaxsiga tarbiyaviy ta'sir etishni kuchaytiradi.

Tarbiya texnologiyalarida foydalaniladigan, ko'rib chiqilgan metodlar uning masalalarini yanada to'liqroq hal etish uchun shart-sharoitlarni yaratgan holda, tarbiyalashning barcha shakllarida amalga oshiriladi. Biroq ularni tanlash, o'zlashtirish va amalga oshirishda ko'pgina omillarga, jumladan, milliy an'analar, urf-odatlar, pedagogikaga xos bo'lgan holatlarga e'tibor berish zarur.

Barcha pedagogik holatlarda mutlaqo "to'g'ri" bo'lgan tarbiyaviy metodlar mavjud bo'lmaydi. O'qituvchi tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun, odatda, muayyan vaqtga mo'ljallangan, o'zining pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatish strategiyasini yaratgan holda tarbiyaviy metodlar majmuasidan foydalanadi. Mohir o'qituvchi o'zining rang-barang tarbiyaviy metodlariga ega bo'ladi va muayyan bir holat uchun ularning muqobil variantlarini topib qo'llaydi. Tarbiyaviy metodlarni qo'llashning o'z texnikasi mavjud bo'lib, u o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. A.S.Makarenko aytganidek, "o'quvchilar o'qituvchining tarbiyachi sifatidagi ta'sirini, uning tashqi ko'rinishidan, boy ma'naviyatidan, notiqlik san'atidan, so'z intonatsiyasini mukammal o'z o'rnida qo'llay olishidan, yuz ifodasidan o'zlariga qabul qiladilar".

MAVZUNI O'ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Jamiyat taraqqiyotida tarbiyaning o'rnini Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev qanday izohlaydi?
2. Tarbiya qanday hodisa (ta'rifini keltiring)?
3. Tarbiyaning mohiyati va mazmuni, maqsadi nimalardan iborat?
4. O'qituvchining tarbiyachilik faoliyati o'zida nimalarni mujassamlashtiradi?
5. O'qituvchining tarbiyachilik qobiliyatiga zamin yaratuvchi jarayonlar nimalardan iborat?
6. O'qituvchi tarbiyachilik mahoratining tarkibiy qismlarini sanang.
7. Tarbiya jarayonida ixtiyoriylik nima?
8. O'z-o'zini anglash va tarbiyalash tushunchalariga ta'rif bering.
9. Pedagogik faoliyatda "Tarbiyaviy ishlar rejasi" haqida fikr – mulohazalaringizni bildiring.
10. "Komil inson tarbiyasi" tushunchasiga ta'rif bering?
11. Tarbiyaviy jarayonning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
12. Ta'lim muassasalarida tarbiyaning texnologiyaviyligi qanday natijalar beradi?
13. Tarbiyaviy texnologiyalarni modellashtirish nima?
14. Tarbiyaviy jarayonning bir-biri bilan bog'liq o'zaro jihatlari nimalardan iborat?
15. Tarbiyani samarali modellashtirishda harakatlantiruvchi holatlar holatlar haqida fikr bildiring.
16. Hozirgi kunda o'qituvchi – tarbiyachi zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalar nimalardan iborat?
17. Tarbiyaning o'ziga xos qonuniyatlarini ta'riflab bering.
18. Tarbiyaning uzluksizligi nimalarda aks etadi?
19. Yosh avlod tarbiyasida maqsadning aniqligi qanday belgilanadi?
20. Tarbiya mazmunini modellashtirish tushunchasini ta'riflang.
21. Tarbiyaviy texnologiyalarni qo'llashda pedagogik vosita va metodlarning ahamiyati nimalardan iborat?
22. Tarbiya ko'rganlik – pedagogikada qanday aniqlanadi?

TALABALARNING MUSTAQIL TAYYORGARLIKLARI UCHUN TOPSHIRIQLAR

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o'zingizni fikr - mulohazalaringizni bildirib, *"Mustaqil ish"* yozing:

1. *O'zbekistonda* barkamol avlod tarbiyasi haqida mulohazalar.
2. *Bo'lajak o'qituvchilarda* tarbiyachilik mahoratini shakllantirish metodikasi.
3. *Barkamol avlod* tarbiyasida o'qituvchining tarbiyaviy maqsadlarni to'g'ri tanlay *olishi.*
4. *Pedagogikada* tarbiyaviy texnologiyalarni moddellashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4312785.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent shahri, 2024-yil 1-fevral № O‘RQ – 901.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4623-son Qarori – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2020, 27-28-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-134-son Farmoni. https://lex.uz/docs/6008663.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: – O‘zbekiston: 2017.-488 b.
7. Abdullayev H. Yashil daftar hikmati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2000.
8. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, O‘zbekiston, 1992. –160 b.
9. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-qism. – Toshkent: Yozuvchi, 1996. – 216 b.
10. Pedagogikanazariyasivatarixi.1-qism:Pedagogikanazariyasi.(M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. – 380 b.
11. Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o‘quv qo‘llanma (L. I. Ruvinskiy tahriri ostida). – Toshkent: O‘qituvchi, 1991. – 376 b.
12. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. “Muloqot” jurnali, 1998-yil, 5-son.
13. Zagvyazinskiy V.I. Pedagogicheskoe tvorchestvo uchitelya. Biblioteka uchitelya i vospitatelya. – M.: Pedagogika, 1987. – 160 s.
14. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. – T.: FAN, 2007. – 223 b.
15. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T.: Istiqlol, 2003. – 298 b.
16. Ochilov M. Muallim qalb me’mori: Saylanma. –T.: O‘qituvchi, 2000.
17. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “Iqtisod–moliya”. 2009. – 240 b.
18. Педагогика. (Под ред. П.И. Пидкасистого).–М.: Педагогическое общество России, 2013.– 608 с.
19. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. – 380 b.
20. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.– T., 2001.
21. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – T., Moliya nashriyoti, 2003.

13-BOB.

O‘QITUVCHI PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Tayanch tushunchalar:

Zamonaviy axborot texnologiyalari; axborot resurslari; ilmiy - texnik taraqqiyot; modulli o'qitish; axborotlashtirish; gipermant va multimedia; ma'lumotlar bazasi; kompyuter texnologiyalari; imitatsiya; kommunikatsiya; bilimlar bazasi; ta'limda veb-saytlar; tashxis va monitoring; masofaviy o'qitish; modulli tizim; o'qituvchining axborot madaniyati; internet resurslari; partal; diagnostika va monitoring; internet tarmog'i; elektron pochta; videoroliklar; animatsiya; axborot-ta'lim resurslari; innovatsiya; zamonaviy axborot texnologiyalari; kompyuter vositalari; kommunikatsion axborot madaniyati.

13.1. PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va bunda o'qituvchilarning ko'nikma va malakalarini oshirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079 son Farmoni davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini, "elektron hukumat" tizimi hamda axborot tizimlarini jadal tatbiq etish, telekommunikatsiya infratuzilmasini va ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish to'g'risida"gi 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son Qarorlarining qabul qilinishi mazkur masalaga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

O'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash ta'lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o'qituvchilar mehnat faoliyatining o'zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarini takomillashtirishga, pedagogik tizimlarning tarkibiy o'zgarishiga samarali ta'sir etadi. Bu esa pedagogik jarayonlarni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishda o'ziga xos vazifalarni qo'yadi.

Pedagogik ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

- masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoa o'qituvchilar, kompyuter dasturchilari, tegishli mutaxassislarning birgalikda faoliyat olib borishini;
- o'qituvchilar o'rtasida vazifalarning bir maromda to'g'ri taqsimlanishini;
- ta'lim va tarbiya jarayonini yanada mukammal tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish monitoringini tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK FAOLIYATIDA:

1. ta'limning texnologik asosini zamon talablari darajasida rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayon yengillashadi;
2. dars jarayonini zamonaviy texnik vositalar asosida tashkil etish uchun maxsus ko'nikma va malakalar shakllantiriladi;
3. masofaviy kurslarning ochiqligi tufayli ularning sifatiga bo'lgan talablar va o'quv materiallarining sifatini nazorat qilishga ehtiyoj paydo bo'ladi;
4. ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyati takomillashadi, dars jarayonining samaradorligi o'qituvchidan o'quvchiga ko'chadi;
5. o'quv jarayonini tashkil etishda, o'quvchining tashkilotchiligi va shaxsiy ishtiroki ortadi;
6. zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida o'qituvchi pedagogik faoliyatida har bir o'quvchi bilan teskari aloqa vujudga kelishi ta'minlanadi.

35-chizma. Pedagogik faoliyatda zamonaviy texnologiyalar

Jamiyatning har bir a'zosi, o'zining kundalik faoliyatida, uzluksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qiladi. Modomiki shunday ekan, o'qituvchi ham o'z kasbiy va pedagogik mahoratini zamonaviy axborot texnologiyalari oqimi asosida oshirib borishi mumkin. Har bir o'qituvchi mehnat faoliyati jarayonida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishi uchun, avvalo, o'z axborot muhitini shakllantirishga zamin yaratishi kerak. Zamonaviy axborot texnologiyalari o'z muhitida axborot obyektlarini, ularning o'zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to'plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek, axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlashtiradi.

Hozirgi kunda o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning imkoniyatlari va talablarini inobatga olishi zarur. O'qituvchi tomonidan targ'ib etilayotgan ta'lim va tarbiya tizimi shaxsga yo'naltirilgan xarakterda bo'lishi, ya'ni shaxsning har xil xususiyatlari va sifatiga e'tibor qilgan holda tabaqalashtirilgan bo'lishi kerak.

Har qanday ta'lim va tarbiya tizimi ma'lum bir ijtimoiy, ilmiy-texnik, iqtisodiy, madaniy va, nihoyat, siyosiy muhitda shakllanadi va rivojlanadi. Bu muhitlarning eng ustuvori ijtimoiy-iqtisodiy omillardir. Ilmiy-texnik taraqqiyot, madaniy va siyosiy muhit ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni rivojlantirishi yoki sekinlashtirishi mumkin. Ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining asosiy vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi, chunki umumta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalari insonni iqtisodiyot, madaniyat, siyosiy jihatdan hayotda qizg'in faoliyat ko'rsatish uchun tayyorlaydi.

Shuning uchun ham ta'lim muassasalari o'qituvchisi ta'lim-tarbiya jarayonining tayanch bo'g'ini sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan bir qatorda hozirgi kunda umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ilmiy-texnik taraqqiyot o'zining ifodasini kechikib topmoqda. O'qituvchi va o'quvchilarning fikrlashi va qabul qilish faoliyatida yangi g'oyalar, yangi zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirish ma'lum bir vaqtni talab etadi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish, birinchi navbatda, ta'limning paradigmasini o'zgartiradi. Agar ta'lim tizimida o'qitish ustuvor sanalgan bo'lsa, hozirgi kunda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik o'qishga va o'rgatishga yo'naltirilgan. Shu sababdan ta'limning o'qituvchi-darslik-o'quvchi paradigmasi o'quvchi-darslik-o'qituvchi paradigmasi bilan o'rin almashmoqda. O'qituvchi endilikda yangi statusga ega bo'ladi, endi uning vazifasi o'quvchilarda mustaqil bilim olish imkoniyatlarini yaratish va ijodiy faoliyatlarini tashkil etish, bilimlarni mustaqil egallash va ularni amaliyotda qo'llashga o'rgatishdan iborat. O'qituvchi bunday maqsadlarda o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlashi kerakki, u o'quvchilarga nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan izlash, mustaqil egallash, o'zlarida shaxsiy nuqtayi nazarning shakllanishi, uni asoslashi va avvalgi egallangan bilimlardan yangilarini olishda foydalanish imkoniyatini yaratishi kerak. Bunday o'qitishni "rivojlantiruvchi" ham deb atash mumkin.

Bilimlarni o'zlashtirish fikrlashni rivojlantiruvchi muhim omil hisoblansa-da, bilimlarni har qanday o'zlashtirish yoki egallash o'quvchining fikrlashiga rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatmaydi. Buning uchun bilimlarni o'zlashtirishning faoliyat shakllarini faollashtirish lozim. Egallangan bilimlarni oddiygina qaytarish o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishda yetarli manba bo'lolmaydi. Faol bilish, mustaqil fikrlash faoliyati juda zarurdir. Bilimlarni mustaqil egallash faoliyati va olingan bilimlarni qo'llash jarayoni yangi bilimlarning shakllanishiga, o'quvchining samarali fikrlash manbasiga aylanadi.

Shu sababdan mamlakatimizda va jahonning rivojlangan davlatlarida ta'lim sohasini isloh qilish jarayonida pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi, zarur axborotlarni mustaqil izlab topish, muammoni qo'ya bilish va uning yechimini hal etish, olingan bilimlarni tanqidiy tahlil eta olish va ushbu bilimlar asosida yangi masalalarni yechishda qo'llash uchun yo'naltirilgan. Endilikda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zaruriyligi barchaga ayon bo'lmoqda.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish – bu o'quvchining yosh va shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga oluvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan o'quvchi shaxsini rivojlantirishda samarali foydalanuvchi o'qitishdir. Shunday qilib, shaxsga yo'naltirilgan o'qitishda o'qitishni tabaqalashtirish va individuallashtirish asosiy tamoyil sifatida qaraladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari shakl va mazmunining rang-barangligi – o'quvchining qiziqishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib taklif etilayotgan holatlardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta'lim tizimida ham o'z aksini topishi zarur. O'qituvchining har xil sathli o'qitishni zamonaviy axborot

texnologiyalari asosida tashkil etishi bunday muammoning yechimi bo'la oladi.

O'quv mashg'ulotlarini o'quvchilarning kundalik fanlar majmuasi va ular bo'yicha berilgan kundalik topshiriqlar majmuasi asosida belgilanishi, har bir o'tilgan mavzuni keyingi darsda so'rab baholanadigan qilib tashkil etilishi ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday holda o'quvchilar biron bir fanga o'zlarining asosiy diqqat e'tiborini to'liq qarata olmaydilar. Bunday notugalliklarni bartaraf etishda, modulli o'qitish eng yaxshi yechim hisoblanishi mumkin.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi – bu insonning turli sohalarda maqsadli mustaqil faoliyat asosida intellektual va axloqiy rivojlanishidir. Bunda uchta asosiy vazifaga e'tibor qaratiladi:

1. Ta'lim tizimini isloh etish.
2. Mustaqil faoliyat tamoyilini ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyili sifatida e'tirof etish.
3. Ta'lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish.

Zamonaviy insonning o'qish jarayoni faqat bog'cha, umumta'lim maktablari, akademik liseylar yoki kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari bilan tugamaydi. Inson butun umri davomida ta'lim olishi zarur, ya'ni ta'lim uzluksiz bo'lishi kerak. Demak, uzluksiz ta'lim – davr talabidir. Zero, bu muammo zamonaviy axborot texnologiyalariga bo'lgan ehtiyojni yanada shakllantirishi shubhasiz.

XXI asr – axborotlashtirish asrida ta'lim sohasini axborotlashtirish, har bir ta'lim muassasasidan:

- o'qitish va o'qish jarayonining;
- ta'lim muassasasi boshqarilishining;
- ta'lim muassasasi bo'linmalarining;
- ta'lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirilishini talab qiladi.

Hozirgi ta'lim muassasalarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish, ta'lim jarayonida bunday texnologiyalarni qo'llashning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri ekanligi pedagog olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Jumladan, U.Sh.Begimqulov ta'lim muassasalarida kompyuter axborot muhiti va hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajadagi axborot bazasini yaratish zarurligini, gipermatn va multimedia, o'qitishda imitatsiya, kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishni, zarur axborotlarni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilinadigan ma'lumotlar bazasini yaratishni taklif etadi. Shu boisdan, o'qituvchi kadrlarning zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida hamda o'qituvchilar pedagogik mahoratlarini hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirishga mo'ljallangan masofaviy malaka oshirish kurslarini tashkil etish tashabbusi bilan chiqadi.

U.Sh.Begimqulov zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida erishilayotgan yutuqlarni inobatga olib, kompyuter texnologiyasini quyidagi jihatlarda ta'lim muassasalari pedagogik faoliyati jarayonlarida qo'llash samarali bo'lishini ta'kidlaydi:

ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOGIK FAOLIYATIDA QO'LLASH

1. ta'lim muassasasi hujjatlarini kiritish va shakllantirish;
2. dars jadvallarini tuzish;
3. ta'lim muassasasi o'qituvchilari hamda o'quvchilar bo'yicha ma'lumotlar bankini yaratish va undan foydalanish;
4. o'qituvchilar faoliyatining monitoringini yaratish;
5. o'quv muassasasi faoliyatini tezkor boshqarishning interfaol telekonferensiya, virtual maslahatlar, muhim axborotlarni o'qituvchilarning jamoaviy yoki shaxsiy kompyuterlari displeyi ekraniga tashlash orqali tez tashkil etish;
6. ta'limni boshqarish yoxud boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan elektron pochta orqali bog'lanish sharoitini yaratish;
7. boshqa o'quv muassasalari, jumladan chet el muassasalari bilan ijodiy bog'lanishni tashkil etish;
8. internet tizimi yordamida axborot izlash va uni tanlash.

TA'LIM MUASSASALARI O'QUV FAOLIYATIDA ESA:

1. axborot kommunikatsion va axborot texnologiyalarini majburiy o'rganishni tashkil etish;
2. barcha fanlar bo'yicha o'rgatuvchi dasturlardan foydalanish;
3. kompyuterda yozilgan testlar yordamida o'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish;
4. kutubxonalar kataloglaridan foydalanish va ommabop kutubxonalardagi kitoblarga internet orqali buyurtma berish;
5. o'qituvchilarning metodik ishlanmalari, ma'ruza matnlari va boshqa o'quv qo'llanmalarini nashrga tayyorlash;
6. internet tizimidagi ma'lumotlardan foydalanib, o'tilgan mavzu asosida o'quvchilar tomonidan ma'ruzalar va referatlarni mustaqil tayyorlashga erishish;
7. o'quv va badiiy adabiyotlarning elektron matnlaridan foydalanish;
8. ko'nikma va malakalarni oshirishda maxsus ensiklopedik lug'atlardan foydalanish imkoniyatini yaratish lozim.

36-chizma. Zamonaviy axborot kompyuter texnologiyalarini ta'lim muassasalari pedagogik faoliyatida qo'llash

13.2. O'QITUVCHINING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISHI

Ta'lim-tarbiya jarayonida kompyuter texnologiyalari (kompyuter savodxonligi) dan foydalanishda, o'qituvchi uning mazmuniga ko'ra bir qancha vazifalarni bajarishi mumkin. Faol foydalanish imkoniyatiga ega kompyuter texnologiyalari quyidagi asosiy didaktik funksiyalarni bajaradi:

- multimedia texnologiyasini qo'llash evaziga o'quvchilarda fanlarga qiziqishni rivojlantiradi;
- bunda ta'limning interfaolligi tufayli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari faollashadi va o'quv materialini o'zlashtirish samaradorligi oshadi;
- real holatlarda namoyish qilinishi qiyin yoxud murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini berishi bilan muhim ahamiyatga ega;
- o'quv materiallarini o'zlashtirilishi faqat darajasiga ko'ra emas, balki o'quvchilar erishgan mantiqan qabul qilishlarining darajasiga ko'ra ham samarali hisoblanadi;
- masofadan turib ta'lim olishni faqat o'zlashtiruvchi o'quvchilar yoki internet ta'limi uchun tashkil etilmaydi, balki sababsiz dars qoldirgan o'quvchilar uchun ham tashkil etish imkoniyatini beradi;
- o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob berish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratadi;
- o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratadi.

Ma'lumki ta'lim mazmunini takomillashtirishning bosh xususiyatlaridan biri kompyuter bilan muloqot jarayonida uning doimiy murojaat qilinadigan "qo'llab-quvvatlovchi axborot"ini ko'paytirish, kompyuter axborot muhiti va hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajadagi axborot bazasining yaratilganligi, gipermatn va multimedia, o'qitishda immitatsiya, kommunikatsiya tizimlari qabul qilingan.

Ma'lumotlar bazasi deganda, axborotni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilish tushuniladi.

Bir qator axborotlarni an'anaviy qayta ishlash uchun ularni tayyorlashning standart shakllari mavjud bo'lib, ularga bibliografiya, statistik ma'lumotlar, referatlar kiradi. Ma'lumotlar bazasi axborot tarkibiga statistik, matnli, grafik va ko'rinishli axborotlarni cheksiz ko'p miqdorda va albatta, belgilangan shakllardagi ko'rinishlarini qabul qiladi.

Bilimlar bazasi *esa, yopiq tizimda, mazkur mavzu bo'yicha qo'shimcha axborotlarga ehtiyoj sezmagan holda va uning har bir elementi, mantiq jihatdan bog'langan boshqa elementlarga chiqa olishi bo'yicha tuzilmali axborotlashtirilgan tizimga ega bo'ladi.* Bunda ushbu bilimlar bazasiga kiritilmagan, ya'ni undan tashqi elementlarga murojaat qilinishiga imkon bo'lmaydi. Bilimlar bazasining birlamchi bibliografik o'xshashliklari sifatida turli ensiklopediyalar, lug'atlar xizmat qiladi.

O'quvchilar bilimi sifatlarini test savollari yordamida aniqlash va psixofiziologik rivojlanayotganligini tashxis qilish maqsadida kompyuter tizimiga eksport tizimi qo'shimcha kiritilgan bo'lib, bu tizim yordamida elektron tarmoq orqali bilimlarni baholash va bu masala bo'yicha yetarlicha natijalarni aniqlash mumkin.

Bunday dasturiy vositalardan, ta'limdagi holat va uning maqsadiga ko'ra, ba'zan o'quvchilarning ehtiyojlarini chuqurroq anglash zaruriyati nuqtayi nazaridan, ularning ma'lum fan sohasida bilimlarini tahlil qilish bo'yicha boshqa bir hollarda esa, o'qitishning psixologik tamoyillarini hisobga olish maqsadida keng foydalaniladi.

Kompyuter yordamida turli ilmiy axborotlar, o'quv materiallari bo'yicha axborotlarni tavsiya etishning boy imkoniyatlari, xususan ularga integrativ kurslarni kiritish, fanning tarixi va metodologiyasi bilan tanishish, turli fanlar bo'yicha ularning zamonaviy darajasiga oid bilimlar, madaniyat va ijtimoiy ongga dahldor bilimlarni kiritish, ta'lim mazmunini sezilarli o'zgartirish va keskin boyitishga yordam beradi, uni faollashtirish va rivojlantirishda muhim omil bo'ladi.

Kompyuter vositalari yordamida mustaqil ta'limni tashkil etish nuqtayi nazaridan tahlil etadigan bo'lsak, aksariyat uning interfaolligini, bevosita muloqot yordamida o'quvchi o'quv rejasida ko'rsatilgan, istalgan fan sohasida maxsus o'quv dasturlari yordamida bilim olish imkoniyatiga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Kompyuter vositasi, o'quvchi yoxud o'qituvchi murojaatlariga "javob beradi", ular bilan bemalol "muloqotga kirishadi", bular kompyuter ta'limi metodikasining asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi.

Ayniqsa, kompyuter texnologiyasining ma'lum mavzuni o'qitish bo'yicha yoki alohida didaktik masalalarni hal etishda foydalanish kabi holatlar ("kirib boruvchi" texnologiya nomi bilan mashhur), shuningdek, o'qitishda ma'lum texnologiyaning asosiy, aniqlovchi va eng muhim tavsiflovchisi sifatida kompyuterni qo'llanish holatida kompyuter va boshqa texnologiyalar orasidagi munosabatlar masalasi juda dolzarb sanaladi.

Kompyuterli o'qitish metodikasining boshqa bir muhim xususiyati, u o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida, jumladan yangi o'quv materialini tushuntirishda, qaytarishda, umumlashtirishda, o'quvchilarning ma'lum fan bo'yicha erishgan bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirishda namoyon bo'ladi. Bunday jarayonda o'qituvchi kompyuterning o'quvchi uchun turli vazifalarni, xususan, o'qituvchilik, ishchi qurol, ta'lim obyekti, o'zaro muloqot kabi funksiyalarni bajarishini bilishi kerak. Bunda o'qituvchining vazifasi dars jarayonida o'quvchilarni kompyuterdan to'g'ri foydalanishlarini nazorat qilishdan iborat:

KOMPYUTERNING O'QITUVCHILIK VAZIFASINI BAJARISHI QUYIDAGI JARAYONLARDA NAMOYON BO'LADI:

1. o'quv axborotining manbai (o'qituvchini yoki darslikni qisman, ba'zan to'la o'rnini bosuvchi sifatida);
2. ko'rsatmali qo'llanmalar (multimedia-telekommunikatsiya imkoniyati bo'lgan yangi sifat darajasida);
3. individual axborot fazosining yaratilganligi;
4. mashq qildirgich;
5. o'quvchi bilimi, ko'nikma va malakasi tashxisi va nazorati muhiti.

ISHCHI QUROL SIFATIDA KOMPYUTER QUYIDAGI VAZIFALARNI BAJARADI:

1. matnlarni tayyorlash va saqlash muhiti;
2. matnlar muharriri;
3. grafiklar quruvchi va ularning muharriri;
4. keng imkoniyatli hisoblash mashinasi (olingan natijalarni turli ko'rinishda ifoda etuvchi);
5. modellashtirish vositasi.

KOMPYUTERNING TA'LIM OBYEKTI SIFATIDAGI VOSITACHILIK VAZIFASI:

1. dasturlashtirish (vazifali jarayonlar bo'yicha kompyuter yordamida o'qitish);
2. dasturiy mahsulotlarni yaratish;
3. turli axborot muhitidan foydalanish.

37-chizma. O'qituvchining kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanishi.

Kompyuter va internet yordamida keng auditoriya bilan bog'lanish va uning natijasi sifatida o'zaro muloqotlashuvchi jamoa muhiti yaratiladi.

Kompyuter texnologiyalari asosida o'qituvchi o'zining kasbiy mahoratini oshirish uchun mustaqil faoliyatida quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

1. O'quv jarayonini bir butun guruh va bir butun fan (o'quv jarayonining grafigi, tashqi tashxis, joriy, oraliq va yakuniy nazorat va boshqalar) sifatida tashkil etish.

2. O‘quv jarayonida guruhni faollashtirish va muvofiqlashtirish, ish joylarini taqsimlash, ko‘rsatmalar, guruh ichida boshqarish va boshqalar.

3. O‘quvchilarni individual kuzatish, individual yordam ko‘rsatish, har bir o‘quvchi bilan individual muloqot olib borish. Kompyuter yordamida eshitish va ko‘rish imkoniyatlari, individual o‘qitishning eng samarali shakllariga erishiladi.

4. Axborot muhitini tashkil etuvchilari (shaxsiy kompyuter, o‘quv va namoyish qurilmalarining har xil turlari, dasturiy vositalar va tizimlar, o‘quv-metodik ko‘rsatma, qo‘llanmalar va boshqalar) ma’lum o‘quv kursining mazmuni bilan aniqlangan bog‘liqlik asosida tayyorlanadi.

Mustaqil ta’limni ta’minlashda o‘qituvchilar kompyuter texnologiyasi (kompyuter savodxonligi) mazmunining quyidagi tuzilmalari to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishlari kerak:

1. informatika va hisoblash texnikasining asosiy tushunchalarini bilishi;
2. kompyuter texnikasining funksional imkoniyatlarini bilishi;
3. zamonaviy operatsion tizimlarni bilish va ularning asosiy buyruqlarini o‘zlashtirishi;
4. zamonaviy dasturiy vositalar va operatsion tizimlarni (Norton Commander, Windows, ularning versiyalarini) bilish va ularning vazifalarini o‘zlashtirishi;
5. kamida bitta matn muharriri bilan tanish bo‘lishi;
6. algoritmlar, tillar va dasturlashtirish haqida dastlabki tushunchalarga ega bo‘lishi;
7. amaliy dasturlardan foydalanish to‘g‘risida dastlabki tajribaga ega bo‘lishi.

38-chizma. O‘qituvchining kompyuter texnologiyalari to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishlari.

Ta’limni jadallashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, bunda:

- o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar jahonning salmoqli ilmiy, metodik adabiyotlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;
- uzoq hududlarda joylashgan yetakchi ta’lim muassasalarining ilmiy laboratoriyalari bilan tanishadilar;
- turli mavzularda videokonferensiyalar tashkil qilish va amalga oshirishga erishiladi;
- o‘qituvchilarning o‘zaro seminar va treninglari o‘tkaziladi;
- masofaviy ta’lim, axborotlar almashinish va shunga o‘xshash juda ko‘p imkoniyatlarga ega bo‘ladilar.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim muassasalari tizimiga tatbiq etish o'quv jarayonida zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llashga hamda o'qituvchi pedagogik mahoratini namoyish etishga keng imkoniyatlar ochadi.

13.3. O'QITUVCHINING KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QUVCHILAR BILIMINI NAZORAT QILISHI

O'quvchilar bilimini baholashning kompyuter tizimi va o'zlashtirish monitoringini tashkil etish uchun, avvalo, zamonaviy ta'lim tizimida o'qitishning sifatini tashxis qilishga, ya'ni uning holatini aniqlamay turib, undagi jarayonlarni samarali boshqarishga, ta'limda ma'lum bir maqsadga erishishning iloji yo'qligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. O'quvchilarning yakunlovchi bilim va malakalarini ta'lim jarayonida turli mezonlar va yondashuvlarga tayanib aniqlash, bu jarayonlarda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash, ularning qo'yilgan didaktik talablarga haqiqatan mosligini nazorat qilish mumkin.

Bunda pedagogik tashxis, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish darajasini aniqlashni, nazorat qilishni, baholashni, yig'ish va statistik ma'lumotlarning tahlili hamda kelgusida bu jarayon rivojini bashorat qilishni o'z ichiga oladi. Metodik adabiyotlarda o'quvchilar o'zlashtirishlarining tashxisi, ular tomonidan erishilgan yutuqlarning darajasi sifatida qayd etish ekanligiga e'tiborni qaratsak, unda pedagogik tashxisning maqsadi, ta'lim jarayoni borishining tahlili va uni baholashni o'z vaqtida aniqlanishidan iborat bo'ladi.

Ma'lumki, ta'lim jarayonini bunday baholash, faqat o'quvchining o'zlashtirish darajasini belgilash bilan chegaralanib qolmay, o'qish jarayonini rag'batlantirishda muhim pedagogik vosita va ijobiy motiv uyg'otish bilan o'quvchi shaxsiga kuchli ta'sir etadi. Shu xilda o'quvchini obyektiv baholash asosida unda adekvat ravishda o'z-o'zini baholash imkoniyati tug'iladi va o'z muvaffaqiyatlariga tanqidiy munosabatning shakllanishi qayd etiladi. Shu nuqtayi nazardan o'quvchi bilim, ko'nikma va malakalarini baholash, ayniqsa, bilimlarini nazorat qilishning kompyuterlashtirilgan tizimi, zamonaviy axborot-pedagogik tizimlarida, ularda bilimni nazorat qilishni tashxisiy ahamiyati va haqqoniyligini samarali bajarish maqsadida tinmay izlanishlar va takomillashtirish ishlarini olib borish taqozo qilinadi. Mazkur masalaning yechimi o'qitishning maqsadga muvofiq va haqqoniy bo'lishida, iloji boricha aniq va asoslangan usul sifatida qayd qilingan.

Kompyuter texnologiyalari asosidagi o'quvchilar bilimini nazorat qilish faqat mutaxassis o'qituvchilar tomonidan emas, balki pedagogik jarayon ishtirokchilari tomonidan ham amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday texnologiyalarni

monitoring tizimida joriy qilishda pedagogik jarayon ishtirokchilarining axborotga, bilimga bo'lgan ehtiyoj va ishtiyoqlarini faollashtirishga erishish zarur.

O'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish kompyuter tizimining asosiy maqsadi, ular erishgan yutuqlar va muvaffaqiyatlarni aniqlash, uni takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish, shu asosda o'quvchilarga samarali ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu maqsad, birinchi navbatda, o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish sifati bilan, ya'ni o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash darajasi bilan bog'liq. Ikkinchi tomondan, kompyuter nazoratining asosiy maqsadini aniqlashtirish, o'zaro, shuningdek, o'z-o'zini nazorat qilish bo'yicha yondashuvlarni amalga oshirish hamda o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi bilan bog'liq. Uchinchidan esa, bu maqsad o'quvchilarda bajarilgan ish uchun javobgarlikning namoyon bo'lishi kabi shaxsning ijobiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Nazorat qilishning eng muhimi – **nazorat funksiyasi** bo'lib, o'quvchilar erishgan bilim, ko'nikma va malakalarning darajasini, ularning bilish faoliyati bo'yicha yondashuvlarini, bilimlarni o'zlashtirganlik ko'rsatkichlariga ko'ra ularning aqliy faoliyatlari rivojlanish darajasini aniqlashtirish imkoniyatini beradi.

Uning ikkinchi muhim vazifasi o'qitish bo'lib, u o'quvchi erishgan bilimlar, ko'nikma va malakalarni takomillashtiradi, uning tizimliligini nazorat qilishni ta'minlaydi. Bunday nazorat jarayonida o'quvchilar o'rganilayotgan materialni qaytarish va mustahkamlash bilan shug'ullanadilar. Bilimlarni kompyuter texnologiyalari asosida tekshirish, o'rganilayotgan materialdan asosiysini ajratib olish, shuningdek, erishilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarning mazmunini aniqlash imkoniyatini beradi.

O'QUVCHILAR BILIMINI KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI ORQALI O'QITUVCHI TOMONIDAN NAZORAT QILISHNING ASOSIY VOSITALARI:

1. nazorat funksiyasi;
2. o'qitish;
3. tashxis qilish;
4. bashorat etuvchi;
5. rivojlantiruvchi;
6. yo'naltiruvchi vazifa
7. tarbiya qilish

39-chizma. O'quvchilar bilimini kompyuter texnologiyalari orqali nazorat qilish

Nazorat qilishning uchinchi – tashxis qilish vazifasi, o'quvchilarning o'zlashtirayotgan bilim, ko'nikma va malakalaridagi kamchiliklar, yetishmovchiliklar, xatolar haqida, xatolarning soni hamda xarakteri haqida ma'lumot olishga yordam beradi. O'qitish jarayonida tashxis qilish orqali nazorat ma'lum darajada ta'limning samarali metodikasini tanlashga yordam berishi bilan muhim sanaladi.

Kompyuter texnologiyalari asosida o'qituvchi o'quvchilar bilimini nazorat qilishda, uning bashorat etuvchi vazifasidan, ya'ni, ta'lim-tarbiyaviy jarayon haqida, uning kelajagi, oldindan ko'ra bilish mumkin bo'lgan holatlari to'g'risida axborotlarni oladi.

U o'quv jarayonining ma'lum bosqichida o'quv materialining ma'lum qismi bo'yicha mo'ljallangan aniq bilim, ko'nikma va malakalar yetarlicha shakllangani, yoxud shakllanmaganligini bashorat qilish asosida nazorat olib borish imkoniyatini beradi. Ma'lum ilmiy bashorat bo'yicha erishilgan natijalar o'quvchilarning kelajakdagi faoliyatlari modelini yaratish uchun qo'llaniladi. Bunday bashorat o'qituvchining kelajakda o'qitishni rejalashtirish va amalga oshirish uchun aniq xulosalar olishiga yordam beradi.

Bilimlarni nazorat qilishning rivojlantiruvchi vazifasi, o'quvchilarning bilishga bo'lgan faolliklarini, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Kompyuter texnologiyalari asosida amalga oshiriluvchi nazorat jarayonida o'quvchilarda nutq, xotira, diqqat, tasavvur, iroda va fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishi yaqqol seziladi. Nazorat qilishning rivojlantiruvchi vazifasi, shaxsning qobiliyati, moyilligi, qiziqishlari va ehtiyojlari kabi xususiyatlarining shakllanishiga ta'sir qilishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, o'quvchilar erishayotgan bilimlarni nazorat qilishda uning yo'naltiruvchi vazifasi ham mavjud bo'lib, o'qituvchi uning mohiyatini, alohida o'quvchi yoki butun guruh tomonidan o'qitishning maqsadiga qay darajada erishilganligi, ya'ni o'quv materiali qanday miqdorda va qanchalik chuqur o'zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Bunday nazorat tufayli o'qituvchi yo'l qo'yilgan xatoliklarni va kamchiliklarni o'rganib, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishda qanday yondashuvlarga urg'u berish lozimligini anglab oladi. Nazoratning yo'naltiruvchi vazifasi o'quvchining turli xususiyatlari bo'yicha o'z–o'zini yaxshi bilishga, o'zi erishgan bilimlari, qobiliyati va imkoniyatlarini anglash va odilona baholashiga katta yordam beradi.

O'quvchilarni nazorat qilishning yana bir muhim vazifasi ularni tarbiya qilish bilan bog'liq bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarda o'qishga javobgarlikni, intizomni, saranjomlik va sarishtalikni, axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalaydi. Ularda mehnatga layoqatlilikni, g'urur va irodani hamda mehnatga nisbatan muntazam ko'nikmalarni shakllantiradi.

Bunday jihat haqqoniy bo'lishi uchun internetning ta'lim resurslari talabgorlarning so'rovlari va talablariga to'la javob bera oladigan darajada bo'lishi shart. Shuning uchun ham ekspertlar tomonidan ta'lim veb - saytlarining sifatlarini baholash kompyuter tashxisining haqqoniyligida muhim o'rin tutadi.

Ta'limda veb-saytlarning sifati ta'lim jarayonining axborot fazosining rivojlanishiga

ta'sir etuvchi eng muhim jihatlardan sanaladi. U mazkur fazoda ta'lim olishning sifatiga va mazkur tizimning madaniyatli tashkil etilganligi darajasiga bevosita ta'sir etadi.

Tashxis va monitoringni ta'limda joriy etishda mavjud metodologiyani qo'llash orqali axborotli o'qitish muhitining tashxisiy vazifasini aniqlash imkoniyati tug'iladi.

Ayni paytda o'quvchilar erishgan bilimlar, ko'nikma va malakalarni nazorat qilishning keng tarqalgan yo'li – testlar yordamida tekshirish bo'lib, u kompyuterning undan foydalanuvchi bilan o'tkazadigan muloqotiga asoslangan. Mazkur tizim "o'qituvchining texnik qayta qurollanishi, uning mexanizatsiyalashtirilgan mehnati" yoki "o'qituvchi mashina" degan shiorlar ostida o'qituvchining o'quvchi bilan individual ishlash jarayonini mujassamlashtiruvchi sifatida dunyoga kelgan. Ba'zan, o'quv jarayonida sun'iy intellekt tizimining qo'llanilishi baholash jarayonining murakkabligi, xususan, o'quvchini baholash uchun o'quvchiga katta miqdordagi axborotni qayta ishlashi, baholovchi va baholanuvchi orasidagi o'zaro ta'sir jarayonining murakkabligi bu masalani oson hal qilish imkoniyatini bermaydi. Xususan, o'quvchi bilim va malakasini kompyuterlashtirilgan holda nazorat qilish, talab qilinadigan bilimlar majmuasining sifatini aniqlash muammosini hal qilish lozimligini, busiz erishilgan bilimlarni baholash mezonlarini va ularning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash qobiliyatlarini belgilash mumkin emasligi oydin bo'ldi.

O'qituvchilar tomonidan o'quvchilar bilimi, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilishning asosiy maqsadi, ular erishgan yutuqlar va muvaffaqiyatlarni aniqlash, uni takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish va shu asosda o'quvchilarning faol ijodiy faoliyat ko'rsatishlari uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu maqsad, birinchi navbatda, o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish sifati bilan, ya'ni o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash darajasi bilan bog'liq. Ikkinchi tomondan, nazoratning asosiy maqsadini aniqlashtirish, o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilish bo'yicha yondashuvlarni o'rganish hamda o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi bilan bog'liq. Uchinchidan esa, bu maqsad o'quvchilarda bajarilgan ish uchun javobgarlikning namoyon bo'lishi kabi shaxsning ijobiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

O'quvchilarning bilimlarini intellektual nazorat qilish o'qituvchidan ziyraklikni, adolat bilan faoliyat yuritishni talab qiladi.

Bilimlarni intellektual baholashning turli metodlari mavjud bo'lib, ular ichida keng tarqalgan metodlar quyidagilar:

- og'zaki yo'l bilan tekshirish;
- yozma-grafik usulda tekshirish;
- amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish orqali tekshirish.

Bilimlarni og'zaki usul bilan tekshirish metodi asosan ikki qismdan: birinchisi, tekshirish savollari va vazifalari, ikkinchisi esa qo'yilgan savol va vazifalarga javoblar hamda talablardan tashkil topadi. Bunda savol va topshiriqlarning mazmunini belgilashda, o'rganilayotgan o'quv materiali mazmuni bilan ilgari o'tilgan materiallar mazmuni orasidagi bog'lanishni tahlil qilish, o'tilgan mavzuni nazorat qilishda esa yetakchi bilimlarni ajratish zarur bo'ladi.

Savol va berilgan topshiriqlarning sifati o'quvchilarning aqliy faoliyatlarining xarakteriga bog'liq bo'lganidan, ular o'quvchilarning xotirasini faollashtirish, fikrlash (solishtirish, umumlashtirish, yaxlitlash va hokazo) va nutqini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

Bilimlarni yozma – grafik usulda tekshirish, o'quvchilarning

- nazariy bilimlarini;
- o'quvchilarni masalalar va boshqa eksperimental topshiriqlarni bajarishda qo'llay olish ko'nikmasi va malakasini;
- o'quvchilarda berilgan masalalar bo'yicha shakllangan ko'nikmalarni tekshirishni nazarda tutadi.

Yozma – grafik usulda ishlarni tekshirish metodikasi quyidagi to'rt etapda bajariladi:

- nazoratni o'tkazishga tayyorgarlik;
- uni tashkil etish;
- o'tkazish;
- natijalarni tahlil qilish.

Nazoratni tashkil etishda nazorat etaplarining maqsadlarini belgilash, nazorat obyektlarining mazmunini tanlash, tekshirish vazifalarini tuzish lozim bo'ladi.

Bilimlarni amaliy – laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish orqali tekshirish. Ushbu usul yordamida, o'quvchilarning erishgan nazariy bilimlari asosida amaliy masalalarni yechish, turli jadvallardan, formulalardan, chizmalar va o'lchash asboblaridan unumli foydalanish ko'nikmasi va malakalari tekshiriladi.

Amalda masalalar yechishda o'quvchidan masalalarni yechishning algoritmini tuzish talab etiladi, chunki bunday tekshirishda o'quvchi faoliyatining mantiqiy ketma-ketligi to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi ma'lum bo'ladi.

Shunday qilib, o'qituvchi tomonidan tekshirishning turli metodlari qay darajada muvaffaqiyatli ekanligi tanlanganligi, o'quvchilar bilimlarini odilona baholashda muhim ko'rsatgichlardan sanaladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik jarayonlarni quyidagicha samarali tashkil etish mumkin:

- o'qituvchilar o'rtasida mehnat taqsimotini to'g'ri tashkil etish;
- masofaviy o'quv kurslari va elektron adabiyotlarning yaratuvchisi bo'lgan jamoaga o'qituvchilar, kompyuter dasturchilari va mutaxassislarining birlashuvi;
- pedagogik jarayonning tashkil qilinishini takomillashtirish va o'qituvchi faoliyati samaradorligining monitoringini olib borish.

Yangi zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qituvchilarning pedagogik mahorati oshirish uchun:

- ta'limda texnologik asoslarning tez rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan yangi kurslarni yaratish;
- o'quv kurslarini yaratish asosida o'qituvchilarning ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- masofaviy kurslarning ochiqligi tufayli ularning sifatiga bo'lgan talablarning va o'quv materiallari sifatini nazorat qilishga oid ehtiyojlarning qondirilishi;
- o'quv jarayonida o'quvchi faoliyatining ustuvor mavqe tutishini, o'quv jarayoni salmog'ining o'qituvchidan o'quvchiga ko'chishini ta'minlash;
- yangi kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish asosida, o'qituvchining har bir o'quvchi bilan teskari aloqasining vujudga kelishini amalga oshirish.

13.4. O'QITUVCHILARNING ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MALAKALARINI OSHIRISH

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri, bu ta'lim jarayonlariga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'lib, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev bu masalada "...Mamlakatimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ta'lim, ishlab chiqarish sohalariga kirib borishi kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishni talab etmoqda. Ta'lim oluvchilarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirish borasidagi muammolarni bartaraf etish uchun, talabalarning shaxsiy ta'lim traektoriyasini belgilashga doir shart-sharoitlar yaratish, ta'limni individuallashtirish, ta'lim jarayoniga o'qitishning zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini joriy etish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llagan holda o'quv jarayonini tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi"[1] deb ta'kidlaydi.

Bunday vazifalarni bajarish mamlakatimiz Prezidentining "2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-sonli "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorini amalga oshirishning bosqichlarida belgilab berilgan, uning kelajakdagi istiqboli Prezidentimiz tomonidan ilmiy asoslab berildi. Modelni amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Ilmiy texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda ta'lim

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son.

sohasiga ham zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda.

Nima uchun bugungi kunda ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etishning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati paydo bo'ldi? Birinchidan, o'qituvchini o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki bilimlarni egallash manbalaridan biriga aylanib qolayotganligini ta'kidlash mumkin.

Ikkinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ortib borayotganligi va ulardan o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek, o'quvchilarni kasbiy faoliyatga mukammal tayyorlash talablari ta'lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Ta'lim tizimini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri –axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'lim jarayonini tizimli integratsiyalash va uni boshqarish hisoblanadi. Islohotlar jarayonida bosh vazifa qilib, o'quv jarayonini tashkil etish, uning mazmunini tubdan yangilash, kompyuterlashgan muhitda o'qituvchilarning pedagogik faoliyati va o'quvchilarning bilim olish jarayonini tashkil etish bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-sonli "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini yaratish alohida ta'kidlab o'tilgan. Unda ta'limning zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida rivojlanib borishi belgilangan.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'limni intensivlashtirish va optimallashtirish imkoniyatlari masofaviy malaka oshirishni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchi kadrlari malakasini oshirishdan asosiy maqsad o'qituvchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib bilim, ko'nikma va malakalarini hamda pedagogik mahoratlarini shakllantirishdir.

Bugungi kunda pedagogik ta'lim samaradorligini oshirish bilan bevosita aloqador bo'lgan bir qator, hozirgacha yechimi topilmagan muammolar mavjud. Bu muammolar ta'lim sohasini axborotlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida o'qituvchi kadrlar tayyorlash, o'qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish malakasining yetarli emasligi bilan bog'liq.

Bu muammolarning muhim qirralaridan biri sifatida o'qituvchilarning o'zlarida ta'limni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlashga bo'lgan munosabatlarini ko'rsatish mumkin. Shu narsani ta'kidlash joizki, axborotlashtirish sharoitida o'qituvchining pedagogik mahorati hozirgi zamon talablari darajasida yanada oshadi.

Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu o'z navbatida o'qituvchilarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. O'quv jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o'qituvchini texnik vositalar tomonidan

siqib chiqishga emas, balki uning vazifalari, rolini o'zgartiradi, o'qituvchilik faoliyatini yanada serqirra kasbga aylantiradi.

Kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal sur'atda rivojlanishi endilikda hozirgi zamon o'qituvchisining pedagogik mahorati naqadar serqirra ekanligini namoyon etmoqda. Hozirgi kunda zamonaviy o'qituvchidan:

- o'quv kurslari dizayneri – o'quv kurslarining yaratuvchisi;
- fasiliteytor – o'qitish metodlari bo'yicha maslahatchi;
- tyutor – o'quv kurslarini interfaol taqdim etish bo'yicha mutaxassis;
- invigilator – ta'lim natijalarini nazorat qilish usullari bo'yicha mutaxassis bo'lishni talab etmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar, masofaviy oliy pedagogik ta'limni yangicha tashkil qilinishiga zamin yaratadi. Bunday ta'limda o'qituvchilar, kompyuter dasturchilari va mutaxassislari yordamida o'qituvchilarning yangicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish talab qilinadi. Masofaviy o'qitish kurslarini yaratishda dastlab:

- kurslarning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlash lozim.

O'qituvchi kadrlar pedagogik mahoratlarini oshirish maqsadida masofaviy malaka oshirishlari nuqtayi nazaridan kelib chiqib, tinglovchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalana olish bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan. "Ta'limda axborot texnologiyalari" kursi U.Sh.Begimqulov tomonidan taklif etilgan hamda mazmun va me'yor jihatidan mukammal ishlab chiqilgan bo'lib, o'qituvchilarning pedagogik mahoratlarini hozirgi zamon talablari asosida takomillashtiradi.

Shuningdek, kursning maqsadi – o'qituvchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari, kasbiy faoliyat va axborot jamiyati uchun zarur bo'lgan texnik vositalar va dasturiy ta'minot borasidagi bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi, zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida, shuningdek, kasbiy faoliyatlarida har qanday muammolarni yechishda qo'llashni o'rganadilar. Dastlab o'qituvchilar boshlang'ich tayyorgarlik darajasida quyidagi talablarni o'zlashtiradilar:

- matn muharririning asosiy obyektlari va ular ustida bajarilishi mumkin bo'lgan amallarni bilishi;
- matnni tahrirlash va formatlash uchun matn muharririni qo'llay olishi;
- grafik axborotlarni taqdim etishning rastr va vektor usullarini o'rinli qo'llay olishi;

- grafik muharrirning asosiy obyektlari va ular ustida bajarilishi mumkin bo'lgan amallarni bilishi;
- tasvirni yaratish va tahrirlash uchun grafik muharrirni qo'llay olishi;
- elektron jadvallarning imkoniyat va vazifalarini tushungan holda ishlata olishi;
- diagrammalar yaratishni bilishi;
- elektron jadvallarni masalalar yechishda qo'llashi;
- ma'lumotlar bazasining imkoniyati va vazifalarini tavsiflashi;
- ma'lumotlar bazasining turlarini tavsiflashi;
- ma'lumotlar bazasining asosiy obyektlari va ular ustida bajarilishi mumkin bo'lgan amallarni bilishi;
- oddiy ma'lumotlar bazasini yarata olishi;
- yozuvlarni saralash va qidirishni amalga oshirishi.

Kursning modul tuzilishini quyidagilardan iborat etib belgilash mumkin:

- Ta'limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari.
- Pedagogik dasturiy vositalar.
- Elektron o'quv materiallarini yaratish texnologiyalari.
- O'qitishning zamonaviy texnik vositalari.

Bunda o'qituvchilar o'z pedagogik mahoratlarini quyidagi modullar mazmunini o'zlashtirgan holda boyitib boradilar:

1. Ta'limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haqida tushuncha, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari, ularni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari, shaxsning ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishida zamonaviy axborot texnologiyalari va pedagogik dasturiy vositalar, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini yaratish, ularni o'quv-tarbiya jarayonida qo'llashning didaktik asoslari, o'quv maqsadli elektron vositalarni yaratish va foydalanishdagi pedagogik-ergonomik talablar va ularning sifatini baholash, o'quv-tarbiya jarayonining axborot-metodik ta'minotini va ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv tizimini avtomatlashtirish va uning istiqbollari, elektron-o'quv materiallari bazasining tuzilmasi va tarkibi, ta'limiy internet resurslar va ulardan o'quv jarayonida foydalanish, elektron o'quv-metodik materiallar majmuasi, uning tuzilmasi va tarkibi, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta'limiy maqsadlarda samarali va qulay foydalanishning pedagogik-ergonomik shart sharoitlari, informatika va axborot texnologiyalari xonasiga qo'yiladigan talablar va unda ta'lim jarayonini tashkil etishning metodik jihatlari, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta'lim jarayonida foydalanishning istiqbolli yo'nalishlari va kelajagi.

2. Pedagogik dasturiy vositalar. Asosiy tushunchalar: pedagogik dasturiy vositalarning umumiy ta'rifi, namoyish etuvchi dasturlar, nazorat qiluvchi dasturlar, o'rgatuvchi dasturlar, dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlari, ekspert-o'rgatuvchi tizimlar, avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi tizimlar, foydalanuvchi va pedagogik-dasturiy vositalarning o'zaro hamkorligini tashkil etish metodlari. Pedagogik-dasturiy vositalar yaratish tamoyillari: talabalarning psixofiziologik xususiyatlarini va kompyuterning texnik imkoniyatlarini hisobga olish, o'qitish strategiyasining ustuvorligi; pedagogik, psixologik va funksional to'lalik, motivatsiyali faollashtirishning ta'minlanganligi, qo'llashdagi universallik va modul tuzilishga egalik. Pedagogik-dasturiy vositalar ssenariyasini yaratish texnologiyasi: foydalanish maqsadini aniqlash, o'quv materiallarini tahlil qilish va tanlash, uni strukturalash va formallashtirish, pedagogik ssenariyni taqdim etish. Pedagogik-dasturiy vositalar asosida o'quv faoliyatini boshqarish. Dasturlash tillarida pedagogik-dasturiy vositalar yaratish texnologiyasi. Avtomatlashgan o'rgatuvchi tizimlar. O'qitish uchun axborot resurslarining integratsiyasi: didaktik vositalarning uyg'unligi, an'anaviy va pedagogik-dasturiy vositalardan kompleks foydalanish. Pedagogik-dasturiy vositalarni yaratishning texnik vositalari. "Lektor" tizimi va undan pedagogik-dasturiy vositalarni yaratishda foydalanish. Pedagogik-dasturiy vositalar bo'yicha praktikum.

3. Elektron o'quv materiallarini yaratish texnologiyalari. Elektron o'quv materiallari va ularning turlari: elektron darslik, elektron o'quv qo'llanmasi, elektron ma'lumotnoma, elektron majmua, elektron katalog va boshqalar. Elektron o'quv materiallarini yaratish bosqichlari va texnologiyasi; elektron o'quv materiallarini yaratish prinsiplari; HTML va JavaScript asosida elektron o'quv materiallarini yaratish. Zamonaviy dasturlash tillari asosida elektron o'quv materiallarini yaratish (Delphi, Visual Basic, C++ va boshqalar). PowerPoint va FrontPage muhitida ilovalar yaratish. Hypermethod muhitida multimediali ilovalar va elektron o'quv materiallarini yaratish. O'quv materiallariga ovoz berish texnologiyasi va uning vositalari.

4. O'qitishning zamonaviy texnik vositalari. Audiovizual axborot: manbalari, o'zgartiruvchilar, tashuvchilari. Audiovizual madaniyat: tarixi, konsepsiyalari, tuzilmasi, faoliyat ko'rsatishi. Inson tomonidan audiovizual axborotni qabul qilishning psixofiziologik asoslari. Audiovizual texnologiyalar: rasm va rasmga olish, optik proeksiya (statik va dinamik) va uning vositalari, tovush yozish (analogli va raqamli) va uning vositalari, televidenie va videoyozuv (analogli va raqamli) va uning vositalari, kompyuterlar va multimediali vositalar. O'qitishning audiovizual texnologiyalari: tele va videokonferensiyalar, ularni tashkil etish, audio, video va kompyuterli o'quv qo'llanmalari, audio, video va kompyuterli materiallarning banki, audio, video va kompyuterli o'quv qo'llanmalarini yaratishning didaktik prinsiplari. O'qitishning interaktiv texnologiyalari.

Mazkur kurs yakunida o'qituvchilar zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llay olish bo'yicha pedagogik mahoratlarini oshiradilar, bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar ***(8-ilova).***

O'qituvchilar masofaviy o'qitish kurslarini yaratishda ta'lim oluvchilar motivatsiyasi, o'quv maqsadlarining qo'yilishi, o'quv materiallarini qabul qilishga sharoitlar yaratish,

o'quv materiallarini yetkazish, teskari aloqa, baholash kabi talablarni inobatga olishlari zarur.

Taklif etilayotgan "Ta'limda axborot texnologiyalari" kursini malaka oshirish tizimida joriy etilishi o'qituvchi kadrlarning innovatsion bilimlarni egallashlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlardan mo'ljallangan vazifalarni amalga oshirish zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni hamda o'quvchilarda omilkorlikni shakllantirish maqsadida internet - resurslardan keng foydalanishni ko'zda tutadi, bu esa o'z navbatida o'qituvchi kasbiy madaniyatining bir qismi va umumta'lim maktablarida ta'lim muhitini tegishli o'zgarishi sifatida o'qituvchilarning yuqori saviyadagi axborot madaniyatiga ega bo'lishini ta'minlaydi.

13.5. O'QITUVCHILARNING "KOMMUNIKATSION AXBOROT MADANIYATI" TUSHUNCHASINI O'ZLASHTIRISHI

O'qituvchining "kommunikatsion axborot madaniyati" pedagogik mahoratni mukammal egallab borishning muhim bir yo'nalishi sifatida tan olinmoqda. O'qituvchining "kommunikatsion axborot madaniyati" quyidagi mezonlar asosida shakllanib boradi:

- o'z kasbiy faoliyatiga tegishli axborotlarni olish, uni qayta ishlash va foydalanish metodlari va usullarini o'zlashtirishi;
- atrof-olamdagi axborot jarayonlari haqida bilimlar va tasavvurlarni aks ettiruvchi o'qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtiruvchi sifatlar yig'indisi, axborot vositalariga ega bo'lish, axborot madaniyati bilan bog'liq axloqiy - etik va kasbiy mahorat me'yorlari tizimini o'zlashtirish, shuningdek, kompyuter savodxonligiga ega bo'lishi;
- kompyuter savodxonligi va axborotni izlash malakasi, axborotdan foydalanish hamda baholash, kompyuter kommunikatsiyasi texnologiyalariga ega bo'lish, pedagogik faoliyatning barcha sohalarida axborot texnologiyalari imkoniyatlarini egallash va foydalanishdan iborat elektron ta'lim muhiti.

Elektron ta'lim muhiti – ma'lum texnik vositalar yordamida ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatish texnologiyalari. Tahlillarga ko'ra, elektron ta'lim muhiti – bu ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash bilan shug'ullanadigan odamlar mehnatini samarali tashkil etish usullarini o'rganadigan o'zaro bog'liq ilmiy, texnik va o'rganilayotgan fanlari majmuasi; hisoblash va kompyuter texnologiyalari, elektron dasturiy vositalarni ishlatish va o'quvchilarga ishlab chiqarish uskunalari bilan ishlashni tashkil qilish va ular bilan ishlash usullari. Elektron ta'lim muhiti ta'riflarini tahlil qilish – bu axborotni yig'ish,

saqlash, qayta ishlash, uzatish va taqdim etish uchun vositalar va usullar to'plami degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Zamonaviy axborot resurslari elektron ta'lim muhitida o'qituvchiga o'zining kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi. Bunday sharoitda o'qituvchi:

- ta'lim beruvchi sifatida – mashg'ulotlar o'tkazadi, dars jarayonini o'quv-metodik jihatdan to'g'ri va samarali tashkil etilishini ta'minlaydi;
- maslahatchi sifatida – bilish jarayonini boshqaradi, guruh bo'lib maslahat va kommunikativ mashg'ulotlarni olib boradi, o'rganilayotgan mavzuning har xil masalalari bo'yicha o'quvchilarga yakka tartibda maslahatlar beradi;
- menedjer sifatida – mashg'ulotlar o'tkazilishini boshqaradi, to'la qonli maqsadga erishilishini nazorat qiladi (testlar, imtihonlar va shu kabilar).

Hozirgi paytda o'qituvchining kommunikatsion axborot madaniyatini shakllantirishning faqatgina birinchi, boshlang'ich bosqichi – zamonaviy kompyuter savodxonligini shakllantirish bosqichi kuzatiladi. Umumta'lim maktablarini axborot-kompyuter vositalari bilan ta'minlash o'qituvchining kompyuter savodxonligini shakllantirish uchun sharoit yaratadi. Bilish jarayonini tashkil qilishning o'zgartirilishi, kompyuterda axborot mahsulotlarini, o'quv dasturlarini yaratish malakalarini shakllantirish – o'qituvchining axborot omilkorligini rivojlantirish yo'lidagi keyingi qadam hisoblanadi.

O'qituvchining kommunikatsion axborot madaniyati axborot modelini qurish malakasini nazarda tutadi.

Modellashtirishni real olamdagi hodisalar, jarayonlar va obyektlarni tadqiq qilishning universal usuli sifatida qarab, axborot modelini qurish metodiga ega bo'lgan o'qituvchi o'quvchini tadqiqot ishlariga jalb etadi, uning modellashtiriladigan holatlarda faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratadi.

O'qituvchining axborotlarni modellashtirish metodlariga ega ekanligini ko'rsatuvchi yana boshqa variantlardan biri – bu darsda multimediali prezentatsiyalarni yarata olishi va ulardan foydalana bilishidir. Ular o'quv materialini algoritmik tartibda mukammal ma'lumotlar bilan to'ldirib, yorqin tayanch obrazlar tizimi sifatida ifodalash imkoniyatini beradi.

Shu o'rinda Microsoft Offisedan foydalanish o'qituvchilarga o'zining multimedia ma'ruzalarini yaratish, topshiriqlar, testlar va boshqa turli xil materiallarni yaratish imkoniyatini berishni ta'kidlab o'tamiz. Kompyuterda ma'ruza o'qish o'qituvchi uchun yangi ish quroliga aylanmoqda: namoyish qilish vositalari (slaydlar, videoroliklar, animatsiyalar) o'quvchilarda obrazli tasavvurlarni va ular asosida tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi.

O'quv-metodik qo'llanmada mavjud bo'lgan o'quv-namoyish materiallari kolleksiyasidan foydalanib, o'qituvchi turli xil axborot resurslaridan faol material izlashni boshlaydi, bu jarayonga o'quvchilarni ham jalb etadi. Bunday hamkorlikdagi faoliyat o'quvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantiribgina qolmay, balki o'quvchi va o'qituvchini yagona loyiha ustida ishlovchi maslakdoshlar sifatida birlashtiradi.

Zamonaviy o'qitishni internet resurslaridan foydalanishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Internet tarmog'i ta'lim xizmatlarining juda katta potensialiga ega. Elektron pochta, izlash tizimlari, elektron konferensiyalar, elektron olimpiadalar va viktorinalar zamonaviy ta'limning tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu ta'lim xizmatlaridan, ham darsda, ham darsdan tashqari faoliyatda foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Internet ta'lim resurslaridan foydalanish o'qituvchini ta'lim jarayonining menedjeriga aylanishga undaydi.

Pedagogik mahorat tarkibiy tuzilishida kommunikatsion axborot madaniyatining imkoniyatlarini oshirish zaruriyati quyidagi omillar bilan aniqlanadi:

- axborot hajmining keskin ortishi;
- zamonaviy fan integratsiyasi va differensiatsiyasi tufayli yuzaga kelgan axborot tarqalishining muqarrarligi;
- ilmiy va ijtimoiy paradigmalar almashinuvi tufayli bilimlarning juda tez eskirishi.

O'qituvchilarning kasbiy kommunikatsion axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning ajralmas qismi ekanligi shubhasizdir.

Kompyuterda ishlashning oddiy ko'nikmalari o'qituvchining kasbiy axborot faoliyatini takomillashtirishdagi birinchi qadamdir.

O'qituvchining kommunikatsion axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish ta'lim muassasasi ma'muriyati, xususan, direktorning axborotlashtirish ishlari bo'yicha muovini, munisipial metodik xizmatlar, malaka oshirish institutlari zimmasiga yuklatiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlari darajasidagi faoliyatlar ta'lim tashkilotini axborotlashtirish dasturi asosida qurilgan bo'lishi kerak.

Axborot texnologiyalarini faol tatbiq qilish orqali ta'lim sifatini oshirish bunday dasturning maqsadi hisoblanadi.

Quyidagi masalalarni hal qilish orqali bu maqsadga erishish mumkin:

- metodik ishlar samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim muassasalarining yagona axborot muhitini yaratish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va ilmiy-metodik hujjatlarda axborot oqimini aniq boshqarish;
- uzluksiz kasbiy ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish va o'quv jarayonini faollashtirish;
- o'qituvchilarda va o'quvchilarda kommunikatsion axborot madaniyatini shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Bunday dasturni amalga oshirish o'quv jarayonini samarali tashkil qilish, butun jamoa va har bir ishtirokchining o'quv jaryonidagi faoliyati natijalarini tahlil qilish, axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish samaradorligi darajasini aniqlash imkoniyatini beradi.

Dasturga axborot texnologiyalarini o'zlashtirish va tatbiq etishning barcha bosqichlarida o'qituvchilarni nazariy va amaliy jihatdan tayyorlashga qaratilgan faoliyatini tashkil qilishda, quyidagi ta'lim internet-resurslaridan foydalanish mumkin: O'zbekiston Respublikasi pedagogik ta'lim muassasalarining yagona axborot makoni –

www.pedagog.uz portali bo'lib, hozirgi kunda www.pedagog.uz portali quyidagi axborot-ta'lim resurslaridan tashkil topgan:

WWW.PEDAGOG.UZ PORTALINING AXBOROT-TA'LIM RESURSLARI

1. yagona elektron ta'limiy va ilmiy resurslar;
2. yagona bitiruvchilar bazasi va kadrlarga elektron buyurtma berish tizimi;
3. masofaviy ta'lim resurslari;
4. masofaviy malaka oshirish kurslari;
5. tarbiyaga oid elektron resurslar;
6. elektron o'quv-metodik majmualar;
7. pedagogika bo'yicha Ixtisoslashgan himoya kengashlari faoliyati ochiq elektron tizimi;
8. yosh o'qituvchilarni metodik qo'llash elektron tizimi;
9. elektron konferensiya-forum;
10. respublikada pedagogik ta'limning elektron targ'ibot tizimi rasmiy sayti.

40-chizma. www.pedagog.uz portali quyidagi axborot ta'lim resurslari

Ma'lumki, axborot eskirishi, ayniqsa, shiddat bilan eskirish xususiyatiga ega, demak, o'qituvchi uzluksiz ta'lim olishi, ijod qilishi (mustaqil va maxsus tashkil etilgan) zarur.

Ta'limni modernizatsiyalash sharoitida uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida o'qituvchi kadrlarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda.

O'qituvchi zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'z-o'zini takomillashtirishida masofaviy kurslar bebaho yordam ko'rsatadi. Internet orqali tayyorgarlik mavzusini tanlash, vaqtni tejash, o'qitish samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi. O'zini, o'z tajribasini ochib berish qobiliyati o'qituvchi kommunikatsion axborot madaniyatining muhim jihati hisoblanadi.

Ba'zan o'qituvchilar ma'muriyatning ishchi dasturlarni, ish yuzasidan hisobotlarini, ish yuritishning zamonaviy talablaridan kelib chiqib kompyuterda rasmiylashtirishni talab qilishini to'g'ri qabul qilmaydilar. Biroq, hujjatlarni ham texnik, ham dasturiy zamonaviy vositalardan foydalanib tayyorlashning ko'nikma va malakalari aniqrog'i, istagi o'qituvchiga innovatsiyalarga tayyor turadigan mahoratli o'qituvchi sifatida tavsifnoma beradi.

O'quv faoliyatini diagnostika va monitoring qilish ishlarida kompyuterdan foydalanish, shuningdek, o'qituvchining axborot kommunikatsion texnologiyalarni bilish saviyasini tavsiflaydi. Kompyuterdan foydalanishda o'quvchilarning hamda o'qituvchining sog'lig'ini saqlash, me'yorlariga rioya qilish o'qituvchi kommunikatsion axborot madaniyatining ajralmas qismidir.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, yangi axborot texnologiyalarining tatbiq qilinishi o'qitishning an'anaviy texnologiyalarini inkor qilmaydi.

Kompyuter vositalari va axborot texnologiyalari didaktik jarayonga ulkan ta'sir ko'rsatadi, uning faolligini muntazam oshirib boradi, biroq shu bilan birga o'quv jarayonida axborot-kompyuter vositalaridan foydalanishda pedagogik maqsadga muvofiqlik prinsipiga amal qilish talab etiladi.

? MAVZUNI O'ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish to'g'risida qanday Qarorlar qabul qilingan?
2. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning samaralari va imkoniyatlari qanday?
3. O'qituvchilarning pedagogik faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatini ta'riflang.
4. Hozir kunda jamiyatning axborotlashuvi davrida o'qituvchining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Pedagogikada shaxsga yo'naltirilgan o'qitish nima?
6. Kompyuter texnologiyalari qanday didaktik funksiyalarni bajaradi?
7. Pedagogik faoliyatda kompyuter texnikasining ma'lumotlar bazasi deganda nima tushuniladi?
8. Kompyuterning o'qituvchilik vazifasini bajarishi qaysi holatlarda namoyon bo'ladi?
9. Ta'limda kompyuter ishchi qurol sifatida qanday vazifalarni bajaradi?
10. Kompyuter texnologiyalari yordamida o'qituvchilarning kasbiy mahoratini qanday oshirib borish mumkin?
11. O'qituvchilar kompyuter texnologiyasi tuzilmalari to'g'risida qanday ma'lumotga ega bo'lishlari kerak?
12. O'quvchilar bilimlarini intellektual baholash metodlari nima?
13. O'quvchilar bilimini kompyuter texnologiyalari asosida nazorat qilish vositalarini sanang.
14. O'qituvchilarning axborot madaniyatini shakllantirish nima?
15. O'qituvchining "kommunikatsion axborot madaniyati" pedagogik mahoratni mukammal egallab borishida qanday rol o'ynaydi?
16. O'qituvchi faoliyatida elektron ta'lim muhiti qanday ahamiyatga ega?

Talabalarning mustaqil tayyorgarliklari uchun topshiriqlar

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o'zingizning fikr - mulohazalaringizni bildirib, "Mustaqil ish" yozing:

1. Pedagogik ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish.
2. Dars jarayonida o'qituvchining kompyuter texnologiyalaridan foydalanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-sonli "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi PF-5099-son "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4312785.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent shahri, 2024-yil 1-fevral № O'RQ – 901.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4623-son Qarori – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2020, 27-28-bet.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" gi PF-134-son Farmoni. https://lex.uz/docs/6008663.
10. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent. – O'zbekiston, 2017.– 488 b.
11. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlash-tirishni tashkil etish

va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. //Ped. fanlari dokt. ilmiy daraj. uchun diss. – T.: 2007.– 305 b.
12. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.
13. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: "Iqtisod–moliya", 2009. – 240 b.
14. Pedagogika. (Pod red. P.I. Pidkasistogo).– M.: Pedagogicheskoe obshestvo Rossii, 2013.- 608 s.
15. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. – 380 b.
16. Rachenko I.P. Diagnostika razvitiya pedagogicheskogo tvorchestva uchitelya. – Pyatigorsk, 1992.- 196 s.
17. Tursunov I. E. Elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.
18. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T.: Fan, 2009. – 168 b.

14-BOB.

O'QITUVCHILAR PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA KASBIY REFLEKSIYANING AHAMIYATI

Tayanch tushunchalar:

O'qituvchining kasbiy refleksiyasi; fikrlash va analitik qobiliyatlar; appersepsiya; emotsional reaksiyalar; kognitiv tasavvurlar; intellektual refleksiya; fikrlash; o'z-o'zini kuzatish; ekzistensial falsafa; kooperativ refleksiya; transsendental va mantiqiy refleksiya; kommunikativ refleksiya; pedagogik intuitsiya; ekstrapolyatsiya; individual refleksiya; pedagogik refleksiya; kasbiy refleksiya; inson psixikasi; interiorizatsiya; o'qituvchining haqiqiy "Men"i va ideal "Men"i; refleksiv xossalar; pedagogik tashxislash; diagnostika; refleksiv jarayonlar; diagnostik funksiya; o'qituvchining kasbiy professiogrammasi; o'qituvchining ijtimoiy-psixologik shakllanishi; indikatorlik vazifa; professional refleksiya; refleksiv ko'nikmalar; refleksiyalanuvchi; refleksiv kompetentlik.

14.1. O'QITUVCHI KASBIY FAOLIYATIDA REFLEKSIYANING QO'LLANILISHI

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga kirishildi. Belgilangan maqsadlar muvaffaqiyatli amalga oshirilib, hozirgi kunda ta'lim sohasida yuksak samaradorliklarga erishilmoqda. Bunda o'qituvchilar bilan birga keng jamoatchilik, butun xalqimizning fidokorona mehnatini e'tirof etib, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlaydi: "hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o'qituvchilarimizning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir"[1].

So'nggi yillarda pedagog va psixolog olimlar o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida fikrlash hamda analitik qobiliyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlamoqdalar. Bu qobiliyatlar asosini o'qituvchilarning kasbiy refleksiyasi tashkil etadi. Olimlarning fikrlariga ko'ra, kasbiy bilimlar fanga oid, uslubiy va psixologik bilimlarning majmuini o'zida mujassamlashtiradi. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarning xususiyati ularning "shaxsiy mulkidir va mazmundorligi bilan ta'riflanadi, kasbiy refleksiya asosida pedagogning faoliyatga tayyorgarligi "shunchaki kitobdan auditoriyaga bilimlarni uzatilmasdan, balki o'z bilimi bilan olamga o'zining qarashlarini ham bayon etish, bilimlarini insoniylashtirish, jonlantirish"da namoyon bo'ladi[2].

Pedagogik adabiyotlar tahlili bizga kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning bo'lajak o'qituvchilarda nazariy bilimlarni shakllantirish lozimligini ta'kidlash imkoniyatini berdi. Ammo nazariy bilimlar refleksiv faoliyatni amalga oshirilganidagina o'qituvchining bo'lajak faoliyati vositasiga aylanadi. Refleksiv faoliyatning muhim xususiyati sifatida faoliyatning maqsadga yo'nalganligi sanaladi va uning samaradorligini oshiradi. Maqsadsiz faoliyat ikkilamchi amalga oshirishga ega bo'lmaydi, chunki u vaziyatga xos bo'ladi, lekin barqaror bo'lmaydi va samarali harakatlar bilan mustahkamlanmaydi.

Refleksiya (lot. "reflexsio" – orqaga qaytish) – "har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o'z xatti - harakatlari va ularning jamiyatdagi qonuniyatlarni anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir; inson ma'naviy dunyosining o'ziga xos yashirin hislatlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir"[3].

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz" kitobi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. 14-б.

[2] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент. –Ўзбекистон. –2009. – 176 б.

[3] Қаранг: Философская энциклопедия. – М.: Советская энциклопедия. 1967. – 4-т. 499 б.

Akademik R.X.Djurayev rahbarligida nashr etilgan "Pedagogik atamalar lug'atida" pedagogik refleksiyaga quyidagi ta'riflar berilgan: **Refleksiya** – bu:

a) fikr-mulohaza qilish, o'z-o'zini nazoratga olish;
b) o'zining shaxsiy harakatlari va ularning fikrlashga yo'naltirilgan inson faoliyatining nazariy shakli;
d) o'z ruhiy holati haqida o'ylash, xayol surish, fikr yuritish, uni tahlil qilishga moyillik[1].

Ilk bor refleksiya tushunchasi qadimgi Yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o'z ongida kechayotgan mulohazalari haqida, o'zi fikr yuritishi jarayoni, o'z fikrlari mazmunini tahlil qilishga e'tiborini jalb qilishini anglatgan (Dekart). Sokrat, Platon, Lokk va boshqa Yunon faylasuflari refleksiyani insonning o'z-o'zini bilishga, nimalarga qodir ekanligini e'tirof etishga qaratilgan faoliyati ekanligini ta'kidlashadi. Kant, Gegel, Fixte, Shelling kabi Yevropa faylasuflari esa refleksiyaga insonning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosi sifatida qarashganlar. Leybnis konsepsiyasiga muvofiq refleksiya insonning appersepsiyaga (idrokning inson o'tmishidagi tajribasiga va individual xususiyatlariga bog'liqligi) qodirlik xususiyati sifatida tilga olinadi[2].

Bugungi zamonaviy falsafada refleksiya nazariy va amaliy jihatdan farqlanadi. Birinchisi, inson tomonidan tushunchalarning rivojlanish jarayoni, yagona tushuncha doirasida bir ta'rifdan boshqasiga o'tish imkoniyatini beradigan metod sifatida; ikkinchisi esa, individual harakat yoki fikrni tushuncha bilan nisbatlash jarayoni, bunda nisbatlash o'lchovi ustidan nazorat ta'minlanishi[3] kerak.

Hozirgi kunda falsafiy kategoriya sifatida o'rganilayotgan refleksiya psixologiya, sosiologiya, sinergetika, mantiq, andrologika, evristika ("izlayman", "yarataman" yunoncha), kibernetika va boshqa ko'plab murakkab fanlarning tadqiqot obyekti sifatida e'tirof etilib tadqiq qilinmoqda.

Falsafiy muammo sifatida refleksiya, odatda, quyidagicha talqin qilinadi:

- ong va tafakkurning o'ziga murojaat qilish qobiliyati;
- yangi bilimlar olish maqsadida bilim tahlili;
- aql va ruh holati ustidan ichki nazorat;
- o'zini namoyon etish asoslariga yo'naltirilgan tadqiqiy harakat.

XVII asrda ingliz faylasufi Jon Lokk (1632-1704) "refleksiya" tushunchasini ilk bor qo'llab, bunda yangi g'oyalar paydo bo'lishi va to'planishi sodir bo'ladigan jarayonni (xuddi tajriba kabi) nazarda tutadi. Refleksiya – bu bilish manbalaridan biri, fikrning o'zi esa bilish predmetiga aylanadi, ya'ni, fikr refleksiya uchun obyektivlashtiriladi. Obyektivatsiya refleksiv mexanizmlarning muhim unsuri (refleksiv jarayon bosqichi)

[1] Джураев Р.Х. Педагогик атамалар рўйхати.- Тошкент, ТДПУ. – 62-бет
[2] Қаранг: Ўша ерда.
[3] Современная философия. Словарь и хрестоматия. – Ростов – Дон. Феникс. 1996. – 67 б.

sifatida namoyon bo'ladi. U refleksiya natijalari bilan uning jarayoni va refleksiv tasavvurlar olish usullarini taqqoslashni taqozo etadi. Ushbu taqqoslashning amalga oshirilmasligi "yetarli bo'lmagan refleksiya" vujudga kelishiga olib keladi. I.Kant ham shunga ishora qilgan: "...biz ayrim bilimlarni, masalan, bevosita ishonchli hukmlarni hech qanday tadqiqsiz, ya'ni, ularning haqiqiylik shartlarini tekshirmagan holda qabul qilishimiz mumkin, biroq refleksiyasiz, ya'ni, bilimni u kelib chiqishi mumkin bo'lgan bilish qobiliyati bilan taqqoslamay turib, nimadir haqida mulohaza yurita olmaymiz va bunga haqqimiz ham yo'q". "Hodisa – mohiyat" tushunchalarini qarama-qarshi qo'yish klassik falsafa uchun xarakterli, bu refleksiya ma'nosini obyektivizatsiya jarayonlari bilan bog'lashga olib keladi. Ekzistensial falsafada bunday qarama-qarshi qo'yishga yo'l qo'yib bo'lmasligi idrokka katta gnoseologik ahamiyat berilishi oqibati sanaladi. Bu an'analarni o'zaro bog'lash zarurati idrok va refleksiyani subyektiv qobiliyatlar darajasida aloqasi bo'yicha muammolarni yuzaga keltirdi. I.Kant uchun refleksiya passiv tafakkurga qarama-qarshi turadi, u fikrlash qoliplarini buzuvchi vazifasini bajaradi. Faylasuf olim uni individual idrok emas, balki jamoaviy idrokda ko'rib chiqib, bunda har doim ham taqqoslash taqozo etilmasligini, ya'ni, u bir odamda imkonsizligini nazarda tutadi. Refleksiyaning ikki ko'rinishi – transsendental va mantiqiy refleksiyani ajratib ko'rsatadi. G.Gegel (1770-1831) esa o'zlikni anglash bilan bog'liq subyektiv refleksiya va amaliy faoliyat bilan bog'liq obyektiv refleksiya o'rtasida qat'iy chegara tortadi.

XX asrning so'nggi choragida M.K.Mamardashvili, G.P.Shedroviskiy, I.S.Ladenko, V.A.Lektorskiy, V.S.Shvirev, A.P.Ogursov ong va faoliyat muammolari kontekstida refleksiya tushunchasining falsafiy talqinini amalga oshirishga harakat qilganlar. Ularning fikricha, refleksiya samarali fikrlashning muhim tarzi, yuz berayotgan hodisani keng tizim kontekstida tushunish jarayonlarini alohida tashkil etish (u vaziyat va harakatlarni baholashni, vaziyatlarni hal qilish usullari va operatsiyalarini topishni o'z ichiga oladi), vazifalarni hal qilishga jalb etilgan individ hamda boshqa odamlarning o'zini-o'zi tahlil qilishi, o'z holati hamda harakatlarini faol o'ylab ko'rishdan iborat jarayondir. Shu sababli refleksiya (orqaga qaytish) ichidan (bir individning kechinmalari va o'ziga o'zi hisob berishi) ham, tashqaridan (jamoa bo'lib fikrlash faoliyati va birgalikda yechim izlash sifatida) ham bo'lishi mumkin.

Ko'plab pedagogik tadqiqotlarda refleksiyani fikrlash, o'z-o'zini kuzatish[1], insonning o'z e'tiqodlari va qadriyatli munosabatlarini yangicha tushunish, baholash va asoslash uchun o'z tajribasini mantiqiy ifoda etish, "xulosa, umumlashma, analogiya, taqqoslash va baholash layoqati[2]; o'z harakatlarining keltirib chiqarayotgan asoslarga murojaat qilish, yangi vazifani bajarish sharoitida avval foydalanilgan vosita va usullarning yetarli emasligini aniqlash hamda yangi bilimlarni izlashda muvaffaqiyatli harakatlanish imkonini bermaydigan mavjud bilim va ko'nikmalar doirasidan chetga chiqish qobiliyati ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

[1] Педагогический энциклопедический словарь / гл. ред. Б.М. Бим-Бад. – М.: Большая Российская Энциклопедия, 2002. – С.68.

[2] Полонский В.М. Словарь по образованию и педагогике. – М.: Высшая школа, 2004. – 512 с.

Refleksiya majburiy ta'sir vositasi sifatida amalga oshirilmaydi, o'z tabiatiga ko'ra mustaqil hisoblanib, erkin faoliyat xususiyatini egallanishiga ko'maklashadi. Refleksiyada o'zini tushunish va o'zida sodir bo'layotganlarni anglash ehtiyoji mavjud.

Refleksiya tushunchasi so'nggi vaqtlarda tajribali pedagog olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ko'proq qo'llanilmoqda. Refleksiya tushunchasidan foydalanishdagi o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini bilish, mulohaza yuritish, o'z harakatlarini o'ylash va boshqa ma'nolar ko'lami ancha keng. Refleksiya – har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o'z xatti-harakatlari va ularning qonunlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyati shaklidir, inson ma'naviyat dunyosining o'ziga xos yashirin hissiyotlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir.

Refleksiv muammo tahlilining falsafiy tushunchasi refleksiyaning quyidagi jihatlarini ajratishga imkoniyat berdi:

1. **ontologik**, bu yerda refleksiya – ong borlig'i ko'rinishida psixologik mavjudlik modusi (turi);
2. **gnoseologik**, bu yerda refleksiya psixologik ongning introspektiv asosi sifatida, o'zini nazorat qilish metodi hisoblanadi (J.Lokk);
3. **metodologik**, bu yerda refleksiya bilish tushunchalarining o'zaro aloqasi (o'zaro aks ettirishi) modalligi sifatida ko'rib chiqiladi (I.Kant);
4. **aksiologik**, bu yerda refleksiya shaxsning turmushi va ongining ekzistensial-axloqiy qadriyatlarini ifodalovchi "dunyoqarashga oid hissiyoti" sifatida ko'rib chiqiladi (S.L. Rubinshteyn).

Dastlabki uch jihat refleksiyani uning intellektual-bilish ko'rinishlarida psixik omillarni yuzaga keltirishning oqilona asosi sifatida namoyon etadi. To'rtinchi jihat refleksiyani falsafiy-intellektual idrok etishdan shaxsiy-psixologik tushunishga o'tilishidan dalolat beradi. Qayd qilish joizki, Lokkdan ancha avval falsafada tashqi olamni hissiy bilish odam tomonidan o'z ichki olamini aqliy bilishga qarama-qarshi qo'yilardi. Refleksiya falsafiy muammo sifatida falsafaning barcha bosqichlarida ko'rib chiqilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, refleksiya muammosi nafaqat pedagogika, psixologiya, falsafa, mantiq kabi fanlarda, balki boshqa fanlarda ham o'rganiladi. Bu tushuncha talqiniga biz ta'lim rivojlanishining falsafiy konsepsiyasi (V.V.Kraevskiy, B.T.Lixachyov, Y.S.Turbovskiy va boshqalar) g'oyalari nuqtayi nazaridan ham yondashamiz. Bu holatda kishining dunyo, jamiyat, o'zining bu dunyodagi o'rni haqidagi tobora umumiy, keng tushunchalarining pedagogik voqelik bilan aloqasi refleksiya predmeti sanaladi. Ta'kidlash joizki, dastlab ongda bilimlarning falsafiy refleksiya oqimidagi tahlili kechadi, keyin u pedagogik nazariya tarkibiga kiradi va uning bir qismiga aylanadi, so'ngra faoliyatni nazariy jihatdan anglashning boshlang'ich nuqtasi bo'lib qoladi. Shu tariqa inson o'z ongini, faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini egallash va ularni maqsadli boshqarish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Refleksiyaning metodologik mohiyatini tadqiq qilgan mualliflar uni fikrlash va faoliyat jarayoni sifatida ko'rib chiqishadi va uning xususiy modelini yaratishadi.

"Kommunikatsiya, faoliyat, refleksiya" (2015) asarida G.P.Shedroviskiy shunday yozadi: "Refleksiya – kasbiy faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarida muhim omil hisoblanib, har qanday faoliyatning istisnosiz uyushganligi, jumladan, matnlar ma'nosi hamda alohida belgi va ifodalarning ahamiyati unga bog'liq bo'ladi". Refleksiya faoliyat nazariyasi vositalari nuqtayi nazaridan ham faoliyat kontekstida ko'rib chiqiladi. Bunda quyidagi jihatlar muhim sanaladi:

1. refleksiya faoliyatdagi jarayon va maxsus tuzilma sifatida;
2. refleksiya faoliyat sxemalarini amalga oshirish tamoyili sifatida.

Bunda faoliyat tavsifi refleksiv harakatlar va operatsiyalarni ajratib ko'rsatishga, shuningdek, ularni amaliyotga tatbiq etishning vosita va texnikalarini (vositalardan foydalanish usullari) tuzishga imkon beradi.

Taklif etilgan faoliyat nazariyasida markaziy tushuncha sifatida "refleksiv chiqish" deb nom olgan sxema namoyon bo'ladi. Individ avvalgi faoliyat pozitsiyasidan chiqadi va avvalgi – allaqachon bajarilgan faoliyatga nisbatan ham, bo'lg'usi – loyihalashtirilayotgan faoliyatga nisbatan ham yangi tashqi pozitsiyaga o'tadi. Avvalgi va bo'lg'usi faoliyatga nisbatan tavsiflanadigan yangi pozitsiya "refleksiv pozitsiya" deb, unda hosil qilinadigan bilimlar esa "refleksiv bilimlar" deb ataladi, chunki ular birinchi pozitsiyada yuzaga kelgan bilimlarga nisbatan o'zgartiriladi. Bunda refleksiya, G.P.Shedroviskiyning fikricha, "go'yoki to'xtab qoladi, hayotning ushbu uzluksiz jarayonini uzib qo'yadi va insonni xayolan uning chegarasidan tashqariga olib chiqadi..." Bunda ong hayotga tegishli munosabatni shakllantirish, uning ustidan hukmron pozitsiyani egallash uchun bevosita hayot jarayoni girdobidan chiqish sifatida, ajralish sifatida namoyon bo'ladi.

Metodologik yondashuv refleksiyaning o'quv faoliyatiga nisbatan o'rni va ahamiyatini aniqlashga imkon beradi, ko'plab pedagog-tadqiqotchilar aynan shunday yo'l tutganlar. Refleksiya ilmiy-bilish va amaliy faoliyat usullarini shakllantirish sharti sifatida namoyon bo'ladi. Biroq mazkur metodologik yondashuv quyidagi savolga javob bermaydi: refleksiyani amalga oshirish chog'ida odam ongida aynan nima sodir bo'ladi? Bu muammo psixologik tadqiqotlar doirasida hal qilinadi.

Refleksiyaning psixologik mazmuni hajmi va xilma-xilligi, uning ko'p funksionalligi, belgi va xossalarining ko'lamdorligi inson shaxsining integral strukturasida refleksiyaning o'rni va ahamiyati naqadar muhim hamda betakrorligidan darak beradi. Refleksiv jarayonlar psixologik voqelikning deyarli barcha sohalarida qayd qilinadi. Refleksiv psixologiyaning rivojlanishi A.Buzeman nomi bilan bog'liq bo'lib, bu olim X asrning boshida uni ilk marta mustaqil fan sifatida ajratib ko'rsatgan. "Refleksiya" so'zining o'zi lotin tilidagi "reflexio" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "orqaga nazar, aks ettirish" degan ma'nolarni anglatadi. Hozirgi vaqtda psixologiyaning alohida sohalarida refleksiv jarayonlarni tadqiq qilish an'anasi yuzaga keldi. Refleksiyaning turli fenomenlarining psixologik mazmunini ochib berish uchun tadqiqiy yondashuvlar doirasida ong (Vigotskiy L.S., Gutkina N.I., Leontev A.N., Pushkin V.N., Semenov I.N., Smirnova E.V., Sopikov A.P., Stepanov S.Y. va b.), tafakkur (Alekseev N.G., Brushlinskiy A.V., Davidov V.V., Zak A.Z., Zareskiy V.K., Kulyutkin Y.N., Rubinshteyn S.L., Semenov I.N., Stepanov S.Yu. va b.), ijod (Ponomarev Y.A., Gadjiyev Ch.M., Stepanov S.Yu., Semenov I.N. va b.), muloqot (Andreeva

G.M., Bodalev A.A., Kondrateva S.V. va b.), shaxsiyat (Abulxanova-Slavskaya K.A., Ansiferova L.I., Vigotskiy L.S., Zeygarnik B.V., Xolmogorova A.B. va b.) ko'rib chiqiladi.

Agar tafakkurda refleksiyaning o'rni va ahamiyatini tavsiflamoqchi bo'lsak, u holda taniqli olimlarning quyidagi fikrlarini qayd qilish lozim:

- refleksiya fikrlash jarayonlarini yuksak darajada rivojlantirish ifodasidir (N.G.Alekseyev, V.V.Davidov, A.Z.Zak, J.Piaje, S.L.Rubinshteyn);
- refleksiya insonga o'z fikrlarini ularning mazmuni va vositasi nuqtayi nazaridan ongli tartiblash hamda nazorat qilish imkonini beradi (L.N.Alekseyeva, I.N.Semenov, D.Dyui);
- refleksiya fikrlash faoliyatining mahsuldorlik omilidir (I.S.Ladenko, Y.A.Ponomarev);
- refleksiya boshqa bir inson muammosini yechish "holat"iga kirish, uni anglash, "mazmunini chaqish", zarurat tug'ilganda esa, kerakli tuzatishlar kiritish va yechimning yangi yo'nalishini rag'batlantirishga ko'maklashadi (Yu.N.Kulyutkin, S.Yu.Stepanov, G.S.Suxobskaya). Odamning shaxsiy ko'lamida refleksiya kommunikativ jarayonlar kabi o'zini anglash va tushunib yetish jarayonlarini ham qamrab oladi:
- refleksiya ziyraklik, jonkuyarlik, bag'rikenglik, boshqa odamni baholashsiz qabul qilish va tushunish kabi uyg'un shaxsiy fazilatlarni belgilab bergan holda shaxslararo ijobiy muloqotning kafolati hisoblanadi (S.V.Kondrateva, V.A.Krivosheev, B.F.Lomov);
- refleksiya birgalikda faoliyat, kooperatsiya sharoitida hamkorlar xatti-harakatlarining o'zaro tushunilishi va muvofiqlashuvini ta'minlaydi (V.A.Lefevr, G.P.Shedroviskiy);
- refleksiya odamning o'zini tahlil qilish, o'zligini anglash va qayta tushunib yetish qobiliyati sifatida o'zini anglash jarayonlarini rag'batlantiradi, odamdagi "Men–tamoyil"ni boyitadi, shaxsiy kamolotning eng muhim omili hisoblanadi (A.G.Asmolov, R.Berns, V.P.Zinchenko);
- refleksiya odamning ichki hayoti yaxlit va tobora o'suvchan davom etishiga imkon yaratadi, o'zining hissiy olamini barqarorlashtirish va uyg'unlashtirishga, iroda kuchini ishga solish va undan oqilona foydalanishga ko'maklashadi (V.V.Stolin, K.Rojers).

Refleksiv jarayonlarning yuqorida keltirilgan mavjudlik sohalari sezilarli darajada shartlidir. Inson maishiy hayoti va tafakkurining psixologik voqeligi uning shaxsiy xususiyatlaridan ajratib qo'yilmagan. Aksincha, eksperimental tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, tafakkur mahsuldorligi fikrlash subyektining shaxsiy nuqtayi nazarini ro'yobga chiqarishiga, muammolarni yechimiga jalb qilingan "shaxsiy ma'nolari" chuqurligiga (A.N.Leontev) sezilarli darajada bog'liq bo'ladi. Tafakkurning operasional-predmet jihatini fikrlash jarayoniga jalb qilingan subyektning shaxsiy ma'nolari bilan bog'lovchi va bunda vosita bo'lib xizmat qiluvchi mexanizm refleksiya hisoblanadi (A.V.Brushlinskiy, Y.N. Kulyutkin, G.S.Suxobskaya, I.N.Semenov).

Bizning nazarimizda, ilmiy bilimlar rivojlanishi bilan refleksiya tushunchalarini qo'llash

chegarasi ham kengayib borayotgani e'tiborga molik sanaladi. Rus tadqiqotchilari I.N.Semenov va S.Y.Stepanov refleksiya nafaqat falsafiy, balki umumilmiy darajada faol qo'llanilayotganini ta'kidlab, quyidagilar sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatib berishgan:

- fanlararo ishlanmalar va zamonaviy fanning noklassik yo'nalishlari (refleksiv o'yinlar nazariyasi, refleksiv boshqaruv nazariyasi va hokazo) metodologik vositasi;
- bir qator ijtimoiy va gumanitar fanlar uchun izohlovchi tamoyil (jamiyatshunoslik, mantiq, tilshunoslik, ekologiya va b.).

Bundan tashqari, bugunga kelib refleksiyaning falsafiy talqinlaridan tashqari psixologik jihati ham ko'rib chiqilmoqda, refleksiyaning alohida psixologik hodisa sifatida psixologiyada (xususan, tafakkur va ong tadqiqotlarida) ajralib chiqish tarixi tahlil qilinmoqda.

Psixologiyada refleksiya "subyekt tomonidan o'zining ichki psixik jarayoni va holatlarini bilish, nazorat qilish" mazmunida talqin qilinadi[1]. O'qituvchining pedagogik faoliyatida, refleksiyaning shaxsga nisbatan ahamiyatini o'rganishda bu tushunchaning ijtimoiy psixologik nuqtayi nazardan ta'rifi mukammal ekanligi e'tirof etiladi, unda refleksiya insonning borliqda boshqa insonlar tomonidan qanday qabul qilinishi va baholanishi sifatida qaraladi: refleksiya – "shunchaki subyektning o'z-o'zini bilishi yoki tushunishi emas, balki boshqalar tomonidan "refleksiyalanuvchini"[2] qanday bo'lishi" va uning shaxsiy xususiyatlarini, emotsional[3] reaksiyalarini, hissiyotlarini, ichki dunyoqarashini va kognitiv tasavvurlarini ham tushunishini o'z ichiga oladi.

Shaxsning psixik rivojlanishini boshqarish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganib, S.L.Rubinshteyn insonning mavjudligini va uning ijtimoiy borliqqa nisbatan munosabatlarini refleksiya bilan bog'laydi:

"Refleksiya – bu insonning uzluksiz hayot jarayonini go'yo bir daqiqaga to'xtatib, uzib qo'yadi va insonni xayolan uning sarhadlaridan olib chiqib ketadi, shu vaziyatda insonning har bir harakati hayot haqidagi falsafiy fikr-mulohazalari muayyan bir xarakter kasb etadi"[4].

I.S.Ladenko refleksiyani intellektual tizimlarning o'z-o'zini tashkil qilishidagi ahamiyatini intellektual faoliyatning malaka va ko'nikmalarini takomillashtirish ehtiyoji hamda nutq, xotira, tasavvurlarning ichki va tashqi shakllari haqida psixologik qarashlarni ishlab chiqish zaruriyati bilan bog'laydi. Olim "Refleksiya – ichki tasavvurdan tashqi tasavvurga va aksincha biridan boshqasiga o'tish, fikrlash jarayonida ushbu jarayonlarning interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi)si haqidagi fikrlarni shakllantirish asosi... Refleksiya asosida nafaqat psixologik bilimlar, balki xotira, malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi va amalda qo'llash usullari takomillashtiriladi"[5] deb hisoblaydi.

---

[1] Краткий психологический словарь. / Ред. – сост. Л.А.Кариенко.1998. – 318 б.

[2] Рефлексиялаш – онгни ўз-ўзига қаратиш, ўзининг психик ҳолати ҳақида фикрлаш. Қаранг: Философский словарь. /под ред. И.Т.Фролова. 1986. – 410 б.

[3] Краткий психологический словарь. / Ред. – сост. Л.А.Кариенко.1998. – 318 б.

[4] Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – С.– Пб:Питер, 2001. – С.221.

[5] Ладенко И.С. Роль рефлексии в структуризации интеллектуальных систем //рефлексивные процессы творчество: Тез. докл. Всесоюзн. Конф./Под ред. И.С.Ладенко – Новосибирск, 1999.- Ч.1. С.5-7.

14.2. O'QITUVCHILAR PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA REFLEKSIYANING O'RNI VA SHART-SHAROITLARI

Hozirgi kunda ta'lim muassasalari pedagogik jamoalarining refleksiv xarakterdagi faoliyatini amalga oshirishlari natijasida erishayotgan muvaffaqiyatlari, refleksiyaning muhim ta'lim va tarbiya mezonlaridan biriga aylanayotganidan dalolat bermoqda. Pedagogik jamoada to'qnash kelayotgan muammolar tobora jiddiy tus olayotgan hozirgi sharoitda, ularning yechimiga xolisona va ijodiy yondashib baho berish uchun turli metod va vositalarga murojaat etish talab qilinadi. Ta'kidlash joizki, refleksiv qobiliyatni rivojlantirish hozirgi zamon o'qituvchisiga pedagogik mahoratni yanada takomillashtirishda o'zining individual mahorat uslublarini topishga ko'maklashadi, o'zini kasbiy jihatdan munosib baholashga, o'z faoliyati natijalarini bashorat va tahlil qilishga imkoniyat beradi, o'z faoliyatini samarali tashkil qilish darajasini oshiradi, natijada har qanday pedagogik muammolar yechimi qisqa vaqtda ijobiy hal etiladi.

Refleksiyani amalga oshirar ekan, o'qituvchi o'quvchilarga uning ta'siri qanchalik izchil, maqsadga yo'naltirilgan va samarali ekanini aniqlaydi, ko'zlangan natijaga qay darajada erishilganini baholaydi.

Hozirgi paytda bo'lajak o'qituvchi nafaqat ta'limning munosib metod va vositalarini tanlashi, balki ularni tobora rivojlanib borayotgan kompyuter va axborot kommunikatsiya texnologiyalari sharoitida yanada takomillashtirishi, o'z bilimi va pedagogik mahorati natijasida yangilab borishi zarur. Agar o'qituvchi tegishli tayyorgarlikka ega bo'lib, o'z faoliyatiga nisbatan refleksiyaning usul va vositalarini o'zlashtirgan bo'lsa, faoliyat tavsifidan unga tanqidiy yondashuvga o'tish vositalarini bilsa, shuningdek, o'zi ishlab chiqqan metodni, mavjud bo'lgan metodlar bilan taqqoslay olsagina, buni amalga oshirish mumkin.

Pedagogik refleksiya bo'lib o'tadigan o'zaro munosabatda pedagogik jarayon qatnashchilarining bir-birlarini baholashlari, dunyoqarashlarining o'zaro mos kelishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning ichki olamini, ta'lim-tarbiyaviy jarayonda ularning rivojlanish holatini bashorat etishidir.

Pedagogik jarayonda refleksiya – yuzaga keladigan pedagogik vaziyatda o'zaro munosabatni tashkil etuvchi subyektlar – o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar, pedagogik jarayon qatnashchilari, pedagogik vaziyatni tashkil etuvchilarni rivojlantirish shartlari, muhit, pedagogik faoliyat mazmuni, pedagogik texnologiyalar va boshqalarga o'zlarini muvofiqlashtirish jarayonidir.

Pedagogik refleksiyani amalga oshirish mohiyati va jarayonini tushunish uning tuzilishini oydinlashtirib olishga imkon beradi. Pedagogik refleksiya tuzilmasini ko'rib chiqishda pedagogik jarayon tuzilishi, pedagogik o'zaro munosabatlashuvni ham hisobga olish maqsadga muvofiq. Pedagogik jarayon o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatida o'zaro fikr almashishni taqozo etishini inobatga olgan holda, refleksiya tuzilmasida quyidagi

unsurlarni ajratib ko'rsatish o'rinli bo'ladi:

- o'quvchi faoliyatida pedagogik refleksiya;
- o'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik refleksiya;
- o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabatlarda pedagogik refleksiya;
- o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatlarida pedagogik refleksiya;
- pedagogik faoliyatda o'quvchilarning o'z-o'zini anglash refleksiyasi;
- yuzaga kelgan o'zaro pedagogik ziddiyatlarda o'quvchilar refleksiyasi.

Pedagogik jarayon o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni rivojlantirish uchun munosib shart-sharoitlarni vujudga keltirish maqsadida tashkil qilinadi va amalga oshiriladi. Bu pedagogik jarayonda refleksiyaning barcha unsurlari tarbiyalanuvchi faoliyatidagi refleksiyalar bilan bog'liq ekanligini anglatadi. Bu holat bo'lajak o'qituvchi faoliyatiga doir refleksiyalar va o'zaro munosabatlashuv refleksiyalari hamisha maqsadga mutanosib bo'lishini shart qilib qo'yadi.

Hozirgi zamonaviy pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'plab olimlar refleksiyaning S.Y.Stepanov va I.N.Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifiga tayanadilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini va ularning ilmiy tadqiq etish sohalarini ajratib ko'rsatadi[1]:

I.N.SEMYONOV TOMONIDAN ISHLAB CHIQILGAN REFLEKSIYA TURLARI.

Intellektual refleksiya: Muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilish. obyekt va u bilan munosabat usullari haqidagi bilimlar hisoblanadi. Hozirgi vaqtda mazkur yo'nalishdagi ishlar psixologiyada refleksiya muammolarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarning umumiy hajmida yaqqol ustuvorlik qiladi. Intellektual refleksiya axborotlarni qayta ishlashning kognitiv jarayonlarini tashkil qilish hamda o'xshash masalalarni yechish bo'yicha ta'lim vositalarini ishlab chiqish muammolariga bog'liq ravishda asosan pedagogik va muhandislik psixologiyasida ko'rib chiqiladi.

Shaxsiy refleksiya: O'qituvchining nizoli (konfliktlar) pedagogik ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilish. Subyektning shaxsiy xatti-harakatlarini, individ sifatida xususiy "Men"ini yaratishni, o'z obrazlarini namoyon etishni tadqiq qiladi. Shaxsning o'zini anglashi va subyektdagi Men obrazining tuzilish mexanizmlari rivojlanishi, inqirozi va korreksiyasiga doir muammolarga bog'liq ravishda umumiy va patopsixologik tomondan tahlil qilinadi. Shaxsiy refleksiya subyektning shaxsiy xatti-harakatlarini, individ sifatida xususiy Men obrazlarini tadqiq qiladi. Shaxsning o'zini anglashi va subyektdagi "Men" obrazining tuzilish

[1] *Семёнов И.Н. Развитие рефлексивно-критического мышления как компонента экзистенциально-ориентированного образования // Духовность и рефлексивность в становлении профессионала: Материалы межд.науч-практ. семинара: – М.: 1997.- С.27-32.*

mexanizmlari rivojlanishi, inqirozi va korreksiyasiga doir muammolarga bog'liq ravishda umumiy va patopsixologiyada tahlil qilinadi. S.Y.Stepanov va I.N.Semenov shaxsiy refleksiyani amalga oshirishning bir nechta bosqichlarini ajratib ko'rsatadi: muammoli-ziddiyatli vaziyatlarda o'z-o'zini namoyon etish; qayta anglash jarayoni; subyektning o'ziga va shaxsiy "Men"iga munosabatining o'zgarishi; subyektning o'z bilim va ko'nikmalariga nisbatan munosabati.

Kommunikativ refleksiya: Muloqot jarayonida sheriklarning o'zaro bir-birlarini tushunib munosabatga kirishishi. O'zaro muloqotda ijtimoiy perseptiv va empatiya muammolariga bog'liq ravishda pedagogik va muhandislik-psixologik sohalarga doir tadqiqotlarda ko'rib chiqiladi. U rivojlangan muloqot va shaxslararo idrokning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. A.A.Bodalev inson tomonidan insonni anglashning o'ziga xos xususiyati deya tavsiflaydi. Refleksiyaning kommunikativ jihati bilish, tartibga solish va rivojlantirish kabi qator funksiyalarga ega. Ushbu funksiyalar berilgan vaziyat uchun yanada muvofiq boshqa subyekt haqida tasavvurlar almashinuvida ifodalanadi, ular muloqotning boshqa subyekti haqida tasavvurlar bilan uni qayta ochib beruvchi individual psixologik xususiyatlar o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelganda dolzarblashadi.

Kooperativ refleksiya: Jamoa a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat. Mazkur turdagi refleksiyaga xos psixologik bilimlar, xususan, jamoaviy faoliyatni va faoliyat subyektlarining birgalikdagi sa'y-harakatlari kooperatsiyasini loyihalashtirishni ta'minlaydi. Bunda refleksiya subyektni faoliyat jarayonidan "ozod qilish" sifatida, birgalikdagi faoliyat sharoitida o'zaro tushunish, hamjihatlik va muvofiqlikni ta'minlash maqsadida subyektning avvalgi – allaqachon bajarilgan faoliyatiga nisbatan ham, bo'lg'usi – loyihalashtirilayotgan faoliyatiga nisbatan ham yangi pozitsiya hisoblanuvchi tashqi pozitsiyaga "chiqish"ini anglatadi. Bunday yondashuvda ushbu mexanizm namoyon bo'lishining protsessual jihatlariga emas, balki refleksiv natijalariga e'tibor qaratiladi.

41-chizma. Refleksiyaning turlari va ilmiy tadqiqot olib boriladigan sohalari

Insonning ijodiy muammolarni hal etishda ro'y beradigan fikrlashidagi refleksiyani o'rganib, olimlar uni fikrlovchi subyektning o'z - o'zini boshqarish usuli (Y.N.Kulyutkin, S.Yu.Stepanov va boshqalar), tanqidiy fikrlash omili (I.N.Semyonov), nazariy jihatdan fikrlashning yuqori ko'rsatkichi (A.Z.Zak, V.V.Davidov va boshqalar) sifatida ta'rif berib baholaydilar.

O'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatida refleksiya jarayonini o'rganib, ko'plab olimlar uning kommunikativ hamda kooperativ turlarini ustun qo'yadilar, aynan ushbu usullar o'qituvchining pedagogik faoliyatida va o'quvchilar bilan muloqotida ko'proq namoyon bo'ladi, deb hisoblaydilar. Biroq, bizningcha, pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari xilma-xil bo'lganligi sababli refleksiyaning har bir turini alohida o'rganib tahlil qilish mumkin emas, zero ular ma'no jihatidan bir-birlari bilan o'zaro bog'liq.

N.V.Kuzminaning fikricha, refleksiyaning "mazmuni, sherigining ichki dunyosini o'zaro hamkorlik asosida subyektiv qayta yaratishdan iborat bo'lgan individlar bir-birlarini ko'zgudagi kabi aks ettirishi, o'zaro aks ettirishning o'ziga xos ikki tomonlamalik jarayoni, qolaversa, bu ichki dunyoda, o'z navbatida, birinchi tadqiqotchining ichki dunyosi aks etishidir".

N.V.Kuzmina refleksiyani pedagogik qobiliyatlar nuqtayi nazaridan o'rganib, ilk bor o'qituvchining refleksiv - perseptiv qobiliyatlarini alohida komponent sifatida ajratadi. N.V.Kuzmina pedagogik intuitsiyaning shakllanishi refleksiv pedagogik qobiliyatlarning shakllanganlik darajasiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. "Yaxshi intuitsiya o'qituvchining izlangan natijalarga erishishida tayanishi mumkin bo'lgan o'quvchining eng olijanob, ijobiy sifat ko'rsatgichlari haqidagi axborotlarni ekstrapolyatsiyalaganda (bir hodisani kuzatish asosida olingan xulosalarni boshqa vaziyatlarga tatbiq etish) namoyon bo'ladi"[1].

Refleksiv qobiliyatlarni o'qituvchi pedagogik faoliyatining zarur tarkibiy qismi sifatida hisoblagan qator mualliflar (A.A.Bizyayeva, V.V.Vetrova, E.N.Pexota, I.A.Stesenko, I.G.Tatur, A.V.Xristeva va boshqalar) ularni bo'lajak o'qituvchilarning pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'qishi davridayoq shakllantirish zarurligi haqidagi g'oyalarni ilgari suradilar. Refleksiv qobiliyat o'qituvchiga pedagogik bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotda undan foydalanish jarayonida muhim ahamiyatga ega. "Bu holda, – deb yozadi Y.N.Kulyutkin, – o'qituvchi o'zining pedagogik mahoratidan foydalanib amaliy qarorlarni ishlab chiqishi va qabul qilishi jarayonlarini refleksiya predmetiga aylantirishi lozim. Buning uchun esa o'qituvchida bu jarayonlarni tahlil qilishning tegishli tafakkur usullari shakllangan bo'lishi kerak"[2].

A.V.Xristeva refleksiv vaziyatlar mohiyatiga kasbiy faoliyatda ijodiy tizimlar hosil qiluvchi komponent sifatida qaraydi. U bo'lajak o'qituvchining refleksiv tizimini shakllantirish va rivojlantirish pedagogik faoliyatda o'z imkoniyatlarining zarur ijodiy qismi deb biladi va refleksiv tizimsiz o'qituvchining yuksak mahoratli pedagog sifatida takomillashuvi mumkin emas deb ta'kidlaydi olima[3].

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonidayoq refleksiya mexanizmlarini o'zlashtirishi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi uchun yangi imkoniyatlar ochishi ta'kidlanadi. O'qituvchining refleksiv individualligi modelini yaratishni hozirgi kunda ko'plab olimlar taklif qilmoqdalar. Ma'lum pedagogik -psixologik sharoitlarda bo'lajak o'qituvchining shaxsiy kasbiy o'z-o'zini o'rganishini

---

[1] Кузьмина Н.В. Способность, одарённость, талант учителя. – Л.: Знание, 1990.- 32 с.

[2] Кулюткин Ю.Н. Рефлексивная регуляция мыслительных действий. //Под ред. О.К.Тихомирова. – М.: МГУ, - 1989.- С. 22-28

[3] Христева А.В. Формирование умений анализа профессионально-педагогической деятельности: Метод. реком. Для студентов педвузов и учителей. – Магнитогорск, МГПУ, 1997.- 43 с.

talqin qilishi boshlang'ich nazariy asos va jadval vazifasini o'taydi. Bo'lajak o'qituvchining professional refleksiyasini oliy pedagogik ta'lim muassasalari ta'lim–tarbiya jarayonini individualizatsiyalashtirish asosida rivojlantirish mumkin.

Kommunikativ va shaxsiy refleksiyani o'rgangan V.A.Krivosheyevning ta'kidlashicha, o'qituvchi o'z faoliyatida pedagogik mahoratni o'zlashtirgani sari hamkasblari va o'quvchilar u haqida nima o'ylashlarini ancha yaxshi tushuna boshlaydi, chuqur o'zlashtirilgan bilim va pedagogik mahorat tufayli o'qituvchi o'z-o'zini baholashga kirishadi. **Kommunikativ refleksiya shaxsiy refleksiyaning mazmunini, tizimini va aynan bir xilligini belgilaydi, – degan xulosaga keladi muallif[1].**

Ba'zan pedagogik kommunikatsiyada ro'y beradigan uzilishlar, ya'ni o'quvchilar jamoasidagi faoliyatni "tushunmaslik holatlari" tufayli davom ettira olmaslik, pedagogik faoliyatdan refleksiv chiqishga olib keladi, zero ikkinchi o'qituvchi, birinchisining faoliyati mazmunini anglay olmaydi va natijada ularning ikkalasi ham nizo sabablarini tahlil qilishlariga to'g'ri keladi. Individual refleksiya, individlararo refleksiyaning alohida maxsus shakli, deb hisoblaydi ba'zi olimlar.

A.A.Bizyayeva o'qituvchining kasbiy refleksiyasidagi o'ziga xos jihatlarni o'rganar ekan, diqqatini o'qituvchi refleksiyasining boshqa inson faoliyatini tahlil qilish va anglash, shuningdek, o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash zaruriyati bilan bog'liq bo'lgan asosiy omillariga qaratadi. Olimaning tadqiqotlarida aniqlanishicha, o'qituvchilarning intellektual refleksiya darajasi ularning kasbiy refleksiyasiga bevosita emas, balki uning mahorat komponentlari orqali bilvosita bog'liq. Bu olimaga intellektual refleksiyani o'qituvchilarning kasbiy refleksiyasi rivojlanishi uchun asos sifatida baholash imkoniyatlarini beradi. Bizningcha, bular o'qituvchining uzluksiz kasbiy o'sishini ta'minlash uchun tayanch sifatlar sanaladi[2].

Rivojlangan pedagogik refleksiyasiz, o'qituvchi doimiy tahlil va o'z-o'zini tahlil qilmasdan amaliy va nazariy pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni va ziddiyatlarni chuqur anglashi, ularni doimiy tahlil qilishning yo'llarini to'g'ri tanlashi, olingan natijalarni tanqidiy baholashi va ularni korreksiyalashi mumkin emas.

Pedagogik refleksiyani rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni aniqlab olish lozim. Biz G.G.Ermakova tomonidan tavsiflangan shartlardan kelib chiqamiz.

Pedagogik refleksiyaning rivojlantirishning dastlabki pedagogik sharti o'qituvchining maxsus tashkil qilingan refleksiv faoliyati hisoblanadi. Refleksiv faoliyatni tushunish uchun pedagogikada faoliyat nazariyasi bo'yicha G.I.Shukina tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular pedagogik jarayonda shaxsni shakllantirish uchun refleksiv faoliyat imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Pedagogik jarayonda ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkil qilishga asosiy ustuvorlik beriladi, shuning uchun

---

[1] Кривошеев В.А. Рефлексия в деятельности начинающих учителей: Автореф. дис. канд. психол. наук. – Минск, 1991.- 25 с.

[2] Бизяева А.А. Рефлексивные процессы в сознании и деятельности учителя: Дис. канд. психол. наук – С.Пб.- 1993.- 190 с.

refleksiv faoliyat qay darajada tashkil qilinganini uning tuzilmasi orqali tahlil etish mantiqan to'g'ri bo'ladi. G.I.Shukina faoliyatning pedagogik tuzilmasini ishlab chiqib, unda quyidagi unsurlarni ajratadi: maqsad, motivlar, mazmun, moddiy ta'sir, ko'nikmalar, natija. Shunday qilib, refleksiv faoliyat quyidagicha tavsiflanadi: unga faoliyat xususiyatlariga (maqsadga yo'naltirilganlik, o'zgaruvchan xarakter, predmetlilik, onglilik) xos hamda faoliyat jarayoni va uning yakuniy natijalarini shakllantirishdagi umumiylik xarakterlidir.

Pedagogik refleksiyani rivojlantirishning ikkinchi pedagogik sharti refleksiv muhitning mavjudligi hisoblanadi. Refleksiv muhit – bu shaxs oldida ijtimoiy-psixologik va kasbiy resurslarni mustaqil tadqiq qilish va o'ziga tuzatishlar kirib borish imkoniyatini ochuvchi shaxsni rivojlantirish shartlarining muayyan bir tizimidir. Bunday turdagi muhitning funksiyasi shaxsda refleksiyaga ehtiyoj vujudga kelishi uchun zamin yaratishdan iborat. A.A.Bizyayeva "refleksiv-innovatsiyaviy muhit" haqida so'z yuritib, unda birgalikda ijod rag'batlantiriladi, tanlov shartlari yuzaga keltiriladi, natijada shaxs va kasb egasi sifatida o'zi haqida tasavvurlarida o'zgarish sodir bo'ladi. Refleksiv muhitni yuzaga keltirishdan maqsad: pedagogning o'quv jarayonidan uzoqlashishiga yo'l qo'ymaslik va hayot faoliyati (kasb faoliyati yuritish) uslubi sifatida kasbiy refleksivlikni rivojlantirishdir. Refleksiv muhitda ishlashning asosiy yo'nalishlari sifatida ekzistensial fenomen, individual faoliyat bo'yicha pedagogning o'y-fikrlari, qadriyatlari bilan ishlash; kasb fazilatlarini psixologik xavfsiz (baholashsiz) tashxisini amalga oshirish va olingan natijalardan kasb mahoratini oshirishda foydalanish; pedagogning ijodiy betakrorligini rivojlantirish namoyon bo'ladi.

Pedagogik refleksiyani rivojlantirishning uchinchi pedagogik sharti refleksiv faoliyat qatnashchilari o'rtasida subyektlararo munosabatlarni faollashtirish sanaladi. Refleksiv faoliyat sharoitida pedagogik jarayondagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari o'qituvchi ham, ta'lim oluvchi ham faoliyat subyektlari sifatida qatnashishini taqozo etib, bunda ularning umumiy faoliyati sinxron tarzda kechadi va har biri o'z xatti-harakatlarining o'ziga xosligini saqlab qolgan holda bir-birining faoliyatini to'ldiradi hamda boyitadi. Aynan shunday subyekt-obyekt munosabatlaridan subyekt-subyekt munosabatlariga o'zaro o'tishlarda pedagogning kasbiy refleksiyasini rivojlantirish mexanizmlari mujassamlashgan.

Pedagog va ta'lim oluvchining subyektlararo munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi. U faoliyat qatnashchi-ijrochilari kuchlarining birlashuvi, xatti-harakatlari yaxlitligi va o'zaro aloqasi jipsligini ta'minlaydi. Bunday sharoitda ta'lim oluvchilarning kuchi va imkoniyatlari, tajribasi va ichki resurslari bilan birga, o'qituvchining pedagogik mahorati, yanada yuqori natijalarga erishish bo'yicha imkoniyatlari ham to'liq ochib beriladi.

O'zaro tushunish, hamkorlik va birgalikdagi ijod refleksiv faoliyatda subyektlararo munosabatlar natijasiga aylanadi. Refleksiya subyektlararo munosabatlarning mohiyat tavsifini tashkil etadi, chunki u nafaqat xususiy ong, balki begona ongni bilish mexanizmi bo'lishga ham qodir.

Refleksiv faoliyatda subyektlararo munosabatlarni o'zlashtirish samaradorligi ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin: refleksiyalar mutanosibligi,

qarashlar muvofiqlashtirilganligi, bir-biridan manfaatdorlik, munosabatlarda o'zaro mas'ullik, qo'llab-quvvatlash va boshqalar. Refleksivlik pedagogning ijtimoiy-perseptiv va kommunikativ qobiliyatlari asosida yotadi hamda uning kasb bo'yicha o'zini anglash darajasiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik refleksiyani rivojlantirishning to'rtinchi sharti pedagogik refleksiyaning dolzarbligi hisoblanadi. Refleksivlik – bu refleksiv faoliyatda uning qatnashchilari tomonidan aks ettirilgan subyektlilik pozitsiyalaridir. Bo'lajak o'qituvchi refleksiv faollashtirishda – o'z kasbiy pozitsiyasini qayta ko'rib chiqishga ehtiyojni dolzarblashtirib tahlil qilishidir. Bunday dolzarblashtirish shuni taqozo etadiki, refleksiya tufayli o'qituvchi faqatgina kasbga o'ralashib qolmay, o'z kasbiga boshqa inson nuqtayi nazaridan ham qaray oladi, unga mutanosib munosabatni shakllantiradi, nihoyat kasb haqida o'rinli mulohaza yuritish uchun undan tashqarida bo'lgan pozitsiyani egallaydi.

Bo'lajak o'qituvchining dolzarblashgan refleksivligi pedagogik egosentrizmni yengib o'tishga imkoniyat beradi. Qayta topilgan shaxsiy ma'no-mazmun ichki ijobiy o'zgarishlar uchun, eskirgan kasbiy stereotiplarni bartaraf etish uchun imkon tug'diradi, kelgusi kasbiy o'sish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Refleksiv qobiliyat deganda subyekt tomonidan o'z faolligining turli ko'rinishlari va sohalariga nisbatan refleksiyani amalga oshirish qobiliyati tushuniladi. Boshqacha aytganda, bu istalgan jarayon va funksional strukturaga refleksivlik xususiyatini berish qobiliyatidir (Voytik, Semenov). E.S.Mixaylova pedagogik qobiliyatni uchta yondashuv: faoliyat, gumanitar va tizimli-genetik nuqtayi nazaridan tadqiq qiladi. Tadqiqot predmeti sifatida pedagogik qobiliyatning ikkita: refleksiv va kommunikativ unsurini ajratib ko'rsatadi. Ushbu yondashuv doirasida refleksiv qobiliyatlar deganda turli darajali integral tashuvchilarga xos xususiyatlar (refleksiv jarayonlar, usullar, refleksiv boshqaruv ko'nikmalari, shaxsiy desentratsiya) tizimi tushunilib, u pedagogik faoliyatda yuqori natijalarni ta'minlaydi.

Refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish muhimligi tashqi olam bilan o'z munosabatlarini tartiblash, o'zining yaxlit "Men"ini saqlash, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi shaxs o'zini tartibga solishi bo'yicha tadqiqotlarda alohida qayd qilinadi. Refleksiv qobiliyatlar rivojlanishi o'zini tartiblashning barcha bosqichlarida sodir bo'lib, bu jarayonda tafakkur va faoliyat tarzi o'zgaradi, o'z navbatida esa, shaxsning aqliy, hissiy va irodaviy xususiyatlari ham muntazam o'zgaradi hamda rivojlanadi.

Barcha o'qituvchilar ham refleksiyaning yuksak darajasiga ega emas, bu refleksiv qobiliyatlarni o'rganish va tashxislash, shuningdek, refleksiv madaniyat va refleksiv kompetentlikni rivojlantirish zaruriyatidan dalolat beradi.

Tadqiqotchi olim A.A. Rean pedagogik refleksiv ko'nikmalar haqida so'z yuritadi. Olimning fikricha, ular uyg'un majmua hosil qiladi: o'z individual-psixologik xususiyatlarini anglash, o'zining psixik holatini baholash, shuningdek, o'quvchi shaxsini turli tomonlama qabul qilish va muvofiq darajada anglashni amalga oshirish kabilardir. Boshqa har qanday ko'nikmalar kabi, ular munosib bilimlar (shaxslararo anglash va refleksiyaning

qonuniyatlari hamda mexanizmlari) va muayyan ko'nikmalar, mazkur holatda refleksiv ko'nikmalar tizimiga asoslangan.

Refleksiv ko'nikmalarni quyidagi vositalar tizimi orqali shakllantirish mumkin:

- o'quv materialini induktiv va deduktiv nazariyalar asosida, shuningdek, bilish metodlaridan foydalangan holda tashkil etish;
- mutanosib ta'lim texnologiyalarini qo'llash;
- refleksiyani rivojlantirish bo'yicha maxsus topshiriqlar majmuini saralash.

Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlari quyidagicha:

- refleksiyalar va refleksiv qobiliyatlar haqida tasavvurlarni shakllantirish;
- o'zini tahlil va tashxis qilish, o'z kasbiy faoliyatiga tuzatishlar kiritish asosida pedagogik amaliyotda refleksiv ko'nikmalarni o'zlashtirish va rivojlantirish;
- refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishning xususiy tizimini yaratishi va o'quv jarayoniga mos ravishda qayta tashkil etishi.

Pedagogik refleksiya mezonlari bir-biridan ancha farq qiluvchi omillarni ilgari suradi, shuning uchun bu masalada mulohazalar ham jiddiy farqlarga ega. Masalan, M.T.Gromkova refleksiya mezonlari sifatida tabiiylik, yaxlitlik va texnologiyaga oidlikni tilga oladi. Pedagogik refleksiyani rivojlantirish mezonlarini asoslashda G.G.Ermakova tomonidan ilgari surilgan yondashuv muhim ahamiyatga ega. Pedagogik refleksiyani rivojlantirishning birinchi mezoni, muallifning fikricha, refleksiv bilimlar yetarliligi hisoblanadi, uning ko'rsatkichlari sifatida muammolilik va ziddiyatlilik namoyon bo'ladi. Bu mezon yuqori, o'rta va quyi darajalar bilan keltirilgan bo'lib, ularning har birida puxtalik, har xillik va murakkablik kabi belgilar ko'rib chiqiladi. Pedagogik refleksiyani rivojlantirishning ikkinchi mezoni sifatida bo'lajak o'qituvchining pedagogik refleksiya va refleksiv faoliyatga munosabatida namoyon bo'lib, qadriyatlarga yo'nalganlik va moslashuvchanlik uning ko'rsatkichlari sanaladi. Mazkur mezonni tavsiflar ekan, muallif aynan o'sha darajalarni farqlaydi: yuqori, o'rta va quyi. Har bir darajaning belgilari sifatida quyidagilar namoyon bo'ladi: o'zining pedagogik refleksiyasi va refleksiv faoliyatiga munosabatning amaliyligi, munosabatning pozitsionligi.

Pedagogik refleksiyani rivojlantirishning uchinchi mezoni o'qituvchining refleksiv xulqi sanaladi. Ushbu mezon ko'rsatkichlari: shaxsiy yo'naltirilganlik, kasbiy muvofiqlik. Shaxsiy refleksiv xulq rivojlanish darajasining belgilari sifatida texnologiyaga moyillik va yaxlitlikni aytish mumkin. Refleksiya majburiy ta'sir vositasi sifatida amalga oshirilmaydi, o'z tabiatiga ko'ra mustaqil hisoblanib, erkin faoliyat xususiyatini egallanishiga ko'maklashadi. Refleksiyada o'zini tushunish va o'zida sodir bo'layotganlarni anglash ehtiyoji mavjud.

14.3. PEDAGOGIK REFLEKSIYA – O'QITUVCHILAR KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA


O'qituvchi pedagogik mahoratini oshirish sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarda ko'plab olimlar pedagogik mahoratni rivojlantirish haqida fikr bildirishib, bu jarayonning asosiy zahirasi o'qituvchining o'z faoliyati tahliliga doimiy intilishida (V.I.Zagvyazinskiy, Y.K.Konarjevskiy, Y.P.Lvova, I.P. Rachenko, L.I.Ruvinskiy, V.P.Simonov, V.A.Suxomlinskiy, Y.S.Turbovskiy, T.I.Shamova va boshqalar); uning refleksiv qobiliyatlarini takomillashtirish (A.A.Bizyayeva, V.V.Vetrova, N.V.Kuzmina, E.N.Pexota, I.A.Stesenko va boshqalar); refleksiv pozitsiyasini (A.V.Xristeva) rivojlantirishning o'ziga xos pedagogik refleksiyasiga bog'liq bo'lganligi uchun uni pedagogik fikrlashni shakllantirish bilan bog'lab, shu tariqa (Y.N.Kulyutkin, G.S.Suxobskaya) o'qituvchi pedagogik refleksiyasini rivojlantirish mumkin (B.Z.Vulfov, G.M.Kodjaspirova, N.V.Kuzmina, Y.N.Kulyutkin, I.N.Mesyonov, S.Y.Stepanov, G.S.Suxobskaya, N.V.Xarkin, A.V.Xristeva va boshqalar.) deb ta'kidlaydilar.

G.M.Kodjaspirova pedagogik refleksiyani insonning o'z-o'zini anglashi deb, bunda "nafaqat o'qituvchi o'z xatti–harakatlariga to'g'ri baho berishi, balki, o'quvchilar bilan pedagogik muloqot chog'ida o'zaro hamkorlik qiladigan o'quvchilar jamoasi, pedagogik jamoa, ta'lim-tarbiyaga mas'ul shaxslar va ota-onalar uni qanday qabul qilishini tushuna olish qobiliyati hamdir" deb ta'riflaydi. Demak, refleksiya – o'qituvchining o'z-o'zini anglashi, o'zining kamchiligi va zaif tomonlarini bilib o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi, o'z tarbiyalanuvchilarining hamda o'z-o'zini takomillashtirishga zarur shart-sharoitlar yaratishi uchun mavjud ichki imkoniyatlarini kashf etishidir.

Refleksiyani o'qituvchi tomonidan o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish va o'zini baholash jarayonida rivojlanadi va refleksiyani boshqarish imkoniyati va zaruriyati shundan iboratki, o'qituvchi uzluksiz ta'limning qaysi sohasida faoliyat ko'rsatmasin, o'zining ongli ravishda ichki ta'sirini (o'z–o'zini o'ylashga va fikrlashga majbur qilish) va tashqi ta'sirini, shaxsiy o'quv jarayonida boshqarib qo'llay oladi. O'qituvchining kasbiy refleksiyasi rivojlanishiga ko'ra sodir bo'luvchi va uning asosida pedagogik o'z-o'zini uzluksiz takomillashtirish imkoniyatini ta'minlovchi jarayonlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

O'qituvchi pedagogik faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan ko'p yillik tajribalar asosida qilingan nazariy xulosalar pedagogik mahoratning rivojlanish jarayonining yettita elementdan iborat tizim asosida o'rganish imkoniyatini beradi. Bu o'qituvchining kasbiy refleksiyasi rivojlangani sari kechadigan va uning asosida uzluksiz pedagogik kasbiy mahoratini va o'z-o'zini takomillashtirish imkoniyatini ta'minlaydigan jarayonlarni chuqurroq tushunishni ta'minlaydi (chizmaga qarang).

O'z-o'zini bilish, o'rganish jarayonida holat dalillarni ta'kidlash darajasida yuz beradi, bunda refleksiyaning passiv shakli ustunlik qiladi. Bo'lajak o'qituvchilar uning pedagogik tayyorgarlikda yuzaga keluvchi muammo va ziddiyatlarni shunchaki qayd etadilar.



42-chizma. O'qituvchining kasbiy refleksiyasi elementlari asosida pedagogik mahoratining rivojlanishi.

O'z-o'zini anglash, his etish jarayonida o'qituvchi pedagogik faoliyatiga va unda o'ziga nisbatan "meta-vaziyatni" egallab olib, o'ziga tashqaridan qarash, borligini his etishni nazarda tutadi. Bunda tashqi shartlarning ichki holatga o'tishi, ularning interiorizatsiyasi sodir bo'ladi, kasbiy qiyinchiliklarning mumkin bo'lgan sabablari ifodalanadi; faoliyat maqsadlarini anglash kechadi, refleksiv "Men" shakllanadi. Bu bo'lajak o'qituvchilarning aktual rivojlanish sohasi bilan bog'liq.

O'z-o'zini nazorat qilish o'qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o'z - o'zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, kasbiy bilimlar bilan pedagogik mahoratini ham yanada takomillashtirib borishning ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.

Har qanday o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalashda hatto juda kuchli intilishi bo'lsa ham, o'zining shaxsiy rivojlanish dasturini maxsus pedagogik malakalarsiz belgilay olmaydi, bu pedagogik faoliyatdagi muvaffaqiyatlarga erishish, o'qituvchining o'z ustida ishlashga tayyorgarligi, uning o'z-o'zini tahlil qila olishi, o'z-o'zini tashxislash qobiliyatining qanchalik shakllanganligi bilan bog'liq.

O'z-o'zini aniqlash jarayonida kasbiy ehtiyojlarning zaruriyatlarini inobatga olib dastlabki daraja o'rnatiladi va mavjud imkoniyatlar asosida faoliyat rejalashtiriladi. Strategik, taktik va operativ vazifalar shakllantiriladi. Haqiqiy "MEN"ning va ideal "MEN"ning bog'lanishi sodir bo'ladi. Bu bo'lajak o'qituvchilarning yaqin rivojlanish sohasi bilan bog'liq.

O'z-o'zini baholash (o'z imkoniyatlarini) o'z-o'zini takomillashtirishda ikkinchi bosqichning boshlanishi nazarda tutiladi. O'zini baholash o'z imkoniyatlarini baholash qobiliyatini o'z ichiga oladi. O'zini baholashni rivojlantirish manbai esa xulq va faoliyat natijalari, shuningdek, bevosita shaxsiy fazilatlarning atrofdagi odamlar tomonidan

baholanishi hisoblanadi.

O'z-o'zini rivojlantirish jarayonida o'qituvchi refleksiyalangan harakat usullarining ya'ni, kasbiy jihatdan nazorat qilib, avval qo'llanilgan va ularning samaradorligini baholash natijasida eng optimal bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshirishi tobora optimal bo'lib chiqqan metodlarning ortishida yuz beradi.

Y.N.Kulyutkina, Y.S.Turbovskiy, P.V.Xudominskiy kabi tadqiqotchi olimlarning fikricha, o'qituvchining doimiy pedagogik faoliyati, mazmunan refleksiv xususiyatga ega bo'lib, u barcha refleksiv jarayonlarni qamrab oladi. Qayd etish joizki, hozirgi kungacha pedagogik refleksiya tushunchasining mukammal tasnifi mavjud emas. Ehtimol mazkur hodisani o'rganish psixologiya, pedagogika, pedagogik psixologiya, falsafa kabi fanlarning o'zaro aloqadorligida amalga oshirilishi bilan bog'liq holda hal qilinar. B.Z.Vulfov, V.N.Xarkin kabi olimlar refleksiyani – insonning o'z-o'zini anglashi, kasbiy refleksiyani esa o'z-o'zini kasbiy faoliyati davomida anglashi, o'qituvchi mahoratida pedagogik refleksiyani – pedagogik kasbiy omilkorlikda o'zini anglashi deb ta'riflaydilar[1].

G.M.Kodjaspirova o'qituvchining pedagogik faoliyatini barcha qirralari bilan refleksiv hodisa deb ataydi hamda o'qituvchi kasbiy faoliyatiga pedagogik refleksiya nuqtayi nazaridan qaraydi.

Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, o'qituvchining kasbiy faoliyatida refleksiya muhim rol o'ynaydi. B.Z.Vulfovning fikriga ko'ra, kasbiy refleksiya jarayonida o'qituvchi o'zi tanlagan pedagogik kasbi talab qiladigan darajada o'z imkoniyatlarini, u haqdagi mavjud tasavvurlarini pedagogik tajribasining muhim jihatlari bilan nisbatlaydi va "ixtiyoriy ravishda shaxsiy pedagogik mahorat zanjiri"ni hosil qiladi. Uning fikr mulohazasi L.S.Rubinshteynning pedagogik faoliyatdagi tashqi sabablarning ichki shart-sharoitlar asosida bilvosita harakati haqidagi mashhur qoidasini tasdiqlaydi.

O'qituvchi pedagogik mahoratning asosiy xususiyatlaridan biri uning rivojlanishida uzluksizlikning mavjudligidir. Demak, refleksiv jarayonda o'qituvchining kasbiy mahorati, kasbiy sifatlari mavjudmi yoki yo'qmi deb qayd etish kerak emas, balki ularning rivojlanishini, boyib borishini, kuchayishini rag'batlantirish inobatga olinishi lozim. Ta'lim jarayoni aynan shunga xizmat qilishi kerak, qachonki bilimlar, ko'nikma va malakalar ongli ravishda o'z-o'zini takomillashtirishga ichki undov bilan qabul qilinsagina u ishlanadi.

O'qituvchining "o'z-o'zini kasbiy jihatdan har tomonlama mukammal takomillashtirishi", hamisha amalga oshadigan faoliyat emas. Shunga qaramay, o'qituvchining o'zi haqidagi deyarli har qanday fikr-mulohazasi, kasbiy refleksiyaning deyarli har bir jarayoni, kasbiy faoliyatni qiziqarli qilish uchun muhim ahamiyatga ega: chin ko'ngildan va mehr bilan bajariladigan og'ir mehnat ham kasbiy faoliyatni osonlashtiradi, bu esa refleksiyaning asosiy mazmun va mohiyati asoslaridan biridir.

Pedagog olimlar G.A.Golisin va G.P.Shedroviskiyning ishlarida refleksiyaga o'qituvchi pedagogik faoliyati rivojlanishining asosiy omili va tabiiy mexanizmi sifatida

[1] Вульфов Б.С., Харькин В.Н. Педагогика рефлексии: Взгляд на профессиональную подготовку учителя. – М.: Магистр, 1995.– 112 с.

katta ahamiyat berilgan. G.P.Shedroviskiy refleksiyani insonning "ijobiy faoliyatlari majmuasi" nuqtayi nazaridan o'rganishni taklif qiladi. U qandaydir pedagogik faoliyatni amalga oshirish mumkin bo'lmasa, bu g'oya asosida ushbu faoliyat doirasidan tashqariga "refleksiv chiqish" tizimi quriladi, deb hisoblaydi. Bunda inson amalga oshirilmagan faoliyatdan, yangi faoliyat pozitsiyasiga o'tadi va "fikran ma'nolar qurish" vositalariga ega bo'ladi, ulardan kelib chiqib, birlamchi faoliyatni tushunadi va tavsiflaydi, bunda ikkinchi yangi faoliyatda birinchisidan muhim "material" sifatida foydalanadi.

Olimlarning bu kabi xulosalari kasbiy refleksiya o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishda (bu uning o'z ijodiy mehnati natijasidan qoniqmasligi aslo mumkin emasligi bilan belgilanadi) shijoati, kasbiy faoliyatiga oid yangiliklarni muntazam izlanishida, ijodkorligida namoyon bo'lishi bilan asoslanadi, demak refleksiya o'qituvchining o'z-o'zini kasbiy takomillashtirishiga ham asos bo'ladi, deb aytish mumkin.

Kasbiy pedagogik faoliyatda refleksiv jarayonlarni o'rganib ta'kidlash mumkinki, refleksiya nafaqat pedagogik faoliyatni rejalashtirish bilan bog'liq hodisa, balki refleksiya mohiyatini kasbiy faoliyatni optimallashtirish maqsadida ham qo'llanadi. Ba'zi olimlarning fikricha, refleksiya – asrlar davomida o'qituvchining kasbiy faoliyatida to'planib kelingan tajribalarida, uning xulq-atvori, muloqot madaniyati, tafakkurida yig'ilgan eski andozalarni, kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatini beradi (G.F.Pojmelkina, E.Y.Koloshina, E.V.Frolova).

O'qituvchining kasbiy refleksiyasiga pedagogik fikrlashning zarur tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin, u o'qituvchiga o'z kasbiy faoliyatiga tahliliy yondashishni, o'zining pedagogik faoliyatdagi o'rnini aniqlash va rejalashtirilayotgan ishlarda ijobiy natijalarga erishish uchun pedagogik faoliyatni maqsadli o'zgartirishning optimal yo'llari va konstruktiv vositalarini topish imkoniyatini beradi.

Refleksiyaning kasbiy qiyinchiliklarni yengishdagi rolini o'rgangan V.A.Metayevaning ishlari hozirgi kunning eng dolzarb tadqiqotlaridan biri sanaladi. Olima refleksiyaning rivojlanganlik darajasi "o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi qiyinchiliklarni samarali hal qilishning asosi bo'lmish" pedagogik mahorat natijasida muvaffaqiyatlarga erishishiga bog'liq, degan xulosaga keladi. Biroq, bizning fikrimizcha, o'qituvchi pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishishi unda refleksiyaning mukammal rivojlanganlik darajasini belgilamaydi, aksincha, ta'lim-tarbiyada o'qituvchining muvaffaqiyatga erishishi, o'z faoliyati natijalaridan qoniqishi, o'qituvchining shakllangan kasbiy pedagogik refleksiyasiga bog'liq[1].

Pedagogik refleksiya o'qituvchiga o'z-o'zini kasbiy jihatdan takomillashtirish manbalarini o'z bilimi va imkoniyatlaridan izlab topishda ko'maklashadi hamda uning rivojlanishini ta'minlaydi.

Inson psixikasi ichki tizimlari tashqi ijtimoiy faoliyat strukturasini qizg'in o'zlashtirish jarayonida shakllanishini, tashqi faoliyatning ichki faoliyatga o'tishini

[1] Метаева В.А. Рефлексия и её роль в преодолении профессиональных затруднений педагога: Дис. канд. пед. наук – Екатеринбург, 1996.- 207 с.

ta'minlaydigan interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) nazariyasiga (P.Jane, J.Piaje, A.Vallon, A.A.Leontev va boshqalar)[1] asoslanib, aytish mumkinki, kasbiy refleksiyaning rivojlanish muammosi o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirish asosi sifatida o'rganiladi.

O'qituvchi o'z faoliyatini muntazam tahlil qilmasligi aslo mumkin emasligi isbotlangan, bu o'qituvchidan kasbiy faoliyati davomida atrofidagi insonlar (o'quvchi, ota-ona, hamkasblari) bilan muntazam kommunikativ munosabatni tashkil etish pozitsiyasida tura olishini talab qiladi, o'qituvchida bu faoliyat subyekti sifatida o'ziga refleksiv munosabatni shakllantiradi, bu esa ijtimoiy munosabatlar interiorizatsiyasi (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) natijalarini o'zida aks ettiradi. Demak, refleksiya, garchi ong funksiyasi sanalsa-da, kishilarning o'zaro munosabatlari yig'indisi ta'sirida shakllanadi va inson psixikasiga sezdirmasdan o'tadi, u o'z navbatida, inson faoliyatini ongli ravishda o'zgartirish mazmunini belgilaydi.

Ma'lumki, har qanday kasbiy faoliyat obyektni o'zgartirish jarayoni bo'lib, ayni paytda subyektning o'zini ham o'zgartirish jarayonidir, faoliyatning sifat va samaradorligini oshirish esa shaxsning faoliyat subyekti sifatida takomillashuviga olib keladi yoki aksincha bo'lishi ham mumkin. Bu qoida A.A.Leontevning "shaxsni tadqiq qilishning to'g'ri yo'li ijtimoiy munosabatlarda subyekt faoliyati natijasida o'zi-o'zini harakatlantirish evaziga hosil bo'ladigan transformatsiyalarni (shakl yoki qiyofaning o'zgarishi) o'rganishdan iborat" ekanligi haqidagi xulosasi refleksiv jarayonlarni o'rganish uchun ham asos sanaladi.

O'ziga munosabat o'z-o'zini anglash bilan bog'liq. Aynan o'zligini anglashning namoyon bo'lish shakli o'zini baholash, o'zligini tushunib yetish, o'ziga nisbatan muayyan munosabatda bo'lish, ya'ni, o'zining aqliy va jismoniy qobiliyatlari, xatti-harakatlari, xulq motivlari va boshqalarga o'z munosabatini anglash hisoblanadi. O'zini baholash o'z imkoniyatlarini baholash qobiliyatini o'z ichiga oladi. O'zini baholashni rivojlantirish manbai esa xulq va faoliyat natijalari, shuningdek, bevosita shaxsiy fazilatlarning atrofdagi odamlar tomonidan baholanishi hisoblanadi.

Har qanday o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirishda hatto juda kuchli intilishi bo'lsa ham, o'zining shaxsiy rivojlanish dasturini maxsus pedagogik malakalarsiz belgilay olmaydi, bu pedagogik faoliyatdagi muvaffaqiyatlarga erishish, o'qituvchining o'z ustida ishlashga tayyorgarligi, uning o'z-o'zini tahlil qila olishi, o'z-o'zini tashxislash qobiliyatining qanchalik shakllanganligi bilan bog'liq.

B.G.Ananev, inson xarakterining shakllanish jarayonini tahlil qilib, refleksiv xossalar shaxsning boshqa sifatlariga qaraganda ancha kech shakllanishini aytadi. Uning fikricha: "inson hayoti davomida o'zaro munosabatlarning ko'plab obyektlari orqali o'tadi, natijada uning ongi o'z-o'zini anglash obyektiga aylanadi. O'zining xulq-atvor subyekti

[1] Қаранг: Краткий психологический словарь /Ред – сост. Л.А.Карпенко; Под общ.ред. А.В.Петровского, М.Г.Ярошевского. _ Ростов –на – Дону.1998, -106, 137, 257. Ж.Пиаже. Избранные психологические труды. Психология интеллекта. Генезис числа у ребенка. Логика и психология. –М.1969; А.А.Леонтьев. Деятельность.Сознание. Личность. –М. 1975.

sifatida ko'p marotaba anglash tajribasini to'plash va unga munosabatlar, biz refleksiya deb ataydigan xarakterga aylanishi uchun, xulq-atvorda uni muntazam qo'llash talab qilinadi"[1].

Ushbu fikr kasbiy refleksiyaning rivojlanishi, buning natijasi o'laroq, shaxsning faoliyat xususiyatlari bilan belgilangan refleksiv qirralari shakllanishini ta'minlaydigan ma'lum sharoitlar, vaziyatlarni yaratish zaruriyati haqida xulosa qilish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, olimlarning tadqiqotlariga tayanib, ta'kidlash mumkinki, o'qituvchining kasbiy pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosini faqat uning kasbiy refleksiyasini takomillashtirish asosida hal qilish mumkin. Kasbiy pedagogik refleksiya nafaqat kasbiy faoliyat, balki bilim, ko'nikma va malakalarning o'sishini ta'minlaydi hamda ushbu faoliyatni takomillashtirish asosi ham sanaladi.

14.4. O'QITUVCHILARDA REFLEKSIV KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH FUNKSIYALARI

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga va pedagogik mahoratlarini rivojlantirishga nisbatan talablar yildan yilga ortib bormoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahorati uning kompetentligida (competens lot. – mutanosib, qobil) namoyon bo'lib, bu unga o'z individual faoliyatini samarali amalga oshirish imkoniyatini beradi. Hozirgi paytda avval o'zlashtirilgan pedagogik mahorat namunalari va uslublarini shunchaki ishga solish emas, balki yangi va ijodiy yondashuvlar asosida ishlab chiqib, so'ngra o'zining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini muntazam rivojlantirish talab qilinmoqda. Refleksiv kompetentlik shakllantirish – bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahorati va pedagogik tajribasini oshirishda zaruriy shartlardan biridir. Refleksiv kompetentlik pedagogika doirasida nisbatan yangi tushuncha bo'lib, murakkab tuzilmani o'zida aks ettiradi, chunki subyekt refleksiyaning yuqorida sanab o'tilgan turlariga mutanosib turli asoslar bo'yicha refleksiyani qo'llashi mumkin. Refleksiv kompetentlik – bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv jarayonlarni yanada samarali va muvofiq tarzda amalga oshirishga imkoniyat beruvchi kasbiy fazilatlari bo'lib, pedagogik mahoratni rivojlantirish va mustaqil rivojlanish jarayonlarini ta'minlaydi, kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish, unda yuqori samaradorlik va natijaga erishish imkoniyatini beradi.

Hozirgi vaqtda pedagogika va psixologiya fanlarida refleksiya faol o'rganilmoqda. Uni rivojlantirishni kasbiy fazilatlarni shakllantirishning dastlabki davrlaridanoq boshlash zarur, chunki boshqa barcha fazilatlarga nisbatan refleksivlik muvofiqlashtiruvchi va

[1] Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания.– Л.: ЛГУ, 1991.– 340 с.

integratsiyalovchi asos sifatida namoyon bo'ladi. Uning shakllanganlik darajasi bo'lajak o'qituvchi pedagogik faoliyatini samarali amalga oshirish uchun o'zidagi boshqa barcha fazilatlarni muvofiqlashtirish va integratsiyalashga qanchalik layoqatli ekanligida o'z ifodasini topadi.

Zamonaviy o'qituvchini tayyorlash, pedagogik faoliyatining tizimli va ijtimoiy xususiyatlarida refleksiv kompetentlikni shakllantirish zaruriyati paydo bo'lmoqda, uning asosida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish orqali yuksak ma'naviyatli va bilimli, yetuk, barkamol, jismonan sog'lom shaxsni voyaga yetkazish vazifasi turibdi. Refleksiv kompetentlik kasbga oid vaziyatlarga to'liq kirishish va "moslashish", muammoli masalalarni hal etish, bo'lajak o'qituvchilarni yangicha fikrlash faoliyatiga jalb qilish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Bo'lajak o'qituvchilarga pedagogik refleksiya va refleksiv ko'nikmalar bo'yicha bilimlarga ega bo'lish yetarli emas. Pedagogik faoliyat uchun xos bo'lmagan masalalarni samarali hal etishga imkon beruvchi oraliq sifatida aynan refleksiv kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda pedagogika va psixologiya fanlarida refleksiya faol o'rganilmoqda. Refleksiyani rivojlantirish va unda kasbiy fazilatlarni shakllantirishning dastlabki davrlaridanoq boshlash zarur, chunki boshqa barcha fazilatlarga nisbatan refleksivlik muvofiqlashtiruvchi va integratsiyalovchi asos sifatida namoyon bo'ladi. Uning shakllanganlik darajasi pedagog kasb faoliyatini samarali amalga oshirish uchun o'zidagi boshqa barcha fazilatlarni muvofiqlashtirish va integratsiyalashga qanchalik layoqatli ekanligida o'z ifodasini topadi.

Pedagogik refleksiya va refleksiv ko'nikmalar bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi yetarli emas. Kasbiy faoliyat uchun xos bo'lmagan masalalarni samarali hal etishga imkon beruvchi oraliq tavsif sifatida aynan refleksiv kompetentlik zarur.

Refleksiv kompetentlik – o'qituvchining kooperativ, intellektual, kommunikativ va shaxsiy xususiyatlarining o'zaro munosabatlashuvi, o'zaro uyg'unlashuvi sifatida namoyon bo'luvchi hamda murakkab tizimli tashkiliy tuzilmaga ega integrativ xususiyat bo'lib, ularning shakllanganlik darajasi o'qituvchining pedagogik faoliyatini samarali amalga oshirishga tayyorgarligini o'zida aks ettiradi.

Bu borada I.G.Tatur va V.A.Metayevaning g'oyalari e'tiborga molik bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, ta'lim oluvchilar faoliyatining turli ko'rinishlarini integratsiyalash hisobiga talabalarda refleksiv kompetentlikni shakllantirish tashkiliy-pedagogik shartlarga rioya etilgan holda kechishi lozim:

1. ta'lim jarayonida ijtimoiy-kasbiy jihatdan o'z o'rnini belgilab olish uchun imkoniyatlar yaratish, ya'ni individual ta'lim marshrutlarini (alohida modullarni o'rganish tanlovi va ketma-ketlik tartibi, asosiy va qo'shimcha kompetensiyalar majmuini aniqlash, tayyorgarlik dasturlarida nazarda tutilgan xilma-xil faoliyat turlarini o'zlashtirish) loyihalashtirish;
2. oliy kasb ta'limi sohasidagi ko'p bosqichdan iborat mutaxassis tayyorlash jarayonida OTTning ijtimoiy hamkorlari sifatida namoyon bo'luvchi tashkilot

va muassasalar (sanoat korxonalari, ilmiy-texnik laboratoriyalar va boshqalar) tarmog'ida amalga oshiriladigan resursli integratsiyani ro'yobga chiqarish. Bu ta'limni tashkil etish va talabalar amaliyotlarini o'tkazish uchun moddiy-texnik, axborot va kadr resurslaridan birgalikda foydalanishni taqozo etadi;

3. ta'lim jarayonining tashxisiy va rivojlantiruvchi konsultatsion tarkibiy qismlarini kuchaytirish (talabalar o'z o'rnini topib olishida ularni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, individual ta'lim marshrutlarini shakllantirishda konsultativ ko'mak berish, tyutorlik institutini tashkil etish)[1].

Umuman refleksiv kompetentlikni shakllantirish uchun refleksiyaning psixologik determinantlari hamda tashqi va ichki muhitda uning namoyon bo'lishini stimullovchi xususiyatlari haqida integrativ bilimlar mavjud bo'lishi zarur.

Pedagogik faoliyatda refleksiv kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida muayyan shart-sharoitlarga rioya etish talab qilinadi. Avvalo:

- refleksiya haqida bilimlarning mavjudligi, uni dolzarblashtirish elementlaridan foydalanish, tashqi omillarga munosabat;
- o'quv jarayonida (o'quv fanlari, tadqiqotchilik faoliyati, pedagogik amaliyot doirasida) shaxsiy refleksiv tajribaga ega bo'lish;
- bo'lajak o'qituvchilarda o'zini muntazam tahlil qilish, o'zligini anglash va kamol toptirish, o'zini va boshqalarni tushunishga ehtiyojni uzluksiz rivojlantirib borish;
- ta'lim jarayonida ta'lim metodlari integratsiyasiga amal qilish.

Refleksiv kompetentlikni shakllantirishda ichki omillar muhim o'rin tutadi. Inson tafakkuri mahsuldorligining eng muhim sharti uning shaxsga yo'naltirilganligi, intilishlari, motivlari, maqsadlari, qadriyatlarga munosabati, individual-psixologik va kognitiv usulga xos xususiyatlari hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatda yuzaga keluvchi muammoli vaziyatlarda maqbul yo'l tuta olish refleksiv kompetentlik yetarli darajada rivojlangan bo'lishini taqozo qiladi. Bunda anglash, qayta anglash va o'zgartirish kabi refleksiv mexanizmlar muhim funksiyani bajaradi. Muammoli vaziyatlarda konstruktiv, ijodiy fikrlash refleksiyani intellektual va shaxsiy darajada o'zlashtirish hisobiga shakllantiriladi. Refleksiv kompetentlik shaxs va vaziyatning o'zaro ta'sirlashuvi unumli va uyg'un kechishini ta'minlashga imkon bergan holda tarang vaziyatni ijodiy anglash hamda yengib o'tish hisobiga faoliyat subyektining ehtimoliy xatti-harakatlar doirasini kengaytiradi.

Qayd etish joizki, hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarning kasbga tayyorlash tizimida bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish tajribasi yetarlicha keng tarqalmagan. Shunga qaramasdan amaliy tajribani analitik tushunishga asoslanuvchi maxsus tashkil qilingan ta'lim sharoitlari refleksiv kompetentlikni shakllantirishning ajralmas omiliga aylanmoqda.

---

[1] Татур И.Г. Становление педагогического мастерства будущего учителя в процессе развития его рефлексивной позиции: Дис. канд. пед. наук.– Одесса. 1989.– 137 с.

Refleksiv kompetentlikni shakllantirishda bir nechta ta'lim shaklini ajratib ko'rsatish mumkin:

- masalali yondashuvni qo'llash;
- o'xshash muammoli vaziyatlarni tahlil qilish;
- interaktiv ta'lim metodlaridan foydalanish;
- pedagogik vaziyatlarni modellashtirish;
- ta'lim jarayonida keyslar tuzish.

Ma'lumki, kompetentlik hamisha faoliyatda namoyon bo'ladi. Namoyish qilinmagan kompetentlikni "ko'rish" mumkin emas. Kasbiy ta'lim pedagogining refleksiv kompetentligi kasbga doim masalalarni yechishda namoyon bo'ladi. Bunda kompetentlik namoyon bo'lgan kontekstni har doim ko'rib chiqish muhim sanaladi. Kompetentlik tabiati shundayki, u insonga xos qadriyatlar bilan o'zaro chambarchas uyg'unlikdagina, ya'ni, mazkur faoliyat turiga katta shaxsiy qiziqish sharoitida namoyon bo'lishi mumkin. Amaliyotda shaxsiy qadriyat tusini olgan faoliyat mazmuni bilan aniq natija (mahsul) yoki axloq uslubiga erishish mumkin.

Kasbiy tayyorgarlik mazmunini loyihalashtirishda kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuv mantig'ida mazmunni shakllantirish birligi kasb vazifasi hisoblanadi. Kasb vazifalari majmui kasbiy tayyorgarlik mazmuni "o'zagi"ni tashkil qiladi, refleksiv kompetentlikni shakllantirish bosqichlari esa mazmunni "amalga oshirish" mantig'ini belgilab beradi.

Refleksiv kompetentlikni rivojlantiruvchi vositalar pedagogik faoliyatga ijodiy munosabatni rag'batlantiradi. Har bir vosita muayyan ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan. Vositalar majmuini quyidagicha ajratish mumkin:

1. Undovchi (motivasion) vaziyatli masalalar talabalarda refleksiv kompetentlikka erishish, pedagogik faoliyatga barqaror qiziqishni shakllantirish, masalalar yechish jarayonida undovchi (motivasion) muhitni vujudga keltirish motivlarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

2. Diskursiv-pedagogik masalalar muloqot madaniyati va dialogik muloqot ko'nikmasini rivojlantirish, individual faoliyat uslubini shakllantirish, bilimlarni egallash hamda mustahkamlashga imkon yaratadi.

3. Ijodiy vositalar refleksiv kompetentlik va uning tarkibiy qismlariga xos xususiyatlarni tushunish, muayyan vaziyat kontekstida o'z xatti-harakatlarini refleksiv kompetentlik nuqtayi nazaridan tahlil qilish, ularga kelgusida tuzatishlar kiritish, nazariy bilimlarni boyitish va mustahkamlashga yo'naltirilgan.

4. Gnostik-evristik masalalar tanqidiy fikrlashni, majmuaviy refleksiv vaziyatlardan mantiq va ichki sezgiga tayangan holda chiqish ko'nikmasini rivojlantiradi, 14-bet.

Ushbu vositalarda keltirilgan vaziyatlar tahlili o'qituvchilarga o'zini mahoratli pedagog o'rniga qo'yish, refleksiv kompetentlik nuqtayi nazaridan pedagogik maqsadga muvofiq yechimlarni topish bo'yicha muayyan tajriba orttirishga imkon beradi, bu esa kelgusida chinakam shunday vaziyatlarda tezkor va asosli ravishda yo'l tutishga ko'maklashadi. Vaziyatli masalalar nazariya bilan amaliyotni bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarning amaliy tajribasi dialogik o'zaro munosabatlar, kasb muammolarining munozaraga boy muhokamasi, amaliy va o'quv-amaliy o'yinlar kasb-pedagogik kompetentlikni, xususan, refleksiv kompetentlikni shakllantirishda samarali ekanligidan darak beradi.

Refleksiv kompetentlikni shakllantirishning yaxlit jarayoni uning bosqichlari, nazariy va amaliy mashg'ulotlar ketma-ketligini o'zida aks ettiradi. Mazkur jarayonda biz to'rt bosqichni ajratib ko'rsatamiz, ularda refleksiv kompetentlikning barcha unsurlarini talabada bir vaqtning o'zida shakllantirish amalga oshiriladi, bunda har bir bosqichda alohida unsurlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Birinchi bosqichda shaxsga oid unsurlarni shakllantirish vazifasi ustuvor hisoblanadi. O'qituvchilarda kasbiy-pedagogik muloqot nazariyasiga oid asosiy bilimlarni doimiy o'zlashtirib borishi, barqaror motivatsiya va shaxsiy qiziqishni shakllantirishga ehtiyojni dolzarblashtirish amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqichda intellektual unsur birinchi darajaga ko'tariladi. O'qituvchilarning pedagogik bilimlarini boyitish sodir bo'ladi, ijtimoiy-psixologik madaniyat shakllantiriladi.

Uchinchi bosqich kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Mazkur bosqichda refleksiv-kommunikativ mashqlar bajariladi, pedagogik masalalar yechiladi.

To'rtinchi bosqichda birinchi navbatda o'zini ko'rsatishga ehtiyoj va sherigiga ta'sir ko'rsatish qobiliyati shakllantiriladi. Kooperativ unsurni rivojlantirish uchun amaliy o'yinlar metodi, o'quv-amaliy materialning chinakam voqelik, amaliyot va bo'lg'usi kasb bilan aloqasi faol qo'llaniladi. Amaliy faoliyatning real shart-sharoitlariga mutanosiblik talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish imkonini beradi, ularning dunyoqarashini kengaytiradi, nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtiradi. O'yin faoliyatining ijodiy xarakteri, barcha o'yin qatnashchilarining o'quv jarayoniga maksimal jalb qilinganligi talabalarda shaxsiy motivatsiyaning ortishi, kasbiy masalalarga nostandart yechimlar izlashga qiziqishni kuchaytirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi.

O'qituvchilarni kasbga tayyorlash bo'yicha yangi yondashuv va modellarni ishlab chiqish oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy voqeliklarini, shuningdek, pedagogik fanlar sohasida mutaxassis tayyorlash bo'yicha mavjud modellar va yo'nalishlar integratsiyasiga xos talablar hisobga olinishini taqozo etadi. Refleksiv kompetentlikni samarali shakllantirish yangi ta'lim vazifalarini amalga oshirish muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi shartlardan biriga aylanishi mumkin. Biroq mutaxassis tayyorlash bo'yicha turli-tuman modellar mavjud bo'lishiga qaramay, kasbiy dasturlar o'zining rang-barangligi va moslashuvchanligi bilan ajralib turmaydi. Integratsiyaning real imkoniyatlaridan ko'pincha samarali foydalanilmaydi, bu esa kasbiy muammolar majmuini hal etishga yakuniy tayyorgarlik sifatiga ham ta'sir qilmoqda.

Akademik M.K.Tutushkina refleksiyaning konstruktiv va nazorat funksiyalari xarakteridan kelib chiqqan holda ushbu tushuncha mazmunini yoritib beradi. Konstruktiv funksiyasi nuqtayi nazaridan refleksiya – bu mavjud vaziyat va ushbu masalada shaxsning dunyoqarashi o'rtasidagi aqliy aloqalarni izlash hamda o'rnatish jarayoni; faoliyat, muloqot va xulq-atvorni mustaqil tartibga solish jarayoniga jalb qilish uchun refleksiyani faollashtirish. Nazorat funksiyasi nuqtayi nazaridan refleksiya – bu mavjud vaziyat bilan bu borada shaxs dunyoqarashi o'rtasida aloqalarni yo'lga qo'yish, tekshirish va foydalanish jarayoni; faoliyat yoki muloqotda o'zini nazorat qilish uchun natijalarni aks etttirish yoki ulardan foydalanish mexanizmi. B.A.Zeygarnik, I.N.Semenov va S.Y.Stepanov tadqiqotlariga tayangan holda, muallif refleksiyaning obyekti bo'yicha farqlanuvchi uchta shaklni ajratib ko'rsatadi: o'zlikni anglash refleksiyasi, harakat tarzi refleksiyasi va kasbiy faoliyat refleksiyasi. Bunda dastlabki ikki shakl uchinchi shaklni rivojlantirish uchun asos hisoblanadi.

O'zlikni anglash refleksiyasi – bu refleksiyaning odamda hissiy qobiliyatlar shakllanganligida bevosita aks etuvchi shaklidir. U quyidagi darajalar bilan farqlanadi:

1. shaxsiy ma'nolar aks ettirilishi va kelgusida mustaqil tuzilishi bilan bog'liq;
2. o'zini boshqalardan farq qiluvchi mustaqil shaxs sifatida anglab yetish bilan bog'liq;
3. o'zini kommunikativ aloqa subyekti sifatida anglashni taqozo etadi, atrofdagilarga o'z ta'sirini o'tkazish imkoniyatlari va buning natijalari tahlil qilinadi.

Harakat tarzi refleksiyasi – bu shaxs u yoki bu maqsadga erishish uchun qo'llaydigan texnologiyalar tahlili. Harakat tarzi refleksiyasi odam o'zi allaqachon tanish bo'lgan xatti-harakatlar tamoyillaridan to'g'ri foydalanishi uchun mas'ul. Bu tahlil klassik psixologiyada keltirilgan refleksiyani (sof ko'rinishdagi) o'zida aks ettirib, bunda bevosita refleksiyadan foydalanuvchi xatti-harakatlar tartibini, o'z hissiyotlarini, natijalarni tahlil qiladi hamda yutuq va kamchiliklar bo'yicha xulosa chiqaradi.

Kasbiy faoliyat refleksiyasi ta'limda quyidagi jihatlari bilan muhim ahamiyatga ega: birinchidan, refleksiya kasbiy faoliyatni o'zlashtirishda foydalaniladi; ikkinchidan, o'zlashtirish jarayonini boshqarish va nazorat qilish uning asosida amalga oshiriladi; uchinchidan, kasbiy-ta'lim faoliyatidagi o'zgaruvchan shart-sharoitlarda refleksiya bevosita muhim rol o'ynaydi; to'rtinchidan, reqleksiya pedagogik faoliyatni rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

A.A.Bizyayeva kasbiy pedagogik refleksiya deganda o'qituvchining o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun faoliyat samaradorligini tanqidiy tahlil qilish, anglash va baholash maqsadida o'z faoliyatiga hamda uning subyekti sifatida o'ziga nisbatan faol tadqiqotchilik pozitsiyasiga kirish qobiliyatida namoyon bo'luvchi murakkab psixologik fenomenni tushunadi.

Kasbiy refleksiyaga yanada aniqroq ta'rif E.E.Rukavishnikova tomonidan berilgan. Kasbiy refleksiya deganda u mutaxassisning o'ziga va kasb faoliyatiga nisbatan tahliliy nuqtayi nazarga ega bo'lish qobiliyatida namoyon bo'luvchi kasbiy o'zini kamol toptirish

va o'zini dolzarblashtirishning psixologik mexanizmi tushuniladi.

Pedagogik jarayonda refleksiya quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- loyihalash (pedagogik jarayon qatnashchilarining faoliyatlarini loyihalashtirish va modellashtirish);
- tashkillashtirish (birgalikdagi kasbiy faoliyatda o'zaro munosabatlarning samarali usullarini tashkil etish);
- kommunikatsiya (pedagogik jarayon qatnashchilarining o'zaro muloqoti uchun shart-sharoitlarning mavjudligi);
- ma'naviy-ijodiy (kasbiy faoliyatda va pedagogik jamoa bilan o'zaro munosabatlarda mukammal yetuklikni namoyish etish);
- motivasion (pedagogik jarayon qatnashchilarining birgalikdagi faoliyatida ijobiy natijalarga yo'naltirilganlikni aniqlash).

Refleksiv jarayonlar pedagogik faoliyat o'z tabiatiga ko'ra refleksiv hisoblanadi. G.S.Suxobskaya, Y.N.Kulyutkin metafaoliyat haqida so'z yuritishadi. O'qituvchi faoliyatining obyekti, uni boshqarish va tashkil qilish obyekti o'quvchilar faoliyati sanaladi. Istalgan pedagogik masala – bu o'quvchilar faoliyatini boshqarish bo'yicha masaladir. Bu shunday boshqaruv bo'lishi kerakki, unda o'quvchilar subyekt pozitsiyasiga o'tadi, shuningdek, o'z faoliyatini boshqarishga qodir bo'ladilar. Bunday turdagi jarayonlarni psixologiyada refleksiv jarayonlar deb atash qabul qilingan. Refleksiv jarayonlar – bu inson (o'qituvchi) tomonidan boshqa inson (o'quvchi)ning "ichki dunyosi"ni aks ettirish jarayonidir. O'qituvchi o'rganilayotgan obyekt haqida nafaqat o'z tasavvurlariga ega bo'lishi, balki ushbu obyekt haqida o'quvchi qanday tasavvurlarga ega ekanligini ham bilishi lozim. O'qituvchi o'z o'quvchisi ega bo'lgan "ichki dunyo"ni nafaqat refleksiv aks ettirishi, balki maqsadga yo'naltirilgan tarzda uni o'zgartirishi, chuqurlashtirishi va rivojlantirishi kerak bo'ladi. Shunga o'xshash o'zgarishlarni o'quvchining o'zi faoliyatida faollik ko'rsatishi natijasidagina amalga oshirish mumkin, pedagogdan esa ushbu faoliyatni samarali boshqarish talab etiladi. Boshqa odam faoliyatini shu tarzda boshqarish, odatda, refleksiv boshqaruv deb ataladi. Ya'ni, o'qituvchi o'z pedagogik xatti-harakatlarini saralaydi, ularga aniqlik kiritadi va qayta tekshiradi, bu gumonlarda, farazlarni ilgari surishda, savol qo'yishda (o'ziga o'zi), aniqlik kiritishda o'z ifodasini topadi. O'qituvchining refleksiv boshqaruv faoliyati uch bosqichni o'z ichiga oladi:

- *ijro faoliyati refleksiyasi bosqichi* (xatti-harakatga oid real ko'rsatmalar, takliflar, maslahatlar, buyruqlar);
- *harakat strategiyasini ishlab chiqish bosqichi* (yuzaga kelgan vaziyat va uni hal qilishga o'quvchilarning tayyorligiga bog'liq ravishda harakat dasturini tanlash);
- *ishlab chiqilgan strategiya va uning asosida amalga oshirilgan dasturni tahlil qilish va baholash, uni ilgari surilgan maqsad va vazifalar bilan muvofiqlashtirish bosqichi.*

Refleksiv boshqaruv pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot va o'qituvchining kasbiy-shaxsiy xususiyatlarini tamokillashtirishning asosini tashkil qiladi.

MAVZUNI O'ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Qadimgi Rim faylasuflarining refleksiya to'g'risidagi qarashlari haqida malumot bering.
2. Refleksiyaga hozirgi zamon fanlari nuqtayi nazaridan ta'riflang.
3. Pedagogika va psixologiya fanlarining refleksiyaga nisbatan mulohazalari bayon qiling.
4. Jon Lokk ta'limotida refleksiyaning falsafiy tushunchasini yoritib bering.
5. Refleksiv muammo tahlilining falsafiy tushunchalariga izoh bering.
6. Refleksiyaga taniqli olimlar qanday ta'rif berishgan?
7. Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv ko'nikmalari qanday shakllantiriladi?
8. I.N.Semyonov refleksiyaning qaysi turlarini sharhlab bergan?
9. Pedagogik refleksiyaga ta'rif bering.
10. O'qituvchi o'z-o'zini kasbiy jihatdan qanday takomillashtiradi?
11. Pedagogikada "refleksiya" tushunchasiga qanday g'oyalar nuqtayi nazaridan yondashiladi?
12. V.A.Metaeva refleksiyaning rivojlanganlik darajasini qanday ta'riflaydi?
13. Refleksiyaning kasbiy qiyinchiliklarni yengishdagi rolini kim tahlil qilib o'rgangan?
14. Tadqiqotchi olim A.A. Rean ta'limotida pedagogik refleksiv ko'nikmalarning ifodalanishi qanday yoritilgan?
15. Pedagogik faoliyatda refleksiv kompetentlikni shakllantiruvchi shart-sharoitlar nimalardan iborat?
16. Refleksiv kompetentlikni rivojlantiruvchi vositalar nimalardan iborat?
17. Pedagogik jarayonda refleksiya qanday funksiyalarni bajaradi?
18. O'qituvchining refleksiv boshqaruv faoliyati nechta bosqichni o'z ichiga oladi?

TALABALARNING MUSTAQIL TAYYORGARLIKLARI UCHUN TOPSHIRIQLAR

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o'zingizning fikr-mulohazalaringizni bildirib, "Mustaqil ish" yozing:

1. O'qituvchining refleksiya asosida shaxsiy kasbiy faoliyatini takomillashtirish.
2. Kasbiy pedagogik refleksiyaning o'qituvchi pedagogik mahoratini oshirishdagi imkoniyatlari.
3. Refleksiv kompetentlikning pedagogik kasbiy faoliyatdagi o'rni.
4. Sharq mutafakkirlari asarlarida insonning o'z-o'zini anglashi va refleksiv tasavvurlarning ifodalanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4312785.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent shahri, 2024-yil 1-fevral № O‘RQ – 901.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4623-son Qarori – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2020, 27-28-bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-134-son Farmoni. https://lex.uz/docs/6008663.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.– 488 b.
8. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания.– Л.: ЛГУ, 1991.– 340 с.
9. Бизяева А.А. Рефлексивные процессы в сознании и деятельности учителя: Дисс. канд. психол. наук.– Санкт–Пб., 1993.–190 с.
10. Вульфов Б.С., Харькин В.Н. Педагогика рефлексии: Взгляд на профессиональную подготовку учителя. – М.: Магистр, 1995.– 112 с.
11. Zarmasov Sh.R. Kasbiy refleksiya asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish – Toshkent, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya.
12. Краткий психологический словарь /Ред – сост. Л.А.Карпенко; Под общ.ред. А.В.Петровского, М.Г.Ярошевского. Ростов - на - Дону,1998, – 257 с.
13. Кривошеев В.А. Рефлексия в деятельности начинающих учителей: Автореф. дис. канд. психол. наук. – Минск, 1991.– 25 с.
14. Кузьмина Н.В. Способность, одарённость, талант учителя. – Л.: Знание, 1990. – 32 с.
15. Кулюткин Ю.Н. Рефлексивная регуляция мыслительных действий. //Под ред. О.К.Тихомирова. – М.: МГУ, 1989.– С. 22-28.
16. Леонтьев А.А. Деятельность.Сознание. Личность. – М, 1975. – 268 с.
17. Метаева В.А. Рефлексия и её роль в преодолении профессиональных затруднений педагога: Дис. канд. пед. наук – Екатеринбург, 1996.– 207 с.
18. Семёнов И.Н. Развитие рефлексивно-критического мышления как компонента экзистенциально-ориентированного образования // Духовность

и рефлексивность в становлении профессионала: Материалы межд.науч-практ. семинара: – М., 1997.- С.27-32.
19. Татур И.Г. Становление педагогического мастерства будущего учителя в процессе развития его рефлексивной позиции: Дис. канд. пед. наук.- Одесса, 1989.– 137 с.
20. Шедровицкий Г.П. Коммуникация, деятельность, рефлексия //Исследование речемыслительной деятельности.– Алма-Ата, 1974. – С.12-28.
21. Пиаже Ж. Избранные психологические труды. Психология интеллекта. Генезис числа у ребенка. Логика и психология. – М.1969.– 346 стр.

15-BOB.

O'QITUVCHI MEHNATINI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH

15.1. O'QITUVCHI MEHNATINI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK MAHORATNING AHAMIYATI

Davlat va jamiyat hayotini modernizatsiyalash jarayonlarining harakatga keltiruvchi kuchi, O'zbekistonning bugungi va istiqboldagi izchil taraqqiyotining bosh omili bo'lgan insonning ma'naviyatini va kasbiy salohiyatini yuksaltirishda o'qituvchilarning tajribasi va mahoratini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi bugungi kunda ta'lim va tarbiya berayotgan shogirdlarining kamoloti bilan mamlakatimiz kelajagiga ulkan poydevor qo'yadi. Respublikamizda so'ngi yillarda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, talabalarning tashabbuskorlik fazilatlarini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Mamlakatimizda *"Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intelektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish"*[1] ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu borada pedagogik yo'nalishda tayyorlanayotgan bo'lajak pedagoglarni tashabbuskorlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Demak, bugungi kun o'qituvchisi o'z ustida tinimsiz mehnat qiladigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, hozirgi kunda o'qituvchining pedagogik mahoratini yanada oshirish muammosi davr talabidir.

Demokratik huquqiy jamiyat qurish jarayonida o'qituvchining o'rni, vazifalari yosh avlodni tarbiyalash ishiga javobgarligi muhim ahamiyatga ega. Olib borilayotgan islohotlarning ijobiy natijalar berishini yetuk va malakali mutaxassislar ta'minlaydi. Ularni voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya berish, o'qituvchiga yuklatilgan talablarning kun sayin ortib borishi, ularni hal etish vazifasi o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq.

Hozirgi zamon o'qituvchisi o'z pedagogik mehnati jarayonida qator ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. U, avvalo, ta'lim muassasalari o'quv jarayonining asosiy tashkilotchisi. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida hamda darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilarning porloq kelajagi uchun javobgar shaxsdir. Ushbu ulkan mas'uliyat ijobiy natijalar berishi uchun o'qituvchi, avvalo, o'zining pedagogik mahoratiga tayanadi. Pedagogik mahorat shunday bir malakalar yig'indisidirki, uning natijasi o'qituvchi mehnatida va o'quvchilar xulqi, odobi, tarbiyasida, kelajakda yetuk mutaxassis kadr bo'lib yetishishida o'z aksini topadi. O'qituvchi o'zining qizg'in mehnatini ilmiy asosda tashkil etishi uchun pedagogik

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni

mahoratning quyidagi komponentlarini ma'lum darajada o'zlashtirishi lozim:

- yoshlar psixologiyasiga oid bilimlarga ega bo'lishi;
- nutq madaniyatining barcha turlari va metodlarini bilishi;
- o'qituvchi qobiliyati (empatiya, perseptiv, didaktik, konstruktiv, kommunikativ, anglash) ning mohiyatini anglashi;
- aktyorlik mahoratini (mimika, pantomimika, notiqlik san'ati) egallashi;
- o'z kayfiyatini (hissiy psixik holat) boshqara olishi;
- tarbiyalanuvchilar bilan muloqot va muomala madaniyatini o'zlashtirishi;
- pedagogik texnika uslublarini o'z o'rnida qo'llay olish san'atiga ega bo'lishi.
- ta'limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini puxta bilishi hamda o'qitishning zamonaviy texnik vositalaridan foydalana olishi.

Ushbu pedagogik mahorat komponentlari mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy talablar mohiyatidan kelib chiqishi kerak. Milliy mafkura, umummilliy dastur talablari, urf-odat va an'analar pedagogik mahorat asosida tashkil etiladigan o'qituvchi mehnatining asosiy mohiyatida o'z aksini topishi kerak.

O'qituvchi mehnatining muvaffaqiyati va samarasi uni ilmiy jihatdan puxta tashkil etishga, mehnatni oqilona uyushtirishga ta'sir etadigan shart - sharoitlarga va mehnatni amalga oshirish yo'llarini to'g'ri belgilashga bog'liq. O'qituvchi mehnati doimo ijodkorlik bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun mehnatni amalga oshiruvchi o'qituvchi, avvalo, o'z mehnatini rejalashtirishda, o'zi puxta egallagan pedagogik mahoratiga va o'z ilmiga tayanishi lozim. Hozirgi zamon axborot kommunikatsion texnologiyalarining taraqqiyoti davrida o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish fan va texnika yutuqlarini o'qituvchi tomonidan qay darajada o'zlashtirilishiga ham bog'liq.

Shu bilan birga o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish uchun fanlar integratsiyasini, pedagogika va psixologiya fanlarining eng so'nggi yutuqlarini muntazam o'zlashtirib borish shart. Ushbu bilimlar axborot kommunikatsion texnologiyalari, matbuot, ilmiy jurnallar, ilmiy adabiyotlar asosida o'zlashtiriladi.

O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda vaqtdan unumli foydalanish, o'zining keng imkoniyatlarini hamisha hisobga olish, o'quv va tarbiya jarayonida har bir daqiqadan unumli foydalanish, vaqtni bekorga o'tkazishga yo'l qo'ymaslik muvaffaqiyat garovidir. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda, avvalo:

- o'z ijodiy imkoniyatlariga ishonishi;
- ta'lim muassasalarida olib boriladigan ta'lim - tarbiya jarayonini to'liq tasavvur eta olishi;
- har bir tarbiyalanuvchining ruhiy holatini puxta bilishi;
- o'z mehnati mexanizmini, qonuniyatlarini, cheklangan imkoniyatlarini yaxshi anglashi;
- ta'lim-tarbiya jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan unumli foydalanishni bilishi shart.

O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etish bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy-foydali mehnat bo'lib, u yuqorida ta'kidlab o'tilganlardan tashqari, aql va diqqatni, jismoniy kuchni, shijoat va g'ayratni talab etadi.

O‘qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etishning quyidagi vositalarga e’tibor berish lozim.

O‘QITUVCHI MEHNATINI ILMIY JIHATDAN TO‘G‘RI TASHKIL ETISH VOSITALARI

1. Mehnat faoliyatini to‘g‘ri rejalashtirish
2. Belgilangan vazifalarni tashkil etish va amalga oshirish.
3. O‘z mehnatini muntazam boshqarish va nazorat qilish.
4. O‘z - o‘zini nazorat qilishi (refleksiya).
5. O‘z - o‘zini aniqlash

43-chizma. O‘qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish

O‘qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi ularni mustaqil, erkin faoliyat ko‘rsatishiga, o‘z fikr-mulohazalarini aniq va mukammal bildirishiga, har tomonlama shakllangan komil insonni tarbiyalashga, o‘z kasbini puxta o‘zlashtiradigan yetuk mutaxassis tayyorlashga zamin yaratadi.

O‘qituvchi mehnati ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishida o‘quvchilar bilan olib borilayotgan faoliyatning quyidagi yo‘nalishlariga e’tibor berish lozim:

- o‘qituvchi va o‘quvchilarning ikki tomonlama bir-biriga ta’siri natijalari;
- o‘qituvchining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlay olish qobiliyati;
- sinf jamoasi faollari bilan olib boriladigan pedagogik faoliyatning ijobiy natijalari.

O‘qituvchi mehnatining ta’lim-tarbiyaviy mohiyati ijobiy natijalar berishi uchun, o‘qituvchi sinf jamoasi bilan o‘tkazilayotgan har qanday tadbirni belgilangan vaqtda amalga oshirishi, mehnat va dam olish uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalana olishi, o‘z mehnati faoliyatida sog‘ligiga, ruhiy holatiga e’tibor berishi lozim.

Ayniqsa, yosh o‘qituvchilar mehnatini ilmiy asosda to‘g‘ri tashkil etishda quyidagi boshlang‘ich yo‘nalishlar muhim ahamiyatga ega:

1-yo‘nalish. O‘qituvchi kasbiga oid faoliyat:

a) o‘z ishiga, mutaxassisligiga oid bilimlarni mukammal egallash;
b) mamlakatimiz Qonunlari, ta’lim sohasiga taalluqli hujjatlarni puxta bilishi;
d) pedagogika, psixologiya va o‘z mutaxassisligiga oid eng so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lib borish;
e) o‘quvchilar jamoasi va har bir shaxs haqida ma’lumotlarni o‘rganish;
f) ilg‘or va tajribali o‘qituvchilar mehnat faoliyatini o‘rganish va o‘z ishida tadbiq etish;
g) o‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini tarbiyalash.

2-yo'nalish. O'z kasbiy mahorat elementlarini hosil qilish:

a) pedagogik faoliyatga oid, shaxsiy pedagogik mahoratni takomillashtiruvchi ko'nikma va malakalarni egallash;
b) o'z mehnatini va qobiliyatini me'yorida to'g'ri ishlata olishi;
d) mutaxassislikka oid ma'lumotlardan to'g'ri foydalana olishi uchun diqqatni jamlay bilish.

3-yo'nalish. O'quvchilar guruhi bilan ishlay olish:

a) pedagogik faoliyatning shart-sharoitlari va guruh jamoasidagi ma'naviy holatni boshqara olish;
b) guruh jamoasidagi psixologik muhitni doimiy nazorat qilish;
d) ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga ijodiy yondashuv;
e) pedagogik faoliyatga insonparvarlik va demokratik prinsiplar asosida yondashish;
f) o'quvchilar xulqi va bilimini o'z vaqtida rag'batlantirib borish;
g) jamoada shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilishni to'g'ri tashkil etish;
h) o'quvchilarning kundalik rejimga to'g'ri va doimiy rioya qilishini tashkil etish.

Pedagogik mehnatni ilmiy asosda to'g'ri tashkil etishda o'qituvchining kun tartibi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'zi uchun eng optimal bo'lgan va yuqori samara beradigan kun tartibini tanlay olishi lozim. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda qo'yiladigan talablar ilk bor I.P. Rachenko, R. Rasulova kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ularning tavsiyasiga ko'ra o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etishda eng muhim talablar sifatida quyidagilar e'tirof etiladi[1]:

I.P. RADCHENKO, R. RASULOVA KABI OLIMLAR TAVSIYASIGA KO'RA O'QITUVCHI MEHNATINI ILMIY ASOSDA TO'G'RI TASHKIL ETISHDA ENG MUHIM TALABLAR.

1. pedagogik faoliyatni aniq rejalashtirish;
2. faoliyatni qizg'in uyushtirish va unda ishtirok etayotgan obyekt va subyektlarning imkoniyatlarini yagona maqsadga yo'naltirish;
3. o'z mehnatini muntazam boshqarish va nazorat qilish.
4. tarbiyalanuvchilar yutuqlarini muntazam rag'batlantirib borish;
5. ta'lim-tarbiyaviy nazoratni bir maromda olib borish.

44-chizma. O'qituvchini mehnatini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etishda eng muhim talablar

Rejalashtirishdagi asosiy e'tibor uyushtiriladigan barcha pedagogik faoliyat turlarini *va unda ishtirok etayotgan* jamoa va uning a'zolarini umumiy pedagogik maqsadga

[1] *Раченко И.П. Диагностика развития педагогического творчество учителя. – Пятигорск, 1992.– 196 с.*

birlashtirishni nazarda tutadi. Bunda ta'lim va tarbiyaning yaqin, o'rta, uzoq maqsadlarini inobatga olish e'tirof etilgan.

Ta'kidlash joizki, o'qituvchining kun tartibi uning faoliyati va hayotini tartibga soluvchi asosdir. U yo'q joyda mehnat unumi ham past bo'ladi, asablar tez charchaydi, sog'likka putur yetadi. Natijada o'qituvchi sarf qilgan kuchini qayta tiklay olmaydi, mehnat unumdorligi pasayadi, ish qobiliyati susayadi, oqibatda ta'lim-tarbiyaning sifati yo'qoladi. Demak, ilmiy asoslangan kun tartibi o'qituvchilarning o'z mehnatini to'g'ri va mukammal tashkil etish vazifasini hal etishga qo'yilgan ilk qadamdir desak mubolag'a bo'lmaydi. O'qituvchining pedagogik mehnatini ilmiy asosda tashkil etish shartlaridan yana biri ish o'rnini tartibga solish va mehnat sharoitini o'z faoliyatiga moslashtirishdir. O'qituvchining ish joyi yashash jarayonining bir qismi bo'lib, mehnat unumdorligining yuqori bo'lishiga ta'sir etadi. O'qituvchining ish joyi, xususiyati, pedagogik mehnatining mazmuni va xususiyati bilan belgilanadi.

Mehnat sharoiti, kun tartibi kompleks tushuncha. Unda o'qituvchining mehnat qilayotgan joyi, aniq vaziyatlar e'tiborga olinib quyidagi tamoyillar asosida takomillashtirilib boriladi.

Pedagogik mehnatning samaradorligi, maqsadi va faoliyat vazifasiga ko'ra aniq bir yo'nalishni belgilash o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning birinchi tamoyilidir.

Ikkinchi tamoyil mutaxassislikka oid bilimlarni uzluksiz o'zlashtirib borish va qizg'in pedagogik faoliyat uslubini belgilash.

Uchinchi tamoyil pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etishda texnik vositalar, axborot va kompyuter texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanishni mukammal bilish tushuniladi. Bunda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik texnologiyalar ham e'tiborga olinadi.

To'rtinchi tamoyil ta'lim-tarbiya birligini ta'minlagan holda pedagogik faoliyatni rejalashtirish. Ushbu tamoyil reja asosida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tartibga solish, uning modelini yaratish, tayanch tizimlarni topish kabi masalalardan tashkil topgan.

Pedagogik faoliyatni aniq maqsadlar asosida rejalashtirmasdan turib shaxsni va jamoani tarbiyalash va ularni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash mumkin emas, bu esa jamiyatga ham ijtimoiy, ham iqtisodiy zarar keltiradi. Pedagogik mehnatni nazorat qilish va hisobga olish o'qituvchi faoliyatini muntazam kuzatib borish yutuq va kamchiliklarini aniqlash, muhimlarini ajratib olishni nazarda tutadi. Hisobga olishning eng maqbul yo'li statistik hisobga olishdir. Pedagogik nazoratda obyektivlik, omilkorlik, samaradorlik, muntazamlilik va oshkoralik talab qilinadi.

O'qituvchi mehnatini nazorat qilish va hisobga olishning muntazamligi, izchilligi quyidagilardan tashkil topadi:

- o'quv materiallari va tarbiyaviy tadbirlarga tayyorlanishni o'zi tomonidan nazorat qilinishi;
- darsdan tashqari vaqtlarda ta'lim-tarbiyani nazorat qilish va o'zining yutuq va kamchiliklarini kuzatish;

- o'qituvchining darsdan tashqari vaqtini o'zi nazorat qilishi;
- ota-onalar va jamoatchilik bilan bajariladigan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni nazorat qilishi;
- o'z ustida muntazam ishlash, ijod qilishi.

O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda har jihatdan mukammal tashkil qilish mamlakatimizning mustaqillik prinsiplariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir yosh avlodni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi o'zining qizg'in mehnatini pedagogik jamoa, ota-onalar, oila, mahalla qo'mitalari, turli jamoatchilik markazlari bilan o'zaro puxta hamkorlikda olib borgandagina ta'lim-tarbiyaning samaradorligi yanada oshadi.

15.2. OBYEKTIV - SHAXSIY XUSUSIYATLARNING O'QITUVCHI MEHNATIGA TA'SIRI

O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilib o'rganish fan olamida yangi soha bo'lmasa ham, biroq so'nggi yillardagi global o'zgarishlar, fan va texnikaning, informatsion axborot texnologiyalarining jadal sur'atda rivojlanishi bu sohaga ham har yili turli yangiliklarning olib kirilishini talab etmoqda. Bevosita o'qituvchi mehnatini o'rganuvchi fanlar, ya'ni pedagogika, psixologiya, pedagogik menejment, ijtimoiy pedagogika kabi fanlarning bu sohada o'zaro manfaatlari doimo bir-birlarini to'ldirib kelsada, olib borilayotgan ilmiy kuzatishlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ladiki, hali oldinda yechimini kutayotgan muammolar yetarli. Hozirgi zamon ilmiy nazariy va metodologik tizimlariga tayangan holda ta'kidlash joizki, o'qituvchi mehnatiga ta'sir qiluvchi hamda ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan muhim yo'nalishlardan biri o'qituvchining obyektiv-shaxsiy xususiyatlari bo'lib, u pedagogik mahoratni mukammal takomillashtirib borishda ham muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchi mehnatiga ta'sir qiluvchi hamda ko'plab holatlarda uning sifat va samaradorligini oshirilishini belgilovchi ushbu xususiyatlar quyidagilarni o'zida mujassamlashtiradi:

O'QITUVCHI MEHNATIGA TA'SIR QILUVCHI VA KO'P HOLATLARDA UNING SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI OMILLAR

1. Yosh o'qituvchining kasbiy mahorati
2. Yosh o'qituvchining iqtidori va qobiliyati
3. O'qituvchining pedagogik texnikasi
4. Ixtisosligi bo'yicha egallagan bilimlar darajasi
5. Pedagogik faoliyatda o'qituvchining yosh xususiyatlari va mehnat staji

6 Yosh o'qituvchining kasbiy turg'unligi
7 O'qituvchining ijodkorligi va mehnatda faolligi

45-chizma. O'qituvchi mehnatining sifat va samaradorligini belgilovchi xususiyatlar.

Ta'kidlab o'tilgan omillarning har biri o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi va ular o'qituvchi mehnat faoliyatini tashkil etuvchi o'zining bir-biri bilan o'zaro aloqador ichki tizimlariga va o'zaro ta'sirlarni shakllantiruvchi mustaqil tizimni tashkil etuvchi elementlariga ega.

Yosh o'qituvchining kasbiy mahorati obyektiv-shaxsiy xususiyatlar tizimining yetakchi omillaridan biri bo'lib, uning tarkibiy tizimlari nihoyatda rang-barangdir. Pedagogikada yosh o'qituvchining kasbiy mahorati olimlarimiz tomonidan "Pedagogik faoliyatda belgilangan vaqt ichida o'qituvchining optimal natijalarga erishishida namoyon bo'luvchi oliy darajadagi mehnati" sifatida, "o'qituvchining tinimsiz mehnati va izlanishlari natijasida doimiy takomillashtirilib boriladigan muhim ta'lim va tarbiyaviy san'ati namunasi", yoki "o'qituvchining ilmiy bilimlarni, kasbiy ko'nikma va malakalarni hamda metodologik bilimlarni o'z mehnatida va kasbiy sifatlarida namoyon etishi" kabi fikrlar bilan ta'riflanadi.

B.T.Lixachev o'qituvchining kasbiy mahoratini pedagogik san'atning noyob bir qismi sifatida ta'riflab, shunday yozadi: "o'qituvchining kasbiy mahorati deganda uning yuksak pedagogik-psixologik bilimlari, kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, takomillashgan pedagogik fikrlash layoqati va rivojlangan ichki intuitsiyasi, hayotga nisbatan axloqiy-estetik munosabati, o'z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat'iy irodasi tushuniladi"[1]. Qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, quyidagi to'rtta komponent yosh o'qituvchi kasbiy mahoratining asosiy tashkil etuvchi komponentlari hisoblanadi:

- o'z kasbini sidqidildan sevishi;
- o'z fanini va uni o'qitish metodikasini mukammal bilishi;
- pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi;
- pedagogik texnikani mukammal bilishi, notiqlik san'atini o'z o'rnida qo'llay olishi.

Ushbu komponentlar o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etilishida o'z kasbiga bo'lgan mehr-muhabbati, ijobiy munosabati va uni takomillashtirish istagini paydo qiladi. Yosh o'qituvchining kasbiy mahorati shakllantirilgach, u shaxsning kasbiy xususiyatiga aylanadi va refleksiv qobiliyatining rivojlanishiga ham ta'sir qiladi, natijada pedagogik mehnat faoliyatining samaradorligi oshadi.

Yosh o'qituvchining iqtidori va qobiliyati rivojlanganligi o'z mehnatini pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Pedagogikada o'qituvchi qobiliyati – bu ulkan imkoniyatdir, uning mohirligi, mehnatsevarligi faqatgina o'qitish va tarbiyalash

[1] Лихачёв Б.Т. Простые истины воспитания. – М.: Педагогика, 1995.- 192 с.

jarayonida takomillashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. O'qituvchi qobiliyati zehnining o'tkirligidan dalolat beradi. Iqtidor, iste'dod, daholik – o'qituvchining ijodiy mehnati jarayonida erishiladigan natijalarining rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar, inson xarakteri kabi, shaxsning faqatgina ma'lum faoliyatidagina mavjud bo'lgan sifatlardir.

Psixologiyada qobiliyatga – insonning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni qiyinchiliksiz, osonlik bilan mukammal egallashi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi deb ta'rif beriladi.

Demak, o'qituvchining iqtidori va qobiliyati uning mehnatini har tomonlama mukammal shakllantirib, ilmiy jihatdan ijodkorligini to'g'ri tashkil etishga ta'siri cheksiz ekanligidan dalolat beradi. Iqtidor va qobiliyat o'qituvchining mehnat faoliyatida:

- o'z kasbiga bo'lgan munosabati asosida kasbiy ehtiyojini kuchaytiradi;
- kasbiy faoliyatga chinakam qiziqish namunalarini rivojlantiradi;
- pedagogik mahorat asoslarini egallashda bir maqsad sari intiluvchanlikni shakllantiradi;
- o'z ilmiy mehnati uchun ahamiyatga ega bo'lgan ijodkorlik sifatlari majmuasining yuzaga kelishini ta'minlaydi.

O'qituvchining iqtidori va qobiliyati psixologik texnologiyalar bilan kuchaytirilib modifikatsiyalanadi va o'qituvchining mehnat faoliyatida bu muhim ahamiyat kasb etadi: muloqot qilish (kommunikativ), voqealarni oldindan ko'ra olish, eshitish va his qilish, o'zligini bilish, tushunish va his qilish kabi qobiliyatlar o'qituvchi mehnatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtidor va qobiliyat o'qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyatli o'qituvchilar pedagogik mehnat faoliyatida qobiliyati past o'qituvchilarga qaraganda ko'proq ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi. Qobiliyatli, ammo noshud o'qituvchi ko'p narsaga erisha olmaydi.

Iqtidor va qobiliyat o'qituvchining amaliy va nazariy bilimlarni chuqur egallashda tezroq siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Qobiliyatli bo'lajak o'qituvchi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori natijalarga erishadi hamda ishlab chiqarishda, fan va texnika jarayonlariga yangilik kirita oladi.

O'qituvchining iqtidori va qobiliyati – N.V.Kuzminaning fikricha, pedagogik faoliyat talablariga javob beruvchi va ta'lim-tarbiyada belgilangan maqsadga osonlikcha erishishni ta'minlovchi hamda mehnat unumdorligini oshiruvchi xususiyatlar majmuasidir. N.V.Kuzmina iqtidor va qobiliyat o'qituvchining mehnat faoliyatiga, izlanayotgan natijalarni egallashning eng samarali usullarini topishga o'ziga xos sezgirlikdan iborat individual, turg'un xususiyatlar deb ta'rif beradi va pedagogik qobiliyatlarning refleksiv darajasi uch xil turdagi sezgirlikni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi:

- tarbiyalanuvchi obyektni his qilishi;
- me'yor va xushmuomalalikni his etishi;
- o'z kasbiga nisbatan javobgarlikni his qilish.

O'qituvchining pedagogik texnikasi – nafaqat ta'lim–tarbiya jarayonida, balki butun mehnati faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalarining yig'indisidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari – pedagogik faoliyatda uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasini va bilimini tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, o'z his-tuyg'ularini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabi o'qituvchining mahoratini belgilovchi qizg'in mehnatida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi mehatida pedagogik texnika qanday ko'nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika o'qituvchining ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil qilishida, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday ahamiyat kasb etishi doimo dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda.

O'qituvchi mehnatida pedagogik texnika uning shaxsiy axloqiy fazilatlari va xulqi bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa, o'z-o'zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo'ladi:

- o'z xatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika);
- o'z hissiyotini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo'ya ta'sirlarga berilmasligi;
- ijtimoiy perseptiv (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) qobiliyatlarga egaligi;
- nutq texnikasini bilishi va o'z o'rnida qo'llay olishi.

Pedagogik texnika o'qituvchi mehnatida shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini ham qamrab oladi:

- ta'lim va tarbiyaviy rejalar asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;
- o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan har qanday ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
- o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

O'qituvchi mehnatida aktyorlik san'atiga xos bo'lgan xususiyatlar, ya'ni mimik va pantomimik qobiliyatlar muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega ekanligi, uning butun o'quv yili davomida, har bir darsda yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan bog'lab, zamonaviy integrasion usullar asosida o'quvchilar ongiga yetkazishida, sinf jamoasida o'ziga xos pedagogik va psixologik muhitni yarata olishida, har bir o'quvchining shaxsiy psixologik xususiyatlarini e'tiborga olib mashaqqatli mehnati bilan ulkan mas'uliyatni his etib, uni yuqori saviyada bajarishida namoyon bo'ladi.

Demak, pedagogik texnika o'qituvchining mehnat faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisiki, u o'qituvchining pedagogik faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishida, asablarining bir maromda harakatlanishi va saqlay olishida, ta'lim-tarbiya

jarayonini to'g'ri tashkil qilish va boshqarishida yuksak natijalarga erishishi uchun asosiy yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi.

Ixtisosligi bo'yicha egallagan bilimlar darajasi. O'qituvchining ko'p yillik pedagogik mehnati kasbiy mahorat bo'la olmasligi mumkin. O'qituvchining kasbiy mahorati ixtisosligi bo'yicha egallagan bilimlar darajasi va kasbiy tajribalari asosida paydo bo'ladi. Kasbiy tajribalar o'z kasbidan qoniqmagan, biroq yillar davomida o'zining xizmat majburiyatlarini sidqidildan bajaruvchi o'qituvchida ham yuzaga kelishini unutmaslik kerak. V.I.Zagvyazinskiyning ma'lumotlariga ko'ra 80 foiz o'qituvchilar u yoki bu darajada, 20 foiz o'qituvchilar esa to'liq o'z ishlaridan qoniqmaydilar. Bunday o'qituvchilarda – hatto ixtisosligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lsalar ham, pedagogik mahoratning muhim elementlaridan biri – ixtisosligi bo'yicha bilimlar darajasini ko'rsatuvchi "ijodkorlik tuyg'usi", o'qituvchining o'ziga xos ruhiy va jismoniy holati sifatida shakllanmaydi[1].

Bilim va ixtisoslik – nafaqat o'qituvchining mehnat faoliyatiga ta'sir qiluvchi, balki uni, ham to'liq, ham qisman kasbiy mahoratini belgilovchi obyektiv-shaxsiy omillar tizimidagi prinsipial elementlardir. O'qituvchining bilimi uning kasbini belgilovchi diplomi, sifati bilan, ya'ni ta'lim muassasalaridagi mehnati jarayonidagi xususiyatlari va yutuqlari bilan aniqlanadi. Bilim va ixtisoslik – bu qizg'in mehnatga tayyorgarlik sifatida ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning o'zidir. Bilim va ixtisoslikning birligida mehnat, o'qituvchining tashkilotchiligi va mazmun jihatidan mukammal pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Ixtisoslik o'zgaruvchan va harakatchan jarayondan iborat. Pedagogik amaliyotda bu bog'liqlikning o'zaro ta'siri haqida yetarlicha turg'un tasavvur yuzaga kelgan: chunonchi, oliy ta'lim – oliy ixtisoslik. O'qituvchilarda fanni o'qitishning nazariy muammolariga, butun fanlarning metodologiyasiga va texnologiyalariga ko'proq qiziqish mavjud. O'qituvchilarning chorakdan kamroq qismi bilimlar egallash darajasiga hayotiy qadriyat sifatida qaraydilar, undan ham kamrog'i, ya'ni 10 foizi – mukammal kasbiy tayyorgarlikni, pedagogik mehnat nufuzini oshirishda hal qiluvchi jarayon deb hisoblaydilar.

Bu muammoni his qilgan o'qituvchilarning bir qismi o'z ixtisosliklari bo'yicha o'qitishning mustaqil ijodiy dasturini tuzish yo'liga o'tadilar va bu bilan ta'lim va tarbiya berish komponentini kengaytiradilar. Mehnatda ma'no va ahamiyatni birlashtiruvchi "jonli bilim" tushunchasi ana shundan paydo bo'lgan. Bunda ma'no tushunchasi "inson turmushida individual ongning chuqur joylashganini" bildiradi (ushbu tushuncha G.G.Shpet tomonidan ta'riflangan), ahamiyat tushunchasi esa – ongning jamiyatga, millat ma'naviyati va mafkurasiga jalb etilganligini bildiradi.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchining yosh xususiyatlari va mehnat staji. O'qituvchining yoshi va ish staji – mehnatga ilmiy yondashish jarayonining turli bosqichlarini aks ettiruvchi, unda ijodiy energiyaning yuzaga kelishidan tortib yetilishigacha va so'nishigacha bo'lgan obyektiv-shaxsiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Sotsiologlar bu xususiyatlarni keksayishni hamda g'ayrat va optimizmni yo'qotishni tan olmaydigan pedagogik mehnatning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'lab o'rganish

[1] Загвязинский В.И. Педагогическое творчество учителя. – М.: Педагогика, 1990.- 160 с.

zarurligiga e'tiborni qaratishadi. O'qituvchining yosh ko'rsatkichi – bu keksayish emas, balki yoshlik hislatlarini va shijoatini saqlab qoluvchi, har bir yangi avlod dunyoqarashiga ko'nikma hosil qilib, o'ziga singdira oladigan, ularni tushunadigan, hayotiy tajribalar asosida donishmandlik mohiyatini belgilovchi holat ko'rsatkichidir. Tadqiqotchilarning aniqlashicha, yosh o'qituvchilar ko'p holatlarda 50 dan oshgan yoki nafaqa yoshidagi tajribali o'qituvchilarga taqlid qilish uchun ularni o'zlariga obyekt sifatida tanlashlari tasodifiy hol emas. Bu ularni pedagogik faoliyatda uchraydigan ko'plab ziddiyatlardan oson chiqib ketishni ta'minlaydi.

O'qituvchining mehnat faoliyatida yosh muammosining ahamiyati ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarida keng yoritilgan. Ushbu tadqiqot ishlari o'qituvchining kasbiy "cho'qqilarni zabt etishi", pedagogik krizislarni boshidan kechirishini, o'z mehnatidan ko'ngil sovushlarini, ba'zida "tinchlanish" davrini o'tagan yuzlab yosh mutaxassislarning o'qituvchilik kasbiga "singib ketishi" naqadar murakkab va shiddatli jarayon ekanligini aks ettiradi. Gap bu yerda ish stajida ham, o'quvchilar yoki o'qituvchilar jamoasida ham emas, balki shaxs hayotiy faoliyatining turli tomonlariga obyektiv ta'sir qiluvchi yosh xususiyatlarida bo'lib, bu xususiyatlar hayot va kasbga munosabatlarni, o'zining ruhiy qadriyatlarini va risolalarini o'zgartiradi. Ushbu muammolar bevosita o'zining keyingi tadqiqotlarini kutmoqda, uning amaliy mazmuni ham muhim: ta'lim muassasalariga butun umrini bag'ishlagan keksa otaxon va onaxon o'qituvchilarni qanday qilib saqlab qolish, o'qituvchiga esa yosh bo'lib qolishga qanday yordam berish mumkin. Qo'yilgan muammo tabiiy holda mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning demokratik jamiyat qurish uchun naqadar dolzarb ekanligini yana bir bor bildiradi.

Pedagogik faoliyatga ta'sir qiluvchi obyektiv–shaxsiy omillar guruhida yosh o'qituvchining kasbiy turg'unligi ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'qituvchining kasb tanlashida o'z tanlovining to'g'riligiga va asosliligiga ishongan holda uzoq vaqt davomida faoliyat ko'rsatishidir deb talqin qilinadi. Mehnat jamoasini tadqiq qilishda kasbiy turg'unlik kadrlarning aniq va bir maromda potensial oquvchanligiga asosan aniqlanadi. O'qituvchi kadrlarning potensial oquvchanligida – ishini yoki o'z kasbini o'zgartirishni xohlovchi pedagoglarning miqdoriy va sifat darajasi tarkibi hisobga olinadi. Bunda ta'lim muassasasida yoki biror lavozimda uzoq vaqt mehnat qilgan xodimlarning miqdoriy va sifat ko'rsatgichi hisobga olinadi.

KASBIY TURG'UNLIKNING AHAMIYATI O'QITUVCHILAR MEHNAT FAOLIYATINI BIR QOLIPGA SOLIB O'RGANISHDA MUHIM ROL O'YNAR EKAN, UNING QUYIDAGI VOSITALARIGA E'TIBOR QILINISHI LOZIM:

1. o'qituvchida ish joyini yoki kasbini o'zgartirish istagining mavjudligi va ifodalanganlik darajasi;
2. o'qituvchining o'z kasbini o'zgartirishiga turtki bo'lgan sabablar yoki shart-sharoitlar;
3. boshqa biror kasbni tanlab, unda ishlash istagi turtki bo'lgan hodisalar yoki voqealar;

4 o'qituvchining bir joyda uzoq vaqt pedagogik faoliyat olib borishining asosiy motivlari va sabablari;
5 yangi kasbni tanlab, unda muvaffaqiyatli faoliyat olib borishga turtki bo'lgan motivlar va sabablar.

46-chizma. Kasbiy turg'unlikning ahamiyatini belgilovchi vositalar

O'qituvchilik kasbini o'zgartirishni istamagan holda, pedagogning o'z ish joyini tez-tez o'zgartirish holatlari alohida tahlil qilinadi.

O'qituvchining kasbiy turg'unligi ko'pincha "ta'lim muassasasiga bog'lanib qolganlik" iborasi bilan izohlanadi. O'z kasbiga nisbatan mehr-muhabbati tufayli ta'lim muassasasiga bog'lanib qolish – bu o'qituvchilar jamoasi bilan birlashib ketish tuyg'usi, ta'lim muassasasiga dahldorlik, javobgarlik hissi, ta'lim muassasasini qadrdon uyi sifatida qabul qilganligi uchundir. Intellektual darajada ta'lim muassasasiga bog'lanib qolish o'qituvchilar jamoasining qadriyatlarini, uning istiqbol rejalarini rivojlantirish g'oyalarini ongli ravishda qabul qilish, ta'lim muassasasi ma'muriyatining obro'-e'tibori, yutuq va kamchiliklarini o'ziniki deb bilish, jamiyatimiz tomonidan ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni ta'lim muassasasi hayotiga tatbiq etish, ta'lim muassasalarida zamonaviy talablar darajasida integratsion yangiliklarni, axborot texnologiyalarini joriy etishga intilish, sog'lom turmush tarzini yaratishga urinishda, bolalarga mehr qo'yib ular bilan ishlash istagida va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Ta'lim muassasasiga qiziqish bilan bog'lanib qolishlik ishga kirishuvchanlikni, mehnat faolligini oshirishni, o'z kasbiga sadoqatli bo'lishni, qiziqishni talab etadi. Ayniqsa, faollik – bu o'qituvchining atrof-muhit bilan hayotiy muhim aloqalarini ijodiy yo'naltirish yoki o'zgartirishni amalga oshiruvchi xususiy dinamikasidir. O'qituvchining faolligi uning subyektivligi ifodasi sifatida ikki yo'nalishda olib boriladi: me'yoriy holatlarni yuzaga keltiruvchi jamiyatimiz talablariga tez moslashuvchanligi (adaptivlik), har qanday salbiy, ziddiyatli holatlardan chiqishda, qiyinchiliklarni mustaqil ravishda o'zi yengishida, o'z tajribasiga va bilimlariga tayangan holda yangiliklar yarata olish imkoniyatini beruvchi kreativligida namoyon bo'ladi.

O'qituvchining ijodkorligi va mehnatda faolligi. Ijodkorlik – o'qituvchining o'z mehnati jarayonida mustaqil faoliyat olib borishi. Kasbiy faoliyatning ta'lim mazmunini belgilovchi sifatlari o'qituvchining ijodkorligida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik – bu o'qituvchining ta'lim va tarbiya jarayonida sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror ilmiy yangilikni paydo qiluvchi faoliyatidir.

O'qituvchining mahsuldor ijodkorligida belgilangan har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi, ijod qilishga layoqati bo'lgan o'qituvchilarning asosiy qismida bu jihatlar namoyon bo'ladi.

O'qituvchining evristik ijodkorligi, jahonda ro'y berayotgan kasbiy faoliyatiga oid yangiliklarni dadil o'zlashtirish va targ'ib qilishni anglatadi, ya'ni uning asosida g'oyalar (farazlar) hosil qilish jarayonini intensifikatsiya qilish va ularning haqiqatga yaqinligini

(ehtimolligini, ishonchliligini) izchil amalga oshirish va bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobiliyati, fikrlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi.

O'qituvchining kreativ ijodkorligida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi nazariyalarni yaratish mujassamlashgan, u o'zining mustaqil g'oyalari va takliflari bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli o'qituvchilargina bunga erishishi mumkin.

Yevropalik sotsiologlar o'qituvchining mehnatdagi ijobiy holatlarini "oqimni his qilish", ya'ni o'z faoliyatiga to'liq kirishib ketish va faoliyat jarayonidan qoniqish hosil qilish deb atashadi, bu esa o'z navbatida o'qituvchining yuqori ichki refleksiv holati kuchli bo'lishi haqida guvohlik beradi. O'z kasbi jarayonida ijodkorlikni va mehnatidan qoniqishni his qilmaydigan o'qituvchilarning mehnat faoliyati ko'pincha harakatsizlikka, asablarining tez charchashiga va g'ashlikka olib keladi.

Mehnatda faollik – bu o'qituvchining mehnat sohasida olib boradigan mustaqil harakatidir. Pedagog mehnat faolligining o'ziga xos tomoni – o'quvchining ta'lim va tarbiyaviy faolligini oshirishga qaratilganligida namoyon bo'ladi. Bunda o'qituvchi faqat o'z fanini puxta bilishi yetarli bo'lmasdan, pedagogik-psixologik malaka va ko'nikmalarni, ta'lim va tarbiyaviy texnologiyalarning keng spektrini, har qanday pedagogik vaziyatlarni hal qilishda mustaqil faoliyat olib borishni unutmasligi kerak. Bu talablar pedagog mehnatining muhim o'ziga xos tomonini tashkil qiladi. O'qituvchi doimo o'zining boy bilimi va tajribalari asosida yig'ilgan shaxsiy pedagogik resurslariga tayanib butun o'qituvchilik faoliyati davomida mehnat qiladi. U ta'lim va tarbiyada o'ziga yoqqan metodlarni, vosita va usullarni tanlaydi, yangilikka intiladi. Barcha pedagogika oliy o'quv yurti talabalari buni yetarlicha aniq tushunishadi. Agar birinchi kurs talabalarining 59 foizi o'qituvchilik kasbini o'zining iste'dodi deb hisoblasa, to'rtinchi kursga kelganda bunday talabalar soni 2,5 barobarga kamayadi.

Sinf jamoasining psixologik o'zgaruvchan tarkibi, jamoa a'zolarining bir-birlari bilan o'zaro munosabati, o'quvchilar ruhiy holatining xilma-xilligi o'qituvchi mehnatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda sinf jamoasining xarakterini, psixologiyasini o'qituvchi o'zi xohlaganidek ijobiy tomonga rivojlantirishi, o'zgartirishi hamisha mumkin bo'lavermaydi. So'nggi yillarda o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishi, bilim olishga nisbatan passivligi sezilmoqda. Iqtidorli, qobiliyatli o'quvchilarni to'liq mustaqil o'qish bilan band qilishda ba'zi o'qituvchilarning ojizligi noroziliklarga sabab bo'lmoqda. Bu muammo allaqachon ta'lim muassasalarida o'qituvchilar faoliyatiga tegishli bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik hodisa sifatida tan olingan. Ta'lim muassasalari oldida turgan ushbu muammolar, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning bajarilishiga to'sqinlik qilmasligi uchun ta'lim va tarbiyaning asosiy ijrochisi bo'lgan o'qituvchining mehnat faolligini oshirish, ijodkorligini hozirgi zamon talablari darajasida yanada kuchaytirish lozim.

Ko'p yillik ilmiy tadqiqotlar natijasida o'qituvchining o'rtacha yoshiga nisbatan mehnat layoqatini oshirishda quyidagi holatlarga jiddiy e'tibor berish lozimligi aniqlandi:

1. Mehnatga nisbatan faollikning bir xil sikldagi xususiyati, mehnat va dam olish tartibining o'zgarmasligi.
2. Mehnatga layoqatlilik darajasi, o'z kasbini mukammal egallagan o'qituvchilarning ishlash dinamikasi.

3. Mehnat unumdorligini pedagogik tajribalar asosida uzluksiz oshirib borishi.
4. Mehnat jarayonida yuzaga keladigan turli holatlarning o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni funksional qulaylik, ruhiy charchash, ruhiy zo'riqish, his-tuyg'ularga berilish, bir xil o'zgarmaydigan faoliyat, doimiy xavotir, loqaydlik holati tez-tez tashxis qilinishi lozim.
5. Mehnatda reproduktivlikning va ijodkorlikning o'zaro munosabati, me'yordan ortiq ishlash darajasi, ijodkorlikda "tavakkal"ning mavjudligi.
6. Mehnat unumdorligini oshirishda mustaqil intilishning o'ziga xos xususiyatlari.
7. Ichki va tashqi cheklanishlarni, qarama-qarshiliklarni yengib o'tish, irodaning mustahkamligi, o'z mehnati natijalarini oldindan ko'ra bilish, mumkin bo'lmagan holatlarda faollikning o'zgarishi.
8. Innovatsiyalarning mavjudligi (faollikning yangi shakllarini o'zlashtirish).

Mehnat faolligini oshiruvchi omillar orasiga, mehnatga ijobiy munosabatda bo'lish, kasbiy jarayon yoki mehnat turiga qiziqish, ko'p holatlarda shaxsning qadriyatlarga nisbatan munosabatiga bog'liq bo'lgan uning onglilik darajasi ham kiradi.

15.3. O'QITUVCHI MEHNATIDA MA'NAVIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA NISBATAN MUNOSABATLAR

O'qituvchi mehnati faolligining unumdorligini oshiruvchi xususiyatlar, uning mehnatga erkin va ijobiy munosabatda bo'lishi, pedagoglik kasbi bilan bog'liq bo'lgan barcha mehnat turlariga qiziqishi, o'qituvchi ma'naviy dunyosining boyligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabati va onglilik darajasi bilan ham belgilanadi. Hozirgi zamon sotsiologik tadqiqotlarida o'qituvchilarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga nisbatan qiziqishlariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda, chunki har qanday jamiyatda belgilangan me'yoriy qonuniyatlar tizimi bo'lib, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar yetakchilik qiladi.

Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu qadriyatlar ta'lim-tarbiya asosida yosh avlod ongiga singdiriladi. Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar va tarbiyachilarning pedagogik mahoratida umumbashariy qadriyatlar ularning ma'naviy va madaniy dunyoqarashini naqadar keng ekanligini namoyon etadi. Buyuk allomalarimizning ta'lim–tarbiyaga oid qarashlarida umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor asosiy o'rinda turgan. Ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va

tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar. Inson axloqi aqlga, xulqi va xatti-harakati esa ilm-fanni o'rganishga hamda ma'rifatga asoslangandagina ma'naviy kamolotga erishadi. Allomalarning fikrlariga ko'ra, insonparvarlik g'oyalarining amalga oshishi, ma'naviy barkamollikka erishish, bilimli va ma'rifatli bo'lishga bog'liq. Shuning uchun ham ular ilmlilikni umuminsoniy qadriyat darajasida ulug'lashgan, jamiyatning barcha a'zolarini ilm egallashga chaqirganlar, muallimlarning shijoatli mehnatini qadrlaganlar.

Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida bilim umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishning kaliti ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ilm-ma'rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir. "Ilmning foydasi ochko'zlik bilan oltin, kumush to'plash uchun bo'lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo'lishdir"[1], deb yozadi alloma.

Falsafiy talqinda qadriyatlar – inson va insoniyat uchun beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan erkinlik, tinchlik, ijtimoiy tenglik, haqiqat, ma'rifat, go'zallik, yaxshilik kabi barkamol inson uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi holatlar yig'indisidir.

Tadqiqotchi olim O. Musurmonovaning ta'kidlashicha, qadriyatlar inson tomonidan qadrlanadigan narsalardan iborat bo'lib, kishilarning talabi, xohishi, qiziqishi va maqsadi asosida o'zaro munosabat, o'zaro ta'sir natijasida vujudga keladigan holatdir. Demak, qadriyatlarning mohiyatini pedagogik nuqtayi nazardan izohlaganimizda, insonning ma'naviy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan, amaliy faoliyatda davr sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan, o'z shakl va mazmunida xalqning ma'naviy olamini mujassam etgan, asrlar davomida xalqning ma'naviy madaniyatini shakllantirish manbai sifatida qadrlanib kelingan ma'naviy-ruhiy xatti–harakatlar, narsa va hodisalar majmui[2].

Barcha qadriyatlarning mohiyatini eng oliy tuyg'u – insonparvarlik tashkil etadi. Insonparvarlik – insonning sharafi, vijdoni va iymonining mahsuli. Insonparvarlik xayrixohlik, g'amxo'rlik, moddiy-ma'naviy madadga intilish tuyg'usi, iymon va vijdon doirasida mehr-muruvvat ko'rsatish. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida yoshlar "ta'lim-tarbiyasi insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi" davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida talqin etiladi. Ushbu sharafli g'oyalarni amalga oshirib, yoshlarni, bilimli va aqliy jihatdan kamol toptirishda, avvalo, o'qituvchining qizg'in mehnat faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yurtimizda barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazish masalasi dolzarb vazifa sifatida e'tirof etilmoqda. Bunda farzandlarimizning nainki jismoniy, balki axloqiy va ma'naviy barkamol bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun o'qituvchining o'zida bekam-u ko'st takomillashgan, eng yuksak umuminsoniy qadriyatlar tuyg'usi bo'lishi kerak. Bu tuyg'u, uning mukammal shakllangan pedagogik mahorati qirralarida doimo o'z aksini topishi zarur. Inson bolasi yoshligidan to umrining oxirigacha ilm olib, aqliy kamolot sari intilar ekan, barcha umuminsoniy qadriyatlarga ilm tufayli erishadi. O'qituvchi – ilmni xalqqa targ'ib etuvchi va yoshlar qalbiga yo'l topuvchi asosiy javobgar shaxsdir. Demak, o'qituvchi ijodiy mehnatining asosi – avvalo, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar

[1] Беруний Абу Райҳон. Ўйлар, ҳикматлар, нақллар, шеърлар. – Т.: Фан, 1996.- 44 б.

[2] Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. – Т.: Фан, 1997.- 66 б.

mohiyatidan iborat bo'lishi hamda ilm-u hidoyat, mehr-u muhabbat, sabr-u qanoat, otalarcha bag'rikenglik tuyg'ulari bilan olib borilishi lozim.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi mehnat faoliyatining umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltirilganligiga bog'liq. Bu keng qamrovli va salmoqli omillar asosida o'qituvchining butun umri davomida amalga oshiradigan ko'p qirrali pedagogik faoliyati mujassamlashgan. O'qituvchi o'zining qizg'in mehnat faoliyati va kasbiy mahorati bilan umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarga nechog'lik boy ekanligini ta'lim-tarbiya jarayonida namoyish etadi. Uning o'quvchilar jamoasi bilan olib boradigan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatidagi barcha yutuqlari ushbu qadriyatlar tufaylidir. O'qituvchi mehnat faoliyatida o'z pedagogik faoliyatini bezaydigan quyidagi qadriyatlar tizimini muntazam egallab borishi zarur:

O'QITUVCHI MEHNATINI BEZAYDIGAN QADRIYATLAR TIZIMI

1. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar
2. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar
3. Badiiy-estetik qadriyatlar
4. Aqliy bilish faoliyati bilan bog'liq qadriyatlar
5. Mehnat bilan bog'liq qadriyatlar
6. Ekologik qadriyatlar

47-chizma. O'qituvchi mehnatida pedagogik faoliyat tizimini bezaydigan qadriyatlar.

O'qituvchi pedagogik mahoratini o'zining halol mehnati bilan takomillashtirib boradi. Ushbu mehnat natijasida inson komillik darajasida voyaga yetishi lozim, buning uchun ma'naviyat va qadriyatlar yuksalishi, inson keng ma'nodagi ma'naviy shaxsga aylanishi kerak. O'qituvchi mehnatining natijasi bo'lmish barkamol inson yuksak ma'naviyatni yaratadi va rivojlantiradi, umumbashariy qadriyatlarni asraydi. O'qituvchining bilimi, pedagogik mahorati, qizg'in mehnati barkamol avlodni tarbiyalashga, ularda tashabbuskorlik, faollik, ishbilarmonlik, ijodkorlik, tadbirkorlik hislatlarini va ma'naviy ongini shakllantirishga qaratilgan. Jamiyatdagi global o'zgarishlar, texnik va texnologik taraqqiyot, dunyoviy fanlardagi o'zgarishlar va yangiliklar uning sharafli mehnatiga ta'sir qiladi. Buning uchun ijodkorlik talab etiladi. Ijodkorlik esa faqat qizg'in mehnat tufayli sodir bo'ladigan faoliyat shakli. O'qituvchi:

- mehnatsevarlik qadriyatlarining mohiyatini aqliy va jismoniy mehnatga ijodiy munosabat sifatida anglashi;
- ongli va halol mehnati bilan, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy, moddiy va ma'naviy rivojlanishiga ta'sir etishi;

- o‘z mehnati natijalaridan g‘ururlana olishi;
- o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berishda jamiyat oldidagi mas’uliyatini doimo his etishi lozim.

Mamlakatimizda “kadrlarni o‘qitish va tarbiyalash milliy tiklanish prinsiplari va mustaqillik yutuqlari, xalqning boy milliy, ma’naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yo‘naltirilgan ta’limning mazmuni davlat ta’lim standartlari asosida” olib boriladi. Ayniqsa, umumbashariy qadriyatlar asosida ta’lim oluvchining shaxsiga, unda ta’lim va bilimlarga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytirishga, mustaqil ish tutishni, insoniy qadr-qimmat tuyg‘usini shakllantirishga alohida e’tibor beriladi.

O‘qituvchi qanday umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etishi mumkin, tadqiqotlarimiz jarayonida o‘qituvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qildik: “Shaxsan siz dars jarayonida o‘quvchilarga qanday nasihat qilgan bo‘lardingiz?”. “Nasihatlar”ning asosiy mazmuni noaniq, ularda pedagogning individualligi va mavzuni tez tanlash intuitsiyasi sezilmasdi. Dars jarayonida o‘qituvchi doimo mazmunan bir xil nasihatlar beradi. Ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

- sidqidildan o‘qish zarurligini eslatish;
- mehnatsevarlikka undash, vijdoniylikka chaqirish;
- barkamol shaxs sifatida shakllanish zarurligi haqida eslatish;
- insoniylikni yo‘qotmaslikka chaqirish.

Bu chaqiriq va nasihatlar zamonaviy ta’lim muassasalarida pedagoglarning umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qilish tajribasi kamligidan dalolat beradi va ushbu muammolar haqida o‘ylab ko‘rishga majbur etadi. O‘qituvchilarning javobi bayonot yoki nasihat qilish xususiyatiga ega bo‘lishi, o‘ta mavhum hamda ta’sirli chiqishi shart emas.

O‘qituvchi mehnatidagi kasbiy natijalar uning umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati bilan o‘lchanishi Yevropa olimlarining ham ilmiy tadqiqot ishlaridan keng o‘rin olgan. Jumladan, K. Klakxon o‘qituvchining kasbiy faoliyatida umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan munosabatini turkumlarga ajratib, quyidagicha ta’rif beradi: “qadriyatlar – oshkora yoki yashiringan, individga yoki guruhga xos bo‘lgan orzu-istak haqidagi tasavvur bo‘lib, ular tomonidan kasbiy faoliyat yuzasidan bajarilayotgan mehnat turlarini, vositalarini va maqsadlarini tanlashga ta’sir ko‘rsatadi”.

Pedagogik jarayonda o‘qituvchining umuminsoniy qadriyatlarga yo‘naltirilganligi ham olim tomonidan keng tadqiq qilingan. U pedagogik qadriyatlarni takomillashtirishga nisbatan quyidagi muammolar muhim ahamiyatga ega deb ta’kidlaydi:

1. o‘qituvchining jamiyatga xos qadriyatlarni o‘zlashtirishi va targ‘ib qilish qobiliyati.
2. o‘qituvchining o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarda umuminsoniy qadriyatlarni samarali targ‘ib etish istagi va imkoniyatlari.
3. targ‘ib etilayotgan umuminsoniy qadriyatlarni o‘quvchi tomonidan muntazam qabul qilinishi uchun o‘qituvchining zarur shart-sharoitlarni yaratganligi.

Pedagog olimlar o‘z tadqiqotlarida o‘qituvchilarning umuminsoniy qadriyatlarga munosabatini va ularni o‘quvchilar ongiga yetkaza olish qobiliyatlariga qarab ikkita

asosiy turga ajratib ko'rsatadilar:

1. "O'quvchi ongini rivojlantirish"ga yo'naltirilganlik: ushbu toifadagi o'qituvchi jamiyat tomonidan belgilangan ijtimoiy-axloqiy omillarga tayangan holda,avvalo, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga intiladi.
2. "Ta'lim jarayonida biror natijaga erishish"ga yo'naltirilganlik: Ushbu toifadagi o'qituvchi o'quvchining faqatgina aqliy rivojlanishidan manfaatdor. O'zlashtirilgan o'quv materialini qat'iy tekshirib boradi. Bunday yo'naltirilganlikda o'qituvchi jamiyatning faqatgina ta'lim sohasiga nisbatan munosabatlarini bajarish bilan bog'liq faoliyatni olib boradi. Jamiyat ta'lim tizimidagi faoliyatlardan qoniqmagan taqdirda, ushbu turdagi o'qituvchilar mehnati ustunlik qiladi va samarali deb tan olinadi.

V.I.Zagvyazinskiy va V.A.Yadov insonning umumbashariy qadriyatlarga yo'naltirilganligini jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyatiga asoslangan qadriyatlariga shaxsning ko'nikishi (yoki moslashuvi) deb ta'rif beradilar.

Qadriyatlar subyekt tomonidan idealga aylanishi mumkin. Bu holda ushbu qadriyat – inson hayotiy pozitsiyasining o'rnatilishiga ta'sir qilishga qodir hamda muhim ahamiyatga ega bo'lgan maqsadli qadriyatlarga aylanadi. Ma'lum bir maqsadga yo'naltirilmagan qadriyatlar shaxs faoliyatini boshqaruvchi vazifasini bajarishi mumkin, bunda u individ ongida "o'z maqsadlariga erishish uchun bo'ysunishga to'g'ri keladigan" vositali qadriyatlar sifatida namoyon bo'ladi. Ma'lum bir maqsadga asoslangan qadriyatlar qarama–qarshi yo'nalishlarga ega bo'lsa, ziddiyatlarga duch kelishi mumkin. Maqsadli qadriyatlar vositali qadriyatlarga nisbatan turg'unroq, biroq vositali qadriyatlarga individuallashtirish ko'proq seziladi.

M.Rokich inson qadriyatlari tushunchasiga ikki xil ta'rif bergan: u qadriyat deganda insonning o'z maqsadini boshqa maqsadlar bilan solishtirganida ustunligiga ishonchi va undan faxrlana olishi, yoki individ xulqining boshqalar xulqi bilan solishtirganda ustunligiga ishonchini tushunadi. Shundan kelib chiqib, u insoniy qadriyatlarning ikkita turini ajratadi: maqsadli qadriyatlar va vositali qadriyatlar. Birinchisini ideal qadriyatlar, ikkinchisini esa instrumental qadriyatlar deb ataydi.

Ideal qadriyatlarda individ uchun ma'lum bo'lgan hayotiy qadriyatlarning ustuvorligi aks etadi.

Instrumental qadriyatlarda esa – tegishli ideal qadriyatlarning amalga oshirilishiga olib keladigan ma'lum xulq turlarining ustuvorligi aks etadi. Hozirgi kunda tadqiqotchi M.Rokich tomonidan taklif etilgan qadriyatlarni tashxis qilish metodikasi keng tarqalgan.

Ko'pchilik olimlar ideal qadriyatlarni o'qituvchi pedagogik faoliyatining mazmuni deb, ularni pedagogik qadriyatlar deb hisoblaydilar va ular qatorida ko'pincha quyidagilarini e'tirof etadilar: xususiy nufuz, yuqori moddiy ahvol, kreativlik, faol ijtimoiy aloqalar, o'z–o'zini rivojlantirish, muvaffaqiyatlar, ma'naviy qoniqish, o'z individualligini saqlab qolish.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining pedagogik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etuvchi umumbashariy qadriyatlar o'qituvchining qizg'in mehnati evaziga shakllanib boradi va quyidagi muammolar o'qituvchi uchun bugungi kunda ham eng muhim

ahamiyatga ega:

- o‘qituvchi mehnatida jamiyatga xos umumbashariy qadriyatlarni o‘z maqsadlarining asosi deb bilishi;
- o‘qituvchi mehnatida maqsadli qadriyatlarni samarali uzatish istagining mavjudligi va imkoniyatlari;
- o‘quvchilar maqsadli qadriyatlarni qabul qilishi uchun o‘qituvchi tomonidan zarur shart-sharoitlarning yaratilishi.

Bunday yo‘naltirilganlik mazmunida jamiyatning ta’lim sohasida olib borayotgan islohotlari mazmuni va mohiyati ifodalangan. Shuning uchun o‘qituvchi mehnatining mohiyatida uning ma’naviy saviyasini ko‘rsatadigan intellektual ong, yuksak ma’naviyat, asriy an’analarga va umumbashariy qadriyatlarga tayanadigan, zamonning ilg‘or yutuqlaridan oziqlanadigan milliy dunyoqarash va e’tiqod kabi mezonlar mavjud bo‘lishi kerak.

15.4. O‘QITUVCHILAR MEHNATINI TO‘G‘RI TASHKIL ETISHDA KASBIY PORTFOLIONING AHAMIYATI

Har bir ta’lim muassasasida pedagog shaxsi asosiy o‘rinni egallaydi. U o‘z mehnat faoliyatini tashkil qilishda o‘quv, ilmiy hamda madaniy-ma’rifiy tadbirlarni to‘g‘ri rejalashtirishi, kasbiy pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borishda o‘zgarib boruvchi zamonaviy talablarga tezkor ravishda moslashib borishi lozim.

Zamonaviy ta’lim muassasalari ta’limning milliy modeliga o‘tishida ijodiy fikrlovchi, ta’limning zamonaviy metod va texnologiyalarini, pedagogik-psixologik diagnostika usullarini, aniq amaliy faoliyat asosida pedagogik jarayonni mustaqil loyihalash usullarini qo‘llay oladigan yangi toifadagi o‘qituvchilarni talab etadi.

Ma’lumki, mutaxassis kadrlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi ko‘p hollarda uning ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish qobiliyati, o‘zgaruvchan mehnat sharoitiga moslasha olishiga bog‘liq. Ushbu holatlarni e’tiborga olishda o‘qituvchi portfoliosi texnologiyasidan unumli foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Bu an’ana qayerdan paydo bo‘ldi? Hayotiy zaruriyatmi?

“Portfolio” tushunchasi XV-XVI asrlarda G‘arbiy Yevropadan kirib kelgan bo‘lib, uyg‘onish davrida arxitektorlar o‘z buyurtmachilariga qurilish loyihalarini tayyor va homaki variantlarini “portfolio” deb nomlangan alohida papkada taqdim etishgan. Ushbu papkada taqdim etilgan hujjatlar talabgorda qurilish loyihasining kasbiy sifatlari haqida taassurot hosil qilgan.

Hozirgi vaqtda esa biznes olamida portfolio firmaning yutuqlarini ko'rsatish, fotosuratchi va fotomodellar sohasida esa – suratlar albomi sifatida ishlatiladi.

Portfolioni ta'lim sohasida qo'llash g'oyasi, 80-yillarning o'rtalarida AQShda paydo bo'ldi. AQSh va Kanadadan so'ng, portfolio g'oyasi Yevropa va Yaponiyada ommalashdi, XXI asrning boshlarida esa bu g'oya Rossiyada keng tarqaldi va hozirgi kunda bu g'oya O'zbekistonda ham keng yoyilmoqda.

Portfolio (ingl. portfolio – portfel, zarur ishlar va hujjatlar uchun papka) – bu hujjatlar, ish namunalari, fotosuratlar, taqdim etilayotgan imkoniyatlarni tasavvur eta olish imkoniyatini beruvchi materiallar, mutaxassis xizmatlari to'plami. Bu internet orqali ish qidirishning eng qulay usuli. Portfolio buyurtmachiga o'z mijozi bilan ko'rishmasdan, muloqot qilmasdan turib u haqida, uning kasbi va tajribasi haqida aniq va to'liq ma'lumot olish imkoniyatini beradi.

Hozirgi kunda ta'lim sifatiga bo'lgan talab kundan kun oshib bormoqda. Ikkinchi tomondan esa portfolio ta'lim muassasalari rahbariyati uchun o'qituvchilarning ish faoliyati unumdorligini monitoringini olib borish va yana ham muhim tomoni o'qituvchilarni o'z-o'zini kuzatish va o'z ustida ishlashi uchun muhim hisoblanadi.

O'qituvchi portfoliosi nima? Turli zamonaviy lug'atlardagi ma'lumotlarga ko'ra shuni aytish mumkinki, portfolio – bu o'qituvchining aniq faktlar asosida yozilgan pedagogik sifati va yutuqlari hisoblanadi. Bu o'z ichiga hujjatlar to'plamini, kasbiy mahoratini, ta'lim muammolarini hal etish yo'llarini va boshqalarni qamrab oladi

O'qituvchi portfoliosi – bu jalb etish usullari, materiallarni to'plash, o'qituvchining professionallik darajasini namoyish etish, o'z kasbiy faoliyatidagi masalalarni yecha olish mahorati. O'qituvchi portfoliosi pedagogning tayyorgarlik darajasi hamda o'quv va darsdan tashqari faoliyatidagi faollik darajasini ko'rsatadi.

Shu bilan birga o'qituvchi portfoliosida pedagogik-psixologik diagnostika natijalari, talabalarni mutaxassisligi bo'yicha nazorat qilish testlari qamrab olinadi. Bundan tashqari portfolio o'qituvchining individual yutuqlari, turli loyihalarda qatnashganliklari, talabalarining fan olimpiadalari, tanlovlar, musobaqalarda g'olib bo'lganliklari qayd etib boriladi

"The Teaching Portfolio" kitobi muallifi Piter Zeldin fikriga ko'ra, o'qituvchi portfoliosi, kasb mahoratini shakllantirishdagi navbatdagi bosqichdir – o'z vaqtida portfolio dizayner, fotosuratchi va arxitektorlarning muvaffaqiyatlarini o'zida aks ettiradi.

Portfolio – o'qituvchining professional faoliyatida egallagan turli masalalarni hal eta olish malakalarini ko'rsatuvchi, shuningdek, o'qituvchining profesionallik darajasini baholashga qaratilgan materiallar to'plamidir.

Portfolio – turli faoliyat yo'nalishlari bo'yicha biror vaqt oralig'ida erishilgan kasbiy yutuqlar aks ettirilgan va baho beriladigan individual papkadir.

Portfolio – shu portfolio egasining o'quv, ijodiy, ijtimoiy, muloqot kabi turli faoliyat yo'nalishlari bo'yicha erishgan yutuqlari bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Har bir inson individual, uning qiziqishlari, qobiliyatlari, dunyoqarashi turlicha, shuning uchun pedagog faoliyatini portfolioda akslanishi ta'lim sohasida juda ko'p imkoniyatlarni ochib berdi.

Portfoli mavzusi nafaqat mehnatni tashkil etish uchun balki, bilimlarni va yutuqlarni baholash tizimi uchun ham qo'shimcha tizim sifatida ishlatilishi mumkin.

Portfolioni yaratish va yurgazib borish bir qancha vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. O'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyati evolyusiyasini kuzatib borish.
2. Ish beruvchiga taqdim etish uchun o'quv materiallari va ishlanmalarni tizimlashtirish.
3. Tajribali jamoa yutuqlarini namoyish etish.
4. O'quv kursining u yoki bu turini tashkil etish usullarini taklif etish.
5. Ta'lim muassasalarining metodik sohasini kengaytirishda ishtirok etish.
6. Grant va tanlov dasturlarida qatnashish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchi portfoliosida shaxsiy pedagogik g'oyalar va ularni unumdorligini tasdiqlovchi asosli vositalar kiritilishi lozim. Pedagog portfoliosida tartibsiz ma'lumotlar va qachondir ishlab chiqilgan testlar, dars materiallari, kurs materiallari bo'lishi aslo mumkin emas.

O'qituvchi portfoliosini favqulodda bunday ko'rinishi uning obro'siga putur yetkazadi. AQShda portfolio g'oyasi – o'qituvchi tashrif kartochkasi sifatida yuritiladi.

Kasbiy portfolioni yaratish – tadqiqotchilarga faoliyatining ixtiyoriy sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun kalit hisoblanadi.

Kasbiy portfolioni yaratish – turli faoliyat sohalarida yutuqqa erishish uchun tadqiqotchi bosib o'tishi zarur bo'lgan eng muhim qadamlardan biridir. Rezyume, tavsiyanoma, sertifikat va boshqalar bilan bir qatorda portfolio ish beruvchi oldida xodimning imidjini shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

PORTFOLIONI YARATISHDAN MAQSAD

Har bir o'qituvchining mehnat faoliyatida qiziqarli, arzigulik "kasbiy yutuqlari" bo'ladi. Bunday yutuqlar uning saytida yoki portfoliosida joylashishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Oddiy so'z bilan aytganda o'qituvchi "xotira daftari"ning zamonaviy elektron ko'rinishi.

Portfolioning asosiy jihati – o'qituvchining kasbiy kompetentligini baholash uchun amaliy faoliyatdagi natijalarini (bajargan loyihalari, olimpiada va tanlovlarda qatnashganligi, olib borgan izlanishlari kabilarni) namoyish etish. Portfolio o'qituvchiga o'z ishlari natijalarini tahlil etish, umumlashtirish, tizimlashtirish, o'z imkoniyatlarini obyektiv baholash va qiyinchiliklarni bartaraf etishni rejalashtirish va yuqori natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

O'QITUVCHI PORTFOLIOSI FUNKSIYASI

TO'PLANGAN IJOBIY YUTUQLAR	MODEL ASOSIDA ERISHGAN NATIJALAR
• o'qituvchi yutuqlari (faxriy yorliqlar, diplomlar, guvohnomalar, sertifikatlar va h.); • ishchi materiallar to'plami (ochiq dars ishlanmalari, tayanch materiallar, testlar, amaliy va laboratoriya ishlari va h.).	• o'qituvchining rivojlanish dinamikasini akslantiradi; • mustaqil izlanish natijalarini ko'rsatadi; • o'qitish stilini namoyish etadi; • refleksiyani yuzaga keltirishga yordam beradi; • faoliyatni rejalashtirishga yordam beradi.

48-chizma. O'qituvchi portfoliosining funksiyalari

Portfolio pedagogik faoliyatning turli xil ko'rinishlarida (o'quv, tarbiyaviy, ijodiy, metodik, tadqiqot) o'qituvchi erishgan yutuqlarini yuzaga chiqarish imkoniyatini beradi.

O'qituvchi portfoliosining ikkinchi muhim jihati – bu pedagog faoliyatning natijalari va kasbiy professionalligini baholashning alternativ shakli ekanligidadir.

O'QITUVCHI PORTFOLIOSINING AMALIY AHAMIYATI

O'QITUVCHI UCHUN	BOSHQARUVCHI UCHUN
• kasbiy mahoratini (sifatini) oshirish; • faoliyat natijalari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish; • attestatsiya uchun poydevor; • tanlov va grant dasturlarida ishtirok etish uchun zamin; • ishlanmalarni tizimlashtirish orqali o'rov natijalarini taqdim etish.	• attestatsiyadan o'tkazish; • ta'lim muassasasining metodik sohasini kengaytirish; • taqdirlash va mukofot berish uchun nomzodlarni tanlab olish; • o'qituvchi faoliyati monitoringini olib borish; • o'qituvchi yutuqlarini baholashning obyektivligi; • baholashning son va sifat integratsiyasi.

49-chizma. O'qituvchi portfoliosining amaliy ahamiyati

O'qituvchi portfoliosining shakli. Zamonaviy o'qituvchining faoliyat sohasi juda keng bo'lishi mumkin, barcha o'quv natijalarini va barcha darsdan tashqari faoliyat natijalarini bir joyda, bitta hujjatda jamlash mumkin emas. Bunday hollarda o'qituvchining barcha ishlari to'plamini birlashtirish va uning faoliyatini to'liq kartina ko'rinishida aks ettirish uchun elektron portfoliosini yaratish zarur.

Elektron portfolio ko'rgazmaliligi, qulayligi, materiallarning aniq tuzilishiga egaligi bilan bir qatorda yana bir qancha o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklariga ega:

- zamonaviyligi;
- tezkorligi (kerakli o'zgarishni tezda kiritish imkoniyati);
- funksionalligi (katta sondagi ekspertlarga, hamkasb-mutaxassislarga, qiziquvchilarga o'z tajribasini namoyish etish ikmoniyati), hamda o'z muvaffaqiyatlarini qayd etib borish, bir vaqtning o'zida doimiy ravishda to'ldirib borish mumkin bo'lgan raqamli ta'lim resurslarining tizimlashtirilgan mediatekasini yaratish;
- effektivligi (o'qituvchini o'z-o'zini baholashini oshirish, boshqaruvchi hamda talabalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish).

Ko'pgina mualliflar o'qituvchining elektron portfoliosi sifatida kompyuterda shakllantirilgan qandaydir hujjatlar to'plamini keltiradi. Bunday usuldan foydalanish mumkin, biroq bu eskirgan usul.

Portfolioning taqdimot shakli ma'lumotlarni ko'rgazmali tarzda namoyish etishni amalga oshirsa, sayt-portfolio shakli esa ko'proq ma'lumot olish va izlash imkoniyatini beradi.

Oxirgi yillarda internet juda keng miqyosda yoyildi va hozirgi kunda uning auditoriyasi juda katta, portfolioning sayt-portfolio shaklida internetda joylashtirilmaganligi portfolio yaratilmagan deb hisoblaydi. Yuzlab odamlar portfolioni ko'ra olmaydi, uning xizmatlarini baholay, izohlay olmaydi, oldingi pedagogik g'oyalar bajarilmaydi. Kompyuterda papkada yotgan portfolio jamiyatga hech qanday qiymatga ega emas. Shuning uchun portfolioni tarmoqda sayt-portfolio sifatida joylashtirilishi maqsadga muvofiq!

O'qituvchining sayt-portfoliosi – bu veb-bazali resurs, ishtirokchining kasbiy yutuqlari va individualligini aks ettiruvchi saytdir.

O'qituvchining sayt-portfoliosi ta'lim muasasasi saytining qismi bo'lishi yoki alohida mustaqil resurs bo'lishi ham mumkin. Bu va boshqa hollarda ham elektron portfolio o'qituvchi tajribasini yoyish uchun xizmat qiladi.

Bir qancha mualliflar o'z maqolalarida elektron portfolioni bir nechta variantlarini keltirishgan:

Yutuqlar portfoliosi – ushbu portfolioda ahamiyat faoliyatdagi yutuqlarni tasdiqlovchi xujjatlarga qaratiladi.

Taqdimot portfoliosi – o'qituvchining eng yaxshi ishlari to'plami. Ushbu portfolio

yangi ishga kirayotganda, suhbatdan o'tish uchun yoki turli tanlovlarda qatnashish uchun kerak bo'ladi.

Hisobot ko'rinishidagi portfolio – biror-bir loyiha ishini tugatayotgan vaqtda bajarilgan ishlar va erishilgan yutuqlar haqida ma'lumot beruvchi portfolio.

Majmuaviy portfolio – yuqorida ko'rsatilgan portfolio ko'rinishlarini qamrab oladi va o'qituvchi portfoliosini namoyish etishda kerak bo'ladi.

Professor-o'qituvchi kasbiy portfoliosining tarkibi, ya'ni strukturasi qanday bo'lishi kerak? Kasbiy portfolioning umumiy qabul qilingan modeli bormi? Yo'q. O'qituvchi kasbiy portfoliosi judayam individual. Bundan tashqari kasbiy portfolioni shakllantirishda eng katta rolni portfolio yaratilayotgan doiradagi o'quv sohasining o'ziga xos xususiyatlari o'ynaydi.

Professor-o'qituvchilar kasbiy portfoliosining tarkibi quyidagilardan iborat:

1. Professor-o'qituvchi haqida umumiy ma'lumot.
2. Ilmiy-metodik faoliyat.
3. Pedagogik faoliyat.
4. Ustoz-shogird faoliyati.
5. O'quv materiallar bazasi.
6. Darsdan tashqari faoliyat.
7. Tavsifnomalar.

50-chizma.

Muhimi, o'qituvchi o'z ishini, yutuqlarini tahlil qilib borishi, pedagogik muvaffaqiyatlarini tizimlashtirishi va umumlashtirishi, o'z imkoniyatlarini obyektiv baholashi, qiyinchiliklarni bartaraf etish usullarini ko'ra bilishi va bundanda yuqori natijalarga erishishi lozim.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. O'qituvchi mehnati Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan qanday ta'riflangan?
2. O'qituvchi mehnatida pedagogik mahoratning asosiy komponentlari nimalardan iborat?
3. O'qituvchi o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil etishi uchun nimalarni bilishi shart?
4. O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan tashkil etish vositalariga ta'rif bering.
5. Yosh o'qituvchilar mehnatini tashkil etishda qanday boshlang'ich yo'nalishlarni bilishi kerak?
6. O'qituvchi mehnatini to'g'ri tashkil etishda uning "Kun tartibi" qanday ahamiyatga ega?
7. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish qanday tamoyillarasosida takomillashtiriladi?
8. O'qituvchi qanday umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilishi lozim?
9. O'qituvchining obyektiv shaxsiy xususiyatlari qanday omillarni o'zida mujassamlashtiradi?
10. O'qituvchi mehnatida iqtidor va qobiliyatning o'rni nimalardan iborat?
11. O'qituvchi mehnatida aktyorlik san'atiga xos bo'lgan xususiyatlari izohlab bering.
12. O'qituvchi o'z mehnati faoliyatida kasbiy turg'unlikning ta'siri haqida o'z fikringizni bildiring.
13. O'qituvchi mehnatida umumbashariy qadriyatlarning ahamiyati nimalardan iborat?
14. O'qituvchining sayt-portfoliosi haqida nimalarni bilasiz?
15. O'qituvchi kasbiy portfoliosini yaratishdan maqsad nima?
16. Portfolioning amaliy ahamiyati va funksiyalari haqida fikringizni bildiring.
17. O'qituvchi pedagogik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etuvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimini belgilang.
18. Pedagog olimlar tomonidan e'tirof etilgan pedagogik qadriyatlarga o'z munosabatingizni bildiring.

TALABALARNING MUSTAQIL TAYYORGARLIKLARI UCHUN TOPSHIRIQLAR

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o'z fikr-mulohazalaringizni bildirib, "Mustaqil ish" yozing:

1. Hozirgi zamon o'qituvchisi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish muammolari.
2. O'qituvchi mehnati unumdorligini oshirishda umumbashariy qadriyatlarning ahamiyati".
3. O'qituvchi portfoliosining hozirgi kundagi amaliy ahamiyati.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4312785.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent shahri, 2024-yil 1-fevral № O‘RQ – 901.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4623-son Qarori – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2020, 27-28-bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-134-son Farmoni. https://lex.uz/docs/6008663.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent. – O‘zbekiston, 2017.– 488 b.
8. Beruniy Abu Rayhon. O‘ylar, hikmatlar, naqllar, she’rlar. – T.: Fan, 1996.- 44 b.
9. Загвязинский В.И. Педагогическое творчество учителя. Библиотека учителя и воспитателя. – М.: Педагогика, 1987.– 160 с.
10. Коджаспирова Г.М. Теория и практика профессионального педагогического самообразования.- М.: МГОПИ, Альфа, 1993.– 120с.
11. Кузьмина Н.В. Способности, одаренность, талант учителя. Л.: Знание, 1985.– 32 с.
12. Кухарев Н.В. На пути к профессиональному совершенству: Книга для учителя.– М.: Просвещение, 1990.– 159 с.
13. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 192 b.
14. Ochilov M. Muallim qalb me’mori: Saylanma. – T.: O‘qituvchi, 2000.
15. Раченко И.П. Диагностика развития педагогического творчества учителя. – Пятигорск, 1992.– 196 с.
16. Симонов В.П. Диагностика личности и профессионального мастерства преподавателя: Учебное пособие для студентов педвузов, учителей и слушателей ФПК.- М.: Межд. пед. академия, 1995.– 192 с.
17. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Под ред. В.А.Сластенина. 2 ч.– М.: Гуманит. изд. центр. ВЛАДОС, 2003.– 256 с.
18. Sodiqova T. Murabbiy kim?... – T.: Toshkent islom universiteti, 2006. – 83 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentabrdagi "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"gi PQ – 3289 sonli Qarori. - //"Xalq so'zi" gazetasi, T.: 2017-yil, 27-sentabr, № 194 (6888).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-sentabrdagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5099-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3775-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4312785.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Rrespublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" RF-5850-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida" gi O'RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4963-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-5841063.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" RF-134-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-79-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent shahri, 2024 yil 1 fevral № O'RQ – 901.
14. Mirziyoyev SH.M. Oliy Majlisga Murojaatnoma – 2020-yil, 17-yanvar.

45.	O‘qituvchining kasbiy faoliyatidagi qiyinchiliklarni samarali hal qilishining asosi pedagogik mahorat natijasida muvaffaqiyatlarga erishishiga bog‘liq. Biroq, bizning fikrimizcha, o‘qituvchi pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishishi unda refleksiyaning mukammal rivojlanganlik darajasini belgilamaydi, aksincha ta’lim-tarbiyada o‘qituvchining muvaffaqiyatga erishishi, o‘z faoliyati natijalaridan qoniqishi, o‘qituvchining shakllangan kasbiy pedagogik refleksiyasiga bog‘liq.	Метаева В.А. 2003 г. “Рефлексия и её роль в преодолении профессиональных затруднений педагога”: С. 107
46.	Pedagogik mahorat – o‘qituvchi pedagogik faoliyatining yanada faolligi va motivatsiyasining yorqin ko‘rinishidir.	О.А.Шиян, 1996 г. “Послеуниверситетский тренинг учителей в США: новые ориентиры” С. 104
47.	Pedagogik mahorat – o‘qituvchiga kasbiy vazifalarni sermahsul hal etishga imkon beradigan kasbiy qobiliyatlarni shakllantirishning yuqori darajasidir.	Н.Н.Янковская, 1997 г. “Кому доверим малышей” С. 37

2-ilova

Pedagogik faoliyatning samaradorligini ta'minlovchi asosiy qobiliyatlar tizimi:


- Konstruktiv qobiliyatlar o'quvchi shaxsini belgilangan maqsad sari rivojlantirishga qaratilgan qizg'in faoliyatda, o'quv materiallarini hamda tarbiyaviy vositalarni tanlash va tuzishda o'quvchining yosh va fiziologik, individual xususiyatlarini e'tiborga olishda o'z aksini topadi.
- Tashkilotchilik qobiliyati o'quvchilarni o'qituvchi tomonidan turli jamoat ishlariga, samarali faoliyat turlariga, to'garaklarga jalb qila olishida, sinf jamoasining har bir a'zosiga alohida tarbiyaviy ta'sir o'tkaza olishida namoyon bo'ladi.
- Kommunikativ qobiliyat o'qituvchining pedagogik jamoa va ota-onalar, o'quvchilar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarni xushmuomalalik, hamjihatlikka asoslab o'rnata olishida, barcha o'quvchilar jamoasi va alohida har bir o'quvchining o'ziga xos kayfiyatini, ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdard bo'lishida, muloqotga kirishishida o'qituvchining pok ko'ngilliligi, muomala madaniyatining shakllanganligida namoyon bo'ladi. Kommunikativ qobiliyat pedagogik munosabatda o'qituvchining muvaffaqiyatlarga erishishini ta'minlaydi:
- o'quvchilar bilan bo'lajak munosabatni modellashtira oladi;
- munosabatda bo'ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan biladi;
- bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o'rnatishi;
- munosabatda ustunlikka ega bo'lib, uni demokratik talablar asosida oqilona boshqaradi;
- munosabatning ijobiy va salbiy jihatlarini uzluksiz tahlil etib boradi.
- Kuzatuvchanlik qobiliyati – o'qituvchining murakkab sifatlaridan biridir. U faqatgina ko'rish yoki eshitish, ta'lim berish va tarbiyalash bilan cheklanib qolmaydi, balki diqqat markazida turgan obyektga bo'lgan qiziqishini, kuzatuvi jarayonida olinayotgan axborotlarni parallel tarzda aqlan qayta mukammal ishlashni taqozo qiladi.
- Tahlil qila olish qobiliyati – N.V.Kuzmina tomonidan o'qituvchining pedagogik faoliyati uchun zarur bo'lgan bilish va o'rganish malakalari ichidan uning afzalliklarini va nuqsonlarini ongli ravishda bilib tuzatish yoki takomillashtirish maqsadida ajratib ko'rsatilgan

- Perseptiv qobiliyat tashqi olamni va muhitni sezish, idrok etish, ya'ni kuzatuvchanlik muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchi o'quvchining psixologiyasini, psixik holatini o'ziga singdirib idrok etadi, sinf jamoasining holatiga pedagogik vaziyatiga odilona baho beradi.
- Empatik qobiliyat bolalarga bo'lgan muxabbatdan kelib chiqadigan o'quvchilarning his-tuyg'usini, psixologik holatlarini qalbdan his etish, tushunish, idrok etish, ularga achinish xususiyatlaridir.
- Ta'lim jarayonini muqobillashtirish qobiliyati: o'qituvchi o'z bilimini o'quvchi ongi va tafakkuriga kam kuch sarflash evaziga yetkaza olishi, ta'lim va tarbiyada belgilangan muddatda maqsadga erishish qobiliyatidir.
- Didaktik qobiliyat: o'quvchilar bilan muloqot qilishda, pedagogikaning ta'lim va tarbiyaviy qonuniyatlarini hamda metodlarini chuqur o'zlashtirgan holda samarali dars berish qobiliyatidir. Shuningdek, dars pedagogik texnologiyalar asosida jahon andozalariga, hozirgi zamon talablariga javob berishi kerak.
- Tashkilotchilik qobiliyati: pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir. U sinf o'quvchilarining o'qituvchi tomonidan turli jamoat ishlariga, to'garaklarga jalb qila olishida, sinf jamoasining har bir o'quvchiga faol vaziyatni ta'minlab berishida namoyon bo'ladi.
- Konstruktiv qobiliyat: o'qituvchining o'quv–tarbiyaviy faoliyatni puxta rejalashtirishi asosida yuzaga keladigan kasbiy pedagogik vaziyat bosqichlarini oldindan ko'ra olishi.
- Bilish qobiliyati: o'qituvchining o'z fanini va boshqa fanlarni chuqur bilishida, o'zlashtirishi va amaliyotda namoyon etishi.
- Anglash (tushunish) qobiliyati: o'qituvchining ziyrakligi va uddaburonligi, voqea va hodisalarni chuqur idrok etib, ularga adolatli munosabatda bo'lishi.
- Refleksiv qobiliyat deganda subyekt tomonidan o'z faolligining turli ko'rinishlari va sohalariga nisbatan refleksiyani amalga oshirish qobiliyati tushuniladi. Boshqacha aytganda, bu istalgan jarayon va funksional strukturaga refleksivlik xususiyatini berish qobiliyatidir.

O'qituvchining kasbiy faoliyatida yuksak samaradorlikni ta'minlovchi ushbu asosiy *qobiliyatlar galareyasiga* ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchilar o'zlari egallagan kasbiy *yo'nalishlari bo'yicha muayyan* faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadilar, hech *qiyinchiliklarsiz yuksk natijalarga* erishadilar.

3-ilova

O'qituvchining intellektual xususiyatlariga tavsif



Bo'lajak o'qituvchilar o'zidagi intellektual layoqat nishonalarini doimiy ravishda rivojlantirib borishi kerak, bu esa faqat tinimsiz izlanish, ko'nikma va malakalar, shijoatli kasbiy faoliyat jarayonida amalga oshirilishi mumkin.

4-ilova

O'qituvchining pedagogik nazokatiga tavsif

PEDAGOGIK NAZOKATNING UZLUKSIZLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR:

- pedagogik nazokat o'qituvchining butun pedagogik faoliyatida sayqallanib takomillashib boruvchi jarayon
- pedagogik nazokat odatda tugallangan shaklga ega bo'lmay, insoniy fazilatlar evaziga uzluksiz boyib boradi
- o'qituvchi pedagogik nazokatning tarkibiy qismlarini ijtimoiy muhitga va odamlarning yashash tarziga, urf-odatiga qarab o'zgartiradi
- o'qituvchi pedagogik nazokatning nozik qirralarini chuqur egallashga doimo intilishi talab etiladi
- pedagogik nazokatni o'qituvchi har bir o'quvchi bilan o'zaro munosabatda o'zi uchun eng qulay shaklga keltirib, ma'lum bir muvozanatda saqlaydi
- o'z kasbini sidqidildan sevishi, halolligi, rostgo'yligi, axloqiy pokligi, odamiyligi, kamtarligi, samimiy muomalasi pedagogik nazokatning zarur talablaridir
- pedagogik nazokat asosida o'qituvchining mehribonligida tarbiyada talabchanlik va qattiqqo'llik hislatlari mujassamlashgan bo'ladi
- pedagogik nazokat asosida o'qituvchi pedagogik odob va axloq normalarini o'zining dunyoqarashi va axloqiy tajribasi bilan boyitib boradi

Pedagogik nazokat – o'qituvchi axloqiy-ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi me'yor tuyg'usi hamda xulq va odob qoidalariga rioya qilishi demakdir. Pedagogik nazokat o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro munosabatini tashkil qilish vositasi. Psixologik til bilan aytilganda, nazokat insonning bir qolipdagi barqaror tasavvurlarida mujassamlashgan shaxsiy insoniy hislatlarining yig'indisidir.

5-ilova

Yosh o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik dilkashligini o'rganish dasturi

I

1. O'zingizda kishilar bilan muloqotga ehtiyoj sezasizmi?
2. Yolg'iz o'zingiz qolganingizda zerikasizmi, odamlar orasida bo'lishni istaysizmi, yoki aksincha, yolg'iz qolishdan qoniqish hosil qilasizmi?
7. Ko'chada tanishingizni ko'rib qolsangiz, u bilan gaplashish istagi paydo bo'ladimi, yoki ehtimoliy suhbatdan qochishni istaysizmi?
8. Tanish do'stlaringiz ko'pmi?
9. Nima deb o'ylaysiz, tanishlaringiz siz bilan muloqotdan zavq olishadilarmi?
10. Zaruriyat yuzasidan notanish kishilar bilan oson muloqotga kirisha olasizmi?
11. Telefonda uzoq gaplashasizmi (do'stlaringiz, tanishlaringiz, hamkasblaringizga qaraganda)?
12. Sizda ba'zan shunday holat bo'ladimi: masalan, jamoa bilan doimiy muloqot qilishdan charchagansiz, yolg'iz o'zingiz qolishni istaysiz, ammo bir necha soniya vaqt o'tmasdan, siz yana kishilar va do'stlaringiz bilan muloqot qilishga ehtiyoj his qilasizmi?
13. Ba'zan tanishlaringiz haqida o'ylaganingizda ular bilan gaplashish istagi paydo bo'ladimi va suhbatning lozim bo'lgan mavzusi ham topiladimi?

II

1. O'quvchilar bilan muloqotga kirishish istagida doimiy ehtiyojni his qilasizmi?
2. Ishdan bo'sh vaqtlaringizda bolalar va o'quvchilaringiz haqida o'ylaysizmi?
3. Sizda shunday holat bo'ladimi: masalan, o'qigan kitobingiz haqida yoki ijtimoiy hayotda ro'y bergan biror taassurotli hodisa haqida o'quvchilaringizga aytib berish, o'z mulohazalaringizni bildirish istagi paydo bo'ladi? Buholaringizni batafsilroq sharhlab bering.
4. Bolalar, sinf, ular bilan muloqot qilish haqida o'ylaganingizda sizda birdaniga o'qitish, tarbiyalash istagi paydo bo'ladimi?
5. O'quvchilarga ta'til berilgan paytlarda ular bilan muloqot qilish istagi sizda paydo bo'ladimi?
6. Sizning ishchanlik faoliyatingizga, o'quvchilar bilan bo'lajak muloqot jarayonini qanday tashkil etish va ular haqida o'ylashingiz ta'sir etadimi, nima deb o'ylaysiz?
7. O'quvchilar jamoasi bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar oldidan ta'lim

muassasasiga kelganingizda siz qanday taassurotni his etasiz? Batafsil tahlil qiling.


8. Ma'lumki, tanaffus payti – ta'lim muassasasi hayotida sershovqin payt. Bu vaqtda sizni qanday his-hayajon qamrab oladi: befarqlik, asabiylashish holati, charchoq va toliqish, o'quvchilarni kuzatish va ayrimlariga tanbeh berish istagi, bu ko'rinishdan qoniqish hissi?
9. Dars oldidan o'qituvchilar xonasidasiz: sinf jamoasi bilan bo'lajak muloqot haqida o'ylaysizmi, bu o'y va fikrlar ishchanlik kayfiyatingizga qanday ta'sir etadi?
10. Sinfga kirib kelishingiz, o'quvchilar bilan salomlashish, umuman darsning boshlanishi, ushbu vaziyatlar sizga qanday ta'sir etadi (tez harakat qilishga da'vat etadi, ishchanlik kayfiyatini uyg'otadi, tetiklantiradi, ko'ngillarga yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi, umuman ta'sir qilmaydi va hokazo.)?
11. Dars jarayonida o'zlashtirmovchi va intizomsiz o'quvchilarga nisbatan asabiylashish holatingizni oson bartaraf eta olasizmi?
12. Siz uchun o'quvchilar bilan dars jarayoni qiziqarlimi, yoki o'zingizni ko'proq betaraf his qilasizmi?
13. Sinf jamoasi bilan munosabatlar yo'lga qo'yilmasa, o'zingizni qanday his qilasiz: qayg'urasiz, munosabatni yaxshilashga urinasiz, befarqsiz, o'z aytganingizni majburlab bajartirasiz, o'quvchilar fikrini ham ma'qullaysiz?
14. Dars jarayoni yaxshi o'tganidan qoniqishni his qilasizmi? Bu sizning ishchanlik kayfiyatingizga ta'sir etadimi, o'quvchilar bilan muloqot qilish zaruriyatini keltirib chiqaradimi?
15. O'quvchilaringizni ko'chada, mahallada ko'rib qolgan paytlaringizda, ular bilan suhbatlashish istagi paydo bo'ladimi?
16. Transportda, ko'chada yurgan betaraf vaziyatlaringizda o'quvchini kuzatib, uning ruhiy holatini tushunish istagi paydo bo'ladimi?
17. Sinfda dars o'tish davomida siz uchun ma'lum bo'lgan holatni tahlil qiling: o'quvchilarni tushunishga intilish, ularning kayfiyatini va ruhiy kechinmalarini his qilish, sinf jamoasining kayfiyatidan qat'iy nazar belgilangan dars rejasini amalga oshirish.
18. Darsga tayyorlanayotgan paytingizda yangi mavzuni o'rganish bo'yicha turli pedagogik texnologiyalarni tanlash bilan bir qatorda, o'quvchilar bilan muloqotga kirishish variantlarini ham o'ylab olasizmi?
19. O'quvchidan jahlingiz chiqsa, sizning asabiylashgan holatingiz uzoq vaqt davom etadimi?
20. O'qituvchilik kasbingizni o'zgartira olarmidingiz? Agarda o'zgartirsangiz, qaysi kasbni tanlagan bo'lardingiz?

III

1. O‘quvchilar bilan odatiy, nisbatan barqaror pedagogik muloqot usullari sizda shakllanganmi yoki yo‘qmi: uni tahlil qiling?
2. Siz tanlagan muloqot usullari pedagogik faoliyatingizda sizga qanchalik yordam beradi deb o‘ylaysiz?
3. Siz o‘zlashtirgan muloqot usullari dars jarayonida paydo bo‘ladigan kutilmagan vaziyatlarda qanday ahamiyatga ega?
4. Siz odamlar bilan kundalik muloqot qilish va sinf jamoasiga dars o‘tish davomida o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqotni farqlay olasizmi? Agar farqlasangiz, bu farqlar nimalardan iborat?
5. Sinfdagi pedagogik muloqotingiz paytida odamlar bilan kundalik muloqotdan farqli nimalar paydo bo‘ladi?
6. Sinf jamoasi bilan pedagogik muloqot usullarini, ba’zan kishilar bilan odatiy kundalik muloqot qilish vaziyatiga ko‘chirgan holatlaringiz bo‘ladimi? Tahlil qiling.

Savolnomalar va o‘z-o‘zini kuzatish asosida, o‘zingiz uchun dilkashlik xususiyatlarini kasbiy fazilat sifatidagi ahamiyatini aniqlang, shunda siz o‘quvchilar bilan muloqot jarayonida pedagogik faoliyatingizdagi asosiy kamchiliklardan kelib chiqqan holda o‘zingiz uchun ***“Kommunikativ jihatdan o‘z-o‘zini tarbiyalashning individual-tipologik dasturi”****ni tuzishingiz mumkin. Ushbu dastur kasbiy fazilat sifatida o‘qituvchida dilkashlik va xushmuomalalikni rivojlantirish dasturi (o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish darajasi past bo‘lganida) bo‘la oladi hamda o‘quvchilar bilan muloqotda salbiy ko‘rinishlarni bartaraf etish (siqiqlik, tortinchoqlik, keskinlik va hokazo), kasbiy-kommunikativ ko‘nikma va malakalarni qisqa muddatda shakllantirishga zamin yaratadi.*

INSONLARNING MULOQOT DUNYOSI



7-ilova

O'qituvchining o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqot madaniyati individual uslublarini shakllantirish metodikasi.

MULOQOT MADANIYATI INDIVIDUAL USLUBLARINI SHAKLLANTIRISH USLUBLARI

1. **O'quvchilar bilan muloqot qilish madaniyatining individual shaxsiy xususiyatlarini o'rganishi:**

- o'quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish;
- o'quvchilar ichki imkoniyatlariga har tomonlama tavsif berish;
- o'qituvchining muloqot madaniyatini to'g'ri tashkil etishi.

2. **Shaxsiy muloqotda ro'y beradigan kamchiliklarni darhol bartaraf etishi:**

- kamchiliklarga barham berish choralarini darhol izlab topish;
- har qanday vaziyatda o'quvchilarga qo'pollik qilmaslik;
- o'quvchi shaxsini mensimaslik kabi salbiy holatlarni bartaraf etish.

3. **O'qituvchi o'zi uchun muloqot madaniyatining eng qulay bo'lgan uslublarini tanlab olishi:**

- pedagogik faoliyatiga monand muloqot madaniyati modelini ishlab chiqishi;
- o'z-o'zini kuzatish bilan muloqotdagi yutuq va kamchiliklarini muntazam taqqoslab borishi;
- muloqotda milliy ma'naviyatimiz, urf-odat va an'analarimiz imkoniyatlaridan doimiy foydalanish.

4. **Muloqot madaniyatida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik:**

- har bir o'quvchining individual xususiyatlariga mos muloqot tizimini ishlab chiqishi;
- muloqotning tarbiyaviy ta'sirini va samarasini e'tirof etish;
- muloqot madaniyati asosida pedagogik mahoratni namoyish etish.

ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA QO'LLAY OLISH BO'YICHA O'QITUVCHILAR PEDAGOGIK MAHORATNING QUYIDAGI KO'NIKMA VA MALAKALARIGA EGA BO'LISHLARI KERAK:

- axborotlarni saqlash, qayta ishlash, tarqatish va namoyish qilish tamoyillarini bilishi;
- ta'limda qo'llash mumkin bo'lgan texnik vositalar va ularning tavsiflarini bilishi;
- ta'lim jarayoni va ilmiy izlanishlarda Internetdan foydalanishi;
- ta'lim jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish metodologiyasini bilishi;
- dasturiy ta'minotning asosiy turlarini bilish va ulardan foydalanishi;
- fan sohasida ilmiy izlanishlarning dasturiy ta'minotidan foydalanishi;
- ta'lim jarayonida amaliy masalalarni yechishda axborot tarmoqlarini qo'llashi;
- masofaviy ta'lim elektron o'quv-metodik resurslaridan foydalanishi;
- multimediali hujjat va loyihalarni yaratishni bilishi;
- interaktiv interfeysning asosiy xossalari va vazifalarini tavsiflashi;
- turli darajadagi kompyuter tarmoqlarining imkoniyat va vazifalarini tavsiflashi;
- kompyuter tarmoqlari orqali olinadigan axborot xizmatlari turlarini tavsiflashi;
- elektron pochta ishining asosiy tamoyillarini tushunishi;
- gipermatn texnologiyasi asosini tushunishi;
- Internetning asosiy texnologik tamoyillarini tushunishi;
- HTML asoslarini bilishi;
- Web-sahifa va Web-saytlar yarata olishi;
- fanlarni o'qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishi;
- pedagogik dasturiy vositalardan foydalana olishi;
- zamonaviy dasturlash tillari haqida tushunchalarga ega bo'lishi;
- fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning maqsadi, mazmuni va vazifalarini bilishi;
- axborot texnologiyalarini o'qitishda joriy etishning didaktik tamoyillarini bilishi;

- axborot texnologiyalaridan darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishi va uning mazmunini yarata olishi;
- axborot texnologiyalaridan mustaqil ta'limni tashkil etishda foydalanishi;
- ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va ulardan dars jarayonida foydalanishi;
- o'z-o'zini takomillashtirish, rivojlantirish, nazorat qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash sohalarini bilishi;
- axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari va ularning didaktik imkoniyatlaridan foydalana olishi;
- internet ta'limiy resurslari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;
- axborot va kommunikatsiya texnologiyalari tuzilmasi va ta'minotini, texnik va dasturiy vositalarini egallashi;
- pedagogik dasturiy vositalarni va ularni yaratish tamoyillarini bilishi;
- pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini o'zlashtirishi;
- pedagogik dasturiy vositalarni tanlay olishi;
- pedagogik dasturiy vositalardan o'quv jarayonida samarali foydalana olishi.

Ushbu ilovada berilgan kurs yakunida o'qituvchilar zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llay olish bo'yicha pedagogik mahoratlarini oshiradilar, bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Asosiy maqsad o'qituvchilar kasbiy pedagogik mahoratlarini oshirish maqsadida masofaviy malaka oshirishlari nuqtayi nazaridan kelib chiqib, zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan. "Ta'limda axborot texnologiyalari" kursi mazmun va me'yor jihatidan mukammal ishlab chiqilgan bo'lib, o'qituvchilarning pedagogik mahoratlarini hozirgi zamon talablari asosida takomillashtiradi.

Shuningdek, kursning maqsadi – o'qituvchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari, kasbiy faoliyat va axborot jamiyati uchun zarur bo'lgan texnik vositalar va dasturiy ta'minot borasidagi bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi, zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida, shuningdek, kasbiy faoliyatlarida har qanday muammolarni yechishda qo'llashni o'rganadilar.

Pedagogik mahorat [Matn] : darslik / A.Xoliqov.-Toshkent: Bayoz, 2025.- 504 b.

ISBN 978-9910-8681-3-9
KBK 74.58ya73

UO'K: 378.091.12.(075.8)

A'zam Xoliqov

PEDAGOGIK MAHORAT

Muharrir — Behbud Botirov
Texnik muharrir — Shohruh Botirov
Dizayner — Bahodir To'xliyev
Sahifalovchi — Baxtiyor Kenjayev

Nashriyot litsenziyasi: AI №234, 11. 02. 2013.
Bosishga ruxsat etildi: 11. 04. 2025.
Ofset qog'ozi. Qog'oz bichimi: 70x90 1/16.
Arial garniturasi. Ofset bosma.
Hisob nashriyoti t.: 21. Shartli b. t.: 31.5.
Adadi 2000 nusxa. Buyurtma № 19.

"BAYOZ" nashriyotida nashrga tayyorlandi

"BAYOZ" MChJ matbaa korxonasida chop etildi.
Toshkent. Lutfkor 1-tor ko'chasi, 1-uy.